



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**IQTIDORLI TALABALAR ILMIY TADQIQOT
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BO'LIMI**

IQTIDORLI TALABALAR ILMIY XABARLARI

ILMIY-USLUBIY JURNALI



NAMANGAN - 2025

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B. Xusanov

Mas’ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor M. Qodirxonov

Mas’ul muharrir o‘rinbosari: Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i R. Tursunov

TAHRIR HAY’ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh. Abdullayev, f-m.f.d., dots. R. Hakimov, k.f.n., dots. M. Qodirxonov, b.f.d., dots. A. Batashov, f-m.f.n., dots. T. Abdullayev, PhD. A. Sobirxanov.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A. Umarov, PhD. Sh. Xudoyqulov, PhD. A. Abdunazarov.

Ijtimoiy gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T. Fayzullayev, tar.f.d, prof. A. Rasulov. f.f.d., prof. M. Ismoilov, t.f.n. dots. A. Isoqboyev, PhD., dots. J. Yuldashev, PhD. dots. A. Abdullayev, PhD, A. Qambarov, PhD. B. Ataxanov, PhD. S. Botirova, PhD. E. Gapparov.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. U. Inoyatov, p.f.d., prof. B. Xodjayev, p.f.d., prof. SH. Yusupova, p.f.d., prof. O‘. M. Asqarova, p.f.d., prof. M. Sobirova, PhD. M. To‘raboyeva, PhD. E. Tojiboyev, PhD. N. Suyarov.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N. Uluqov, fil.f.d., prof. H. Usmanova, p.f.n., dots. S. Misirov, PhD., dots. E. Abduvoxidov, PhD. R. Tillayeva.

Texnik muharrir: D. Maxkamov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136,

Faks: (0369) 227-27-21,

E-mail: Info@namspi.uz

“Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlar” ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025-yildagi 11-martdagi 3-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 3). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI – 2025

TURLI XIL GEOMETRIK SHAKLLAR UCHUN ARXIMED KUCHINING FORMULASINI ISBOTLASH

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti katta o'qituvchisi, PhD.

Turopov Mirjalol Baxtiyorovich

O'zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli xil geometrik shakllar uchun Arximed kuchining isboti keltirilgan. Suvga botirilgan jismlarga ta'sir qiluvchi suyuqlikning ko'tarish kuchi Arximed qonuni asosida izohlanadi. Ishda turli shakllarga ega jismlarga qo'llaniladigan formulalar keltirilib, ularning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Natijalar fizik qonuniyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi va gidrostatika sohasida qo'llanilishi mumkin.

Аннотация: В данной статье представлено доказательство силы Архимеда для различных геометрических фигур. Подъемная сила жидкости, действующая на погруженные в нее тела, объясняется на основе закона Архимеда. В работе приведены формулы, применимые к телам различной формы, и проводится анализ их теоретических и практических аспектов. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию физических законов и могут быть использованы в области гидростатики.

Abstract: This article presents the proof of Archimedes' force for various geometric shapes. The buoyant force exerted by a fluid on submerged objects is explained based on Archimedes' principle. The study provides formulas applicable to objects of different shapes and analyzes their theoretical and practical aspects. The results help deepen


the understanding of physical laws and can be applied in the field of hydrostatics.

Kalit soʻzlar: Arximed kuchi, suyuqlik bosimi, gidrostatika, koʻtarish kuchi, geometrik shakllar, Arximed qonuni, suyuqlikning zichligi, jism hajmi, suzish sharti

Ключевые слова: Сила Архимеда, давление жидкости, гидростатика, выталкивающая сила, геометрические фигуры, закон Архимеда, плотность жидкости, объем тела, условие плавания


Key words: Archimedes' force, fluid pressure, hydrostatics, buoyant force, geometric shapes, Archimedes' principle, fluid density, object volume, floating condition

Kirish



Piramidaning ushbu vaziyatida suvning gidrostatik bosimi natijasida yuzaga keladigan kuchlarning OX oʻqida natijalovchi qiymati nolga teng boʻladi, OX oʻqida chunki kuchlar simmetrik ravishda mavjud. Natijada faqat OY oʻqidagi vaziyatlarga qaraymiz. Piramidaning yuqori qismida OY oʻqiga tik yuzani aniq ayta olmaymiz va $dS = 4x dx$ yuzani ajratib olamiz.

Dastlab jismning yuqori va pastgi sirtlarida yuzaga kelgan bosimlarni topib olamiz. Uchburchak o'xshashligidan



$$P_1 = \rho g(H + (h - y)) = \rho g(H + \frac{2h}{a}x) \quad (1)$$

$$P_2 = \rho g(H + h) \quad (2)$$

(1) va (2) dan foydalanib jismga ta'sir etuvchi kuchlarni topamiz:

$$dF_1 = P_1 dS = \rho g \left(H + \frac{2h}{a}x \right) 4x dx = 4\rho g H x dx + 8\rho g \frac{h}{a} x^2 dx$$

$$F_1 = \int dF_1 dx = \int_{-0.5a}^{0.5a} \left(4\rho g H x + 8\rho g \frac{h}{a} x^2 \right) dx$$

$$F_1 = \rho g H a^2 + \frac{2}{3} \rho g h a^2 \quad (3)$$

$$F_2 = P_2 S_a = \rho g(H + h)a^2 = \rho g H a^2 + \rho g h a^2 \quad (4)$$


F_1 va F_2 kuchlarning natilajovchisini topiladi va hosil bo'lgan ifoda Arximed kuchiga teng.

$$F_A = F_2 - F_1 = \rho g H a^2 + \rho g h a^2 - \rho g H a^2 + \frac{2}{3} \rho g h a^2 = \frac{1}{3} \rho g h a^2 \quad (5)$$

Bizga piramida hajmi $V_p = \frac{1}{3} a^2 h$ ekanligi ma'lum va (5) ifodaga keltirib qo'ysak, piramida suvga to'la botgan vaziyatida unga ta'sir etuvchi Arximed kuchi ifodasi kelib chiqadi.


$$F_A = \rho V_p g \quad (6)$$

Ko'rinib turibdiki arximed kuchi jism hajmiga va suyuqlik zichligiga bog'liq ekan. Agar jism zichligi suyuqlik zichligidan katta bo'lsa, jism suyuqlikda to'liq ko'chadi. Aksincha bo'lgan holatda u qisman ko'chishini kuztishimiz mumkin



Konus uchun ham jarayon piramida singari davom etadi va bunda $dS = 2\pi x dx$ yuzaga ega qismni ajratib olamiz.

Dastlab jismning yuqori va pastgi sirtlarida yuzaga kelgan bosimlarni topib olamiz. Uchburchak o'xshashligidan:



$$P_1 = \rho g(H + (h - y)) = \rho g(H + \frac{h}{R}x) \quad (1)$$

$$P_2 = \rho g(H + h) \quad (2)$$

(1) va (2) dan foydalanib jismga ta'sir etuvchi kuchlarni topamiz.

$$dF_1 = P_1 dS = \rho g \left(H + \frac{h}{R}x \right) 2\pi x dx = 2\pi \rho g H x dx + 2\pi \rho g \frac{h}{R} x^2 dx$$

$$F_1 = \int dF_1 dx = \int_0^R (2\pi \rho g H x dx + 2\pi \rho g \frac{h}{R} x^2 dx)$$

$$F_1 = \pi \rho g H R^2 + \frac{2}{3} \pi \rho g h R^2 \quad (3)$$


$$F_2 = P_2 S_a = \rho g(H + h) \pi R^2 = \pi \rho g H R^2 + \pi \rho g h R^2 \quad (4)$$

F_1 va F_2 kuchlarning yo'nalishlariga qarab natijalovchikuchni topamiz va bu Arximed kuchiga teng.

$$F_A = F_2 - F_1 = \pi \rho g H R^2 + \pi \rho g h R^2 - \pi \rho g H R^2 - \frac{2}{3} \pi \rho g h R^2 = \frac{1}{3} \pi \rho g h R^2 \quad (5)$$

Konus hajmi $V_K = \frac{1}{3} \pi R^2 h$ ekanligini bilgan holda suvga to'la botgan konus uchun Arximed kuchi ifodasini hosil bo'ladi.

$$F_A = \rho V_K g \quad (6)$$



Sharda yuqoridagi vaziyatlardan biroz farq qiladi. Chunki sharning ikkala yarimsharlarida ham OY o'qidagi kuchlarga tik yuza mavjud emas. Shu sababli OXZ o'qiga simmetrik bo'lgan ikkita $dS = 2\pi x dx$ yuza ajratib olamiz.

Dastlab jismning yuqori va pastgi sirtlarida yuzaga kelgan bosimlarni topib olamiz.

$$P_1 = \rho g(H + h) \quad (1)$$

$$P_2 = \rho g(H + h - 2R \cos \alpha) \quad (2)$$

(1) va (2) dan foydalanib jismga ta'sir etuvchi kuchlarni topamiz.

$$dF_1 = P_1 dS = \rho g(H + h) 2\pi x dx = 2\pi \rho g H x dx + 2\pi \rho g h x dx$$

$$F_1 = \int_0^R dF_1 dx = \int_0^R (2\pi\rho g H x dx + 2\pi\rho g h x dx)$$

$$F_1 = \pi\rho g H R^2 + \pi\rho g h R^2 \quad (3)$$

$$dF_2 = P_2 dS = \rho g (H + h - 2R \cos \alpha) 2\pi x dx$$

$$\cos \alpha = -\frac{x}{R}$$

$$F_2 = \int_0^R dF_2 dx = \int_0^R \rho g (H + h + 2x) 2\pi x dx$$

$$F_2 = \pi\rho g H R^2 + \pi\rho g h R^2 + \frac{4}{3}\pi\rho g R^3 \quad (4)$$

F_1 va F_2 kuchlarning yo'nalishlariga qarab natijalovchikuchni topamiz va bu Arximed kuchiga teng.

$$F_A = F_2 - F_1 = \frac{4}{3}\pi\rho g R^3 \quad (5)$$

Shar hajmi $V_{sh} = \frac{4}{3}\pi R^3$ ekanligini bilgan holda suvga to'la botgan shar uchun Arximed kuchi ifodasini hosil bo'ladi.

$$F_A = \rho V_{sh} g \quad (6)$$

Xulosa

Arximed kuchi suyuqliklar va gazlar ichida joylashgan jismlarga ta'sir qiluvchi muhim fizik hodisa bo'lib, uning isboti turli geometrik shakllar uchun farqli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu ishda turli shakldagi jismlar uchun Arximed qonunining umumiy va xususiy hollari tahlil qilindi hamda matematik asoslantirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismlarga ta'sir etuvchi ko'tarish kuchi nafaqat suyuqlik zichligi va jism hajmiga bog'liq, balki shaklning gidrodinamik xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalashnikov S.G. Elektr. O'qituvchi. Toshkent, 1979 y.
2. Sivuxin D.V. Obshiy kurs fiziki. I – tom Nauka" Moskva, 1977 y.

3. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi. I – tom. O‘qituvchi 1976 y.
4. Zisman G.A. va Todes O.M. Kurs obshey fiziki. I – tom Moskva, 1972 y.
5. Telesnin R.V. va Yakovlev V.F., Kurs fiziki, Elektrichestvo, Prosveshenie, Moskva 1969 y

YUQORI MALAKA BELBOGLI KURASHCHILARNI MUSOBAQA OLDI YUKLAMALARINI REJALASHTIRISH

Jo‘raxanov Xamidullo Xojimirzayevich

Namangan davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi katta o‘qituvchisi, PhD.

E-mail: hamidullo19931910@mail.ru **Tel:** +99893-941-28-86

Soyibjanov Botirjon Shavkatbek o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti,

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: botir2004@gmail.com **Tel:** +998979915353

Annotatsiya: ushbu maqolada Yuqori malaka belbogli kurashchilarni musobaqa oldi yuklamalarini rejalashtirish ishlab chiqilgan xamda ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, mavzuni dolzarbligi, maqsadi, xulosa va amaliy tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные основы и практические рекомендации по планированию предсоревновательной нагрузки у борцов высокого класса. В статье проведен анализ научной и методической литературы, обоснована актуальность темы, определены цели, сделаны выводы и даны практические рекомендации.

Abstract: this article develops the planning of pre-competitive loads of highly qualified freestyle fighters, as well as provides scientific

and methodological literature, the relevance of the topic, its purpose, conclusions and practical recommendations

Kalit soʻzlar: sport, sarolov, tizim, takomillashtirish, tayyorlov, qobiliyat, pedagogika, tibbiy, va biologik, psixalogik, sotsiologik, mezonlar.

Ключевые слова: спорт, отбор, система, совершенствование, подготовка, способности, педагогика, медицинские, биологические, психологические, социологические, критерии.

Keywords: sport, Saralov, system, improvement, training, abilities, pedagogy, biomedical, psychological, sociological, criteria.

Yuqori malaka belbogʻli kurashchilarni musobaqa oldi yuklamalarini rejalashtirishda jismoniy sifatlarini rivvojlantirish odatda tugʻma (genetik jihatdan meros qilib olingan) morfofunktsional fazilatlar deb ataladi, buning natijasida jismoniy (moddiy ifodalangan) inson faoliyati mumkin, bu maqsadga muvofiq vosita faoliyatida toʻlli namoyon boʻladi. Asosiy jismoniy fazilatlarga mushaklarning kuchi, tezligi, chidamliligi, yegiluvchanligi va yepchilligi kiradi.

Yuqori malaka belbogʻli kurashchilarni musobaqa oldi yuklamalarini rejalashtirishda jismoniy sifatlarini rivvojlantirish koʻrsatkichlarining oʻzgarish dinamikasiga nisbatan "rivojlanish" va "tarbiya" atamaları qoʻllaniladi. Rivojlanish atamasi jismoniy sifat oʻzgarishining tabiiy kechishini tavsiflaydi va tarbiya atamasi jismoniy sifat koʻrsatkichlarining oʻsishiga faol va yoʻnaltirilgan taʼsirni taʼminlaydi. Zamonaviy adabiyotlarda "jismoniy fazilatlar" va "jismoniy (vosita) qobiliyatlari" atamaları qoʻllaniladi. Biroq, ular bir xil emas. Yeng umumiy shaklda vosita qobiliyatlarini insonning motor qobiliyatlari darajasini belgilaydigan individual xususiyatlar deb tushunish mumkin. Insonning motor qobiliyatining asosini jismoniy

fazilatlar tashkil yetadi va namoyon bo'lish shakli vosita qobiliyatlari va qobiliyatlari hisoblanadi. Dvigatel qobiliyatlariga kuch, tezlik, tezlik kuchi, motorni muvofiqlashtirish qobiliyatlari, umumiy va o'ziga xos chidamlilik kiradi. Shuni yesda tutish kerakki, mushaklarning kuchi yoki tezligini rivojlantirish deganda, buni tegishli kuch yoki tezlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni deb tushunish kerak.

U yoki bu odamning motor qobiliyatlari o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Kurashchi jismoniy rivojlangan bo'lishi kerak. Yerkin kurashda barcha jismoniy sifatlarga qo'yiladigan talablar bir xilda qo'yiladi. Kuch, chidamlilik yoki yepchilikda faqat bitta ustunlik hisobiga kurashda barqaror natijaga yerishish mumkin yemas. Shu bilan birga, teng darajada rivojlangan jismoniy fazilatlarga yega odamlar juda kam. Odatda jismoniy sifatlardan biri ikkinchisidan ustun turadi. Masalan, yetarlicha kuchli va epchil kurashchi ko'pincha katta chidamlilik bilan ajralib turadi, o'rta chidamli kurashchi o'zining ajoyib tezligi va epchilligi bilan ajablantirishi mumkin, o'rtacha tezkor va bardoshli sportchi taniqli kuchli odam bo'lib chiqishi mumkin. Jismoniy fazilatlarning rivojlanishi ma'lum darajada sportchining kurash uslubi va tabiatiga, uning taktik va texnik mahoratiga o'z izini qoldiradi.[1]

Ushbu mavzusi dolzarbdir, chunki erkin kurash jang san'ati turi sifatida mavjud xalqaro musobaqa qoidalari bilan cheklangan muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan qiyin sport turi hisoblanadi. Kurash bo'yicha jahon sport mahorati darajasining jadal o'sishi, uning dinamikligi ortib borishi sport yutuqlari bog'liq bo'lgan mashg'ulotlarning barcha jihatlarini takomillashtirishga katta e'tibor berishni talab qiladi. Bunday omillar, shubhasiz, kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini o'z ichiga oladi va jismoniy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari orasida kuch, tezlik, chidamlilik, yepchilik kabi

vosita fazilatlari bilan bir qatorda sportchining motor qobiliyatining moslashuvchanligi, qo'shma harakatchanligi kabi muhim xususiyati muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda raqiblarimiz sport zaxiralari tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshirdi. Bu, albatta, katta maydonda raqobatning yanada kuchayishiga olib keldi. Tanlovda natijalarni takomillashtirish masalasi o'quv jarayoni vositalari va usullarini optimallashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot dolzarbligi: kurash nazariyasi va amaliyotida barcha masalalar bir xil o'rganilmaydi. Raqobat faoliyati talablari va kurashni rivojlantirish tendensiyalaridan kelib chiqib, mashg'ulot jarayonida bo'lajak gilam ustalarining jismoniy tayyorgarligiga tuzatishlar kiritilishi kerak.

Tadqiqot maqsadi: belbogli kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish vositalarini optimallashtirish usullarini o'rganishdir.

Bu borada quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosining holatini o'rganish.
2. Adabiy manbalarni tahlil qilish orqali belbogli kurashchilar uchun zarur bo'lgan asosiy fazilatlarni va ularni rivojlantirish usullarini aniqlash.
3. Yerkin kurashchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalashning yeng samarali usul va vositalarini aniqlash.

Jismoniy sifat-bu faol motorli harakatlarni amalga oshirishga jismoniy tayyorligini ifodalovchi inson shaxsiyatining biologik va aqliy xususiyatlari to'plami.

Jismoniy qobiliyatlar insonning daromadidir. Ular tabiatan har kimga xosdir, lekin ular o'ziga xos vosita harakatlarida namoyon bo'ladi, har bir inson turli xil yo'llarga ega.

Bir jismoniy qobiliyat turli jismoniy sifatlarda ifodalanishi mumkin. Aksincha, bitta jismoniy sifat turli xil jismoniy qobiliyatlarda ifodalanishi mumkin.

Qobiliyatlar faoliyatni amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi, ammo bu har doim irsiy va atrof-muhit omillarining birgalikdagi harakatlarining natijasidir. Inson qobiliyatlari rivojlanishining amaliy chegaralari inson hayotining davomiyligi, ta'lim va tarbiya usullari va boshqalar kabi omillar bilan belgilanadi., lekin ular qobiliyatlarning o'ziga xos yemas. Qobiliyatlarni rivojlantirish chegaralari darhol kengayishi uchun ta'lim va tarbiya usullarini takomillashtirish kifoya. Dvigatel qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tezlik, kuch va boshqalar uchun tegishli jismoniy mashqlardan foydalangan holda ma'lum faoliyat sharoitlarini yaratish kerak. Biroq, ushbu qobiliyatlarni tarbiyalashning ta'siri, qo'shimcha ravishda, tashqi yuklarga reaksiyaning individual normasiga bog'liq. Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchisi turli xil vosita qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy vositalari va usullarini, shuningdek darslarni tashkil yetish usullarini yaxshi bilishi kerak. Bunday holda, u aniq sharoitlarga nisbatan takomillashtirish vositalari, shakllari va usullarining maqbul kombinatsiyasini aniqroq tanlashi mumkin bo'ladi.[2]

Insonning individual vosita qobiliyatlari jismoniy fazilatlar deb ataladi. Kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, moslashuvchanlik. Bu jismoniy sifatlarning barchasi harakatlarda namoyon bo'ladi va ularning namoyon bo'lish xarakteri harakatlarning tuzilishiga bog'liq. Masalan, to'ntarishlar va og'riqli texnikalar kuch hisobiga nisbatan sekin

bajarilishi mumkin va otish faqat yuqori tezlikda quvvat rejimida mumkin.

Belbogʻli kurashning jismoniy sifatlarini tarbiyalash sinflarning barcha shakllarida amalga oshiriladi. Zarur jismoniy sifatlarni tarbiyalash vositasi sifatida, avvalo, kurash bilan bevosita bogʻliq boʻlgan mashqlarni (trenirovka, trenirovka, trenirovka va musobaqa kurashlari) ajratish lozim.

Biroq, trenirovka baxsida kurash texnikasini olib borish kurashchining oʻz xohishiga bogʻliq boʻlmay, balki "tetik" vaziyatlarning yuzaga kelishini oldindan aytib berish qiyinligi tufayli, mashgʻulotda qabul qilishning zaruriy takrorlanish sonini rejalashtirish qiyin jarayon. Shu bilan birga, har qanday jismoniy sifatni oshirishni talab qiladigan baʼzi usullarni takrorlash kerak boʻlishi mumkin.

Bunday hollarda kurashchining harakatlariga yaqin mashqlarni turli snaryadlar yordamida qoʻllash maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda ikki yoʻnalishni aniqlash kerak: umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik.

Deyarli barcha sport turlarida asosiy musobaqalarga yondashish bilan vaqtning muhim qismi ushbu turga xos mashqlarga bagʻishlangan, ammo dastlabki tayyorgarlik bosqichida uzoq muddatli mashgʻulotlar jarayonida asosiy mushak guruhlarining shakllanishini taʼminlaydigan umumiy jismoniy mashqlarga ustuvor ahamiyat beriladi va inson uchun yugurish, sakrash, gimnastika, suzish, oʻyinlar kabi tabiiy harakatlarni amalga oshirish.

Tarixiy jihatdan kuch, tezlik va chidamlilikdan tashqari, yegiluvchanlik va yepchillik jismoniy fazilatlariga bogʻliq.

Kuch-bu odamning tashqi qarshilikni yengish yoki mushaklarning harakatlari (zoʻriqishlari) tufayli unga qarshi turish qobiliyati.

Quvvat qobiliyatlari-bu "kuch"tushunchasiga asoslangan ma'lum bir vosita faoliyatidagi insonning turli xil ko'rinishlari majmuasi.

Raqibni gilamda mag'lub yetish uchun uning qarshiligini yengib o'tish, qabul qilish yoki qarshi qabul qilish, raqibni yelkama pichoqlariga qo'yish yoki ochkolarni yutishda ustunlikka yerishish kerak. Yetarli jismoniy kuch bo'lmasa, buni amalga oshirish mumkin bo'lmaydi.

Kurash o'yinida jismoniy kuch ishlatmasdan siz muvaffaqiyatga yerisha olmaysiz. Kurashchi butun tanasining bir tekis rivojlangan muskulaturasiga yega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin bu kamdan-kam hollarda sodir bo'ladi. Ba'zi kurashchilar ko'proq rivojlangan qo'l mushaklariga yega, boshqalari juda kuchli oyoqlarga yega, boshqalari yesa rivojlangan orqa tomonga yega. Shuning uchun mashg'ulotlarda yeng zaif mushak guruhlarini rivojlantirishga samarali hissa qo'shadigan bunday mashqlarni tanlash kerak.[3]

Shu bilan birga, boshqa mushak guruhlarini, ayniqsa yuqori darajada rivojlanganlarni rivojlantirishga kam ye'tibor qaratish lozim, chunki yeng samarali individual texnik harakatlar ko'pincha ularning kuchidan foydalanish uchun tanlanadi va amalga oshiriladi.

Kuchni rivojlantirish boshqa jismoniy fazilatlarni (tezlik va moslashuvchanlikni) rivojlantirish bilan birlashtirilishi kerak. Faqatgina kuch-quvvat mashg'ulotlariga bo'lgan yehtiros mushaklarning qo'pollashishiga, ularning yegiluvchanligini yo'qotishiga, bo'g'imlarda moslashuvchanlikka olib kelishi mumkin.

Harakatlarning qattiqligi va tezlik sifatlarini yo'qotishi mumkin. Bu, ayniqsa, og'irliklar (dumbbelllar, barbell) bilan mashq qilish uchun ortiqcha ishtiyoq bilan bog'liq. Shunisi aniqki, boshqa barcha narsalar teng bo'lib, ko'proq jismoniy kuchga yega bo'lgan kurashchi kurashda

g'alaba qozonadi. Ko'plab taniqli Chempionlar ushbu ustunlik uchun o'zlarining muvaffaqiyatlariga qarzдор.

Yenglasda kuch namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyati shundaki, u sekin kuch bosimi bilan qarshilikni buzmaydi. Uning kuchi portlovchi yedi. Harakatlar juda tez va juda kuchli yedi. Tezlik kuchini namoyish qilish kurashchi uchun yeng maqbuldir.

Yana bir ajoyib kurashchi Boris Kulayev kuchliligi bo'yicha Yenglasdan kam yemas yedi, ammo u o'zini boshqacha tarzda namoyon qildi. Kulayev bir zumda Yenglas singari "portlash" qobiliyatiga yega yemas yedi, ammo jangning birinchi va so'nggi daqiqalarida, ayniqsa oxirgi daqiqalarida uning quchog'iga kirish bir xil darajada xavfli yedi. Kulayev charchashiga qaramay, o'z kuchini oxirigacha saqlab qoldi. Ajoyib kuchga chidamlilik unga ko'plab g'alabalarni keltirdi.

Kuchni rivojlantirish uchun juda ko'p mashqlar mavjud va ularning barchasi mushaklarning katta kuchlanishi bilan ajralib turadi. Ko'p mashqlar takroriy takrorlash bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, tabiat va tuzilish jihatidan kurashda bajariladigan harakatlarga o'xshash mashqlardan foydalanish yaxshidir. Agar yuk yoki qarshilik yetarlicha katta bo'lsa, mashqni takrorlash soni kamayishi mumkin. Agar mashqlar kichik og'irliklar bilan bajarilsa, ularni maksimal tezlik bilan va qayta-qayta bajarishingiz kerak.

Bu holda kuchni rivojlantirish bilan birga harakat tezligi ham rivojlanadi. Uzoq muddatli kuch-quvvat harakatlari qobiliyati charchoq paydo bo'lguncha kichik yoki o'rta og'irlikdagi mashqlarni takrorlash paytida rivojlanadi, bu yesa keyingi ishlarga (muvaffaqiyasizlikka) yo'l qo'ymaydi. Bu mashqlarni qayta-qayta takrorlash kerak. Agar mashqlar kuchli mushaklarning kuchlanishiga va charchashga olib kelmasa, unda ularning ishlashi samarasi ahamiyasiz bo'ladi. Sportchining kuchi va

jismoniy tayyorgarligi o'sishi bilan ilgari katta kuch bilan bajarilgan mashqlar oson bo'lib chiqadi va bir xil stresslarga olib kelmaydi. Bunday mashqlarning ta'siri kamayadi.

Ularni murakkablashtirish kerak: yukni, takrorlanish sonini, bajarilish tezligini va boshqalarni oshirish. Kuchni rivojlantiruvchi mashqlarni tanlash uchun kuchsizroq mushak guruhlarini rivojlanadigan tarzda bo'lishi kerak, lekin kuchli mushak guruhlarini rivojlanishiga ko'proq e'tibor qaratish lozim, ular ishtirokida asosiy texnik harakatlar amalga oshiriladi.

Tezlik-bu insonning ushbu sharoitlar uchun minimal vaqt ichida harakatlarni bajarish qobiliyati. Tezlik ko'plab sport turlarida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Odatda quyida keltirilgan yuqori tezlikli fazilatlarining uch xil ko'rinishi mavjud.

Kurashchining tezligi uning individual harakatlarni minimal vaqt ichida bajarish qobiliyatidir. Tezlikning namoyon bo'lishining yelementar va murakkab shakllari mavjud. Yelementar shakllarga reaksiya vaqti, bitta harakat vaqti, chastota, (yoki temp), harakat kiradi. Tezlikning murakkab shakllari kurashchining integral texnik harakatlarida namoyon bo'ladi.

Maxsus chidamlilik tanlangan sport turlarida namoyon bo'ladi va umumiy chidamlilik asosida shakllanadi.

Kurashchilarning jismoniy tayyorgarligining individual xususiyati kurashda individual harakatlarni bajarishda "toj" texnikasi, taktikasi va chidamliligi mavjudligi bilan tavsiflanadi. Jismoniy zo'riqishga chidamlilikka yega bo'lgan kurashchi uzoq vaqt xavfli holatda ko'priksiz tura oladi; kuch chidamliligiga yega bo'lgan kurashchi uzoq vaqt raqibni changalda ushlab tura oladi; maxsus chidamlilikka yega bo'lgan

kurashchi har qanday raqib bilan barcha janglarni yuqori sur'atda o'tkaza oladi.

Umumiy chidamlilik maxsus chidamlilikni tarbiyalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy chidamlilik mashg'ulotlarining asosiy prinsipi ularning ishlash davomiyligini bosqichma-bosqich oshirish bilan yeng keng vosita harakatlaridan foydalanishdir. Bu sportchining yeng ko'p mushak guruhlarini jalb qilishga yordam beradi.

Yagona usul chidamlilikni tarbiyalashda asosiy hisoblanadi. Ochiq holda mashq qilishda muhitning xilma-xilligi (o'zgaruvchan landshaft, tuproqning har xil qattiqligi, o'simlik, toza havo va boshqalar.) sportchining umumiy chidamliligini rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Sportchi o'quv faoliyatining butun davri davomida umumiy chidamlilikni tarbiyalash va saqlash bilan shug'ullanadi.

O'quv jarayonining dastlabki yillarida o'quvchilarni sport bilan tanishtirish vazifasi hal yetilib, bo'lajak ixtisoslashtirilgan faoliyatga asos yaratilayotgan paytda umumiy chidamlilik mashg'ulotlariga yeng katta ye'tibor qaratiladi. Sportning dastlabki davrida umumiy chidamlilikning rivojlanishi jismoniy faoliyatni qulay sub'yektiv idrok yetishga yordam beradi.

Sportni takomillashtirish yillarida umumiy chidamlilikni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar sportchilarning jismoniy rivojlanishi va umumiy ko'rsatkichlarini ta'minlashga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar o'quv yuklamasini diversifikatsiya qilish maqsadida keng qo'llaniladi.

Kurashning dastlabki yillarida siz mashqlarning o'rtacha intensivligidan oshmasdan doimiy ish davomiyligini (bir necha daqiqadan bir soatgacha) asta-sekin oshirishingiz kerak. Bu sizga tanani jismoniy zo'riqishga har tomonlama moslashtirish uchun zarur bo'lgan

katta miqdordagi ishni bajarishga imkon beradi. Barcha tana tizimlarini muvofiqlashtirish yo'lga qo'yilmoqda, bu samaradorlikni va tez tiklanish imkoniyatini oshiradi. Pedagogik vazifalarga qarab umumiy chidamlilikni tarbiyalash ishlarida jadallik bilan bajariladigan mashqlardan foydalaniladi.

Kurashchilarni musobaqalarga tayyorlash maxsus chidamlilikni rivojlantirish bilan birga olib boriladi. Darhaqiqat, eng yuqori sport mahorati darajasida, yetarli texnik va taktik tayyorgarlikka yega bo'lgan holda, kurashchilar faoliyatini yaxshilash treningning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Sportchilarning ishlashi ma'lum bir yukni yaratadigan mashg'ulotlar sonini ko'paytirish va sifatini oshirish orqali ta'minlanadi.

Xulosa: kurash amaliyotida chidamlilikni rivojlantirish uchun jismoniy sifatlarni tarbiyalashning yagona, o'zgaruvchan, takroriy, intervalli, musobaqali, o'yinli va doiraviy usullari kabi umumqabul qilingan usullari qo'llaniladi. Yagona usul umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Mashg'ulotning bu usuli kurashchining uzluksiz ishining maksimal davomiyligi (40 minutgacha) bilan tavsiflanadi, 130 zarba / min dan ko'p bo'lmagan pulsda doimiy intensivlik bilan bajariladi. Agar yurak urish tezligining o'zgarishi 3-5% dan oshmasa, ish bir xil deb hisoblanadi. Bunday yuk natijasida kichik, oson olinadigan kislorod qarzi hosil bo'ladi.

Ushbu usul tananing barcha funksional tizimlari o'rtasida barqaror munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi.

Yagona usul mashg'ulot janglarida asosan tayyorgarlikning tayyorgarlik davrida qo'llaniladi, ammo mashg'ulotning boshqa barcha bosqichlarida u hajmni oshirish va yuklama intensivligini kamaytirish vositasi sifatida qo'llaniladi. Ko'pgina hollarda, yagona usul bilan

bajarilgan yuk kichik deb hisoblanishi kerak. Kurashchilarga bir tekis muhim yuklamani bajarishga imkoniyat yaratish ularning umumiy jismoniy tayyorgarligining vazifalaridan biridir. Yuqori malakali sportchilar oʻrtacha yukni bajarishlari mumkin, ammo puls tezligida teng darajada ahamiyasiz tebranishlar bilan. Bu umumiy fitnesning yaxshi koʻrsatkichi deb hisoblanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. OʻzDJTI nashriyot-matbaa boʻlimi. 2018.-S. 198-190.
2. Kerimov F.A. Yakka kurash elementlariga ega boʻlgan xarakatli oʻyinlar. Ilmiy texnika axboroti-press, 2020.-79 b.
3. Kerimov F. A. Sport soxasidagi ilmiy tadqiqotlar. Toshkent, 2021, 334 b.

RESPUBLIKAMIZNING SUGʻORILADIGAN MINTAQALARIDA TAKRORIY EKIN SIFATIDA SOYA (GLYCINE HISPIDA L) YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

Fargona davlat universiteti
Agrar qoʻshma fakulteti q.x.f.f.d (PhD), dotsent,
Email: idrisovh256@gmail.com

Yoqubova Feruzabonu Muxtorjon qizi

Oʻsimliklar himoyasi va karantini yoʻnalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sugʻoriladigan mintaqalar uchun soyaning yetishtirish texnologisi xaqida batafsil yoritilgan. Mahalliy va xorijiy navlari, soyaning almashlab ekishdagi oʻrni, yerni ekishga tayyorlash, oʻgʻitlash, urugʻlarni ekishga tayyorlash, ekish muddati, urugʻni ekish usullari, urugʻlarni ekish meʼyori, ekish chuqurligi, ekin

parvarishi, sug'orish hamda hosilni yig'ishtirish kabi masalalar to'liq qamrab olingan holda bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о технологии выращивания сои для орошаемых регионов. Всесторонне рассмотрены отечественные и зарубежные сорта сои, роль сои в севообороте, подготовка земли к посадке, внесение удобрений, подготовка семян к посадке, сроки посева, способы посева семян, норма высева семян, глубина посадки, уход за посевами, орошение, уборка урожая.

Abstract: This article provides a detailed description of soybean cultivation technology for irrigated regions. Local and foreign varieties, the role of soybean in crop rotation, land preparation for planting, fertilization, seed preparation for planting, planting date, seed sowing methods, seed sowing rate, planting depth, crop care, irrigation and harvesting are fully covered.

Kalit so'zlar: Soya, nav, tuproq, hosil, oqsil, aminokislotalar, moy.

Ключевые слова: Соя, сорт, почва, урожайность, белок, аминокислоты, масло.

Keywords: Soybean, variety, soil, yield, protein, amino acids, oil.

Kirish. Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, fan-texnika yutuqlari va ilg'orlar tajribasini keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, hosil sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ekinlar strukturasi o'zgarishi munosabati bilan dukkakli don ekinlaridan yuqori va sifatli hosil etishtirishda intensiv texnologiyalardan biri sug'oriladigan maydonlarda ekilgan boshqoqli don ekinlarini yig'ishtirib olingandan so'ng, bo'shagan

maydonlarda soya va moshning ertapishar navlarini takroriy ekin sifatida ekib, don etishtirishni ko'paytirishdan iborat.

Respublikamiz xalq xo'jaligi uning dexqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi juda muximdir. Dexqonchilik sohasida keyingi yillarda paxta tolasi va don ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha ko'pgina qarorlar qabul qilindi va don ishlar chiqarishda muayyan yutuqlarga erishildi. Bugungi kunda etishtirilayotgan mavjud don respublikamiz aholisi talabini to'la qondira oladi. Ammo, don chorvachilikni rivojlantirish uchun ham zarur. Bunda donli ekinlar biologiyasini o'rganish, seleksiya va urug'chilik ishlarini kuchaytirish, shuningdek donli em-xashak ekinlarni etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish juda muhim.

Insonning ovqatlanishi uning yoshi, jinsi va mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan holda turlicha bo'lishi lozim. Kundalik ratsionda inson oqsil, uglevodlar, vitaminlar, mineral moddalar va boshqalarni iste'mol etishi lozim. Inson qanchalik turli-tuman oziqlansa, uning xayot faoliyati shunchalik faol, organizm esa shunchalik sog'lom bo'ladi. Ayniqsa har birimiz kundalik stresslar, depressiyalar, asab-psixologik zo'riqishlar va toliqish muhitning salbiy ta'sirlariga uchraganimizda bunday oziqlanishning nechog'lik muximligini anglaymiz. Ta'kidlash joizki, inson organizmi maromida faoliyat ko'rsatishi uchun oqsilga talab bir kunda uning vaznining xar bir kilogrammi uchun 0,7 gr dan kam bo'lmasligi lozim [2, b 11].

Keyingi yillarda oziq-ovqat maxsulotlari va chorva uchun em ishlab chiqarishning jadallashishi soya doni etishtirishni ko'paytirishni taqozo etmokda. Soya tarkibida to'la qimmatli nodir oqsil mavjud bo'lib, u oziqlik qimmati bo'yicha xayvon oqsilidan qolishmaydi. Uning tarkibida noyob biologik faol moddalar, lesitin, xolin, A, V va Ye vitaminlari, makro

va mikroelementlar va boshqa qimmatli moddalar mavjud. Soya tarkibida laktoza va xolesterin uchramaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, kalloriyasi va asosiy oziqlik va biologik faol moddalar tarkibi bo'yicha ushbu maxsulot muqobil balanslangandir.

Ma'lumki, oqsil taqchilligi muhim muammodir, uning etishmasligi ko'pgina kasalliklarni keltirib chiqaradi. Oziq-ovqat maxsulotlari orasida soya salmog'ini oshirish bilan nafaqat bu muammoni hal etish, balki tibbiy preparatlar iste'molini ham birmuncha kamaytirish mumkin.

Soya – O'zbekistonda yosh o'simlik. Uning donida 30-52% oqsil, 18-25% yog', 20% uglevodlar bor. Soyaning donidan qandli diabet kasalliklari uchun parhez taomlar tayyorlanadi. Donidan sut, qatiq, tvorog, kolbasa mahsulotlari, margarin, un, qandolat mahsulotlari, moy, konservalar tayyorlashda foydalaniladi. Soyaning asosiy oqsili – glitsinin yaxshi hazmlanadi, suvda yaxshi eriydi, achib qatiqqa aylanadi, oqsili almashtirilmaydigan aminokislotalarga boy.

Dunyoda yalpi ishlab chiqarilgan o'simlik moyining 40% isoyaning hissasiga to'g'ri keladi. Soyaning kunjarasida 40% oqsil, 1,4 % yog', 30 % AEM saqlanadi. Uni yashil va silos massasi uchun, toza hamda makkajo'xori bilan qo'shib o'stirish mumkin. 100 kg yashil massasida 21 o.b., 3,5 kg oqsil mavjud. Uning yashil massasidan vitaminli o't uni tayyorlanadi. Soyaning 100 kg poyasida 32 o.b. va 5,3 kg oqsil saqlanadi [3, b 29-33].

Uzbekskaya-2. O'zShITda yaratilgan. O'rtapishar. Urug' hosili o'rtacha 18-30 s/ga. O'suv davri 125-130 kun. Pastki dukkaklar 12-14 sm balandlikda joylashgan. 1000 ta urug' vazni 130-160 g. Pishganda dukkaklari yorilib ketmaydi. Donida 38% oqsil, 24% moy bor.

Orzu. O'zbekiston sholichilik ilmiy-tadqiqot insitutida tanlashusuli

bilan olingan. O'simlik bo'yi 110-120 sm. O'suv davri 105-110 kun. Pishganda dukkagi yorilib ketadi. Bitta o'simlikda 40 ta gacha dukkak shakllanadi, 1000 ta urug' vazni 120-130 g. Sug'oriladigan sharoitlarda 32 s/ga gacha hosil olish mumkin. Doni tarkibida 25% gacha moy va 36-38% oqsil mavjud.

Genetik 1. O'zFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi ilmiy - tadqiqot institutining seleksion navi. 2008 yildan Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 45-50 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, och-sariq. 1000 taurug' vazni o'rtacha 130,0 g. Vegetatsiya davri 87 kun. To'kilishga chidamligi - 4,0 ball. O'rtacha hosildorlik 23,6 s/ga. Sinov yillarida kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanmagan.

Gratsiya. Serbiya davlatining seleksion navi. 2015 yildan Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlari bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 75 sm. 1000 ta urug' vazni o'rtacha 175,0 g. Vegetatsiya davri 78 kun. Yotib kolishga va to'kilishga chidamligi 5,0 ball. O'rtacha hosildorlik takroriy muddatlarda 15,0 s/ga. Sinov yillarida kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanmagan.

Oltin toj. Don dukkakli ekinlar ilmiy - tadqiqot institutining seleksion navi. 2010 yildan Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 60 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, silliq, sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 160,0 g. Vegetatsiya davri 89 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamligi - 5,0 ball. O'rtacha hosildorlik 28-30 s/ga.

Sochilmas. O'zFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi ilmiy - tadqiqot institutining seleksion navi. 2015 yildan Toshkent viloyati bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 76 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, och-sariq. 1000 ta urug' vazni

o'rtacha 136,8 g. Vegetatsiya davri 95 kun. To'kilishga chidamligi - 5,0 ball. O'rtacha hosildorlik 30,0 s/ga. Sinov yillarida kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanmadi.

Oyjamol. Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi. 2010 yildan Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 70 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, silliq, sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 155,0 g. Vegetatsiya davri 94 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamligi - 5,0 ball. O'rtacha hosildorlik 28,3 s/ga. Sinov yillarida kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanmagan.

Favorit. Serbiya davlatining seleksion navi. 2012 yildan Respublika bo'yicha Davlat reestriga kiritilgan. O'simlik bo'yi o'rtacha 66 sm. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 155,0 g. Vegetatsiya davri 100 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamligi - 5,0 ball. O'rtacha hosildorlik 30,0 s/ga. Sinov yillarida kasalliklar va hasharotlar bilan zararlanmagan.

Soyaning Krasnodar o'lkasidan keltirilgan navlari. [Slaviya.](#) Tezpishar asosiy va takroriy ekin uchun mo'ljallangan.

Past haroratga chidamli. O'suv davri 98-103 kun. Hosildorligi asosiy ekin sifatida ekilganda 3,9 s/ga, takroriy ekilganda 2,2 s/ga. Donida oqsil miqdori 40-41%, yog' miqdori 23-24%. O'simlikning bo'yi 95-110 sm. Pastki dukkaklarning joylashish balandligi 13-14 sm. 1000 ta urug' massasi 160-190 g. Peronosporoz va poya rakiga chidamli. Asosiy ekin sifatida ekilganda maqbul tup qalinligi hosilni yig'ishtirish paytida 350 ming tup/ga, takroriy ekilganda - 400 ming tup/ga.

Duar. O'suv davri 102-106 kun. Hosildorligi asosiy ekin sifatida ekilganda 4,0 t/ga, takroriy ekilganda 2,2 t/ga. Donida oqsil miqdori 41-43%. Pastki dukkaklarning joylashish balandligi 15-17 sm. 1000 ta

urug' massasi 160–170 g. Yotib qolishgava dukkaklar pishib etilganda dukkaklarning yorilib ketishiga chidamli. Takroriy ekin sifatida ekilganda maqbul tup qalinligi hosilni yig'ishtirish paytida 350-400 ming tup/ga.

Arleta. O'suv davri 92-98 kun. Tezpishar nav. Hosildorligi takroriy ekin sifatida ekilganda 2,50 s/ga. Donida oqsil miqdori 41-42%, yog' miqdori 21-23 %. O'simlikning bo'yi 85–95 sm. Pastki dukkaklarning joylashish balandligi 13-15 sm. 1000 ta urug' massasi 160–180 g. Ekish me'yori 500 ming dona urug'/ga. Maqbul tup qalinligi hosilni yig'ishtirish paytida 300-400 ming/ga.

Sparta. O'suv davri 95-100 kun. Tezpishar nav. Hosildorligi takroriy ekin sifatida ekilganda 2,58 s/ga. Donida oqsil miqdori 40-42 %, yog' miqdori 21-23 %. O'simlikning bo'yi 110–120 sm. Pastki dukkaklarning joylashish balandligi 12-14 sm. 1000 ta urug' massasi 140–150 g. Ekish me'yori 500 ming dona urug'/ga. Maqbul tup qalinligi hosilni yig'ishtirish paytida 300-400 ming/ga.

Selekta 201. O'suv davri 117-120 kun. Ertapishar nav. Hosildorligi takroriy ekin sifatida ekilganda 2,64 s/ga. Donida oqsil miqdori 39-41 %, yog' miqdori 21-23%. O'simlikning bo'yi 115– 130 sm. Pastki dukkaklarning joylashish balandligi 13-15 sm. 1000 ta urug' massasi 180–200 g. Ekish me'yori 500 000 dona urug'/ga. Maqbul tup qalinligi hosilni yig'ishtirish paytida 300-400 ming/ga.

Soyaning almashlab ekishdagi o'rne. Soya almashlab ekishlarda joylashtiriladi. O'zidan keyin soya tuproqni unumdor, begona o'tlardan toza, organik moddalar va azotga boyitgan holda qoldiradi. Tuproqning suv-fizik xossalari, biologik faolligi soya ekilgandan keyin sezilarli ortadi.

O'zbekiston sharoitida g'o'za, sholi, makkajo'xori, sabzavot ekinlari,

boshqoli don ekinlari soya uchun yaxshi o'tmishdosh. Ko'plab o'tkazilgan tajribalar bug'doy soya uchun eng yaxshi o'tmishdosh ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston sholichilik ilmiy - tadqiqot institutida o'tkazilgan tajribalarda soyadan keyin sholining hosildorligi 20–30 % oshgan. Soya bir maydonga surunkasiga 2–3 yil ekilganda hosildorligi sezilarli darajada kamayadi. Tajribalarida soya bug'doydan keyin ekilganda 25,2 s/ga don hosili olingan. Kuzgi bug'doy hosili kungaboqar, makkajo'xori, sulidan keyin ekilgandagiga nisbatan, soyadan keyin ekilganda 5,7–7,1 s/ga oshgan. Soya beda, sebarga, dukkakli don ekinlaridan keyin joylashtirilmaydi. O'zbekistonda paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda soyani almashlab ekishlarga kiritish ekinlar hosildorligi, tuproq unumdorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir gektarda mavsum davomida 150-250 kg biologik azot to'playdi.

Tuproqni ishlash. Sug'oriladigan erlarda soya takroriy ekin uchun ekiladigan paykallar tuproqni haydashdan oldin gektariga 700-800 m³ me'yorda sug'oriladi. Tuproq etilishi bilan 25-27 sm chuqurlikda haydaladi, chizellanadi, tekislanadi, zarur hollarda mola bosiladi. Yerni haydash oldidan organik, kaliyli o'g'itlarning yillik me'yorlari, fosforli o'g'itlar beriladi.

O'g'itlash. Soya organik va ma'danli o'g'itlarga talabchan. Go'ng 1ga maydonga 15-20 t solinganda soya hosili 5-6 s/ga oshgan va keyingi 3-4 yilda ham uning ijobiy ta'siri saqlanib qolgan. Solinadigan go'ng chirigan bo'lishi lozim.

Soya gullashdan dukkaklarning to'lishigacha oziqa moddalarni juda jadal o'zlashtiradi. Azotli o'g'itlarni qo'llashda soya o'simligining biologik xususiyati e'tiborga olinadi.

Soya gullashdan dukkaklar hosil bo'lish fazasigacha fosforni jadal o'zlashtiradi. Fosfor tuganak bakteriyalarning atmosfera azotini

o'zlashtirishini tezlashtiradi. Takroriy ekilgan soyaga 60-80kg/ga fosfor solinishi tavsiya etiladi. Kaliy bir gektarga 40–50 kg solinadi.

Soya 1 s don va shunga muvofiq poya barglar hosil qilish uchun o'rtacha 8,8 kg azot, 2,8 kg fosfor, va 3,6 kg kaliy o'zlashtiradi.

Binobarin o'g'itlash me'yori belgilanayotganda soyaning ma'dan oziqa moddalarga talabi, tuproqdagi o'zlashtiriladigan oziqamoddalar miqdori, nam bilan ta'minlanganlik, rejalashtirilgan hosil inobatga olib belgilanadi. Azotli o'g'itlar me'yori belgilanayotganda azotning 60% tuganak bakteriyalar hisobidan qondirilishi hisobga olinishi lozim. Ekish bilan birgalikda gektariga 30-40 kg t.e. modda hisobida azotli o'g'it solinadi. Azotli o'g'itlarni yuqori me'yorda solish tuganak bakteriyalar faoliyatini susaytiradi.

Ko'plab o'tkazilgan tajribalarda nitragin, rizotorfin, rizobofitni qo'llash O'zbekistonning turli tuproq sharoitlarida takroriy ekilgan soyadan gektaridan 4-5 s qo'shimcha don hosili olishni ta'minlagan. Urug'lar ekilishdan oldin bakterial o'g'itlar bilan ishlanishi lozim.

Urug'larni ekishga tayyorlash. Ekish uchun saralangan, tozalangan, kasalliklarga qarshi dorilar bilan ishlangan, ekish oldidan nitragin bilan inokulyatsiya qilingan urug'lardan foydalaniladi. Urug'lar ekishdan 20–24 kun oldin Panoktin, Raksil preparatlari bilan muvofiq holda 2; 1,5 kg/ga me'yorda ishlanadi. Ekiladigan kuni bir gektarga ekiladigan urug' nitragin yoki rizotorfin bilan yopiq binoda yoki soya joyda 200 g 2 l suvga aralashtirilib inokulyatsiya qilinadi.

Ekish muddati. Soya takroriy ekilganda harorat yuqori bo'lishi, etarli namlik sharoitida maysalar bir tekis, qiyg'os, qisqa davrda unib chiqadi.

Takroriy ekin sifatida ang'izga yoki ertagi sabzavotlardan bo'shagan maydonlarga 15 iyundan 15 iyulgacha ekiladi. Qashqadaryoda

o'tkazilgan tajribalarda soya 20-30 iyunda ekilganda 10-10 iyulda ekilganga nisbatan 3-4 s/ga ko'p hosil olingan.

Urug'ni ekish usullari. Takroriy ekin sifatida soya keng qatorlab ekiladi. Yoppasiga ekilganda hosildorlik pasayadi. Qator oralari 50-100 sm gacha o'zgarishi mumkin. O'zbekistonning sug'oriladigan erlarida soya asosan qator oralari 60 sm qilib punktirlab ekiladi. Soya qator oralari 45; 70; 90 sm qilib ham ekiladi. Qator oralari 60 sm qilib ekishning qulayligi shundaki, respublikadagi asosiy ekin g'o'za ham qator oralari ko'pchilik hollarda 60 sm qilib ekiladi. Soyani qo'sh qatorlab ham ekish mumkin. Shuning uchun g'o'za o'stirishda qo'llaniladigan texnikani soyao'stirishda bimalol qo'llash mumkin.

Urug'larni ekish me'yori. Soyani takroriy ekin sifatida ekish me'yori tezpishar navlar uchun 500-600 ming urug'/ga, o'rtapishar navlar uchun 400-500 ming urug'/ga tavsiya etiladi. O'simliklarning tup qalinligi hosilni yig'ishtirishdan oldin 300-400 ming/ga bo'lishi yuqori hosil olishni ta'minlaydi. Tezpishar navlar ekilganda ekish me'yori 90-100 kg/ga, kechpishar navlar 60-70 kg/ga bu ko'rsatkichlar 1000 ta urug' vazniga qarab kamayishi yoki ko'payishi mumkin.

Ang'izga soya qator oralari 60 sm qilib ekilganda ekish me'yori 80 kg/ga bo'lganda hosildorlik eng yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Ekish me'yorini gektariga 60 kg ga kamaytirish yoki 120 kg ga oshirish don hosilining kamayishiga olib kelgan.

Ekish chuqurligi. Bug'doy hosilidan bo'shagan ang'izga, takroriy ekin soya urug'lari ekish chuqurligi tuproqda namlik etarli bo'lganda 3-4 sm, tuproqning yuza qismi quriganda 5-6 sm. Tuproq mexaniktarkibi qumoq bo'lsa ekish chuqurligi 6-8 sm oshiriladi. Urug'larni juda chuqurga ekish dala unuvchanligining pasayishiga, ko'purug'larning chirib ketishiga sabab bo'ladi. Ekish SZU-3,6, SZT-3,6, SPCh-6, SPCh-

8A, SST-12A, SUK-24 seyalkalarida o'tkaziladi. Lavlagi urug'larini ekadigan SST-12A yoki SST-12B seyalkasidan foydalanilganda STYa-31000 qo'shimcha seksiyasi o'rnatiladi. Urug'larni ekishda SPS-12, SZP-Z,6, SO-4,2, chigit ekadigan STVX-4 yoki SON-2,8 sabzavot seyalkalaridan ham foydalanish mumkin.

Ekin parvarishi. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida soya qator oralari ishlanadi, o'simliklar oziqlantiriladi, begona o'tlardan tozalanib sug'oriladi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashiladi.

Qator oralarini ishlashga kirishish maysalar unib chiqib, qatorlar hosil bo'lganda boshlanadi. Dastlab mayda chopiq o'tkaziladi. Kultivatsiya ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, tuproqning zichlashganligi, sug'orishdan keyin tuproqni etilganligiga bog'liq holda o'tkaziladi. Qator oralarini ishlash odatda har 10-15 kunda o'tkaziladi, ularning soni ekinzor holatiga qarab belgilanadi. Birinchi kultivatsiya 6-8 sm chuqurlikda, keyingi- lari 10-15 sm chuqurlikda o'tkaziladi.

Begona o'tlarga qarshi Fyuzilad super 2-4 kg/ga maysalar unib chiqishdan oldin qo'llaniladi. O'suv davrida soya 2-4 barg hosil qilganda yoki ekilgandan keyin unib chiqquncha "Pivot" gerbitsidi 0,8-1,0 kg/ga miqdorda tuproqqa purkaladi. Urug'larni ekishdan 10-15 kun oldin tuproqqa "Treflan"ni 4 kg/ga miqdorda purkash ham yaxshi samara beradi.

Soya o'simligi bitlaydi, chigirtkalar, o'rgimchakkana, tripslar, xasvalardan zararlanishi mumkin. Zararkunandalarga qarshi Summi alfa 0,25-0,30 kg/ga, Karate 0,15-0,25 kg/ga qo'llaniladi. Hasharotlar soya hosiliga zarar etkazadigan miqdorda bo'lganda insektitsidlar qo'llaniladi. Kasalliklardan antraknoz, barglarmozaikasi, fitoftoroz, ildiz chirish kasalligi ekinzorda ko'p uchraydi. Ularga qarshi agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda, urug'larni ekish oldidan dorilash, tozalash,

quritish, omborlarnidezinfeksiyalash singari chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Sug'orish. Takroriy ekilgan soyani sug'orish tuproq mexanik tarkibi, sizot suvlar sathiga bog'liq holda o'zgaradi. Ang'izga takroriy ekin sifatida ekilgan soya, sizot suvlar chuqurligi, tuproq mexanik tarkibi inobatga olinib 2-3 marta 700-900 m³/ga me'yorda sug'oriladi. Sizot suvlar chuqur joylashgan bo'z tuproqlarda sug'orishni egatlab 4-5 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. Mexanik tarkibi og'ir, loy tuproqlarda sug'orish davomiyligi 20–25 soat, engil tuproqlarda 12–15 soat bo'ladi. Sug'orish me'yorlari o'simlik vegetatsiyasining boshlarida 500–600 m³/ga, vegetatsiya o'rtalarida 700–900 m³/ga va don pishish paytida 600–700 m³/ga. Sug'orishdan keyin tuproq etilishi bilan kultivatsiya qilinadi. O'zbekiston sharoitida sug'orishni to'g'ri tashkil qilib o'tkazish yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Hosilni yig'ishtirish. Soya hosili urug'lardagi namlik 14-15 %ga etganda, Keys, Sinf, Dominator, Djon Dir kombaynlari bilan o'rib-yanchib olinadi. Tovar don o'rilganda minutiga 350-400, urug'lik maydonlarda 300-400 oborot tezlikda, o'rish balandligi 10-12 sm, barabanlar oralig'i kirishda 36-40 mm, chiqishda 10-12 mm qilib sozlanadi. Hosil massasida namlik yuqori bo'lsa barabanlar oralig'i qisqartiriladi. O'rim bir fazali usulda bevosita kombaynlar bilan yig'ishtiriladi. Urug'larni tozalash «Petkus-gigant», «Super- Pektus» mashinalarda o'tkaziladi. Hosilni yig'ishtirish qisqa muddatlarda nobudgarchiliksiz o'tkaziladi. Urug'lar tozalanadi, saralanadi. Urug'lar namligi 14 % dan ortiq bo'lmagan holda saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 14 martida "2017-2021 yillarda respublikada soya ekini ekishni va

soya doni etishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2832-sonli qarori

2. Atabayeva .X.N, Israilov.I.A.Umarova.N Soya marfologiya biologiya yetishtirish texnologiyasi 2011, 11 bet.

3. Yormatova D. Donli ekinlar. Toshkent. Fan va texnologiya. 2014.

4. Катюк, А.И. Оценка адаптивности сортов сои разных агроэкоотипов / А.И. Катюк, В.В. Зубков // Известия Самарского НЦ РАН. 2014.- Т. 16.-№ 5(3).- 1140-1142-стр

5. Мякушко Ю.П. Соя. Москва. 1983.

HAVONING QARSHILIK KUCHI MAVJUD HOLAT UCHUN GORIZONTGA BURCHAK OSTIDA OTILGAN JISM HARAKATI

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti katta o‘qituvchisi, PhD.

Doniyorov Nodir Olimjon o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot havoning qarshilik kuchi mavjudligida gorizont burchak ostida otilgan jism dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, Nyuton harakat tenglamalarining differensial-modellashtirish usullari asosida trayektoriya evolyutsiyasini o‘rganadi. Ideal holatda jismning harakati parabolik bo‘lishiga qaramay, aerodinamik dissipativ kuchlarning mavjudligi natijasida fazoviy koordinatalar va kinematik parametrlar nolinchilik sharoitida o‘zgaruvchan bo‘ladi. Tadqiqotda Stoks va Kvadratik qarshilik modellari asosida harakat tenglamalari tuziladi va ularning analitik, sonli va asimptotik yechimlari o‘rganiladi. Havoning qarshilik koeffitsienti

Reynoldson soniga bog'liq ravishda modellashtiriladi, bu esa turbulent va laminarning o'tish rejimlarida trayektorianing deformatsiyalanish darajasini baholash imkonini beradi. Eksperimental va hisoblash natijalari tasdiqlaganidek, havoning qarshilik kuchi jismning maksimal balandligi, parvoz masofasi, tezligi va tezlanishining sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Ushbu ilmiy natijalar aerodinamika, reaktiv harakat nazariyasi va ballistik modellashtirish sohalarida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Abstract: This study focuses on the analysis of the dynamics of a projectile launched at an angle, incorporating aerodynamic drag effects through differential modeling of Newtonian equations of motion. While the trajectory is parabolic in an idealized scenario, the presence of dissipative aerodynamic forces introduces nonlinear variations in spatial coordinates and kinematic parameters. The research formulates equations of motion based on Stokes' and quadratic drag models, examining their analytical, numerical, and asymptotic solutions. The aerodynamic drag coefficient is modeled as a function of the Reynolds number, allowing for the evaluation of trajectory deformation across laminar and turbulent flow regimes. Experimental and computational results confirm that aerodynamic resistance significantly reduces the projectile's maximum height, flight range, velocity, and acceleration. These findings hold critical practical significance in aerodynamics, reactive motion theory, and ballistic modeling.

Аннотация: Настоящее исследование посвящено анализу динамики тела, брошенного под углом к горизонту, с учетом аэродинамического сопротивления, на основе методов дифференциального моделирования уравнений движения Ньютона. Несмотря на то, что в идеализированном случае траектория

движения является параболической, наличие диссипативных аэродинамических сил приводит к нелинейным изменениям пространственных координат и кинематических параметров. В работе строятся уравнения движения на основе моделей сопротивления Стокса и квадратичного сопротивления, анализируются их аналитические, численные и асимптотические решения. Коэффициент аэродинамического сопротивления моделируется как функция числа Рейнольдса, что позволяет оценить степень деформации траектории в ламинарном и турбулентном режимах. Экспериментальные и численные результаты подтверждают, что аэродинамическое сопротивление существенно снижает максимальную высоту, дальность полета, скорость и ускорение тела. Данные выводы имеют значительную практическую ценность в аэродинамике, теории реактивного движения и баллистическом моделировании..


Kalit soʻzlar: gorizont, trayektoriya, parabola, burchak

Key words: horizon, trajectory, parabola, angle


Ключевые слова: горизонт, траектория, парабола, угол

Kirish. Biz maktab darsliklarida gorizontga burchak ostida otilgan jism harakatini soddaroq oʻrganish uchun unda qarshilik kuchlari yoʻq deb hisoblaganmiz. Lekin, real sharoitda muhitda harakat qilayotgan har qanday jismga oʻsha muhit tomonidan ishqalanish kuchlari taʼsir qiladi. Yaʼni gorizontga burchak ostida otilgan jismga havo tomonidan $F = kv$ kuch taʼsir qiladi, umuman olganda k koeffitsiyent Stoks formulasiga koʻra $6\pi\mu r$ ga teng.

Keling bu kuchlarni chizmada ko'rib chiqaylik.



Chizmadan ko'rinib turibdiki, kv kuch doimo v tezlikka qarama-qarshi yo'nalgan. Bundan tashqari unga mg og'irlik kuchi ham ta'sir qiladi va bu kuch qarshilik kuchi va tezlikka perpendikulyar ham,



parallel ham emas. Shuning uchun biz bu kuchlarning o'zidan emas proyeksiyasidan foydalanamiz, bu esa bizga ancha qulaylik tug'diradi. Chizmadan foydalanib jismga ta'sir qiluvchi kuchlarning proyeksiyalarini Nyutonning ikkinchi qonuni orqali ifodalaymiz. Nyutonning ikkinchi qonuni:

"Jismning tezlanishi unga ta'sir qiluvchi kuchga to'g'ri proporsional, massasiga esa teskari proporsional"

Ya'ni

$$\vec{a} = \frac{\vec{F}}{m}$$

Bu formulani har bir koordinata o'qlari uchun yozish mumkin.

$$kv_x = -m \frac{dv_x}{dt}$$
$$kv_y + mg = -m \frac{dv_y}{dt}$$

Bu yerda nega manfiy ishora qo'yilganini chizmadan bilib olish qiyin emas. Yuqoridagi differensial tenglamalarni quyidagicha ishlanadi:

X o'qida

$$kv_x = -m \frac{dv_x}{dt}$$
$$\frac{dv_x}{v_x} = -\frac{k}{m} dt$$
$$\int \frac{dv_x}{v_x} = \int -\frac{k}{m} dt$$
$$\ln v_x = -\frac{k}{m} t + C$$

$t=0$ da $v_x=v_{0x}$ ekanligidan

$$C = \ln v_{0x}$$
$$v_x = v_{0x} e^{-\frac{k}{m} t}$$



Y o'qida

$$kv_y + mg = -m \frac{dv_y}{dt}$$
$$\frac{dv_y}{v_y + \frac{mg}{k}} = -\frac{k}{m} dt$$
$$\int \frac{dv_y}{v_y + \frac{mg}{k}} = \int -\frac{k}{m} dt$$
$$\ln \left(v_y + \frac{mg}{k} \right) = -\frac{k}{m} t + C$$

Bu yerda ham $t=0$ da $v_y=v_{0y}$ ekanligidan

$$C = \ln \left(v_{0y} + \frac{mg}{k} \right)$$
$$v_y = v_{0y} e^{-\frac{k}{m} t} + \frac{mg}{k} (e^{-\frac{k}{m} t} - 1)$$

Bundan kelib chiqadiki, jismning tezligi vaqtga eksponensial



bog'liq.

Bu tezlikning x va y o'qidagi komponentlarining vaqtga bog'liqlik grafiklari, bu yerda v_y jism pastga tushayotganda manfiy bo'ladi.

Endi jismning koordinatlarini vaqtga bog'liqligini topamiz. Buning uchun tezlik komponentlarini vaqt bo'yicha integrallash yetarli:

X o'qi

$$\int_{x_0}^x dx = \int_0^t v_x dt$$

$$x - x_0 = \int_0^t v_{0x} e^{-\frac{k}{m}t} dt$$

$$x = x_0 + \frac{mv_{0x}}{k} \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right)$$

Y o'qi

$$\int_{y_0}^y dy = \int_0^t v_y dt$$

$$y - y_0 = \int_0^t \left(v_{0y} e^{-\frac{k}{m}t} + \frac{mg}{k} \left(e^{-\frac{k}{m}t} - 1\right)\right) dt$$

$$y = y_0 + \frac{mv_{0y}}{k} \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right) + g \left(\frac{m}{k}\right)^2 \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right) + \frac{mg}{k} t$$

Bizning keyingi qadamimiz energiyaning qanday taqsimlanishini tekshirishdan iborat. Energiya – jismning ish bajara olish qobiliyatidir. Bu kattalik invariant va ishqalanish kuchlari bo'lmagan taqdirda vaqt bo'yicha o'zgarmaydi va agar ishqalanish kuchlari mavjud bo'lsa to'la

energiyaning ma'lum qismi issiqlikka aylanib ketadi. Jismning to'la energiyasi

$$E = T + U$$

ifoda yordamida aniqlanadi. Bu yerda T – kinetik energiya, U – potensial energiya. Energiyaning issiqlikka aylanib ketgan qismini topish uchun to'la energiya qanchaga kamayganini topish yetarli:

$$Q = E_0 - E$$

E_1 va E_2 quyidagicha topiladi :

$$E_0 = T_0 + U_0, \quad E = T + U$$

$$E_0 = \frac{mv_0^2}{2} + mgy_0$$

$$E = \frac{mv^2}{2} + mgy$$

Va biz yo'qolgan energiya (issiqlik) ifodasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$Q = \frac{m}{2}(v_0^2 - v^2) + mg(y_0 - y)$$

Gorizontga burchak ostida otilgan jismning harakat tenglamalarini boshqa usulda ham keltirib chiqarish mumkin. Buning uchun biz Lagranj funksiyasidan foydalanamiz. Biz bilamizki, klassik mexanikada Lagranj funksiyasi sifatida ko'pincha kinetik va potensial energiyalarning farqi olinadi. Ya'ni

$$L = T - U$$

Kinetik va potensial energiyalarning ifodasini bilgan holda Lagranj funksiyasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$L = \frac{m}{2}(v_x^2 + v_y^2) - mg(y - y_0)$$

Real sharoitda to'la energiya saqlanmasligini yuqorida ta'kidlab o'tgan edik, bunday holda Eyler-Lagranj tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right) - \frac{\partial L}{\partial q} + \frac{\partial R}{\partial \dot{q}} = 0$$

Bu yerda R – dissipativ funksiya (yoki Rayleigh function). Bu funksiya $R = \frac{1}{2}k(v_x^2 + v_y^2)$ ga teng (sodda hollarda). q – umumlashgan

koordinatalar sistemasi, bu yerda u x yoki y bo‘ladi, ya’ni yuqoridagi Eyler-Lagranj tenglamasidagi q ning o‘rniga x yoki y ni qo‘yib ishlashimiz mumkin. Shunday qilib

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial \dot{x}}\right) - \frac{\partial L}{\partial x} + \frac{\partial R}{\partial \dot{x}} = 0$$

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial \dot{y}}\right) - \frac{\partial L}{\partial y} + \frac{\partial R}{\partial \dot{y}} = 0$$

tenglamani olamiz va bu tenglamadagi L va R ning o‘rniga $L(q, \dot{q}, t)$ va $R(\dot{q})$ larni qo‘yamiz. Shunda bizda quyidagi differensial tenglamalar paydo bo‘ladi:

$$m\ddot{x} + k\dot{x} = 0$$

$$m\ddot{y} + k\dot{y} + mg = 0$$

Bu differensial tenglamalarni $\dot{x}$ va $\dot{y}$ lar uchun ishlaymiz.

$$\dot{x} = C_1 e^{-\frac{k}{m}t}$$

$$\dot{y} = C_2 e^{-\frac{k}{m}t} - \frac{mg}{k}$$

Bu yerda C_1 va C_2 o‘zgarmaslarni $t=0$ shart bilan topish qiyin emas. Shunda

$$C_1 = v_{0x}, \quad C_2 = v_{0y} + \frac{mg}{k}$$

Xuddi shunday, jismning koordinatalarini vaqtga bog‘lanishini topish mumkin:

$$x = x_0 + \frac{mv_{0x}}{k}\left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right)$$

$$y = y_0 + \frac{mv_{0y}}{k}\left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right) + g\left(\frac{m}{k}\right)^2\left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right) + \frac{mg}{k}t$$

Endi esa uning energiyasini ko‘rib chiqamiz. Biz bilamizki sistemaning to‘la energiyasi quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$E = \dot{q} \frac{\partial L}{\partial \dot{q}} - L$$

Bu kattalik vaqt bo‘yicha o‘zgarmaydi ammo ishqalanish kuchlari mavjud bo‘lganligi uchun energiya ham o‘zgaruvchan bo‘ladi. Uning vaqt bo‘yicha qanday o‘zgarishini topish uchun yuqoridagi $E = E(L, \dot{q})$ ifodaning isbotidan foydalanamiz.

Buning uchun Lagranj funksiyasining vaqt bo'yicha o'zgarishini

ko'rib chiqamiz:

$$\frac{dL}{dt} = \frac{\partial L}{\partial t} + \left(\frac{\partial L}{\partial q}\right)\dot{q} + \left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right)\ddot{q}$$

Lagranj funksiyasi vaqtga oshkor bog'liq bo'lmaydi. Shuning

uchun

$$\frac{\partial L}{\partial t} = 0$$

bo'ladi va formula quyidagicha o'zgaradi

$$\frac{dL}{dt} = \left(\frac{\partial L}{\partial q}\right)\dot{q} + \left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right)\ddot{q}$$

Eyler-Lagranj tenglamasiga ko'ra

$$\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right) + \frac{\partial R}{\partial q} = \frac{\partial L}{\partial q}$$

$$\frac{dL}{dt} = \left(\frac{d}{dt}\left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right) + \frac{\partial R}{\partial q}\right)\dot{q} + \left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right)\frac{d\dot{q}}{dt}$$

$$\frac{dL}{dt} = \frac{d}{dt}\left(\dot{q}\frac{\partial L}{\partial \dot{q}}\right) + \dot{q}\frac{\partial R}{\partial q}$$

$$\frac{d}{dt}\left(\dot{q}\frac{\partial L}{\partial \dot{q}} - L\right) = -\dot{q}\frac{\partial R}{\partial q}$$

$$\frac{dE}{dt} = -\dot{q}\frac{\partial R}{\partial q}$$

Dissipativ funksiyaning ifodasini bilgan holda

$$\frac{dE}{dt} = -kv^2$$

Shunday qilib, energiyaning o'zgarish tezligini topdik. Bu yerda manfiy ishora energiyaning kamayishini bildiradi. Endi jism yo'qotgan energiya miqdorini topamiz. Buning uchun dE differensialni 0 dan t gacha chegara qo'yib integrallashimiz yetarli.

$$dE = -kv^2 dt$$

$$dE = -kv_x^2 dt - kv_y^2 dt$$

Eyler-Lagranj tenglamasidan olingan xulosalarga ko'ra

$$-kv_x = m\frac{dv_x}{dt}$$

$$-kv_y = m\frac{dv_y}{dt} + mg$$

Bu tenglamalarni dE ifodaga qo'yamiz

$$dE = m \frac{dv_x}{dt} v_x dt + \left(m \frac{dv_y}{dt} + mg \right) v_y dt$$

$$dE = mv_x dv_x + mv_y dv_y + mg dy$$

$$dE = d \left(\frac{mv^2}{2} + mgy \right)$$

Endi bu ifodani mos chegaralar bilan integrallaymiz.

$$\int_{E_0}^E dE = \int_{v_0}^v d \left(\frac{mv^2}{2} \right) + \int_{y_0}^y mg dy$$


$$E - E_0 = \frac{m}{2} (v^2 - v_0^2) + mg(y - y_0) < 0$$

Bu yerda yo'qolgan energiya havo-jism sistemasining ichki energiyasi o'zgarishiga sarflanadi.

$y_0=0$, $x_0=0$ bo'lgan taqdirda jismning trayektoriya tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$y = \frac{v_{0y}}{v_{0x}} x + \frac{mg}{kv_{0x}} x - g \left(\frac{m}{k} \right)^2 \ln \left(1 - \frac{kx}{mv_{0x}} \right)$$

va uning tayektoriyasi taxminan



ko'rinishda bo'ladi.

Bizning oldimizdagi yana bir masala bu jismning yerga qancha vaqtda qaytib tushishini topishdan iborat. Bunda soddalik uchun $y_0=0$ deb hisoblaymiz va $y=0$ da t ning qiymatini topamiz. Shunda

$$\frac{mv_{0y}}{k} \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t} \right) + g \left(\frac{m}{k} \right)^2 \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t} \right) + \frac{mg}{k} t = 0$$

Tenglamaning ikkala tarafini m/k ga bo'lib yuboramiz

$$\begin{aligned} & \left(v_{0y} + \frac{mg}{k}\right) \left(1 - e^{-\frac{k}{m}t}\right) + gt = 0 \\ & v_{0y} + \frac{mg}{k} = u, \quad \frac{k}{m} = \alpha \quad \text{belgilash kiritsak,} \\ & u(1 - e^{-\alpha t}) + gt = 0 \\ & u(e^{\alpha t} - 1) + gte^{\alpha t} = 0 \\ & e^{\alpha t}(u + gt) = u, \quad \times \frac{\alpha}{g} e^{\frac{u\alpha}{g}} \\ & e^{\alpha t + \frac{u\alpha}{g}} \left(\alpha t + \frac{u\alpha}{g}\right) = \frac{u\alpha}{g} e^{\frac{u\alpha}{g}} \end{aligned}$$

Biz bilamizki, bunday ko‘rinishdagi tenglamalar Lambert W funksiyasi yordamida yechiladi, ya’ni agar bizda quyidagi ko‘rinishda berilgan tenglama bo‘lsin

$$xe^x = k$$

bunda tenglama yechimi quyidagicha ifodalanadi:

$$x = W(k)$$

Xuddi shunday bizning tenglamamiz yechimi ham quyidagicha bo‘ladi:

$$t = \frac{m}{k} W\left(\frac{kv_{0y}}{mg} + 1\right) e^{\frac{kv_{0y}}{mg} + 1} - \frac{v_{0y}}{g} - \frac{m}{k}$$

Demak biz jismning harakat vaqtini konkret qiymatini topa olmaymiz, ya’ni yechim doimo irratsional chiqadi.

Bizda yana savol paydo bo‘ladi: ideal sharoitda $k=0$ bo‘lishini hisobga olib, buni real sharoit tenglamalariga tadbiq etsak, tenglamalar cheksizni ko‘rsatmaydi?

Javob: biz real sharoit tenglamalariga $k=0$ deb to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘ya olmaymiz, real sharoit tenglamalaridan ideal sharoit tenglamalarini keltirib chiqarish uchun $k \rightarrow 0$ limitni ishlash yetarli. Bunda bizga Lopital qoidalari ancha qo‘l keladi.

Yuqoridagi kabi $\frac{k}{m} = \alpha$ belgilash kiritamiz. Shunda

$$k \rightarrow 0 \Rightarrow \alpha \rightarrow 0$$

shart ham o‘rinli bo‘ladi. X o‘qida

$$v_x = v_{0x} e^{-\alpha t}$$

$$\lim_{\alpha \rightarrow 0} v_{0x} e^{-\alpha t} = v_{0x}$$

$$x = x_0 + \frac{v_{0x}}{\alpha} \times (1 - e^{-\alpha t})$$

$$\lim_{\alpha \rightarrow 0} (x_0 + \frac{v_{0x}}{\alpha} (1 - e^{-\alpha t})) = [L, q] = x_0 + \lim_{\alpha \rightarrow 0} \frac{v_{0x}}{\alpha'} (1 - e^{-\alpha t})' = x_0 + v_{0x} t$$

Y o'qida

$$v_y = v_{0y} e^{-\alpha t} + \frac{g}{\alpha} (e^{-\alpha t} - 1)$$

$$\lim_{\alpha \rightarrow 0} (v_{0y} e^{-\alpha t} + \frac{g}{\alpha} (e^{-\alpha t} - 1)) = [L, q] = v_{0y} - gt$$

$$y = y_0 + \frac{v_{0y}}{\alpha} (1 - e^{-\alpha t}) + \frac{g}{\alpha^2} (1 - e^{-\alpha t}) + \frac{g}{\alpha} t$$

$$\lim_{\alpha \rightarrow 0} y = [L, q]^2 = y_0 + v_{0y} t + \frac{gt^2}{2}$$

Bu yerda $[L, q]$ - Lopital qoidasini qo'llash. Ideal sharoitda to'la

energiya o'zgarmaydi

$$\frac{dE}{dt} = 0$$

va jismning parvoz vaqti

$$t = \frac{2v_{0y}}{g}$$

ekanligi osongina topiladi.

Xulosa

Havoning qarshilik kuchini hisobga olgan holda gorizontaal burchak ostida otilgan jism harakati murakkab dinamik jarayon bo'lib, uning trayektoriyasi ideal parabola shaklidan farqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qarshilik kuchi jismning uchish masofasini qisqartiradi, maksimal balandlikni pasaytiradi va umumiy harakat vaqtiga ta'sir qiladi. Turli rejimlardagi qarshilik kuchining ta'siri Nyuton harakat tenglamalariga asoslangan modellar orqali tahlil qilindi. Olingan natijalar aerodinamika, ballistika va muhandislik sohalarida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jism harakatini yanada aniq prognoz qilish va optimallashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalashnikov S.G. Elektr. O'qituvchi. Toshkent, 1979 y.

2. Sivuxin D.V. Obshiy kurs fiziki. I – tom Nauka” Moskva, 1977 y.
3. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi. I – tom. O’qituvchi 1976 y.
4. Zisman G.A. va Todes O.M. Kurs obshey fiziki. I – tom Moskva, 1972 y.
5. Telesnin R.V. va Yakovlev V.F., Kurs fiziki, Elektrichestvo, Prosveshenie, Moskva 1969 y.
6. Shtrauf E.A., Kurs fiziki. I – tom. Sudpromgiz. Leningrad 1963 y.

**ICHBURUG‘ AMYOBASI (*ENTOMOEBIA HISTOLYTICA*)
TUZILISHI, KASALLIK BELGILARI VA KASALLIKKA QARSHI
KURASH**

Jo‘rayev Muhammadyusuf Shavkatbek o‘g‘li

Andijon davlat universiteti Zoologiya va biokimyo kafedrası
katta o‘qituvchisi, Biologiya fanlari falsafa doktori

Abduvaliyeva Sojida Ibrohimjon qizi

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta’lim yo’nalishi talabasi

E-mail: sojidaabduvaliyeva7@gmail.com

Tel: +998975710015

Annotatsiya: Ichburug‘ amyobasi hozirgi kunda dunyoning barcha mintaqalrida tarqalgan bo‘lib, asosan, tropik mintaqalarda ko‘p uchraydi. Ichburug‘ amyobasi asosan odamga suv va ifloslangan mevasabzavotlar orqali yuqadi va ichakda parazitlik qiladi. Ikkinchi holatida odamdan odamga yuqishi mumkin. Ichburug‘ amyobasini yuqtirgan odamning organizimida surunkali ravishda parazit yashashda davom ettirsa boshqa organlarga ham qon orqali yetib boradi. Natijada jigar

xo'ppozi kasalligi vujudga keladi. Kasallikni yengish uchun bir qancha usullar mavjud bo'lib, yangi texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Kasallik davolanmagan holatda o'lim bilan yakunlanishi mumkin. Kasallikning tarqalishini oldini olish uchun turli ishlar olib borilmoqda. Misol uchun toza suv va toza mahsulotlarni iste'mol qilishning nazorati yo'lga qo'yilgan. Turli diagnostika markazlarida vaksinalar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Аннотация: Кишечная амеба в настоящее время распространены во всех регионах мира, преимущественно в тропических регионах. Кишечная амеба в основном передается человеку через воду и зараженные фрукты и овощи и является паразитом в кишечнике. Во втором случае он может передаваться от человека к человеку. Если паразит продолжает хронически жить в организме человека, зараженного кишечной амебой, через кровь он попадает в другие органы. В результате возникает абсцесс печени. Способов борьбы с заболеванием несколько, и они реализуются на основе новых технологий. Если заболевание не лечить, оно приведет к смерти. Для предотвращения распространения заболевания принимаются различные меры. Например, налажен контроль за потреблением чистой воды и чистых продуктов. В различных диагностических центрах также налажено производство вакцин.

Abstract: Intestinal amoeba is now widespread in all regions of the world, mainly in tropical regions. Intestinal amoeba is mainly transmitted to humans through water and contaminated fruits and vegetables and is a parasite in the intestine. In the second case, it can be transmitted from person to person. Methods exist and are carried out on the basis of new technologies. The disease can end in death if it is not treated. Various works are being carried out to prevent the spread of the

disease. For example, the control of the consumption of clean water and clean products has been established. The production of vaccines has also been established in various diagnostic centers.

Kalit soʻzlar: ichburugʻ amyobasi, ifloslangan meva-sabzavot, jigar xoʻppozi, sista, psevdapodiy, PCR, amyobitsit, ichak.

Ключевые слова: зараженные кишечной амёбой фрукты и овощи, абсцесс печени, киста, псевдоподии, ПЦР, амиоциста, кишечник.

Key words: intestinal amoeba contaminated fruit and vegetables, liver abscess, cyst, pseudopodia, PCR, amycyst, intestine.

Kirish. Odam va hayvonlarda tanasida amyobaning 5 turi istiqomat qilishi mumkin. Ular orasida ichburugʻ amyobasi ham boʻlib xavfli xisoblanadi. Ichburugʻ amyobasi insonning yoʻgʻon ichagida parazitlik qiladi va odamda qonli ichburugʻ kasalligini keltirib chiqaradi. Natijada inson oshqozoni yalligʻlanishiga, ichaklarda ogʻriq paydo boʻlishiga olib keladi. Bugungi kunda ichburugʻ amyobasi kasalligini davolash uchun dori darmonlar, antibiotiklar va suv tanqisligini bartaraf etish boʻyicha ishlar koʻrilib chiqilmoqda. Profilaktika va sogʻlom turmush tarzi asosiy kurashish uslublariga kiradi.

Adabiyotlar tahlili

Inson ichagida parazitlik qiladigan amyobalarning bir qancha turlari mavjud boʻlib, ulardan faqat ichburugʻ amyobasi ichak kasalligini keltirib chiqaradi [18; Cur Trop Med Rep.]. Feder Losh 1875-yilda Sank-Peretburgda najas namunalarida amyobani birinchi marotaba topdi. Fritz Schaudinn 1903-yilda ichburugʻ amyobasi va *endamoeba coli* ortasidagi farqlarni oʻrgandi, u toʻqimalarning lizisini keltirib chiqargani uchun unga ichburugʻ amyobasi nomini beradi [17; UK NEQAS.]. Emil Brumpt 1925-yilda eksperimental usul yordamida parazitning 2 xil

morfologik jihatdan farqlanmaydigan turini aniqladi [22; 486-490-b.]. Vierek ichburug amyobasining hayot aylanishini tog'ri ta'rif etgan olim hisoblanadi [32; 212-216-b.]. Ichburug' amyobasi dastlab aniqlanganda uning asosiy ro'li aniqlanmagan ammo, 1903-yilda Leonard Rojers jurnalda o'z maqolasini nashr ettirdi. U o'z maqolasida ichak parazitining qanday qilib ichakka zarar keltirishini va ichakdan so'ng qon orqali jigarga tarqalishini ko'rsatib berdi [31; 657-678-b.]. Ichburug' amyobasining tarixiy kelib chiqishi va tuzilishi o'rganish uchun maymun najasi orqali ichburug' amyobasi mushukka yuqtrilgan va u orqali namunalar olinib parazit o'rganilishni boshlagan [23;15-38.]. Ichburug' amyobasi tarixda o'rganilishni boshlaganda najasdan tashqari hayotda ko'p yashay olmasligi aniqlangan [34; 243-252-b.].

Ichburug' amyobasi bir hujayrali parazit [3; 1-57-b.]. Parazit ikki fazali hayot almashinuviga ega organizm hisoblanadi. Ya'ni uning shakli har xil bo'lgan ikkita biologik bosqichni taqdim etadi. Ulardan bittasi amyoba deb ataladigan trofolzolito bo'lib odam organizimida yashaydi. U odamning ichagida oziqlanadi kopayadi va ichagidagi har qanday turdagi hujayra va to'qimalarni yo'q qila oladigan xususiyatga ega. Ikkinchisi esa sista davri xisoblanadi. Ya'ni parazitni noqulay sharoitda hayotini davom ettirishini ta'minlaydigan davr. Sista davrida parazit suv yoki ifloslangan oziq ovqatlar yordamida inson tanasida yangi hayotini boshlashga o'tlanadi [11; 1-29-b.]. Hajmi 20-30 um harakatchan organizm. Ichburug' amyobasi butun dunyoning har bir burchagidan topiladi [20; 34-90-b.]. U tropik va subtropik mintaqalarda sovuq mintaqalardan kora ko'proq uchraydi. Parazit inson ichagining shilliq qavatida yashaydi [21; 24-118-b.]

Parazit odatda odamlarga zararlangan meva va sabzavotlar yoki zararlangan suvni ichganlarida yuqadi. Odamdan odamga to'g'ridan

to'g'ri yuqishi ham mumkin, chunki sistalar ququq terida taxminan 10 daqiqa va tirnoq ostida 45 daqiqa davomida yashab qolish xususiyatiga ega [36; 345-367-b.]. Ichburug' amyobasi butun dunyo bo'ylab tarqalishi 1% dan 10% gacha o'zgarib turadi. Ma'lum bir hududlarda esa bu ko'rsatkich 50% dan ham oshadi [1; 251-255-b.]. Dunyoviy miqyosda taxmin qilinishicha dunyo aholisining 500 milliondan ortig'i ichburug' amyobasi kasalligi bilan aziyat chekadi. Yiliga 100 millionda ortiq odam ushbu kasallikning simptomatik amebiaz formasi bilan zararlanadi. Ushbu amebiaz forma bilan 100 milliondan ortiq odamlarning kasallik tarixlari o'lim bilan yakunlanadi [25; 1-11-b.]. Ichburug' amyobasini 2 turga farqlash mumkin. Ya'ni ichakda va ichakdan tashqarida uchraydigan formasi. Kasallikning har bir 2 turining tashxis qo'yilishi va davolanish strategiyasi 2 xil bo'ladi. Shuning uchun ularning har biri alohida alohidadan tasvirlanadi [33; 572-589-b.]. Parazit ichak devoridagi to'qimalar bilan oziqlanadi va ko'p hollarda yarani hosil qiladi. Parazit surunkali ravishda inson organizimida yashashini davom ettirsa, boshqa organlarga ham qon orqali o'tishini boshlaydi. Ichburug' amyobasi kasalligi o'lim holatigacha olib keladi. Ichburug' amyobasining tanasi plazma lemmasi bilan qoplangan, tanasi sitoplazma ektoplazma va endoplazmadan iborat. Tanadagi bitta yirik keng tomtiq psevdapodiy ektoplazmadan hosil bo'ladi. Endoplazmada sharsimon yadro, oziq-ovqat vakuolalari mavjud. Yadroda xromatin bloklaridan iborat periferik toj va markazda joylashgan yadrocha mavjud [35; 234-252-b.]. Yardo kattaligi 4-6 um, markaziy nuqtasida kariosoma joylashgan va yadro membranasi mayda xromatinli granulalar bilan qoplangan [12; Entamoeba histolytica Infectious Disease.]. Parazit ko'p sonli psevdapodiylari yordamida harakatlanadi. Ichburug' amyobasi sistalar yordamida tarqaladi. Ovqat qoldig'i bilan yog'on ichakdan to'g'ri ichakka tushgan parazitlar

pseudopodiyalarini tortib olib, yumaloqlanadilar. [8; 449-452-b]. Ektoplazma yupqa va pishiq qobiq ishlab chiqargandan so'ng sista davriga o'tadi. Sista ichida amyoeba tanasi 2 marta ketma-ket bo'linadi va sista ichida endi amyoeba 4 ta yadroga ega bo'lib qoladi. Axlat bilan birga tashqi muhitga chiqqan sistalar noqulay sharoitga ancha chidamli bo'ladi. Hatto tuproqda 2-3 oy yashashi mumkin. Sista quruq va issiq muhit ta'siriga chidamsiz bo'ladi, ya'ni bunday sharoitga tushgan sistalar nobud bo'ladilar [37; 127-b.]. Parazitlarni qanday ko'payishi tarixdan buyon odamlarni qiziqtirgan va ularni o'raginib kelishmoqda. Parazitlarni dastavval olimlar jinsiy yo'l bilan ko'paymaydi ular ikkiga bo'linish yo'li orqali ko'yadi deb hisoblashgan [28; 102-b.].

Ichburug' amyoebasining og'ir yoki yengil kasallik alomatlarini namoyon qilishi mumkin. Masalan yengil asoratlari; qorin og'rig'i, diareya yoki qonli diareya. Og'ir asoratlari: yallig'lanish, perforatsiya. Parazit qon oqimiga kirib jigarga yetib borganda jigar xo'ppozini keltirib chiqaradi. Jigar xo'ppozisi ham keng tarqalgan kasallik hisoblanadi. Bu kasallik bilan og'rikan bemorlarning 50-80% 2-4 hafta davomida istma chiqib tananing ma'lum qismlarida davomiy og'riq kuzatiladi, 50% holatlarda bemorlarda vazn yo'qotilishi va qorin og'rishini muntazam kuzatiladi. Ushbu kasallik bilan zararlangan bemorlar homilador bo'lsa, to'yib ovqatlanmasa, alkogol mahsulotlarini iste'mol qilsa yoki yosh jihatidan hali kichik bo'lsa o'lim bilan yakunlanishi ehtimoli ortadi [2; 1(1)-1004 -b.]. Hech qachon yoki qo'llarini kamdan kam hollarda sovun bilan yuvadigan aholi, gigienaga rioya qiladigan aholidan parazit yuqishi ehtimoli 3-4 barobar yuqori bo'ladi [29; 14-42-b.]. Ko'pgina rivojlanayotgan tropik mamlakatlarda yuqori darajada jigar xo'ppozisi uchraydi [7; 1017-1044-b.]. Jigar xo'ppozisi kasalligi ayollarda erkaklarga qaraganda kamroq uchraydi. Nima sababdan erkaklarda bu kasallik ko'p

ekanligi hali aniqlanmagan. Jigar xo'ppozi iminuteti pasaygan odamlarda ko'proq kuzatiladi [5; 13157-13166-b.]. Jigar xo'ppozini aniqlashda ultratovush va kompyuter tomografiyasi bir xil darajada turadi. Ammo qon zardobidagi antikorlarni aniqlash bilan amebik infektsiyani bor ekanligini tasdiqlash tavsiya etiladi [15; bioRxiv.]. So'ngi yillarda jigar xo'ppozining o'limga olib keladigan xolatlari oldingiga qaraganda kamaygan bo'lsada, hozirgi kunda endemik hududlarda sog'liqni saqlashga e'tibor hali ham katta [6; 41-43-b.]. Parazitga qarshi kurashish uchun olimlar tomonida vaksina ishlab chiqildi va jigar xo'ppoziga qarshi foydalanildi [30; 657-678-b.]. Ko'pincha parazit asemptomatik holatda bo'lishi mumkin. Ammo ba'zi hollarda og'ir fulminating kasallik paraziti o'z ta'sirini boshlagandan 7-28 kunlik inkubatsiya davri o'tib paydo bo'lishi mumkin [19; 1-7-b.].

Ichburug' amyobasini aniqlash uchun tur xil usullar mavjud. Dastlabki usul bu mikroskopiya usuli bo'lgan. Mikroskopiya usulida ko'p mehnat talab qilingan va malakali texnik hodimlardan foydalanilgan u arzon bo'lganligi uchun qulay deb hisoblangan. Shuning uchun mikroskopiya usuli hozirgacha saqlanib, insonlar tomonidan foydalanib kelinmoqda. Mikroskopiya usulida ishlash ancha murakkab bo'lib yakuniy xulosani olish uchun bir qancha namunalardan foydalaniladi [14; 17-58.]. Hozirgi kunda ichburug' amyobasini PCR usuli orqali o'rganilishi ham yo'lga qo'yilgan. Bitta namunada bir vaqtning o'zida parazitning ko'proq ko'rinishi haqida ma'lumotlarni aniqlash uchun PCR usulida multipleks yondashuv tendentsiyasi mavjud. Jahon sog'liqni saqlash qo'mitasi ham PCR usulini qo'llab quvvatlaydi. Sababi PCR o'ziga xos ko'rinishda tezlik bilan ishlaydi. Ammo PCR usuli ko'plab texnika va asbob-uskunlarni talab qiladi [10; 42-49-b.]. Ichburug' amyobasini 14% PCR usulida aniqlangan [9; 1-13-b.]. Ichburug'

amyobasini davolash insonlarning ta'sirlanishiga qarab 3 yo'nalishda amalga oshiriladi: intraluminal, to'qima va aralash amyobitsidlari yo'nalishidir. Intraluminal amyobitsitlar ichakdagi sistalarga qarshi samarali hisoblanadi. To'qima amyobitsitlari ichakni va boshqa to'qimalarda simptomatik kasalliklarni davolaydi. Aralash amyobitsitlar ikkala ta'sirga ham ega bo'ladi [16; UK NEQAS .]. Ichburug' amyobasini davolash odatda luminal agentlar bilan yoki to'qima amyobitsidlari bilan davolash terapiyasini o'z ichiga oladi [24; Reterieved from www.anses.fr]. Ichakdan tashqarida rivojlanadigan ichburug' amyobasini tekshirishning yagona usuli bu sereologik test usuli. Bu usul salbiy bo'lish holati ham ko'p kuzatilgan. Ultrasonografiya usuli jigar xo'ppozining mavjudligi va joylashuvini aniqlashda qo'llaniladi [4; Communicable Disease Management Protacol.]. Ichburug' amyobasi bilan davolanish kursini tugatgandan so'ng bemorlar parazitni organizimidan butkul chiqib ketganligiga ishonch hosil qilish uchun qayta axlat tekshiruluvidan o'tadilar. Jigar xo'ppoz natijasida zararlangan jigarning qayta tiklanishi uchun 20 oyagacha vaqt talab qilinishi mumkin. Qaytadan ultratovush tekshiruvidan o'tishlari tavsiya etiladi [13; Reterieved from amc.edu.mx]. Yaqinda ichburug' amyobasini dispar amyobadan ajrata oladigan sezgir va o'ziga xos molekulyar usullar ishlab chiqildi. Bulardan biri ferment bilan bog'langan immunosorobent tahlili [26; 611-617-b.]. Hozirgi kunda olimlar ichburug' amyobasini oldini olish uchun turli emlash amaliyotlari ishlab chiqilmoqda [27; 120-127-b.].

XULOSA

Ichburug' amyobasi (*Entamoeba histolytica*) dunyo bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, asosan tropik va subtropik hududlarda ko'proq uchraydi. Parazit inson organizmiga ifloslangan suv, meva-sabzavotlar

orqali yoki odamdan odamga yuqishi mumkin. Kasallikning yengil va og'ir shakllari mavjud bo'lib, jigarga yetib borgan hollarda jigar xo'ppozi kabi jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Profilaktika choralari sifatida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, toza suv va oziq-ovqat iste'molini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy diagnostika usullari, jumladan PCR, mikroskopiya va serologik testlar yordamida ichburug' amyobasi aniqlanadi. Davolashda intraluminal, to'qima va aralash amyobitsid dori vositalari qo'llaniladi. Tadqiqotlar davomida parazitga qarshi vaktsinalar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, hozircha samarali profilaktika choralari kasallik tarqalishini oldini olishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Murat Soylu¹, Abdurrahman Ekici¹, Selahattin Aydemir¹, Şehriban Yürektürk¹, Önder Akkaş² A Parasite That Should not be Neglected in Patients with Ulcerative Colitis: *Entamoeba histolytica* *Turkiye Parazitol Derg* 2024; 251-255
2. Investigation of *Entamoeba Histolytica* among Food-Handler in Erbil City – Iraq. Ahmed Akil Al-Daoudy¹, Fattma A Ali¹, Shilan Sulaiman Ahmad, Sawsan Mohamed Sorche, Gashbin Ali Khalid, Avan Sharif Awlla, Rayan Esmail Aziz, Zhyhan Hassan Asaad .Al-Daoudy AA, Ali FA, Ahmad SS, Sorche SM, Khalid GA, et al. Investigation of *Entamoeba Histolytica* among FoodHandler in Erbil City - Iraq. *SciBase Hematol Blood Disord. SciBase Hematology & Blood Disorders* 2024; 1(1): 1004.
3. Shruti Nagaraja, Maggi W.Cai, Jingjing Sun, Hugo Varet, Lotem Sarid, Meirav TrebiczyGeffen, Yana Shaulov, Mohit Mazumdar, Rachel Legendre, Jean-Yves Coppée, Thomas J. Begley, Peter C. Dedon, Samudrala Gourinath Nancy Guillen, Yumiko Saito-Nakano, Chikako

Shimokawa, Hajime Hisaeda, Serge Ankri. Queueine is a nutritional regulator of *Entamoeba histolytica* response to oxidative stress and a virulence attenuator. bioRxiv preprint doi:

<https://doi.org/10.1101/2020.04.30.070276>; 2020; 1-57

4. Richard Baydack, Carla Ens. Amebiasis. Communicable Disease Management Protocol 2013;

5. Daisuke Usuda, Shiho Tsuge, Riki Sakurai, Kenji Kawai, Shun Matsubara, Risa Tanaka, Makoto Suzuki, Hayabusa Takano, Shintaro Shimosawa, Yuta Hotchi, Shungo Tokunaga, Ippei Osugi, Risa Katou, Sakurako Ito, Kentaro Mishima, Akihiko Kondo, Keiko Mizuno, Hiroki Takami, Takayuki Komatsu, Jiro Oba, Tomohisa Nomura, Manabu Sugita. Amebic liver abscess by *Entamoeba histolytica*. CLINICAL Cases 2022;13157-13166

6. Judith A Anesi, Stephan Gluckman. Amebic liver abscess. Annals of Hepatology. PMC PubMed Central. 2015;41-43

7. Don C. Rockey, Stephen H. Caldwell, Zachary D. Goodman, Rendon C. Nelson, and Alastair D. Smith. Liver Biopsy. Aasld position paper 2009; 1017-1044

8. Rashidul Haque, K. M. Ali, Akther, William a. Petri, jr. Comparison of PCR, Isoenzyme Analysis, and Antigen detection for diagnosis of *Entamoeba histolytica* infection. Clinical microbiology 1998; 449–452

9. Susanna Haapanen, Seppo Parkkila Management of *Entamoeba histolytica* infection – treatment strategies and possible new drug targets Tampere University Research Portal. 2021;1-13

10. Bibiana Chávez Munguía y Arturo González Robles a estructura interna de un *Entamoeba histolytica*: destructor por naturaleza Revista Ciencia 2013; 42-49

11. Diamond. Entamoeba histolytica. Medicine pedagogy and technology; theory and practice 2024; 1-29
12. Jen Seabright, PharmD Entamoeba histolytica Infectious Disease 2023;
13. Entamoeba histolytica life cycle. Retrieved from amc.edu.mx 2022;
14. Pavel Broz, Augustinus L Jacob, Jan Fehr, Christina K Kissel An unusual presentation of amebic liver abscesses National Medicine of Medicine 2010; 17-58
15. Deepak Krishnan, Santhoshi Nayak, Sudip Kumar Ghosh Entamoeba histolytica. bioRxiv 2020;
16. Entamoeba histolytica. (n.d.). Retrieved from www.ukneqasmicro.org.uk UK NEQAS
17. Entamoeba histolytica pdf www. Ukneqasmicro .org. uk UK NEQAS
18. Nadia A El-Dib Entamoeba histolytica: an Overview. Cur Trop Med Rep 2017;
19. Entamoeba-histolytica. Retrieved from tacs.dypvp.edu.in 2024; 1-7
20. Entamoeba-histolytica. pdf tacs.dypvp.Edu.In 2023; 34-90
21. Analida Elizabeth Pinilla, Myriam Consuelo Lopez, Diego Fernando Viasus. History of the Entamoeba histolytica protozoan. 2008; 24-118
22. Warrington Yorke and A. R. D. Adams. Investigations Into The Life - History of Entamoeba histolytica.. The British Medical 1927; 486-490

23. Syazwan Saidin, Nurulhansanah Othman, Rahman Noordin. Update on laboratory diagnosis of amebiasis. *Clinical Microbiology and Infectious Diseases*. 2019; 15-38
24. Retrieved from www.anses.fr 2025;
25. C D Hutson, R Haque, W A Petri Jr. Molecule-based diagnosis of *Entamoeba histolytica* infection. *National Library of Medicine*. 1999; 1-11
26. Eric Houpt, Lisa Barroso, Lauren Lockhart, Rhonda Wright, Carole Cramer, David Lyster, William A. Petri Prevention of intestinal amebiasis by vaccination with the *Entamoeba histolytica* Gal/GalNAc lectin *ScienceDirect* 2004; 611-617
27. Gareth D. Weedall, Neil Hall. Sexual reproduction and genetic exchange in parasitic protists. *Cambridge University Press*. 2014; 120-127
28. Phuc Pham Duc, Hung Nguyen-Viet, Jan Hattendorf, Jacob Zinsstag, Phung Dac Cam, Pater Odermatt. Risk factors for *Entamoeba histolytica* infection in an agricultural community in Hanam province, Vietnam. 2011; 102
29. Eduardo C. Roncalto, Jose E Teixeira, José E. Barbosa, Leandra N. Zambelli Ramalho, Christopher D Huston Immunization with the *Entamoeba Histolytica* Surface Metalloprotease EhMPS-1 Protect Hamsters from Amebic Liver Abscess. *ASM MICROBE*. 2015; 14-42
30. Stephan H. Gillespie & Richard D. Pearson (Editors). (n.d.). Principles and Practice of Clinical Parasitology. Retrieved from 2001; 65-76-b.].
31. H.Z. Giffin, M.D The identity of "*Entamoeba histolytica* and *Entamoeba tetragena*". *JAMA*. 1913; 657-678

32. Dickson d. Despommier. The laboratory diagnosis of entamoeba histolytica

33. Division of Tropical Medicine Columbia University College of Physicians and Surgeons New York, New York 1981; 212-216.

34. Jasmine Y. Jackson-Akers; Vidhya Prakash; Tony I. Oliver. Amebic Liver Abscess StatPearls. 2023; 572-589

35. Valeria Zermeño, Cecilia Ximénez, Patricia Morán, Alicia Valadez, Olivia

Valenzuela, Edgar Rascón, Daniel Diaz, René Cerritos. Infection, Genetics and Evolution 2013; 243–252.

36. Arjun Pratap Singh. Structure and Life Cycle of Entamoeba Histolytica Lecture Notes 2023; 345-367

37. Zoologiya (umurtqasizlar zoologiyasi). O. Mavlonov, K. Saparov, N. Toshmatov. Toshkent, 2018; 124-b.

TARBIYADA OILA, MAKTAB VA MAHALLA ORASIDAGI HAMKORLIK VA XALQ PEDAGOGIKASINING AHAMIYATI

Gapparov Bexzod Nematillayevich

Jizzax politexnika instituti,

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Email: bexzodgapparov132@gmail.com

Tel: (99) 556-06-50

Ibragimov Alibek Mansur o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti 1-bosqich talabasi

E-mail: ialibek41@gmail.com

Tel: (88) 639-12-11

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalla har bir xonadon, har bir yosh uchun xulqi, hatti-harakatini namoyon qiladigan adolatli sinov

maydonidir. Ana shu maydonda imtihon topshirgan har bir yosh yigit-qiz o'zidagi nuqsonlar, kamchiliklarni oynada ko'rgandek ko'rishadi va o'zlari uchun tegishli xulosani chiqarishadi. Mahalla ahli odil hakam sifatida yoshlarning xulqini, hatti-harakatini baholashadi.

Аннотация: В этой статье махалля является справедливой испытательной площадкой для каждой семьи, любого возраста, где можно продемонстрировать свой характер и поведение. Каждый молодой человек или девушка, сдающие экзамен по этой специальности, словно глядя в зеркало, видят свои собственные недостатки и изъяны и делают для себя соответствующие выводы. Жители микрорайона, как справедливые судьи, оценивают поведение и поступки молодых людей.

Abstract: In this article, the neighborhood is a fair testing ground for each household and each age group to demonstrate their behavior. Every young man and woman who has passed the exam in this area sees their own defects and shortcomings as if they saw them in a mirror and draw the appropriate conclusion for themselves. The people of the neighborhood evaluate the behavior and behavior of young people as a fair judge.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi, xalqimizning milliy an'analari, udumlari, marosimlar.

Ключевые слова: Священный Коран, Хадис Шариф, творческое наследие великих писателей, ученых, национальные традиции, обычаи, обряды нашего народа.

Keywords: Holy Qur'an, Hadith Sharif, creative heritage of great writers, scholars, national traditions, traditions, rituals of our people.

O'tmishda ajdodlarimiz tarbiyada nasihat, tushuntirish, rag'batlantirish, maqtash, namuna ko'rsatish, tanbeh berish, taqiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish usullaridan foydalanganlar.

Bu usullarni qo'llashda ota-onalar, murabbiylar va mahalla ahli ahloq qoidalariga suyang'an. Ular bolalarda qilgan ishi, hatti-harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida ishonch hosil qilishga harakat qilganlar. Ularga ahloqlilik va ahloqsizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma'nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy aqida hisoblangan.

Bobolarimiz bola haqqi – ulug' haqlarning ulug'i va bunga ota-ona hamda murabbiylar mas'uldir deyilar. Shuning uchun bola haqlarini bilish va kerakli paytda ado etish ota-ona va murabbiylar burchidir.

Bolalik davri g'animat davr. Chunki bu davrda bolalar har xil tarbiyaga moyil bo'ladilar. Unga bolalikdan yaxshi tarbiya bermoq kerak. Shunda u yaxshi hulqi bilan ota-ona va murabbiylarni quvontiradi.

Bolani yaxshi tarbiyalash uchun ota-onaning o'zi tarbiyali bo'lmog'i, bolalarga milliy ruhni singdirish uchun ularning o'zi milliy an'analarimiz, odatlarimizni bilmoqlari va unga amal qilmoqlari kerak.

Oilada milliy urf-odatlarimizning, an'analarimizning, marosimlarimizning mohiyatini yaxshi bilish, ularga hurmat bilan qarash, qadrlash, amal qilish qanday bo'lsa, bu holat bolalarning xulqida, ishida, hatti-harakatida namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan barcha odatlarni bilish va unga amal qilish avvalo oiladan boshlanadi. Masalan, qadimgi o'zbek odatiga ko'ra, yoshlar kattalar bilan uchrashganlarida birinchi bo'lib salom beradilar, lekin qo'l berib so'rashganda ularning birinchi bo'lib qo'l uzatishlari

odobsizlik hisoblanadi. Hotin-qizlar va kattalar oldida chekish, odobsiz imo-ishoralar qilish, behayo hazillar qilish yaramaydi.

Xalq an'analari bolaga o'zini qaerda qanday tutishni o'rgatadi. O'zbek qizlari kattalarga, ayniqsa, erkaklarga hech qachon tik qarashmagan. Ular kattalarning oldida baland ovozda gapirishmagan, ularga hazil qilmagan, ularning oldidan sekin yurib o'tishgan, ularning oldilaridan yo'lni kesib o'tishmagan.

Bolalar kattalar uyga kirishganda yoki chiqishganda ularning hurmati uchun o'rinlaridan turishgan, kiyimlarini qo'llaridan olishgan yoki kiyimlarini qo'llariga berishgan. qarindoshlariga salom aytib yuborishni unutishmagan. Bolalar katta-kichikka birday mehribon va kattalarga itoatkor bo'lishgan. Kattalarga ular qo'llarini ko'ksilariga qo'yib "rahmat" deb, minnatdorchilik bildirishgan. Ko'pchilik oldida, davrada o'tirganda birovning qulog'iga shivirlash, birovning ustidan kulish, ko'z urishtirish, shoshilib ovqat yeyish odobsizlik sanalgan. Ota-onalar xalq an'analari binoan yoshlikdan "yaxshi" nima-yu "yomon" nima, nimadan uyalish kerakligini tushuntirishgan. O'zbek odatiga ko'ra kattalar notanish odamlar oldida bir-birlariga "siz"lab murojaat qilishgan. Mehmonlar oldida bolalarni koyishmagan, idish-tovoqlarni taqirlatmagan. Bunday odatlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Oilada ana shu ajoyib odatlarimizga o'rgatilgan bolalar bu odatlarga hamma joyda, ko'cha-kuyda, mahallada, maktabda amal qilishgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu odatlarga faqat ota-onalar emas, balki o'qituvchi-murabbiylar ham amal qilsalar odatlar yanada go'zallashib, sayqallanib, kundalik turmush tarzimizdan mustahkam o'rin oladi.

To'y va marosimlar, bayram va turli yig'inlar, har xil anjumanlar, tarbiyaviy tadbirlarda, darsda, tarbiyaviy soatlarda, sinfdan tashhari

ishlar jarayonida o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlariga amal qilinsa, murabbiylar bolalardan odatlarga rioya qilishni talab etishsa, o‘zlari ham muntazam ibrat-namuna ko‘rsatishsa, kutilgan natijani berishi tabiiy xoldir.

Maktabda, ayniqsa, adabiyot, tarix, odobnoma darslari, tarbiyaviy soatlarda o‘tilayotgan mavzuning mazmuni, xarakteridan kelib chiqqan holda xalqimizning qadimiy udumlari, xalq pedagogikasi an‘analarini alohida ajratib qayd etish, tahlil qilish, ahamiyatini tushuntirish, targ‘ib qilish o‘qituvchi-murabbiylar zimmasiga tushadi. Bu borada, avvalo, otalar ham, murabbiy-o‘qituvchilar ham o‘zlari shaxsiy ibrat ko‘rsatmoklari shart. Bo‘lmasa, barcha sa’y-harakatlar besamar ketadi.

Adabiyot darslarida xalq ertaklari, xalq qo‘shiqklari, dostonlari, afsonalar, maqollarni, badiiy asarlarni o‘tayotganda, obrazlar tahlil qilinayotganda ular timsolidagi chiroyli odatlarimiz, an‘analarimizga alohida e‘tiborni haratmoq lozim. Masalan, “Zumrad va Qimmat” ertagi, “Alpomish” dostoni, “Shiroq”, “To‘maris” afsonalari, Hadislar, “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarini o‘tishda anna shu go‘zal milliy odatlarimizni alohida ajratib ko‘rsatish, ularni targ‘ib qilmoq kerak.

Xalq pedagogikasi an‘analaridan foydalanish, ularni targ‘ib qilishda nafaqat oila va maktab, balki mahalla ham faol ishtirok etmog‘i lozim. Xalqimiz bekorga “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deb aytmagan, chunki eng yaxshi odatlar mahallada tarkib topadi. Mahallada o‘tkaziladigan marosimlar, bayramlar, hasharlar, sumalak pishirish, to‘ylar, azalar, har xil yig‘inlar o‘ziga xos “tarbiya maktabi” vazifasini o‘taydi. Aynan shu mahallada yoshlar, xatto yoshi kattalar ham oila, maktabda ololmagan tarbiya saboqlarini olishadi. Mahalla har bir xonadon, har bir yosh uchun xulqi, hatti-harakatini namoyon

qiladigan adolatli sinov maydonidir. Ana shu maydonda imtihon topshirgan har bir yosh yigit-qiz o'zidagi nuqsonlar, kamchiliklarni oynada ko'rgandek ko'rishadi va o'zlari uchun tegishli xulosani chiqarishadi. Mahalla ahli odil hakam sifatida yoshlarning xulqini, hatti-harakatini baholashadi.

To'yda, azada, hasharda o'zini tutishi, o'ziga, o'zgalarga munosabati, mehnatga layoqati, odobi, aql-farosati mahalla ahli tomonidan baholanadi.

Yaxshi-yomon xususiyatlari bilan ko'zga tashlangan yoshlarga "kimning o'g'lisan yoki kimning qizisan" deb savol berishning o'zi kifoya.

Ota-onalar ham, farzandlar ham mahallada yaxshi nom chiharishga harakat qilishadi, yomon otliq bo'lib qolishdan qo'rqishadi. Bu har bir bolaning, ota-onaning zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Mahallada har bir xonadonning o'z o'rne, qo'shnilik haqqi bor. Hadisi Sharifda: "Agar qo'shnilaring seni yaxshi deyishsa, demak yaxshisan, yomon deyishsa, yomonsan" deyilishi bejiz emas. "Qo'shning tinch - sen tinch", "Uzoqdagi qarindoshdan, yaqindagi qo'shning afzal", - deydi dono xalqimiz.

Shariatda o'ng va chap, old va orqa tomondan qirq xonadon - jami 160 xonadon qo'shni hisoblanadi. Bolalar qo'shnilardan ham ko'p narsani o'rganadi.

Umuman olganda, xalq pedagogikasi an'analaridan, boy madaniy merosimizdan foydalanishda oila, maktab, mahalla birgalikda, bahamjixat ish ko'rishsagina kutilgan natijaga erishmoq mumkin.

Har uchchalasining maqsadi, faoliyati bir-biriga uyg'un bo'lsagina tarbiyaning samarasi yaxshi bo'ladi. Bugungi kun tarbiyasidagi "asosiy formula" ana shu.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Xoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi. Toshkent – 1996 yil. 228-bet.
2. “O‘qituvchi odobi” M.Ochilov, N.Ochilova, Toshkent, 1997 yil.
3. G.A.Haydarova, K.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2009 yil.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASI

Normurodova Sadoqat Xoliqulovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: sadoqatnormurodova33@gmail.com

Toshturdiyeva Fotima

Asadova Shaxina Halim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti “Matematika va informatika”
yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola axborot texnologiyalarining zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda sun‘iy intellekt, tarmoq texnologiyalari, kiberxavfsizlik, dasturiy ta‘minot ishlab chiqish va ma‘lumotlar bazasi kabi yo‘nalishlar AT ta‘limida muhim o‘rin tutadi.

Аннотация: В статье рассматриваются информационные технологии как одна из основных движущих сил развития современного общества. Сегодня такие направления, как искусственный интеллект, сетевые технологии, кибербезопасность, разработка программного обеспечения и баз данных, играют важную роль в ИТ-образовании.

Abstract: This article considers information technology as one of the main driving forces of the development of modern society. Today, areas such as artificial intelligence, network technologies, cybersecurity, software development, and databases play an important role in IT education.

Kalit soʻz: Axborot texnologiya, taʼlim, interfaollik, virtual muhit, dasturlar, dasturiy taʼminot.

Ключевые слова: Информационные технологии, образование, интерактивность, виртуальная среда, программы, программное обеспечение.

Keywords: Information technology, education, interactivity, virtual environment, programs, software.

Kirish. Axborot texnologiyalar boʻlimini oʻqitishning samaradorligi innovatsion metodlar, zamonaviy oʻquv vositalari va amaliy mashgʻulotlarga asoslangan yondashuvlar orqali oshirilishi mumkin. Axborot texnologiyalarini oʻqitishning metodikasi, ilgʻor usullari va samarali taʼlim texnologiyalari tahlil qilinadi.

Muhokama. Axborot texnologiyalarini oʻqitishda asosiy tamoyillar. AT fanlarini samarali oʻqitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Amaliyotga yoʻnaltirilgan taʼlim – talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun real loyihalar ustida ishlashlari kerak.

Interfaollik – darslar simulyatsiyalar, laboratoriya mashgʻulotlari va virtual muhitda oʻtkazilishi muhim.

Mustaqil izlanish va kreativ yondashuv – talabalar mustaqil ravishda dasturlar yaratish, tarmoqlarni sozlash yoki kiberxavfsizlik masalalarini hal qilishga oʻrgatilishi lozim.

Gamifikatsiya (o'yin elementlaridan foydalanish) – qiziqarli va interaktiv ta'lim jarayonini yaratish [1].

Axborot texnologiyalarini o'qitish metodikalari. Quyida AT bo'limida qo'llaniladigan eng samarali metodlar keltirilgan:

Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning – PBL)

Talabalarga real muammolarni hal qiluvchi loyihalar ustida ishlash imkoniyati beriladi.

Dasturiy ta'minot muhandisligi – talabalar mobil yoki veb-ilova yaratishadi.

Tarmoq texnologiyalari – talabalar kichik ofis tarmog'ini loyihalashadi.

Kiberxavfsizlik – talabalar kiberhujumlarga qarshi simulyatsiyalar o'tkazishadi.

Teskari sinf (Flipped Classroom). Talabalar nazariyani mustaqil ravishda video darslar yoki onlayn kurslar orqali o'rganib, darsda esa amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratishadi [2,3].

Foydali platformalar:

Coursera, edX – AT bo'yicha yetakchi kurslar.

Khan Academy – dasturlash va informatika kurslari.

YouTube – zamonaviy dasturlash tillari bo'yicha bepul darsliklar [4].

Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar. Talabalar real muhitga yaqin tajribalar o'tkazishlari uchun quyidagi vositalardan foydalanish mumkin:

Cisco Packet Tracer – tarmoq texnologiyalarini o'rganish uchun.

VMware & VirtualBox – server tizimlarini sozlash va xavfsizlik bo'yicha laboratoriyalar yaratish uchun.

MIT Scratch va App Inventor – dasturlashga yangi kirgan talabalar uchun vizual dasturlash muhiti [5].

Gamifikatsiya va musobaqalar. Darslarni qiziqarli va interaktiv qilish uchun o'yin elementlari kiritilishi mumkin:

Hackathon va kodlash musobaqalari – talabalar dasturlash bo'yicha bellashadi.

CTF (Capture The Flag) o'yinlari – kiberxavfsizlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar.

LeetCode, Codeforces, HackerRank – algoritmik fikrlashni rivojlantirish uchun [6].

Juftlikda dasturlash (Pair Programming). Ikki nafar talaba birgalikda ishlaydi: biri kod yozadi, ikkinchisi uni tekshiradi va fikr bildiradi. Bu usul jamoaviy ish ko'nikmalarini oshirish va xatolarni tez aniqlash uchun samarali.

Axborot texnologiyalarini o'qitishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar. Quyidagi jadvalda AT fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan asosiy dasturiy ta'minot va platformalar keltirilgan:

Axborot texnologiyalarini baholash va natijalarni tahlil qilish. Talabalarning bilim darajasini aniqlash uchun uch bosqichli baholash tizimi qo'llaniladi:

1. Boshlang'ich testlar – Dars oldidan talabalar mavzu bo'yicha bilim darajasi tekshiriladi.

2. Amaliy topshiriqlar – Talabalar real kod yozish, tarmoqlarni sozlash yoki dastur ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

3. Loyihalar va taqdimotlar – O'quv jarayoni yakunida talabalar o'z loyihalarini himoya qilishadi [7,8,9].

Onlayn baholash platformalari:

Google Forms – tezkor testlar o'tkazish uchun.

Kahoot & Quizizz – interfaol viktorinalar uchun.

Moodle – onlayn ta'lim platformasi [10].

Amaliyot va mustaqil ishlar. Talabalarga mustaqil loyihalar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash tavsiya etiladi.

Dasturlash – Web yoki mobil ilova yaratish.

Ma'lumotlar bazasi – Korxona uchun ma'lumotlar bazasi tuzish.

Tarmoq texnologiyalari – Virtual tarmoq yaratish va sinovdan o'tkazish.

Kiberxavfsizlik – Hujum va himoya usullarini sinash uchun simulyatsiya yaratish [11].

Xulosa. Axborot texnologiyalari bo'limini o'qitishda amaliyotga yo'naltirilgan metodlar, interfaollik va innovatsion texnologiyalar asosiy o'rin tutadi. Loyiha asosida o'qitish, gamifikatsiya, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishadi, balki real muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Bu metodikalar orqali o'qitish jarayoni samarali, qiziqarli va natijador bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. John V. Guttag – Introduction to Computation and Programming Using Python, 2016.
2. Andrew S. Tanenbaum – Computer Networks, 5th Edition, 2011.
3. Stuart Russell & Peter Norvig – Artificial Intelligence: A Modern Approach, 4th Edition, 2020.
4. Merrill, David – First Principles of Instruction, 2012.
5. Cisco Networking Academy – CCNA Routing and Switching Guide, 2019.

6. Normurodova, S. X., et al. "Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year-old children. "European Journal of Molecular and Clinical Medicine 7.11 (2020): 339-343.

7. Нормуродова, Садокат. "РАЗВИТИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 1-ГО КЛАССА ПРИ ОБУЧЕНИИ АЛФАВИТУ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ SCRATCH." Предпринимательства и педагогика 3.3 (2024): 144-150.

8. Ganiev, A. G. "others. The role of travel lessons in the Shahrizabz Zoo in teaching foreign languages and developing their imagination to pupils of preschool educational institutions. International scientific and practical conference." *Kazakhstan. Pavladar* (2020): 249-251.

9. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe* 2.04 (2021): 206-211.

10. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe* 2.04 (2021): 206-211.

11. Maxmudjonovna, Yaxiyaxonova Muxiba. "Developing full-fledged thinking skills in firstgraders through the perception of the “surrounding world” (using the example of a Mind Map)." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 35 (2024): 31-37.

DIN VA DUNYOVIYLIK O'RTASIDAGI MUVOZANAT: ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI MUAMMOLAR

Zaynobidinova Naima Inomidinova

Namangan davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.n.,

Yuldasheva Zumrad

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti

E-mail: Zumradziyoo@gmail.com

Tel: 913480506

Annotatsiya: Ushbu maqolada din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat masalasi zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan o'rganildi. Din va dunyoviylikning ta'lim jarayonidagi o'rni, ular o'rtasidagi uyg'unlik, qarama-qarshiliklar hamda muammolar tahlil qilinadi. Dinning shaxsning ma'naviy tarbiyasidagi o'rni va dunyoviylikning ilmiy-tahliliy fikrlashni shakllantirishdagi roli ilmiy yondashuv asosida muhokama qilingan. Maqolada yechim sifatida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish taklif etildi.

Аннотация: В статье исследуется вопрос баланса между религией и светскостью с точки зрения современной педагогики. Рассматриваются роль религии и светскости в образовательном процессе, их противоречия и проблемы. Особое внимание уделено значению религии в духовном воспитании личности и роли светскости в развитии аналитического мышления. В качестве решения предложено использование инновационных педагогических методов.

Annotation: The article examines the balance between religion and secularism from the perspective of modern pedagogy. It analyzes the role of religion and secularism in education, their contradictions, and

challenges. The importance of religion in moral upbringing and secularism in developing analytical thinking is discussed through a scientific approach. As a solution, the use of innovative pedagogical methods is proposed.

Ключевые слова: Религия, светскость, образование, воспитание, этика, общество, баланс, педагогика, ценность, культура, наука, технология.

Kalit soʻzlar: Din, dunyoviylik, taʼlim, tarbiya, axloq, jamiyat, muvozanat, pedagogika, qadriyat, madaniyat, ilm-fan, texnologiya.

Keywords: Religion, secularism, education, upbringing, ethics, society, balance, pedagogy, values, culture, science, technology.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida din va dunyoviylik oʻrtasidagi muvozanat masalasi nafaqat ijtimoiy hayot, balki taʼlim tizimida ham dolzarb mavzuga aylangan. Turli madaniyat va qadriyatlarning oʻzaro taʼsiri ortib borar ekan, bu ikki tushuncha oʻrtasida uygʻunlikka erishish masalasi jahon pedagogikasi oldidagi muhim vazifalardan biriga aylandi. Taʼlim, faqat bilim beruvchi tizim emas, balki shaxsni tarbiyalovchi va unga axloqiy-meʼyoriy koʻrsatkichlar beruvchi muhit sifatida ham eʼtirof etiladi. Taʼlimning asosiy vazifasi jamiyatda ijtimoiy birlikni saqlash va yangi avlodni tarbiyalashdir. Shu nuqtai nazardan, din va dunyoviylik oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash, yosh avlod ongida barqaror axloqiy asos yaratish uchun muhimdir. Taʼlim-tarbiyadagi din va dunyoviylik oʻzaro bir-birini inkor etuvchi tushunchalar emas, balki ular birgalikda shaxsning maʼnaviy va intellektual rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. Biroq, amaliyotda bu muvozanatni saqlash bir qancha pedagogik va metodologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, oʻzbek jamiyatining tarixi va madaniyati dinga asoslangan anʼanalar bilan boyitilgan boʻlib, bu oʻz

navbatida dunyoviy ta'lim tizimi bilan uyg'unlashish jarayonida muayyan qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi. Masalan, diniy qadriyatlar va dunyoviylik asoslari o'rtasidagi chalkashliklar ba'zan o'quv jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy pedagogikada din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ta'lim jarayonida har ikki tomonning qadriyatlarini hisobga olishni talab etadi. Din, insoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator axloqiy va madaniy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Diniy ta'lim, o'quvchilarga axloqiy me'yorlarni berish, ruhiy salomatlikni ta'minlash va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishda yordam beradi. Biroq, diniy ta'limning haddan tashqari qat'iyligi, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini pasaytirishi mumkin. Dunyoviy ta'lim esa, ilm-fan, texnologiya va madaniyat sohalarida bilim berish orqali o'quvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Dunyoviy ta'limning asosiy vazifasi – o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, turli qarashlarni tushunishga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlashdir. Biroq, dunyoviy ta'lim ham ba'zida diniy qadriyatlar bilan to'qnashishi mumkin, bu esa o'quvchilarda qarama-qarshilik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu maqolada din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni zamonaviy pedagogika nuqtai nazaridan ko'rib chiqish, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularga yechim taklif etish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat masalasi zamonaviy pedagogikada dolzarb mavzu bo'lib, ko'plab olimlar ushbu muammoga turli yondashuvlarda qarashgan. Ilk tadqiqotlarda din va dunyoviylik o'rtasidagi ziddiyatlar ta'kidlangan bo'lsa, so'nggi yillarda ularning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Masalan,

A.Abdullayevning “Diniy va dunyoviy sohalarda totuvlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash” maqolasida zamonaviy jamiyatda din va dunyoviylikning o’zaro ta’sirining turli jihatlarini tahlil qilib, ular o’rtasidagi uyg’unlikka erishishga yordam beradigan yoki to’sqinlik qiladigan asosiy omillarni aniqlaydilar [1]. Bundan tashqari, Ijtimoiy-pedagogik g’oyalarning shakllanishida fransuz faylasufi, yozuvchi va ma’rifatparvar Jan-Jak Russo (1712–1778) muhim rol o’ynagan. U tabiiy rivojlanish tamoyillariga asoslangan holda shakllangan tarbiya konsepsiyasini ilgari surgan. Shuningdek, Russo insonni tarbiyalashda din va tabiatning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Shveytsariyalik mashhur pedagog Iogann Genrix Pestalotskiy (1746–1827) esa ijtimoiy-pedagogik nazariya va amaliyotni birlashtirishga katta e’tibor qaratgan. U o’z mablag’lari hisobidan yetim bolalar uchun boshpana uylarini tashkil etgan va ularga ta’lim-tarbiya berish imkonini yaratgan. Sharq mutafakkirlari – Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek kabi buyuk olimlar esa o’z ilmiy va pedagogik faoliyatlarida yosh avlodni tarbiyalash va ularga bilim berish jarayonini birlamchi vazifa sifatida belgilab, tarbiyaviy ta’sirning ahamiyatini ilgari surishgan. Al-Buxoriy hadislarida esa quyidagicha hikmatlar keltirilgan: “Farzandlaringizni izzat-hurmat qilish bilan birga ularga axloq va odobni ham o’rgating.” Yana bir hadisda shunday deyiladi: “Har bir go’dak islom tabiatida dunyoga keladi, so’ng uning ota-onasi uni yahudiy, majusiy yoki nasroniy qilib tarbiyalaydi.” Ushbu fikrlar ijtimoiy-pedagogik g’oyalarning shakllanishi va rivojlanishida chuqur ahamiyatga ega. Malayziya, Indoneziya va Turkiya tajribasi din va dunyoviylikning pedagogik amaliyotda muvaffaqiyatli uyg’unlashgan mamlakatlar sifatida tahlil qilingan. Bu mamlakatlarda diniy ta’limning milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilinishi o’quvchilarning axloqiy tarbiyasini

rivojlantirishda muhim omil bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 8-moddasida ta'lim tizimi va din o'rtasidagi munosabatlar tartibga solingan [2]. Ushbu modda asosida, O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan bo'lib, umumiy o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi (diniy ta'lim muassasalari bundan mustasno). Shu bilan birga, barcha fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, dunyoviy ta'lim olish huquqi to'liq ta'minlanadi. Shuningdek, har bir shaxs professional diniy ta'limni diniy ta'lim muassasalarida olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Mamlakatimizda turli dinlarga oid fanlar faqat diniy ta'lim muassasalarida chuqur o'rgatiladi. Biroq, dunyoviy ta'lim muassasalarida yoshlarni noqonuniy harakatlardan asrash, mafkuraviy kurashlardan himoya qilish va ularda ma'naviy immunitetni shakllantirish maqsadida "Din tarixi", "Dinshunoslik" va "Ma'naviyat va din" kabi fanlar o'quv dasturlariga kiritilgan. Maqolaning nazariy qismini yozishda tarixiylik, qiyosiy tahlil va tizimlilik usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

Dunyoviylik va diniylikning muvozanatini ta'minlash pedagogik jihatdan jamiyatning barqaror rivojlanishi va yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun muhim omil hisoblanadi [3]. Pedagogika nazariyasida bu masala insonni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirish zaruratidan kelib chiqadi. Ta'lim jarayonida diniy va dunyoviy qadriyatlarning uyg'unligi tarbiyaviy samaradorlikni oshiradi, chunki bu yondashuv nafaqat bilim berishni, balki shaxsning ma'naviy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Nazariy jihatdan, bu muammoning yechimi bir qator ilmiy-pedagogik manbalarda yoritilgan. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-Qulub" asarida

inson tarbiyasining diniy va axloqiy asoslari haqida fikr yuritilib, jamiyatda axloqiy me'yorlarni shakllantirishda diniy qadriyatlarning o'рни alohida ta'kidlangan [4]. Ushbu tamoyillarni amaliyotda qo'llash shaxsiy ma'naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoki axloq" asari pedagogik yondashuvni nazariy jihatdan boyituvchi asarlardan biridir. Unda insonning axloqiy tarbiyasi faqat diniy asoslar bilan cheklanmasligi, balki, ilm-fan, ma'rifat va dunyoviy qadriyatlar bilan uyg'un holda olib borilishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan [5]. Bu fikr hozirgi zamon pedagogik nazariyalarida ham o'z ifodasini topadi, chunki tarbiya faqat diniy ta'limotga tayanib qolmasdan, dunyoviy bilimlar va ijtimoiy muhit bilan ham bog'liqdir. Pedagogik nuqtai nazardan, dunyoviylik va diniylikning uyg'unligi shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Diniy qadriyatlar shaxsiy mas'uliyat va axloqiy tamoyillarni shakllantirishga yordam bersa, dunyoviy bilimlar insonning tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy faoliyatini rivojlantiradi. Ushbu yondashuv tarbiyaviy jarayonni nafaqat individual, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham samarali qiladi.

MUHOKAMA

Zamonaviy dunyo o'zgaruvchanligi va globalizatsiya jarayonlari ta'sirida din va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. Pedagogika sohasida ham bu muvozanatni saqlashga oid qator muammolar yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda ham, dunyo miqyosida bo'lgani kabi, ma'lumot olish, bilim egallash, qadriyatlar shakllantirish va fuqarolik ma'naviyatini rivojlantirishda din va dunyoviylikning o'zaro ta'sirini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir tomondan, dinning insoniyat tarixida, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar shakllanishida tutgan o'рни inkor etib bo'lmaydi.

Diniy ta'lim-tarbiya orqali o'ziga xos qadriyatlar, axloqiy normalar va hayot yo'li o'rnatilishi mumkin. O'zbekistonda an'anaviy dinning ta'lim tizimida tutgan o'rni, milliy madaniyat va tarixiy meros bilan bog'liqligi ta'kidlanishi lozim. Biroq, bugungi kunning talablari va dunyoviy bilimlarga intilishlarning o'zaro uyg'unlashtirilmasligi pedagogik amaliyotda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Agar din va dunyoviylik o'rtasidagi o'zaro munosabatlar noto'g'ri talqin qilinsa, bu diniy fanlarni dunyoviy fanlar bilan uyg'unlashtirmaslik, yoki aksimizatsiyalash tendensiyalariga olib kelishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning g'oyaviy tarmoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, xilma-xillikka qarshilik paydo qilishi mumkin. Shuningdek, din va dunyoviylikni ajratish masalasi ham o'z muammosini tug'diradi. Agar o'quvchilarga din va ilm-fanni o'zaro ajratishda, uyg'unlashtirishda qiyinchilik tug'lsa, bu ularning dunyoqarashini cheklab qo'yishi mumkin va rivojlanishini toraytirishi mumkin. Bu muammo ta'lim muassasalarida nafaqat muvozanatni qanday saqlash haqidagi aniq ko'rsatma va metodlarning etishmasligidan, balki o'qituvchilarning ma'lumot va tajribasining etishmasligidan ham kelib chiqishi mumkin.

XULOSA

Din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat masalasi zamonaviy pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo'lib, bu ikki tushuncha inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning axloqiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois ta'lim tizimida bu ikki tushuncha o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash orqali yosh avlodga komil inson bo'lish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy va

dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish, xilma-xillikni hurmat qilish va har bir o'quvchining ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga qo'shimcha ravishda o'zaro munosabatni, ijobiy o'rnak va harakatlarini uyg'unlashtirish orqali amalga oshirish kerak. Ushbu muvozanatni saqlashda o'qituvchilarning din va dunyoviy bilimlarning muvozanatli bilim bazasiga ega bo'lishligi va ularni tarbiyaviy maqsadlarga qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. Diniy va dunyoviy bilimlarni muvozanatda saqlashni ko'zda tutuvchi integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.
2. O'qituvchilarni ushbu masala bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb qilish.
3. O'quvchilarda tolerantlik va bag'rikenglikni rivojlantiruvchi axloqiy-tarbiyaviy fanlarni dars rejalariga kiritish.

Xulosa qilib aytganda, din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ta'lim tizimida nafaqat zamonaviy talablarga javob beradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev, A. (2024). Diniy va dunyoviy sohalarida totuvlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqlash. Новый Узбекистан: наука, образование и инновации, 1(1), 287–289
2. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" 699-son qonuni.
3. Karimov. I.A "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". "Manaviyat nashriyoti, Toshkent- 2008-yil.
4. Navoiy, A. Mahbub ul-Qulub. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1948.

5. Avloniy, A. Turkiy Guliston yoki axloq. Toshkent: Ma'naviyat, 1992.

AYRIM MEXANIK SISTEMALARNING TEBRANISH DAVRINI ENERGIYANING SAQLANISH QONUNIDAN HISOBLASH

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Fizika fakulteti katta o'qituvchisi, PhD

Bo'ronov Musobek Orifovich

O'zbekiston Milliy Universiteti

Fizika fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarga tanish bo'lgan mayatniklar mavzusini matematik hisob-kitoblarga o'tmasdan oldin imkon qadar ko'proq fizikani tahlil qilib chiqarib olishni o'rgatishni maqsad qiladi. Yana bir jihati garmonik harakatlarni tezlik va vaqt o'rtasidagi sinusoidal shakl hisob-kitob orqali emas, balki fizikaviy mantiq asosida aniqlanadi. Ushbu maqolada fizikaviy va matematikaviy tahlil orqali natijalarni olib taqqoslab ko'rganmiz.

Abstract: This article aims to teach students to extract as much physics as possible from the familiar subject of pendulums before moving on to mathematical calculations. Another point is that the sinusoidal shape between speed and time of harmonic movements is determined not by calculation, but by physical logic. In this article, we have compared the results through physical and mathematical analysis.

Аннотация: Целью данной статьи является научить студентов извлекать как можно больше физики из знакомого предмета о маятниках, прежде чем переходить к математическим расчетам.

Другой момент заключается в том, что синусоидальная форма между скоростью и временем гармонических движений определяется не расчетом, а физической логикой. В этой статье мы сравнили результаты посредством физического и математического анализа.


Kalit soʻzlar: Matematik mayatnik, fizik mayatnik, sterjen, davr

Key words: Mathematical pendulum, physical pendulum, stem, period

Ключевые слова: Математический маятник, физический маятник, период.

I. Kirish

Matematik mayatnik



$$1) \quad x^2 + (l - h)^2 = l^2$$

$$x^2 + l^2 - 2lh + h^2 = l^2$$

$$x^2 - 2lh + h^2 = 0$$

$$\alpha \leq 12^\circ \rightarrow h^2 \approx 0 \rightarrow h = \frac{x^2}{2l}$$

$$2) \quad W_p = mgh = mg \frac{x^2}{2l} \quad W_k = \frac{mv^2}{2}$$

$$W_t = W_p + W_k = \text{const}$$

$$\left(mg \frac{x^2}{2l} + \frac{mv^2}{2} \right)' = (\text{const})'$$


$$mg \frac{1}{2l} * 2x * \dot{x} + \frac{m}{2} * 2v * \dot{v} = 0$$

$$\frac{mg}{l} * x * v + m * v * a = 0$$

$$a + \frac{g}{l} * x = 0 \text{ va } \ddot{x} + \omega^2 x = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{g}{l}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}}$$

1. Prujinali mayatnik



$$1) \quad ma = kx$$

$$2) \quad W_p = \frac{kx^2}{2} \quad W_k = \frac{mv^2}{2}$$

$$W_t = W_p + W_k = const$$

$$\left(\frac{kx^2}{2} + \frac{mv^2}{2} \right)' = (const)'$$


$$\frac{m}{2} * 2v * \dot{v} + \frac{1}{2} * 2kx * \dot{x} = 0$$

$$mva + kxv = 0$$

$$a + \frac{k}{m} x = 0 \rightarrow \ddot{x} + \frac{k}{m} x = 0 \text{ va } \ddot{x} + \omega^2 x = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{k}{m}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$$

2. Fizik mayatnik



1) Matematik mayatnik kabi $h = \frac{x^2}{2l}$

$$W_p = mgh \quad W_k = \frac{I\omega^2}{2}$$

$$W_t = W_p + W_k = \text{const}$$

$$\left(\frac{I\omega^2}{2} + mgh \right)' = (\text{const})'$$

$$\left(\frac{I\omega^2}{2} + mg \frac{x^2}{2l} \right)' = (\text{const})'$$

$$\frac{I}{2} * 2\omega * \dot{\omega} + \frac{mg}{2l} * 2x * \dot{x} = 0$$

$$I * \omega * \varepsilon + \frac{mg}{2} * x * v = 0$$

$$\varepsilon = \ddot{\alpha} \quad \text{va} \quad v = \omega l$$

$$I * \omega * \ddot{\alpha} + \frac{mg}{2} * x * \omega l = 0$$

$$I * \ddot{\alpha} + mg * x = 0 \quad \text{va} \quad x = l * \alpha$$

$$I * \ddot{\alpha} + mgl * \alpha = 0$$

$$\ddot{\alpha} + \frac{mgl}{I} * \alpha = 0 \quad \text{va} \quad \ddot{\alpha} + \omega^2 * \alpha = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{mgl}{I}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{I}{mgl}}$$

3. Masala: Massasi m_1 va m_2 bo'lgan sharchalar, bikirligi k bo'lgan prujina orqali bir-biriga mahkamlangan. Sharchalar bir-biriga qarab ozroq qisildi va qo'yib yuborildi. Bu sistemaning tebranish davrini toping

$$\left(\frac{kx^2}{2} + \frac{m_1 v^2}{2} + \frac{m_2 v^2}{2}\right)' = (const)'$$

$$\frac{m_1}{2} * 2v * \dot{v} + \frac{m_2}{2} * 2v * \dot{v} + \frac{1}{2} * 2kx * \dot{x} = 0$$


$$m_1 va + m_2 va + kxv = 0$$

$$a * (m_1 + m_2) + kx = 0$$

$$a + \frac{k}{m_1+m_2} x = 0 \rightarrow \ddot{x} + \frac{k}{m_1+m_2} x = 0 \quad \text{va} \quad \ddot{x} + \omega^2 x = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{k}{m_1+m_2}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{m_1+m_2}{k}}$$

4. Buralma tebranish davri



1) Deformatsiya potensial energiyasi

$$W_p = \frac{D\varphi^2}{2} \quad \text{D-buralish moduli } \varphi\text{- og'ish burchagi}$$

Isboti: $dA = Md\varphi \rightarrow M = D\varphi \rightarrow \int_0^A dA = D \int_0^\varphi \varphi d\varphi \rightarrow A = W_p = \frac{D\varphi^2}{2}$

$$1) \quad W_k = \frac{I\omega^2}{2}$$

$$W_t = W_p + W_k = const$$

$$\left(\frac{I\omega^2}{2} + \frac{D\varphi^2}{2}\right)' = (const)'$$

$$\frac{I}{2} * 2\omega * \dot{\omega} + \frac{D}{2} * 2\varphi * \dot{\varphi} = 0$$

$$I * \omega * \varepsilon + D * \varphi * \omega = 0$$


$$\varepsilon = \dot{\varphi} \quad \text{va} \quad \ddot{\varphi} = \omega \dot{\varepsilon}$$

$$I * \ddot{\varphi} + D\varphi = 0$$

$$\ddot{\varphi} + \frac{D}{I} * \varphi = 0 \quad \text{va} \quad \ddot{\varphi} + \omega^2 * \varphi = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{D}{I}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{I}{D}}$$

5. So`nuvchan tebranishlar davri



$$1) W_p = \frac{kx^2}{2} \quad W_k = \frac{mv^2}{2} \quad W_q = W_T = \frac{hx^2}{2}$$

$$2) F_q = hv \rightarrow dA = F_q dx \rightarrow dA = hvdv$$

$$\dot{x} = a \quad \ddot{x} = \dot{v} = a$$

$$\int_0^A dA = \frac{1}{2} h \int_0^x dx^2$$

$$W_q = A = \frac{hx^2}{2} \quad \text{h-qarshilik koeffitsienti}$$

$$3) W_p = \frac{kx^2}{2} \quad W_k = \frac{mv^2}{2} \quad W_t = W_p + W_k$$

$$\frac{kx^2}{2} + \frac{mv^2}{2} = \frac{hx^2}{2}$$

$$\left(\frac{kx^2}{2} + \frac{mv^2}{2} - \frac{hx^2}{2} \right)' = (0)'$$

$$\frac{1}{2} * 2kx * \dot{x} + \frac{m}{2} * 2v * \dot{v} - \frac{h}{2} * 2x * \dot{x} = 0$$

$$kxv + mva - hxv = 0$$

$$(k - h)x + ma = 0$$

$$\left(\frac{k}{m} - \frac{h}{m} \right) x + \ddot{x} = 0$$

$$\frac{k}{m} = \omega_0^2 \rightarrow \text{prujinaning xususiy tebranishlar siklik chastotasi}$$

$$\frac{h}{2m} = \beta \rightarrow \text{so`nish koeffitsienti}$$

$$\ddot{x} + (\omega_0^2 - 2\beta)x = 0 \text{ va } \ddot{x} + \omega^2 x = 0$$

$$\omega = \sqrt{\omega_0^2 - 2\beta} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = \frac{2\pi}{\sqrt{\omega_0^2 - 2\beta}}$$

6. Masala: 4ta bir xil m masssali sharchalar, bir biriga 4ta bir xil uzunlikdagi va bikrlikdagi prujinalar orqali mahkamlandi, hosil bo`lgan Sistema ko`rinishidan kvadratga o`xshaydi, Sistema ozroq qisildi va qo`yib yuborildi. Bu sistemaning tebranish davrini toping

$$1) \quad W_t = \frac{kx^2}{2} * 4 + \frac{mv^2}{2} * 4 \quad \dot{y} = v$$

$$W_t = 2kx^2 + 2m\dot{y}^2 = \text{const}$$

$$kx^2 + m\dot{y}^2 = \text{const}$$

$$2) \quad \cos 45^\circ = \frac{\frac{x}{2}}{y} = \frac{x}{2y} = \frac{\sqrt{2}}{2} \rightarrow x = \sqrt{2}y$$

$$kx^2 + m\dot{y}^2 = \text{const}$$

$$2ky^2 + m\dot{y}^2 = \text{const}$$

$$\frac{dW_t}{dt} = 0 \rightarrow (2ky^2)' + (m\dot{y}^2)' = (0)'$$

$$2k * 2y * \dot{y} + m * 2\dot{y} * \ddot{y} = 0$$


$$2ky + m\ddot{y} = 0$$

$$\ddot{y} + \frac{2k}{m}y = 0 \text{ va } \ddot{y} + \omega^2 y = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{2k}{m}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{2k}}$$

7. Sistemaning tebranish davrini topish

Egri, qo`zg`almaydigan R radiusli silindrik sirtga shar(silindr) joylashgan. Shar muvozanat vaziyatidan ozroq chetlashtirildi va qo`yib yuborildi. Sharning tebranish davrini toping



8.

r-shar yoki silindr radiusi R -sirt egrilik radiusi

1) $W_p = mgh$

a) $h = (R - r)(1 - \cos \alpha) = (R - r) * 2 \left(\sin \frac{\alpha}{2} \right)^2$

kichik burchaklarda $\sin \frac{\alpha}{2} \approx \frac{\alpha}{2}$

$$h = (R - r) * 2 \left(\frac{\alpha}{2} \right)^2 = (R - r) * \frac{\alpha^2}{2}$$

b) $\tan \alpha \approx \alpha = \frac{x}{R-r}$

$$h = (R - r) * \frac{x^2}{2(R-r)^2} \rightarrow h = \frac{x^2}{2(R-r)}$$

$$W_p = \frac{mg}{2(R-r)} * x^2$$

2) $W_k = \frac{mv^2}{2} + \frac{I\omega_0^2}{2} \quad v = \dot{x} \quad \text{va} \quad \omega_0 = \frac{v}{r} = \frac{\dot{x}}{r}$

$$W_k = \frac{m\dot{x}^2}{2} + \frac{I\dot{x}^2}{2r^2}$$

3) $W_t = W_p + W_k = \text{const} \rightarrow \frac{dW_t}{dt} = 0$

$$\left(\frac{mg}{2(R-r)} * x^2 + \frac{m\dot{x}^2}{2} + \frac{I\dot{x}^2}{2r^2} \right)' = 0$$

$$\frac{mg}{2(R-r)} * 2x * \dot{x} + \frac{m}{2} * 2\dot{x} * \ddot{x} + \frac{I}{2r^2} * 2\dot{x} * \ddot{x} = 0$$

$$\frac{mg}{(R-r)}x + \left(m + \frac{I}{r^2} \right) \ddot{x} = 0$$


$$\frac{g}{(R-r)}x + \left(1 + \frac{I}{mr^2}\right)\ddot{x} = 0$$

$$\ddot{x} + \frac{g}{(R-r)} * \frac{1}{1 + \frac{I}{mr^2}} * x = 0 \quad \text{va} \quad \ddot{x} + \omega^2 x = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{g}{(R-r)} * \frac{1}{1 + \frac{I}{mr^2}}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{R-r}{g} \left(1 + \frac{I}{mr^2}\right)}$$

4) Shar uchun $I = \frac{2}{5}mr^2 \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{7}{5} \frac{R-r}{g}}$

5) Silindr uchun $I = \frac{1}{2}mr^2 \rightarrow T = 2\pi \sqrt{\frac{3}{2} \frac{R-r}{g}}$



Biz yuqorida energiyaning saqlanish qonunidan hosila olish orqali, fizik sistemaning tebranish davrini topgan edik. Bu davrni, Langranj funksiyasidan foydalangan holda ham topishimiz mumkin. Lagranj funksiyasi:

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial L}{\partial \dot{q}} \right) - \frac{\partial L}{\partial q} = 0$$

Matematik mayatnik uchun:

$$E_k = \frac{mv^2}{2} = \frac{m(l\dot{\theta})^2}{2} = \frac{ml^2\dot{\theta}^2}{2}$$

$$E_p = \frac{mgx^2}{2l} = \frac{mgl\theta^2}{2}$$

$$L = E_k - E_p$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial L}{\partial \dot{\theta}} \right) - \frac{\partial L}{\partial \theta} = 0$$

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial}{\partial \dot{\theta}} \left(\frac{ml^2\dot{\theta}^2}{2} - \frac{mgl\theta^2}{2} \right) \right) - \frac{\partial}{\partial \theta} \left(\frac{ml^2\dot{\theta}^2}{2} - \frac{mgl\theta^2}{2} \right) = 0$$

$$l\ddot{\theta} + g\theta = 0$$

$$\ddot{\theta} + \frac{g}{l}\theta = 0$$

$$\ddot{\theta} + \omega^2\theta = 0$$

$$\omega = \sqrt{\frac{g}{l}} = \frac{2\pi}{T} \rightarrow T = 2\pi\sqrt{\frac{l}{g}}$$

Xulosa

Ayrim mexanik tizimlarning tebranish davrini energiyaning saqlanish qonunidan foydalanib hisoblash usuli dinamik jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ularning xususiyatlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv asosida tebranayotgan jismning umumiy energiyasi (kinetik va potensial energiyalarning yig'indisi) vaqt davomida o'zgarmas bo'lib qoladi. Energiyaning saqlanish qonuniga tayanib, muvozanat holatidan chetga og'gan jismning maksimal elastik potensial energiyasi uning maksimal kinetik energiyasiga teng bo'lishi asosida differensial tenglamalar hosil qilinadi. Natijada, mexanik tizimlarning tebranish davri tizim parametrlariga bog'liq ravishda aniqlanadi. Masalan, oddiy garmonik tebranishlarda tebranish davri

massa va elastiklik koeffitsiyentiga bog'liq bo'lib, formulasi bilan ifodalanadi. Shunday qilib, energiyaning saqlanish qonunidan foydalanish tebranuvchi tizimlarning asosiy xarakteristikalarini aniqlashda samarali va aniq usul hisoblanadi. Bu yondashuv fizik, muhandislik va texnologik tadqiqotlarda keng qo'llanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anthony Zee, *Fly by Night Physics: How Physicists Use the Backs of Envelopes*, (Princeton University Press, Princeton, NJ, 2020). 9
2. Zhiwei Chong, "A qualitative analysis to simple harmonic motion," arXiv preprint arXiv:2209.12662 (2022). (Accepted by The Physics Teacher)
3. The subscript in T_p stands for physical, while that in y_p actually stands for the center of percussion.
4. Hugh G. Gauch, *Scientific Method in Practice*, (Cambridge University Press, Cambridge, 2003) p. 269.
5. P. N. Raychowdhury, and J. N. Boyd, "Center of percussion," *Am. J. Phys.* 47(12):1088- 1089 (1979).
6. J. Hass, C. Heil, and M. D. Weir, *Thomas' Calculus*, 14th ed. (Pearson Education, Boston, 2018), p. 191.

TALABA YOSHLARDA EMPATIYA VA INSONIY MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Zokirova Shabbona Turobovna

Guliston Davlat universiteti

Psixologiya yoʻnalishi talabasi

Tel: +998951820607

E-mail: zokirova913@gmail.com

Ravshanov Sobir Abdimalik oʻgʻli

Guliston davlat universiteti Pedagogika

va psixologiya kafedrasi oʻqituvchisi

E-mail: sobirravshanov3@gmail.com

Tel: + 998999144472

Annotatsiya: Maskur maqolada insonning his-tuygʻularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish va insonlar orasidagi tushunishni kuchaytirishda masalalari haqida soʻz boradi. Shuningdek empatiyaning shakllanishi, uning insoniy munosabatlarga taʼsiri va rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы понимания и сопереживания человеческим эмоциям, развития социальных отношений и укрепления взаимопонимания между людьми. Также анализируется формирование эмпатии, ее влияние на человеческие отношения и методы ее развития.

Abstract: The article discusses the issues of understanding and expressing empathy for human emotions, developing social relationships, and enhancing understanding between people. The formation of empathy, its impact on human relationships, and methods of development are also analyzed.

Kalit soʻzlar: empatiya, insoniy munosabatlar, hamdardlik, ijtimoiy ong, shaxsiy rivojlanish, kommunikatsiya.

Ключевые слова: эмпатия, человеческие отношения, сострадание, социальная осведомленность, личностное развитие, коммуникация.

Keywords: empathy, human relationships, empathy, social consciousness, personal development, communication.

Kirish. Empatiya insonning ijtimoiy hayotida muhim oʻrin tutadi. U atrofdagilarni tushunish, boshqalar bilan yaqin aloqa oʻrnatish va sogʻlom ijtimoiy munosabatlar qurishga yordam beradi. Empatiya yuqori boʻlgan insonlar ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslasha oladi, nizolarni hal qilishda muvaffaqiyatli boʻladi va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimida faol ishtirok etadi. Insoniy munosabatlar esa insonlarning oʻzaro aloqasi, ularning hissiy va ruhiy jihatdan bir-biriga boʻlgan munosabatlari bilan bogʻliq. Bu munosabatlarning sifati empatiyaning darajasi bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, insonlar oʻrtasida hamkorlik va hamdardlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Empatiyaning psixologik asoslari. Empatiya insonning boshqa shaxslarning his-tuygʻularini anglash va ularga hamdardlik bildirish qobiliyatidir. Bu jarayon quyidagi asosiy komponentlardan iborat: Kognitiv empatiya – boshqa insonning his-tuygʻularini tushunish qobiliyati.

Emotsional empatiya – boshqa insonning his-tuygʻularini ich-ichidan his qilish va u bilan birga kechirish. Empatik javob – odamning boshqalarning hissiy holatiga javob berish harakatlari. Empatiya shaxsning bolalik davridan shakllana boshlaydi va unga tarbiya, taʼlim, jamiyatning taʼsiri katta boʻladi. Shaxs psixologiyasi boʻyicha tadqiqotchilar, jumladan, Daniel Goleman va Martin Xoffman,

empatiyaning inson ruhiy salomatligiga va ijtimoiy munosabatlar sifatiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Insoniy munosabatlar va ularning empatiya bilan bog'liqligi. Insoniy munosabatlar turli darajadagi ijtimoiy aloqalarni qamrab oladi: Oila va yaqin do'stlik munosabatlari – yaqin kishilar o'rtasida empatiya yuqori bo'lishi, o'zaro qo'llab-quvvatlash va tushunishning asosiy omili hisoblanadi. Kasbiy munosabatlar – empatiya ish joyidagi hamkorlik, jamoaviy muhit va samarali muloqotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy va madaniy munosabatlar – empatiya insonlarning turli guruhlar, madaniyatlar va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tushunishni kuchaytirishga yordam beradi. Empatiya rivojlangan shaxslar odatda mojarolarni hal qilishda samarali yondashuvga ega bo'ladilar va jamiyatda faol ishtirok etadilar.

Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu tadqiqot turli yoshdagi insonlarning empatiya darajasi va insoniy munosabatlar bilan bog'liq jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: Anketali so'rov – ishtirokchilarning empatiya darajasi va insoniy munosabatlari xususiyatlarini aniqlash. Psixologik testlar – Devisning empatiya shkalasi, Mehribonlik va hamdardlik testi. Kuzatish va suhbat – insonlarning ijtimoiy munosabatlardagi xulq-atvorini tahlil qilish.

Tahlil va natijalar.

- Yosh va empatiya darajasi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh o'tishi bilan empatiya shakllanishi quyidagicha o'zgaradi: O'smirlar (13-18 yosh) – empatiya hali to'liq shakllanmagan, lekin boshqalarning his-tuyg'ulariga sezgirlik rivojlanayotgan bo'ladi. Yoshlar (19-30 yosh) – empatiyaning rivojlanish jarayoni kuchayadi va insoniy munosabatlarda sezilarli o'sish kuzatiladi. Kattalar (30+ yosh) – empatiya nisbatan barqarorlashib, inson o'z

hayotiy tajribalariga asoslangan holda boshqalarni tushunishga harakat qiladi.

- Empatiyaning insoniy munosabatlarga ta'siri

Empatiya yuqori bo'lgan insonlarning insoniy munosabatlari quyidagi xususiyatlarga ega: Ijobiy muloqot va kelishuvchanlik darajasi yuqori. Mojarolarni konstruktiv yo'l bilan hal qilish qobiliyati. O'zaro ishonch va hurmat hissining kuchayishi.

- Gender va ijtimoiy muhit ta'siri

Ayollar – ko'proq emotsional empatiyaga moyil bo'lib, insoniy munosabatlarga chuqurroq e'tibor qaratadilar. Erkaklar – empatiyaning kognitiv shakliga ko'proq moyil bo'lib, mantiqiy tushunish orqali insoniy munosabatlarni boshqaradilar. Empatiya insoniy munosabatlarning mustahkam va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki: Empatiya yuqori bo'lgan insonlar ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslasha oladilar. Ijobiy insoniy munosabatlar empatiyaning rivojlanishiga yordam beradi.

Takliflar: Ta'lim tizimida empatiyaning rivojlantiruvchi treninglarni yo'lga qo'yish. Ish joylarida insoniy munosabatlarni yaxshilash uchun empatiya bo'yicha dasturlar ishlab chiqish. Mojarolarni hal qilishda empatiyaga asoslangan muloqot usullaridan foydalanish.

Xulosa. Empatiya insoniy munosabatlarning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, u shaxslararo aloqalarning sifati va barqarorligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yuqori empatiyaga ega insonlar ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli bo'lib, boshqalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatadilar. Empatiya insoniy munosabatlarda ishonch, hurmat va hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Inamova M.O. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Diss., ...ped.fan,doktori, -T., 1998 -316 b.
2. Yoshlar ma'naviyati va sog'lom turmush tarzi. Pedagogika fanlari doktori O.Musurmonova umumiy tahriri ostida. "Oydin hayot", Respublika sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish markazi. –T.: 2012, 274-b.
3. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ.
4. G'oziyev E. G'. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent., 2010.
5. Hoffman, M. L. (2000). Empathy and Moral Development: Implications for Caring and Justice.
6. Davis, M. H. (1983). "Measuring Individual Differences in Empathy." Journal of Personality and Social Psychology, 44(1), 113-126.
7. Batson, C. D. (2011). Altruism in Humans. Oxford University Press.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN OLIMPIADA MASALALARI

Normurodova Sadoqat Xoliqulovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi.

E-mail: sadoqatnormurodova33@gmail.com

Xudoyqulova Durdona Mavlon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

Tel: +998902440302

E-mail: xdurdona179@gmail.com

Annotatsiya: Olimpiada masalalari informatika va axborot texnologiyalarining turli jihatlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu masalalar, talabalarning mantiqiy fikrlash, algoritmlar tuzish, va dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Tezisdagi olimpiada masalalarining ahamiyati, ularning turli darajalari (maktab, kollej, xalqaro) va shuningdek, masalalarni yechishda foydalaniladigan texnikalar (masalan, dinamik dasturlash, graf nazariyasi, ma'lumotlar tuzilmalari) tahlil qilinadi. Shuningdek, olimpiadalar orqali talabalarning fikrlashni mustahkamlash, o'quvchilarni ilmiy va texnologik sohalarga qiziqtirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Аннотация: Задачи олимпиад по информатике и информационным технологиям охватывают различные аспекты этих дисциплин и являются важным инструментом для развития логического мышления, разработки алгоритмов и навыков программирования. В данном тезисе рассматривается значение олимпиадных задач, их уровни (школьный, колледж, международный) и техники, используемые при решении (например, динамическое программирование, теория графов, структуры данных). Также рассматривается роль олимпиад в укреплении мышления студентов и их интереса к научным и технологическим областям.

Annotation: Olympiad problems in computer science and information technology encompass various aspects of these fields, serving as a significant tool for developing logical thinking, algorithm design, and programming skills. This thesis examines the importance of olympiad problems, their different levels (school, college, international), and the techniques employed in solving them (such as dynamic programming, graph theory, data structures). Furthermore, the thesis explores the role

of olympiads in strengthening students' cognitive abilities and their interest in scientific and technological fields.

Kalit soʻzlar: Informatika, axborot texnologiyalari, olimpiada masalalari, dasturlash, algoritmlar, kompyuter tizimlari, sunʼiy intellekt, maʼlumotlar bazasi

Ключевые слова: Информатика, информационные технологии, задачи олимпиады, программирование, алгоритмы, компьютерные системы, искусственный интеллект, базы данных

Keywords: Informatics, information technologies, olympiad problems, programming, algorithms, computer systems, artificial intelligence, databases

Kirish. Informatika va axborot texnologiyalari sohasining tez rivojlanishi, bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu sohaning bilimlari va koʻnikmalarini egallash yosh avlod uchun juda muhim hisoblanadi. Bu esa, ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanidan oʻtkaziladigan olimpiadalar orqali amalga oshiriladi. Olimpiadalar nafaqat yoshlarning ilmiy qiziqishlarini qoʻllab-quvvatlash, balki ularga kompleks masalalarni yechishda mantiqiy fikrlash va analitik yondashuvni rivojlantirish imkoniyatini ham yaratadi.

Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalari, shuningdek, oʻquvchilarda muammoni tizimli ravishda tahlil qilish, mos algoritmlar va dasturlar yaratish kabi amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayon, nafaqat oʻquvchilarning akademik muvaffaqiyatlariga, balki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanidan oʻtkaziladigan olimpiadalar masalalarining

ahamiyati, mazmuni, turli yyechim usullari va bu masalalarning ta'limdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, olimpiadalar orqali rivojlanadigan ko'nikmalar va ularning jamiyatdagi raqamli transformatsiya jarayoniga qo'shgan hissasi ham ko'rib chiqiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan nazariy materiallarga asoslangan holda mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi uslublar va yondashuvlar qo'llanilgan.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiadalar masalalari o'quvchilarda analitik fikrlash, mantiqiy yondashuv va dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu masalalar nafaqat nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazishga, balki amaliy ko'nikmalarni oshirishga ham yordam beradi. Adabiyotlar tahlili orqali informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining ta'lim tizimidagi ahamiyatini, ularning talabalarga qanday yondashuvlarni o'rgatishini va sohadagi dolzarb masalalarni qanday o'rganishini ko'rsatish mumkin [2].

Algoritmik masalalar va dasturlash ko'nikmalari. Informatika olimpiadalari masalalari asosan algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Dasturlash va algoritmlar bo'yicha ishlar (Masalan, Shovgenov, 2019) o'quvchilarga to'g'ri va samarali algoritmlar tuzishni o'rgatadi. Bu masalalar yordamida talabalar matematik tahlil qilish, mantiqiy zanjirlarni aniqlash, vaqt va xotira resurslarini optimallashtirish kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Olimpiadalar va innovatsiyalar. Axborot texnologiyalari sohasida innovatsiyalar juda muhim ahamiyatga ega. Olimpiadalar masalalarida yangi texnologiyalar va uslublardan foydalanish

o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi (Toshmatov, 2021). Olimpiada masalalarining murakkabligi va ularning doimiy yangilanishi talabalarga yangi dasturlash tillari, yangi texnologiyalar va tizimlarni o'rganish imkoniyatini yaratadi [3].

Ta'lim metodologiyalari va olimpiadalar. Axborot texnologiyalari sohasidagi ta'lim metodologiyalari masalalari bo'yicha ko'plab ishlar mavjud. Maqsadli ta'lim metodologiyalari (Iskandarov, 2022) talabalarga algoritmik va mantiqiy masalalarni muvaffaqiyatli yechish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni ta'limda qo'llashni o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Olimpiadalar metodologik jihatdan nafaqat masalalarni yechish, balki o'quvchilarda tizimli yondashuvni shakllantirishni ham ta'minlaydi.

Olimpiada masalalarining amaliy va nazariy jihatlar. Olimpiada masalalari o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish imkoniyatini yaratadi. Bir qator ilmiy ishlar (Masalan, Alimov, 2020) informatika olimpiadalarining amaliy jihatlarini o'rganib, ular orqali talabalarga mantiqiy fikrlash, analitik tahlil qilish va tizimli yondashuv kabi ko'nikmalarni qanday rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi. Bu masalalar orqali talabalar nafaqat dasturlash tillarini, balki o'zgaras masalalarni yechish uchun kerakli bo'lgan strategiyalarni ham o'rganadilar.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiada masalalari. Informatika va axborot texnologiyalari (IAT) sohasida o'tkaziladigan olimpiadalar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazishga, balki amaliy ko'nikmalarni oshirishga ham imkoniyat yaratadi. Ushbu olimpiadalar doirasida masalalar asosan algoritmik fikrlash, dasturlash, kompyuter tizimlarini tushunish va axborot texnologiyalarining turli jihatlari bilan bog'liq bo'ladi. Quyida

informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiada masalalarining turlari, ularni yechish usullari va ta'limdagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi [4,5].

Olimpiada masalalarining turlari. Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarida turli xil masalalar taqdim etiladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Algoritmik masalalar: Bu masalalar o'quvchilarning matematik va dasturlash qobiliyatlarini sinovdan o'tkazishga qaratilgan. Masalalar ko'pincha turli xil algoritmlarni yaratish yoki mavjud algoritmlar yordamida muammoni hal qilishni talab qiladi. Masalan, ma'lumotlar tuzilmalaridan foydalanish, optimallashtirish, graf va qidiruv masalalari.

Dasturlash masalalari: Dasturlash bo'yicha masalalar o'quvchilardan ma'lum bir dasturlash tilida kod yozishni talab qiladi. Masalan, C++, Python yoki Java dasturlash tillarida masalalar berilishi mumkin. Bu masalalar ko'pincha amaliy yechimlarni topish va muammolarni yechishda o'zlashtirilgan dasturlash ko'nikmalarini sinovdan o'tkazadi.

Matematik masalalar: Informatika olimpiadalarida matematika bilan bog'liq masalalar ham keng tarqalgan. Bu masalalar ko'pincha mantiqiy tahlil qilish, matematik modellar tuzish va analitik fikrlashni talab qiladi.

Kompyuter tizimlari va tarmoq masalalari: Bu turdagi masalalar axborot texnologiyalarining tizim va tarmoq jihatlarini tushunishni talab qiladi. O'quvchilarga kompyuter arxitekturasini, tarmoqlarni boshqarish, ma'lumotlar bazalari va xavfsizlik masalalari bilan bog'liq savollar berilishi mumkin.

Informatika olimpiadalarining ta'limdagi ahamiyati.

Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalari o'quvchilarga quyidagi ta'limiy foydalarni taqdim etadi:

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish: Informatika olimpiadalarida qatnashish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahliliy va tizimli yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechish uchun aniq va to'g'ri mantiqiy qadamlarni aniqlash talab qilinadi.

Dasturlash ko'nikmalarini oshirish: Olimpiadalar o'quvchilarga dasturlash tillarini mukammal o'rganish imkonini beradi. Turli xil masalalar yechimi uchun dastur yozish amaliyoti ular uchun foydali ko'nikmalarni shakllantiradi.

Muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirish: Informatika olimpiadalari orqali o'quvchilar turli murakkab masalalarni tizimli ravishda tahlil qilib, samarali yechimlar topishga o'rganadilar. Bu ko'nikmalar keyinchalik professional faoliyatda ham foydalidir.

Ijodkorlikni rivojlantirish: Informatika masalalari ko'pincha o'zgacha va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Bu esa o'quvchilarda yangi fikrlar ishlab chiqish, turli yechimlarni sinab ko'rish va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari sohasiga tayyorlash: Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalari o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtiradi va ularni bu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Bu esa kelajakda IT sohasi mutaxassisi bo'lish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiadalar masalalari nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazishga, balki amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu masalalar orqali talabalar algoritmik fikrlash, dasturlash,

mantiqiy tahlil va tizimli yondashuvni o'rganadilar. Shuningdek, informatika olimpiadalari o'quvchilarning ijodkorlik va innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois, informatika olimpiadalari ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi va ularning ahamiyati har yili ortib bormoqda.

Muhokama. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'tkaziladigan olimpiadalar, ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu olimpiadalar turli yoshdagi talabalar uchun o'zini sinab ko'rish va o'z bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu masalalar, ko'pincha, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, algoritmlar va dasturlash tillari bo'yicha qiyinchiliklarni hal qilish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash kabi turli aspektlarni o'z ichiga oladi.

Olimpiadalar masalalarining ta'limdagi roli. Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining asosiy maqsadi o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashdir. Olimpiadalarda ishtirok etish o'quvchilarga mantiqiy fikrlash, algoritmik va dasturlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Har bir masala o'ziga xos murakkablik darajasiga ega bo'lib, talabalar masalalarni yechish uchun turli metodlarni, masalan, rekursiya, dinamik dasturlash, graflar va tarmoq nazariyasini qo'llashlari kerak.

Bundan tashqari, olimpiada masalalari ko'pincha bir nechta yyechimga ega bo'lishi mumkin, bu esa o'quvchilarda ijodkorlik va yangi yondashuvlarni topishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Boshqacha aytganda, olimpiadalar orqali o'quvchilar muammoni qanday usul bilan

hal qilishni o'rgandilar va bu bilimlarni boshqa sohalarga ham tatbiq etalishadi.

Informatika olimpiadalarida qatnashishning ijobiy tomonlari. Informatika va axborot texnologiyalari fanidan o'tkaziladigan olimpiadalar o'quvchilarga bir qator ijobiy ta'sirlar ko'rsatadi.

Dasturlash ko'nikmalarini oshirish. Olimpiada masalalari dasturlash tillarini o'rganishda yordam beradi. O'quvchilar real dasturlash muammolarini hal qilish orqali o'z dasturlash ko'nikmalarini sinovdan o'tkazishlari mumkin. Bu masalalar o'quvchilarni murakkab tizimlarni qurish, kodni optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga undaydi.

Algoritmik fikrlashni rivojlantirish. Olimpiadalarda masalalar asosan algoritmik fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar masalalarni yechishda tizimli va mantiqiy yondashuvni o'rganadilar, shuningdek, masalalarning yechimini topish uchun turli xil metodlardan foydalanadilar.

Tez qarorlar qabul qilish va stressga chidamlilik. Informatika olimpiadalarida masalalarni cheklangan vaqt ichida yechish kerak bo'ladi. Bu talabalarni tez qarorlar qabul qilishga, shuningdek, stressga chidamliligini oshirishga o'rgatadi. Bu ko'nikmalar nafaqat olimpiada jarayonida, balki kelajakdagi ish faoliyatida ham foydali bo'ladi.

Ijodkorlikni oshirish. Informatika olimpiadalari orqali o'quvchilar yangi yechimlarni izlashga, o'z fikrlash qobiliyatlarini ochishga va ijodiy yondashuvlarni qo'llashga o'rgatiladi. Har bir masala o'ziga xos yangi va o'zgacha yondashuvni talab qiladi, bu esa o'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi.

Olimpiadalar va ta'limdagi yangiliklar. Bugungi kunda informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining ta'limdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Ta'lim tizimi innovatsiyalarga o'tish bilan birga, axborot texnologiyalarining integratsiyasini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Onlayn olimpiadalar: Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan onlayn informatika olimpiadalari keng tarqalmoqda. Bu o'quvchilarga jismoniy masofadan qatnashish imkonini beradi, shu bilan birga turli mamlakatlardan bo'lgan talabalar o'rtasida musobaqalar o'tkazishga imkon yaratadi. Onlayn format yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin shu bilan birga, texnik nosozliklar yoki bog'lanish muammolari kabi kamchiliklarga olib kelishi mumkin [6,8].

Xulosa. Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining o'quvchilar uchun katta ahamiyati bor. Ular o'quvchilarning mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, murakkab masalalarni yechishda turli yondashuvlarni qo'llashni o'rgatadi.

Olimpiadalar dasturlash ko'nikmalarini oshirish va o'quvchilarni real dunyo masalalariga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Dasturlash, algoritmlar va ma'lumotlar tuzilmasi kabi sohalarda chuqur bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarni innovatsion fikrlashga undaydi, shuningdek, yaratgan yechimlarni amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi. Olimpiadalar orqali o'quvchilar o'z ko'nikmalarini xalqaro miqyosda namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining ta'limdagi roli beqiyosdir, chunki ular o'quvchilarga faqat axborot texnologiyalari sohasida emas, balki boshqa sohalarda ham ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Masalan, yuqori darajadagi masalalar, o'quvchilarda kreativ fikrlash, muammolarni

tizimli ravishda yechish va yangi yechimlarni topish kabi muhim qobiliyatlarni shakllantiradi.

Olimpiadalar orqali o'quvchilarga dunyo miqyosida raqobatlasha olish imkoniyati beriladi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi va axborot texnologiyalari sohasidagi muvaffaqiyatlariga turtki bo'ladi.

Informatika va axborot texnologiyalari olimpiadalarining ta'lim tizimidagi o'rni nihoyatda muhim. Ushbu olimpiadalar nafaqat o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Masalalarni diversifikatsiya qilish, onlayn formatlarni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va kengaytirilgan o'quv materiallari taqdim etish orqali informatika olimpiadalarini yanada samarali qilish mumkin. Shu bilan birga, mentorlar va murabbiylar tizimi o'quvchilarning rivojlanishini tezlashtirishga yordam beradi. Kelajakda bu olimpiadalar o'quvchilarga yanada kengroq imkoniyatlar yaratib, ularga axborot texnologiyalari sohasidagi eng yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolmirzayev Sh., Abduqahhorov K., Ergashev B. "Informatika va axborot texnologiyalari" – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik.
2. Qodirov U. va boshqalar. "Kompyuter texnologiyalari asoslari" – T.: Fan, 2020. Axmedov A. "Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitishda innovatsion yondashuvlar", Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti konferensiya materiallari, 2021.
3. Rashidova N. "Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari", Ilmiy jurnallar to'plami, 2022. Normurodova, S. X., et al. "Using mind maps in formation of

imagination and creative thinking skills in 5-6 year-old children. "European Journal of Molecular and Clinical Medicine 7.11 (2020): 339-343.

4. Нормуродова, Садокат. "РАЗВИТИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 1-ГО КЛАССА ПРИ ОБУЧЕНИИ АЛФАВИТУ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ SCRATCH. "Предпринимательства и педагогика 3.3 (2024): 144-150.

5. Ganiev, A. G. "others. The role of travel lessons in the Shahrizabz Zoo in teaching foreign languages and developing their imagination to pupils of preschool educational institutions. International scientific and practical conference." Kazakhstan. Pavladar (2020): 249-251.

6. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe* 2.04 (2021): 206-211.

7. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." *Academicia Globe* 2.04 (2021): 206-211.

8. Maxmudjonovna, Yaxiyaxonova Muxiba. "Developing full-fledged thinking skills in firstgraders through the perception of the “surrounding world” (using the example of a Mind Map)." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 35 (2024): 31-37.

ONA TILI TA'LIMDA INTEGRATIV YONDOSHUV

Ikrom Xolmurotov

Samarqand davlat veteranariya meditsinasichorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali dotsenti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Email: xolmurotov1968@mail.ru

Muratboeva Sabira

Samarqand davlat veteranariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarini integrativ yondoshuv asosida tashkil etish, fanlararo integratsiyalarning uzliyligini uzliksiz davom qilish usullari haqida fikrlar bildirishga harakat qilindi.

Аннотация: В данной статье предпринята попытка выразить идеи о способах организации занятий родным языком на основе интегративного подхода, непрерывного продолжения преемственности междисциплинарных интеграций.

Annotation: In this article, an attempt was made to express ideas about ways to organize mother tongue classes based on an integrative approach, to continuously continue the continuity of interdisciplinary integrations.

Kalit so'zlar: integrativ, kimiyo, botonika, tarix, integratsiyalashgan dasturlar, tasviriy san'at, tafakkur.

Ключевые слова: интегративной, химия, ботаника, история, интегрированные программы, изобразительное искусство, мышление.

Key words: integrative, chemistry, botany, history, integrated programs, visual arts, thinking.

Kirish: Bugungi kunda “Ona tili” darslari orqali o'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va

malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bogʻlanish yoʻlga qoʻyilmoqda. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar, adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga eʼtibor qaratiladi.

Taʼlim tizimida axborot texnologiyalarini uzviyligini taʼminlanishi ham taʼlim integratsiyasini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi omillardan biri boʻlib xizmat qiladi. Taraqqiyot sari yuz tutib borayotgan bugungi axborotlar asri ertangi kun yoshlaridan turli muammoli vaziyatlarda oʻzini-oʻzi toʻgʻri baholay oladigan, mustaqil fikriga ega boʻlgan, aqliy va ruhiy imkoniyatlaridan yuksak saʼyi-harakatlar yoʻlida foydalana oladigan ijobiy xususiyatlar sohibi boʻlishni taqozo etmoqda. Bu esa toʻgʻri tashkil etilgan taʼsirchan taʼlim hamda oʻqitish jarayonida tarkib topib boradigan insoniy sifatlar, ahloqiy xususiyatlar, koʻnikmaga aylanib boradigan ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

Insoniyatning kelajagi taʼlim mazmunining integrativ rivojlanishi bilan bogʻliq. Shu sababdan zamonaviy inson chuqur integrativ bilim, keng madaniyatga ega boʻlish bilan birga, hozirgi zamonaviy taʼlimning asosiy gʻoyalari, uslublari va natijalari haqida ilmiy tasavvurga ega boʻlishi kerak.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning 70 foizi taʼlim tizimida integrativ dastur va darsliklardan foydalanmoqdalar. Zamon talabiga koʻra, rivojlangan mamlakatlarning ish tajribalariga tayanib, aniq va tabiiy fanlarni integratsiyalab oʻqitish muammosini hal etish zarur deb hisobladik. Ushbu muammoni hal etish muhim iqtisodiy va pedagogik samaradorlikni taʼminlaydi. Muammoni ijobiy hal etilishi oʻquvchilarni ortiqcha yuklamadan ozod etadi, olamni yaxlit holda anglashga, undagi voqea va hodisalar mohiyatini kompleks oʻrganishga,

bir butun mukammal bilimlar tizimini tarkib toptirishga, barkamol shaxsning shakllanishiga imkon yaratadi.

Asosiy qishm:Shu bois hozirgi davrda o‘quv fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, integratsiyaga bo‘lgan yondashuv, integratsiyalashgan dasturlar, integratsiyalashgan darsliklar modelini yaratishga oid masalalar o‘z yechimini kutayotgan eng dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Fanlarni integratsiyalab o‘qitish muammosini hal etish uchun fanlarning vujudga kelishi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Mazkur holat jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

“Qanday qilib integrirlangan darsni tashkillashtirish mumkin?” nomli maqola mualliflari I.Kalojvari va L.Pechnikovalarning ta’kidlashlaricha: “Integratsiyaning kelajagi porloq. Bu usul natijasida o‘quvchilar ongida olamning faol va ko‘p tomonli tasviri shakllanadi. O‘quvchilar olgan bilimlarini amalda faol foydalanishga boshlashadi. Chunki bilimlarning amaliyotga xos xususiyatlarni aniqlaydi, yangicha fikrlay boshlaydi, fanni tez o‘zlashtiradi, uning boshqa fanlarga bo‘lgan munosabatini ravshanlashtiradi”.

Maktab ta’limida ona tili, adabiyot, botanika, biologiya, tasviriy san’at darslarini integratsiyalash mumkin. Masalan, “Ona tili va botanika” mavzusidagi maqola muallifi pedagogika fanlari doktori Sh.Yusupova dars davomida o‘quvchilardan behi guli haqida ma’lumotlar berishni so‘raydi, javob olingandan keyin behi gulining tasvirini chizish o‘quvchilarga topshiriq sifatida beriladi. T.Yusupovanning “Behi guli” she’ri o‘quvchilarga ifodali o‘qitilib bu

she'rdagi berilgan ot va fe'l so'z turkumidagi so'zlarni sinonimlari bilan almashtirib yozishlari kerak bo'ladi.

Mazkur maqolada bir paytning o'zida ona tili, adabiyot, tasviriy san'at, biologiya fanlarini bog'lab o'qitish mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Botanika va ona tili fanlarini bog'lashda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki ular o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari, qissadan hissa chiqarish, o'z maqsadlarini bayon etishga undaydi. Maqollarda keltirilgan o'simlik yoki daraxtlarga ta'riflab berishlari esa ularning nutqiy faoliyat darajasini yanada rivojlantiradi, – deb ta'kidlaydi Sh.Yusupova.

Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

Integratsiya - differentsiatsiyaning aksi bo'lib, unga teskari bo'lgan jarayondir. Uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq:

- o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish;
- turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;
- ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartlarida bunga alohida e'tibor qaratish

lozimligi uqtiriladi. O'quvchilar dunyoqarashini muntazam boyitib borish, mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqib, fanlararo bog'lanish yo'lga qo'yiladi. Bunda darslikda beriladigan amaliy mashqlarning milliy qadriyatlar,

adabiy jarayon, tarixiy voqea-hodisalar, tabiiy boyliklar, hayvonot olami, fizikaviy va kimyoviy hodisalarga oid matnlardan tanlanishiga e'tibor qaratiladi.

Integratsiya tafakkur o'zlashtirish uchun imkoniyat, sharoit yaratib beradi. Integratsiya o'quvchi bilan individual ishlash va uni faollashtirishning muhim vositasi.

Fanlararo aloqani darslarda tashkil qilish natijasida o'quv fanlarining soni kamayib, samarasi puxta bo'ladi, tahsil oluvchilarni mustaqil ishlashga jalb etish oson kechadi.

Tahlil va natija: Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin.

A.G'ulomov hamda H.Nematovlar ta'kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lmoq lozim. O'quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari zarur.

Masalan: Geografiya fanidan ekanligi aniqlanadi.

O'quvchilar yana ixtiyoriy 4 guruhga bo'linadilar. Berilgan so'zlar ishtirokida qo'shma so'zlar hosil qiladilar.

1-guruhga	2-guruhga	3-guruhga	4-guruhga
"Buloq"	"Daryo"	"Ko'l"	"Soy"
Oydinbuloq	Amudaryo	Issiqko'l	Enasoy
Mingbuloq	Sirdaryo	To'rtko'l	Teraklisoy
Muzbuloq	Qoradaryo	Sho'rko'l	Kosonsoy
Shirmonbuloq	Sirdaryo	Oltinko'l	Quvasoy

Bunday zamonaviy dars turlarini qo‘llashdan asosiy maqsad o‘quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o‘quvchilarda dunyoni o‘zgacha tasavvur qilishga o‘rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog‘lashga, nazariy qoidalarni so‘zma-so‘z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg‘unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini tushunishga imkon yaratadi.

Shuningdek, “Ona tili. 5-sinf uchun elektron o‘quv-metodik majmua”siga jamlangan mashq va topshiriqlarning aksariyati 5-sinfda o‘rganiladigan fanlar bilan uzviy bog‘langan.

Foydalanuvchilar “Botanika”, “Tarixdan hikoyalar”, “Geografiya”, “Musika”, “Jismoniy tarbiya”, “Rus tili”, “Ingliz tili”, “Tasviriy san’at”, “Adabiyot” fanlari bilan integratsiyalashgan 10 dan ortiq turdagi mashq va topshiriqlar esse, krossvord, test savollari orqali bilimlarini oshiradilar, asosiy materiallarni mustahkamlaydilar. Majmuada elektron pochta orqali bog‘lanish, mualliflarga yoki o‘qituvchiga murojaat qilish, bajarilgan ishlarni bosmaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Hozirgi kunda o‘quv fanlarini integratsiyalash mazmunini, rivojlantirish tarixini, fanlarni integratsiyalashning shakli usul va vositalarini aniqlash, uning kelajak istiqbolini belgilash asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Shuningdek, fan tizimini tashkil etgan qismlarning ham o‘zaro aloqada bo‘lishida ilmiy-texnik axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar rivojining ta’siri va bu sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi natijasida erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi–moddiy olamda nammoyn bo‘lmoqda. Bu o‘zaro ta’sir – fanlar rivoji, har

bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun zarur bo'lgan ehtiyoj, har bir fan rivojiga xos xususiyatdir.

Ilmiy tarzdagi o'zaro ta'sirga ega bu xususiyat shundan iboratki, u fan bilan axborot vositalari o'rtasidagi aloqani kuchaytiradi, tezlashtiradi. Bu tezlashish esa, fanning ijtimoiy tuzumga bo'lgan ta'sirini oshiradi.

Ta'limni integratsiyalashtirish o'quvchilarda jo'shqinlik, fanlarni o'rganishga qiziqish hissini kuchaytiradi, o'quv fanlari bo'yicha bilim darajasini oshiradi, ularning aqliy faoliyatini rivojlanadi, o'quv materiallarining o'zaro, tabiiy ravishda uzviylikda bo'lishini ta'minlaydi. Darsda o'quvchilarda ongli qiziqish faoliyati, mustaqil fikrlash qobiliyati rivoj topadi; ularda o'quv faniga nisbatan shaxsiy munosabatda bo'lish, ijodkorlik hissi shakllanadi. Integratsiyalashtirilgan darsda ta'lim-tarbiya uzviyligi ham bir butun holda amalga oshadi. O'quv fanlarini uzviylikda o'rganish o'quvchilar bilimini mustahkamlashning muhim omillaridan biri sifatida o'quv tarbiya jarayonining ham uyg'unlikda bo'lishini taqozo etadi.

Xulosa: Ta'lim jarayonida shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar ma'naviyat, insonparvarlik, vatanparvarlik axloq-odob tushunchalarining mazmuni va tarkibini bilib olishlari kerak. Shundagina ular bu tushunchalarning mohiyatini puxta anglab, bu ulug' fazilatlarni egallashga ongli ravishda harakat qiladilar.

Fanlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va fanlar tarkibidagi o'ziga xos qonuniyatlarning yuzaga kelishi ularning tuzum bilan aloqadorligiga yorqin dalildir.

O'quv fanlarini integratsiyalash, bu – turli o'quv fanlarini sun'iy ravishda bir-biri bilan birlashtirishi degan gap emas. Ularni o'zaro uyg'unlik, uzviylikni o'rganish fanlar o'rtasidagi umumiy o'xshashlikni,

har biriga xos xususiyatni va har birini olgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Shundagina o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi, ular mehnat jarayonida, ijtimoiy hayot, tabiatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar o'rtasidagi uyg'unlik, uzviylikni chuqur anglab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ne'matov H., G'ulomov A. Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish. – T.: 1992.
2. Shernazarova R.X. Fanlararo aloqadorlik ta'lim samaradorligini oshirish omili. //Ta'lim texnologiyalari, 2016. 1-son, 83-84 b.
3. Ergasheva A. Ona tili darslarida rasmlar vositasida mazmunder gaplar tuzish// Uzluksiz ta'lim, 2006. 2-son, 59-62 b.
4. Yusupova Sh. Ona tili va botanika fanlarini uyg'un holda tashkil qilish mumkinmi?//Til va adabiyot ta'limi, 2015. 7-son, 13-14 b.
5. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. – T.: Sharq, 2005.
6. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarov M. Ona tili o'qitish metodikasi: O'quv qo'llanma.– T.: 2012.
7. Do'stmurodova O. Matn tuzish topshiriqlari ona tili ta'liming texnologik etaloni sifatida//Xalq ta'limi, 2005. 3-son, 73 b.
8. Xolmurotov I. O'quvchilarni incho yozishga o'rgatish: O'uv qo'llanma.-N.:2019.
- 9.Xolmurotov I. O'zbek tilini o'qitishda innovatsiyon mashg'ulotlar: O'quv qo'llanma.- N.: Bilim, 2020.

KOMPLEKS SONLAR NAZARIYASINING HAYOTGA TATBIQI

Maqsudova Shoxsanam Muzaffarxoʻjayevna
Namangan davlat pedagogika instituti oʻqituvchisi

Joʻraboyeva Ruxshona Sobirjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
Matematika yoʻnalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola kompleks sonlarning oʻrganish tarixi va hayotiy ahamiyatini koʻrsatib beradi. Kompleks sonlarning algebraik va geometrik tariflari, xossalarni tushunish turli matematik masalalarni kompleks sonlar yordamida hal qilish imkoniyatini beradi. Kompleks sonlar nazariyasi, shuningdek, matematik analiz, integral hisob va fizikada turli hodisalarni modellashtirishda qoʻllaniladi. Kompleks sonlar elektr va magnit maydoynlarini tasvirlashda, signallarni qayta ishlash, kontrol tizimlarini tahlil qilishda qanday foydalanilganligini koʻrsatadi.

Аннотация: Эта статья посвящена истории изучения и жизненно важных функций комплексных чисел показывает важность. Алгебраические геометрические свойств комплексных числам в различных математических задачах дает возможность решить с помощью. Теория комплексных чисел, моделирование различных явлений в математическом анализе, интегральном исчислении и физике используется в плавлении. Комплексные числа описывают электрическим и магнитные поля как при вирилизации, обработке сигналов, анализе систем управления показывает использование.

Annotation: This article is about the history of the study of complex numbers life shows the importance. Algebraic and geometric of

complex numbers, complex numbers of various mathematical problems to understand the properties of reefs provides the ability to solve with the help of, complex number theory, that also, the modul of various phenomena in mathematical analysis, integral calculus and physics it is used in the hog. Complex number as electrical and magnetism how to do in viralization, signal processing, analysis of control systems indicates used.

Kalit soʻzlar: Kompleks sonlar, tartiblangan juftlik shakli, geometrik shakli, trigonometrik shakli, Eyler formulasi, mavhum sonlar, haqiqiy sonlar, kvadrat tenglama, elektronika, signallar, diferensial, molekulyar biologiya, avtomatika

Keyword: Complex numbers, ordered pair form, geometric form, trigono-metric form, Euler formula, numbers, realisons, square equation, electronic, signals, differential, molecular biology, automation.

Ключевые слова: Комплексные числа, упорядоченная пара, геометрическая форма, тригонометрическая форма, формула Эйлера, мавхим числа, действительные числа, квадрат равнение, электроника, сигналы, дифференциал, молекулярная биология, автоматизация.

Asosiy qism

Kompleks sonlar nazariyasi matematikada juda muhim tarixiy rivojlanishga ega. Dastlab, kompleks sonlar asosan “i” haqiqiy sonlar orasida mavjud boʻlmagan birlikni ifodalovchi sonlar sifatida koʻrilib, ular haqiqiy sonlar ustida amallar bajarishgan. Ammo bu matematik modelda noaniqlik va cheklov keltirib chiqargan. 1545-yilda italiyalik olim Gerolamo Cardano va Rafael Bombelli kabi olimlar kvadrat tenglamaning yechimlari uchun kompleks sonlardan foydalana boshlashdi. Masalan $x^2+1=0$ tenglama haqiqiy sonlar toʻplamida hech

qanday yechimga ega emas, chunki haqiqiy sonlarning kvadrati manfiy son emas. Lekin olimlar $i^2 = -1$ sonini aniqlashdi. John Wallis kompleks sonlar va ularning algebraik xususiyatlarini tadqiq qildi. Isaak Newton o'zining "Analitica" asarida kompleks sonlarning algebraik yechimlari sifatida muhimligini ko'rsatdi. Karl Friedrich Gaus 1799-yil kompleks sonlarning geometrik talqini rasmiylashtirdi va ularni kompleks tekislikda tasvirlashni boshladi. U kompleks sonlarni haqiqiy sonlarning kengaytmasi sifatida ko'rsatdi. Cauchy kompleks funksiyalarni, integral va differensial hisoblashni rivojlantirdi.

Kompleks sonlarni turli shakllarda ifodalash mumkin. Masalan, algebraik, geometrik, trigonometrik, tartiblangan juftlik va boshqa shakllarda. Kompleks son $z = x + iy$ ko'rinishida ifodalanishi algebraik shakl bir-biriga teng deyiladi. x va y haqiqiy sonlar, i esa mavhum birlik. x haqiqiy songa z kompleks sonning haqiqiy qismi, y haqiqiy songa z kompleks sonning mavhum qismi deyiladi va $x = \operatorname{Re} z$ $y = \operatorname{Im} z$ kabi belgilanadi. Ikkita $z_1 = x_1 + iy_1$ va $z_2 = x_2 + iy_2$ kompleks sonlar berilgan bo'lib, $x_1 = x_2$, $y_1 = y_2$ bo'lsa, unda kompleks sonlar bir-biriga teng deyiladi. $z_1 = x_1 + iy_1$ va $z_2 = x_2 + iy_2$ berilgan bo'lib ularning ustida arifmetik amallarni bajarish mumkin. Haqiqiy va mavhum sonlarni topish quyidagi misol namuna bo'ladi. Masalan, $(x - 8i) + (y - 3)i = 1$ berilgan bo'lsa, $x - 8i + yi - 3i$ dan i birligi bor hadlarni alohida qavsda yozamiz $x - (11 - y)i = 1$ tenglamaning chap tarafida mavhum son 0ga teng, shuning uchun $y - 11 = 0$ $y = 11$ $x = 1$ ga teng.

$z = a + bi$, ko'rinishidagi ifodada a va b sonlar o'zining qat'iy joylashi o'rniga ega bo'lgani uchun (a, b) tartiblangan juftlik ko'rinishida ifodalash mumkin. $z = a + bi$ kompleks son berilgan bo'lsin. Bu kompleks songa mos keluvchi tekislikdagi $A(a, b)$ nuqta berilgan sonning geometrik tasviri deyiladi. Agar tekislikdagi dekart koordinatalar sistemasiga qutb

koordinatalar sistemasini joylashtirsak va qutb boshi O nuqta bilan ustma-ust tushsa, u holda qutb o'qi va radius vektor orasidagi ϕ burchak radius vektor bilan birgalikda kompleks sonni ifodalaydi. $z=(r,\phi)$ kompleks sonning qutb tekislikdagi ifodasi hosil bo'ladi. ϕ burchakning qiymati kompleks sonning qaysi koordinata choragida joylashishiga qarab o'zgaradi. Kompleks sonning geometrik tasviridan foydalanib, uning trigonometrik shaklini hosil qilinadi. $\sin\phi=b/r$, $\cos\phi=a/r$ dan burchakni topadigan bo'lsak. $z=a+bi=r(\cos\phi+i\sin\phi)$ bu ifoda berilgan sonning trigonometrik shakli deyiladi. Har $z=a+ib$ son uchun $z=(r,\phi)$ sonlar 1 qiymatli aniqlanganligi uchun berilgan kompleks sonning trigonometrik shakli yagona usulda aniqlanadi. Kompleks sonlarni darajaga ko'tarish uchun Eylor formulasidan foydalanamiz. $Z=re^{i\phi}$ Kompleks sonlar fizika, muhandislik, elektronika, kompyuter fanlari va boshqa sohalar-da keng qo'llaniladi. Elektronika va signalni qayta ishlash da kompleks sonlar, ayniqsa, elektr tarmoqlarida signalni tahlil qilishda va to'lqinlarning shaklini aniqlashda muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, to'lqinlarning fazasi va amplitudasini kompleks sonlar yordamida ifodalash mumkin. Kvantil fizikasi va kvant mexanikasida kompleks sonlar to'g'ridan-to'g'ri tizimlarni tavsiflashda ishlatiladi. Matematik va diferensial tenglamalarni yechish osonlashadi. Masalan, dinamik tizimlarning yoki elektr tizimlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini tahlil qilishda kompleks sonlar ishlatiladi. Molekulyar biologiya va kimyoda kompleks sonlar molekulalar reaksiyasining o'zgarishini modellashtirishga yordam beradi. Masalan, kimyoviy reaksiya tezligini o'rganish yoki molekulalarning kvant holatini aniqlashda yordam beradi. Iqtisodiyot modellashtirish va statistik tahlil qilishda ham kompleks sonlar yordamida tizimlarni tushunishga imkon beradi. Masalan, vaqt seriyalarini pragnozlash va aksiyalarni tahlil qilishda

kompleks sonlar zarur. Avtomatikada va boshqaruvda kompleks sonlar boshqaruv tizimlarini nazorat va tahlil qilishda signalni filtrlash va stabilizatsiyalashda muhim. Laplas transformasi va z-transformasi kabi matematik metodalar kompleks sonlar yordamida tizimlarning xatti-harakatlarini modellashda ishlatiladi.

Xulosa. Kompleks sonlar ilmiy-nazariy sohalarda gina emas, hayotiy amaliyotda ham o'z ahamiyatiga ega. Yuqorada ko'rsatib o'tilganidek, avtomatika va boshqaruv, elektronika va signalni qayta ishlash, matematik va differensial tenglamalarni ishlash, kvant fizikasi, iqtisot va moliya kabi sohalarda keng ko'lamda samarali ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arif, R.(1957)Complex Number Their Applications Journal of Mathematical Physise, 25(6) 345-356
2. Spiepel, M. R, (2009). Mathematical Handbook of Formulas and Tables schaum's outline series
3. T.T. To'ychiyev, J.K.Tishabayev, D.X.Djumabayev, A.M.Kitmanov. Kompleks o'zgaruvchili funktsiyalar nazariyasi fanidan mustaqil ishlar. Toshkent (2018) "Mumtoz so'z" jurnali
4. Christian Berg. Complex Analysis. Department of Mathematical Sciences.Kobenhavn.2012
5. Complex Numbers-Stewart Calculus
www.stewartcalculus.com/data/.../ess_at_12_cn_stu.pdf.
6. www.maplesoft.com/academic/adoption/.
7. Шабат Б.В.Введение в комплексный анализ.2-нашри, М.Наука, 1976.
8. Худоберганов Г., Ворисов А., Мансуров Х. Комплекс анализ. (маърузалар).-Т.Университет, 1998

9. Садуллаев. А., Худойбергенов Г., Мансуров Х., Ворисов А., Тойчиев Т. Математик анализ курсидан мисол ва масалалар (комплекс анализ) - Т. Узбекистон, 2000

10. Волковский Л.И., Лунц Г.Л., Араманович И.Г. Сборник задач по теории функций комплексного переменного. 3-нашри. - М. Наука, 1975

11. Евграфов М.А., Шабат Б.В. Методы теории функций комплексного переменного. 4-нашри. - М. Наука, 1973

12. Charles Walkden. Complex Analysis. Math20101.206

13. J. Stewart. Calculus, Brooks/Cole, Cengage Learning, 2012.

14. J.W. Brown, R.V. Churchill. Complex variables and applications. McGraw-Hill. 2009.

15. John H. Mathews, Russell W. Howell. Complex Analysis for Mathematics and Engineering. California State University Fullerton. Jones and Bartlett Publishers Canada. 1997

16. Матрасов А.В. Марле 6 Решение задач высшей математики и механики БХВ-Санкт-Петербург. 2001

KOMPYUTER DASTURLASH TILINING ARALASH PEDAGOGIKASI

Aymuratov A.K.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Nukus filiali «Axborot-ta'lim
texnologiyalari» kafedrası assistenti

Nuratdinov S.P.

Maxsetbaeva N.J.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nukus filiali talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqola kompyuter dasturlashni o'qitishda aralash pedagogik yondashuvning samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Aralash pedagogika an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: gibrid o'qitish modeli, loyihaga asoslangan o'qitish yondashuvi, tezkor qayta aloqa mexanizmi, samaradorlik hissi.

Kirish: Kompyuter dasturlash tillarini o'qitish sohasiga e'tibor qaratilib, ushbu tadqiqotda o'qitish dizaynining moslashuvchanligi va pedagogik yondashuvlarning xilma-xilligidan to'liq foydalanishga qaratilgan gibrid o'qitish strategiyasi innovatsion tarzda loyihalashtirildi. Strategiya talabalarni faol jalb qilish va chuqur o'rganishni osonlashtirish uchun loyiha asosidagi o'qitish usullari va darhol qayta aloqa mexanizmlarini o'z ichiga olgan onlayn avtonom ta'lim bilan yuzma-yuz o'qitishni birlashtiradi. Tadqiqotda C++ dasturlash kursining 68 nafar talabani qamrab olgan bir yillik amaliyoti orqali o'qitishning gibrid yondashuvi samaradorligi empirik jihatdan asoslandi. U nafaqat ajoyib ta'lim natijalarini namoyish qiladi,

dasturlash bo'yicha o'qitish sifatini va talabalarning o'quv tajribasidan qoniqishini oshiradi, balki ta'lim traektoriyalari va talabalarning o'z-o'zini samaradorligi hissi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun Bayes tahlilidan foydalanadi. O'quv jarayonida asosiy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratgan holda, masalan, onlayn ta'limning o'z vaqtidaligi va sifati, laboratoriya ishlari va loyiha topshiriqlari, keyin tadqiqotda ushbu o'quv xatti-harakatlari ko'rsatkichlarining o'quvchilarning o'z-o'zini anglash samaradorligiga ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri baholash uchun Bayes modellaridan foydalaniladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, a'lo darajadagi akademik natijalarga erishgan talabalar o'z-o'zidan samaradorlik darajasining yuqoriligini ko'rsatadi, bu esa akademik samaradorlik o'qitish samaradorligini oqilona aks ettirishi va individual ta'lim jarayonini baholash uchun miqdoriy asos bo'lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Demak, bu tadqiqotlar nafaqat kompyuter dasturlash ta'limi amaliyotiga yangi strategiyani taqdim etadi, balki boshqa fanlarda gibril o'qitish modellarini qo'llash uchun ham qimmatli ma'lumot beradi. Bundan tashqari, u ta'lim shakllari va ta'lim tengligi masalalarida pandemiyadan keyingi innovatsiyalar haqida chuqur o'ylashga yordam beradi, kelajakdagi yanada moslashuvchan va inklyuziv ta'lim tizimini qurish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

So'nggi yillarda dasturlash tillarini o'qitish bo'yicha tadqiqotlar, xususan, o'qitish metodikasi, ta'lim resurslari va baholash yondashuvlari bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Tadqiqotchilar dasturlash fanini o'qitishga ko'maklashuvchi o'qitish modellarini, jumladan, loyihaviy ta'lim, teskari sinflar (Akçayır, 2018), hamkorlikda o'qitish (Li & Xing, 2020; O'Donnell & HmeloSilver, 2013), bularning barchasi talabalarning dasturlash ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan. Shu bilan

birga, onlayn dasturlash platformalari va ta'lim resurslarining ko'payishi dasturlash fanini o'qitishning ufqlari va imkoniyatlarini kengaytirdi. Bundan tashqari, dasturlash fanini o'qitish samaradorligini baholashda asosiy e'tibor oddiygina sinflardan o'quv jarayoniga o'tkazildi, bunda dasturlash qobiliyati, algoritmlarni tushunish va dasturlash tafakkuri kabi chuqurroq o'rganish natijalarini o'lchashga e'tibor qaratildi (Aivaloglou & Hermans, 2016). Bundan tashqari, keystadi o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich dasturlashda geymifikatsiyalangan ta'lim o'quvchilarning xulq-atvori va akademik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi (Papadakis & Kalogiannakis, 2019). Shundan so'ng, Papadakis (2020) tadqiqoti o'rta maktab o'quvchilarining dasturlashga bo'lgan ishtiyoqi va tushunchasini oshirishda o'yinlarni ishlab chiqish samaradorligini ko'rsatdi. Ushbu tadqiqotlar birgalikda dasturlash ta'limida motivatsiya va imkoniyatlarni oshirish uchun o'yinli o'qitishning katta salohiyatini ta'kidlaydi.

Ta'lim sohasidagi hal qiluvchi yangilik sifatida gibrid o'qitish metodikasining evolyutsiyasi o'qituvchilarning o'qitish samaradorligini optimallashtirish va talabalarning turli xil o'quv ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan tinimsiz intilishini aks ettiradi. Dastlab, gibrid ta'lim, birinchi navbatda, oddiy shaxsiy ta'lim bilan masofaviy ta'limning to'g'ridan-to'g'ri kombinatsiyasi sifatida namoyon bo'ldi, bu vaqt, makon va resurslar nuqtai nazaridan bir rejimli o'qitishning cheklovlarini hal qilishga qaratilgan (Smith & Fernandez, 2017). Vaqt o'tishi bilan nazariy va amaliy izlanishlar chuqurlashdi, gibrid ta'limda o'qitish jarayonining dinamikligi, interaktivligi va shaxsiylashtirishga urg'u berildi. Turli xil o'qitish vositalari, texnologiyalari va strategiyalarini integratsiyalash orqali yondashuv avtonom ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan samarali

o'quv muhitini yaratishga qaratilgan, shu bilan birga o'z vaqtida yo'naltirishni ta'minlaydi (Johnson, 2013). So'nggi yillarda, katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt kabi ilg'or texnologiyalarning paydo bo'lishi bilan gibridd o'qitish intellekt va personallashtirishning yangi tendentsiyasini qabul qildi, bunga real vaqt rejimida monitoring va aralashuv uchun o'quv tahlili tizimlaridan foydalanish va talabalar uchun moslashtirilgan o'quv yo'llarini moslashtirish uchun aqlli tavsiyalar tizimlaridan foydalanish misol bo'ladi (Bedoya Ulla & Franco Perales, 2022).

Gibrid o'qitish metodlarining nazariy asosi konstruktivlik, insonparvarlik, ijtimoiy-madaniy nazariya, kognitiv yuklamalar nazariyasi kabi ta'limning plyuralistik nazariyalariga har tomonlama tayanadi. Konstruktivizm ta'limni shaxslar tomonidan bilimlarni yaratishning faol jarayoni sifatida ta'kidlaydi, bu esa izlanish, hamkorlik va muammolarni hal qilishni rivojlantiradigan ta'lim muhitini talab qiladi (Piaget, 1970; Von Glasersfeld, 1989). Insonparvarlik o'quvchilarning individual farqlari va hissiy jihatlariga urg'u beradi, o'quvchilarning mustaqilligini hurmat qilishni yoqalaydi va o'rganishga qiziqishni rag'batlantiradi (Maslou, 1954). Ijtimoiy-madaniy nazariya ta'limning ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va madaniy amaliyotlar doirasida sodir bo'lishini ta'kidlaydi, ta'lim jamoalari va shogirdlik modellarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Kognitiv yuklama nazariyasi bilimlarni samarali o'zlashtirish va qayta ishlashni ta'minlaydigan ko'rsatmalarni loyihalashda axborotni qayta ishlashning ortiqcha yukidan ogohlantiradi (A.Aymuratov, 2024). Ushbu nazariyalarga asoslanib, biz quyidagi gipotezalarni ilgari suramiz.

1-xulosa. O'qitishning gibridd usullarini qabul qilish talabalarning C++ dasturlash ko'nikmalarini egallash, kurs mazmunini tushunish va

muammoni hal qilish qobiliyatlarini sezilarli darajada oshiradi, xususan, takomillashtirilgan baholarda namoyon bo'ladi, fan bo'yicha bilimlarning chuqurligini oshiradi va muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

2-xulosa. O'qitishning gibril usullarini joriy etish o'quvchilarda o'z-o'zini anglash hissini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot tanlanmasi 2021-yilda qabul qilingan oliy ta'lim muassasasining dasturiy ta'minot muhandisligi ta'lim yo'nalishi talabalarining butun kogortasini (n=68) tashkil etdi. Barcha ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar bir yillik C++ kursidan o'tdilar va bir qator so'rovnomalarni bajarishda faol ishtirok etdilar, bu esa o'qitish samaradorligini baholash uchun muhim ma'lumotlarga hissa qo'shdi.

Biz an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini onlayn avtonom ta'lim bilan integratsiyalovchi gibril o'qitish modelini ishlab chiqdik, bunda oflayn mashg'ulotlar o'qituvchilarga rahbarlik qilishga ustuvorlik beradi, onlayn komponentlar esa talabalarning avtonomiyasiga urg'u beradi. Loyihaviy ta'lim va real vaqt rejimida qayta aloqa mexanizmlari bilan takomillashtirilgan ushbu model o'qitish sifatini oshiradi.

Ushbu tadqiqot kompyuter dasturlash tillarini o'qitish sohasiga, xususan, C++ dasturlash kurslari amaliyotiga yangi sur'at bag'ishlagan holda o'qitishning innovatsion gibril modelini puxta rejalashtirdi va muvaffaqiyatli amalga oshirdi.

Yillik ta'limni amalga oshirish davomida biz nafaqat o'qitish sifati va talabalarning qoniqishini sezilarli darajada oshirgan ushbu o'qitish strategiyasining ajoyib samaradorligini tasdiqladik, balki Bayes tahlilini qabul qilish orqali o'qitish yo'llari va talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish o'rtasida chuqur ijobiy bog'liqlikni aniqladik. Bu ta'lim sifatini baholashning muhim ko'rsatkichi sifatida akademik

yutuqlarni yana bir bor tasdiqladi, kelajakdagi faoliyatda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim trayektoriyalarini takomillashtirish uchun mustahkam empirik asos yaratdi. Ushbu tadqiqot natijalari nafaqat dasturlash ta'limini rivojlantirishda gibril o'qitish metodikasining rolini kuchaytiradi, balki o'qituvchilarni amalga oshirishning amaliy strategiyalari va nazariy asoslari bilan ta'minlaydi.

Kelajakka nazar tashlasak, tadqiqotlar chegarasi texnologiyalar va shaxsga yo'naltirilgan ta'limning chuqur integratsiyasiga aylanadi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan kelajakdagi tadqiqotlar sun'iy intellekt, ayniqsa mashinaviy o'rganish usullari individual o'quvchilar uchun o'sish trayektoriyalarini qanday qilib yanada murakkabroq moslashtirishi mumkinligiga e'tibor qaratishi kerak. Vazifasi: o'quvchilarning ta'lim dinamikasi va kompetentlik darajasidan kelib chiqib, ta'lim resurslarini intellektual taqsimlay oladigan tizimni yaratish, shu orqali ta'lim samaradorligini va shaxsiy salohiyatni maksimal darajada rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yangi davrini boshlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aivaloglou, E., & Hermans, F. (2016). How kids code and how we know: An exploratory study on the Scratch repository. In Proceedings of the 2016 ACM Conference on International Computing Education Research (pp. 53-61). <https://doi.org/10.1145/2960310.2960325>
2. Akcayir, G., & Akcayir, M. (2018). The flipped classroom: A review of its advantages and challenges. Computers & Education, 126, 334-345. <https://doi.org/10.1016/j.compedu.2018.07.021>
3. Anthony, B., Kamaludin, A., Romli, A., Raffei, A. F. M., Nincarean A/L Eh Phon, D., Abdullah, A., Ming, G. L., Shukor, N. A., Nordin, M. S., & Baba, S. (2019). Exploring the role of blended learning

for teaching and learning effectiveness in institutions of higher learning: An empirical investigation. *Education and Information Technologies*, 24, 3433-3466. <https://doi.org/10.1007/s10639-019-09941-z>

4. Bedoya Ulla, M., & Franco Perales, W. (2022). Hybrid teaching: Conceptualization through practice for the post-COVID-19 pandemic education. *Frontiers in Education*, 7, Article 924594. <https://doi.org/10.3389/feduc.2022.924594>

5. Wang, H., Tlili, A., Lehman, J. D., Lu, H., & Huang, R. (2021). Investigating feedback implemented by instructors to support online competency-based learning (CBL): A multiple case study. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 18, 1-21. <https://doi.org/10.1186/s41239-021-00241-6>

6. Takona, J. P. (2023). Flipping the script: Post-COVID-19 opportunities, challenges, and threats amidst the digital revolution in higher education. *International Journal on Social and Education Sciences*, 5(4), 847-863. <https://doi.org/10.46328/ijonses.569> Tarimo, W. T. (2016). Computer-supported agile teaching [PhD thesis, Brandeis University].

7. Lydia, K., Lily, Y., & Oleksandr, G. (2024). Microbiota and the control of blood-tissue barriers: Problem-based-learning of students at the medical university. In *Proceedings of the 13th International Scientific and Practical Conference “Information and Innovative Technologies in the Development of Society”*.

8. O'Donnell, A. M., & Hmelo-Silver, C. E. (2013). Introduction: What is collaborative learning?: An overview. In C. Hmelo-Silver, C. A. Chinn, C. Chan, & A. O'Donnell (Eds.), *The international handbook of collaborative learning* (pp. 1-15). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780203837290>

9. Aymuratov, A. K. U., & Djoldasbaeva, A. B. (2024). AKADEMIK YOSHLARNING PSIXO-IJTIMOIIY EHTIYOJLARI: ULARNING SHAKLLANISHIGA METODOLOGIK ASOSLAR. Indexing, 1(1).

MOSH – INSON SALOMATLIGI UCHUN QIMMATLI OZIQ-OVQAT MAHSULOTI

Habibaxon Rustamova Rustamjon qizi

O‘simliklar himoyasi va karantini mutaxassisligi magistranti

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

FarDU Agrar qo‘shma fakulteti q.x.f.f.d (PhD), dotsenti

Email: idrisovh256@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moshning oziq-ovqat sifatidagi ahamiyati haqida batafsil taxlil etilgan. Mosh dukkakli-don ekinlari ichida eng muhim o‘rinni egallashi bilan birga, o‘zining shifobaxsh xususiyati, tarkiba kerakli to‘yimli moddalar saqlashi bilan qadrlanadigan o‘simlikdir.

Kalit so‘zlar: Mosh, loviya, no‘xot, ko‘k no‘xot, bug‘doy ,oqsil, moy, kraxmal, yog‘, uglevod, vitamin, lizin, arginin, fosfor

Аннотация: В этой статье представлен подробный анализ важности моша как продукта питания. Хотя маш занимает важнейшее место среди зернобобовых культур, это растение ценится за свои целебные свойства и запасание необходимых для его состава питательных веществ.

Ключевые слова: Маш, фасоль, горох, зеленый горошек, пшеница, белок, масло, крахмал, жир, углеводы, витамины, лизин, аргинин, фосфор.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the importance of mung beans as a food. Mung beans, in addition to occupying the most important place among legumes, are a plant valued for their healing properties and the content of essential nutrients.

Keywords: Mung beans, beans, chickpeas, green peas, wheat, protein, oil, starch, fat, carbohydrate, vitamin, lysine, arginine, phosphorus

Mosh qadimdan janubiy-sharq mamlakatlarida oziq-ovqat sifatida foydalanib kelingan. Uning yuqori to'yimlilik va xushta'mlilik o'ziga xos xususiyatlaridan bir xisoblanadi. Mosh muhim oziq-ovqat bo'lishdan tashqari, shifobaxsh hamdir.

Mosh doni tarkibida 24-28 foiz oqsil, 2-4 foiz moy, 46-50 foiz kraxmal, V gurux vitaminlari, lizin, arginin mavjud bo'lib, dukkakli don ekinlari orasida oqsil va vitaminlarga boy bo'lishi, kaloriyasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Mosh doni ozuqalik qiymati bilan bug'doy, loviya, no'xot, ko'k no'xot va javdar donlaridan 1,5-2 baravar, to'yimlilik bilan esa 1,5 baravar ustun turadi. Mosh doni tarkibidagi oqsilning hazm bo'lishi 86 fozga yetadi. Bundan tashqari, mosh doni tarkibida Mg, Ca, S, Na, Fe, Ma, Cu, B, Ni, I kabi makro-mikroelementlar bo'lib, fosfor tuzlari boy. ayrim mamlakatlarda mosh donidan salat tayyorlanadi. Makaron va konditer sanoatida mosh unidan 30 foiz qo'shilsa. sifati tubdan yaxshilanadi. Tibbiyot mutaxassislari bergan ma'lumotlarga qaraganda, o'rta yoshdagi odamning bir kunlik oqsilga bo'lgan talabi 70-80 gramm atrofida ekan. Ma'lumki oqsil organizmda juda ko'p funksiyalarni bajarishda, gormonlar ishini yaxshilashda, fermentlar faoliyatida aloxida o'rinni egallaydi. Shunday ekan, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida oqsilning ahamiyati nechog'li katta ekanligini bilish mumkin [1; 6 13-15].

Dukkakli don mahsulotlari tarkibida yuqori darajada to'yimli bo'lgan oqsillardan tashqari muayyan miqdorda yog' ham bo'ladi. Masalan, mosh tarkibidagi yog'ning miqdori 3 protsentsdan 3,2 protsengacha o'zgarib turadi. Ma'lumki, 1 gramm yog' 9,3 kaloriya energiya hosil qiladi, bu esa 1 gramm oqsil yoki uglevodlar kaloriyasidan ikki yarim baravar ortiqdir. Mosh tarkibida yog'ning oz yoki ko'r bo'lishiga, uning navi, shuningdek u ekilgan yildagi iqlim sharoitlari kompleksi, agrotexnika va tashqi muhitning boshqa faktorlari katta ta'sir ko'rsatadi. Mosh yog'ining tarkibida to'yinmagan yog' kislotalari deb ataluvchi qimmatli moddalar bo'ladiki, ular jumlasiga menol kislota, linolen va araxidin kislotalar kiradi. Bu moddalar moddalar almashinuvini tartibga solib turishda, jumladan yog'lar almashinuvida va qon tomir hamda yurak kasalliklari (atereskleroz)ning oldini olishda katta rol o'ynaydi [2; 6 24-28].

Moshning tarkibida, shuningdek ko'p miqdorda kraxmal ham bo'ladi. Har xil navli moshlarda kraxmalning miqdori keng doirada o'zgarib turadi. Masalan, bizning institutimizda o'rganib iqlilgan mosh navlari tarkibida 34,8 protsentsdan 44,9 protsengach kraxmal borligi ma'lum bo'ldi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, bozorda sotiladigan mosh navlari ham tarkibidagi kraxmalning miqdori jixatidan seleksion navlardan qolishmaydi.

Mahsulotning kalorik qiymati uning tarkibidagi kraxmal miqdoriga ko'ra jihatdan bog'liq bo'ladi. Chunki kraxmalning tarkibida uglevodlar deb ataluvchi (ya'ni uglevod va suvdan tarkib topgan) moddalar mavjud bo'ladi. 1 gramm kraxmalning yonishi natijasida 4,1 kaloriya atrofida energiya hosil bo'ladi. Tabiiyki, kraxmalga boy bo'lgan moshning kalorik qiymati ham yuqori bo'ladi. Odatda hayvonot mahsulotiga nisbatan o'simlik mahsuli bo'lgan ovqat mahsulotlarida

uglevodlar ko'p bo'ladi. Chunonchi, bug'doy, guruch va dukkakli don ekinlari tarkibida 30 protsentsdan 50 protsentga qadar uglevodlar bor. Odam o'zining kundalik ovqatlanishida ana shu o'simlik moddalaridan tayyorlangan mahsulotlarni iste'mol qiladi. U iste'mol qiladigan ovqatlarning kalorik qiymati ko'proq shu mahsulotlar hisobiga tashkil topadi. Mosh kraxmalga boy bo'lishdan tashqari, uning tarbida ko'p miqdorda shakar ham bo'ladi. Uning miqdori 2,74 protsentsdan 6,1 protsentgacha yetadi [3; 6 42-45].

Uglevodlar organizm uchun asosiy hayot manbaidir. Ovqatlanishda esa asosan o'simlik mahsulotlari-har xil navli bug'doy va uni qayta ishlash mahsulotlari (un, vermishel, makaronlar, non va non mahsulotlari), dukkakli don ekinlari (mosh, loviya, yasmiq, no'xot va xokazolar), shuningdek mevalar, sabzavot va poliz ekinlari uglevodlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Hayvonot mahsulotlari (sut, go'sht, tuxum va xokazolar)da esa uglevodlar juda kam bo'ladi.

Bizning ovqatimiz tarkibida hilma-xil uglevodlar bor. Masalan, non, dukkakli don va kartoshkadagi uglevodlar murakkab kraxmal shakldadir. Dukkakli donlar va shu jumladan mosh tarkibidagi kraxmal dastlab ovqat hazm qilish traktida ancha oddiy qismlarga parchalanadi va shundan keyin asta-sekin qonga so'riladi. Bu esa qonda shakarning doimo ma'lum darajada bo'lib turishi va organizm to'qimalarining undan to'g'ri foydalanishi uchun juda muhimdir. Shu sababli to'g'ri ovqatlanish uchun oqsillarning asosiy qismini turli hil donlar (bug'doy, loviya, boshqa dukkaklilar va hokazo) va kartoshka tarkibidagi kraxmal shaklida iste'mol qilish maqsadga muvofiqdir [4; 6 20-22].

Shunday qilib, boshqa dukkakli donlar singari moshning tarkibida ham asosiy oziqli moddalar-oqsillar, yog'lar va uglevodlar mavjud bo'lib, ular muayyan miqdorda kaloriya hosil qilish xususiyatiga ega. Masalan,

100 gramm mosh 288 kaloriyadan 338 kaloriyagacha, 100 gramm guruch esa 330-370 kaloriya energiya hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Atabayeva X.N, Sattarov M.A, Idrisov X.A Sug‘oriladigan maydonlarda mosh yetishtirishning intensiv texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. Toshkent 2019
2. Zoxidov.A.Z, Ismoilov M.N Moshning oziqli qimmat. T. “O‘zbekiston”. 1984
3. Kogay.M.T Sug‘oriladigan yerlarda don-dukakli ekinlarni yetishtirish-“O‘zbekiston” nashriyoti 1973
4. “Agro biznes” inform iqtisodiy-ijtimoiy jurnali. “Dukkakli ekinlar tuproq unumdorligini oshiradi”. №07/90-2014-y

СОВРЕМЕННЫЕ АГРОТЕХНОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА УРОЖАЙНОСТЬ ПРИУСАДЕБНЫХ УЧАСТКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Ходжалепесов Полат Зинатдинович

доцент Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

Муратбаева Сабира Бекмурзаевна

Мырзабаева Улзада Куёанышбаевна

студенты Нукусского филиала Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии

Аннотация: Проект посвящен изучению современных агротехнологий и их влиянию на урожайность приусадебных участков в Узбекистане. Оцениваются различные агротехнические

инновации, внедряемые в сельском хозяйстве, и их влияние на урожайность. Особое внимание уделяется практическим примерам успешного применения агротехнологий в различных регионах страны и их экономическим и социальным последствиям.

Ключевые слова: Современные агротехнологии, урожайность, приусадебные участки, Узбекистан, агротехнические инновации, сельское хозяйство, экономические последствия

В современных условиях экономического развития и государственной поддержки выращивание продукции с высокой добавленной стоимостью на приусадебных участках и выделенных населению землях приобретает стратегическое значение. В Узбекистане этот подход не только способствует повышению доходов людей, но и укрепляет продовольственную безопасность, стимулирует развитие перерабатывающей промышленности и увеличивает экспортный потенциал страны [1].

Экономические выгоды для населения и государства заключаются в следующем:

Производство сельхозпродукции с высокой добавленной стоимостью, таких как фрукты, орехи, лекарственные растения и овощи для переработки, позволяет домохозяйствам получать стабильные доходы. В отличие от традиционного выращивания культур, этот сегмент даёт возможность владельцам земельных наделов и приусадебных участков зарабатывать больше за счёт переработки, упаковки и экспорта продукции.

Для государства это означает увеличение налоговых поступлений, развитие агропромышленных кластеров и создание новых рабочих мест, особенно в сельской местности. Кроме того,

поддержка подобных инициатив позволяет последовательно снижать уровень бедности и укреплять устойчивость экономики.

Ещё один плюс: выращивание высоко маржинальных культур позволяет Узбекистану снижать зависимость от импорта продовольствия, а также расширять экспорт продукции с высокой добавленной стоимостью. Орехи, сухофрукты, эфирные масла, масленичные культуры и органическая продукция востребованы на мировых рынках, что делает их перспективным направлением для страны [2].

Государственная поддержка в виде субсидий и кредитов на покупку саженцев и оборудования, а также образовательные программы по агротехнологиям, могут сыграть ключевую роль в успешном развитии этого сектора. Словом, развитие частного агропроизводства на выделенных земельных участках и приусадебных хозяйствах — это не только способ повысить уровень жизни населения, но и важный шаг к укреплению экономической независимости Узбекистана.

Инвестируя в этот сектор, государство создаёт условия для устойчивого роста экономики, диверсификации сельского хозяйства и увеличения конкурентоспособности страны на международной арене.

Сегодня президент Шавкат Мирзиёев провёл совещание, посвящённое новой системе выращивания доходных культур на приусадебных землях и участках, переданных в аренду. Благодаря рациональному подходу и структурным изменениям, сельскохозяйственные угодья приносят богатый урожай. В то же время принимаются меры по превращению других земель в экономические активы, созданию рабочих мест и увеличению доходов населения.

В стране насчитывается 508 000 гектаров приусадебных земель у более чем 5 млн домохозяйств, 17 000 гектаров ранее созданных дехканских хозяйств и 260 000 гектаров земель, распределённых среди населения. В последние годы эти ресурсы стали основой продовольственной безопасности. За последние 7 лет владельцам приусадебных участков и дехканским хозяйствам было выделено 2,3 триллиона сумов льготных кредитов и 265 млрд сумов субсидий. С учётом местных условий, 5145 махаллей были специализированы на выращивание фруктов, овощей, зелени и лимонов, а также других культур [3].

Люди освоили современные агротехнологии, и урожайность приусадебных участков значительно возросла. Если ранее с одного гектара собирали в среднем 18 тонн продукции, то теперь этот показатель увеличился до 38 тонн. В махаллях создана мощность для хранения, сортировки и переработки 470 000 тонн фруктов и овощей. В десятках районов, таких как Асака, Жандар, Шахрисабз, Улчи, Қизилтепа, Янгийўл, Тайлак, Ангор, Қува, Олтариқ, население собирает урожай два-три раза в год и получает доход в среднем 15-20 млн сумов с одной сотки.

Для дальнейшего развития этого направления были изучены предложения населения, предпринимателей и экспортёров. Так, садоводы Самаркандской области попросили субсидии на шпалерное выращивание винограда, что удваивает урожайность. Это предложение поддержано, и теперь на каждую шпалеру будет выделяться субсидия в размере до 15 000 сумов. Также предусмотрены льготные кредиты на покупку оборудования для сушки изюма по программе семейного предпринимательства.

В махалле Тасмасой Динауского района 875 домохозяйств выращивают цитрусовые лимоны и получают до 200 млн сумов годового дохода. В Серасийском и Алтынсайском районах более 1 000 семей также выразили желание выращивать лимоны по методам траншея и термос. Фермеры Янгийўля пожаловались на нехватку качественных местных семян зелени. Дано указание по устранению этих проблем и поддержке инициатив населения.

Глава государства выдвинул новые инициативы по выращиванию высокодоходных и экспортноориентированных культур, их учёту и финансированию. Для развития деҳканских хозяйств и приусадебного земледелия будет создан отдельный совет, который займётся обучением населения, поставками семян и саженцев, выращиванием, переработкой и экспортом продукции. Под управлением совета будет создан холдинг "UzAgroStar". В составе девяти государственных банков откроют 15 специализированных компаний по производству фруктов и овощей. Эти компании выведут 15 пилотных районов на новый уровень и распространят успешный опыт в 72 других районах.

Каждой компании будет выделено по 20 млрд сумов из бюджета, а банки дополнительно направят по 10 млн долларов закреплённой компании. В совете будет создан специальный фонд с начальным капиталом 260 млрд сумов и кредитным портфелем в 1,2 трлн сумов. Эти средства позволят банкам привлекать жителей специализированных махаллей в качестве клиентов и обеспечивать их финансирование. Будет внедрена система поддержки приусадебного земледелия, включая импорт современных технологий и привлечение иностранных экспертов, обеспечение домохозяйств качественными семенами, удобрениями и

агротехническими услугами, а также содействие переработке, хранению и экспорту продукции [4].

В сотрудничестве с институтами семеноводства в пилотных районах будут организованы зелёные теплицы. В целом, на финансирование выращивания продовольственных культур на приусадебных участках будет направлено около 5 трлн сумов. Будут созданы дополнительные возможности для поддержки дехканских хозяйств и владельцев приусадебных участков. В махаллях и домохозяйствах появятся морозильные камеры, упаковочные, сушильные и перерабатывающие склады, теплицы, которые передадут населению с рассрочкой на пять лет.

Предприниматели, организующие сервисные услуги для приусадебного земледелия, получают семилетние льготные кредиты под 17,5%. Ежегодно на лучшие проекты фермеров и домохозяйств будут выделяться 20 млрд сумов в виде грантов, при этом 500 махаллей получают по 40 млн сумов [5].

Дехкане, наладившие экспортноориентированное производство, смогут претендовать на субсидии до 100 млн сумов, а организаторы краткосрочных учебных курсов на 5,5 млн сумов. В засушливых регионах государство покрывает половину затрат на строительство резервуаров для сбора дождевой воды. Ещё одно важное изменение — кредиты из фонда сельского хозяйства на выращивание и переработку фруктов и овощей будут предоставляться без залога, только под страховой полис. Дехкане смогут получать льготные кредиты без лишних бюрократических процедур.

Будет создана новая система учёта приусадебных и дехканских земель, а также выращенной на них продукции. До конца года все участки будут классифицированы, а данные о посевах внесены в

платформу «Онлайн Махалля». Дехкане, эффективно использующие землю и получающие официальный доход более 5 млн сумов с одной сотки, смогут вернуть 90% уплаченного земельного налога в виде кэшбэка. А с тех, кто ничего не выращивает на своём приусадебном участке, будет взиматься повышенный земельный налог.

Из-за отсутствия цифровой торговой платформы дехканам сложно найти покупателей, а переработчики и экспортёры вынуждены искать продукцию самостоятельно. Для решения этой проблемы будет запущен онлайн-маркетплейс.

За последние 3 года 260 тысяч гектаров земли были переданы населению. А теперь система усовершенствуется. В Каракалпакстане, Джизакской, Андижанской и Ташкентской областях 3 тысячи пустующих земель будут сдаваться в аренду по новой системе. Участки от 3 до 50 гектаров выставлены на аукцион и переданы в аренду на 49 лет. Эти земли будут выставляться на аукцион вместе с анализом состава и качества почвы, указанием минимального и максимального лимита водоснабжения. В аукционе смогут участвовать и предприниматели из других регионов. Торги будут проводиться по сниженной стартовой цене и с условием единовременной оплаты. Часть земель будет отведена под строительство хранилищ и упаковочных мощностей.

С 2025 года изменится порядок налогообложения сельскохозяйственных земель. Если балльные показатели арендованной земли увеличатся, налог останется прежним; если снизятся — вырастет втрое. Одним из самых востребованных продуктов в нашей стране является картофель. Он выращивается на 290 000 гектаров, и несмотря на это, потребность частично покрывается за счёт импорта. Причина — недостаточное качество

сортот и срдня урожайность. В связи с этим перед Научно-исследовательским институтом картофелеводства поставлена задача создать высокоурожайные сорта, соответствующие местным климату, заготовить и распространить 3 млн клубней методом «Инвитро».

В этом году на развитие картофелеводства будет направлено 400 млрд сумов из фонда сельского хозяйства. Импортный семенной картофель освободят от таможенной пошлины на 3 года. С 2027 года потребности в картофеле будут покрываться за счёт внутренних ресурсов. Также даны поручения по вопросам обеспечения техникой для выращивания и переработки продукции, предоставления дехканам удобных лизинговых продуктов.

На совещании глава государства побеседовал с передовыми дехканами и владельцами приусадебных участков регионов. Они отметили огромный потенциал, который скрыт в этой сфере, и то, что при задействовании всех резервов и реализации новых инициатив лидера страны будет обеспечено дальнейшее развитие аграрного сектора. А значит, неуклонный рост экономики страны и самое главное — повышение доходов и благополучия людей.

Состоялось ещё одно символическое событие. Одного из успешных земледельцев, Генжемурата Турдымуратова из Каракалпакстана, получающего высокий доход за счёт выращивания в своей теплице четырёх урожаев в год, решено наградить орденом «Дўстлик».

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О подсобном хозяйстве» от 1 апреля 2021 г., № ЗРУ-681
2. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020 — 2030 годы» от 23 октября 2019 г., № УП-5853

3. Khojalepesov P., Muratbeva S.B., Mambetsharipova G.P. “Strategies of modern agricultural sector development: innovation, sustainability, and economic growth” Agro kimyo himoya va o‘simliklar karantini Ilmiy-amaliy jurnal., Maxsus son [2], 2024., ISSN 2181-8150., 257-260 b.

4. Khojalepesov P., Mirzabaeva U.Q., Muratbeva S.B., “Economic initiatives of the New Uzbekistan: investments, partnerships, and development” American Journal of Technology and Applied Sciences ISSN (E): 2832-1766 // Volume 24, May – 2024 // 1-5 pages

5. Khojalepesov P.Z., Ismailov Q.S “Stages of innovative development in the New Uzbekistan” / International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) / e-ISSN: 2409-0085 (online). Year: 2022 // Issue: 09, Volume: 113

INTERFAOL TA’LIM USULLARI ORQALI XALQ PEDAGOGIKASINI O’RGANISH

Gapparov Bexzod Nematillayevich

Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

Email: bexzodgapparov132@gmail.com

tel: +998 (99) 556-06-50

Gapparova Musavvarabegim Bektosh qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining

Jizzax filiali 1-bosqich talabasi

Email: musavvarabegim2007@gmail.com

Tel: +998 (93) 650-13-13

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda interfaol ta’lim usullarining xalq pedagogikasini o‘rganishdagi ahamiyatiga bag‘ishlangan. O‘qitish jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning faollik

darajasini oshirish va ularni xalq pedagogikasining qadriyatlari va usullari bilan tanishtirishga imkon yaratadi. Mazkur maqolada xalq pedagogikasini o'qitishda interaktiv o'qitish usullarining turli shakllari, ularning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilingan.

Аннотация: Статья посвящена значению интерактивных методов обучения в изучении народной педагогики. Использование интерактивных методов в образовательном процессе способствует повышению активности учащихся и знакомству их с ценностями и методами народной педагогики. В данной статье анализируются различные формы интерактивного обучения, их значение и эффективность в преподавании народной педагогики.

Abstract: The article focuses on the significance of interactive teaching methods in studying folk pedagogy. The use of interactive methods in the educational process increases students' engagement and allows them to explore the values and techniques of folk pedagogy. The paper analyzes various forms of interactive learning, their importance, and effectiveness in teaching folk pedagogy.

Kalit so'zlar: Interfaol ta'lim, xalq pedagogikasi, o'qitish usullari, faol o'qish, interaktiv metodlar, ta'limning samaradorligi, pedagogika, zamonaviy ta'lim, o'quvchilarning faolligi.

Ключевые слова: Интерактивное обучение, народная педагогика, методы обучения, активное обучение, интерактивные методы, эффективность образования, педагогика, современное образование, активность учащихся.

Keywords: Interactive teaching, folk pedagogy, teaching methods, active learning, interactive methods, educational effectiveness, pedagogy, modern education, student engagement.

O‘quvchi-talabalarni fikrlashga, fikrlaganda ham mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish davrimizning muhim talablaridan biridir. Bunday ma’suliyatli vazifani bajarish birinchi navbatda biz o‘qituvchilarning zimmasiga tushadi, albatta. Zero, o‘qituvchi o‘zi mustaqil va ijodiy fikrlay olmas ekan, u o‘z o‘quvchi-talabalarini ham ijodiy fikrlashga o‘rgata olmaydi. Demak, biz avvalo, bo‘lajak o‘qituvchilarni mustaqil fikrlashga mashq qildirishimiz, tinmay o‘rgatishimiz lozim. Insonning fikran mustaqilligi ham, yurtning istiqloli ham o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘zlikni anglash esa, avvalo, fikrlashdan, ijodiy, mustaqil fikrlashdan boshlanadi. Mustaqil fikrlay oladigan kishigina o‘z erki, Vatan mustaqilligi uchun kurasha oladi. Shunday kishilarni tarbiyalashning eng yaxshi imkoniyati dars, ya’ni ta’lim jarayoni. Hozirgi kunda talabalarni – bo‘lajak o‘qituvchilarni fikrlashga undovchi, o‘rgatuvchi eng samarali omil – bu turli pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ya’ni ta’limning interfaol usullaridan foydalanishdir. Chunki zamonaviy dars o‘tish usullari talabalarni o‘ylashga, fikrlashga, izlanishga o‘rgatadi. Shu o‘rinda biz III kurs talabalariga “Xalq pedagogikasida ahloqiy tarbiya me’zonlari” mavzusi bo‘yicha o‘tiladigan amaliy mashg‘ulotning taxminiy tuzilishini e’tiboringizga havola etamiz. Bunda darsni o‘qitish va o‘rgatishni uch bosqichda: **chaqiriq, anglash, fikrlash** bosqichida tashkil etamiz.

Chaqiriq bosqichida talabalarga savollar bilan murojaat etamiz, ya’ni muammoli vaziyat yaratamiz.

1. Chaqiriq:

- a) O‘zbeklarda oila nima bilan mustahkamlanadi?
- b) Xalkimizda kanday munosabatlar ahloqsizlik sanaladi?
- v) Xalqimizda oila qurishning qanday o‘ziga xos talab va tushunchalari bor?

- g) Kafoat nima? qonun tilida kafoat nimani bildiradi?
- d) Kelin-kuyov qaysi tomonan bir-birlariga teng bo'lishlari kerak?
- ye) “Tengini topsang tekin ber” xalq maqolining ma'nosini ayting.


Bunga o'xshash savollarni ko'plab berish mumkin. Lekin bu savollarning hammasi bir maqsadga, ya'ni o'quvchilarni fikrlashga, bilganlarini esga solishga va ularda qiziqish uyg'otishga, intilishga, izlanishga ehtiyoj uyg'otishi va bunga yordam berishi kerak.

Unumli chaqiriq talabalarda materiallarni faol o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Aynan shu chaqiriq bosqichida eng asosiy savol beriladi va har bir savol bo'yicha “aqliy hujum” o'tkaziladi. Javoblar doskaga yozib boriladi. Kimning javobi to'g'ri, kimniki noto'g'riligi aytilmaydi. Shundan keyin talabalardan shu savollar bo'yicha o'z fikrlarini, javoblarini daftarlariga yozish so'raladi. Yozib bo'lishgandan so'ng mavzu bo'yicha savollar beriladi, tushuntiriladi, yo'l ko'rsatiladi. Shundan so'ng talabalar chorlash jarayonida berilgan savollarga javobni o'qituvchining ma'ruzasidan va tavsiya etilgan adabiyotlardan izlashadi va topishadi. Ana shu o'rinda biz kafoat va uning ma'nolarini, nikohdagi tenglikning mazmuni va turlarini aniqlash uchun ularga yo'naltiruvchi savollar tashlaymiz. Duskada ularni «klastir» usulida chizib, ko'rsatib berishni taklif qilamiz.

Bugungi kunda yana qanday talablarni qo'shimcha qilish mumkin? Demak, bu bosqichda talabalar bu mavzuni birmuncha anglaydilar. Endi talabalar o'z javoblarini o'qituvchi ma'ruzada bergan ma'lumotlar bilan taqqoslab, o'z fikrlarini dalillar bilan asoslaydilar. Yana nimalarni bilishni hohlashlarini yozadilar va javob istaydilar.



2-чи



Umuman, bu tarzda dars o'tishda talabalarning shiori shunday bo'ladi: **bilaman, bilib oldim, bilishni hohlayman**. Bu darsning anglash bosqichi. Bundan keyingi bosqich talabalarni fikrlashga, xulosa chiqarishga undash jarayoni hisoblanadi. Bunda talabalar shu mavzuda insho yoki makola yozishadi. Bunda ular mavzu bo'yicha olgan taassurotlari, chihargan xulosalari haqida fikr yuritadilar. Talabalar darsning oxirida yozgan insholari yoki maqolalarini o'qib beradilar, savol-javob asosida baholanadilar. Baholar eshittiriladi va uyga vazifa beriladi. Dars yakunlanadi. Bu modeli darsning taxminiy ko'rinishi. Darsni bu tarzda tashkil etishdan maqsad – talabalarni fikrlashga, ijodkorlik va topqirlikka o'rgatishdir.

“Xalq pedagogikasida oila tarbiyasi. Bola tarbiyasida oilaviy an'analar” mavzusida ma'ruza o'tayotganda an'anaviy tarbiya turlaridan biri bo'lgan hasab va nasab tarbiyasi haqida ma'lumot beramiz, uning

shaxs shakllanishida, kamolatida asosiy omil ekanligini misollar orqali tahlil qilib tushuntiramiz. Yoshlarda o‘z nasablari bilan faxrlanish hissini tarbiyalashga e‘tibor beramiz. Ana shu mavzu yuzasidan amaliy mashg‘ulot o‘tayotganda esa, hasab va nasab tarbiyasi bo‘yicha debat o‘tkazamiz. Bunda talabalarni teng 2 guruhga bo‘lamiz. 1-guruh shaxsning kamolatga erishuvida nasab hal qiluvchi rol o‘ynaydi degan fikrni himoya qiladi. 2-guruh esa, shaxs kamolatida hasab asosiy o‘rinni egallaydi degan fikrni targ‘ib qiladi. Shunga ko‘ra, 1-guruhni “Nasab”, 2-guruhni “Hasab” nomi bilan ataymiz. Ularga topshiriq 15 kun oldin berib qo‘yiladi va mohiyati tushuntiriladi. Har 2 guruh avvalo, nasab va hasab haqida o‘qib, o‘z fikrlarini himoya qilish va unga tinglovchilarni ishontirish, raqiblarini mag‘lub qilish uchun ishonchli ma‘lumotlar, qiziharli misollar yig‘ishadi. Maqsad – talabalarni xalq an‘anaviy tarbiyasi haqida ma‘lumotlarni yig‘ishga, o‘rganishga ehtiyoj uyg‘otish, mustaqil, erkin fikrlashga, zaruriyat tug‘ilganda o‘z fikrini himoya qila olishga o‘rgatishdir.

“Nasab” guruhi bola shaxsining shakllanishida nasabning, ya‘ni ajdoddan avlodga qon orqali o‘tuvchi genning roliga alohida e‘tiborini haratishadi va bunda gen, ya‘ni zot hal qiluvchi rol o‘ynaydi degan g‘oyani ilgari surishadi. Buni misollar bilan isbotlashadi. Masalan, tarixda o‘tgan buyuk odamlarning naslida tug‘ma qobiliyat, iste‘dod bo‘lgani uchun ham ular o‘z davrlarida shunday shon-shuhrat taratishgan, mashhur bo‘lishgan. Bu haqda xalqimizning “Oqqan suv oqmay qolmas”, “qazisan, hartasan, asli naslingga tortasan” maqollarini, Navoiyning “It bilan ho‘tikni qancha qilsang tarbiyat, it bo‘lur, eshak bo‘lur, aslo bo‘lmas odami” kabi hikmatli so‘zlarini misol qilib keltirishadi. Fikrlarini isbotlash uchun yaqinda 76 yoshda vafot etgan mashhur fizik olim, birinchi o‘zbek kosmonavti Solijon Sharipovning

ustozi, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi Shavkat Ahadovich Vohidovni misol keltirishib, u tug‘ma qobiliyatga ega edi. Chunki u Samarqandlik mashhur xattot Domla Miri Zarrin qalamning chevarasi, fiqhshunos olim, madrasa mudarrisi, mufti Mirabdivoxidning nabirasi edi. Yana bir katta bobosi Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasining mudarrisi, shoir Abdulkarim Sipandiy ham o‘z davrining mashhur allomalaridan bo‘lganligi haqida gapirib, agar zotida, qonida bo‘lmasa, Vohidov har qancha mehnat qilmasin, bunday maqomga, shon-shuhratga ega bo‘lmas edi, degan fikrni ilgari surishadi va jon-jaxdlari bilan himoya qilishadi.

Ikkinchi “Hasab” guruhi: “Agar naslida mashhurlik, ulug‘lik bo‘lsa-yu, bola o‘z ustida ishlamasa, mehnat qilmasa, uning nasabi ham, zoti ham hech narsa qilib berolmaydi. U ajdodlaridek mashhur bo‘lolmaydi. Odam faqat tinimsiz, mashaqqatli mehnati orqaligina hurmat-e‘tiborga erishadi, mashhurlik darajasiga ko‘tariladi”. Masalan, akademik X.A.To‘raqulov oddiy dehqon oilasidan. Ajdodida olimlar ham o‘tmagan. U faqat mehnati orqali shunday yuksak ilmiy darajaga, ustozlik maqomiga erishdi. Zotan, donishmandlardan buyuklikka erishishning sababini so‘rashganda, buyuklikning siri mehnatda. Buyuklar oddiy odamlarga haraganda ko‘p, juda ko‘p mehnat qilishadi degan ekan. Demak, nasabsiz ham kishi mashhur bo‘lishi, elga tanilishi mumkinligini alohida ta’kidlashadi.

“Nasab” guruhi: qobiliyat, talant qonda bo‘lishi kerak. Agar qonda bo‘lmasa, foydasi yo‘q. Hamma gap kishining nasabida, zotida. qonida bo‘lmasa, ming mehnat qilgani bilan foydasi yo‘q deydi va o‘z fikrlarini Jizzaxlik shoira, Jizzax viloyati xokimi o‘rinbosari Shahlo Ahrorovanning quyidagi gapi bilan tasdiqlashadi. Shahlo Ahrorova shoira va olima Sharofat Botirovanning xotirasiga bag‘ishlab Jizzax Davlat Pedagogika

oliygohida o'tkazilgan kechada: “Odam xohlasa, o'qib, o'rganib olim bo'lishi mumkin. Lekin xudo bermasa, qonida bo'lmasa, shoir bo'lolmaydi” degan edilar.

“Nasab” guruhi yana dog'istonlik mashhur shoir Rasul Hamzatovning “Shoir qilib ko'r-chi eringni² nomli hazil she'rini o'qib berishadi.

“Hasab” guruhi: Agar odam o'zi harakat qilmasa, uning nasabi hech narsa qilib berolmaydi degan fikrni ilgari surishadi. O'z fikrlarini misollar bilan isbotlashadi. Masalan, nega Muqimiyning birorta bolasi o'ziga o'xshamaydi. Nega H.Olimjonning bolalari shoir emas. Nega Shavkat Ikromov dadasi Orif Ikromovga o'xshab tashkilotchi, rektor emas kabi. Yoki F.Yo'ldoshning o'g'illari nega shoir emas. Yoki rus she'riyatining quyoshi – A.S.Pushkinning bobosi oddiy xizmatkor, qul bo'lgan. Otasi ham mashhur bo'lmagan. Lekin Pushkin shunday talantli shoir bo'lgan-ku? Buyuk alloma Beruniy ham oddiy kambag'alning o'g'li bo'lganku. Demak, iste'dodli, mashhur kishi bo'lish uchun nasabning ahamiyati yo'q degan aqidani targ'ib qilishadi. qaysi guruh o'z fikrini dalillar bilan ibotlay olsa, kim ko'prok ishontirolsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Buni talabalar tomonidan saylangan hay'at a'zolari aniqlashadi.

Bu darsdan maqsad: milliy an'analarimizni chuqurroq o'rganish, teran anglash va mohiyatini tushunish, o'z fikriga ega bo'lish va uni himoya qila olish, isbotlash, taqqoslash, ishontirish yo'llarini o'rganish, ya'ni yangicha fikrlashga odatlanishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Murodov. Oltin sandiq ochildi. T., “O'qituvchi”, 1994 yil, 35-bet.
2. “Ahloqi Jaloliy”. O'zbekiston FA, qo'lyozmalar fondi (Sharqshunoslik instituti), 146-bet.

3. G.A.Haydarova, K.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”.
O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2009 yil.

REAL GAZLAR UCHUN HOLAT TENGLAMASI

Xudoyberdiyeva Malika Karomat qizi

O‘zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti katta o‘qituvchisi, PhD

Amatboyev Temur Otamurod o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Universiteti
Fizika fakulteti 1-kurs talabasi
Email: Xudoyberdiyeva94@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada real gazlarning holat tenglamalari va ularning ideal gaz holat tenglamasidan farqlari tahlil qilinadi. Van-der-Vaals tenglamasi kabi klassik modellardan tortib, zamonaviy yondashuvlargacha bo‘lgan turli holat tenglamalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari gaz molekulalari o‘zaro ta’sirini hisobga olish muhimligini va bu ta’sir bosim, hajm hamda harorat o‘rtasidagi bog‘liqliklarga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Olingan natijalar kimyo, termodinamika va muhandislik sohalarida real gazlarni chuqurroq tushunishda qo‘llanilishi mumkin.

Аннотация: В данной статье рассматриваются уравнения состояния реальных газов и их отличия от уравнения состояния идеального газа. Анализируются различные уравнения состояния, начиная от классической модели Ван-дер-Ваальса и заканчивая современными подходами. Результаты исследования показывают важность учета межмолекулярного взаимодействия и его влияние на взаимосвязь между давлением, объемом и температурой.

Полученные данные могут быть использованы для более глубокого понимания свойств реальных газов в химии, термодинамике и инженерии.

Abstract: This article examines the equations of state for real gases and their differences from the ideal gas equation. Various equations of state are analyzed, ranging from the classical Van der Waals model to modern approaches. The research results highlight the importance of considering intermolecular interactions and how they affect the relationship between pressure, volume, and temperature. The findings can be applied to deepen the understanding of real gas properties in chemistry, thermodynamics, and engineering

Kalit soʻzlar: Real gaz, holat tenglamasi, Van-der-Vaals tenglamasi.

Ключевые слова: Реальный газ, уравнение состояния, уравнение Ван-дер-Ваальса.

Key words: Real gas, equation of state, Van der Waals equation.

Kirish

Van Der Waals tenglamasining parametrik yechimlarini topish

Van Der Waals holat tenglamasi (VDW-EOS)

$$P(n, T) = \frac{nkT}{(1 - bn) - an^2}$$

Bu yerda P -bosim, T -temperatura, n -konsentratsiya, k Boltsman doimiysi, a va b oʻzgarmas parametrlardir. Biz kiritik nuqtada konsentratsiya, bosim va temperaturani birinchi tur fazoviy oʻtishda $n_k = \frac{1}{3b}$, $P_k = \frac{a}{27b^2}$ va $T_k = \frac{8a}{27kb}$ ga teng boʻladi. Molyar zichlik $\rho = n\mu$, bu yerda μ molyar massaga teng.

Van Der Waals tenglamasi orqali kiritik nuqtani termodinamik (P ,T) , (n , P) va

(T , n) bogʻlanishlar yordamida topish mumkin. Kritik nuqta yaqinida zichlik , temperatura va bosimni bogʻliklarini (1-rasm , 2-rasm , 3-rasm ,) koʻrishimiz mumkin. Van Der Waals tenglamasidagi a va b koeffitsiyentlarni (P_k , T_k) , (P_K , n_k) va (T_k , n_k) bogʻliklaridan topishimiz mumkin.

$$a = \frac{27k^2T_k^2}{64P_k} \quad b = \frac{kT_k}{8P_k} \quad (2)$$

$$a = \frac{3P_k}{n_k^2} \quad b = \frac{1}{3n_k} \quad (3)$$

$$a = \frac{9kT_k}{8n_k} \quad b = \frac{1}{3n_k} \quad (4)$$

Van Der Waals tenglamasida suyuqlik va bugʻ fazaviy muvozanatiga mos keladigan tenglamalarning parametrik yechimiga koʻra [3-5, 7], toʻyingan bugʻ bosimi p(T)t hamda suyuqlik n(T)s va bugʻ n(T)g zichliklari quyidagicha aniqlanadi.

$$\frac{bkT}{a} = F(y(T)) \equiv \frac{2(y-e^{2y}+ye^{2y}+1)(4ye^{2y}-e^{4y}+1)^2}{(e^{2y}-1)(2y-2e^{2y}+e^{4y}-2ye^{4y}+4y^2e^{2y}+1)^2} \quad (5)$$

$$bn_s(T) = F_s(y(T)) = 2 * \frac{y-e^{2y}+ye^{2y}+1}{(2y-1)e^{2y}-e^{-2y}-2y+2} \quad (6)$$

$$bn_g(T) = F(y(T)) \equiv 2 * \frac{y-e^{2y}+ye^{2y}+1}{e^{4y}-e^{2y}(2y+2)+2y+1} \quad (7)$$

$$\frac{P_e(T)b^2}{a} = \left(\frac{F(y)F_s(y)}{[1-F_s(y)]} - F_s^2(y) \right)$$

Toʻyingan bugʻ bosimi p(T)t hamda suyuqlik n(T)s va bugʻ n(T)b zichliklarining haroratga bogʻliqligi 5-tenglamadan aniqlangan y(T) parametrining haroratga bogʻliqligidan foydalanib 6-8 tenglamalardan aniqlanadi.

Bizda 2-tenglamadan foydalanib 5-8 tenglamalardan quyidagilar kelib chiqadi:

$$T = \frac{27T_k}{8F(y(T))},$$

$$\left(\frac{n_s(T)}{n_k}\right) = 8z_c F_s(y(T)),$$

$$\frac{n_g(T)}{n_k} = 8z_k F_g(y(T)),$$

$$P_t(T) = 27P_k F_p(y(T)).$$

Bu yerda kritik nuqtadagi suyuqlikning siqilish koeffitsientining qiymati $z_k = \frac{P_k}{n_k k T_k}$ ga teng.

$p_t(T)$, $n_s(T)$ va $n_g(T)$ bog‘liqliklari 9-tenglamadan aniqlangan $y(T)$ parametrining haroratga bog‘liqligidan foydalanib 10-12 tenglamalardan aniqlanadi. 1-rasmda ko‘rsatilishicha, 9-12-tenglamalar suyuq-bug‘ fazaviy muvozanati tenglamalarining aniq parametrik yechimi - argonning to‘yingan bosimining haroratga va kritik nuqtaga yaqin kamaytirilgan (kritik qiymatga nisbatan) bug‘ zichligiga bog‘liqliklarining [2] eksperimental ma’lumotlarini miqdoriy jihatdan tasvirlaydi va ular a va b parametrlari (T_k , P_k) dan 2-tenglama yordamida aniqlanganda va argon uchun [1, 2] $T_k = 150.567$ K, $\mu = 0.039948$ kg·mol⁻¹, $\rho_k = 535.6$ kg·m⁻³ va $p_k = 4.863$ MPa bo‘lganda argonning kamaytirilgan bug‘ va suyuqlik zichliklarining haroratga bog‘liqliklarini sifat jihatdan tasvirlay oladi. Bu holda VdW-HT dan kritik nuqtada zichlik $\rho_k = 418$ kg·m⁻³ ligi kelib chiqadi, lekin bu argonning $\rho_k = 535.6$ kg·m⁻³ dan [22] ancha kam. Shuning uchun VdW-HT to‘yingan bosimni kamaytirilgan bug‘ zichligining funksiyasi sifatida (1b-rasm) va kamaytirilgan suyuqlik va bug‘ zichliklarini haroratning funksiyasi sifatida (1c-rasm) tasvirlaydi.

Bizda 3-tenglamadan foydalanib 5-8 tenglamalardan quyidagilar kelib chiqadi:



$$\frac{T}{T_k} = 1/9z_k F(y(T)), \quad (13)$$

$$n_s(T) = 3n_k F_S(y(T)), \quad (14)$$

$$n_g(T) = 3n_k F_g(y(T)), \quad (15)$$

$$P_t(T) = 27P_k F(y(T)). \quad (16)$$

$p_t(T)$, $n_s(T)$ va $n_g(T)$ bog'liqliklari 13-tenglamadan aniqlangan $y(T)$ parametrining haroratga bog'liqligidan foydalanib 14-16 tenglamalardan aniqlanadi.




1.a-rasmda argonning to'yingan bug'i bosimining temperaturaga bog'likligini ko'rsatadi, ko'k doiralar experimental natijalarga [2] ga mos keladi va qizil chiziq (9) va (12) tenglamalarga mos keladi. 1.b-rasmda argonning to'yingan bug'i bosmining zichlik kamayishi $\frac{n_b}{n_k}$ ga

bog'likligini, ko'k doiralar [2] ga mos keladi va qizil chiziq (9),(11) va (12) tenglamalarga mos keladi.

1.c-rasmda suyuqlik $\frac{n_s}{n_k}$ va $\frac{n_b}{n_k}$ bug' zichliklari kamayishining temperaturaga bog'likligi, ko'k ochiq doiralar [2] ga mos keladi va to'q qizil doiralar (9),(11) tenglamalarga mos keladi. 2-rasmda

ko'rsatilishicha, 13-16-tenglamalar – Vdw-HT suyuqlik-bug' fazaviy muvozanati tenglamalarining aniq parametrik yechimi - argonning to'yingan bosimining zichlikka va kritik nuqtaga yaqin kamaytirilgan (kritikka nisbatan) haroratga bog'liqliklarining [2] eksperimental ma'lumotlarini miqdoriy jihatdan tasvirlaydi va a va b parametrlari 3-tenglama yordamida (n_c , p_c) dan aniqlanganda argonning bug' va suyuqlik zichliklarining kamaytirilgan haroratga bog'liqligini sifat jihatdan tasvirlay oladi. Bu holda VdW-HT kritik harorat uchun 350 K ni aniqlaydi, bu argonning $T_k = 150.687$ K dan [2] ancha yuqori. Shuning uchun VdW-HT to'yingan bosimni (2a-rasm) va suyuqlik va bug' zichliklarini (2c-rasm) kamaytirilgan haroratning funksiyalari sifatida tasvirlaydi.

Bizda 4-tenglamadan foydalanib 5-8-tenglamalardan quyidagilar kelib chiqadi:



$$T = 27T_k/8F(y(T)), \quad (17)$$


$$n_s(T) = 3n_k F_s(y(T)), \quad (18)$$

$$n_g(T) = 3n_k F_k(y(T)), \quad (19)$$


$$\frac{P_t(T)}{P_k} = \frac{81}{8z_k F_p(y(T))}. \quad (20)$$

2.a-rasm - argonning to'yingan bug'i bosimining T/T_c ga bog'liqligi, ko'k doiralar eksperimental ma'lumotlarga [2] mos keladi va qizil to'liq chiziq (13) va (16)-tenglamalarga mos keladi. 2.b-rasm - argonning


to'yingan bug'i bosimining bug' molyar zichligi n_k ga bog'liqligi, ko'k doiralar [2] ga mos keladi va qizil to'liq chiziq (13), (15), (16)-tenglamalarga mos keladi. 2.c-rasm - argonning suyuqlik n_s va bug' n_b zichliklarining T/T_c ga bog'liqligini, ko'k ochiq doiralar [2] ga mos keladi va qizil to'liq doiralar 13-15-tenglamalarga mos keladi. $p_t(T)$, $n_s(T)$ va $n_g(T)$ bog'liqliklari (17)-tenglamadan aniqlangan $y(T)$ parametrining haroratga bog'liqligidan foydalanib (18)-(20) tenglamalardan aniqlanadi. 3-rasmda ko'rsatilishicha, 17-20-tenglamalar argonning kamaytirilgan (kritikka nisbatan) to'yingan bosimining zichlik va haroratga yaqin kritik nuqtaga bog'liqliklarining [2] eksperimental ma'lumotlarini miqdoriy jihatdan tasvirlaydi va a va b parametrlari 4-tenglama yordamida (n_k , T_k) dan aniqlanganda argonning bug' va suyuqlik zichliklarining haroratga bog'liqligini sifat jihatdan tasvirlaydi. Bu holda VdW-HT kritik bosim uchun 6.27 MPa ni aniqlaydi, bu argonning $P_k = 4.863$ MPa dan [2] ancha yuqori. Shuning uchun VdW-HT kamaytirilgan to'yingan bosimni haroratning (3a-rasm) va bug' bosimining (3b-rasm) funksiyalari sifatida tasvirlaydi. 5-6-tenglamalardan [7] va 1-rasmdan [7] VdW-suyuqligining to'yingan bug' zichligi haroratning har qanday qiymati uchun manfiy bo'lmasligini ko'rish mumkin. 1c, 2c va 3c-rasmlar ham buni ko'rsatadi.



3.a-rasm



3.b-rasm



3c-rasm

3a-rasm - Argonning bosimi nisbati p_t/p_k ning haroratga bogʻliqligi, koʻk doiralar eksperimental maʼlumotlarga [2] mos keladi va qizil toʻliq chiziq 17 va 20-tenglamalarga mos keladi. 3b-rasm – Argonning bosimi nisbati p_e/p_c ning bugʻ zichligi n_V ga bogʻliqligi, koʻk doiralar [2] ga

mos keladi va qizil toʻliq chiziq 17, 19 va 20-tenglamalarga mos keladi. 3c-rasm - Argonning muvozanatda boʻlgan suyuqlik n_L va bugʻ n_V zichliklarining haroratga bogʻliqligi, koʻk ochiq doiralar [2] ga mos keladi va qizil toʻliq doiralar 17-19-tenglamalarga moskeladi.


Van-der-Vaals holat tenglamasi

Van der Waals holat tenglamasini (21-formula) [1] referent tajriba PVT-maʼlumotlari bilan solishtirish 5-rasmlarda koʻrsatilgan. Qoʻshma chiziqdagi bugʻ zichligi boʻyicha maʼlumotlar [2] ham taqqoslashga kiritilgan. [1, 2] izotermalariga mos keluvchi harorat qiymatlari (1-ustun), argonning faza holati (2-ustun, bunda "scf" superkritik holatni bildiradi), VdW-EOS bilan tavsiflangan tajriba maʼlumotlarining zichlik sohasi [1] (3-ustun), VdW-EOS bilan tavsiflangan [1, 2] tajriba nuqtalarining soni (4-ustun), izotermadagi tajriba nuqtalarining toʻliq soni (5-ustun) va siljishlar kvadratlarining yigʻindisining oʻrtacha kvadrat ildizining qiymati (standart ogʻishning kvadrat ildizi).



$$\Delta = \left[\frac{1}{N-1} \sum_{i=1}^N \left(\frac{8P_k n_i k T_i}{8P_k - n_i k T_k} - \frac{27k^2 T_k^2 n_i^2}{64P_k} - P_i \right) \right]^{1/2} * 100\%$$

Izoterma uchun VdW-EOS bashoratlarning [1,2] maʼlumotlaridan siljishlari kvadratlarining yigʻindisining oʻrtacha kvadrat ildizi (standart

ogʻishning kvadrat ildizi) 1-jadvalda keltirilgan (6-ustun). 1-jadvalning 7-ustunidagi “oe” (“ue”) qisqartmasi VdW-EOS izotermada maʼlumotlarni haddan tashqari baholaganini (pastroq baholaganini) bildiradi. 1-jadval va 5-rasmdan koʻrinib turibdiki, 21-formula argonning gaz holatidagi toʻqqizta eksperimental izotermasini va uning oʻn sakkizta superkritik eksperimental izotermalarini [1, 2] kritik osti zichliklar uchun yaxshi aniqlik bilan tavsiflaydi. 1-jadvalning soʻnggi ustunidan koʻrinib turibdiki, VDW-EOS (21-formula) kritik haroratga teng yoki undan past boʻlgan barcha toʻqqizta izotermani haddan tashqari baholaydi va $190\text{ K} \leq T \leq 340\text{ K}$ harorat oraligʻidagi oʻnta izotermni pastroq baholaydi. 1-jadvalning oxirgi qatoridagi maʼlumotlardan foydalanib, 21-formula argonning gaz va superkritik holatlari uchun kritik zichlikdan kam boʻlgan zichliklar uchun eksperimental maʼlumotlarning [1, 2] 78 foizini yaxshi aniqlik bilan tavsiflaydi degan xulosaga kelish mumkin. Eksperimental PVT-maʼlumotlarining toʻliq soni 638 ga teng [1], shuning uchun 21-formula ularning 66 foizini miqdoriy jihatdan tavsiflaydi. 4 va 5-ustunlar shuni koʻrsatadiki, 21-formula $110\text{ K} \leq T \leq 148\text{ K}$ harorat oraligʻidagi 8 ta izotermada gazning barcha eksperimental PVT-maʼlumotlarini va $190\text{ K} \leq T \leq 340\text{ K}$ harorat oraligʻidagi 10 ta superkritik izotermadagi barcha maʼlumotlarni miqdoriy jihatdan tavsiflaydi.



5-rasmda argon izotermalari: qizil belgilar [1] eksperimental ma’lumotlariga va chiziqlar VDW-EOS 21-formulaga mos keladi. a) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 110 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 120 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 130 K ga va ko’k to’liq chiziq va uchburchaklar 135 K ga mos keladi. b) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 140 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 143 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 146 K ga va ko’k to’liq chiziq va uchburchaklar 148 K ga mos keladi. c) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 150,7 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 153 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 155 K ga va ko’k to’liq



chiziq va uchburchaklar 157 K ga mos keladi. d) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 160 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 165 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 170 K ga va ko’k to’liq chiziq va uchburchaklar 175 K ga mos keladi. e) Qora to’liq

chiziq va kvadratlar 180 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 190 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 200 K ga va ko’k to’liq chiziq va uchburchaklar 220 K ga mos keladi. f) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 250 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 265 K ga, ko’k chiziqli chiziq va doiralar 280 K ga va ko’k to’liq chiziq va uchburchaklar 295 K ga mos keladi. g) Qora to’liq chiziq va kvadratlar 310 K ga, ko’k nuqtali chiziq va romblar 325 K ga va ko’k chiziqli chiziq va doiralar 340 K ga mos keladi.

Xulosa

Real gazlarning holat tenglamasi ideal gaz modelidan sezilarli farq qiladi, chunki u gaz molekulalari orasidagi o’zaro ta’sir va ularning

hajmini hisobga oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Van-der-Vaals tenglamasi va uning rivojlantirilgan modellari (Redlich-Kwong, Peng-Robinson va boshqa holat tenglamalari) real gazlarning fizikaviy xususiyatlarini aniqroq tavsiflashga imkon beradi. Ushbu modellarda bosim, hajm va harorat o'rtasidagi bog'liqliklar gaz molekulalarining o'zaro ta'siri va haroratga bog'liq ravishda o'zgaradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, harorat va bosimning yuqori diapazonlarida real gazlar ideal gazlardan jiddiy farq qiladi. Ayniqsa, kritik nuqta yaqinida fazaviy o'tish jarayonlarini aniq tavsiflash uchun an'anaviy ideal gaz tenglamasi yetarli emas. Shuning uchun muayyan sharoitlar uchun mos bo'lgan holat tenglamalarini tanlash real gazlarning xatti-harakatini chuqurroq tushunish va texnik jarayonlarni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kalashnikov S.G. Elektr. O'qituvchi. Toshkent, 1979 y.
2. Sivuxin D.V. Obshiy kurs fiziki. I – tom Nauka" Moskva, 1977 y.
3. Savelev I.V. Umumiy fizika kursi. I – tom. O'qituvchi 1976 y.
4. Zisman G.A. va Todes O.M. Kurs obshey fiziki. I – tom Moskva, 1972 y.
5. Telesnin R.V. va Yakovlev V.F., Kurs fiziki, Elektrichestvo, Prosveshenie, Moskva 1969 y

PSIXOLOGIYANING YANGI TARMOQLARI VA FAN RIVOJIDAGI O'RNI

Ravshanov Sobir Abdimalik o'g'li

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Tel: +998999144472

E-mail: sobirravshanov3@gmail.com

Davronova Dilnoza Istamovna

Guliston davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi talabasi

Tel: +998956231012

E-mail: davronovadilnoza8119@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya sohasining yangi tarmoqlari, ularning inson uchun ahamiyati va fan rivojidadagi o'rni haqida so'z boradi.

Аннотация: В статье рассматриваются новые направления психологии, их значение для человека и их роль в развитии науки.

Abstract: This article discusses new branches of psychology, their importance for humans and their role in the development of science.

Kalit so'zlar: Neyrop, kognitiv, pozitiv, klinik psixologiya, ijobiy munosabat, neyropsixologiya, kognitiv psixologiya, ijtimoiy psixologiya

Ключевые слова: Нейропсихология, когнитивный, позитивный, клиническая психология, позитивное отношение, нейропсихология, когнитивная психология, социальная психология

Keywords: Neuropsychology, cognitive, positive, clinical psychology, positive attitude, neuropsychology, cognitive psychology, social psychology

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida bilimga, yoshlarning ta'lim darajasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston yoshlarining har tomonlama barkamol, salohiyatli qilib voyaga yetkazish

eng dolzarb masalalardan biridir. Yoshlarning malakali mutahassis bo'lishida psixologiya fanlarining ahamiyati yuqoridir. Globallashuv davrida, shuningdek jahon ta'limining tezkorlik bilan rivojlanishi psixologiya fan sohasid ham yangi tarmoqlarni vujudga keltirmoqda.

So'ngi 5-yillikda psixologiya sohasida 30 ga yaqin tarmoq vujudga keldi. Quyida ularning ahamiyati haqida to'xtalib o'tamiz.

Neyropsixologiya - bu psixologiya va nevrologiyaning kesishmasida joylashgan fanlararo ilmiy yo'nalish bo'lib, miyaning tuzilishi va faoliyati bilan tirik mavjudotlarning ruhiy jarayonlari va xatti-harakatlari o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga qaratilgan. Amalda, neyropsixologlar asosan tadqiqot va klinik tadqiqot tashkilotlarida, ixtisoslashgan klinikalarda (klinik neyropsixologiya), sud-tibbiyot va tergov idoralarida (ko'pincha sud ishlarida sud-tibbiyot fanlari bilan shug'ullanadi) yoki sanoatda (ko'pincha neyropsixologik bilimlar muhim bo'lgan va mahsulotda qo'llanadigan tashkilotlarda maslahatchilar sifatida) ishlaydi.

Vazifalari

1 Organizmning tashqi va ichki muhit bilan o'zaro ta'sirida miya faoliyatining qonuniyatlarini o'rnatish.

2 Mahalliy miya shikastlanishining neyropsixologik tahlili.

3 Miya va uning individual tuzilmalarining funktsional holatini diagnostikasi.

Neyropsixologiya metodologik asoslarini, u tomonidan mustaqil ilmiy fan sifatida qo'llanadigan turli xil usullarni hisobga olgan holda, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, asosiy nazariy bilimlarni olgan usullarni, ikkinchisi -neyropsixologlar tomonidan amalda qo'llanadigan usullarni o'z ichiga olishi kerak.[1]

Kognitiv psixalogiya - Kognitiv psixologiya (lotincha: cognitio „bilim“) — tajriba va fikrlashni matematik modellashtirishga qaratilgan psixologiya. Xotira, e'tibor, his-tuyg'ular, ma'lumotni ifodalash, mantiqiy fikrlash, tasavvur, qaror qabul qilish kabi kognitiv jarayonlarni o'rganadigan psixologiya bo'limi [2]. Kognitiv psixologiya bo'limi ko'plab qoidalari zamonaviy psixolingvistika asosida yotadi. Kognitiv psixologiya bo'limi topilmalari psixologiya bo'limi boshqa sohalarida, xususan, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, pedagogik psixologiya, shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarini qurishda keng qo'llanadi.

Kognitiv psixologiya vakillari: Jorj Miller, Jerom Bruner, Ulrik Neisser, Gerbert Saymon, Allen Nyuell, Karl Pribram, Robert Solso, Jorj Sperling, Boris Velichkovskiy. Kognitiv psixologlarning asosiy e'tibori xulq-atvorga ta'sir qiluvchi ruhiy jarayonlarga qaratilgan. Ushbu jarayonlar xotiraning quyidagi uchta bosqichini o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

1. Sensor xotirani saqlash: sensorli ma'lumotlarni saqlaydi.
2. Qisqa muddatli xotira: tahlil qilish uchun ma'lumotni vaqtincha saqlaydi va uzoq muddatli xotiradan ma'lumotlarni oladi.
3. Uzoq muddatli xotira: qisqa muddatli xotiradan ma'lumotlarni qabul qiladigan uzoq vaqt davomida ma'lumotni saqlaydi. [3]

Ijtimoiy psixalogiya - kishilarning ijtimoiy guruhlariga birlashishini, guruh tavsifini, shaxsning ruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy o'rnatilishini kabilarni tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Avvallari ijtimoiy psixologiyada voqeylik falsafiy nuqtai nazardan o'rganilib kelingan, lekin shaxs, guruh, jamoa munosabatlari qamrab olinmagan. Ijtimoiy psixologiya faniga umumiy psixologiya, sotsiologiya, antropologiya, etiologiya, kriminologiya, falsafa kabi fanlar asos bo'lib

xizmat qilgan. Ijtimoiy psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: etnopsixologiya, din psixologiyasi, oila psixologiyasi, boshqaruv (menejment) va marketing psixologiyasi, kichik va katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, reklama psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, amaliy ijtimoiy psixologiya kabilar. E.Meyoning izlanishlari ijtimoiy psixologiya tarixida muhim rol o'ynadi. Bu tadqiqotlarga kichik guruhlar asosiy obyekt qilib olingan tajribalar o'tkazilgan. Ijtimoiy psixologiya fan sifatida muloqot, muomala qonuniyatlari, shaxslararo munosabat, individual va guruhliy o'zaro ta'sir, guruhlarning ichki va tashqi tuzilishi, ularning turlari, tasnifi, ommaviy holatlar va harakatlar, ijtimoiy va milliy ong, mentalitet, milliy qiyofa, harakter, tab, an'ana, odat, marosim va boshqalarni tekshiradi.

Pozitiv psixalogiya – bu psixalogiyaning yangi bir tarmog'i bo'lib, inson hayotining ijobiy tomonlari ya'ni baxt ichki mamnuniyat, shaxsning rivojlanish va salomatligini o'rganishga qaratilgan ilmiy yo'nalishdir. Pozitiv psixalogiya shuningdek insonlarni ruhiy salomatligini yaxshilash va ular uchun yanada mazmunli, baxtli hayot kechirishiga yordam beradigan ilmiy asosdir

Pozitiv psixalogiyaning asoschisi Amerikalik psixolog Martin Seligman bo'lib, u bu tarmoqni 1990 – yillarning oxirlarida ommalashtirdi. U baxtlilik va ijobiy psixologik salomatlikni o'rganish zaruriyatini takidlagan va bu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Pozitiv psixalogiyaning maqsadi nafaqat odamlarni kasallikdan saqlash, balki ularni yanada baxtli, muvaffaqiyatli va qoniqarli hayotga erishishga yordam beradi. Pozitiv so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "musbat, ijobiy" ma'nolarini anglatadi. Bu tushunchaga berilgan ta'riflardagi fikrlarni umumlashtirgan holda pozitivlik inson hissiyatlarining tashqi

qiyofadagi aksi va ijtimoiy faoliyatdagi ko'rinishi deb ta'riflashimiz mumkin. Ijobiy psixologiyaning maqsadi so'nggi o'n yilliklarda keng tarqalgan an'anaviy muammoga yo'naltirilgan psixologiyani to'ldirish va kengaytirishdan iboratdir. Pozitiv kayfiyat va ijobiy psixologik holatlar (masalan, baxt, quvonch, ko'tarinki kayfiyat), ijobiy psixologik xususiyatlar (masalan, iste'dodlar, qiziqishlar, xarakterning kuchli tomonlari), ijobiy munosabatlar va ijobiy institutlar bilan bog'liqir.[5]

Xulosa: Men bu maqolada psixalogiyaning yangi tarmoqlari juda qiziq va yangi endi bizga kirib kelayotgani haqida yoritilgan. Psixalogiyaning tarmoqlari juda ko'p lekin uning yangi tarmoqlari juda qiziq va yangi tarmoqlari yoshlarni e'tiborini tortadi. Psixalogiyaning yangi tarmoqlari juda ko'p lekin men asosan 4 ta asosiy va juda qiziq yo'nalishini tanladim. Bu yo'nalishlar yurtimizga endi kirib kelayotgan endi rivojlanayotgan sohasidir. Neyropsixalogiya bu psixalogiyaning tarmog'I bo'lib yurtimizda endi rivojlanyapti. Kognitiv psixalogiya esa kognitiv jarayonlarni o'rganadi yani xotira e'tibor his – tuyg'u fikrlash kabi jarayonlarni o'rganar ekan. Ijtimoiy psixalogiya esa insonlarni orasidagi munosabatlarni, ijtimoiy ta'sirlarni insonning atrof muhitga qanday javob berishini o'rganadi. Pozitiv psixalogiya esa insonlarni salbiy holatlarini o'rganish ularni salbiy holatlarini yo'qotib doim yaxshi kayfiyatda bo'lishlariga yordam beradi. Pozitiv psixalogiya insonlarni hayotga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Insonlarni ijobiy tarafga o'zgarishiga undaydi. Psixalogiyaning yangi tarmoqlari hozirda juda yaxshi rivojlanayotgan bo'lib, hozirga yoshlar shu tarmoqlarga juda katta qiziqish bildirmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “American Psychological Association (2013). Glossary of psychological terms”. Apa.org. 27-yanvar 2019-yilda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 13-avgust 2014-yil.
 2. Петренко В. Ф. Базовые метафоры как геном (зародыш) будущей теории (на материале психологической науки) // Вопросы философии. — 2012. — №
 3. — С. 87—98. [Петренко В. Ф. Базовые метафоры как геном \(зародыш\) будущей теории \(на материале психологической науки\) // Вопросы философии.](#) — 2012. — № 4. — С. 87—98
 4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyropsixologiya>
 5. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
 6. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
 7. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2010.
- R.

TURKIY TIL TARAQQIYOTIDA NAVOIY ASARLARINING AMALIY AHAMIYATI: “LISON-UT TAYR” DOSTONI TAHLILI TALQINIDA

Abdullayeva Beg‘ubor Ruxillayevna

Buxoro viloyati Olot tumani MMTBga qarashli
19-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Ona tili va Adabiyot fani o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa uning “Lison-ut Tayr” (Qushlar tili) dostonining turk tilining rivojlanishidagi amaliy ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Maqolada Navoiy asarlarining o‘z davrida turk tilining leksik, grammatik va stilistik xususiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib

chiqiladi. Dostonning falsafiy, axloqiy va poetik ramzlari tahlil qilinib, ularning turk adabiyoti va tilining rivojiga qo'shgan hissasi o'rganiladi. Navoiy asarlarining leksikografik tadqiqotlar va zamonaviy turk tilini shakllantirishda tutgan o'rni amaliy jihatdan muhimdir.

Аннотация: Работа посвящена анализу практической значимости произведений Алишера Навои в контексте развития турецкого языка, с акцентом на его эпическое произведение *“Лисон-ут Тайр”* (язык птиц). Это произведение имеет большое значение как для литературы, так и для лингвистического и культурного наследия тюркских народов. В статье исследуется, каким образом *“Лисон-ут Тайр”* отражает важные лексические, грамматические и стилистические особенности турецкого языка и его развитие в контексте средневекового периода. Анализируются элементы философской, моральной и поэтической символики, представленные в произведении, и их влияние на турецкую литературу и язык в целом. Практическая значимость заключается в использовании произведений Навои как источников для лексикографической работы, а также в их роли в формировании современного турецкого языка.

Abstract: This paper is dedicated to the analysis of the practical significance of Alisher Navoi's works in the context of the development of the Turkish language, with a focus on his epic *"Lison-ut-Tayr"* (*The Language of the Birds*). This work is of great importance for both literature and the linguistic and cultural heritage of Turkic peoples. The article examines how *"Lison-ut-Tayr"* reflects significant lexical, grammatical, and stylistic features of the Turkish language and its development during the medieval period. It analyzes elements of philosophical, moral, and poetic symbolism presented in the work and

their influence on Turkish literature and language as a whole. The practical significance lies in the use of Navoi's works as sources for lexicographical work, as well as their role in shaping the modern Turkish language.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, *Lison-ut Tayr*, turk tili, she'riyat, leksikografiya, o'rta asrlar, ramz, falsafa, adabiyot, til merosi.

Ключевые слова: Алишер Навои, *Лисон-ут Тайр*, турецкий язык, поэзия, лексикография, средневековый период, эпическое произведение, символика, культурное наследие.

Keywords: Alisher Navoi, *Lison-ut-Tayr*, Turkish language, poetry, lexicography, medieval period, epic work, symbolism, cultural heritage.

KIRISH

Alisher Navoiy o'zining boy adabiy merosi bilan nafaqat o'zbek tilining rivojlanishiga, balki turk tillarining shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan buyuk shoir va mutafakkirdir. Uning asarlari, ayniqsa "*Lison-ut Tayr*" (Qushlar tili) dostonlari, turk tilining rivojlanishidagi amaliy ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat adabiyotda, balki tilshunoslikda ham muhim o'rin tutadi. Ushbu doston nafaqat adabiy asar sifatida, balki tilning leksik, grammatik va stilistik jihatlarini o'rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Navoiy asarlari o'z davrining til xususiyatlarini o'zida aks ettirgan bo'lib, ularning turk tilining shakllanishiga, xususan, she'riyat va lirik tilning rivojlanishiga qo'shgan hissasi juda katta. "*Lison-ut Tayr*" dostonida ifodalangan falsafiy va axloqiy g'oyalar, shuningdek, poetik ramzlar turk tilida yangi uslub va tasavvurlarni shakllantirishga yordam bergan. Navoiy tilidagi boy lug'at va nozik grammatik

qurilmalar, turk adabiyoti va tilining rivojida muhim bir bosqichni tashkil etadi.

Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining turk tili rivojidagi amaliy ahamiyati va *“Lison-ut Tayr”* dostonining tilshunoslik jihatlari, leksik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning asarlarini o'rganishning zamonaviy turk tili va adabiyotining shakllanishidagi roli yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Adabiyotlarni tahlil qilish va tadqiqot metodologiyasi, o'z ichiga nazariy va amaliy jihatlarni olgan holda, ilmiy ishni o'rganishning asosi hisoblanadi. Alisher Navoiy asarlarini, ayniqsa *“Lison-ut Tayr”* dostonini o'rganishda, adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi murakkab va ko'p qirralidir. Ushbu metodika nafaqat adabiyotlarni o'rganishda, balki til va madaniyatni ham chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

Nazariy fikrlar

1. **Leksik va grammatik tahlil.** Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda, dastlab, uning lug'aviy va grammatik xususiyatlarini tahlil qilish muhimdir. *“Lison-ut Tayr”* dostonida ishlatilgan so'zlar, iboralar va ifodalar turk tilining o'sha davrdagi leksik va sintaktik xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu metod yordamida tilning o'sha davrdagi taraqqiyoti, sintaksis va morfologik tuzilmalari haqida ko'plab xulosalar chiqarish mumkin.

2. **Poetik va falsafiy tahlil.** Navoiy asarlarini o'rganishda, uning poetik va falsafiy jihatlarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. *“Lison-ut Tayr”* dostonidagi ramzlar, metaforalar, simbolikalar va ruhiy jihatlari turk she'riyati va falsafasining qanday rivojlanishini ko'rsatadi. Ushbu metod orqali Navoiy ijodining chuqur mazmuni va uning tiliga ta'sirini yaxshiroq anglash mumkin.

3. **Madaniyatshunoslik metodikasi.** Navoiy asarlari nafaqat tilni, balki turk xalqlarining madaniy va falsafiy tafakkurini aks ettiradi. Madaniyatshunoslik metodologiyasi yordamida dostonlarda mavjud bo'lgan axloqiy, ijtimoiy va diniy g'oyalarni o'rganish mumkin. Bu metod yordamida, asarning madaniy muhitini tahlil qilish va uning zamonaviy turk tiliga ta'sirini aniqlash mumkin.

Amaliy fikrlar

1. **Leksikografik tadqiqotlar.** Navoiy asarlari turk tilining leksik tizimini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asardagi so'zlar va iboralarning ma'nosini o'rganish, zamonaviy turk tilining leksik xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Amaliy nuqtai nazardan, Navoiy asarlarini o'rganish leksikografiya (so'zlashuv, lug'atlar) sohasida yangi tadqiqotlar olib borishga imkon yaratadi.

2. **Tarixiy-sotsial tahlil.** “*Lison-ut Tayr*” dostonida turli tarixiy va ijtimoiy omillar aks etgan. Asarni tahlil qilishda tarixiy-sotsial metodlarni qo'llash, uning yaratilgan davrdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatni tushunishga yordam beradi. Bu metod yordamida dostonning ma'naviy va axloqiy jihatlarini yanada chuqurroq tahlil qilish mumkin.

3. **Sintez metodikasi.** Adabiyotshunoslikda sintez metodini qo'llash asarlarni yanada kengroq ko'lamda tahlil qilishga yordam beradi. “*Lison-ut Tayr*” dostonining falsafiy mazmunini o'rganish, uning til va adabiyotga ta'sirini, madaniy rivojlanishning ta'sirini o'rganishga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“*Lison-ut Tayr*” (Qushlar tili) — Alisher Navoiy tomonidan yozilgan, o'zining falsafiy va axloqiy mazmuni bilan ajralib turadigan bir doston bo'lib, u nafaqat she'riy jihatdan, balki madaniyatshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Bu doston

o'zida turli ramzlar, metaforalar va hikmatlarni jamlagan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos bir ma'no va g'oyani etkazadi. Dostonning she'riy nasrlari, ayniqsa ma'naviy va falsafiy g'oyalarni yoritishda katta rol o'ynaydi. Misol uchun, dostonning bir qismida, qushlar o'z maqsadlari sari yo'lga chiqqanlarida, ular bir-birlariga shunday nasihat qilishadi:

*"Har bir qallda bir olam bor,
Qushlar kabi unga parvoz qil,
Ma'rifatga intil, oxir-oqibatda,
Simurgni topasan, ulug' maqsadni ko'rasan."*

Bu she'rda, qushlar orqali Navoiy insonni o'z ichki olamini anglashga chaqiradi, unda haqiqiy maqsadni topish mumkinligini ko'rsatadi.

Dostonning yana bir muhim joyida qushlarning o'zaro muloqotida hayotning mohiyatini anglashga intilishadi, masalan:

*"Kimdir aql bilan, kimdir yurak bilan,
Ma'rifatni izlar, ichki chiroqni yo'llar,
Shunday qilib, bizning yo'limizga qo'shil,
Simurgni izlab, olamni ko'rishga intil."*

Bu she'riyat, dostonning nafaqat poetik jihatlarini, balki uning ma'noviy va axloqiy qismidagi asosiy g'oyalarni ham ifodalaydi. Har bir qush o'zining o'tmishini, qarorlarini va imkoniyatlarini anglaydi, shundan so'ng ma'rifatga erishish yo'li ochiladi.

XULOSA

“Lison-ut Tayr” dostonida aks etgan barcha obrazlar, ramzlar va g'oyalar turk tili va adabiyotining o'sha davrdagi rivojlanishini ko'rsatadi. Dostonning ramzlari, xususan, qushlar, faqat bir necha kishilik guruhni emas, balki butun bir xalqning ruhiy holatini aks

ettiradi. Bu orqali Navoiy, insonni har bir masalada maqsadga erishish, o'zini anglash va axloqiy yuksalishga undaydi.

Dostonning she'riy nasrlari nafaqat zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan, balki madaniyatshunoslik va falsafa nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. “*Lison-ut Tayr*” o'zining chuqur ma'nosi, tasavvufiy ramzlari, axloqiy va ma'naviy g'oyalari bilan turk tilining rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu doston orqali o'tmish va hozirgi zamon o'rtasidagi aloqalarni, til va madaniyatning qanday rivojlanganini yaxshiroq tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim va fan vazirligi (2021). *Alisher Navoiy asarlari: Lison-ut Tayr dostonining tahlili*. Maktab o'quvchilari uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston Milliy nashriyoti.
2. Kamolov, S. (2020). *Alisher Navoiy va uning asarlarining lingvistik tahlili*. 10-sinf darsligi. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. Navoiy, A. (1992). *Lison-ut Tayr*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
4. Karimov, I. (2003). *Alisher Navoiy va uning she'riyatining rivojlanishi*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Rizaev, N. (2014). *Navoiy asarlarining lingvistik tahlili*. Toshkent: Ijtimoiy fikr nashriyoti.

АНТИУТОПИЯ КАК ПРЕДЧУВСТВИЕ: ЧЕГО БОЯЛИСЬ ПИСАТЕЛИ И ЧТО СБЫЛОСЬ?

Хужанова Озода Тожиевна

заведующая кафедрой русской и мировой литературы
Термезский государственный университет

Латифов Билолиддин Шокирович

студент факультета русского и родственных языков
Термезский государственный университет

Tel: +998 90 376 53 73

E-mail: latifovbiloliddin@gmail.com

Annotatsiya: 20-asrning distopiyalari nafaqat san'at asarlari, balki kelajakni bashorat qilishning bir turiga aylandi. Ushbu maqola totalitar nazorat, kuzatuv va ongni manipulyatsiya qilish ramziga aylangan Jorj Oruellning 1984 yil romaniga qaratilgan. Muallif zamonaviy jamiyatning ko'plab xususiyatlarini, jumladan, ommaviy kuzatuv, tsenzura va siyosiy tashviqotni bashorat qilgan. Ushbu maqolada Oruellning asosiy qo'rquvlari, ular qanday amalga oshgani va uning bashoratlari qanchalik to'g'ri bo'lganligi sabablari ko'rib chiqiladi.

Аннотация: Антиутопии XX века стали не просто художественными произведениями, но и своего рода предсказаниями будущего. В центре внимания данной статьи – роман Джорджа Оруэлла 1984, который стал символом тоталитарного контроля, слежки и манипуляции сознанием. Автор предсказал многие черты современного общества, включая массовое наблюдение, цензуру и политическую пропаганду. В статье рассматриваются основные страхи Оруэлла, их воплощение в реальности и причины, по которым его предсказания оказались столь точными.

Abstract: The dystopias of the 20th century became not only literary works but also a kind of prophecy about the future. This article

focuses on George Orwell's novel 1984, which became a symbol of totalitarian control, surveillance, and manipulation of consciousness. The author predicted many features of modern society, including mass surveillance, censorship, and political propaganda. The article examines Orwell's main fears, their realization in reality, and the reasons why his predictions turned out to be so accurate.

Kalit soʻzlar: distopiya, Jorj Oruell, 1984, totalitarizm, kuzatuv, yangiliklar, siyosiy tashviqot, aqlni manipulyatsiya, nazorat, tsenzura.

Ключевые слова: антиутопия, Джордж Оруэлл, 1984, тоталитаризм, слежка, новояз, политическая пропаганда, манипуляция сознанием, контроль, цензура.

Key words: dystopia, George Orwell, 1984, totalitarianism, surveillance, Newspeak, political propaganda, mind manipulation, control, censorship.

Антиутопический жанр литературы исторически отражает тревоги своего времени, предвосхищая возможные сценарии деградации общества. Многие авторы, создавая свои произведения, стремились не столько описать реальность, сколько предостеречь читателей от возможных негативных последствий политических, социальных и технологических процессов.

Одним из наиболее выдающихся представителей этого жанра является роман 1984 Джорджа Оруэлла. В нем описана система тотального контроля, репрессий, слежки и манипуляции сознанием, которая многим современникам кажется пророческой. Оруэлл создал не только литературное произведение, но и мощный социальный диагноз, который оказался актуальным в XXI веке.

В данной статье рассматриваются основные страхи Оруэлла, их воплощение в современной реальности, а также влияние, которое его

роман оказал на восприятие политической власти, технологий и свободы личности.

Один из ключевых страхов, выраженных в 1984, связан с массовым наблюдением за гражданами. В романе установлены «телекраны» – устройства, через которые Большой Брат следит за всеми. Любое отклонение от правил может привести к репрессиям, а мыслепреступление становится самым серьезным преступлением [1, с. 215].

Современные технологии сделали массовое наблюдение реальностью. В Китае действует система «Социального кредита», где цифровой профиль человека анализируется и оценивается в зависимости от его поведения [2, с. 98]. В США и Европе правительства также используют цифровую слежку в целях безопасности, оправдывая это борьбой с терроризмом. Корпорации, такие как Google, Facebook и Amazon, собирают данные пользователей, формируя их цифровые профили [3, с. 147].

2.2. Манипуляция языком и сознанием

Концепция «новояза», разработанная Оруэллом, демонстрирует, как власть может изменять мышление людей, контролируя язык. Сокращение словаря, изменение значения терминов и внедрение новых понятий – все это инструменты управления сознанием.

Сегодня можно наблюдать аналогичные тенденции в политике и СМИ. Термины подменяются эвфемизмами: например, военные действия именуются «гуманитарными операциями», а жесткая цензура – «регулированием контента» [4, с. 202]. Политическая корректность приводит к тому, что многие слова выходят из употребления, а свобода выражения мнений сокращается [5, с. 210].

В 1984 описано состояние бесконечной войны между Океанией, Евразией и Остзией. Эта война не имеет конкретной цели, но она позволяет поддерживать контроль над обществом, оправдывая репрессии и ограничения [6, с. 88].

Современный мир также живет в условиях постоянных конфликтов. Глобальная война с терроризмом, холодная война между США и Китаем, вооруженные столкновения в различных регионах – все это создает ощущение нестабильности. Становится очевидным, что война может использоваться как инструмент манипуляции массовым сознанием [7, с. 312].

Оруэлл не был провидцем, но он был гениальным аналитиком политических процессов. Вдохновленный тоталитарными режимами XX века, он увидел универсальные механизмы власти, которые могут проявляться в любом государстве.

Особенно точно он предсказал:

- рост технологий наблюдения и их применение для контроля над населением;
- манипуляцию языком с целью изменения общественного сознания;
- искусственное поддержание атмосферы страха для оправдания политических репрессий.

Сегодня все эти элементы можно увидеть в разных странах мира. Однако наибольшую опасность представляет не просто наличие этих механизмов, а их интеграция в повседневную жизнь, когда люди привыкают к ним и перестают их замечать [8, с. 167].

Роман 1984 остается не просто литературным произведением, но и мощным предупреждением о возможных последствиях тотального

контроля. Многие предсказания Оруэлла сбылись, а современные технологии только усилили описанные в книге угрозы.

Вопрос, который остается открытым: способны ли общества предотвратить полное воплощение антиутопии, или мы уже живем в мире, где Большой Брат следит за каждым из нас?

Список использованной литературы:

1. Оруэлл Дж. 1984. — Москва: Эксмо, 2018. — 350 с.
2. Харари Ю. 21 урок для XXI века. — Москва: Синдбад, 2019. — 416 с.
3. Постман Н. Исчезновение детства и другие эссе. — Санкт-Петербург: Питер, 2017. — 304 с.
4. Чомски Н. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. — New York: Pantheon Books, 1988. — 412 p.
5. Фуко М. Надзирать и наказывать. — Москва: Ad Marginem, 1999. — 448 с.
6. Поппер К. Открытое общество и его враги. — Москва: АСТ, 2020. — 860 с.
7. Соловьев А. Политическая философия и пропаганда. — Москва: Весь мир, 2021. — 370 с.
8. Арент Х. Истоки тоталитаризма. — Москва: Центрполиграф, 2017. — 560 с.

AXBOROT TIZIMIGA RUXSATSIZ KIRISHDAN HIMOYALANISH

Nasirov Berdax Muratovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar”
kafedrası assistent o'qituvchisi

Urazniyazova Nafisa Alimjan qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali talabasi

Annotatsiya: Axborot tizimiga ruxsatsiz kirish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin., chunki ular uchun nazorat va boshqarishning masofaviy usullaridan foydalanish mumkin

Аннотация: Несанкционированный доступ к информационной системе может осуществляться различными способами, поскольку для них могут быть использованы дистанционные методы контроля и управления

Abstract: Unauthorized access to the information system can be carried out in various ways. Electronic means of information storage are considered the most vulnerable, since remote control and management methods can be used for them.

Kalit so'zi: Hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlash yoki kompyuter operatsion tizimlariga xakerlik qilish variantlarning faqat kichik bir qismi hisoblanadi.

Ключевое слово: Непосредственное кража документов или взлом компьютерных операционных систем - лишь малая часть вариантов.

Keywords: Direct document theft or hacking of computer operating systems are only a small part of the options.

Axborot tizimiga ruxsatsiz kirish turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'g'irlash yoki kompyuter operatsion tizimlariga xakerlik qilish variantlarning faqat kichik bir qismi hisoblanadi. Axborotni saqlashning elektron vositalari eng zaif deb hisoblanadi, chunki ular uchun nazorat va boshqarishning masofaviy usullaridan foydalanish mumkin.

Ruxsatsiz kirishni amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantlari:

- aloqa tizimlariga ulanish;
- hujjatlarni o'g'irlash, shu jumladan g'araz maqsadlarda uni nusxalash (ko'paytirish);
- kompyuterlar, tashqi disklar yoki axborotni o'z ichiga olgan boshqa qurilmalardan bevosita foydalanish;
- internet orqali operatsion tizimga kirish, shu jumladan josuslik dasturlari, viruslar va boshqa zararli dasturlardan foydalanish;
- kompaniya xodimlaridan (insayderlardan) axborot manbalari sifatida foydalanish.

Axborot tizimiga ruxsatsiz kirishning asosiy maqsadi ikkinchi tomonning ma'lumotlaridan foydalanishdan daromad olish hisoblanadi.

O'g'irlangan ma'lumotlardan foydalanishning mumkin bo'lgan usullari:

- uchinchi shaxslarga qayta sotish;
- qalbakilashtirish yoki yo'q qilish (masalan, qarzdorlar, tergov ostidagi shaxslar, qidiruvda bo'lgan shaxslar va boshqalar ma'lumotlar bazalariga kirishda);
- texnologiyalardan foydalanish (sanoat josusligi);

- bank rekvizitlarini, noqonuniy operatsiyalar uchun moliyaviy hujjatlarni olish (masalan, birovning hisobvarag'i orqali pulni naqdlashtirish);
- kompaniya imidjiga zarar yetkazish uchun ma'lumotlarni o'zgartirish (noqonuniy raqobat).

Kompyuterlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish usullari dasturiy-apparat va texnik vositalarga bo'linadi. Birinchisi ruxsatsiz foydalanuvchilarni kesib tashlasa, ikkinchisi ruxsat etilmagan odamlarning kompaniya binolariga fizik kirishini oldini olish uchun mo'ljallangan.

Ruxsatsiz kirishdan samarali himoyalaniş uchun quyidagilarni bajarish muhim hisoblanadi:

- ma'lumotlarni saralash va sinflarga bo'lish, foydalanuvchilarning ma'lumotlarga kirish darajasini aniqlash;
- foydalanuvchilar o'rtasida ma'lumot uzatish imkoniyatini baholash (xodimlar o'rtasida aloqa o'rnatish uchun).

Ushbu chora natijasida kompaniyada ma'lum ma'lumotlar ierarxiyasi paydo bo'ladi. Bu xodimlarning faoliyat turiga qarab ma'lumotlarga kirishini cheklash imkonini beradi.

Ma'lumotlarga kirishni tekshirish axborot xavfsizligi vositalarining funktsional qismi bo'lishi kerak. Bundan tashqari, kompaniya foydalanishga qaror qilgan dasturlar quyidagi funktsiyalarni o'z ichiga olishi kerak:


- tizimga kirishda autentifikatsiya va identifikatsiya;
- turli darajadagi foydalanuvchilar uchun axborotdan foydalanishni nazorat qilish;
- ruxsatsiz kirishga urinishlarini aniqlash va ro'yxatga olish;

- foydalanilayotgan axborot xavfsizligi tizimlarining ishlashi monitoringi;

- profilaktika yoki ta'mirlash ishlarida xavfsizlikni ta'minlash.

Ushbu sanab o'tilganlardan birinchisi, ya'ni tizimga kirishda identifikatsiya bitiruv malakaviy ishining mavzusi bo'lganligi sababli uni batafsil ko'rib chiqamiz.

Axborot texnologiyalarida identifikatsiyalash vositalarini turli mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Quyida Axborot texnologiyalarida identifikatsiyalash vositalarining asosiy tasniflari keltirilgan(2.1-rasm).



2.1-rasm. Identifikatsiya vositalarining klassifikatsiyasi

1. Foydalanilayotgan axborot turlari bo'yicha:

- Biometrik usullar (barmoq izlari skaneri, yuz va ovoz skanerlari, iris skanerlari).

- login va parollar asosida identifikatsiya.

- smart-kartalar yoki RFID texnologiyasi asosida identifikatsiya.

- qurilmaning IP manzili yoki MAC manzili bo'yicha identifikatsiya.

2. Axborotni yig'ish va qayta ishlash usuliga ko'ra:

- skanerlash tizimlari, shu jumladan optik skanerlar, barmoq izlari skaneri va biometrik ma'lumotlarni o'qish uchun boshqa vositalar.

- ovozni aniqlash tizimlari.

- smart-kartalar, kalit foblar va flesh-disklar kabi elektron qurilmalar.

- video kuzatuv tizimlari va harakat sensorlari.

3. Qo'llanilayotgan soha bo'yicha:

- kirish autentifikatsiyasi va resurslardan foydalanish.

- kirishni boshqarish va kirishni boshqarish.

- xavfsizlik va himoya (masalan, maxfiy ma'lumotlarga kirishni boshqarish uchun)

- kuzatish (masalan, do'konlardagi tovarlarni hisobga olish yoki hayvonot bog'lariga kirishni nazorat qilishda)

- elektron imzo va hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish.

4. Xavfsizlik darajasi bo'yicha:

- faqat parol yoki hisob darajasida identifikatsiya qilish vositalari.

- ikki faktorli autentifikatsiya, bunda foydalanuvchi parol va boshqa usullardan biri (masalan, biometrik ma'lumotlar) orqali aniqlanadi.

- ko'p faktorli autentifikatsiya, xavfsizlikni yaxshilash uchun bir nechta identifikatsiyalash usullaridan (masalan, parol, biometrik ma'lumotlar va smart-karta) foydalanganda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida 22.09.2020 yildagi PF-6065-son

2. Ismatullayev P.R., Qodirova Sh.A., "Metrologiya asoslari" O'quv qo'llanma. 2020 yil.

3. "Экономика и социум" №4(83) ч.2 2021 Rasulova Z.R. magistrant Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent, O'zbekiston .

4. Минаев В.А., Карнычев В.Ю. Цена информационной безопасности // Информационная безопасность. 2003. Декабрь. С. 26.

5. Nasirov Berdax Muratovich. (2022). Uliwma orta bilim beriw mekteplerinde informatika pánin oqitiwda inovacisiyalıq texnologiyalardıń róli (Vol 1 No 10 (2022). 157–160). <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/799/794>

KIMYO FANINING UZLUKSIZ TA'LIM SIFATINI VA ILM-FAN NATIJADORLIGINI OSHIRISH

Axmadjonova Yorqinoy Tojimurodovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti

E-mail: yorqinoy.axmadjonova@bk.ru

Annotasiya: Kimyo fani bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida ushbu fanni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'zaro yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan.

Аннотация. Планируется кардинально улучшить качество образования по химии, внедрить совершенно новую систему преподавания этого предмета в средних школах, наладить тесный диалог и сотрудничество сфер образования, науки и производства в подготовке кадров и использовании научных результатов.

Annotation: It is planned to radically improve the quality of education in chemistry, introduce a completely new system of teaching this subject in secondary schools, establish close dialogue and cooperation between the spheres of education, science and production in training personnel and using scientific results.

Kalit soʻzlar: ixtisoslashtirilgan maktablar, tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar, oliy taʼlim muassasalari, Fanlar akademiyasi

Keywords: specialized schools, basic specialized schools, higher educational institutions, Academy of Sciences

Ключевые слова: училища, базовые училища, высшие учебные заведения, Академия наук

Mamlakatimizda kimyo fanini rivojlantirish, ushbu yoʻnalishda taʼlim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish "Ilm, maʼrifat va raqamli iqtisodiyot yili" Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.

Zero, oʻgʻil-qizlarimizni kimyo fani boʻyicha chuqur oʻqitish hududlarda yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, yuqori qoʻshilgan qiymat yaratadigan farmatsevtika, neft, gaz, kimyo, togʻ-kon, oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini jadal rivojlantirishga turtki beradi hamda pirovardida xalqimiz turmush sharoiti va daromadlarini oshirishga puxta zamin hozirlaydi[2].

Kimyo fani boʻyicha taʼlim sifatini tubdan oshirish, umumtaʼlim maktablarida ushbu fanni oʻqitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish, taʼlim muassasalarini zamonaviy laboratoriyalar, darsliklar va boshqa oʻquv jihozlari bilan taʼminlash, ushbu yoʻnalishga malakali oʻqituvchi-murabbiylarni jalb etish, kadrlar tayyorlash va ilm-fan natijalaridan foydalanishda taʼlim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari oʻrtasida oʻzaro yaqin muloqot va hamkorlikni yoʻlga qoʻyish maqsadida, respublikaning har bir hududida bosqichma-bosqich kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan 14 ta tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi, bunda Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlar va kimyogarlar ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarini ushbu maktablar maqomiga

moslashtirildi. Bundan tashqari, respublika, tuman (shahar)larida bosqichma-bosqich kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan 150 ta maktablarni tashkil etish rejalashtirilgan[3].

Tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan maktablarda kimyo va biologiya fanlarini samarali o'qitishni muvofiqlashtirish uchun ularga oliy ta'lim muassasalarining 55 ta kafedralarini, ishlab chiqarish tarmoqlari uchun o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo'lga qo'yish yuzasidan kimyo va biologiya yo'nalishlariga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlaydigan 47 ta professional ta'lim muassasalariga ishlab chiqarish korxonalarini hamda oliy ta'lim muassasalarida kimyo va biologiya yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, fanlarni rivojlantirish uchun ularning 74 ta kafedralariga 11 ta Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari hamda ishlab chiqarish tarmoqlari biriktirildi[1].

Umumta'lim maktablarining salohiyati, o'quvchilarning kimyo va biologiya fanlariga bo'lgan qiziqishi va ota-onalarning talablarini o'rgangan holda, ular negizida tayanch ixtisoslashtirilgan maktablar va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyati yo'lga qo'yildi.

2021-yildan boshlab ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish hamda 2021-2022 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tabiiy fanlar o'quv dasturlarida amaliy mashg'ulotlarning ulushini ko'paytirish choralari ko'rilmogda.

2021- yil 1-fevralga qadar Kimyo va biologiya fanlaridan bilimlarni baholash bo'yicha milliy sertifikatlash tizimi joriy etilib, ushbu baholash

tizimi doirasida pedagoglarning kimyo yoki biologiya fanlarini bilish darajasini aniqlash va bu to'g'risida milliy malaka sertifikatlarini (keyingi o'rinlarda - milliy sertifikat) berish ushbu qaror asosida belgilangan tartibda Davlat test markazi tomonidan, tabaqalashtirilgan holda amalga oshiriladi. Mazkur 2021- yildan boshlab ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim muassasalari uchun kimyo va biologiya fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil etilib, ushbu yildan har ikki yilda bir marta oliy ta'lim muassasa talabalari orasida kimyo va biologiya fanlari bo'yicha Abu Rayhon Beruniy nomidagi xalqaro fan olimpiadalari o'tkazilib kelinmoqda.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalarining kimyo va biologiya ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli diplomga ega bitiruvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisligiga qo'shimcha imtihonlarsiz to'lovkontrakt asosida qabul qilinmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining kimyo va biologiya mutaxassisligini a'lo baholar bilan tamomlagan magistrlar tayanch doktoranturaga oliy ta'lim muassasalar kengashi qarori asosida imtihonlarsiz to'g'ridan to'g'ri kvota doirasida qabul qilinishi qarorda nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda yurtimiz yoshlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

XX asrdan boshlab yurtimizda ham kimyo fanining zamonaviy yetuk olimlari yetishib chiqa boshladi. Xususan, Zarifa Saidnosirova, Sobir Yunusov, Karim Ahmedov, Yunus Toshpo'latov, Obid Sodiqov, Hamdam Usmonov, Zokirjon Salimov, Sayyora Rashidova singari atoqli kimyogar olimlar nafaqat O'zbekistonning, balki dunyo ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Hozirda kimyo fanini o'qitish va o'rganish yangi O'zbekiston taraqqiy etishining bir qismi sifatida quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- Kelajagi buyuk O'zbekistonimiz uchun talabalarni hozirgi zamon kimyo fan asoslarini ongli ravishda va puxta o'zlashtirishlariga erishish;
- Talabalar kimyo fanini o'rganishda atrofdagi tabiatni izohlash va undan oqilona foydalanish uchun zarur bo'lgan ilmiy asoslar bilan tanishtirish;
- Talabalarni tabiatga to'g'ri materialistik nuqtai nazardan qarash xususiyatlarini hosil qilishga alohida e'tibor berish lozim.
- Talabalarni ilmiy bilishini vositalaridan biri bo'lgan kimyoviy eksperimentlardan foydalana oladigan qilib tarbiyalash.
- Talabalarni kimyo faniga qiziqishini yanada orttirish.
- Talabalarni mustaqil ravishda izlanuvchanlikka va bilim olishga o'rgatish.
- Kimyo fanining hayotimizdagi ahamiyatini tushuntirish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yurtimizda yangi O'zbekiston taraqqiyotida tabiiy fanlardan kimyo sohasiga bo'lgan e'tibor nafaqat fanga bo'lgan e'tibor mamlakatimiz rivojlanishida yurtimiz ilmiysalohiyati, xalqimiz va yosh avlod dunyoqarashi, bilim va fikrlash doirasi kengayishiga asosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4805, <https://lex.uz/docs/-4945470>
2. Ахмаджонова Ё. Т. PISA: «Студентов нужно научить думать, а не запоминать»// Научный журнал «Гуманитарный трактат» 2021., №101.,с.12-15

3. Akhmadzhonova Yo. T., Akhmadzhonova U. T. "Press conference" in the delivering of chemistry. // "Экономика и социум" №3(82) 2021

TA'LIM TIZIMIDA XALQ PEDAGOGIKASINING ROLI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK G'OYALAR

Gapparov Bexzod Nematillayevich

Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: bexzodgapparov132@gmail.com

Tel: +998 (99) 556-06-50

Bozorboyev Jaloliddin Utkirovich

Jizzax politexnika institute 2-bosqich talabasi

E-mail: jalolbozorboyev641@gmail.com

Tel: +998 (93) 041-81-10

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi milliy mafkuramiz, milliy g'oyalarimiz, barcha yo'riqnomalarimizning zamirida "O'tmishsiz kelajak yo'q" shiori yotadi. Ulug' bobolarimiz yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, barcha ezgu insoniy fazilatlar, o'zimizga xos urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni e'zozlash davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va me'yoriy hujjatlarimizning asosini tashkil etadi.

Аннотация: В этой статье девиз «Без прошлого нет будущего» лежит в основе нашей национальной идеологии, наших национальных идей и всех наших ориентиров сегодня. Уважение ко всем материальным и духовным богатствам, созданным нашими великими предками, ко всем благородным человеческим качествам, к нашим уникальным традициям и ценностям составляют основу законов и постановлений, принятых нашим государством.

Abstract: In this article, the motto "There is no future without the past" lies at the heart of our national ideology, national ideas, and all our guidelines today. Respect for all the material and spiritual wealth created by our great ancestors, all the noble human qualities, our own traditions and values form the basis of our laws and regulatory documents adopted by our state.

Kalit soʻzlar: miflar, afsonalar, ertak, dostonlar, maqol va topishmoqlar, qoʻshiqlar, diniy aqidalar "Avesto", Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, tosh bitiklar, buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi, xalqimizning milliy anʼanalari, udumlari, marosimlar.

Ключевые слова: мифы, легенды, сказки, былины, пословицы и загадки, песни, религиозные верования «Авеста», Священный Коран, Хадис Шариф, каменные надписи, великие писатели, творческое наследие ученых, национальные традиции нашего народа, обычаи, церемонии.

Keywords: myths, legends, fairy tales, epics, proverbs and riddles, songs, religious beliefs "Avesta", the Holy Quran, Hadith Sharif, stone inscriptions, the creative heritage of great writers, scholars, national traditions, customs, and rituals of our people.

Tarixdan bizga maʼlumki, XX asrning 20-yillarida Turkiston parchalanishi oqibatida milliy madaniyat, milliy tarbiya yoʻli toʻsila boshlandi.

Maktablarda dunyo fanini rivojlantirishga munosib hissa qoʻshgan oʻzbek fani va madaniyatining, pedagogikasining asoschilari, musulmon olamining ulugʻ zotlari faoliyati emas, balki oʻzbek xalqi kamolotiga, taraqqiyotiga aloqasi boʻlmagan shaxslar faoliyati oʻrgatildi. A.Yassaviy, Bedillar xalq taʼlimi tizimidan chiqarildi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom Hadislari ta'qib ostiga olindi, yo'qotildi. Natijada o'zbek xalqi milliy ahloq-odob va tarbiya an'analaridan mahrum bo'la boshladi. Bu o'z navbatida o'zbek madaniyati, shu jumladan, pedagogika fani rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1991 yilga kelib, O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'z qomusiga ega bo'lgach, pedagogika faniga ham yangicha yondoshish imkoniyati tug'ildi.

Xalqimizning uzoq o'tmishda yaratgan noyob durdonalari - miflar, afsonalar, ertak, dostonlar, maqol va topishmoqlar, qo'shiqlar, diniy aqidalar "Avesto", Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, tosh bitiklar, buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi, xalqimizning milliy an'analari, udumlari, marosimlarida saqlanib qolgan. Bularni o'rganish pedagogika fanining rivojlanishiga, milliy xarakterga ega bo'lishiga imkon beradi.

Pedagogika fani xalq pedagogikasi an'analariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlarini o'rgatadi. O'tmishdagi ta'lim-tarbiya tizimidagi ilg'or va ijobiy fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi.

Pedagogika ijtimoiy fan. U ta'lim-tarbiyaning barcha masalalariga va muammolariga davr talabi asosida yondoshadi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida xalqimizning tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plagan tajribalarini, go'zal namunalari, hayotiy saboqlarini amalda tadbiq etadi.

Pedagogika fani o'tmish ta'lim-tarbiya soxasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rgatadi, bu esa bo'lg'usi pedagoglarni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi, ta'lim-tarbiya tizimini milliy ruh bilan sug'orishga yordam beradi.

Chunki xalqimizning o'tmishda tarbiyalash va o'qitish nazariyasi qanday bo'lganligini, har bir davrda qanday taraqqiy etganini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham ilg'or pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'z ifodasini topgan. Biroq islomgacha bo'lgan tarbiyashunoslik, ilm-fan, adabiyot, madaniyat bizgacha yetib kelmagan. Chunki arab istilochilari tomonidan o'tkazilgan janglarda barcha manbalar, asarlar yoqib yuborilgan. Islomgacha va islomdan keyingi pedagogik qarashlarni, milliy ta'limga oid an'analarni, qadriyatlarni – xalq pedagogikasini o'rganish, uni hayotga tadbiiq etish, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash - bu kunning muhim, dolzarb vazifasidir.

Maorif tizimining, biz pedagoglarning hozirgi kundagi vazifamiz - milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi an'analarni zamon talablari bilan uyg'unlashtirgan holda ularni ta'lim-tarbiya sohasiga tadbiiq etish, uning eng yaxshi tomonlaridan unumli foydalanishdir.

Biz hozirgi kunda birinchi navbatda o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizga ega bo'lmog'imiz, o'z pedagogikamizni - o'zbekona, lekin zamon bilan hamnafas, hamoxang ta'lim-tarbiya usullarini yaratmog'imiz kerak. Buning uchun o'tmishda unitilgan ulkan sarchashmalar – xalq pedagogikasini puxta, atroflicha o'rganmog'imiz va uni bugungi kun pedagogikasiga asos qilib olmog'imiz kerak. O'zbek xalqi nafaqat ilmu fan, madaniyat soxasida, balki ahloq-odobga oid qarashlari, pedagogika fanlari buyicha o'rnak bo'larli sermazmun xazina - manbaga ega.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida berilayotgan tarbiyaning bosh maqsadi – yoshlar ongiga milliy mafkurani singdirish bo'lsa, milliy mafkuraning asosiy mohiyati esa, xalq pedagogikasining mazmunini tashkil etuvchi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga mos g'oyalar asosida yoshlar ongiga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirishdan iborat.

Zotan, xalqni ezgulikka chorlovchi, uni jipslashtiruvchi, uyushtiruvchi bunday asosiy g'oyalar va tuyg'ularning ildizi milliy an'analarimiz, milliy qadriyatlarimizga borib taqaladi.

Yaxshisi, fikrimizning isboti sifatida mustaqillik yillarida qabul qilingan eng asosiy g'oya va me'yoriy hujjatlarni shu nuqtai nazardan tao'lil qilib ko'raylik. Masalan, milliy mafkuramiz ham xuddi ana shu qadriyatlar, odatlar, ya'ni xalq pedagogikasi zaminida shakllanadi.

Nafaqat milliy mafkuramiz, balki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi, ulug' bobolarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Shuning uchun ham qomusimizda har bir fuqaro O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majbur ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Hayotimizning asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini puxta o'rganish asosan ta'lim-tarbiya muassasalaridan boshlanadi, ya'ni o'quvchilarda fuqarolik tarbiyasi shakllantiriladi. Buning uchun ularga o'tmish merosimiz va xalqimizning ming yillik qadriyatlari asosida ma'lumotlar beriladi.

Fuqarolik tarbiyasining asosini millat, xalq, ularning hayot mazmunini o'rganish orqali milliy o'zlikni anglashni qaror toptirish

tashkil etadi. Milliy mafkuraning asosiy maqsadi aynan ana shu o'zlikni anglashdan iboratdir.

O'tmish mutafakkirlarining qarashlari, boy ma'naviy meroslari, g'oyalari bugungi avlod uchun dasturilamal vazifasini o'taydi. Allomalar, xalq qahramonlari hayotini o'rganish millat va shaxsga inson sifatida kim ekanligini anglab yetishga yordam beradi.

Fuqarolik tarbiyasi negizida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga o'quvchilarni jalb etish maqsadi yotadi.

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi - yoshlarni jamiyat talablariga, davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga chuqur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish.

Huquqiy tarbiyaning vazifasi esa, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlarimizning mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishdan iboratdir.

Huquqiy tarbiya bo'yicha ham xalqimiz ming yillik boy huquq va huquqiy madaniyatga ega. O'tmishda barcha huquqiy muammolar Qur'oni Karim va Hadisi Sharif asosida hal etilgan. Islom huquqshunosligi asosan Qur'oni Karim va Hadisi Sharif negizida shakllangan va yoshlarga shu asosda huquqiy tarbiya berilgan.

Xullas, O'zbekistonda o'zimizga xos, o'zimizga mos bo'lgan takrorlanmas, buyuk tariximiz va an'alarimizga asoslangan, shu bilan birga zamon talablariga javob bera oladigan qonun va Dastur yaratildi. Uning milliyliigi ham ana shunda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kundagi milliy mafkuramiz, milliy g'oyalarimiz, barcha yo'riqnomalarimizning zahirida "O'tmishsiz kelajak yo'q" shiori yotadi. Ulug' bobolarimiz yaratgan

barcha moddiy va ma’naviy boyliklar, barcha ezgu insoniy fazilatlar, o’zimizga xos urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni e’zozlash davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun va me’yoriy hujjatlarimizning asosini tashkil etadi. Bunday go’zal insoniy fazilatlar, odatlar va qadriyatlarimizning xazinasi, manbai xalq pedagogikasi, ya’ni xalqimizning o’z tarixiga ega tarbiya tajribasidir. Ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilinayotgan barcha davlat hujjatlarida ana shu munosabatlar yaqqol ko’zga tashlanib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. I.A.Karimov, “Xalq so’zi” gazetasi, 1995 yil, 24 fevral.
2. “Xalq so’zi” gazetasi, 1995 yil, 24 fevral.
3. “O’qituvchi odobi” M.Ochilov, N.Ochilova, Toshkent, 1997 yil.
4. G.A.Haydarova, K.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”. O’quv qo’llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2009 yil.

IDENTIFIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Nasirov Berdax Muratovich

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar”
kafedrası assistent o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada avtomatik identifikatsiya texnologiyalarining ajralmas qismi sifatida hozirda keng qo’llanilib kelayotgan Radiochastotani identifikatsiyalash vositalarida (RFID - Radio Frequency Identification Device) ishlab chiquvchilar shtrix kodini identifikatsiyalashning barcha afzalliklarini ishlab chiqishga harakat qilishdi va deyarli barcha kamchiliklar va cheklovlarni engib o’tishdi

texnologiyasining rivojlanish asoslari va uning ishlash tamoyili haqida axborotlar yoritib o'tilgan. Shuningdek, ushbu texnologiyaning turlari va boshqa identifikatsiyalash texnologiyalaridan farqli jihatlari jadvallar asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье представлена информация об основах развития технологии радиочастотной идентификации (RFID) и принципе ее работы, которая в настоящее время широко используется как неотъемлемая часть технологий автоматической идентификации. Разработчики постарались развить все преимущества штрихкодовой идентификации и преодолеть практически все недостатки и ограничения. Также на основе таблиц были проанализированы типы данной технологии и ее отличия от других технологий идентификации.

Abstract: This article provides information on the basics of the development of the technology and the principle of its operation, in which developers have tried to develop all the advantages of barcode identification in Radio Frequency Identification Devices (RFID), which are currently widely used as an integral part of automatic identification technologies, and have overcome almost all the shortcomings and limitations. Also, the types of this technology and its differences from other identification technologies are analyzed based on tables..

Keywords: RFID (Radio Frequency Identification Device), automatic identification, tag, identifier, wireless radio frequency, power supply

Ключевые слова: RFID (устройство радиочастотной идентификации), автоматическая идентификация, тег, идентификатор, беспроводная радиочастота, источник питания

Keywords: RFID (Radio Frequency Identification Device), automated identification, tag, identifier, wireless radio frequency, power supply

So'nggi o'n yillikda elektron identifikatsiya yo'nalishi jadal rivojlanmoqda, bunda ma'lumotlar insonning minimal ishtiroki bilan to'planadi. Buning sababi shundaki, operator, masalan, kompyuter klaviaturasidan ma'lumotlarni kiritishda xato qilishi mumkin. Avtomatik identifikatsiyalash texnologiyalari real vaqtda obyektlarni aniq tanib olish zarur bo'lgan kompyuter tizimlari va boshqaruv tizimlarining talablariga to'liq javob beradi. Keling, asosiy texnologiyalarni qisqacha ko'rib chiqaylik. E'tibor bering, amalda ular ko'pincha turli xil kombinatsiyalarda qo'llaniladi.[1]

Shtrix-kodli identifikatsiya. Shtrix kodlar asosan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar tomonidan tovarlar harakatini avtomatlashtirish uchun ishlatiladi. Hozirgi vaqtda EAN/UPC shtrix-kodlari butun dunyo bo'ylab ko'p tarmoqli aloqa tizimining asosini tashkil etadi, uning rivojlanishi ikkita eng yirik ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar - EAN International va AIM International tomonidan ta'minlanadi. Eng ko'p ishlatiladigan o'n uch bitli EAN-13 kodi 1976 yilda ishlab chiqilgan. U AQShda joriy etilgan UPC kodiga (Universal Product Code) asoslangan oziq-ovqat sanoati talablariga javob beradi (2.2-rasm).[2]



2.2-rasm. Shtrix kod ko'rinishi

Shtrix kodli identifikatsiyadan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- qogʻoz bilan ishlash jarayonining maksimal qisqarishi va maʼlumotlarni kiritishda xatolar soni kamayishi;
- mijozlarga xizmat koʻrsatish tezligini oshirish;
- ishlab chiqaruvchidan to yakuniy xaridorgacha boʻlgan barcha bosqichlarda mahsulotni taqsimlashning asosiy texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish. [2]


Shtrix-kodni aniqlashning asosiy kamchiliklari:

- identifikatsiya belgisi maʼlumotlarini toʻldirish mumkin emas - shtrix kod chop etilganda faqat bir marta yoziladi;
- kichik hajmdagi maʼlumotlar (odatda 50 baytdan oshmaydi);
- Yorliqdagi maʼlumotlar asta-sekin kiritiladi - shtrix kodni olish uchun odatda uning belgisini paketga yoki qogʻoz yorligʻiga chop etishingiz kerak, yopishqoq yorliqni yopishtirish koʻpincha qoʻlda amalga oshiriladi;
- yorliqdagi maʼlumotlar ochiq shaklda taqdim etiladi va tovarlarni qalbakilashtirish va oʻgʻirlikdan himoya qilmaydi;
- shtrix kod teglari qisqa muddatli, chunki chang, namlik, axloqsizlik, mexanik taʼsirlardan himoyalanmagan.

Hozirgi vaqtda shtrix kodni identifikatsiyalash RFID texnologiyasi bilan almashtirila boshlangan. [2]

Radiochastotali identifikatsiya. Radiochastotani identifikatsiyalash vositalarida (RFID - Radio Frequency Identification Device) ishlab chiquvchilar shtrix kodini identifikatsiyalashning barcha afzalliklarini ishlab chiqishga harakat qilishdi va deyarli barcha kamchiliklar va cheklovlarni engib oʻtishdi. Hozirgi vaqtda ushbu texnologiya jahon iqtisodiyotining koʻplab tarmoqlariga intensiv

ravishda joriy etilmoqda. RFID to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan ob'ekt haqida ma'lumot olish imkonini beradi.[3] Ma'lumotni o'qish va yozish mumkin bo'lgan masofalar ishlatiladigan texnologiyalarga qarab bir necha millimetrdan bir necha metrgacha o'zgarishi mumkin (asosiy tashuvchi chastotalar 125 kHz va 5,8 GHz). Angstrom, HID, Atmel, Mifare, EM Microelectronic Marin, Microchip va boshqalar tomonidan ishlab chiqarilgan komponentlar yordamida korporatsiyalar xodimlarini aniqlash uchun ishlatiladigan smart-kartalarning aksariyati ko'pincha 125 kHz yoki 13,56 MHzs tashuvchi chastotalaridan foydalanadi. [3]



2.3-rasm. RFID texnologiyasi

1973-yilda Los Alamos Tadqiqotlari Ilmiy Laboratoriyasi zamonaviy RFID chiplari, ya'ni ham passiv, ham aktiv turida bo'lgan RFID qurilmalarining birinchi namoyishi bo'lib o'tdi. Quvvat manbai turiga ko'ra, RFID teglari quyidagi turlarga bo'linadi:

- passiv;
- aktiv;
- yarim passiv.

Passiv RFID teglar ichida quvvat manbai yo'q. Elektromagnit signal orqali g'altakdan antennaga kiritilgan elektr tokida ishlaydigan silikon KMOP chiplari ishlashi uchun yetarli kuch beradi va javob signalini uzatadi. 2006-yilda Hitachi 0,15×0,15 mm (antennani o'z ichiga olmaydi) o'lchash va qog'oz varag'idan (7,5 mkm) nisbatan murakkabroq

bo'lgan μ -chip (myu-chip) deb nomlangan passiv qurilmani ishlab chiqardi. μ -chipni ishlab chiqarish bosqichida chipga yozilgan 128-bitli noyob identifikatsiya raqamini uzatishi mumkin. Bu raqam kelajakda o'zgartirilish mumkin emas, bu ishonchning yuqori darajasini kafolatlaydi va bu raqam chip biriktirilgan yoki kiritilgan ob'yekt bilan qattiq bog'langanligini anglatadi. Bu bir tomondan juda qulay.

Aktiv RFID teglari o'z kuch manbalariga ega va o'quvchi qurilmaning energiyasiga bog'liq emas, natijada ular masofadan o'qilishi mumkin, ular katta va qo'shimcha elektronika uskunolari bilan jihozlanishi mumkin. Biroq, bunday teglar eng qimmat va batareya quvvati cheklangan. Ko'pgina hollarda, aktiv teglar ko'proq ishonchli va maksimal masofa bo'yicha eng yuqori o'qishni ta'minlaydi. Aktiv teglar odatda juda katta o'qish radiusiga ega (300 m gacha) va xotirasi passiv teglardan ko'ra ko'proq va albatta ma'lumotlarni qabul qiluvchi tomonidan yuboriladigan ma'lumotni saqlashga qodir.[4]

Yarim passiv RFID teglari, yarim aktiv bo'lgan, passiv teglarga juda o'xshash, lekin chipga quvvat beruvchi batareya bilan jihozlangan. Shu bilan birga, bu teglarning diapazoni faqat o'quvchi qurilmalarining sezgirligiga bog'liq.

Amaldagi xotira turiga qarab quyidagilarga bo'linadi:


RO (Read Only) – ma'lumotlar faqat ishlab chiqarish vaqtida bir marta saqlanadi. Bunday teglar faqat identifikatsiyalash uchun mos keladi. Ular uchun yangi ma'lumot yozilmagan va ularni soxta deyish mumkin emas.

WORM (Write Once Read Many) – noyob identifikatordan tashqari, bunday teglar bir marta yozish xotirasi blokini o'z ichiga oladi.

RW (Read and Write) – bunday teglar ma’lumotni o’qish/yozish uchun identifikator va xotira bloklarini o’z ichiga oladi. Ulardagi ma’lumotlar ko’p marta qayta yozilishi mumkin.

Biometrik identifikatsiya. Bu texnologiya biologik kuzatishlar va hodisalarning statistik tahlilini qo’llashga asoslangan. Biometrik xususiyat - bu insonning o’lchanadigan fiziologik yoki xulq-atvor xususiyati hisoblanadi.

Quyidagi rasmda biometrik identifikatsiyalash usullari keltirilgan.



2.4-rasm. Biometrik identifikatsiyalash usullari

Biometrik xususiyatlarni ikki guruhga bo’lish mumkin:

- Fiziologik biometrik xarakteristikalar (fizik yoki statik deb ataladi) - inson anatomik ma’lumotlarini (barmoq izlari, yuz shakli, qo’llar, ko’z pardasi tuzilishi va boshqalar) o’lchash orqali olingan ma’lumotlarga asoslangan xususiyatlar.

- Xulq-atvor biometrikasi (dinamik biometrika deb ham ataladi) inson harakatlarini o’lchash orqali olingan ma’lumotlarga asoslangan biometrikdir. Xulq-atvor xususiyatlarining o’ziga xos xususiyati ularning vaqtdagi davomiyligi (odatiy misollar - ovoz, imzo).

Biometrik identifikatsiyani tahlil qilish qabul qilingan ma’lumotlarning sifatini, identifikatsiya jarayonining tezligi va aniqligini, xatolarni tahlil qilish va ma’lumotlarni qayta ishlashni

baholashni o'z ichiga oladi. Sifatni baholash uchun biometrik ma'lumotlar ISO 19794 yoki ANSI/INCITS 378 kabi ma'lum standartlarga muvofiq to'planishi kerak. False Acceptance Rate (FAR) va False Rejection Rate (FRR) kabi ko'rsatkichlar tezlik va aniqlikni baholash uchun ishlatiladi. [3]

Tahlilning muhim bosqichi biometrik tizimni haqiqiy ma'lumotlar to'plamida sinovdan o'tkazish va uning ishlashini boshqa mavjud identifikatsiyalash usullari bilan solishtirishdir. Bu tizimning samaradorligi va ishonchliligini aniqlash va mumkin bo'lgan zaifliklarni aniqlash imkonini beradi.

Biometrik identifikatsiyani tahlil qilishning yana bir muhim jihati biometrik ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish va ulardan foydalanishdan himoya qilish hisoblanadi. Buning uchun autentifikatsiya va avtorizatsiya usullari, ma'lumotlarni shifrlash va boshqa xavfsizlik texnologiyalari qo'llaniladi.[5]

Biometrik identifikatsiyaning afzalliklari:

1. Yuqori darajadagi xavfsizlik: biometrik identifikatsiyalash usullari yuqori darajadagi aniqlik va ishonchlilikka ega, bu ularni firibgarlik va qalbakilashtirishdan xavfsizroq qiladi.

2. Foydalanish qulayligi: biometrik xususiyatlardan foydalangan holda identifikatsiyalash jarayoni avtomatik tarzda amalga oshiriladi, bu uni parollar yoki kirish kartalaridan foydalanishdan ko'ra qulayroq va tezroq qiladi.

3. Parollarni eslab qolish zaruratidan xalos bo'lish: biometrik identifikatsiya parollarga qaram bo'lmaslik va turli qurilmalar uchun juda ko'p turli xil parollar mavjudligidan osongina xalos bo'lish imkonini beradi.

Biometrik identifikatsiyaning kamchiliklari:

1. Cheklangan unumdorlik: barcha biometrik ma’lumotlar barcha holatlar uchun mos emas, masalan, shovqinli muhitda identifikatsiya qilish uchun ovozdan foydalanish qiyin bo’lishi mumkin.

2. Ma’lumotlarning maxfiyligi bilan bog’liq xavflar: Biometrik ma’lumotlarni to’plash va saqlash xavfli bo’lishi mumkin, chunki buzg’unchilar tomonidan noto’g’ri foydalanish yoki ularga kirish xavfi mavjud.

3. Yuqori xarajat: Biometrik identifikatsiya tizimlarini joriy qilish qimmat bo’lishi mumkin, ayniqsa ular uzoq masofalarda yoki turli joylarda qo’llanilishi kerak bo’lsa.[6]

Magnit chiziqli karta asosida identifikatsiya. Magnit chiziqli karta asosida identifikatsiya qilish o’tmishda eng keng tarqalgan identifikatsiya usullaridan biri bo’lgan. Identifikatsiya qilish uchun magnit qatlam qo’llaniladigan, karta egasi bilan bog’liq noyob kodni o’z ichiga olgan karta ishlatiladi. Ushbu texnologiya mijozlarni identifikatsiya qilish uchun bank sektorida, shuningdek, mehmondo’stlik, logistika va transport kabi boshqa sohalarda keng qo’llanilgan.

Afzalliklari:

1. Kam xarajatli karta ishlab chiqarish.
2. Magnit chiziqlarni o’qish va yozish uchun qulay texnologiya.
3. Foydalanish oson - qo’shimcha o’qish uskunasi talab qilinmaydi.
4. Identifikatsiya jarayonining qulayligi va tezligi.

Kamchiliklari:

1. Xavfsizlikning past darajasi. Magnit kartalarni qalbakilashtirish yoki nusxalash mumkin.
2. Axborotni saqlashning cheklanganligi. Magnit chiziqlar faqat cheklangan miqdordagi ma’lumotlarni o’z ichiga olishi mumkin.

3. Magnit maydonlarga sezuvchanlik. Bunday qilish magnit chiziqli zararlarni etkazishi va uni ishlamay qoldirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda yuqori darajadagi firibgarlik va xavfsizlikning yoʻqligi sababli magnit chiziqli kartani identifikatsiya qilish kamroq tarqalgan. Buning oʻrniga kontaktsiz kartalar va biometrik identifikatsiya usullari kabi zamonaviyroq texnologiyalar qoʻllaniladi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Oʻzbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarni joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida 22.09.2020 yildagi PF-6065-son

2. Ismatullayev P.R., Qodirova Sh.A., "Metrologiya asoslari" Oʻquv qoʻllanma. 2020 yil.

3. "Экономика и социум" №4(83) ч.2 2021 Rasulova Z.R. magistrant Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Toshkent, Oʻzbekiston

4. Грекул В.И., Денищенко Г.Н., Коровкина Н.Л. Проектирование информационных систем Интернет-университет информационных технологий -2-е изд. – М.: Бином. Лаборатория знаний Интуит Серия: Основы информационных технологий, 2008. – 300 с.

5. Минаев В.А., Карнычев В.Ю. Цена информационной безопасности // Информационная безопасность. 2003. Декабрь. С. 26.

6. Nasirov Berdax Muratovich. (2022). Uliwma orta bilim beriw mekteplerinde informatika pánin oqitiwda inovacisiyalıq texnologiyalardıń róli (Vol 1 No 10 (2022). 157–160). <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/799/794>

DARS JARAYONIDA NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Jamalov Nurlan Yusupovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali assistent

E-mail: jnurlan08@mail.ru

Yesboganova Maryam Maksetbay qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistranti

E-mail: maryamesboganova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy usullarga qo'shimcha ravishda innovatsion va interaktiv metodlar qo'llash ta'lim sifati va o'quvchilarning bilim olish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida mualliflar dars jarayonida noan'anaviy usullarning turli shakllari, jumladan, muammoli ta'lim, klaster usuli, aqliy hujum, loyiha metodikasi hamda o'yin texnologiyalari kabi usullarni qo'llash natijalari va ularning afzalliklarini yoritib beradi. Shuningdek, maqolada ushbu usullarning o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini asoslashga xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется важность и эффективность использования нетрадиционных методов в учебном процессе. Помимо традиционных методов, использование инновационных и интерактивных методов в современном образовательном процессе служит повышению качества образования

и уровня обучения студентов. В ходе исследования авторы выделяют результаты и преимущества использования в учебном процессе разных форм нетрадиционных методов, в том числе проблемного обучения, кластерного метода, мозгового штурма, проектной методологии и игровых технологий. Также в статье анализируется влияние этих методов на развитие творческого мышления учащихся, формирование навыков самостоятельного обучения, повышение их интереса к уроку. Результаты исследования служат обоснованием необходимости внедрения инновационных подходов в образовательный процесс.

Abstract: This article analyzes the importance and effectiveness of using non-traditional methods in the educational process. In addition to traditional methods, the use of innovative and interactive methods in the modern educational process serves to improve the quality of education and the level of student learning. In the course of the study, the authors highlight the results and advantages of using different forms of non-traditional methods in the educational process, including problem-based learning, cluster method, brainstorming, project methodology and game technologies. The article also analyzes the impact of these methods on the development of students' creative thinking, the formation of independent learning skills, and increasing their interest in the lesson. The results of the study serve as a justification for the need to introduce innovative approaches into the educational process.

Kalit soʻzlar: noanʼnaviy usullar, taʼlim jarayoni, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, muammoli taʼlim, klaster usuli, aqliy hujum, loyiha metodikasi, oʻyin texnologiyalari, ijodiy fikrlash, mustaqil taʼlim, oʻquv jarayoni, samaradorlik, taʼlim sifati.

Ключевые слова: нетрадиционные методы, образовательный процесс, интерактивные методы, инновационный подход, проблемное обучение, кластерный метод, мозговой штурм, методология проектов, игровые технологии, креативное мышление, самостоятельное обучение, образовательный процесс, эффективность, качество образования.

Key words: non-traditional methods, educational process, interactive methods, innovative approach, problem-based learning, cluster method, brainstorming, project methodology, game technologies, creative thinking, independent learning, educational process, efficiency, quality of education.

Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv va texnologik rivojlanish jarayonida tub o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. An'anaviy ta'lim metodlari zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga to'liq javob bera olmaydi, shuning uchun yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularning afzalliklari va ta'lim jarayoniga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Bugungi kunda davlatimizda ta'lim jarayoni doimiy ravishda yangilanib, zamonaviy usullar bilan boyitilib borilmoqda. Shu boyis, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va chiqishlarida ko'p marotaba **"Uchinchi Renessans"** g'oyasini ilgari surgan. Bu tushuncha O'zbekistonning ilm-fan, ta'lim, madaniyat va texnologiyalar sohasida yuksalishini nazarda tutadi. Uchinchi Renessansni yaratishning asosiy omili sifatida yosh avlodning ilm-fan va texnologiyaga bo'lgan qiziqishi, zamonaviy bilimlarni egallashi zarurligini ta'kidlaydi. Zamonaviy texnologiyalar,

sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari Uchinchi Renessansning muhim yo'nalishlari hisoblanadi.

An'anaviy dars uslublari o'quvchilarga bilim berishda muhim o'rin tutsa-da, hozirgi kunda interaktiv va noan'anaviy yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda darsni yanada qiziqarli qilish uchun keng qo'llanilmoqda.

Darsni olib borishda fanni o'zlashtirishga sabab bo'luvchi omillardan biri zamonaviy texnologiyalardir. Aqlli qurilmalarni yaratish va joriy etish bizning maktablarda ham qo'llanilmoqda, masalan, aqlli qo'ng'iroq va xona haroratini o'lchovchi turli datchiklar yaratilgan. Bundan tashqari, yer qimirlashini aniqlash qurilmasi, fotoelektrik konverter qurilmasi, termoelektrik konverter qurilmasiga bog'liq holda zamonaviy ta'lim xonalarini yaratishimiz mumkin. Ma'lumotlarni saqlashda esa bulutli texnologiyalarni qo'llash juda foydali bo'lib qoldi.

Noan'anaviy usullar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilish, ularning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu usullar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'z tajribalari orqali amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar.

Mazkur maqolada dars jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanishning ahamiyati, turli metodlari va ularning o'quvchilarga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Dars jarayonida noan'anaviy usullardan foydalanish o'quvchilarning faolligini oshirish, darsni qiziqarli va interaktiv qilish hamda mustaqil fikrlashga rag'batlantirishga xizmat qiladi. Quyida noan'anaviy o'qitish usullari va ularning afzalliklari haqida ma'lumot beraman.

Noan'anaviy o'qitish usullari

Interfaol o'yinlar "Rol o'ynash" usuli (masalan, tarix darsida o'quvchilar turli tarixiy shaxslar rolini o'ynaydi). Didaktik o'yinlar (jumboq, viktorina, test o'yinlari). "Kim tez?" yoki "Kim ko'p biladi?" kabi musobaqalar.

Aqliy hujum (Brainstorming) O'quvchilarga muammo berilib, ulardan tezkor javoblar talab qilinadi. Fikrlarni cheklashsiz bayon qilish rag'batlantiriladi.

Klaster usuli Biror mavzu atrofida asosiy tushunchalar yoziladi va ular o'zaro bog'lanadi. Muammoli savollarga javob izlashga yordam beradi.

Debat va munozara O'quvchilar muayyan masala bo'yicha ikki guruhga bo'linib, o'z fikrlarini himoya qilishadi. Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Jigsaw (Bo'laklarga bo'lib o'rganish) O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadi va har biri biror mavzuni o'rganib, keyin o'z bilimlarini boshqalarga yetkazadi.

Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tahlil va muammoli ta'lim O'quvchilarga real hayotga oid vaziyatlar berilib, ular yechim topishi kerak bo'ladi. Mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv rivojlanadi.

"Fikrlar shodasi" (Mind Mapping) Mavzuga oid asosiy tushunchalar chizma shaklida ko'rsatiladi. Axborotni vizual tarzda idrok etishni kuchaytiradi.

STEAM yondashuvi Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani birlashtirib o'qitish. Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali bilim berish.

Noan'anaviy usullarning afzalliklari O'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. O'quv jarayonini jonlantiradi va faollashtiradi. Mavzuni chuqur tushunishga yordam beradi. Jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

Noan'anaviy darsda vaqt talabi dars vaqtining ko'p qismi o'quvchilarning mustaqil topshiriqlarni bajarishi, fikr almashishi, mushohada qilishi, o'z xulosalarini bayon qilishi va himoyalashiga sarflanishi bilan belgilansa, an'anaviyda dars vaqtining ko'p qismi o'qituvchining yangi mavzuni tushuntirishi, tahlil qilishi, topshiriqlarni tushuntirishi, o'zlashtirishni nazorat qilishiga sarflanadi. Noan'anaviy dars turlari dars samaradorligini oshiradi va akademik ishlarga barqaror qiziqish uyg'otish va dasturiy ta'minot materiallarining eng yaxshi yutug'ini saqlashga yordam beradi. Noan'anaviy ta'lim usullari dars jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar faqatgina bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki o'z fikrlarini ifodalash, ijodiy yondashuv, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash kabi muhim ko'nikmalarga ham ega bo'ladilar. Zamonaviy ta'limda bu usullardan keng foydalanish, o'quv jarayonini yanada takomillashtirish va yosh avlodni ijodiy fikrlashga undash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi. Ular o'quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy tafakkurini rivojlantirish va bilimlarni yanada samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim muhitida ushbu texnologiyalardan keng foydalanish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Minamatov, Y. E. U. (2021). APPLICATION OF MODULAR TEACHING TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY. Scientific progress, 2(8), 911-913.
2. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Nasirdinova, M. H. Q. (2022). APPLICATION OF ICT IN EDUCATION AND TEACHING TECHNOLOGIES. Scientific progress, 3(4), 738-740.
3. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
4. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
5. Norbutaev, M. A. . (2022). Create Computer Learning Games Taking Into Account the Psychophysiological Characteristics of the User. International Journal of Development and Public Policy, 2(6), 113–116.
6. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 875-879.
7. Mamatzhonovich, O. D., Khamidovich, O. M., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). DIGITAL ECONOMY: ESSENCE, FEATURES AND STAGES OF DEVELOPMENT. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(04), 355-359.
8. Avazjono'g'li, V. D., & Esonalio'g'li, M. Y. (2022). Use and Importance of ThreeDimensional Images in Fields. Journal ofEthicsandDiversityin International Communication, 2(2), 1-4.
9. Avazjono'g'li, V. D., & Esonalio'g'li, M. Y. (2022). Prospects for the Development of the 3D Modeling Process. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 78-79.

10. Mamadalieva, L. K., & Minamatov, Y. E. (2021). High Efficiency of a Photoelectric Converter in a Combined Design with a Thermoelectric Converter. Middle European Scientific Bulletin, 19, 178-186.
11. Kamiljanovna, M. L. (2021). Analysis of the Results of the Study of the Thermoelectric Part of the Source Sensor. Middle European Scientific Bulletin, 19, 191- 196.
12. Komiljonovna, M. L., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Adjuster Synthesizing for the Heat Process with Matlab. Texas Journal of Engineering and Technology, 7, 63-66.
13. G'ofurovich, T. X. A., & Esonali o'g'li, M. Y. (2022). Computer Using Dynamic System Modelling Environments. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(2), 9-13.

BILINGUALISM: THEORETICAL FOUNDATIONS, TYPES, IMPACTS, AND FUTURE PROSPECTS

Matkarimova Dilfuza Abuovna

Assistant teacher of the Nukus Branch of the Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology

E-mail: matkarimovadilfuza0101@gmail.com

Abstract: Bilingualism, the ability to communicate proficiently in two languages, has become an essential area of study in linguistics, cognitive psychology, education, and sociolinguistics. As globalization and migration accelerate, bilingualism is becoming more widespread, affecting cognitive development, academic achievement, and socio-economic opportunities. This paper examines the theoretical foundations of bilingualism, its various classifications, and its impacts on cognitive function, education, and professional life.

Keywords: bilingualism, multilingualism, cognitive development, language acquisition, education, globalization, sociolinguistics.

Introduction. Bilingualism, defined as the ability to use two languages fluently, is a linguistic phenomenon that has existed for centuries, particularly in multilingual societies where different cultural and linguistic groups interact. However, in recent decades, bilingualism has gained increasing importance due to globalization, migration, and advances in communication technologies. As nations become more interconnected, the ability to communicate in multiple languages has become a valuable asset, not only for individuals but also for societies and economies.

The study of bilingualism has evolved significantly over time. Earlier linguistic theories viewed bilingualism as a potential cognitive burden, with concerns that learning two languages simultaneously could hinder intellectual development. However, contemporary research has demonstrated the numerous cognitive, academic, and socio-cultural benefits of bilingualism. It enhances cognitive flexibility, problem-solving skills, and even delays the onset of neurodegenerative diseases like Alzheimer's. Additionally, bilingual individuals often exhibit greater cultural awareness and adaptability, which are essential traits in today's globalized world.

Bilingualism can take many forms, from individuals who acquire two languages from birth (simultaneous bilinguals) to those who learn a second language later in life (sequential bilinguals). It can also vary in terms of proficiency, domain-specific use, and the degree to which both languages are actively maintained. Some bilinguals may use both languages equally in their daily lives, while others may favor one language for professional purposes and another for social interactions.

Despite its advantages, bilingualism also presents challenges. Maintaining proficiency in both languages requires consistent practice, and bilingual individuals may experience difficulties such as language interference, where the structures of one language influence the other. In educational settings, bilingual students often face unique challenges, including standardized assessments that may not fully accommodate their linguistic background. Additionally, societal attitudes toward bilingualism can vary; while some cultures embrace multilingualism, others view it as a threat to linguistic and cultural identity.

As the world continues to evolve, technological advancements are playing a crucial role in supporting bilingual education and language acquisition. Artificial intelligence, online learning platforms, and immersive language applications are making it easier for individuals to learn and maintain multiple languages.

Moreover, educational institutions and governments are increasingly recognizing the importance of bilingualism, implementing policies that promote multilingual education and linguistic diversity.

This paper aims to provide a comprehensive analysis of bilingualism, exploring its theoretical foundations, classifications, cognitive and socio-economic impacts, and future prospects. By understanding the complexities of bilingualism, we can develop effective educational strategies, foster inclusive societies, and maximize the benefits of linguistic diversity in a globalized world.

Conclusion. Bilingualism is a dynamic and multifaceted phenomenon with profound cognitive, educational, social, and economic implications. While it presents challenges, such as language interference and identity conflicts, its benefits far outweigh its drawbacks. Bilingual individuals enjoy enhanced cognitive abilities, greater career

opportunities, and deeper cultural awareness, making them valuable assets in a rapidly globalizing world. As technology advances and societies become more interconnected, bilingualism will continue to play an essential role in shaping education, business, and cultural exchange. Policymakers, educators, and individuals must recognize the importance of fostering bilingualism through comprehensive education systems and inclusive language policies. By embracing linguistic diversity, societies can harness the full potential of bilingualism to create a more interconnected and prosperous future.

List of used literature:

1. Bialystok, E. (2011). Reshaping the mind: The benefits of bilingualism. *Canadian Journal of Experimental Psychology*, 65(4), 229–235.
2. Bloomfield, L. (1933). *Language*. University of Chicago Press.
3. Bourhis, R. Y. (1997). Language policy and identity: The case of bilingualism. *Journal of Sociolinguistics*, 1(2), 202–214.
4. Crystal, D. (2003). *The Cambridge encyclopedia of language*. Cambridge University Press.
5. Cummins, J. (2000). *Language, power, and pedagogy: Bilingual children in the crossfire*. Multilingual Matters.
6. Fishman, J. A. (1965). Who speaks what language to whom and when? *Linguistics*, 2(9), 67–88.
7. García, O., & Lin, A. M. Y. (2017). Translanguaging in bilingual education. In *Bilingual and multilingual education* (pp. 117–130). Springer.
8. Grosjean, F. (1982). *Life with two languages: An introduction to bilingualism*. Harvard University Press.

9. Macnamara, J. (1967). The bilingual's linguistic performance—A psychological overview. *Journal of Social Issues*, 23(2), 58–77.
10. Weinreich, U. (1953). *Languages in contact: Findings and problems*. Mouton.

ZAMONAVIY KIMYO: YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

Abdullayev Nodirxon Jo'raxonovich

Namangan davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasini mudiri

Mansurbek Muxtor o'g'li Xayrullayev

Kimyo yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: mansurbekxayrullayev77@gmail.com

Annotatsiya: Kimyo fani bu nafaqat laboratoriyada sharoitida amalga oshiriladigan reaksiyalar, balki, tabiatning ichki qonunlarini tushunish, tabiatdagi o'zgarishlar va yangi imkoniyatlarni yaratish san'ati xisoblanadi. Kimyoviy kashfiyotlari orqali nafaqat ilm-fan balki kundalik hayotimizda ham sezilarli o'zgarishlar talaygina. Ammo har bir yutuq, kimyo sohasida bo'lsin yoki boshqa sohalarda o'zining to'liq yon ta'sirlariga ega xisoblanadi.

Zamonaviy kimyo ilm-fanning yutuqlari bilan bir qatorda, ekologik va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kamchiliklarga ham olib kelmoqda.

Kimyo fanining bugungi yutuqlari insoniyat hayotini o'zgartiribgina qolmay, unga yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Bu kashfiyotlar kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurdi. Quyida

kimyo sohasidagi erishilgan yutuqlar va ayrim kamchiliklar to'g'risida to'xtalib o'tiladi.

1. Nanotexnologiyalar - bu molekulalar va atomlar darajasida boshqaruvni ta'minlaydigan ilmiy yutuqdir [1]. Nanotexnologiyalar o'lchami kichik, ammo katta ta'sirga ega yo'nalish hisoblanadi. Bir necha atomdan iborat bo'lgan nanomateriallar ilm-fanning ko'plab yo'nalishlarini o'zgartirdi. Hususan, nanokimyo yordamida o'ta mustahkam va yengil materiallar yaratildi, tibbiyotda esa dorilarni aniq hujayraga yetkazish texnologiyalari ishlab chiqildi.

Uglerod nanotubalaridan yasalgan sun'iy to'qimalar inson organlarini almashtirishda inqilobiy yondashuvni ta'minlamoqda. Grafit, uglerod nanotubalar va boshqa nanomateriallar yengil, mustahkam va yuqori o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, mobil telefonlardan tortib, tibbiyot texnologiyalari hamda energetikada qo'llaniladi.

Yangi turdagi batareyalar ishlab chiqish orqali, insoniyat bir necha yil avval istagan energiya saqlash imkoniyatlariga ega bo'ldi. Nanomateriallar yordamida, mikroorganizmlarni tezda aniqlash va davolashda tatbiq qilinmoqda [2]. Bir necha nanometr o'lchamdagi zarrachalar bugungi kunda tibbiyotda, qurilishda va energetika sohasida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshiryapti.

2. Yashil kimyo: Kimyo fanining eng muhim yutuqlaridan biri bu ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan yashil kimyoning rivojlanishidir. Ushbu yo'nalish chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsiz materiallar yaratishga qaratilgan bo'lib, plastiklarning biologik parchalanadigan turlarini yaratish bo'yicha ham ilmiy yutuqlarga erishilmoqda. Kimyo nafaqat tabiiy resurslardan foydalanish, balki ularni saqlab qolish yo'lida ham xizmat qilmoqda [3]. Yashil kimyo atrof-muhitni himoya qilishga va chiqindilarni kamaytirishga yordam beradi.

Plastiklar bilan bog'liq ekologik inqirozni yengish uchun biologik parchalanadigan materiallar ishlab chiqilmoqda. U kelajakni faqat yutuqlar bilan emas, balki mas'uliyat bilan qurishni taklif etadi.

3. Sintetik materiallar: Kimyo sanoatida yangi sintetik materiallar yaratish bugungi kunning asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Yengil, ammo juda mustahkam materiallardan boshlab, shaffof va o'z-o'zidan tiklanadigan polimerlarga bo'lgan kashfiyotlar kundalik hayotda katta qulaylik yaratmoqda.

Uglerod tolalaridan tayyorlangan materiallar aviasozlik va avtomobilsozlikda inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi, bu esa yoqilg'i sarfini kamaytirishga va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam bermoqda.

4. Farmatsevtika kimyosi: Bugungi kunda farmatsevtika kimyosi ko'plab yangi dori vositalarini ishlab chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Viruslar va bakteriyalarga qarshi samarali antibiotiklar, qondagi kislorod miqdorini oshiruvchi dorilar yoki og'ir kasalliklar uchun mo'ljallangan biologik preparatlar – bularning barchasi kimyo fanining kashfiyotlari hisoblanadi. Ayniqsa, mRNA vaksinalari orqali pandemiyaga qarshi kurashda kashfiyot yaratilgan bo'lsa, gen terapiyasi va biologik preparatlar og'ir kasalliklarni davolashda yangi umidlarni bag'ishladi [4]. Endi bemorlar faqat kasallik sindromlarini davolash emas, balki kasallikni ildizidan bartaraf etish imkoniga ega bo'lmoqda.

5. Kosmik kimyo: Kosmik kimyo sohasidagi kashfiyotlar orqali olamni tadqiq etishning yangi qirralari ochilmoqda. Kosmosga parvoz qilish texnologiyalarining rivojlanishi kimyo fanining yangi sohalarini kashf qildi. Raketa yonilg'ileri, kosmik materiallar va hatto boshqa sayyoralarda hayotni ta'minlash uchun zarur bo'lgan biokimyoviy

tizimlar – bularning barchasi kimyo yutuqlari bilan bogʻliq. Marsda suv izlarini topish yoki Oyda kislorod ishlab chiqarish texnologiyalari orqali olis fazoga qadam tashlash imkoniyatlari va shunga oʻxshash yangiliklar yaratilmoqda.

6. Iqlimni saqlash: Zararli gazlarni zararsizlantirish, havoni tozalash va iqlim oʻzgarishlariga qarshi texnologiyalarni yaratish kimyo fanining eng dolzarb yutuqlaridandir. Havodagi karbonat angidridni maxuss uskunar bilan tutib qolish va uni sanoatda foydalanish texnologiyalari global isish muammosiga qarshi samarali kurash vositalaridan biridir.

Yuqorida keltirilgan yutuqlar bir qatorda, kimyo sohasining ayrim Kamchiliklari xam mavjud boʻlib, tizimli tahlil qilamiz.

1. Ekologik salbiy taʼsirlar: Kimyo sanoatining ekologik taʼsiri hali ham dolzarb muammoligicha qolmoqda. Plastiklar, pestitsidlar va boshqa kimyoviy moddalar tabiiy tizimlarga kirib, uzoq muddat davomida atrof-muhitga zarar yetkazmoqda. Okeanlarda yuzlab tonnalab plastik chiqindilar yigʻilib, hayvonlarning yashashiga tahdid solmoqda [5]. Plastikning parchalanishi uchun yuzlab yillar kerak boʻlishi mumkin, shuning uchun kimyo sanoatida bu muammoni hal qilish uchun ekologik toza materiallar ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Kimyoviy moddalar, ayniqsa, pestitsidlar va oʻgʻitlar odamlarning salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Ularning ortiqcha ishlatilishi oziq-ovqat zanjiriga kirib, saraton kabi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Katta hajmdagi kimyoviy moddalar havoga yoki yerga toʻkilganida, bu insonlar va hayvonlar salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shuning uchun kimyo ilm-fanida xavfsiz va tabiiy

texnologiyalarni ishlab chiqish nafaqat muhim, balki zaruriyat hisoblanadi.

2. Plastiklar muammosi: Insoniyat hayotini yengillashtirgan kimyo mo'jizasi. Ular mustahkam, arzon va deyarli har narsada qo'llaniladi. Ammo ular yerdan "chetlatilish" ni xohlamaydi. Plastik chiqindilar har yili yuz minglab hayvonlarning o'limiga sabab bo'ladi, okeanlarda esa ulkan "plastik orollar" paydo bo'lgan. Plastik bizning kashfiyotimizdan ko'ra, mas'uliyatimiz sinoviga aylanmoqda. Plastmassalar kimyoning ulkan yutuqlaridan biri sifatida insoniyat hayotini tubdan qulaylashtirdi. Ammo ularning parchalanmasligi va atrof-muhitga yetkazadigan zarari bugungi kundagi eng katta ekologik muammolardan biridir. Plastik chiqindilar okeanlarni, tuproqni va hatto inson organizmini ham ifloslamoqda. Mikroplastiklar suv havzalari va oziq-ovqat zanjiriga kirib borib, ekologik tizimlarga va sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3. Toksik moddalar: Dorilar odamlarni davolaydi, ammo noto'g'ri dozada ular zaharga aylanadi. Bu kimyoviy moddalarning mohiyati: foyda va zarar o'rtasidagi nozik chegara hisoblanadi. Sanoat chiqindilari va havo ifloslanishining ko'plab kimyoviy omillari jamiyatda kutilmagan kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Kimyo fani turli xil dorilar va foydali moddalar yaratgan bo'lsa-da, bu jarayonlarda ko'p miqdorda toksik moddalar paydo bo'ldi. Sanoat chiqindilari, pestitsidlar va og'ir metallar tuproqni va suv resurslarini ifloslantirib, ko'plab kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, zaharli kimyoviy moddalar noto'g'ri saqlangan yoki boshqarilmagan holatlarda atrof-muhit uchun katta xavf tug'diradi.

4. Kimyoviy qurollar: Kimyo nafaqat hayotni yengillashtiruvchi, balki uni yo'q qiluvchi kuchga ham ega. Tarixda kimyoviy qurollar

minglab begunoh insonlarning hayotiga zomin bo'lganini misol qilob keltirishimiz mumkin. Zaharli gazlar, neyroparalitik moddalar – bu inson tafakkuri noto'g'ri maqsadga yo'naltirilganida jiddiy xavf tug'ilishi mumkinligini ko'rsatadi.. Kimyoviy qurollar insoniyatga ulkan xavf solib, tarixda katta talafotlar keltirgan. Zaharli gazlar va biologik qurollarning yaratilishi kimyoning qudratini noto'g'ri yo'nalishda ishlatishning eng achinarli natijalaridan biridir.

5. Energiya sarfi va resurslarning tugashi. Kimyoviy jarayonlarning aksariyati ko'p energiya talab qiladi. Bu esa ko'pincha uglerod qazilma yoqilg'ilari kabi ekologik zararli manbalardan olinadi. Bundan tashqari, ko'plab kimyoviy ishlab chiqarishlar tabiiy resurslarning tugashiga olib kelmoqda. Xususan, nodir metallar va mineral resurslarning kamayishi kimyo sanoati uchun global muammoga aylanib bormoqda. Kimyo sanoati ko'p energiya sarflaydi. Bu, albatta, iqtisodiy jihatdan qimmat va ekologik zarar yetkazadigan holatdir. Shuning uchun kimyo sanoatida energiya tejaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish, energiya samaradorligini oshirish zarur.

6. Iqlimga salbiy ta'sir: Kimyoviy zavodlar va ishlab chiqarishlar ko'pincha havoga katta miqdorda gazlarni ajratib chiqaradi. Bu esa global isish muammosini kuchaytirmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan karbonat angidrid, metan va boshqa zararli moddalar ekologik tizimlarni izdan chiqarib, iqlim o'zgarishini tezlashtirish oqibatiga olib kelmoqda.

7. Ehtiyotkorlik zarurati. Kimyoning barcha yutuqlari katta imkoniyatlar olib keladi, ammo ular bilan ehtiyotsizlik qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Zaharli moddalar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik inson salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shuningdek, noto'g'ri boshqariladigan sanoat jarayonlari ko'plab ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bilan

birga, bu kamchiliklar kimyo uchun yangi kashfiyotlar qilishga turtki bo'lmogda. Yashil kimyo qoldiqlarning zararliligini kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni rivojlantiryapti. Plastmassalarni qayta ishlash yoki biologik parchalanadigan materiallar yaratish kabi yondashuvlar kimyoning yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Kimyoning kelajagi o'zgaruvchan va barqaror bo'lishi kerak. O'g'itlar, plastiklar va kimyoviy moddalar kabi mahsulotlar hech qachon to'liq yo'qolmaydi, ammo ularni qayta ishlash, zararsizlantirish va ekologik jihatdan xavfsiz variantlarini ishlab chiqish zarur. Barqaror energiya manbalaridan foydalanish, kimyo sanoatini qayta qurish va yashil texnologiyalarni kengaytirish kimyoning kelajagi uchun eng muhim yo'nalishlar bo'ladi.

Xulosa

Kimyoning yutuqlari hayotimizni qulay, xavfsiz va barqaror qiladi. Bu ilm-fan tabiat va texnologiya o'rtasida ko'prik bo'lib, insoniyatni yanada rivojlangan kelajak sari yetaklamogda. Har bir kashfiyot nafaqat hozirgi muammolarni hal qilish, balki kelajak uchun mustahkam zamin yaratish maqsadiga xizmat qilmogda. Uning yutuqlari nanoteknologiyalar va yashil kimyo orqali kelajakni yaratmogda, tibbiyotda esa yangi umidlar bag'ishlamogda. Kimyoning yutuqlari hayotimizni qulay, xavfsiz va barqaror qiladi. Bu ilm-fan tabiat va texnologiya o'rtasida ko'prik bo'lib, insoniyatni yanada rivojlangan kelajak sari yetaklamogda.

Hozirgi kunda plastik chiqindilar va toksik moddalar kabi muammolar uning soyasida qolmogda. Kelajakda kimyo ekologiya bilan uyg'un, insoniyatga xizmat qiladigan va tabiiy muvozanatni saqllovchi soha bo'lishi kerak. Kimyo o'z kuchini faqat ijobiy natijalarga yo'naltirishi–bu bizning qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismoilov, M. (2020). Zamonaviy kimyo va uning rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimov, R. (2019). Yashil kimyo: Ekologiya va texnologiyaning hamkorligi. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.
3. Ruzimov, S. (2021). Nanoteknologiyalar va ularning kimyo sanoatidagi o‘rni. Kimyo va tabiiy fanlar jurnali, 2 (3), 58-62.
4. Xodjaev, A. (2022). Kimyo sanoati va atrof-muhit: Salbiy ta’sirlar va yechimlar. Tashkent: O‘zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi.
5. Mirzaev, B. (2023). Tibbiyotda kimyoning yutuqlari: Inqilobiy yangiliklar va kelajak. O‘zbekiston tibbiy ilm-fani jurnali, 1(4), 120-125.

“ZAMONAVIY FALSAFA: TAFAKKUR, INSONIYAT VA TEXNOLOGIYALAR O‘RTASIDAGI MUNOSABAT”

Jamalov Nurlan Yusupovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali assistent

E-mail: jnurlan08@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy falsafaning tafakkur, insoniyat va texnologiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. XXI asr texnologik taraqqiyoti inson ongining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib, falsafiy qarashlarning yangilanishiga sabab bo‘lmoqda. Sun’iy intellekt, raqamli inqilob va biotexnologiyalar insoniyat oldiga yangi axloqiy va falsafiy muammolarni qo‘ymoqda. Tadqiqotda tafakkurning o‘zgarishi, texnologiyalarning inson hayotiga ta’siri hamda zamonaviy falsafaning ushbu jarayonlarga munosabati yoritiladi. Muallif texnologik

taraqqiyotning ijobiy va salbiy jihatlarini baholab, kelajak falsafiy konsepsiyalarining shakllanish jarayoniga e'tibor qaratadi. Ushbu maqola inson va texnologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni falsafiy nuqtai nazardan anglashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy falsafa, tafakkur, insoniyat, texnologiyalar, sun'iy intellekt, axborot jamiyati, raqamli inqilob, biotexnologiyalar, axloqiy muammolar, texnologik taraqqiyot, falsafiy tafakkur, inson va texnologiya munosabati, kelajak falsafasi, g'oyaviy transformatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь современной философии с мышлением, человечеством и технологиями. Технический прогресс XXI века влияет на развитие человеческого сознания и вызывает обновление философских взглядов. Искусственный интеллект, цифровая революция и биотехнологии ставят перед человечеством новые моральные и философские проблемы. В исследовании освещаются изменения в мышлении, влияние технологий на жизнь человека, а также отношение современной философии к этим процессам. Автор оценивает положительные и отрицательные стороны технологического развития и акцентирует внимание на процессе формирования философских концепций будущего. Данная статья помогает понять сложные взаимоотношения человека и техники с философской точки зрения.

Ключевые слова: современная философия, мышление, человечество, технологии, искусственный интеллект, информационное общество, цифровая революция, биотехнология, этические проблемы, технологическое развитие, философское

мышление, взаимоотношения человека и техники, философия будущего, идеологическая трансформация.

Abstract: This article analyzes the relationship between modern philosophy and thinking, humanity and technology. Technological progress in the 21st century affects the development of human consciousness and causes a renewal of philosophical views. Artificial intelligence, digital revolution and biotechnology pose new moral and philosophical problems for humanity. The study highlights changes in thinking, the impact of technology on human life, and the attitude of modern philosophy to these processes. The author evaluates the positive and negative aspects of technological development and focuses on the process of forming philosophical concepts of the future. This article helps to understand the complex relationship between man and technology from a philosophical point of view.

Key words: modern philosophy, thinking, humanity, technology, artificial intelligence, information society, digital revolution, biotechnology, ethical issues, technological development, philosophical thinking, relationship between man and technology, philosophy of the future, ideological transformation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, u ilm-fan, ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'p marotaba ta'kidlagan. Uning fikricha, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch aynan ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, adabiyot, san'at va madaniyatning jamiyatdagi rolini yuqori baholaydi. Uning so'zlariga ko'ra, agar adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi.

Ushbu nuqtai nazardan, falsafa ham ilm-fan va madaniyatning ajralmas qismi sifatida inson tafakkurini rivojlantirishda, jamiyatning ma'naviy yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Prezidentning ta'lim, ilm-fan va madaniyatga bergan e'tibori falsafaning zamonaviy dunyodagi o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Zamonaviy dunyo inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlari va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'z ichiga olgan muhim falsafiy muammolarni ilgari surmoqda. Ilm-fan va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari insoniyat oldida yangi axloqiy, gnoseologik va ekzistensial savollarni paydo qilmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy falsafaning inson tafakkuri va texnologiyalar bilan qanday o'zaro aloqada ekanligi, ularning jamiyat va inson hayotiga ta'siri tahlil etiladi.

Falsafani faqat Kant, Hegel va klassik nemis falsafa maktabining boshqa vakillari davrida dolzarb bo'lgan fan deb hisoblash mumkinmi yoki bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qoladimi? Bunday masalani zamonaviy insonning dunyoqarashi nuqtai nazaridan ham, falsafa tushunchasining o'zi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish kerak. Ushbu fan nomoddiy deb tasniflanadi va shuning uchun biz "mavzu" farovonligining roli va ahamiyati haqida gapirmayapmiz. Falsafa so'zi "donolikka muhabbat" deb tarjima qilinadi. Donolik-bu ma'lum bir hayotiy tajriba va sinovlardan o'tib, odam oladigan narsadir. Donolik hamma uchun mavjud bo'lgan universal qiymat sifatida talqin qilinmaydi, donolik faqat inson dastlab unga intilsa mumkin. Zamonaviylikning falsafiy jarayoniga nisbatan o'z o'ringizni aniqlash uchun falsafaning diskursiv makonining xususiyatlarini hisobga olish va o'z pozitsiyangizni, nuqtai nazaringizni, fikringizni ifoda eta olish muhimdir

Zamonaviy falsafa va tafakkur: yangi paradigmalar-Falsafa tarix davomida inson tafakkuri va borliqni anglash yo'lida turli paradigmalariga asoslangan holda rivojlandi. Zamonaviy falsafaga hissa qo'shgan faylasuflar turli falsafiy yo'nalishlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Quyida XX-XXI asrlarda falsafaga katta ta'sir ko'rsatgan ayrim faylasuflar va ularning g'oyalari keltirilgan. Martin Xaydegger, Ludvig Vitgenshteyn, Jean-Paul Sartre, Michel Foucault, Jürgen Habermas, Richard Rortylarning xizmatlari juda kata hissa qoshgan. Bugungi kunda zamonaviy falsafa quyidagi asosiy masalalarni o'z ichiga oladi:

Postmodernizm va tafakkur erkinligi – an'anaviy bilim manbalariga tanqidiy yondashish, haqiqatning subyektiv ekanligi g'oyasi. Analitik falsafa va til nazariyalari – tafakkur shakllarini lingvistik tahlil qilish, mantiq va muloqotning rolini o'rganish. Sun'iy intellekt falsafasi – tafakkur va ong o'rtasidagi farq, mashinalarning mustaqil fikrlashi mumkinmi, degan savollar. Transhumanizm – inson ongini va tanasini texnologiyalar yordamida takomillashtirish konsepsiyasi.

Bugungi falsafiy tafakkur jamiyatning yangi ilmiy kashfiyotlar va texnologik yutuqlarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi masalasini ham o'rganmoqda. Insoniyat va texnologiyalar o'rtasidagi murakkab munosabat-Texnologiyalar insoniyat hayotining barcha jabhalariga kirib kelgani sari, ularning ta'siri tobora ortib bormoqda. Zamonaviy falsafa texnologiyalar va insoniylik orasidagi muvozanatni qanday saqlash mumkinligi masalasini o'rganmoqda.

Texnika odamga va odamga texnikaga qanday ta'sir qiladi? Asosiy masala bir-birining ustidan hukmronlik qilishdir. Qaysi ustunlik muhimroq? Bugungi kunda inson yaratuvchisi falsafasi inson qul

falsafasiga aylanadi deb ayta olamizmi? O'z ijodining quli? Bu qisman to'g'ri, chunki atrofga nazar tashlasangiz, odamlarning ilmiy va texnologik taraqqiyotga bog'liqligini uning faoliyatining mutlaqo har bir sohasida kuzatish mumkin. Texnologiyalar va inson tafakkurining o'zgarishi. Axborot texnologiyalari va tafakkur – raqamli texnologiyalar tafakkur jarayonini qanday o'zgartiradi. Diqqat va tafakkurning qisqarishi – internet va ijtimoiy tarmoqlar natijasida inson fikrlashi yuzaki bo'lib qolmayaptimi. Sun'iy intellekt va ong – sun'iy intellekt haqiqiy tafakkurga ega bo'lishi mumkinmi yoki u faqat algoritmik jarayonmi. Axloqiy muammolar va texnologiyalar. Axborot nazorati va shaxsiy daxlsizlik – texnologik rivojlanish inson erkinligini cheklash xavfini tug'diradimi. Genetik modifikatsiya va inson tabiati – genetik muhandislik va transhumanizm falsafasi axloqiy jihatdan qanchalik to'g'ri. Robotlar va avtomatlashtirish – sun'iy ongning rivojlanishi insonning mehnat bozoridagi o'rniga qanday ta'sir qiladi. Bugungi falsafa ushbu savollarga javob berishga urinmoqda va insoniyatning kelajakdagi yo'nalishini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Falsafa, tafakkur va texnologiyalar o'rtasidagi muvozanat-Falsafiy tafakkur texnologiyalarni inson manfaatlariga xizmat qiladigan darajada boshqarishning muhimligini ko'rsatadi. Texnologiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqish kerak: Insonparvar texnologiyalar yaratish – texnologik taraqqiyot inson ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak.

Texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantirish – insonlar tafakkurini rivojlantiradigan texnologiyalarni targ'ib qilish. Falsafiy tafakkurni kuchaytirish – texnologik innovatsiyalarni insoniyat uchun foydali yo'nalishga burish. Insoniyatning texnologiyalar bilan o'zaro munosabatida falsafa muhim yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ilm sifatida

rivojlanmoqda. Tafakkur insonning o'zini va atrofidagi dunyoni anglash jarayonidir. Falsafa esa bu jarayonni chuqurroq tahlil qilishga, insoniyatning maqsadi va borligi haqidagi savollarga javob izlashga xizmat qiladi. Zamonaviy falsafada tafakkur quyidagi yangi yo'nalishlarga asoslanadi: Postmodernizm – Haqiqat va bilim subyektivdir, demak har bir insonning o'z haqiqatini yaratish huquqi mavjud. Bu falsafiy qarashda, tafakkur biror o'zgarmas haqiqatni topish emas, balki insonning dunyoni qanday tasavvur qilishi va unga qanday qarashlar shakllantirishi muhimdir.

Fenomenologiya – Inson tafakkuri har bir hodisani shaxsiy tajriba orqali anglashga intiladi. Bu yondashuv tafakkurni subyektivlikdan chiqarib, obyektiv va universal tushunchalarni izlashga imkon beradi. Eksistensializm – Insonning ozodligi va uni shakllantiruvchi ichki dunyosini tushunishga qaratilgan. Falsafa va tafakkur o'rtasidagi bog'lanish insonning o'zlikni anglash va unga mos keladigan jamiyat yaratish bilan chambarchas bog'liq. Bu yondashuvlar tafakkurni kengaytirish, shaxsning ichki olamini va jamiyat bilan o'zaro aloqalarini chuqurroq tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Insoniyat va Texnologiyalar: Yangi Shart-sharoitda Tafakkur. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot tafakkurni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Internet, sun'iy intellekt, robototexnika va boshqa texnologiyalar insoniyatning o'zini anglash jarayonini sezilarli darajada o'zgartirib yubordi. Falsafa, o'z navbatida, bu o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqida yangi fikrlar yaratmoqda.

Sun'iy intellekt va tafakkur – Sun'iy intellektning rivojlanishi tafakkurning oddiy mexanik jarayon emas, balki murakkab ongli tizim sifatida ko'rilishini talab qilmoqda. Falsafa bu texnologiyalarni insoniyat maqsadlariga xizmat qiladigan vosita sifatida qanday qo'llashni izlashda

davom etmoqda. Digitalizatsiya va ong – Raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi inson tafakkurini qanday shakllantiradi? Yangi texnologiyalar tomonidan boshqariladigan axborot oqimlarining ta'siri, insonning qarorlar qabul qilish qobiliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi. Transhumanizm – Inson tanasini va ongini texnologiyalar yordamida takomillashtirish g'oyasi falsafada yangi muhokamalarni keltirib chiqarmoqda. Bu g'oya kelajakda insonni qanday qilib yanada rivojlangan mavjudotga aylantirishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy texnologiyalar tafakkurni tezlashtirib, kengaytirib, o'zgartirib boradi. Bu o'zgarishlar nafaqat ilm-fan va texnologiyada, balki axloq, ma'naviyat va jamiyatni tashkil etuvchi asosiy g'oyalar sohasida ham yuzaga keladi.

Kelajak va Falsafiy Qarashlar: Insoniyatning Yangi Yo'llari. Kelajakda falsafa va tafakkur o'rtasidagi bog'lanish qanday rivojlanadi? Yangi texnologiyalar va global o'zgarishlar kelajakni qanday shakllantirishi mumkin? Falsafaning bunday muammolarga qanday javob berishi kerak?

Insoniyat va jamiyatning maqsadi – Kelajakda insoniyatning jamiyatni rivojlantirishdagi maqsadlari qanday o'zgaradi? Falsafa, ayniqsa, insonning o'zligini anglash, ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar muammolarini hal qilishda qanday yordam bera oladi?

Etika va texnologiyalar – Texnologiyaning rivojlanishi insoniyatning axloqiy qarashlarini qanday o'zgartiradi? Falsafiy tafakkur va etika texnologiyalarni boshqarish va ulardan inson manfaatlari uchun foydalanishni ko'rib chiqadi.

Kelajakdagi ta'lim – Kelajakda ta'lim qanday bo'ladi? Insonning tafakkuri, bilimi va ma'naviyati texnologik yutuqlar bilan qanday uyg'unlashadi?

Kelajakda zamonaviy falsafaning roli kattalashadi, chunki u texnologiyalar va insoniyat o'rtasidagi munosabatlarni tushunishga yordam beradi. Falsafa nafaqat jamiyatning ilg'or g'oyalarini shakllantiradi, balki ularni axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan asoslaydi.

XXI asr falsafasi o'z oldiga qo'yishi kerak bo'lgan vazifalar insonning psixologik noqulayligi muammosini hal qilishni izlash, uni tabiiy ildizlarga qaytarishga urinish, shahar hayotining klassik uslubini fonga qo'yib, unda odam o'z maqsadidan yashiringan bo'lishi mumkin. Jamiyat shunday yashash sharoitlarini yaratishi kerakki, unda ma'naviy va moddiy muvozanat saqlanadi va barcha nomoddiy narsalar inson shaxsiyatining bir qismi sifatida qabul qilinadi, teng qiymatga ega bo'ladi, yigirma birinchi asrning falsafiy ta'limotlari bilan qo'llab-quvvatlanadi va rag'batlantiriladi.

Zamonaviy falsafa insoniyatning tafakkuri va texnologiyalari o'rtasidagi o'zgaruvchan aloqalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Falsafaning yangi paradigmalarini tushunish va ulardan samarali foydalanish kelajakda insoniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Falsafa va tafakkur o'rtasidagi bog'lanish insoniyat uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, texnologiyalarni rivojlantirishda ma'naviy asoslar yaratadi va jamiyatni yanada yuksaltiradi. Zamonaviy falsafa inson tafakkuri, texnologiyalar va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tafakkur, insoniyat va texnologiyalar o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun falsafiy yondashuvlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Falsafa nafaqat texnologiyalar bilan bog'liq axloqiy va gnoseologik masalalarni yoritibgina qolmay, balki inson tafakkurining qanday rivojlanishi kerakligi borasida ham yo'l ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. (2017). Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU
2. Matbua Ahmedova FALSAFA darslik TOSHKENT – 2006
3. Sh.O.Madaeva va boshqalar, Falsafa. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019
4. Глобалистика: Международный междисциплинарный энциклопедический словарь /Гл.ред.: И.И.Мазур, А.Н.Чумаков– М. - СПб. - НьюЙорк: Элима, Питер, 2006.
5. Еникеев А. А. Гипертекст в пространстве современного социальногуманитарного дискурса: проблема философского обоснования // Гипертекст как объект лингвистического исследования: Материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. — Самара: ПГСГА, 2010.
6. Еникеев А. А. Методология топологической аналитики в социальногуманитарном дискурсе XX века (Исторический экскурс и постановка проблемы) // Культурная жизнь Юга России № 3(54), 2014
7. I.Karimov, M. Rustamova falsafa fani tarixi va nazariyasi (metodik qo'llanma). T: 2007

KOMPYUTER GRAFIKASI ORQALI TALABALARNI KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AMALIY MASHG'ULOTLAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Ko'kiyev Jamshid Shodiyor o'g'li

Muxtor Avezov nomidagi Janubiy

Qozog'iston universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Joldasbekova Saule Abdrazahovna

Pedagogika fanlari doktori, professor

E-mail: kokiyevej@mail.ru

Tel: +77074620038

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompyuter grafikasi fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlarning va zamonaviy texnologiyalarning talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati o'rganiladi. Zamonaviy dasturiy vositalar va 3D modellashtirish texnologiyalarining qo'llanilishi orqali talabalarining ijodkorlik, texnik bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish usullari yoritiladi. Maqolada pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье исследуется значение практических занятий и современных технологий в развитии компетентности учащихся при преподавании предмета компьютерная графика. Освещаются способы формирования творческих способностей, технических знаний и практических навыков своих учеников посредством применения современных программных средств и технологий 3D моделирования. В статье анализируется эффективность использования педагогических подходов и инновационных методов.

Annotation: This article explores the importance of practical

training and modern technologies in the development of student competence in teaching computer graphics. Through the use of modern software tools and 3D modeling technologies, methods for the formation of creativity, technical knowledge and practical skills of their students are illuminated. The article analyzes the effectiveness of pedagogical approaches and the use of innovative methods.

Kalit soʻzlar: 3D modellashtirish, Pedagogik, Metod, Zamonaviy texnologiya, Kompetensiya, Interaktiv, Eksperimentlar.

Ключевые слова: 3D моделирование, педагогика, метод, современные технологии, компетентность, интерактивность, эксперименты.

Keywords: 3D modeling, pedagogical, method, modern technology, competence, interactive, experiments.

KIRISH

Ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi – komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalash orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdan iborat. Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olishga bog'liq bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun pedagogika va psixologiya sohasidagi fundamental nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish zarur. Shuningdek, ta'limda integratsiyalashuv jarayonini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va fanga nazariy hamda amaliy yondashuvni uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan ijobiy o'zgarishlar fan ta'limni oldiga yuqori talablar qo'ymoqda. Mashg'ulotlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ishlash, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini

doimiy ravishda rivojlantirish, ularning nutqiy va imloviy savodxonligini oshirish – ta'lim jarayonida dolzarb vazifalar sifatida e'tirof etilmoqda. Bu talablarni amalga oshirish kelajak avlodning har tomonlama yetuk va malakali bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Kompyuter grafikasi zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarning texnik bilim va ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ta'lim sohasida kompyuter texnologiyalarining keng qo'llanilishlar kutilmoqda.

Amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, 3D modellashtirish va animatsiya dasturlaridan foydalanish orqali talabalar murakkab loyihalarni amalga oshirish ko'nikmasini egallaydilar. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, interaktiv o'quv materiallari va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar murakkab mavzularni osonroq o'zlashtiradilar. Shuningdek, masofaviy ta'lim platformalari orqali o'qitish jarayonini tashkil qilish imkoniyati kengaymoqda. Kompyuter grafikasi ta'lim jarayonida keng qo'llaniladigan fanlardan biri bo'lib, uning o'qitilishi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda kompyuter grafikasi orqali talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy

texnologiyalarning o'rnini o'rganish maqsad qilingan. Buning uchun quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. **Adabiyotlar tahlili:** Kompyuter grafikasini o'qitish bo'yicha mavjud ilmiy manbalar, o'quv qo'llanmalari va maqolalar o'rganiladi.
2. **Statistik tahlil:** Ta'lim jarayonida kompyuter grafikasining qo'llanilishi bo'yicha statistik ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi.
3. **Eksperimental tadqiqot:** Talabalar bilan amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, ularning kompetensiya darajasi baholanadi.
4. **So'rovnoma va intervyu:** Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazilib, ularning fikr-mulohazalari o'rganiladi.

Bu metodlar yordamida kompyuter grafikasi fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlanadi hamda o'tkazilgan eksperimentlar va so'rovnomalar natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. **Amaliy Mashg'ulotlarning Ta'siri:** Amaliy mashg'ulotlarda kompyuter grafikasi dasturlaridan foydalanish talabalarning ijodiy va texnik ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi. Masalan, 3D modellashirish va animatsiya dasturlarini qo'llash orqali talabalar murakkab loyihalarni amalga oshirishda o'zlarini yanada ishonchli his qildilar.
2. **Zamonaviy Texnologiyalarning Roli:** Zamonaviy texnologiyalar, xususan, interaktiv o'quv materiallari va virtual laboratoriyalar yordamida o'qitish jarayonini tashkil qilish talabalarning o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qildi. Bu metodlar orqali talabalar murakkab mavzularni osonroq o'zlashtirdilar.

3. **Statistik Ma'lumotlar:** O'tkazilgan so'rovnomalar natijasida, kompyuter grafikasi fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning kompetensiya darajasini 30% ga oshirdi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

4. **Pedagogik Yondashuvlar:** Innovatsion pedagogik yondashuvlar va metodlardan foydalanish talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirdi. Masalan, gamifikatsiya elementlarini qo'llash orqali o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Bu maqola mavzusida kompyuter grafikasi orqali talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning o'рни muhimligini ta'kidladi. O'tkazilgan eksperimentlar va so'rovnomalar natijalari shuni ko'rsatdiki, amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish talabalarning ijodiy va texnik ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha malakasining yetarli emasligi, o'quv materiallarining yangilanishi va texnik ta'minotning yetarli emasligi kabi muammolar mavjud.

Shu bilan birga, kompyuter grafikasi va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda, amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv materiallarini yangilash va texnik ta'minotni

yaxshilash zarur. Bundan tashqari, talabalarning zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish muhimdir. Umuman olganda, kompyuter grafikasi va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.[5]

Kompyuter grafikasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliyotlar talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini ta'kidlamogda. Masalan, “Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish metodikasi” nomli maqolada kompyuter grafikasi va zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash dasturlarining muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda o'rni va ahamiyati yoritilgan. [2,7]

Misol uchun, “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanidan talabalarning auditoriyadan tashqaridagi mustaqil faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish” maqolasida kompyuter grafikasi va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqotlar va maqolalar kompyuter grafikasi va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasining talabalarning kompetensiyasini rivojlantirishdagi muhimligini ko'rsatadi. Kelajakda bu yondashuvlarni yanada rivojlantirish va kengaytirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin.

XULOSA

Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyatini o'zining o'quv jarayonimda

yaqqol his qildim. Ushbu yo‘nalishda ishlash nafaqat bilimlarimni mustahkamlashga, balki ijodiy fikrlash va zamonaviy dasturlar bilan ishlash ko‘nikmalarimni rivojlantirishga yordam berdi. Amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘rganganlarim menga kelajakda kasbiy faoliyatimda o‘z o‘rnimni topishda qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, kompyuter grafikasi fanini o‘rganishda yangi texnologiyalar va real loyihalarga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish talabalar uchun katta foyda keltiradi deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нуруллаев А.Р. (2022). Компьютер графикаси: назарий ва амалий асослар. Тошкент: Фан нашриёти. 125-128 bet.
2. O.Jumayev, J.Sh.Ko‘kiyev. “ZAMONAVIY ARXITEKTURADA CHIZMA GEOMETRIYA MASALALARINI QO‘LLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI” mavzusida vazirlik miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami Namangan shahri 27-28 may 2022 yil. 205-209 bet.
3. **B.B. Ko‘kiyev, TALABALAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI** Maktab va hayot. - 2020, 2020-yil. 100-106 bet.
4. Q.Sh Bekqulov, J.Sh Ko‘kiyev, MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN BOG‘LIQLIGI, ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2, SPEICAL ISSUE 3, APRIL, 2021.
5. Ko‘kiyev J. Sh. CHIZMACHILIK VA CHIZMAGEOMETRIYA FANLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN, XUSUSAN AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH. “BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING ZAMONAVIY

TENDENTSIYALARI: TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA YANGI AVLOD DARSliklari “4K”(KRITIK FIKRLASH, KREATIVLIK, KOLLABORATSIYA, KOMMUNIKATSIYA) MODEL, MUAMMO VA YECHIMLAR” IV Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri, 2024 yil 19 aprel 102-104 bet.

6. Ko’kiyev J. Sh. PEDAGOGIKA UNIVERSITETI TALABALARI ORASIDA KOMPYUTER GRAFIKA FANINING KOMPETENSIYASI HAMDA MOHIYATI VA TUZILMALARI. Kelajak o’qituvchisi-kelajak bunyodkori mavzusidagi II xalqaro ilmiy anjumani materiallari to’plami. NamDPI 2024, 28-noyabr. 1553-1558 bet.

7. Ko’kiyev. B.B, Xasanova .D, Mirxamidova, Jo’rayeva.M.Sh, Ko’kiyev J. Sh. CHIZMAGEOMETRIYA FANINI O’QITISHDA KLASSTER METODIDAN FOYDALANIB O’QITISH TEXNOLOGIYASI, АРХИТЕКТУРА-ҚУРИЛИШ СОҲАЛАРИ ҲАМДА БАДИИЙ ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИЯНИНГ ЎРНИ 2019 yil. 120-125 bet.

TILSHUNOSLIKDA INTERFERENSIYA HODISASI O’RGANILISH TARIXIGA BIR NAZAR

Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi

University of economics and pedagogy
assistent o’qituvchisi, O’Zdjt mustaqil izlanuvchisi

E-mail: asatimboyeva@gmail.com

Tel: (+99899) 044-49-36

Annotatsiya: Ushbu maqolada interferensiya tushunchasi, ushbu atama qanday kelib chiqqani va tilshunoslikda interferensiya hodisasi o’rganilishi tarixi yoritib berilgan. Interferensiya atamasi tadqiqi asosida

yigʻilgan maʼlumotlar hamda nazariyalar dastlab interferensiya soʻziga lugʻatlarda berilgan taʼrif, ilk marotaba qachon qoʻllanilganligi haqida maʼlumotlar, yillar ketma-ketligida oʻrgangan tilshunos olimlar nazariyalari kabi tartibda berilgan. Maqolani oʻqish asosida interferensiya tushunchasi haqida yetarli bilim va koʻnikmalarga ega boʻlinadi.

Kalit soʻzlar: interferensiya, psixolingvistika, fonetik, grammatik, leksik birliklar, interlanguage, lahja.

Abstract: This article discusses the concept of interference, how this term originated, and the history of the study of the phenomenon of interference in linguistics. The information and theories collected on the basis of the study of the term interference are presented in the following order: the definition of the word interference in dictionaries, information about when it was first used, and the theories of linguists who have studied it over the years. Based on reading the article, you will gain sufficient knowledge and skills about the concept of interference.

Keywords: interference, psycholinguistics, phonetics, grammar, lexical units, interlanguage, dialect.

Абстрактный: В данной статье рассматривается понятие интерференции, как возник этот термин, а также история изучения явления интерференции в лингвистике. Информация и теории, собранные на основе изучения термина интерференция, представлены в следующем порядке: определение слова интерференция в словарях, сведения о том, когда оно использовалось, и теории лингвистов, изучавших его на протяжении многих лет. Прочитав статью, вы получите достаточно знаний и навыков о концепции вмешательства.

Ключевые слова: интерференция, психолингвистика, фонетика, грамматика, лексика единиц, межъязык, язык.

Interferensiya hodisasi keng qamrovli tushuncha bo'lib nafaqat tilshunoslik sohasida balki, boshqa sohalarda ham uchratishimiz mumkin, jumladan fizika, matematika, astronomiya. Psixolingvistikada esa interferensiya tushunchasiga ona tili birliklarini boshqa bir chet tili birliklarini o'rganish jarayonida ta'siri sifatida qaraladi.[1]

Interferensiya so'ziga Merriam-Webster lug'atida ot so'z turkumiga kiruvchi so'z sifatida fizika, astronomiya, sport, tilshunoslik sohasiga oid ma'no anglatuvchi so'z sifatida ta'rif berilgan. Jumladan :

- aralashish harakati yoki jarayoni, xalaqit beradigan narsa, to'siq;
- sportda raqibga noqonuniy to'sqinlik qilish;
- shovqin (atmosferaadagi) yoki bitta chastotadagi ikki yoki undan ortiq transmitterlarning signallari mavjudligi sababli qabul qilingan radio signalining chalkashligi;
- yangi o'rganishning ilgari o'rganilgan xatti-harakatlarga mos kelmaydigan bezovta qiluvchi ta'siri.

Bu borada tilshunoslik nuqtai nazaridan birinchi va so'nggi ta'riflar \a o'rganish obyektimizga xos ma'lumot sanaladi.

Ushbu so'zning kelib chiqishi esa 1783-yilga borib taqalishi hamda ilk bor u biron ish amalga oshishi uchun to'sqinlik qiluvchi ish ma'nosida qo'llanilganligi to'g'risida Merriam-Webster lug'atida ta'kidlab o'tilgan.[2]

Dunyoning to'rt tomoni uzra yoyilgan butun dunyo o'rgimchak to'ri -internetdagi barcha foydalanuvchilar tomonidan boyitiluvchi Wikipedia ma'lumotlarida esa interferensiyaga shunday ta'riflar beriladi: "—Bu juda qiziq va chiroyli manzara ma'lum shartlar bajarilganda, ikkita yoki

bir nechta to'liqlarning qo'shilishi natijasida kuzatiladi. Ikkita yorug'lik to'liqini qo'shib, bir-birini kuchaytiradi yoki susaytiradi".[3]

Interferensiya so'zining kelib chiqishi haqida shunday fikrlar ilgari suriladi : "Interferensiya" fenomeni uzoq vaqtdan beri mavjud ko'pgina tilshunoslarni qiziqtirgan sohalardan biri bo'lgan. "Interferensiya" atamasi lotinchadan olingan bo'lib, "inter" – o'zaro, "ferens (ferentis)" – tashuvchi degan ma'noni anglatadi.[4]

Interferensiya atamasiga turli tilshunoslar turli nuqtai nazardan tasnif berib, o'z ilmiy izlanishlariga ko'ra turlicha baho beradilar. Jumladan Nodira Safarova shunday ta'riflarni berib o'tadi: "Til o'rganish jarayonida o'rganuvchilari tomonidan yo'l qo'yiladigan fonetik, morfologik va leksik xatolar tilshunoslikda —interferensiya deb ataluvchi yangi bir tushunchani shakllantirdi. Bu tushuncha dastavval, fizika sohasida paydo bo'lgan. Interferensiya – lotin tilidagi —interfere – xalaqit bermoq so'zidan olingan".[5]

Yillar davomida tilshunoslikda interferensiya hodisasi faqat to'g'ridan-to'g'ri til aloqasi natijasida kelib chiqishi kuzatilgan. 19-asrning oxirida ko'p millatli davlatlarda tillarni o'rganish natijasida olimlar tillar bir-biriga ta'sir qiladi va tillar aralashadi degan xulosaga kelishdi. Garchi yoritiladigan mavzu uzoq vaqtlardan beri ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib chiqilgan bo'lsada, u bir qator sabablarga ko'ra dolzarbligicha qolmoqda. Qator izlanishlarga qaramay, interferensiya hodisasining ta'rihi haligacha bahsli bo'lib kelmoqda. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, interferensiya hodisasiga asosan salbiy ma'noda qaralar edi, vaqt o'tishi bilan uning tilga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikrlar paydo bo'ldi. Moxigul Murodovanning izlanishlariga ko'ra interferensiya hodisasining yana bir munozarali tomoni bu – tadqiqotchilar orasida interferensiya namoyon

bo'ladigan sohalarni belgilashdagi qarashlarning turlicha bo'lishi edi. Biroq an'analarga ko'ra, interferensiya fonetik, leksik va grammatik bo'lishi mumkin degan xulosaga kelishgan. 20 -asrning oxirida tilshunoslar bu hodisani tillararo (nafaqat ikki tilli, balki ko'p tilli) ham bo'lishi mumkinligi haqida gapira boshladilar.[6]

Xo'sh interferensiya hodisasi shu qadar munozarali hodisa ekan shu bugunga qadar qanday izlanishlar amalga oshirilgan degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Interferensiya atamasining qo'llanilish tarixiga nazar tashlasak, tilshunos Boduen de Kurtene ilk bora tillarning o'zaro ta'siri bo'yicha o'z fikrlarini bildirgan tilshunos olim sifatida tarixda qoldi, ammo "interferensiya" atamasi hali keng tarqalmagan o'sha vaqtlarda olimlar bu atamani tillarning o'zaro ta'siri natijasida nafaqat alohida til birliklarini o'zlashtirilishi bilan, balki umuman tillarning yaqinlashishi bilan ham ta'riflaganlar.[7]

Biroq Nodira Safarovaning fikriga ko'ra interferensiya hodisasi Boduen de Kurtene ilk bora qo'llaganidan ham necha asrlar ilgari mavjud bo'lgan ya'ni uning paydo bo'lishi ibtidoiy odamlar davriga borib taqalishi, ular muloqot uchun foydalangan jestlar interferensiyaning ilk ko'rinishi ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Tarixga nazar tashlasak, interferensiya hodisasining paydo bo'lishi ibtidoiy davrlardan boshlanganligining guvohi bo'lamiz. Biror bir qabila o'ziga qaraganda zaif bo'lgan boshqa bir qabila ustidan hukmronlik qilgan davrda, kuchsiz qabila ayollari va farzandlari asir (qul) sifatida olib ketilgan. Vaziyat taqozosi tufayli ikkita bir biriga notanish bo'lgan qabila vakillaring o'zaro muloqotga kirishlari zarur bo'lgan. Mana shu kabi holatlarda ular muloqot vositasi sifatida jestlardan foydalanishgan. Aynan shu jarayon interferensiya hodisasining ilk ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Ular yangi tilni o'zlashtirish barobarida o'z tillarini ham unutishmagan,

aksincha o'z tiliga solishtirilgan holda yangi tilni o'rganishgan. Shunday qilib ikki tillilik holatida ular bevosita tilmochlarga ham ehtiyoj sezishgan. Tilshunoslar bir tilni o'rgatish davomida turli to'siqlarga duch kelishgan, ya'ni so'zlashuv jarayonida o'z ona tiliga yaqin bir holatda so'zlarni talaffuz qilishgan. Bu jarayonda ular fonetik interferensiyaga duch kelishgan. Gap bolaklarining o'rin almashinish holatlari tufayli grammatik interferensiya paydo bo'lgan. Bevosita gap bo'laklariga qo'shimchalarni noto'g'ri qo'shish orqali sintaktik interferensiya vujudga kelgan. Og'zaki va yozma nutq jarayonida esa, so'zlardan kerakli o'rinda foydalana olishmasligi hisobiga leksik interferensiya hodisasini yuzaga keltirgan holatlarga duch kelishgan".[8]

Shuningdek Whitney 1881-yilda bir til yuzasidan ancha vaqt ilgari egallangan bilimning boshqa tildan foydalanish jarayonida qo'llash bu tillar aro interferensiya hodisasi deb ta'rif bergan bo'lsa ancha vaqt keyinroq Chomskiy bir til yuzasidan egallangan bilim hech qachon boshqa tildan foydalanish jarayoniga ta'sir etolmaydi. Ular mustaqil hodisalardir deb ta'rif bergan. Vaholanki bu borada Larry Sellinker ikki tildan foydalanish jarayonida birinchi tilning qonun - qoidalari hamda til birliklarini ikkinchi tilga tadbiq etish asnosida har ikki tilga ham notanish bo'lgan yangi bir talaffuz hosil bo'lishi haqidagi fikrni ilgari suradi. Hamda bu atamaga u "interlanguage " nomini beradi va bu atama 1972-yil Sellinker tomonidan qattiqlashish kabi tavsiflanadi va bu til na birinchi , na ikkinchi tilga xos bo'lmagan idiolekt holida ta'riflanadi.[9]

Mashhur tilshunos V.Vaynrayx tomonidan "Til aloqalar" [10] asari nashr etilgandan so'ng 1953 yilda "lingvistik interferensiya" tushunchasi paydo bo'ldi, keng ilmiy hodisa sifatida yuzaga chiqdi. Vaynrayx bir xil shaxslar tilni navbatma-navbat ishlatganda ikki tilli aloqa sodir bo'ladi,

bir nechta tillardan foydalanish natijasida ikki til normalarining aralashib ketishi kabi misollarga guvoh bo'lish mumkin degan xulosaga keldi.[11]

Interferensiyaning tilda voqealanishi borasida quyidagi tilshunos olimlar o'z izlanishlari bilan tilshunoslik tarixida chuqur iz qoldirdilar: ushbu borada ilk fikrlarni rus-polyak tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene bayon etgan bo'lsa, sharqiy lusatiya lahjasini tadqiq etgan Scherba 1915-yilda “Sharqiy Lusatiya lahjasi ” asari orqali davom ettirdi. Bu asar Scherbaning hayotiy kuzatuvlariga asoslangan bo'lib, unda tilshunos nemis va polyak tillari qorishuvidan paydo bo'lgan Mozakov lahjasi vakillari bilan ma'lum muddat yashagani va kuzatuvlari natijasida ushbu asar paydo bo'lgani haqida ma'lumotlar uchrab turadi. 1953-yilda V.Vaynreichning “Til aloqalari” asarida linguistik interferensiya borasidagi qarashlarida shunday yozadi: —Interferensiya bu ikki tillilik sharoitida til tizimlarining o'zaro ta'siri natijasidir, bu til aloqalari paytida yoki mahalliy bo'lmagan tilning individual rivojlanishi bilan rivojlanadi, birinchisining ta'siri ostida ikkinchi til tizimi normalarida sodir bo'ladigan o'zgarishlari ifodalanadi”. [12]

Shundan so'ng V.N.Yarseva, V.V.Alimov, V.V.Vaynreyx, A. Martin, X. Shuxardt, J. Munen interferensiyaga o'xshash yondashuvlar asosida fikr bildirdilar. G. Shuhard (1950), I. Valda (1961), V. V. Ivanova (1962), A. R. Lui Roy (1965), S. M. Ervina (1972) kabi tadqiqotchilar o'zlarining asarlarida interferensiya hodisasini turlicha tasniflashga harakat qildilar. Shuningdek R.Ladoning “Lingvistika va madaniyat” monografiyasi(1957), L. V. Shcherbaning “Tillarning aralashish konsepsiyasi to'g'risida”, E. Xaugen “ Til aloqasi“, Charls Xoket o'zining “Zamonaviy tilshunoslik kursi” kabi asarlari interferensiya tushunchasiga keng qamrovli ta'rif berish maqsadi ko'zlab yoritilgan

asarlar hisoblanadi. Ushbu asarida Xoket interferensiya hodisasiga qisqacha shunday ta’rif beradi:” —Interferensiya bu alohida hodisa emas, balki gapiruvchi tomonidan ona tilidagi birliklarni ikkinchi tilda qo’llab yuborishdan kelib chiqadi”. [13]

Yuqorida keltirilgan fikrlar, nazariyalarga asoslanib interferensiya bu ikkinchi tilni o’rganish jarayonida kelib chiquvchi e’tiborga molik holat ekanligini anglab yetishimiz mumkin. Xususan til o’rganish jarayonida ushbu holatni ertaroq anglab yetib unga yetarli choralar ko’rilishi ushbu holatni odat tusiga aylanib qolmasligini oldini oladi va sifatli til foydalanish ko’lami shakllanadi. Xususan fonetik interferensiya jarayoni ayniqsa til o’rganuvchilarning asl bilimini ko’zga chiqarib beruvchi jarayon hisoblanadi. Yakdil so’z bilan aytganda fonetik ineterferensiya so’zlovchining nutqini yuzi sanalib undan ijobiy foydalanish o’rganuvchining foydasiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Yormatova Yokuthon Nurmatovna. *THE CONCEPT OF INTERFERENCE AND ITS TYPES IN THE WORLD OF LINGUISTICS*. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 5, December - 2021 ISSN: 2749-361X
2. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/interference#nearby-entries>
3. Wikipedia <https://uz.m.wikipedia.org/wiki>.
4. Словарь иностранных слов: [свыше 21000 слов/отв.ред.: В.В.Бурцева, Н.М.Семенова]. 4-е изд., стер. – Москва: Русский язык Медиа, 2007 [т.е. 2006]. – 817,[2] с.

5. Nodira SAFAROVA. *TILSHUNOSLIKDA INTERFERENSIYA HODISASI VA UNING SHAKLLANISHI HAQIDA OLIMLARNING QARASHLARI*. UDK:811.523

6. Murodova Moxigul. *INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI*. SCHOLAR . Multidisciplinary Scientific Journal . ISSN: 2181-4147. VOLUME 1 | ISSUE 5| 2023. <https://t.me/openscholar.43-b>.

7. Бодуэн де Куртенэ И.А. *Фонология. Избранные труды по общему языкознанию*. – М.: Изд-во АН СССР, 1963. стр. 317.

8. Nodira SAFAROVA. *TILSHUNOSLIKDA INTERFERENSIYA HODISASI VA UNING SHAKLLANISHI HAQIDA OLIMLARNING QARASHLARI*. UDK:811.523

9. RAZIK EL MEHDI. *The Impact of cross-linguistic Interference on Moroccan EFL Learners*. Research paper submitted in partial fulfillment for the requirements of a B.A degree in Linguistics and ELT .2017-2018.p 6.30p.

10. Вайнрайх У. *Языковые контакты*. – Киев: Вища школа, 1979. - С.22

11. Вайнрайх У. *Языковые контакты*. – Киев: Вища школа, 1979. - С.22

12. Алишова, Р. К. *Грамматическая интерференция в английском и кыргызском языках* / Р. К. Алишова // Вестник БГУ им. К. Карасева. – Брянск, 2012. – № 1 (21). – С. 218-220.

13. Murodova Moxigul. (2023). *INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA VOQEALANISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI*. SCHOLAR, 1(5), 43–47. Retrieved from

<https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/1743>.

14. Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi. *The role of uzbek dialects on pronunciation of English language, problems and solutions*. AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN ISSN: 2996-511X (online) | ResearchBib (IF) = 9.512 IMPACT FACTOR Volume-1 | Issue-2 | 2024 Published: | 25-08-2024 |.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA O‘QITUVCHINING O‘RNI VA AXLOQIY SIFATLARINING AHAMIYATI

Gapparov Bexzod Nematillaevich

Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

Email: bexzodgapparov132@gmail.com

Tel: +998 (99) 556-06-50

Narzullayev Dilshod Yusuf o‘g‘li

Jizzax politexnika instituti 1-bosqich talabasi

Email: narzullayevdilshod06@gmail.com

Tel: +998 (93) 193-07-56

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotini, xalq hayotini ilmsiz tasavvur etib bo‘lmas ekan, ana shu taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, yoshlarga ilm ziyosini taratuvchi quyosh o‘qituvchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Zero, o‘qituvchi azal-azaldan xalq hayotida, jamiyat taraqqiyotida markaziy o‘rinni egallab kelgan.

Аннотация: В этой статье мы не должны забывать, что развитие общества и жизнь народа невозможно представить без науки, и что движущей силой этого развития, солнцем, озаряющим молодежь светом знаний, является наука. учитель. Ведь учителя всегда занимали центральное место в жизни людей и развитии общества.

Abstract: In this article, since it is impossible to imagine the development of society and the life of the people without science, we must not forget that the driving force of this development, the sun that spreads the light of science to the youth, is the teacher. After all, the teacher has always occupied a central place in the life of the people and the development of society.

Kalit soʻzlar: “Avesto”, Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, tosh bitiklar, buyuk adiblar, allomalarning ijodiy merosi, xalqimizning milliy anʼanalari, udumlari, marosimlar.

Ключевые слова: «Авеста», Священный Коран, Хадис Шариф, каменные надписи, великие писатели, творческое наследие ученых, национальные традиции, обычаи, обряды нашего народа.

Keywords: "Avesta", the Holy Quran, Hadith Sharif, stone inscriptions, great writers, the creative heritage of scholars, national traditions, customs, rituals of our people.

Kishilarning bilimi, amaliy malakalarimizsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib boʻlmaydi. Darhaqiqat, buyuk pedagog A.Avloniy “Taraqqiyot ilmdandur”, - deb bejiz aytmaganlar, albatta. Avloniy: “Ilm bizni jaholat qorongʻusidan qutqarar, madaniyat, insoniyatni maʼrifat dunyosiga chiqarur, yomon feʼllardan, buzuq ishlardan qaytarur. Yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, mayishatimiz himmatimiz, gʻayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bogʻliqdur”, - deb ilmning xalq hayotida, jamiyat rivojlanishida tutgan oʻrnini alohida eʼtirof etadi. Yana shuni alohida taʼkidlash kerakki, ilm oʻz-oʻzidan paydo boʻlmaydi. Uning yaratuvchisi, ijodkori va tarbiyachisi oʻqituvchidir. Oʻqituvchi oʻquvchilarni bilimli qilish uchun, avvalo, ularning aqlini charhlaydi, fikrini tarbiyalaydi. Zero, bu haqda ham Avloniy: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, koʻp zamonlardan beri taqdir qilinib

kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyanan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir”, - deydi. Yana A.Avloniy bu haqda shunday yozadi: “Fikr insonning sharofatli, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga shu darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘likdur”. Dars ila ikkisi bir-biridan ayrilmaydurg‘on, birining vujudi biriga joylashg‘on.

O‘z vaqtida bu borada I.A.Karimov shunday deganlar: “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak”.

Demak, jamiyat taraqqiyotini, xalq hayotini ilmsiz tasavvur etib bo‘lmas ekan, ana shu taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch, yoshlarga ilm ziyosini taratuvchi quyosh o‘qituvchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Zero, o‘qituvchi azal-azaldan xalq hayotida, jamiyat taraqqiyotida markaziy o‘rinni egallab kelgan.

Xalkimiz ustoz-shogirdlik munosobatini, ya‘ni ustozning shogirdga mexri-yu, shogirdning ustozga hurmat-ehtiromini eng yuksak, eng pokiza xislat, ma‘naviy kamolot, komillikka yetkazuvchi olijanob fazilatlarning asosiysi deb biladi va bu munosobatni ota-bola, ona-bola munosobatiga o‘xshatadi. Darxakikat, ustoz ham xuddi ota kabi shogirdining unib-o‘sishi, kamolotga erishuvi, ilm-ma‘rifat cho‘qqilarini zabt etishiga yordam beradi. O‘zining umrini, sog‘ligini, butun borlig‘ini, tajriba va bilimini shogirdining kelajagi uchun sarf etadi. Yutug‘idan quvonadi, kamchiliklaridan kuyinadi, shogirdi uchun zahmat chekadi.

Xalqimizning ustozni ulug‘lashida hikmat ko‘p. Shogirdining yutug‘idan boshi osmonga yetib quvongan ham, muvaffaqiyatsizligidan undan ham ko‘p iztirob chekkan kishi ham shu – ustoz, murabbiy. Xalqimiz orasida ustozning nufuzi, yoshlarga, nafaqat yoshlarga,

hammaga ta'siri kuchli bo'lgan. Ularga xuddi ota-onalar kabi izzat-ikrom ko'rsatilagan. Bunga hayotdan, tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, sohibqiron bobomiz Amir Temur o'z ustozlari, diniy pirlari Said Barakani nihoyatda e'zozlaganlar va o'z vafotlaridan oldin o'lganlaridan keyin o'z tobutlarini ustozlarining oyoq tomoniga qo'yishlarini vasiyat qilganlar. Hazrat bobomiz Alisher Navoiy ham ustozlari Lutfiy, Kamol Turbatiy, Sayid Hasan Ardasher, Ho'ja Anzorlarga hurmatlari g'oyatda baland bo'lgan. Hatto, «Astrabod fitnasi»dan keyin Hirotga qaytgan Navoiy Husayn Boyqarodan ustozlarining qabrida "jo'rubkashlik" qilib yurishga ruxsat berishlarini iltimos qilganlar. Bu buyuk bobomizning o'ta kamtarliklaridan va o'z ustozlariga bo'lgan beqiyos ehtiromlaridan dalolat beradi.

Buyuk olim, podshox, astronom Ulug'bek Mirzoning nomi Yevropaga va Yevropa orqali butun dunyoga tarqalishiga ham uning sevimli shogirdi, taniqli olim Ali qushchi sababchi bo'lganligi sir emas.

Xalqimizning bu go'zal an'anasi xalq og'zaki ijodida ham ifodasini topgan. Buni quyidagi misollarda ko'rish mumkin:

Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

Ustozlar aqli - donolar naqli.

Ustoz-oy, shogirdga berar chiroy.

Ustoz-quyosh, yoshlarga bo'lar bosh.

Ustoz o'giti-kamolot kaliti.

Ko'pchilik xalq dostonlarida ham ustoz-shogirdlik an'anasi o'zining yorqin ifodasini topgan:

Mehrlardan gilam qilib to'shayin,

Shogirdlarga mehribondir, ustozlar.

Gavharim deb qo'shig'imga qo'shayin,

Nur ustiga nur bergandir, ustozlar.

Odamzodning ustozini so‘rashar,
Ustoz ko‘rgan shogird deydi ming yashar.
Ustozlarni ustun bilgan bu bashar,
Zaru himmat bera olgan ustozlar.
(Abduqodir baxshi. “Ustozlar” termasi).
Ustozim qo‘shikka vir ummon edi,
Shogird tushganlarga mehribon edi,
Menga doston ta’lim aylagan edi,
So‘z gavharin ustozimdan o‘rgandim.
(Xalq shoiri Raxmatilla Yusuf o‘g‘li).

Ustozlarga hurmat-ehtirom xalq baxshilari, ertakchilari, qo‘shiqchilarining barisida uchraydi. Xalq og‘zaki ijodida ustoz-shogirdlik munosobatlari, ularning hunar bobida bellashuvlari, o‘z ustozidan o‘tib ketgan shogirdlar mahoratini tasvirlovchi: “Ikki naqqoshning ishi”, “Sirli gilam”, “Vafo”, “Shogird”, “Baxil usta”, “Ustozdan o‘tgan shogird”, “Donishmand ustoz”, “Ustozimning nabirasi”, “Ustoz va shogird” kabi afsona, rivoyat va ertaklar bag‘oyat ko‘p va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari badiiy adabiyotda ham xalqimizning ustoz-shogirdlik munosobatini aks ettiruvchi go‘zal an‘analarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan, Mirmuhsinning “Me‘mor” romanida buxorolik mashhur me‘mor Najmiddin Buxoriyning shogird tanlashda o‘ziga xos sinovi bor ekan. U shogirdlikka da‘vogar bo‘lib kelgan yigitni qahraton qishda sovuq bir hujrada qoldirar ekan. Hujrada bitta to‘nka va bir chelak suvdan boshqa hech narsa bo‘lmas ekan. Ertalab hujrani ochganda me‘mor ahvolga qarab, yigitni shogirdlikka olgan yoki olmagan. Me‘mor nimani sinovdan o‘tkazgan? Yigitning aql-farosatini. Aql-farosatli bo‘lsa, chelakdagi suvni yerga sepgan. Muzlagan yerda to‘nkani yumalatib ertalabgacha yugurib

chiqqan, harakat qilgan. Aql-farosati bo'lmasa, sovuqda muzlab qolgan. Xalq pedagogikasida xalqimizga xos an'analarning deyarli hammasida shogird tanlashda asosan uning aql-farosati sinovdan o'tkazilgan.

Beruniy bilim olishda tolibi ilm va ustozlarga poklikka rioya etishni uqtiradi. U jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'lik degan g'oyani ilgari suradi. Bilim olish uchun inson, avvalo, ahloqli bo'lishi kerak deydi. Yuksak ahloqlilik komillikning muhim mezoni ekanligini ta'kidlaydi. Beruniyning fikricha, ahloqlilik o'qituvchining eng asosiy sifati bo'lishi kerak.

Ilm bilan shug'ullanuvchi kishilar, jumladan, o'qituvchilar yomon urf-odatlardan, hirsdan, noo'rin raqobatdan, ochko'zlikdan, shon-shuhratdan saqlanishi zarurligini uqtiradi.

Beruniy barcha ahloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo'ladi: u ahloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, sahovat, olijanoblik, do'stlik, hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklikka, go'zallikka intilishni o'rgatadi.

A.Navoiy ta'lim-tarbiya ota-ona va o'qituvchi tomonidan olib borilishi kerak deydi. U bolalarga jismoniy jazo berish kerak emas, ularga xushmuomala bo'lish kerakligi va bunda me'yordan oshmaslik zarurligini uqtiradi. Navoiy o'qituvchi talabchan bo'lishi kerakligi, lekin me'yorni bilish zarurligini aytadi. U: "qobiliyatlilarni tarbiya qilmaslik zulmdir va qobiliyatsizga tarbiya hayf. Uni tarbiya qilmaslik bilan nobud qilma", - deydi. U: "O'qituvchi o'z shogirdlarini ham, o'z fanini ham sevishi kerak. O'ziga ham, shogirdlariga ham talabchan bo'lishi kerak", - deydi.

Fitrat: o'qituvchining ahloqini birinchi o'ringa qo'yadi: u ahloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasigagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmaslik kerak deb biladi.

Furqat bolalarni tarbiyalashda asosiy usul - ishontirish ekanligini ta’kidlaydi.

Ahmad Donish o’qituvchilik kasbi haqida fikr yuritganda hloq masalasiga katta e’tibor berganini ko’ramiz. U o’qituvchini talabalarga kuchli ta’sir etuvchi deb biladi. Shuning uchun u o’qituvchilarning nopok niyatda bo’lishi g’oyatda zararlidir. Chunki ular o’zlaridagi ahloqiy buzuqliklarni yosh avlodga tarqatadilar deb uqtiradi. U o’qituvchining ahloqiy qiyofasini birinchi o’ringa qo’yadi. O’qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o’ringa qo’yishni talab etadi. O’qituvchi o’z ustida ishlashi, ularga ko’proq bilim berishi kerakligini uqtiradi. Ahmad Donish o’qituvchilik kasbiga juda katta talab qo’yadi. U go’zal ahloqlilik va chuqur bilimlilik o’qituvchining asosiy fazilati bo’lmog’i kerak, deydi. Ahmad Donish o’qituvchini yoshlar o’rtasida ilm, ziyo sochuvchi ma’rifatparvar timsoli deb biladi va ushbu hislatga ega bo’lgan murabbiy ustozlarni ulug’laydi.

Jaloliddin ad-Dovoniy esa o’zining “Ahloqi Jaloliy” asarida ota bilan muallimning tarbiyaviy xislatini qiyoslar ekan, u muallimning tarbiyalash usuli otaning usulidan yuqori ekanligini aytadi: “Iskandardan so’rabdilar: otani yaxshi ko’rasanmi yoki ustozni. U javob beribdi: Ustozni. Chunki ota o’tkinchi hayot sababchisidir”.

Yuqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, xalqimiz, allomalarimiz ota-bola munosabatlarining tarbiyaviy ta’siridan ham ustoz-shogirdlik munosabatlarining ta’siri kuchli ekanligi qayta-qayta e’tirof etishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sa’diy, “Guliston”, Toshkent – 1963 yil, 56-58- betlar.
2. Koshifiy “Ahloqi Muhsiniy”, 77- bet.
3. A.Avloniy. “Turkiy guliston yohud ahloq”, T.-1992 yil, 13-15 betlar.

4. I.A.Karimov “Milliy mafkuramiz xalqni xalk, millatni millat qilishga xizmat qilsin”. “Tafakkur” jurnali, 2-son, 1998 yil.
5. M.Murodov. Oltin sandiq ochildi. T., “O‘qituvchi”, 1994 yil, 35-bet.
6. A.Navoiy “Maxbub ul-qulub”, Toshkent, 1966 yil, 15-tom, 17-bet.
7. “Ahloqi Jalolliy”. O‘zbekiston FA, qo‘lyozmalar fondi (Sharqshunoslik instituti), 146-bet.
8. G.A.Haydarova, K.Pardaeva, B.N.Gapparov “Xalq pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2009 yil.

TARJIMA NAZARIYASINI METODIK SHAKLLANISHIDA OLIMLARNING QO‘SHGAN HISSASI

Boltaboyeva Ma’rifatxon Baxromjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

Azimov Samandar Murodjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

E-mail: azimovsamandar196@gmail.com

Tel: +998939482277

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima nazariyasini o‘qitishda metodikaning o‘rni, ahamiyati, tahlili haqida so‘z yuritiladi. Metodik yondashuvlar orqali tarjima jarayonini tushunish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish rollari. Lingvistik va madaniy tafovutlarni o‘rgatish va tarjimonning metodikasini ham oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Tarjima nazariyasi, metodika, yondashuv, tarjima kompetensiyasi, lingvistik tafovutlar, malaka, usul, mazmun, o‘qitish jarayoni, pedagogik yondashuvlar.

Аннотация: В этой статье обсуждается роль, значение и анализ методологии в преподавании теории перевода. Роль методологических подходов в понимании процесса перевода и развитии практических навыков. Она направлена на обучение языковым и культурным различиям, а также на улучшение методологии переводчика.

Ключевые слова: Теория перевода, методология, подход, переводческая компетентность, языковые различия, компетентность, метод, содержание, процесс обучения, педагогический подход.

Abstract: This article discusses the role, importance, and analysis of methodology in teaching translation theory. The role of methodological approaches in understanding the translation process and developing practical skills. It aims to teach linguistic and cultural differences and also improve the methodology of the translator.

Keywords: Translation theory, methodology, approach, translation competence, linguistic differences, competence, method, content, teaching process, pedagogical approach.

Tarjima davlatlar o'rtasidagi aloqa vositasi zero tarjimasiz o'zga tillik biror inson bilan muloqot qila olmaymiz. Tarjimaning tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. VI asrlardan Sug'd, Pahlaviy tillaridan Turkiy tillarga bo'lgan tarjima esa buning yaqqol dalilidir. Tarjimashunoslik alohida fan sifatida shakllandi. Samoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar davrida tarjimashunoslik san'ati davom etadi va XV asr Temuriylar davriga kelib tarjimashunoslik taraqqiy cho'qqisiga erishadi. Bu davrlar mobaynida Qur'on tafsirlari, hadislar tarjimasiga e'tibor qaratiladi yana boshqa asarlardan "Kalila va Dimna", "Ming bir Kecha", "Shohnoma", asarlari ham uch –to'rt marotabadan O'zbek tiliga tarjima qilinadi.

Tarjima soʻzi fors tilidan olingan boʻlib “tarzabon” yaʼni chiroyli soʻzlovchi, notiq, tili burro kishi degan maʼnolarni anglatadi. Soʻz Arab tiliga “tarjumon” shaklida qabul qilingan, undan “tarjuma” yoki “tarjima” hosil boʻlgan. Lekin XX asrga kelibgina badiiy ijodning bir turini ifoda etuvchi soʻzga aylandi. Tarjima nafaqat bir yoʻnalish balkim sanʼat hisoblanadi. Agarda buning ustasi boʻlsa unda hech ham ikkilanmay nima tarjima qilishidan qatʼi nazar biz aslidagi kabi oʻqiy olamiz va unda kamchiliklar qolganlarinikiga qaraganda kamroq boʻladi. Tarjimon faqatgina tarjimon boʻlibgina qolmay u oʻz navbatida metodist, filolog ham boʻlishi kerak. Tarjima qilayotgan davri mobaynida tarjimondan mahorot talab etiladi. Iqtisodiy, siyosiy, tibbiy, ijtimoiy bilimlarning har birini ilmiy va publitsistik terminlardan toʻla foydalana olsa tarjimon samarali tarjima qiladi. Tarjima nazariyasini va amaliyoti oʻqitishda metodikani oʻrniga ahamiyat berishimiz ham muhim. Metodika va uning tarjimashunoslik bilan oʻrni bogʻliqligi haqida olimlarning fikrlarini koʻradigan boʻlsak, hozirgi zamon tarjima metodikalari Salomov va Jalolovning ilmiy yondashuvlari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ular lingvodidaktik tamoyillarga asoslanadi. Zamonaviy tarjima metodikasi nafaqat anʼanaviy soʻzma-soʻz va erkin tarjima usullarini oʻz ichiga oladi, balki kommunikativ, funksional va kognitiv yondashuvlarni ham qamrab oladi.

Salomov tarjima jarayonini til oʻrganishning muhim qismi sifatida koʻradi. Bugungi kunda kommunikativ yondashuv tarjima metodikasining markaziy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv tarjimani real hayotiy vaziyatlarda qoʻllashga yoʻnaltirib, tarjimonning muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, audiovizual tarjima (subtitrlash, dublyaj) va sinxron tarjima amaliyoti

kommunikativ metodikaga asoslangan bo'lib, tarjimonning nutq va tafakkur tezligini oshirishga yordam beradi [1].

Jalolov metodikani tarjima jarayonining ilmiy va amaliy asoslarini shakllantirish vositasi sifatida ko'rgan. Hozirgi tarjima metodikasida kognitiv yondashuv tarjimon tafakkuri va tarjima jarayonidagi qaror qabul qilish mexanizmlarini o'rganishga asoslangan. Bu usul tarjimonning bilim bazasini kengaytirish, madaniy kontekstni to'g'ri tushunish va turli pragmatik omillarni hisobga olish orqali tarjima sifatini oshirishni ko'zda tutadi. Tarjima nazariyasida funksional yondashuv ham muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, tarjima faqatgina til birliklarini to'g'ri almashtirish emas, balki matnning funksional maqsadini saqlab qolishdir. Salomov va Jalolov ham tarjimada kontekst va matn turiga mos metodikani tanlash zarurligini ta'kidlagan. Zamonaviy metodikalarda skopus nazariyasi (maqsadga yo'naltirilgan tarjima) aynan shu printsipga asoslanadi. Salomov va Jalolovning tarjima metodikasi bo'yicha fikrlari hozirgi zamonaviy yondashuvlar bilan bevosita bog'liq. Hozirgi tarjima metodikalari kommunikativ, kognitiv va funksional yondashuvlarni o'z ichiga olgan holda, tarjimonning lingvistik, madaniy va pragmatik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bularning barchasi tarjimon tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va tarjima jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi[2].

V. Komissarov tarjima jarayonini lingvistik jihatdan tahlil qilish tarafdori bo'lgan. U tarjimani faqat grammatik va leksik birliklarni almashtirish jarayoni sifatida ko'rmay, balki pragmatik kontekstni ham hisobga olish kerakligini ta'kidlagan. Uning fikricha, tarjima jarayonida ekvivalentlik darajalari mavjud bo'lib, tarjimon ularning har biriga mos yondashishi lozim. Hozirgi metodikalarda tarjima jarayonida kontekst

va madaniy jihatlarni hisobga olish aynan Komissarov yondashuvi bilan bog'liq. E. Nayda tarjima jarayonida dinamik ekvivalentlik muhimligini ilgari surgan[3]. U tarjimada har doim so'zma-so'z yondashuvlar qo'llash mumkin emas deb takidlagan, chunki turli tillardagi matnlar turli madaniy qatlamlarga ega ekanligi tarjimon uchun sir emas. Zamonaviy tarjima metodikalarida, ayniqsa, audiovizual tarjima va adabiy tarjimada Naydaning dinamik ekvivalentlik nazariyasi keng qo'llaniladi. H.Vermeerning skopus nazariyasiga ko'ra, tarjimaning asosiy maqsadi u qanday vazifani bajarishi lozimligiga bog'liq[4]. Bu yondashuv zamonaviy tarjima metodikalarida biznes tarjima, hujjat tarjimasi va texnik tarjima sohalarida keng qo'llaniladi. E.Venuti[5] tarjimon faqatgina til birliklarini almashtiruvchi emas, balki mustaqil ijodkor sifatida qaralishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarjimon matnni nafaqat til, balki madaniyat nuqtayi nazaridan ham interpretatsiya qilishi lozim. Bu yondashuv zamonaviy adabiy tarjima va san'at asarlarini tarjima qilish metodikasida muhim o'rin egallaydi. Salomov va Jalolovdan tashqari ham tarjimashunoslik sohasiga o'z hissalarini qo'shgan, izlanishlar olib borgan va o'z ijodiy faoliyat davrini yuksak darajada tarjima san'atini rivojlantirishga qaratgan olimlar yetarlicha va ularning har biri tarjimashunoslikda tarjima qilinayotgan asarning u nima bo'lishidan qat'i nazar uning ma'no jihatdan bog'liqligi, asarning qay darajada o'z ona tilida yozilgandek ma'noni chiqarib berish, va shu kabi muhim jihatlarda ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tarjima metodikalari ko'plab olimlar tomonidan taklif qilingan yondashuvlar bilan boyitilgan. Salomov va Jalolov nazariyalari lingvistik va didaktik jihatdan muhim bo'lsa, Komissarov, Nayda, Vermeer[6] va Venuti kabi tarjima nazariyotchilari tarjimonning roli, ekvivalentlik, pragmatika va maqsadga yo'naltirilgan tarjima tamoyillariga urg'u berishgan. Bugungi

tarjima metodikalari aynan shu yondashuvlar asosida rivojlanib, tarjima jarayonini nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nuqtayi nazaridan ham tahlil qilmoqda. Tarjimashunoslikda barcha jihatlarni hisobga olib uni faoliyat jarayonida qo'llash tarjimondan yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni va qaysi xalqning asarini asliyatdek tarjima qilishni istasa tarjima jarayonida o'sha xalq kabi bo'lishi kerak, shundagina tarjimon o'z maqsadga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salomov, G. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. T. (1983). B. 124
2. Jalolov, J. J. Chet tillarini o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan. (2012). B. 128
3. Azimov S.M. The place and significance of the english language worldwide international journal of scientific researchers (ijsr) indexing <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/3407>
4. Azimov S.M., Darvishaliyeva Learning a new language difficulties and solutions. T.: (2024). https://scholar.google.com/scholar?hl=en&assdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=#d=gs_qabs&t=1740317134263&u=%23p%3DD3NDBmmLA38J
5. Mamadaliyeva S.A., Azimov S.M. Methods of teaching english for secondary shool students during the era of modernization. T.: (2024). https://scholar.google.com/scholar?hl=en&assdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=#d=gs_qabs&t=1740317308827&u=%23p%3DXh9L3mjnx7EJ
6. Azimov S.M. , Abdumuminova D.K. Xorijiy tillarni o'quvchilarga o'rgatishda metodik usul va yondashuvlar hamda o'qituvchining psixologik bilimi T.: (2024)

https://scholar.google.com/scholar?hl=en&as_sdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=Azimov+#d=gs_qabs&t=1740318914948&u=%23p%3DaIEM4Pu6JaoJ

7. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: 1990 Высшая школа.
8. Nida, E. A. Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating. Leiden: 1964. Brill.
9. Vermeer, H. J. Skopos and Commission in Translational Action. In Chesterman, A. (Ed.), Readings in Translation Theory. Helsinki: 1989 Finn Lectura.
10. Venuti, L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. London: 1995 Routledge.
11. Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: 1992. Routledge.
12. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: 1988 Prentice Hall.

SHAYBONIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT

Baxtiyor Ataxonov Turabayevich

Namangan davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti

Tojimirzayeva Azizaxon Abdurashid qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Tarix yoʻnalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Shayboniylar davri Movarounnahr tarixida siyosiy barqarorlik va madaniy yuksalish davri sifatida alohida oʻrin tutadi.

Ushbu davrda ilm-fan, adabiyot, san'at va hunarmandchilik sohalarida sezilarli rivojlanish kuzatildi. Madrasa va kutubxonalar faoliyati tufayli bilim olish imkoniyatlari kengaydi. Shoirilar va olimlar tomonidan yozilgan asarlar islomiy madaniyatning chuqur ildizlarini va mahalliy an'analarni aks ettirdi. Ushbu davr madaniy hayotida Alisher Navoiy ijodiy an'analari davom ettirilib, ko'plab asarlar yaratildi. Shayboniylar davri Movarounnahr madaniy merosining boyib borishiga va keyingi avlodlar uchun qimmatli asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi.

Kalit so'zlar: Shayboniylar, madaniy yuksalish, Movarounnahr, ilm-fan rivoji, madrasa va kutubxonalar, adabiyot, san'at, islomiy madaniyat, shoirilar va olimlar, madaniy meros, tarixiy taraqqiyot.

KIRISH. Amir Temur va Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda rivojlangan yuksak madaniyat an'alarini Shayboniylar davom ettirdilar hamda ma'lum ma'noda ularning yanada boyitdilar.

Bu davrda: adabiyotning turli janrlarida, tarixnavislik, xattlik san'ati, epigrafiya, me'morchilik va madaniyatning boshqa bir qator sohalarida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Butun o'rta asr davrida bo'lganidek, bu davrda ham boshlang'ich ta'lim beradigan maktablar hamda diniy va dunyoviy bilimlar beradigan jamiyatga o'qimishli, bilimlilar kishilarning tayyorlab beradigan madrasalar mavjud bo'lib ularda o'qish 3 bosqichda bo'lgan va 21 yil davom etgan.

Shayboniylar ta'limni rivojlantirish maqsadida islohot o'tkazdilar. Xonga barcha ilmiy diplomatik qobiliyatga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra: Ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Bolalarga 6 yoshdan ta'lim beriladigan bo'ldi. Maktabda 2 yil o'qigach o'quvchilar madrasaga o'tkazilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Shayboniylar davri tarixini o'rganish o'rta asrlardan toki bugungi davr tarixchi, adabiyotshunos olimlari tomonidan tadqiq etilmoqda. Xususan, Muhammad Solihning "Shayboniynoma"[1], Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" [2] Movarounnahrning XVI asrdagi tarixiga bag'ishlangan tarixiy asar. Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", (yoki "Sharafnomai shohiy") ning asrlarida[3] yoritilgan. Shuningdek, "XVI asr tarixini yoritib beruvchi "Tavorixi guzidai nusratnoma", Mulla Shodiyning "Fathnoma", Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asror", Fazlulloh Ro'zbekxonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoi ul vaqoye", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir. Maqolani yozishda Akademik A.Asqarov rahbarligida yozilgan "O'zbekiston tarixi" risolasining I jildida [8. B. 242-244], akademik A.Sagdullayevning rahbarligidagi "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti (I-qism) [9. B.167-169] nomli kitobida, N.Botirovning "Shayboniylar davrida ilm-fan taraqqiyoti hamda madaniy hayot uyg'unligi" [6] nomli maqolasi, Z.Fayzirahmonovanning "Shayboniylar davriga oid manbalar tahlili" [10] nomli maqolalari o'rganib, qiyosiy tahlil qilindi. Maqolani yoritishda yuqoridagi ko'rsatilgan manbalarga tayanib, tarixiylik, induktiv va deduktiv tahlillar amalga oshirildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

XVI asrda: Samarqandda Shayboniyyon, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh kabi qator madrasalar hamda boshqa ta'lim muassasalari qurildi va faoliyat yuritiladi. Shayboniylar davrida ilm-fanga oid: Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minning "Xudoni amali shabaka" (1550) Bobokalon mufti Samarqanqandiy"Risola

dar ilmi hisobi,"Vasiyat bar chart qismi", Muhammad Husayn Munajjim Buxoriy"Ma'rifati samtii qibla" va boshqa asar aniq fanlar sohasidagi yuksalishlar dam dalolat beradi. Tibbiyot sohasida yozilgan asar: Sultonali Samarqandiyning "Dastur-ul iloj", Muhammad Yusuf Qahhorning "Taqiq -al Humayyot", "Zubdal- ul Qahholiy" asarlarini, Ubaydulloh Qahhol ibn Muhammad Yusufning ; " Shifo -ul ulal" (Kasalliklar davosi) va "Unday -ul kuhliy fil- amrodul basariy"(Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob) asarni aytish mumkin. Bu asarlarda ilgari surilgan davo uslublari tashis qo'yish dorilar tayyorlash o'rta asr ilg'or tibbiyot an'analari XVI-asrgacha davom ettirganligidan dalolatdir.[9. 169 bet]

Shayboniylar davrida ko'p asarlar o'zbek tilida tarjima qilingan. XVI asrda Xattotlik san'ati juda yuqori darajada rivojlandi Sultonali Mashhadiy Mir Ali Xiraviy Muhammad ibn Is'hoq Ash Shihobiy va boshqalar mashhur husnixat ustalari edilar.

Shayboniylar davrida adabiy hayotda yuksalish adabiyoning turli janrlarni rivojlanishi davom etdi. Adabiyot maydoniga dastlab Muhammad Solih Xo'ja Afsadiy Vosifiy Majlisiy Nahliy Baqoiy Shaydo Oshiq Aziziy Nisoriy Mushfikiy Ubaydiy va boshqa ko'plab so'z san'atkorlari o'z ijodi bilan nom qozondilar. O'zbek va Tojik mumtoz adabiyotini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bu adabiyot vakillari Boburiylar hukmronlik qilayotgan Hindiston shuningdek Eron Turkiya Ozarbayjon va Sharqiy Turkistondagi ijodiy aloqalar mavjud edi. Bu davrda yaratilgan adabiy asarlar ichida Buxorolik adabiyotshunos olim shoir saroyda Malik ush-shuaro deb ulug'langan Hasanxo'ja Nisoriy (1516-1597) ning "Muzakkiri ahbob", (Do'stlar yodnomasi) asari muhim ahamiyatga ega.

Shayboniy Abdullaxon II ga bag'ishlangan asar: Davlatshoh Samarqandiyning Tazkirat ush-shuaro va Alisher Navoiyning Majolis un-nafois asardan keyingi"Uchinchi teakira hisoblanadi va XVI asrda O'rta Osiyo Eron va Hindistondagi adabiy muhitni adabiyotning boshqa masalalarini yoritishda muhim o'rin tutadi[3. 235-b].

Muhammad Shayboniyxon ayni paytda She'riyat bilan ham shug'ullangan. U o'zidan yuqori saviyalik badiiy asarni meros qilib qoldirgan. Uning asarlari bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlariga olib ketilgan. Masalan:"Devon" ni Istanbul shahri kutubxonasida saqlanib kelmoqda. Muhammad Shayboniyxonning jiyan Udaydullaxon o'ziningvg'azal ruboiy qit'a va tuyuqlari bilan she'riyat taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. U fors va arab tillarini yaxshi bilgan hamda shu tillarda ijod qilgan. O'zbek fors arab tillaridagi she'rlarini 3 devonda to'plagan. Keyinchalik ular" Kuliyot" deb nomlangan.[6. 1927-B]

Bu davrda ko'plab tarixiy asarlar yaratilib o'rta asr musulmon tarixnavisligidagi yetakchi an'analar davom ettirdilar. Sulola asoschisi Shayboniyxonga uning vorislariga atab bir necha yirik tarixiy asarlar yaratildi.

Bular ichida: XVI asr tarixini yoritib beruvchi "Tavorixi guzidai nusratnoma", Mulla Shodiyning "Fathnoma", Binoiyning "Shayboniynoma", Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Abdulloh Nasrullohning "Zubdat al-asror",Fazlulloh Ro'zbekxonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoi ul vaqoye", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" kabi mumtoz tarixiy asarlari fikrimiz dalilidir [10. 383-B].

XVI asrda yaratilgan Zayniddin Vosifiyning "Badal-ul vaqoe", (Nodir voqealar) Z.M Boburning "Boburnoma" asarlari ham

Shayboniylar davrida tarixnavisligidagi yetakchi an'analar haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlardir.

Shayboniylar davrida Movarounnahr va Xuroson tarixiga oid fors tilidagi tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish ishlari ham olib borildi. Xususan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Ko'chkunchixonning topshirig'i bilan o'zbek tiliga tarjima qilinganligi ham Shayboniy hukmdorlari milliy til ravnaqi uchun qayg'urganlaridan dalolatdir[9 169-b].

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida madaniy hayotning umumiy jihatlar:

Har ikki davrda ham islomiy ilmlar, madrasalar va masjidlar markaziy rol o'ynagan.

Har ikkala sulola davrida ham Samarqand va Buxoro madaniy markaz bo'lib qolgan.

Temuriylar davri merosi madaniyatning rivojlanishiga asos bo'lgan.

Farqlari:

Shayboniylar davrida madaniy hayot nisbatan faolroq bo'lgan va turli sohalarda katta yutuqlarga erishilgan.

Ashtarxoniylar davrida esa siyosiy parokandalik sabab madaniy rivojlanish sekinlashgan. Shu sababdan, bu davrda madaniyat ko'proq diniy yo'nalishga qaratilgan edi.

Bu jihatlar ikki sulola davri madaniy hayotining umumiy manzarasini beradi.

XULOSALAR

Shayboniylar davri Movarounnahr madaniy hayotining yuksak bosqichlaridan biri bo'lib, ilm-fan, adabiyot va san'atning rivojlanishida muhim o'rin egalladi. Bu davrda yaratilgan asarlar va tashkil etilgan

ilmiy muassasalar xalqning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Shoir va olimlarning ijodiy faoliyati o'zbek madaniyatining yangi qirralarini kashf etdi. Shayboniylar o'z homiylik siyosati bilan madaniyat va ilm-fan rivojiga ko'maklashdi, natijada boy madaniy meros shakllandi. Bu meros bugungi kunda ham milliy g'ururimizning asosi bo'lib, bizni tariximizga va madaniy ildizlarimizga hurmat bilan qarashga undaydi. Shayboniylar davri faqat o'tmish emas, balki kelajak uchun ham buyuk saboqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Solih. "Shayboniynoma", Toshkent, 1961
2. Zamonov A.. Buxoro xonligi tarixi: metodik qo'llanma. Toshkent: Bayoz, 2021 — 264-bet.
3. Ahmedov B., Munirov K, Hofiz Tanish Buxoriy, T., 1963.
4. N.M.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: "O'qituvchi", 1976.
5. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент: Шарқ машаълига илова, 1993. –Б.45
6. Botirov N. S. Shayboniylar davrida ilm-fan taraqqiyoti hamda madaniy hayot uyg'unligi. / Международный научный журнал № 1(100), часть 1 «Научный Фокус». № 1(100), часть 1 май, 2023. S 1926-1931.
7. Jumanazar A. Buxoro ta'lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. B – 339-344.
8. Ўзбекистон тарихи. (Энг қадимги даврлардан бугунги кунгача) I жилд [Матн] / А.Асқаров [ва бошқ.]. -Т.: «Маънавият», 2022.-456.

9. Fayzraxmanova Z. Shayboniylar davriga oid manbalar tahlili. / PPSUTLSC. Volume 4, Issue 7: Special Issue (EJAR) page.381-385.

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING BADIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ AMALIY SAN'ATINING AHAMIYATI

Abdusamatova Nargiza Jamolidinovna
Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Yuldashaliyeva Asaxon Akmaljon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: maktabgacha ta'lim davri bolalarning shaxsiy, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kreativ fikrlashini, tasavvurini va estetik didini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Xalq amaliy san'ati bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda noyob vosita bo'lib, milliy madaniyat, an'analar va qadriyatlar bilan tanishish orqali ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda xalq amaliy san'atining ahamiyati va bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'рни tadqiq qilinadi.

Abstract: the period of preschool education is the most important period for the formation of personal, creative and intellectual abilities of children. During this period, the development of children's artistic abilities is of great importance in the formation of their creative thinking, imagination and aesthetic taste. Folk art is a unique tool for the

development of children's artistic abilities and enriches their spiritual world by familiarizing them with national culture, traditions and values. This article examines the importance of folk art in preschool education and its role in the development of children's artistic abilities.

Аннотация: период дошкольного образования является важнейшим периодом формирования личностных, творческих и интеллектуальных способностей детей. В этот период развитие художественных способностей детей имеет большое значение в формировании их творческого мышления, воображения и эстетического вкуса. Народное искусство является уникальным инструментом развития художественных способностей детей и обогащает их духовный мир, приобщая их к национальной культуре, традициям и ценностям. В данной статье рассматривается значение народного творчества в дошкольном образовании и его роль в развитии художественных способностей детей.

Kalit soʻzlar: xalq amaliy sanʼati, kashtachilik, doʻppidoʻzlik, naqqoshlik, interfaol dars, loyihalashtirish metodi.

Ключевые слова: народное творчество, вышивка, шляпное производство, роспись, интерактивный урок, метод проектирования.

Keywords: folk arts, embroidery, headdress making, painting, interactive lesson, design method.

Yangi Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimining bugungi rivojlanish jarayonlari yurtboshimizning yosh avlod taʼlim-tarbiyasiga berayotgan ulkan va doimiy eʼtiborining amaliy ifodasidir.

Oʻtgan qisqa davr mobaynida mamlakatda barcha sohalar qatorida maktabgacha taʼlim sohasiga boʻlgan eʼtibor va bu yoʻnalishda erishilgan misli koʻrilmagan ijobiy oʻzgarishlar jahon hamjamiyatiga oldinda hali ulkan imkoniyatlar mavjudligini isbotlamoqda. Xususan, Oʻzbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni O'zbekiston xalqlarining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va ko'paytirish, milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish, hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli va kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi[1] PQ-4312-sonli qarorida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etish kabi dolzarb va boshqa muhim talablar aks etgan.

Respublikamizda xalq amaliy san'ati boy madaniy merosga ega bo'lib, xalq amaliy san'ati asrlar davomida shakllangan va milliy o'zlikni aks ettiruvchi, madaniy merosimizning ajralmas qismidir. Uni o'rganish orqali bolalar nafaqat milliy qadriyatlarni anglaydi, balki badiiy did va ijodiy ko'nikmalarini ham boyitadilar. Xalq amaliy san'ati namunalariga misol qilib, kashtachilik, do'ppido'zlik, naqqoshlik, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi va boshqa hunarmandchilik turlari nafaqat go'zallikni qadrlashni o'rgatadi, balki bolalarning tafakkurini kengaytiradi, qo'l motorikasini rivojlantiradi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Bugun jahonning turli tomonlarida xalq amaliy san'ati turli bosqichlarda rivojlanib bormoqda. G'arb pedagog olimlaridan Mariya Montessorining "Montessori metodi", "Bolani kashf qilish" kabi adabiyotlarida bolalarning turli materiallar bilan ishlash orqali o'z qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi haqida adabiyotlarida belgilab o'tgan.

Amerikalik faylasuf va pedagog Jon Devey "San'at tajriba sifatida" asarida san'at va qo'l mehnati bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishi haqida bunda amaliy san'at turlarining o'rne beqiyos ekanligi haqida bayon qiladi. Mamlakatimiz pedagog olimlaridan Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti Sh.Xasanova o'zining "Tasviriy faoliyatga o'rgatish" nomli o'quv qo'llanmasida maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatini rivojlantirish metodikasi haqida batafsil ma'lumot bergan.

Xalq amaliy san'ati milliy madaniyatning muhim qismi bo'lib, u orqali bolalar o'z millati, an'analari va qadriyatlarini o'ganadilar.



Maktabgacha yoshdagi

bolalar uchun xalq amaliy san'ati quyidagi jihatlarida ahamiyatli:

- Milliy madaniyat bilan tanishish: Xalq amaliy san'ati orqali bolalar o'z milliy madaniyatining noyoblighi va boylighi bilan tanishadilar.
- Estetik didni shakllantirish: Xalq amaliy san'ati asarlari bolalarning go'zallikni idrok etish qobiliyatini oshiradi.

- Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Xalq amaliy san'ati bolalarning tasviriy fikrlashini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xalq amaliy san'atidan foydalanish orqali bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishning bir qator metodlari mavjud bular:

- An'anaviy naqsh va ranglardan foydalanish: bolalarga xalq amaliy san'atida qo'llaniladigan naqshlar va ranglar bilan tanishish imkoniyatini yaratish.

- Qo'lda ishlangan buyumlar yaratish : bolalarni loy, gilam to'qish, naqsh solish kabi amaliy mashg'ulotlar orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

- Xalq ertaklari va afsonalarini o'rganish: xalq ertaklari va afsonalarni tasvirlash orqali bolalarning tasavvurini rivojlantirish.

Xalq amaliy san'ati bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda bolalarning yangi g'oyalar yaratish



qobiliyatini oshiradi, shuningdek, amaliy san'at bilan shug'ullanish bolalarning ruhiy holatini yaxshilaydi va ularga ijodiy jarayonda qoniqish hissini beradi.

Zamonaviy ta'limda xalq amaliy san'atidan foydalanishning yangi usullari joriy etilmoqda quyida ularga bir necha misollar keltirilgan:

- Interfaol darslar: xalq amaliy san'ati elementlarini interfaol darslar orqali o'rgatish.

- Multimedia vositalaridan foydalanish: xalq amaliy san’ati asarlarini multimedia vositalari orqali namoyish qilish.
- Loyihalashtirish metodlari: bolalarni xalq amaliy san’ati asosida loyihalar yaratishga jalb qilish.

Xalq amaliy san’ati maktabgacha ta’limda bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. U orqali bolalar nafaqat milliy madaniyat va an’analar bilan tanishadilar, balki ularning ijodiy qobiliyatalari ham rivojlanadi. Xalq amaliy san’atidan to’g’ri foydalanish orqali bolalarning kreativ fikrlashini, tasavvurini va estetik didini shakllantirish mumkin.

Mazkur maqola so’nggida shuni xulosa qilish mumkinki, xalq amaliy san’ati asarlari bilan shug’ullanish bolalarga tabiat, tarix va madaniyat haqida bilim beradi, ularning milliy g’ururini oshiradi va ularni kelajakda o’z madaniy merosini qadrlashga va saqlashga undaydi. Shuningdek, bu jarayon bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini oshirish, jamoaviy ishlash ko’nikmalarini rivojlantirish va ularning ijodiy fikrlashini rag’batlantirishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda xalq amaliy san’atini o’qitish bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy va ijodiy salohiyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-5242-sonli “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida” gi farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-may sanasidagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

4.“Maktabgacha pedagogika”. F.R.Qodirova, Sh.K.Toshpo‘latova, N.M.Qayumova.Toshkent:Tafakkur.2021.

5. “Xalq amaliy san’ati” Z.E.Qo‘ziyeva.O‘quv qo‘llanma.Navoiy-2012.

6. “Çocukluk döneminde sanat ve yaratıcılık”. Elif Çelebi Öncü.İstanbul üniversitesi.2010.

OILA VA TARBIYa HAQIDAGI SHARQIY MUTAFAKKIRLAR MA’NAVIY O‘RGANISHLARI

Gapparov Bexzod Nematillayevich

Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

Email: bexzodgapparov132@gmail.com

Tel: +998 (99) 556-06-50

Otaxonov Bobur Botirjonovich

Jizzax politexnika institute 2-bosqich talabasi

Email: otaxonovbobur11@gmail.com

Tel: +998 (94) 543-03-42

Annotatsiya: Ushbu maqolamiz oila va tarbiya haqidagi sharqiy mutafakkirlarning ma’naviy o‘rganishlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Sharq mutafakkirlari oilaga nisbatan ulkan ma’naviy va axloqiy ahamiyat berib, tarbiya jarayonida insonning shaxsiyat, ma’naviy kamoloti va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga katta e’tibor qaratganlar. Ushbu maqolada, mutafakkirlarning oila va tarbiya

haqidagi ta'limiy qarashlari va ularning zamonaviy tarbiyaga qo'shgan hissassi tahlil etilgan.

Annotatsiya: Statya posvyazhena analizu duxovnykh ucheniy vostochnykh mysliteley po voprosam semi i vospitaniya. Vostochnye filosofy pridavali ogromnoye znachenkiye seme, schitaya eye osnovoy moralnogo i duxovnogo vospitaniya lichnosti. V state rassmatrivayutsya vzglyady mysliteley na vospitaniye, formirovaniye nravstvennykh i sotsialnykh kachestv cheloveka, a takje ix vklad v sovremennuyu pedagogiku.

Abstract: The article is dedicated to the analysis of the spiritual teachings of Eastern thinkers on family and education. Eastern philosophers attached great importance to the family, considering it the foundation of moral and spiritual development of the individual. The article explores the viyews of these thinkers on upbringing, the formation of moral and social qualitiyes, and their contribution to contemporary pedagogy.

Kalit so'zlar: Oila, tarbiya, sharqiy mutafakkirlar, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tarbiya, shaxsiyatni shakllantirish, pedagogika, ma'naviy kamolot, ijtimoiy mas'uliyat, sharq falsafasi.

Klyuchevye slova: Semya, vospitaniye, vostochnye mysliteli, duxovnyye tsennosti, moralnoye vospitaniye, formirovaniye lichnosti, pedagogika, nravstvennoye razvitiye, sotsialnaya otvetstvennost, vostochnaya filosofiya.

Keywords: Family, education, Eastern thinkers, spiritual valuyes, moral upbringing, personality development, pedagogy, moral growth, social responsibility, Eastern philosophy.

Pedagogikada oila tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Oila millat uchun uchish maydoni deb e'tirof etiladi. Bu haqda Sharq

mutafakkirlarining fikrlari alohida e’tiborga molikdir. Masalan, Taniqli olim, pedagog A.Avloniy o’zining mashhur “Turkiy Guliston va ahloq” asarida shunday deydi: “Tarbiyani kimlar qilur? Qayerda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir ikkinchi maktab tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur” [1]. Haqiqatdan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar mas’uldirlar.

Yoki Abdurauf Fitrat alohida urg’u berganidek: “Millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, ahloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur” [2]. Darhaqiqat, millatimizning yetuk namoyondalarining tarjimai holiga nazar tashlasak, Muqimiy onasi Oyshabibidan, Munavvar qori onasi Xosiyatxon otindan, Fitrat onasi Bibijondan, Is’hoqxon Ibrat onasi Huribibidan tarbiya va ilm sirlarini o’rganib, millati, yurti uchun jonkuyar insonlar bo’lib yetishgan.

Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sino: “Bola tug’ilgach, ota, avvalo, unga yaxshi nom qo’yishi, so’ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak” [3]. - deb ta’kidlaydi.

Alisher Navoiyning ta’lim-tarbiya, oila tarbiyasi haqidagi fikri ibratlidir: “Har bir oila farzand ko’rmog’i va uni tarbiyalab voyaga yetkazmog’i kerak. Farzand ota-onasining o’rinbosari. Farzand ko’rmoq, uni tarbiyalab o’stirmak har bir ota-onaning burchidir. Inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab kelajak uchun foydali kishi qilib yetishtirishdan ko’ra xayrli va lazzatli narsa yo’qdir”.

Sharqning buyuk allomalaridan yana bir Muslihiddin Sa’diy Sheroziy bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota-onalariga, ayniqsa, otaga yuklaydi, ya’ni oilaviy tarbiyaga katta e’tibor beradi. Shuning uchun u ko’proq ota-onalarga, ko’proq otaga murojaat qiladi.

Sa'diy ota-onalarga har bir farzandning xulq-atvorini hisobga olgan holda bolalarni qobiliyatli qilib o'stirishni, ahloqiy tarbiyani yoshlikdan boshlashni tavsiya etadi. Sa'diyning uqtirishicha, xulq-atvor shakllanib bo'lgach, tarbiya uncha kor qilmaydi, deydi. Ota-onalar, ayniqsa, ota bolasi tarbiyasiga e'tibor bermasa, bola yomon odamlarga qo'shilib qolishi mumkinligini aytadi.

Sa'diy oilada ayollarning mavqei haqida to'xtalib, ayollar hayotda erlari uchun do'stdirlar. Ayollar nafaqat tashqi ko'rinishdan, balki ma'naviy jihatdan ham go'zal, rostgo'y, itoatkor, o'z eriga sodiq, shirin so'z bo'lishlari va oilaning baxti, mustahkamligi uchun kurashmog'i lozim, deydi. Onalarni insonga hayot baxsh etgan ulug' zot sifatida ulug'laydi.

Sa'diyning fikricha, oila bolaning baxtli kelajagi uchun zamin yaratadi. U oilada asosiy tayanch deb otani biladi. Sa'diy ota-onalarga, ayniqsa, otalarga o'z bolalarini tarbiyalashni, o'qitishni, hunar o'rgatishni, jismonan chiniqtirishni, ularga odamlar bilan muloqotda bo'lish odobini o'rgatishni, sog'lom bo'lish uchun muayyan miqdorda ovqatlanishga odatlantirishni tavsiya etadi.

Yusuf Xos Hojib ("Qutadg'u bilig" asari)ning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim.

Chunki:

Yaxshi qiliq oq sut bilan kirs,

O'lim kelib tutmaguncha evurmas yo'riq [4].

Shoir turkiy xalqlarning an'anaviy tarbiyasiga, oila muhitidagi tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi:

Sening o'g'il-qizing bunyod bo'lsa, ey, oliy nasab,

Uyingda tarbiyalagin, boshqa yerda tarbiyalama,

O'g'il-qizga bilim, ham odob o'rgat,

Ikki olam uniki, manfaati yetarli bo‘ladi.

Uning ta’kidlashicha, bola tug‘ilgandan boshlab oila muhitida yashaydi. Shu oilaga xos bo‘lgan an’analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolaning ma’naviy dunyosiga singadi. Oila jamiyatning bir bo‘lagidir. Demak, bola oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmogi shart. Shundagina ularning noo‘rin hatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi.

Shoir:

***Bolaga ota-onaning mehnati singgan bo‘lsa,
So‘ng u bolaning xulq-atvorida bilinadi,
Ota bolani nazoratda tutsa, u yaxshi, ezgu bo‘ladi,
Otasi va onasining yuzi yorug‘ bo‘ladi.***

Ota farzandlari tarbiyasiga e’tiborsizlik bilan qarasa, ularning yurish - turishlari ahloq-odobini kuzatib bormasa, oqibati fojiali bo‘lishi mumkin.

Yusuf Xos Hojib ota-onalarni bola tarbiyasiga e’tibor berishga da’vat etar ekan, jamiyat farzandlar xulq-atvoriga qarab ota-onalarga baho berishini aytadi, ularni ogohlantiradi:

***Kimning o‘g‘il-qizi erka bo‘lsa,
Unda shu kishining o‘zi munglig‘ bo‘lib yashaydi.
Ota bolani kichikligidan bebosh qilib qo‘ysa,
Bolada gunoh yo‘q, barcha jaf o‘taning o‘zida.
O‘g‘il-qizning xulq-atvori yaramas bo‘lsa,
Bu yaramas ishni ota qilgan bo‘ladi, undan boshqa
emas.***

Yusuf Xos Hojib tarbiyada kattalar namunasi, ajdodlar tajribasi alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Bu haqdagi fikrni “Otalar so’zi” orqali ifodalab shunday deydi:

***Keksa kishining so’zin eshitgin, nima deydi,
Keksalar so’zi yigitlar ko’zidir.***

Umuman, o’zbek xalqining faqat o’ziga xos, o’zbek xalqiga xos an’analari haqida barcha allomalar ibratli fikrlar aytishgan.

A.Fitratning “Rahbari najot” asari ta’lim-tarbiya masalasiga bag’ishlangan. Uchinchi bobi oila, bola tarbiyasi, ahloq - odob mavzulariga bag’ishlangan. Fitratning fikricha, ota-onaning vazifasi - o’z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalash. Bunda uch tarbiyaga: jismoniy tarbiya - salomatlik, aqliy tarbiya - sog’lom fikrlilik, ahloqiy tarbiya - ahloqiy sano, ya’ni ahloqiy poklikka e’tibor berilishi kerak.

“Oila vazifalaridan biri - avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Dunyo - kurash maydoni. Har bir inson balog’atga yetgach, shu maydonga kirmasdan iloji yo’q. Chunki, har kim o’z baxti uchun kurashadi. Bu kurashda g’olib chiqmog’i uchun uch xil o’lchov quroliga ega bo’lishi kerak:

1. Salomatlik.
2. Sog’lom fikr.
3. Ahloqi sano (oliy darajadagi ahloq).

Har bir kishi bu uch qurolning birisiz maydonga tushsa, mag’lub bo’lishi aniq. Har bir ota o’z farzandini shu maydonning g’olibi qilib tarbiyalashi kerak” [5].

Fitrat bola ona qornida paydo bo’lgandan boshlab, onalar farzandlarining salomatligi muhofazasiga diqqat qilishi lozim. Buning uchun ular shu to’qqiz oy mobaynida farzand ona qoni bilan tarbiyalanadi. Shuning uchun homiladorlikda og’ir ishdan asrash,

ovqatdan parhez bo'lishi kerak. Agar ona kasallikka chalinsa, o'sha kasallik ona suti orqali farzandiga ham o'tadi deb alohida ta'kidlaydi.

Odamning yashash vositasi ovqatdir. Ovqatlar turi, ovqatlanish rejimiga e'tibor kerak. Intizomsizlik va bevaqt ovqatlanish ko'p kasalliklarga sabab bo'ladi. Havo insonga ovqatdan ham muhimdir. Ovqatsiz 5-6 soat yashash mumkin. Havosiz esa yo'q. Oilada jismoniy mashqlar, o'yinlar, tozalikka alohida e'tibor kerak.

A.Avloniy tarbiyani yoshlikdan berishni, bu ishga hammani: ota-onalarni, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlab: "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat. Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga bog'liqdir" [7].

Avloniy: "Sog'lom fikr, yaxshi ahloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish kerak. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kasalsiz jasad lozimdir. Sog'lomlik ota-onalardan, fikrlash muallimdan" [8].

"Taraqqiyot ilmdandur, il, olimlik esa volidalarimizdandir. Turkiston ziyolilari, yurtdoshlar, onalarimiz, qizlarimizni ma'rifatli qilaylik", - deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy. "Turkiy Guliston yoxud ahlok", Toshkent. 1992 yil, 17 - bet.
2. N.Mustafojeva "Ayol yuksaltirur bashariyatni". "Tafakkur" jurnali, 1999 yil, № 3, 120 - bet.
3. Antologiya pedagogicheskoy mo'sli Uzbekskoy SSR. Moskva. 1986, str. 87.

4. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. Toshkent.1996, 159-162 betlar.
5. K.Hoshimov, S.Nishonova «Pedagogika tarixi», Toshkent.1996 yil, 313-bet.
6. A.Avloniy, tanlangan asarlar, 2-jild, Toshkent.1998 yil, 38 - bet.
7. A.Avloniy, tanlangan asarlar, 2-jild, Toshkent.1998 yil, 58 - bet.
8. N.Mustafoyeva "Ayol yuksaltirur basharni". "Tafakkur" jurnali, 1999 yil, № 3, 120-bet.

O'QUV-TARBIYA ISHLARINI TASHKIL ETISHDA INTERNETDAN FOYDALANISH

Normurodova Sadoqat Xoliqulovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Informatika va uni o'qitish metodikasi
kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: sadoqatnormurodova33@gmail.com

Xalilov Berdiyor,
Asadova Shaxina Halim qizi
Pedagogika fakulteti

"Matematika va informatika" yo'nalishi talabarlari

Annotatsiya. Hozirgi kunda internet texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini tubdan o'zgartirmoqda. O'quv-tarbiya ishlarini samarali tashkil etishda internetning imkoniyatlari kengayib, o'quvchilar va o'qituvchilar uchun yangi o'quv va tarbiyaviy usullarni taqdim etmoqda. Ushbu ishda internetning o'quv-tarbiya jarayonida qanday foydalanilishi va uning ta'lim sifatini qanday oshirishi masalasi

ko'rib chiqiladi. Internetning onlayn ta'lim platformalari, elektron kitoblar, video darslar, interaktiv resurslar va onlayn forumlar kabi vositalar orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada qiziqarli, samarali va erkin bo'ladi. Ushbu texnologiyalar, shuningdek, o'qituvchilarga ta'lim jarayonini individual tarzda boshqarish va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Maqola, shuningdek, internetdan foydalanishning pedagogik afzalliklarini va uning ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarga ta'sirini ko'rsatadi.

Аннотация. В настоящее время развитие интернет-технологий кардинально меняет систему образования. Возможности интернета в организации учебно-воспитательного процесса расширяются, предлагая учащимся и преподавателям новые методы обучения и воспитания. В данной работе рассматривается, как интернет используется в учебно-воспитательном процессе и каким образом он может улучшить качество образования. С помощью таких инструментов, как онлайн-платформы для обучения, электронные книги, видеоуроки, интерактивные ресурсы и онлайн-форумы, процесс получения знаний становится более интересным, эффективным и свободным. Эти технологии также предоставляют преподавателям возможность индивидуально управлять процессом обучения и анализировать уровень усвоения материала учащимися. Статья также показывает педагогические преимущества использования интернета и его влияние на изменения в образовательном процессе.

Annotation. Currently, the development of internet technologies is radically changing the education system. The opportunities of the internet in organizing educational and instructional activities are

expanding, offering students and teachers new methods of learning and teaching. This work discusses how the internet is used in the educational process and how it can improve the quality of education. Through tools such as online learning platforms, e-books, video lessons, interactive resources, and online forums, the process of acquiring knowledge becomes more engaging, effective, and flexible. These technologies also provide teachers with the opportunity to manage the learning process individually and analyze students' understanding of the material. The article also demonstrates the pedagogical advantages of using the internet and its impact on changes in the educational process.

Kalit soʻzlar. Oʻquv-tarbiya ishlari, internet texnologiyalari, onlayn taʼlim, elektron resurslar, interaktiv taʼlim, taʼlim samaradorligi, pedagogik yondashuv, taʼlim platformalari, oʻquvchilarni baholash, masofaviy taʼlim, taʼlimda innovatsiyalar

Ключевые слова. Учебно-воспитательная работа, интернет-технологии, онлайн-образование, электронные ресурсы, интерактивное обучение, эффективность образования, педагогический подход, образовательные платформы, оценка учащихся, дистанционное обучение, инновации в образовании.

Keywords. Educational and upbringing work, internet technologies, online education, electronic resources, interactive education, education effectiveness, pedagogical approach, education platforms, student assessment, distance education, innovations in education.

Kirish. Zamonaviy taʼlim tizimi dunyodagi texnologik oʻzgarishlarga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Internetning keng tarqalishi va uning taʼlim jarayoniga taʼsiri oʻquv-tarbiya ishlarining sifatini oshirishga katta imkoniyatlar yaratdi. Taʼlimda internet

texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarga bilim olishda yordam berib, balki o'qituvchilarga darslarni samarali tashkil etish, interaktivlikni oshirish va o'quvchilar bilan aloqada bo'lishda yangicha yondashuvlarni kiritdi.

Internet orqali ta'limning masofaviy va interaktiv shakllari ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida yanada rivojlantirishga imkon yaratdi. Onlayn ta'lim platformalari, elektron resurslar, video darslar, forumlar va boshqa internet vositalari o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi ma'lumotlar olish va o'qish jarayonida ko'proq erkinlikka ega bo'lish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarga darslarni individual va differentsial tarzda o'tkazish imkoniyatlari yaratiladi, bu esa o'quvchilarning bilim darajasini aniq tahlil qilish va har bir o'quvchining ehtiyojiga mos ta'lim berish imkonini beradi. Ushbu jarayonda internet texnologiyalarining o'рни va ahamiyati haqida chuqurroq tahlil qilish maqsadida, ushbu ishda internetning o'quv-tarbiya jarayonidagi roli va uning samaradorligi ko'rib chiqiladi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanishning samaradorligini o'rganish maqsadida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi:

Tadqiqotning metodologiyasi o'quv-tarbiya jarayonida internet texnologiyalarining samaradorligini o'rganishga, uning pedagogik afzalliklari va cheklovlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu metodlar ta'lim tizimida internet texnologiyalarining integratsiyasini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi.

O'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanish masalasi hozirgi kunda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlarda yoritilmoqda. Internetning ta'lim jarayoniga ta'siri haqidagi ilmiy

tahlillar, asosan, uning o'quvchilarning motivatsiyasi, bilim olish usullari, ta'lim samaradorligi va pedagogik uslublarga ta'sirini o'rganishga qaratilgan [2].

1. Internetning ta'lim jarayonidagi roli. Internet texnologiyalari ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratdi. Finkel (2020) o'zining "Onlayn ta'limning afzalliklari" nomli maqolasida onlayn ta'limning shaxsiylashtirilgan yondashuvlarni ta'minlashda ahamiyatini ta'kidlaydi. U onlayn resurslar yordamida o'quvchilar o'z vaqtini va resurslarini boshqarishda erkinlikka ega bo'lishini, natijada, ta'lim sifatini oshirishini ko'rsatadi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik yondashuvlar, masofaviy o'qish va individual ta'lim usullari samarali ishlashini ta'kidlagan [3].

2. Elektron ta'lim va interaktiv resurslar. Yang (2019) o'z tadqiqotida elektron ta'lim platformalarining o'quvchilarga qanday yordam berishini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, internet orqali ta'lim olish imkoniyatlari nafaqat bilim olishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishiga ham katta turtki beradi. Masalan, videodarslar, interaktiv mashqlar va onlayn testlar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Bu turdagi resurslar o'quvchilarning bilim olish jarayonida faolliklarini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi [4].

3. Masofaviy ta'lim va o'quvchilarning motivatsiyasi. Choi (2021) o'zining tadqiqotida masofaviy ta'limning o'quvchilarning motivatsiyasiga ta'sirini o'rganadi. Tadqiqotda masofaviy ta'lim tizimi o'quvchilarning o'z vaqtida o'qish va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini oshiradi, shuningdek, o'quvchilarning o'z bilimlarini baholash va o'zlashtirishda mustaqilliklarini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, masofaviy ta'limda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan

aloqasi va motivatsion faoliyatlari alohida ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan [5].

4. Internet va interaktiv o'quv materiallari. Internetdan foydalanishning boshqa bir jihat, o'quvchilarga interaktiv o'quv materiallarini taqdim etishdir. Harms (2018) o'z maqolasida interaktiv dasturlar va o'quv ilovalarining ta'limdagi o'rnini tahlil qiladi. U, interaktiv o'quv resurslari yordamida o'quvchilarni faollashtirish, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va o'zlashtirish jarayonini qulaylashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, interaktiv resurslar o'quvchilarga xatolarini tezda tuzatish va bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi [6].

5. Onlayn resurslarning pedagogik afzalliklari. Pedagogik yondashuvlar nuqtai nazaridan, internet texnologiyalarining ta'limdagi o'rne haqida o'z fikrlarini bildirgan tadqiqotchilar orasida Zhai (2022) o'zining maqolasida, internetning o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini o'rgangan. U onlayn ta'limning o'quvchilarni kreativ fikrlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va kooperativ ishlarni bajarishga undashini qayd etadi. Bu esa, ta'lim jarayonida internetning pedagogik foydaliligini isbotlaydi [7].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, internet texnologiyalaridan foydalanish o'quv-tarbiya jarayonida samarali vosita bo'lib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini engillashtiradi va motivatsiyasini oshiradi. Internetning ta'limda qo'llanilishi nafaqat o'quvchilar uchun, balki o'qituvchilar uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv va masofaviy ta'lim usullari o'quvchilarning bilim darajasi va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Natija: Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internet texnologiyalarining ahamiyatini va samaradorligini aniqlash edi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, internetning ta'lim jarayonidagi roli har jihatdan ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. O'quvchilarning motivatsiyasi oshadi. Internet texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonida motivatsiyalarini kuchaytiradi. Onlayn ta'lim platformalari, video darslar va interaktiv mashqlar o'quvchilarga o'z bilimlarini yanada mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'qish jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

2. Shaxsiylashtirilgan ta'lim. Internet orqali ta'limning asosiy afzalliklaridan biri – bu shaxsiylashtirilgan o'qish imkoniyatini yaratishdir. O'quvchilar turli o'quv resurslari va platformalar orqali o'ziga mos o'qish tempini tanlashlari mumkin. Bu metod nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi, balki ularning bilim olishda erkinligini ta'minlaydi.

3. Interaktiv ta'lim usullari samaradorligi. Interaktiv o'quv materiallari (video darslar, o'yinlar, testlar) yordamida ta'lim samaradorligi sezilarli darajada oshadi. O'quvchilar amaliy mashqlar va interaktiv tahlillar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni osonlashtiradilar. Shu tarzda, o'quvchilar faollashib, o'qish jarayonida yanada ko'proq ishtirok etadilar.

4. Masofaviy ta'limning o'quvchilarga ta'siri. Masofaviy ta'limning o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan ta'siri ijobiy bo'lgan. Bu usul, ayniqsa, o'quvchilarga o'z vaqtini boshqarish imkoniyatini yaratib, ular mustaqil ravishda o'qish imkoniyatiga ega

bo'ladilar. Masofaviy ta'limning keng tarqalishi o'quvchilarga ko'proq qulayliklar yaratdi, ayniqsa chekka hududlarda yoki maxsus ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun.

5. O'qituvchilar uchun imkoniyatlar. O'qituvchilar uchun internet resurslari va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish ta'lim jarayonini boshqarishni osonlashtiradi. Ular o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqroq baholash, individual yondashuvlar va maxsus materiallar taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, internet orqali o'qituvchilar bir-birlari bilan tajriba almashish va pedagogik yangiliklar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6. Internet texnologiyalarining pedagogik afzalliklari. Internet texnologiyalarining pedagogik jihatdan afzalliklari aniq ko'rinmoqda. Ularning yordamida o'quvchilarni kreativ fikrlashga, o'z-o'zini boshqarishga va mustaqil o'qishga undash mumkin. Internetning o'quv-tarbiya jarayoniga kiritilishi, ta'lim jarayonini yanada zamonaviylashtirishga va uni individual tarzda boshqarish imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi [8,9].

Internet texnologiyalarining o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda qo'llanilishi ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Onlayn ta'lim platformalari, interaktiv resurslar va masofaviy o'qish imkoniyatlari o'quvchilarning bilim olish jarayonini engillashtiradi va o'qish motivatsiyasini oshiradi. O'qituvchilar uchun ham yangi pedagogik usullarni qo'llash imkoniyatlari yaratiladi, bu esa ta'lim sifatini yanada oshiradi. Shu sababli, internet texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishini yanada kengaytirish va uni doimiy ravishda rivojlantirish muhimdir.

Internetning o'quv tarbiya ishlarida qo'llanilishi, albatta, ta'lim tizimini yanada samarali va qulayroq qilishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda texnologiyalar ta'limga chuqur kirib bormoqda, va bu jarayon o'quvchilarni o'qitishning yangi metodlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Internetda mavjud bo'lgan turli resurslar, interaktiv vositalar va onlayn platformalar ta'limning yangi shakllarini keltirib chiqarmoqda.

Biroq, internetdan to'g'ri foydalanish ham muhim. Agar o'quvchilar faqat internetga tayanib qolsa, ular an'anaviy ta'lim metodlaridan chetga chiqishi mumkin. O'qituvchilar internetda mavjud materiallarni tanlab, sifatli va samarali darslar yaratishlari kerak. Shuningdek, internetning salbiy ta'sirlari — vaqtni behuda o'tkazish, noto'g'ri manbalardan foydalanish va axborot xatoliklari — ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Internetda o'qish va o'qitish jarayonining samarali bo'lishi uchun o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik, aniq maqsadlar va rejalashtirilgan strategiyalar zarur. Shuning uchun, internetning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun o'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari va ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirishlari kerak.

Umuman olganda, internet o'quv tarbiyaga yangi imkoniyatlar yaratib, ta'limni kengaytirish va uni yanada interaktiv qilishga xizmat qiladi. Faqat uning samarali va ongli foydalanilishi ta'lim sifatini oshirishi mumkin. O'quv tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanish bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Internetning imkoniyatlari o'quvchilarga yanada samarali va qiziqarli o'quv jarayonini ta'minlashda yordam beradi. Quyidagi usullar orqali internetdan foydalanish mumkin:

1. Resurslardan foydalanish: Internetda turli o'quv resurslari mavjud. Bu o'quv materiallari, videodarslar, bilimlarni mustahkamlash uchun testlar va amaliy mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. O'quvchilar bu resurslar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari va kengaytirishlari mumkin.

2. Onlayn darslar va kurslar: Internet orqali masofaviy ta'limni tashkil etish imkoniyati mavjud. Onlayn darslar va interaktiv kurslar orqali o'quvchilar o'zlari uchun qulay va mos vaqtni tanlab ta'lim olishlari mumkin.

3. Forumlar va bloglar: O'quvchilar bilim olish jarayonida o'z fikrlarini forumlar va bloglarda baham ko'rishlari, savollar berishlari va turli mavzularda muhokama qilishlari mumkin. Bu o'zaro tajriba almashish va bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.

4. Pedagogik platformalar: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun maxsus platformalar, masalan, Google Classroom, Moodle va boshqa tizimlar orqali darslarni boshqarish, o'quv jarayonini kuzatish, baholash va qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

5. Interaktiv vositalar: O'qituvchilar o'quvchilarni interaktiv vositalar orqali ta'limga jalb qilishlari mumkin. Bu online kvizlar, videokonferensiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Bular yordamida o'quvchilar darslarga yanada faolroq qatnashishadi.

6. Mahalliy va global axborot tarmoqlari: Internet orqali o'quvchilar global va mahalliy yangiliklardan xabardor bo'lishlari, ilmiy va madaniy tadbirlar haqida ma'lumot olishlari mumkin. Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda, internet o'quv tarbiya ishlarini samarali va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi [10,11].

Xulosa. Internet o'quv tarbiya ishlarini tashkil etishda katta imkoniyatlar yaratadi. U o'quvchilarga bilim olishda yanada kengroq resurslarga erishish, interaktiv usullar orqali o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish, masofaviy ta'limni amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, internet ta'lim jarayonini global miqyosda kengaytirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Biroq, internetdan foydalanishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Aksariyat o'quvchilar, ayniqsa yosh guruhlaridagi o'quvchilar, internetdagi axborotlarni tanqidiy tahlil qilishni o'rganishlari zarur. Bundan tashqari, o'qituvchilar internetning salbiy ta'sirlarini bartaraf etish va o'quvchilarga internetni samarali va maqsadga muvofiq ishlatish bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахмедов А. **"Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar"** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Савченко А. П. **"Информационные технологии в образовании"** – Москва: Академия, 2020.
3. Axmedova D. **"O'quv jarayonida internet resurslaridan foydalanish imkoniyatlari"** – O'zMU Ilmiy jurnali, 2022.
4. Hasanov B. **"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga ta'siri"** – Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021.
5. Alimov U. **"Masofaviy ta'limning zamonaviy shakllari va ularning samaradorligi"** – Innovatsion ta'lim tadqiqotlari, 2020.
6. Normurodova, S. X., et al. **"Using mind maps in formation of imagination and creative thinking skills in 5-6 year-old"**

children." European Journal of Molecular and Clinical Medicine 7.11 (2020): 339-343.

7. Нормуродова, Садокат. "РАЗВИТИЕ ВООБРАЖЕНИЯ И НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ 1-ГО КЛАССА ПРИ ОБУЧЕНИИ АЛФАВИТУ С ПОМОЩЬЮ ПРОГРАММЫ SCRATCH." Предпринимательства и педагогика 3.3 (2024): 144-150.

8. Ganiev, A. G. "others. The role of travel lessons in the Shahrizabz Zoo in teaching foreign languages and developing their imagination to pupils of preschool educational institutions. International scientific and practical conference." Kazakhstan. Pavladar (2020): 249-251.

9. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.

10. Mahmudjanovna, Yahyokhonova Muhiba. "Increasing the Effectiveness of the Learning Process for the Use of Information and Communication Technologies." Academicia Globe 2.04 (2021): 206-211.

11. Maxmudjonovna, Yaxiyaxonova Muxiba. "Developing full-fledged thinking skills in firstgraders through the perception of the "surrounding world"(using the example of a Mind Map)." Czech Journal of Multidisciplinary Innovations 35 (2024): 31-37.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SIFATNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING O'RNI

Zarikeyeva Miyasar Maratovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar "Iqtisodiyot va gumanitar fanlar"
universiteti kafedrası katta o'qituvchisi e.i.f.d (PhD)

Annotatsiya: Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi. Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

Аннотация: Развитие сферы услуг играет важную роль в современной экономике. Основными факторами роста услуг в экономике являются такие факторы, как интеграция научных знаний, нематериальных наборов, информационных технологий и предпринимательской деятельности. Этот сектор экономики включает в себя различные виды деятельности, способствуя повышению эффективности производства. Конечным результатом этой деятельности является не готовая продукция, а оказанные услуги. Услуги могут оказываться не только предприятиям, но и физическим лицам - конечным потребителям.

Abstract: The development of the service sector is of great importance in the modern economy. The main factors in the growth of

services in the economy are such factors as the integration of scientific knowledge, intangible collections, information technologies, and entrepreneurial activity. This sector of the economy, encompassing various types of activity, contributes to increasing production efficiency. The final result of this activity is not the finished product, but the services provided. Services can be provided not only to enterprises, but also to individuals - end consumers.

Kalit soʻzlar: xizmat, xizmat koʻrsatish, innovatsiya, xizmatlar sifati, marketing.

Ключевые слова: бизнес, финансы, инновации, финансовые ресурсы, маркетинг.

Key words: service, service provision, innovation, quality of services, marketing

Xizmat koʻrsatish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, sohaning zamonaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash orqali xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun muayyan tashkiliy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish, aholi bandligi darajasini oshirish, isteʼmolchilarning xizmatlarga boʻlgan talabini shakllantirish va ularni ehtiyojlarini toʻliq qondirish, zamonaviy, raqamli texnologiyalarga asoslangan xizmat koʻrsatish tarmoqlarini rivojlantirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Korxonalarda taqdim qilinayotgan xizmatlar sifati sohasida innovatsiyalarni joriy etish isteʼmolchi uchun alohida ahamiyatga ega, chunki ular pirovardida uning ushbu xizmat turiga boʻlgan oʻsib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga q Haqiqatdan ham innovatsiyalarni joriy etish korxonalarning texnik-iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, umumiy nazariy-metodologik modelga asoslangan ishlab

chiqilgan model xizmat ko'rsatish sohasida sodir bo'layotgan transformatsion jarayonlarni to'liqroq aks ettiradi va innovatsion rivojlanish strategiyasini shakllantirish jarayonida ham korxonaning o'zida, ham uning filiallarida foydalanish mumkin.

1-bosqich. Korxonani bozor faoliyatining markaziy bo'g'inlaridan biri bo'lgan va davriylik sxemasida muhim yukni o'z zimmasiga oladigan asosiy marketing. Xizmat ko'rsatish korxonalari uchun marketing faoliyati amaliy xususiyat kasb etadi va kerakli choralarni ko'rish orqali o'zgaruvchan iste'molchilarning ustuvorliklariga tezda javob berishga imkon beradi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida iste'molga ta'sir qiluvchi eng muhim komponentlar:

- xizmatlarning ijtimoiy ahamiyati va iste'molchi nuqtai nazarlarining ustuvor ekanligi;
- kontakt zonasida bo'luvchi xodimlarni tayyorlash darajasi va xizmat ko'rsatish sifati;
- iste'molchilarning iste'mol segmentidagi o'zaro munosabati.

2-bosqich. G'oyalarni izlash: ISO 9001:2008 xalqaro standarti talablarini qo'llash (bu xizmatlar sifati sohasida innovatsiyalarni joriy etish). Hozirgi bosqichda, bizning fikrimizcha, xizmat ko'rsatish korxonalari ilmiy tashkilotlar asosida tadqiqot olib borishlari kerak, chunki ishlab chiqarish korxonalarida tegishli malaka darajasiga ega bo'lgan kadrlar yetarli darajada emas.

3-bosqich. Resurslarni taqsimlash xizmat ko'rsatuvchi korxonalar rahbariyati tomonidan amalga oshiriladi, chunki u 1-bosqichda olingan ilmiy va texnologik bilimlarni moddiylashtirishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda olingan ilmiy natijalar korxonalarning xizmat ko'rsatish sohasidagi xususiyatlari va joriy ehtiyojlariga mos ravishda tuzatiladi.

4-bosqich. Xizmat ko'rsatish sohasida sifatni yaxshilash uchun innovatsiyalarni yaratish, bu korxona faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Ushbu bosqichda innovatsiyaning asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari va xususiyatlarini aniqlash kerak: xizmatning texnologik xususiyatlari, narx siyosati, xizmat ko'rsatish va texnik xizmat ko'rsatish sifati parametrlari hamda iqtisodiy resurslar xizmat ko'rsatish jarayonida uni amalga oshirish uchun zarur.

5-bosqich. Marketing faoliyati va korxonalarga bevosita xizmatlar ko'rsatish bilan chambarihas bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasida sifatni oshirish. Ushbu bosqichda iste'mol bozorini segmentatsiyalash, xizmatlarni eng samarali ko'rsatish uchun marketing faoliyatini rivojlantirish, xizmatlar ko'rsatish uchun ish o'rinlarini tashkil etish va xodimlarni tayyorlash kerak.

6-bosqich. Ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmini ko'paytirish, bu esa pirovard natijada daromad va foydaning oshishiga olib keladi;

7-bosqich. Korxonalarda xizmatlar ko'rsatish sohasida innovatsion faoliyatga ichki investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beruvchi daromad va foyda olish.

Bizning fikrimizcha, innovatsion boshqaruv deganda, ilmiy-texnik salohiyatga tayangan va iste'molchilarning ehtiyojlariga e'tibor qaratgan holda xizmat ko'rsatish faoliyatini har tomonlama tahlil qiladigan va strategik rivojlanish modellarini ishlab chiqadigan korxona boshqaruvini tushunish kerak. Innovatsiyalar kompleks yondashuvni va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda tashqi va ichki muhit holatiga mos keladigan o'zgarishlarni moslashuvchan va o'z vaqtida tartibga solish tizimini talab qiladi, bu birgalikda uzoq muddatli istiqbolda xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion strategiyani ishlab chiqishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ayrim jihatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

—xizmat ko'rsatish korxonasini istiqbolda rivojlanish holati va tendensiyalarining qanday sharoitda bo'lishi mumkinligini va yangi iste'mol segmentlarini aniqlash;

—innovatsion faoliyatni faol qo'llab-quvvatlash, xizmatlar sifatini oshirish va

mijozlar uchun xizmatlarning jozibador xususiyatlarini rivojlantirish;

—xizmatlar sifatini joriy etish bosqichida eng yaxshi natijalarni olish, tizimni ishlab chiqish xarajatlarini kamaytirish (bu natijada paydo bo'lgan tizimning yaxshi tuzilganligi va ISO 9001:2008 standarti talablarini joriy etish bilan bog'liq);

keyingi rivojlanish yo'llarini aniqlash maqsadida tashqi muhitdagi texnologik o'zgarishlarga, yangi xizmatlarning paydo bo'lishiga tezkorlik bilan munosabat bildirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arabov N.U., Artikov Z.S. Servis korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali // Samarqand, SamDU, № 1, 2021 y, 153-164 b.

2. Zarikeyeva M.M., Servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Diss. PhD. Nukus: QDU, 2024 y. 134-b.

3. MM Zarikeyeva, AQ Xalmamaeva, RT Tulibayeva, DJ Bayniyazova “Xizmat ko'rsatish korxonalarida servis faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili”, International

scientific and practical conference,
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14235696>.

“RAVSHAN” DOSTONIDAGI BADIY OBRAZLARNI DIDAKTIK TAHLIL ASOSIDA O‘RGATISHNING INTERFAOL METODLARI

Qosimova Yulduzxon Javlonbek qizi

NamDPI o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

Tel:-50-073-54-17

Annotatsiya: Ushbu maqola adabiyot ta’limida didaktik ta’limni yirik epik doston misolida ko‘rish, asardagi badiiy obrazlarga tanqidiy munosabat bildirishda interfaol zamonaviy metodlar bilan ishlash, talaba hamda o‘quvchi yoshlarning fikrlash kompetensiyalarini o‘stirish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida.

Аннотация: В данной статье речь идет о рассмотрении дидактического образования в литературном образовании на примере большого эпического эпоса, работе с интерактивными современными методами выражения критической реакции на художественные образы в произведении, формировании умений развития мышления школьников и учащихся. компетенции.

Abstract. This article is about the study of didactic education in literature education on the example of a large epic poem, working with interactive modern methods in expressing a critical attitude to artistic images in the work, and forming skills for developing thinking competencies of students and young people.

Kalit so‘zlar. Didaktik tahlil, tanqidiy baho, interfaol metod, “Rolli” dars, “Tergov” metodi, “Qalpoq” metodi.

Ключевые слова. Дидактический анализ, критическая оценка, интерактивный метод, урок «Ролли», метод «Исследование», метод «Калпак».

Keywords. Didactic analysis, critical assessment, interactive method, "Role" lesson, "Investigation" method, "Kalpoq" method.

Kirish. Hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan globallashuv davrida yoshlarning bilim doiralarini kengaytirish, mustaqil fikrini erkin bayon qila olish kompetensiyalarini shakllantirish borasida ko'plab chora-tadbirlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ushbu chora tadbirlar orasida ilm maskanlarida ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy metodlarning qo'llanilishi, o'quvchi hamda talabalarga adabiyot o'qitishda didaktik tahlil orqali eng zamonaviy usullarni o'rgatish ularni badiiy ijod jarayoniga yaqinlashtirish, adabiy jarayon va badiiy asar personajlarining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilishga yordam beradi. Shuningdek, kata hajmli epik asarlarni tekshirishda didaktik tahlil metodlari yaxshi samara beradi. Chunki katta hajmli epik asarlarni tekstual tahlil qilish qiyin va bu ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Muayyan asardagi timsollarning ruhiyati, o'y-kechinmalari, xatti-harakatlari, sajiyasi tasviri mantiqiylik, hayotiylik, badiiylik va tarbiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, shu yo'sinda muallifning badiiy mahorati va asarning estetik qimmatini idrok etiladi.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Yurtimizda adabiyot o'qitish metodikasini rivojlantirish, mustaqil izlanuvchilar safini kengaytirish, tadqiqotlik faoliyatini yo'lga qo'yish, pedagogik tafakkurini o'stirish, mustaqil va tanqidiy tafakkurni qaror toptirishda, didaktik o'qitish aspektida Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, M.Mirqosimov, F.A.Jumayev, B.To'xliyev, ta'lim jarayonlarida didaktik o'yinlardan foydalanish bo'yicha R.Xolmatova, A.Zunnunov, N.Hotamov,

J.Esonov, Q.Yoʻldoshev, O.Madaev, A.Abdurazzoqov, ona tili darslarida interfaol taʼlim va didaktik imkoniyatlar mavzusida R.Ishmuxammedov, M.Yuldashev, R.Muqumova, T.Gʻafforova kabi tadqiqotchilarning izlanishlarida oʻrganilgan.

Interfaol metodlar va ularning taʼlim jarayonidagi mohiyati, pedagogikada interfaol metodlarning oʻrni, interfaol oʻqitish metodlarining didaktik imkoniyatlari mavzusida B.Ibrohimov, M.Tajibayeva, U.Abdullayeva, OʻMuxamedov, M.Usmanboyev, S.Rustamov, D.Boriboyeva, U.Inoyatova kabilarning ilmiy faoliyatlari mavjud.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktab oʻquvchilari va talaba yoshlarga “Ravshan” dostonidagi obrazlarni didaktik oʻqitishning interfaol metodlar orqali oʻrgatishning samarali yoʻllari muhokama qilinadi. Xususan didaktik taʼlimning mohiyati, maqsad va vazifalari, oʻquvchilarning badiiy obrazlarga boʻlgan didaktik munosabati, asardagi personajlarning yutuq va kamchiliklari interfaol oʻyinlar orqali qiyoslandi, tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mustaqillik davri adabiy taʼlimida oʻquvchi yoshlar va talabalar shaxsining har bosqichdagi jismoniy va ruhiy, intellectual xususiyatlari inobatga olingan holda uni mustaqil fikrlashga yoʻnaltirish, maʼnaviyatini sogʻlomlashtirishga koʻmaklashish, estetik yaratish lazzatini tuydurish, taʼlim-tarbiya bilan birgalikda hamkorlik boʻlishini taʼminlash singari tamoyillarni ham talab qiladi. Albatta, bunday masalalarni amalga oshirish uchun yirik epik asarlarning kontekstual tahlilidan koʻra badiiy obrazlarga baho berish, yutuq va kamchiliklarini qayd etish, bahs-munozaraga kirishish kabi didaktik tahlilga yuzlanamiz. “Ravshan” dostonidagi badiiy obrazlarni didaktik tahlil

qilishdan avval o‘qituvchi quyidagi rejalarni amalga oshirishni ko‘zda tutgan holda o‘quvchilarga bosqichma-bosqich topshiriqlar berishi lozim.



“Ravshan” dostonida asosiy qaharmonlar Ravshan, qahramonlar Zulxumor, Hasanxon, epizodik personajlar Oqqiz, Go‘ro‘gli, Avazxon, Ersak, Tersak, Aynoq, Jaynoq kallar, kampirlar, Xon Dalli, Qoraxon podshoh kabilar ekanligini bilish uchun biz interfaol o‘yinlar orqali diddaktik tahlil qilamiz. Bilamizki, interfaol metodda asosan, o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot o‘rnatishning zamonaviy va innovatsion texnologiyalaridan foydanamiz. Buning uchun darsni oliy ta‘lim maskanlarida “rolli” dars tashkil etiladi, makatalarda esa “Sud”, “Tergov”, “Qalpoq” kabi interfaol metodlardan qo‘llaniladi. “Rolli” darsda talabalar asardagi personajlarni bo‘lishib olgan holda darsga oldindan tayyorgarlik ko‘rib kelishi zarur. Har bir epizod o‘z nutqini puxta yod olgan holda xuddi dramatic asarni ko‘rsatib berayotgandek sahnada o‘z aktyorlik mahoratini ko‘rsatishi, “Ravshan” dostoniga xos koloritni yarata olishi darkor. Bir qarashda “rolli” dars tashkillash murakkabdek ko‘rinadi, ammo o‘qituvchi ushbu darsda hayotiy asardan ko‘zlangan g‘oyaviy maqsadni talabalar faolligi va hamkorligida olib bora oladi. Yoki 7-sinf adabiyot darsligida “Ravshan” dostonining to‘liq varianti

keltirilmagan bo'lsa-da, o'qituvchi dostonidagi obrazlarga berilgan ta'riflar, ularning portretlari va ko'rsatgan qahramonliklari orqali asar boshlanmasidan boshlab to yakunigacha bo'lgan tahlilni didaktik yo'l bilan amalga oshiradi. Go'ro'g'lining o'g'li Avazxonnikiga sovchi bo'lib borganida, Hasanga beradigan qizim yo'q, u bir quzg'un bo'lsa, men lochinman deyish sahnalarida "sud" interfaol metodini qo'llash mumkin. Bunda sinfni ikki guruhga Avazxonni qoralovchilar hamda Hasanxonni oqlovchilarga bo'linadi va har bir guruhga tergovchi, ya'ni ustoz "Go'ro'g'lining sovchilikka borishi to'g'ri ish edimi?", "Ravshan Gulanorni sevar edimi?", "Nega Avazxon ukasini o'ziga quda sifatida qabul qilmaydi", "Ravshan yosh bolaga o'xshab yig'lab to'g'ri ish qildimi?", "Siz Go'ro'g'lining o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lardiningiz" kabi xuddi tergovchiga o'xshab savollar bilan guruhlariga murojaat qilasiz. Oqlovchilar va qoralovchilar esa o'z javoblarini isbotlay olishi, himoya qila olishi orqali baholanadi. Eng ko'p to'g'ri dalil to'plagan guruh g'olib deb topiladi. "Qalpoq" metodida esa o'quvchilardan biri Zulxumor obrazida qo'lida qalpoqlar bilan xona bo'ylab aylanadi. O'qituvchi har bir o'quvchiga kartochkali savol beradi. Masalan, qaysi kal mergan edi?", "Nega Ravshan boshqa dinga kirishni istamaydi?", "Sizningcha Zulxumor o'z yoriga yordam berib to'g'ri ish qildimi?", "Nega Oqqiz Zulxumorga hasad qildi?" kabi savollarga to'g'ri javob topgan o'quvchiga Zulxumor obrazidagi o'quvchi qiz qalpoq beradi. Bu orqali asarda Zulxumor qalpoq tikib sotishi va "Qiz bolaga qirq hunar oz" qabilidagi yetakchi g'oyalar ilgari suriladi.

XULOSALAR

Umuman olganda didaktik ta'limda interfaol o'yinlar orqali o'quvchilarni adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, badiiy asar o'qishda har bir obrazga tanqidiy baho berishni o'rgatish va uni hayotga

tatbiq etish ustuvor yoʻnalish kasb etadi. Didaktika oʻquvchining ilmiy salohiyati va kreativ ijodkorona fikrlashiga, har qanday muammoli savollarga javob topishda tezkorlik, aniqlik, ilmiy asoslanganlik kabi kompetensiyalarni shakllanishida yordam beradi. Har qanday badiiy asar oʻqitish misolida oʻquvchi personajlarga shunchaki obraz sifatida emas, balki oʻz umri davomida duch kelishi mumkin boʻlgan real insonlarning fazilatlariga qay tarzda javob bera olish koʻnikmasini egallashni oʻrganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Yoʻldoshev Q., Yoʻldosheva M.Badiiy tahlil asoslari.- Toshkent.2016.
- 2.Ravshan ["Goʻroʻgʻli" dostonlari turkumi]- Oltin qalam nashriyoti,2024.
- 3.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot oʻqitish metodikasi.- Toshkent: "Invest-ziyo" nashriyoti, 2022.
4. Toʻxliyev B. Adabiyot oʻqitish metodikasi. T.,2006.
5. <https://in-academy.uz>
- 6.<https://arxiv.uz>

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA RAHBAR AMAL QILISHI KERAK BO‘LADIGAN FAZILATLAR

Abdullayeva Muqaddas Baxtiyor qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish ta’lim yo‘nalishi” 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi rahbarga tegishli bo‘lgan bilimlar va rahbarlik fazilati to‘g‘risidagi bazi fikrlar keltirib o‘tilgan.

Annotation: In this article, Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu Bilig" contains some thoughts about the knowledge and leadership qualities that belong to a leader.

Kalit so‘zlar: rahbar, fazilat, xislat, martaba, xodim, bilim, tajriba, faoliyat, ezgulik, oqillik, donolik, nasixat, natija.

Keywords: leader, quality, character, career, employee, knowledge, experience, activity, goodness, intelligence, wisdom, advice, result.

Bugungi kunda rahbarlik faoliyati hayotimizning har jabhasini egallagan desak adashmagan bo‘lamiz. Katta firmalardan tortib kichik bir do‘konchalarning ham o‘z rahbari bor. Oilada ham shunday. Albatta rahbarlar ham bir xil emas. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak Amir Temur, Shoxrux, Abu Said, Bobur, Ismoil Somoniy, kabi buyuk insonlarning rahbarlik faoliyatida davlatning rivojlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Ular bu natijalarga erishishi uchun fazilatlar ham muhim o‘rin egallaydi. Xo‘sh fazilat nima? Fazilat oddiy kundalik hayotda foydalanishda kam uchraydi. Chunki bu ta’riflar ko‘pchilik uchun ochiq oydin emas. Fazilat yaxshi yoki yomon bo‘lishi ham mumkin. Umuman olganda fazilatning ta’rifi juda ko‘p. Biz ularning

ichida rahbarlik fazilatlariga to‘xtalib o‘tamiz. Rahbarlik boshqaruv to‘g‘risida ko‘pgina asarlar yozib qoldirilgan. Ularning ichidan “Qutadg‘u bilig” asaridagi rahbarlik fazilatlarini haqida to‘xtalib o‘tsak; Yusuf Xos Hojibning bu asari turli adabiyotning ilk namunasi sifatida shuxrat topgan. Asarda Kuntug‘di-adolat, Oyto‘ldi-davlat, O‘gdulmish-aql, O‘zg‘urmish-ofiyat timsolida keltirilgan. Avvalo asarning asosiy mazmuni bilimdir. Rahbar bilimli bo‘lishi kerak. U oddiy xodimlardan bilim va tajribasi bilan ajralib turishi, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olishi bilan ajralib turadi. “Qo‘ling el aro uzun bo‘lsa, sen o‘z fe‘l-atvoringni ezgu tut” degan naql bejiz emas.

Rahbar o‘z xodimlarini birdek ko‘rishi ularni hol-axvolidan xabardor bo‘lishi joyi kelganda esa qattiqqo‘l bo‘lishi ham kerak. U doim ezgu fikrlaydigan fe‘l atvori ham ezgu bo‘lishi kerak. Asarda Kuntug‘di dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan. Uning himmati va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi. Uning yonida Oyto‘ldining borligi doimo maslaxatlashib ish korganidan dalolat beradi. Rahbar o‘ziga sadoqatli bilimli ezgu fazilatlarini o‘zida jamlagan xodimni o‘ziga yaqin olishi, uning boshqaruv faoliyati yanada yuksalishidan dalolat beradi. Bugungi rahbarlar ham ezgulik, oqillik, donolik kabi fazilatlarini shu asardagi Kuntug‘didan o‘rganishi kerak. Nafaqat Kuntug‘di, balki Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmishning fazilatlarini ham rahbarga xos fazilatlar desak adashmagan bo‘lamiz.

Yomonga qo‘shilsa, ko‘r, ezgu bilib,

Yo‘lini rostlagay yomon ham ko‘rib.

Shuning uchun ko‘pchillika bosh bo‘ladigan kishilar, albatta, ezgu bo‘lmog‘I, ezgulik ziynatlari bilan bezanmog‘I shart. Mamlakat osoyishtaligi el-yurt farovonligi ham boshliqlarning ezgu yoki yaramas ekanligi bilan ko‘p jixatdan bog‘liq. Ezgulik qimmatbaho gavhar asl ipak

va toza shoyi misoli-u doimo baland qadrlanadi, doimiy e'zozda bo'ladi. Yomonlik esa qadrsiz narsaday gap, u doimo oyoq ostida qolib ketaveradi [1:35-36].

Birgina ezgulik bilan insonlar ko'p narsalarga qodir. Yusuf Xos Hojib aytadilarki: So'zni donodan eshitib, nodonlarga qo'llash lozim. Ulug'lardan eshitilgan foydali so'zlarni kichiklarga yetkazmoq ham joyiz. Hech kim ko'p so'zlab dono bo'lgan emas. Ammo ko'p eshitib boshqalarga bosh bo'lganlar talay. Kamgaplik- donolik yo'lining boshlanishi. Sergap odam vaysaqi bo'lib qoladi, uning bilim o'rganishga qo'li tegmaydi. Demak befoyda va kerakmas gaplarni gapirishga vaqt ajratmasdan, shu vaqtni ilm o'rganishga sarflaganimiz, ko'p eshitib maslaxat bilan ish ko'rganimiz maqul ekan. Yoshi katta va tajribasi ko'p insonlardan maslaxat olish va ularni tajribasidan foydalanish har doim insonga qo'l kelishi aniq. Yusuf Xos Hojib buni o'sha paytdayoq bilganlar.

Rahbar o'z qobiliyati, iste'dodini ishga solib izlanadi, shu maqsadda hayotini, odamlarni chuqur o'rganadi. Natijada to'plangan bilimlari, tajribalarini boshqaruvning umumiy qonunlari asosida shakllantirib, o'z rahbarlik usulini yaratadi. U o'z boshqaruv usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija berishi kerak. Shu asnodo u o'z taktikasiga ega rahbarga aylanadi.

Rahbar hech qachon izlanishdan, o'rganishdan, yangilik yaratishdan to'xtab qolmasligi kerak. Chunki to'xtab qolgan inson doimo mag'lub bo'ladi. Bugungi zamon talabi ham yangilik qilishni taqozo etmoqda. Har doim o'rganib, izlanib ish olib borgan rahbarda juda katta tajriba bo'ladi. Har qanday qiyin vaziatdan ham ossonlik bilan chiqib keta oladi. Rahbar faoliyatining asosiy mazmuni boshqaruvning har bir funksiyasini (rejalashtirish, tashkil etish, asoslash va nazorat) bajarishdir. Rahbarlar uchun masalalar muhimligi darajasi aniq bo'lishi

kerak, shunda o'ylangan maqsadiga erishishi osonlashadi. Rahbarda asosan ikki qarama qarshilik vujudga keladi.

Ulardan asosiylari: Ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq barcha masalalarni muhim deb olish bo'lsa, ikkinchisi: barcha mavjud masalalardan eng muhimini tanlashdir. Demak vaqtning tig'izligini nazarda tutadigan bo'lsak, ularning orasidan eng muhimini tanlashdir. Shunday xolatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kerakligi rahbarga doimo masuliyat tug'diradi. Rahbar buyruqlariga xodimlar tomonidan munosabat xodimning obro'yiga bog'liq. Agar u obro'li bo'lsa, uning aytilganlariga og'ishmay amal qilishadi, aks holda uning buyruqlari salbiy fikrlari bilan qabul qilinadi. Obro'li rahbar faoliyati xodimlarni samarali faoliyatiga xizmat qilishi mumkin.

Har qanday jamiyat rahbarlik tizimi, rahbarlar guruhi bilan mavjud. Rahbarsiz jamiyatning, jamiatsiz rahbarning bo'lishi mumkin emas. har bir jamiyatda uning alohida o'rnini bor. Kelajagi buyuk davlatni munosib rahbarlarga qoldirish uchun avvalo ishonchli yoshlardan rahbar jamoasini tarbiyalab borish zarur [2;74].

Xodimlarning ish samarasini oshirishi uchun rahbarda obro' ham bo'lishi kerak ekan. Chunki obro'li rahbarni xodimlar doimo xurmat qiladi. Rahbar ham obro'siga mos holatda ish olib borishi ham kerak. Demak har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchanva shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va xarakat birligi deb atashimiz mumkin. Rahbar ko'p masalalarda xodimlar bilan maslaxatlashib ish olib borsa ish unumi yanada oshishi mumkin [3].

Shu o'rinda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan-shu-xalq. Barchamizga tuz nasiba berga ham-shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan

shu xalq. Shunday ekan biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak-odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslaxat ish tutishimiz kerak avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi [4:5].

Yurboshimiz ham rahbarlik faoliyatida xodimlari bilan xalq bilan maslaxatlashib ish olib boradilar. Mashfaratu maslaxat bilan olib borilgan ish doimo yaxshi natija beradi. Rahbarga kibrilik hislati begona bo'lishi kerak chunki u rahbarlik kursisi abadiy emas kelgan inson ketadi. Boshqaruv odamlar bilan paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi odamlar ham boshqarilgan. Mehnat kishisini rag'batlantirilishi mehnat unumdorligi va natijasiga, olinadigan daromat miqdoriga qiziqdirish kerak. Ya'ni rahbar o'z xodimlarini rag'batlantira olishi kerak. Bunda rahbarning qo'li ochiqlik fazilati namoyon bo'ladi. Fredrik Gersbergning bir gapi bor "Agar siz odamlarni yaxshi ishlashga qiziqtirmoqchi bo'lsangiz, unda ularga yaxshi ish bering" bu so'zda ham ko'p narsani tushunish mumkin. Ushbu hikmatlar bir rahbarning asosiy maqsadlariga kuch berishi aniq [5;26].

Yusuf Xos Hojib: Yomonlarga g'azab, yaxshilarga xurmat ko'rsatish kerak. Ezgular ezgulikdan bahra olishadi. Kishi ezgulikni ko'rib o'z tani, jonini ham fido qiladi deydi. Doimo ezgulikka intilish, izlanish kerak. Rahbar xodimni to'g'ri nazoratda ushlay olsa, maqsadlar amalga oshaveradi. Shunday ekan rahbarlar o'zlarida ezgu fazilatlarni mujassamlashtirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent – 2007. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 200-bet.

2. Narzulla Boymurodov. Rahbar psixalogiyasi. Toshkent – 2007. "Yangi asr avlodi". 328-bet.
3. Salimov O. Boshqaruv hikmati. Toshkent – 2018. G'ofur G'ulom nomidagi nashryod-matbaa uyi. "Ta'lim" nashriyoti. 170-bet.
4. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020. Navro'z nashriyoti. 148-bet.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga boshlovchi bilim). // T – "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2019. 240 bet.

INTERAKTIV DARSLAR ORQALI BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI OSHIRISH

Abdurahmonova Dildora Umarjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Matematika yo'nalishing 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilar uchun taqdiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv darslarning o'rganilishiga yondashuv masalalari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы подхода к изучению интерактивных уроков в развитии критических навыков у будущих учителей.

Abstract: This article analyzes the issues of the approach to the study of interactive lessons in the development of critical skills for future teachers.

Kalit soʻzlar: Interaktiv darslar, zamonaviy taʼlim tizimi, tadqiqotchilik koʻnikmalari, faollikni oshirish, innovatsion pedagogika, zamonaviy talablar.

Ключевые слова: Интерактивные уроки, современная система образования, исследовательские навыки, повышение активности, инновационная педагогика, современные требования.

Key words: Interactive lessons, modern education system, research skills, increasing activity, innovative pedagogy, modern requirements.

Biz bugungi kunda texnologiyalar kundan kunga rivojlanib borayotgan asrda yashamoqdamiz. Hozirgi kunda bizning taʼlim jarayonimizda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini oʻquv jaroyonida qoʻllashga talab oshib bormoqda. Shu sababli boʻlajak matematika oʻqituvchilarining tadqiqotchilik koʻnikmalarini interaktiv darslar orqali oshirish-zamonaviy taʼlim tizimidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Interaktiv darslarning mohiyati

Interaktiv darslar oʻquvchilarning faol ishtirokini taʼminlashga qaratilgan metodlar va vositalar yigʻindisidir. Bu darslarda oʻquvchilar mustaqil fikrlash, tadqiq qilish, bahslashish, muammolarni yechish va ijodiy yondashuv koʻnikmalarini shakllantiradi.

Asosiy usullari:

Guruhli muhokama

Rolli oʻyinlar

Muammoli taʼlim

Teskari aloqa

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirish

Matematika o'qituvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Muammoni aniqlash va uni tadbqiq qilish yo'llarini ishlab chiqarish
2. Statistik ma'lumotni tahlil qilish
3. Matematikadagi innovatsion yondashuvni o'rganish.
4. Natijalarni taqdim etish va baholash.

Interaktiv darslarning tadqiqotchilik ko'nikmalariga ta'sirining afzalliklari quyidagilardan iborat.

Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

Kichik guruhlarda ishlash madaniyatini oshiradi

Matematikani amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.

Interaktiv darslar ta'lim jarayonida o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ularning faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi.

1.Faollikni oshiradi:

O'quvchilarni dars davomida faollashadi, fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi

2.Ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi:

Masalar yechish, muhokama qilish va yangicha yondashuvlarni izlashga yordam beradi.

3.Motivatsiyani oshiradi:

Darsga qiziqish kuchayib, ta'lim jarayoni zerikarli bo'lmaydi.

Innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta'limiy faoliyat mukammal tarkib topmagan shu bilan birga aniq bir to'xtamli bo'lmagan ilmiy faoliyat

ekanligini e'tirof etish lozim. Buning asosiy sabablaridan biri ta'limiy bilim va amaliy ta'limiy faoliyat o'rtasidagi uzulishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, uni faoliyatda qo'llay olish hamda targ'ibot etishda ishtirok etar ekan, faoliyatning samaradorligi va natijadorlikni anglamog'i, fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilish lozim.

Bo'lajak matematika o'qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalar juda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi texnologiyalar va yo'llar o'qituvchilarni tayyorlashda yordam berishi mumkin:

1. Texnologiya yordamida individualizatsiya: Texnologiya yordamida o'qitish va o'rganishni individualizatsiya qilish mumkin. Bu, har bir o'quvchining o'zining tezligida va darajada o'rganishiga imkon beradi.

2. Interaktiv ta'lim vositalari: Interaktiv doskalar, darhol javob berish tizimlari (IRS), kurs boshqaruv tizimlari va Internet asosida ishlaydigan vositalar o'qitishni individualizatsiya qilishga va interaktiv qilishga yordam beradi.

3. Matematika o'qitishda texnologiya: Matematika o'qitishda texnologiyadan foydalanish, o'qituvchilarni tayyorlashning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Bu, o'quvchilarga matematik kontekstda maxsus texnologik resurslarni o'rganish, texnologiyani qanday va qachon to'g'ri foydalanishga e'tibor qaratish va matematika o'qitish va o'rganishda texnologiya bilan bilimlarini qo'llash uchun imkoniyatlar berishni o'z ichiga oladi.

4. Digital texnologiyalar: Digital texnologiyalar matematika ta'limida keng tarqalgan. Ular sinf otagida o'qitish va o'rganishni katta darajada o'zgartirishga qodir. Digital texnologiyalar matematika

o'qitishda vaqt talablarini, o'qitish va o'rganishning vaqtini, matematika qilishning tabiati va asosiy ko'nikmalar va yuqori darajadagi ko'nikmalarga nisbatan o'zgarishlar, darsliklar, o'qitish amaliyotlari va baholash o'zgarishi mumkin. Bu texnologiyalar va yo'llar o'qituvchilarni tayyorlashda juda samarali bo'lishi mumkin. Lekin, bu texnologiyalarni qo'llash uchun o'qituvchilar texnologiyaga oid ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Matematika o'qituvchilari uchun quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin:

1. Virtual Reality (VR) va Augmented Reality (AR): VR va AR texnologiyalari matematika o'qitishda yangi perspektivalarni ochadi. Ular o'quvchilarga murakkab tushunchalar va jarayonlarni tushunishga yordam beradi.

2. Interaktiv ta'lim vositalari: Interaktiv doskalar, darhol javob berish tizimlari (IRS), kurs boshqaruv tizimlari va Internet asosida ishlaydigan vositalar o'qitishni individualizatsiya qilishga va interaktiv qilishga yordam beradi.

3. Online o'qitish platformalari: Khan Academy, Coursera, EdX kabi platformalar matematika o'qitishda juda samarali bo'lishi mumkin. Ular o'quvchilarga o'zlarining tezligida o'rganishga imkon beradi va o'qituvchilarga o'quvchilarining taraqqiyotini kuzatishga yordam beradi.

4. AI-based Learning Systems: AI-asoslangan o'quv tizimlari o'quvchilarning individual o'rganish talablarini hisobga oladi va ularning o'rganish jarayonini moslashtiradi.

5. Gamification: O'yinlashtirish matematika o'qitishni qiziqarli va samarali qiladi. Bu texnika o'quvchilarni rag'batlantiradi va ularning o'rganish jarayoniga qiziqishni oshiradi.

6. Flipped Classroom: Bu texnika o'qituvchilarga sinfda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratishga imkon beradi, chunki o'quvchilar dars materiallarini uyda o'rganishadi.

Bu texnologiyalar matematika o'qitishni samarali qilishga yordam beradi, ularning samaradorligi o'qituvchining texnologiyaga oid ko'nikmalarga ega bo'lishiga bog'liq. Bu texnologiyalarni o'rganish uchun juda ko'p resurslar mavjud, lekin eng muhim narsa bu texnologiyalarni o'z sinfingizda qanday

qo'llashni o'rganish. Bu texnologiyalar va tizimlar har qanday soha uchun mos keladi, lekin ularning samaradorligi o'qituvchining texnologiyaga oid ko'nikmalarga ega bo'lishiga bog'liq.

XULOSA

Inteaktiv darslar o'qituvchilarning ko'nikmalarini oshirishda samarador bo'lishi mumkin, chunki ular quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Faol ishtirokni ta'minlash:

Interaktiv usullar o'qituvchilarni dars jarayonida faol bo'lishga undaydi, bu esa ularda yangi bilimlarni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli vaziyatlarni hal qilish;

Interaktiv darslarda muammoli vazifalar bilan ishlash o'qituvchilarning izlanish va ilmiy yondashuvga o'rgatadi.

Ijodkorlikni oshirish:

Tadqiqot jarayonida o'qituvchilar ijodiy yondashuvni qo'llashni o'rganadi, bu esa tadqiqotchilik qobiliyatlarini kuchaytiradi

Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

Interaktiv metodlarda ko'pincha zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi, bu esa o'qituvchilarning ma'lumot izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Отакулов С. Задачи управления ансамблем траекторий дифференциальных включений. Lambert Academic Publishing, 2019.
2. Otakulov S., Haydarov T.T. The nonsmooth optimal control problem for model dynamic system under conditions of incomplete information. Science and Innovation, 2022, No 1. -pp. 349-359.
3. Otakulov S., Rahimov B. Sh., Haydarov T.T. The nonsmooth optimal control problem for ensemble of trajectories of dynamic system under conditions of indeterminacy. Middle European Scientific Bulletin, vol. 5, October 2020. pp. 3842.
4. Axadova, K. (2023). Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda qo'llaniladigan zamonaviy metodlar. O'zbekiston milliy universiteti.
5. Axadova, Komila. «Texnik oliy ta'limda matematikaning mutaxassislik fanlari bilan integratsiyasini ta'minlash vositalari». Science and innovation (2022).
6. J. Khamidov, and K. Akhadova. «THE ROLE OF MATHEMATICS IN THE FORMATION OF DESIGN COMPETENCE OF FUTURE ARCHITECTS AND BUILDING ENGINEERS» Science and innovation, vol. 2, no. A1, 2023, pp. 97102. doi: 10.5281/zenodo.7541432.
7. Axadova, K. "TEXNIKA OLIY O'QUV YURLARIDA OLIY MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI" JizPI Nashriyoti, 2021.

8. Axadova, K. "Bo'lajak muhandislarning matematik kompetentligini rivojlantirish masalalari". Namangan Davlat Universiteti, 2022.

FARZANDLAR TARBIYASIGA OILADAGI SALBIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TA'SIRI

Orifov Akramxon Sobir o'g'li

Guliston davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Tel: +998882462404

E-mail: akramxonorifov727@gmail.com

Ortiqboyeva Mahliyo Hayrullo qizi

Guliston davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi talabasi

Tel: +998958750157

Annotatsiya: Farzand tarbiyasi har bir ota-onaning ko'zgusi. Ota-onaning psixologik holati, uning farzandi tarbiyasida aks etadi. Farzandining kelajagi chiroyli bo'lishini istagan har bir ota-ona o'z ustida ishlab farzandiga o'rnak bo'lishi lozim. Bilamizki, besh qo'l baravar emas, ya'ni har bir oilada turli xil salbiy vaziyatli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu munosabatlar farzandning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada ana shunday salbiy munosabatlarning farzandlar tarbiyasiga ta'siri, shuningdek ularni kelajakdagi hayotlariga ham salbiy o'rin tutishini yoritib o'tilgan.

Аннотация: Воспитание детей – это отражение каждого родителя. Психологическое состояние родителя отражается на воспитании его ребенка. Каждый родитель, который хочет, чтобы его ребенок имел светлое будущее, должен работать над собой и быть

примером для своего ребенка. Мы знаем, что не все равно, а это значит, что в каждой семье могут возникнуть разные негативные ситуации. Подобные отношения могут оказать негативное влияние на психику ребенка. В статье рассматривается влияние таких негативных отношений на воспитание детей, а также их негативное влияние на их будущую жизнь.

Abstract: Child rearing is a mirror of every parent. The psychological state of a parent is reflected in the upbringing of their child. Every parent who wants their child to have a beautiful future should work on themselves and be an example for their child. We know that not all families are equal, that is, various negative situations can arise in every family. These relationships can have a negative impact on the child's psyche. This article discusses the impact of such negative relationships on the upbringing of children, as well as their negative impact on their future lives.

Kalit soʻzlar: Oila, farzand, tarbiya, oilaviy muhit, psixologiya, oila psixologiyasi, giper-gʻamxoʻrlik, manipulyatsiya, psixologik taʼsir, ong, psixologik iqlim, psixologik holat.

Ключевые слова: Семья, ребенок, воспитание, семейная среда, психология, семейная психология, гиперопека, манипуляция, психологическое воздействие, сознание, психологический климат, психологическое состояние.

Keywords: Family, child, upbringing, family environment, psychology, family psychology, hyper-care, manipulation, psychological impact, consciousness, psychological climate, psychological state.

Kirish: Oila - muqaddas. Ammo, bu muqaddas oilani barpo etish, mustahkamligini taminlash va koʻp yillar davomida oilani saqlab qolish oson ish emas. Oʻzimizning oʻzbek oilalari urf- odatlariga nazar soladigan

bo'lsak, sovchilik, kattalar roziligi, kattalar kelishuvi va oxiri yoshlar tanishuvi bilan to'y o'tkazib yuborishadi. Undan keyingi hayot kelinlik uyidagi muhit, urf - odatlar bilan davom etadi. Yosh oila, yoki ota-ona bilan, yoki alohida yashashni boshlaydi. Aksariyat hollarda, ota-ona va shu oila a'zolari bilan birgalikda murosa qilib yashashga to'g'ri keladi. Yoshlar hayotida yangi bosqich - bir biriga o'rganish, ko'nikish boshlanadi. Kattalar gapi bilan, ya'ni oilani mustahkamlash bahonasida tezroq farzand ko'rish mavzusi muhokamada bo'ladi. Eng katta ma'suliyat mana shu davrdan boshlanadi.

Biz "farzand" degan tushunchani yaxshi tushunib olishimiz shart. Chunki bu -alohida katta bir tubi cheksiz bo'lgan mavzu. Farzand bu - o'yinchoq emaski, xohish istaklarni qondirish uchun xoxlagan paytda dunyoga keltirsa. U bir individ, shaxs. Farzandni dunyoga keltirish va uni shaxs sifatida har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash, imkoniyatlar yaratib berish biz ota onalarning eng katta masuliyatimiz ekanligini tushinib olishimiz lozim. Eng avvalo, oiladagi muhit va urf-odatlarimizni to'g'ri yo'lga qo'yib olishimiz zarur. Ota-ona birinchi o'rinda, farzand tarbiyasini nazorat qilishi uchun, o'zidagi nuqsonlarini tarbiyalashi, kamchiliklarini bartaraf qilishi va ular ustida ishlashi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalarning rivojlanishiga oila hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Xo'sh, farzand tarbiyasi qaysi paytdan boshlanadi? Farzand tarbiyasi ona qornidan, embrionlik davridan boshlanadi. Ona farzand kutayotganini bilgandan so'ng, onalik instinkti uyg'onib, o'zi va bolasini ehtiyot qila boshlaydi. Bolaning yaxshi rivojlanishi uchun toza havoda sayr, o'z vaqtida to'g'ri ovqatlanishga e'tibor qaratadi. Bu jarayon farzand tug'ilganidan keyin ikki hissaga oshadi. Bola ona qornida rivojlanib borar ekan, o'zining xarakterini ko'rsatib, ona bilan muloqotga kirishadi. Farzandning mehr muhabbatga hissi uyg'onadi. Oiladagi

bo'lib o'tadigan har bir muhit o'z ta'sirini ko'rsatadi. Farzand dunyoga kelgach, biz uning sog'lom bo'lishini va aqliy jihatdan yaxshi rivojlanishini xoxlaymiz, uning qanday inson bo'lishini oxirgi o'ringa qo'yamiz.

Ingliz faylasufi DJ.Lokkning fikriga ko'ra - "bolaning qalbi, nimani xoxlasa shuni yozish mumkin bo'lgan oq qog'ozga o'xshaydi". Bu oppoq qog'ozni yaxshi narsalar bilan ham, yomon narsalar bilan ham, to'ldirish ota-onaga bog'liq. Bola tarbiyasida ota-ona birdek mas'uliyatga ega bo'lishi lozim. Faqatgina ona yoki ota tarbiyasi bola tarbiyasining shakillanishida salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Avvalambor, bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o'rinda turadi. Har bir inson o'z ishi bilan band bo'lgan bugungi kunda ota-onalar ko'pincha farzandlari bilan vaqt o'tkazish kerakligini unutishadi. E'tibor va muloqot yetishmasligi bolaning hissiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rish, oilaviy rishtalarni mustahkamlash uchun bolalar bilan muloqot qilish, o'ynash va yetarlicha vaqt ajratish haqida o'ylab ko'rish kerakligi oilaning eng birinchi vazifalaridan ekanligini yoddan chiqarmasliklari lozim. Bugungi kunda bu eng dolzarb masala hisoblanadi. [1]

Ko'pgina ota-onalar farzandlarini hamma narsada eng zo'r bo'lishiga intiladi va ba'zida, bu haddan tashqari mukammallikka olib keladi. Bu, bolaga haddan tashqari bosim o'tkazishi va uning normal rivojlanishiga to'sqinlik qilib, ota-ona va farzand o'rtasidagi manipulyatsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Ota-onalar esda tutishlari kerakki, eng muhimi mukammallikka intilish emas, balki mehrlarini ayamadan, bolani qo'llab-quvvatlashga va tushunishga harakat qilishlari lozim. Zamonaviy dunyoda ota-onalik haqiqiy san'atga aylandi. Bu - muvozanat, sabr-toqat va bilimni talab qiladi. Biroq, hatto eng

g'amxo'r ota-onalar ham o'zaro munosabatlarining sog'lom emasligi sababli, farzandlarining rivojlanishi va ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xatolarga ota yoki ona hukumdor manipulyatsiyasiga yo'l qo'yishlari mumkin. Bunada, ota farzandiga tanbex berayotganida onaning yon bosishi, yoki aksincha, ona tanbex berayotganida otaning yon bosishi, ota-ona o'zaro kelishmovchiliklarini farzandi oldida muhokama qilishi va hokazolar shular jumlasidandir.

Giper-g'amxo'rlik ("giper" lotincha so'zdan – me'yordan yoki o'lchovdan oshib ketish) bola uchun nafaqat haddan tashqari tashvish, balki haddan tashqari nazorat ham hisoblanadi. Ota-ona bola uchun nimani va qachon bajarishni, qanday ovqatlanishni, nima deyishni hal qilishi aslida bolaga zarar keltiradi. Haddan tashqari himoyalash g'amxo'rlikdek tuyulsa-da, aslida unday emas. Haddan tashqari himoyalovchi ota-onalar odatda manipulyatsiya qiladilar, talab qiladilar, buyruq beradilar yoki shantaj qiladilar, bolaning istaklari va ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldiradilar, yoki ikkinchi darajali deb bilishadi, bola uchun mutlaqo barcha qarorlarni qabul qiladilar. Shunday qilib, haddan tashqari himoyalash zo'ravonlik shakllaridan biri hisoblanadi.

Ota - ona bola tarbiyasiga juda yumshoq yoki juda qattiq yondashishi bolada xulq-atvor va intizom muammolariga olib kelishi mumkin. Ota - onalar oilada aniq chegaralar va qoidalarni belgilaganlarida, farzandlarida mas'uliyat hissi uyg'onishini va o'zini o'zi boshqara olishni rivojlantirishga yordam berish uchun, ularni birgalikda doimiy ravishda bajarishlari lozim. Albatta, muvozanatni topish juda qiyin, ammo har bir ota-ona bu masalaga jiddiy yondashishi zarur. Ko'p oilalarda farzandlar soni uchtani tashkil etadi. Katta farzand yoki kichkina farzandga e'tibor kuchayib ketishi, yokida kamayib ketishi haqida gapiramiz. Lekin statistika ma'lumotlariga nazar soladigan

bo'lsak, uchinchi farzand dunyoga kelganidan keyin, birinchi farzandga ma'suliyat kuchayib, o'rtancha farzand e'tibordan chetlab qolish extimollari yuqori bo'lar ekan. Ota-onalar qiladigan xatolardan yana biri - farzand tarbiyasida ular xaqoratli so'zlar va kaltak qo'llashlari.. Bolasini kaltak vositasida tarbiya qilishni o'ylaganlar qattiq adashadi. Chunki farzand yaxshi so'zning gadosi, yomon gapirish, kaltaklash bolani oiladan, ota-onadan bezdiradi. Siz yaxshisi farzandingizni qarg'amang, yomon so'zlar bilan so'kmang. Chunki bu narsalar farzandingizga, oilangizga g'am -tashvish keltiradi. Aksincha, yaxshi duolar qiling, yaxshiliklar tilang. Ba'zan sho'xlik qilib, gapingizga quloq solishmasa yoki biror ishda xato qilishsa, ularni urmay-so'kmay, tushuntirishga xarakat qiling. Farzand tarbiyasida har bir narsaga mas'uliyatli yondashib, ularning komil inson bo'lib yetishishida nafaqat ota - onalar, balki, bola atrofidagi jamiyat ham sog'lom fikr egalari bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Farzandlaringizning kimlar bilan do'st va hamsuhbat bo'lishlariga e'tiborli bo'ling, boshqalar oldida iloji boricha sharmandalarcha koyimang. Uyda qanday yaxshi muolila qilsangiz, ko'chada ham yaxshi muolilada bo'ling.

O'zbek oilalarida asosan, birinchi farzand, birinchi nevaraga bo'lgan e'tibor yoki mas'uliyat yuqori darajada. Nafaqat to'ng'ich farzand, balki kenja farzandlar ham ota -onasi yoki bobo - buvisi tarafidan haddan ziyod erkalashlar, ba'zida esa haddan ziyod mas'uliyat yuklashlar farzandni stress holatlarga tushirib, bola fikrlashini buzilishiga olib keladi. Oqibatda, ko'p erkalatilgan farzanda o'z egasini hamma narsadan yuqori o'ringa qoyishiga olib keladi va bola tomonidan ota - onaga nisbatan manipulyatsiya jarayoni yuzaga keladi. Bu esa, atrofdagi insonlar bilan sog'lom munosabatlarni o'rnatishiga to'sqinlik qiladi va muammolarga duch kelishga olib keladi. Haddan tashqari mas'uliyat

yuklatilgan farzand esa, jamiyatda o'z o'rnini topishiga qiynalishiga olib keladi. Bunday farzandlar vaqti kelib ortiqcha yuklatilgan mas'uliyatlardan charchaydi, shaxsiy fikrini bildirsa olmaganidan asablari zo'riqib suitsid holatigacha yetib borishi mumkin. Shuning uchun farzand tarbiyasida har bir narsaga mas'uliyatli yondashib, ularning komil inson bo'lib yetishishida nafaqat ota-onalar, balki, bola atrofidagi jamiyat ham sog'lom fikr egalari bo'lishi muhim rol o'ynaydi. [2]

Barcha insoniy munosabatlar orasida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ayniqsa teran va mustahkamdir. Oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida, jamiyat rivoji uchun eng katta hissa qo'shadigan institut hisoblanadi. Undagi munosabatlarning ishonch, mehr, muhabbat va hurmat asosiga qurilganligi ayniqsa yosh avlodni ruhiy jihatdan yetuk qilib tarbiylashda yuqori ahamiyat kasb etadi. Oilaviy munosabatlar quyidagi 4 qisimdan tashkil topgan:

1. Ruhiy-fiziologik munosabatlar - biologik turdoshlik va jinsiy eitiyojni qondirish munosabatlari.
2. Psixologik munosabatlar - ochiqlik, bir-biriga ishonch va g'amxo'rlikni, bir-birini ma'naviy va emotsional qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.
3. Ijtimoiy munosabatlar - oilada rollarning taqsimlanishi, oiladagi moddiy qaramlikni, shuningdek nufuz, rahbarlik, bo'ysunish va boshqa munosabatlarni o'z ichiga oladi.
4. Madaniy munosabatlar - mazkur oila vujudga kelgan va yashayotgan u yoki bu madaniyat sharoitlarida yuzaga kelgan an'analar va odatlar bilan belgilanuvchi oiladagi alohida munosabatlar.

Bu munosabatlar albatta bola tarbiyasida asosiy o'rin tutadi. Oilaviy munosabatlarning qay darajada va nima asosida tuzilganligi

farzandning ruhiy holatiga yoki ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota va onaning bir biriga bo'lgan munosabatlaridagi mehr, muhabbat va ishonch tuyg'ulari bola yoshlik chog'idanoq uning psixikasida o'z aksini topadi. Bola ruhiy holatining buzilishi, asabiylik, diqqat-e'tiborni jamlolmaslik, odobni tez-tez buzilishi asosan ota-ona munosabatlaridagi kamchiliklar natijasi sifatida baholanadi. Ota-ona o'z ruhiy va ma'naviy sog'lijiga alohida e'tibor berishi lozim. O'z ruhiy sog'ligining holatiga to'g'ri baho bermaslik bolalarga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi. [3]

Ota-ona farzandlarida o'z bolalarining bo'lg'usi ota-onasini ko'rishlari lozim. Aqliy va jismoniy jihatdan faol hayot kechirish, axloqiy-ma'naviy sog'lomlik va beg'uborlik bola normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bosh omillardir. Oila - jamiyatning muhim bo'g'ini. Unda biz o'z hayotimizning eng yaxshi va muhim qismini o'tkazamiz. Oila shaxsning shakllanish sarchashmasi hisoblanadi va uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlik darajasini belgilaydi. Ota-onaning oiladagi maqomi ularga muloqot qoidalariga rioya etish majburiyatini yuklaydi, kattalar xulq-atvori shartlarini belgilaydi. Muayyan sharoitdagi xulq-atvorni modellashtirish muloqot jarayonida o'zini to'g'ri tutish demakdir. Bolalar oldida ota-onalarning bir-birining fikrini hurmat qilgan holda madaniy muomala qilishi, farzandlarning jamoa bilan kirishimli bo'lishi, jamiyatda har qanday muammoli vaziyatlarni muomala orqali murosamadora yo'li bilan hal qilish ko'nikmasini shakllantirishda boshlang'ich bo'g'in vazifasini ta'minlab beradi. Ota-ona oilada har jihatdan o'z farzandlariga o'rnak bo'ladi. Bola ulg'aygani sari ota-ona imidjining unga bo'lgan ta'siri kuchayib boradi. Ayrim ota-onalar bunga ko'pincha e'tibor bermaydilar. Aksariyat hollarda ular uyda o'z tashqi ko'rinishiga qaramay qo'yadilar. Vaholanki, bu bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular muqarrar tarzda hayotda o'z ota-onasiga taqlid qiladi.

Buning natijasida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi va buning natijasi o'z oldiga qo'yan maqsadlarga erishishda qiyinchilikka uchrashi mumkin. To'liq bo'lmagan (ya'ni otasiz yoki onasiz) oilada tarbiya uchun o'ziga xos sharoitlar yuzaga keladi. Oilada otaning yo'qligi o'g'il bolalarga qiz bolalarga qaraganda salbiyroq ta'sir ko'rsatadi: otasiz ular ko'pincha urishqoqroq va sertashvishroq bo'lib o'sadilar. Bunday oilalarda voyaga yetgan qizlarning xulq-atvori to'liq oilada tarbiyalangan qizlar xulq-atvoridan uncha farq qilmaydi. [4]

O'qish natijalariga qiziqish - ota-onaning bolaga bo'lgan umumiy qiziqishining muhim ko'rsatkichi. Maktabda ishlar qanday ketayotganini bolaning kundalik daftarini tekshirish orqali bilish mumkin. Shu sababli kundalik daftardagi joriy yozuvlarga ota-onaning munosabati ularning o'z o'g'li yoki qizining o'qishiga, ularning qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlariga bo'lgan munosabatini tavsiflaydi. Odatda har oqshom butun oila dasturxon atrofida yig'iladi. Bu vaziyat ota-onaning o'z farzandiga qiziqishi nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir, chunki unda oiladagi o'zaro munosabatlarning butun rang-barangligi aks etadi. Bolaning o'ziga munosabati unga qanday qarashlari, atrofdagilar unga qay darajada qiziqishlari bilan uzviy bog'liq. Agar bola o'ziga past nazar bilan qarasa, u o'z fikrlari va mashg'ulotlari boshqalarga qiziqarli emas, deb hisoblashga moyil bo'ladi. Ota-onasining xulq-atvori va o'ziga bo'lgan munosabatidagi qandaydir holatlar uning bunga bo'lgan ishonchini mustaikamlab boradi. Oiladagi o'zaro munosabatlarning yuqorida qayd etilgan uch sohasidan har biri o'z holicha ota-onaning farzandiga bo'lgan qiziqishi darajasini aks ettirmasligi ham mumkin. Biroq ota-onaning o'z farzandiga befarq munosabati va bola o'ziga past nazar bilan qarashi o'rtasida bevosita aloqa mavjud. [5]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yudina, N. V. oilaviy munosabatlarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta’siri
2. M.Norbosheva “Bolalar psixologiyasi” Toshkent 2002
3. Inomova M. “Oilaviy tarbiyani takomillashtirishning nazariy asoslari” “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent, 1998-yil 3-son.
4. Lutfullayev N. "Oilaning tarbiyaviy ahamiyati" "Xalq ta’limi" jurnali.
Toshkent; 2005-yil 2-son.
5. Azarov Y.P. "Oila pedagogikasi" Toshkent, "O‘qituvchi". 2008.
6. Orifov A.S. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE INFLUENCE OF INTERNET COMMUNICATION ON THE BEHAVIOR OF TEENAGE YOUTH

URL : <https://zenodo.org/records/11178208>

ABDURAUF FITRATNING “OILA” ASARIDA OILA QURISH TARTIBLARI VA OILA IDORASI TO‘G‘RISIDA

Alibekova Hafiza Suvon qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish ta’lim yo‘nalishi” 3-bosqich talabasi

E-mail: hafizaalibekova766@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola XIX asr oxiri XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yorqin vakili Abdurauf Fitrat va uning “Oila” asari haqida. Maqolada Fitratning oila qurish va oiladagi o‘zaro munosabatlar to‘g‘risidagi fikrlari va hikmatlari yoritilgan. Undagi

fikrlarga Qur’oni karim va payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislar bilan isbot va dalillar keltirilgan.

Abstract: This article is about Abdurauf Fitrat, a prominent representative of the Jadidist movement at the end of the XIX century and the beginning of the XX century, and his work “Oila”. The article describes Fitrat’s thoughts and wisdom on family building and family relationships. The ideas in it are supported by the Qur’an and the hadiths of our payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v).

Kalit soʻzlar: Oila, jamiyat, davlat, siyosat, farovonlik, jadidchilik, avlod, kuch-qudrat, er-xotin, farzand, iffat, moʻminlik, gʻayrat, visol, taloq, murosa-madora, homiladorlik.

Keywords: Family, society, state, politics, welfare, struggle, generation, strength, wife, child, chastity, faith, zeal, peace, divorce, reconciliation, pregnancy.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatlarining zabardast vakili tarixchi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg, shoir va birinchi oʻzbek professori Abdurauf Fitratdir. Zukko va bilimdonligi bilan hamisha professor-oʻqtuvchilarini hayratga soladigan Fitratga – “Donishmand” taxallusini ham berishgan. Uning bir qator darsliklari, shuningdek “Chigʻatoy gurungi” nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzganligi bizga maʼlumdir. Olimning “Abulfayzxon”, “Bedil”, “Qiyomat”, “Oila”, “Rahbari najot” asarlari ham juda mashhurdir. Fitrat zullisonayn adib boʻlib ham fors, ham turkiy tilda ijod qilgan. Uning “Rahbari najot” va “Oila” asarlari 1915-1916 yilda Bokuda nashr etilgan. Yozuvchi ushbu asrlarini Turkiyada tahsil otyotgan paytida yozgan. Uning ushbu ikki asari ijtimoiy-publitsistik asar hisoblanib, ijtimoiy-huquqiy, diniy va maʼrifiy qarashlarni oʻz ichiga olgan. Fitrat ushbu asarlarida bir tomondan, shu yillarda roʻy bergan

siyosiy-ijtimoiy masalalarga munosabatini ifoda etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, musulmon olami uchun o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan yoki muayyan tarixiy davrda saqlanib qoladigan ma'naviy va ma'rifiy qadriyatlarni tushuntirib bergan. U ushbu asarlarida millatning nafaqat siyosiy-ijtimoiy, balki diniy – ma'rifiy masalalarda ham yetrali darajada bilimga ega bo'lmaganini e'tiborga olib, shuningdek har bir musulmon bilishi lozim bo'lgan bir qator masalalarga ham alohida to'xtalib, yorqin dalillar bilan yechimlarni isbot etadi. Fors tilida yozilgan “Rahbari najot” asarida tafsir, hadis, fiqh, kalom ilmlari, shuningdek lisoniy, falsafiy, dunyoviy ilmlar to'g'risida aniq tasavvur berib o'tadi, farzand, badan, fikr, axloq tarbiyasiga oid falsafiy, etik qarashlarini olg'a surdi. Fitratning “Oila” asarida esa oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a'zolarining huquqiy me'yorlari va burchlarini belgilashga qaratilgan fikr va mulohazalari yanada chuqurroq, yorqinroq tushuntiriladi va rivojlantiriladi.

O'sib kelayotgan yosh avlod kelajaghimiz poydevoridir. Porloq kelajak, yorqin istiqbolni orzu etar ekanmiz, eng avvalo, naslimiz davomchilari bo'lmish farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratishimiz lozim. Zero, kelgusi hayotimizning obodligi farzandlarimizning yaxshi xulq-atvor, jismoniy barkamolligi va aqliy yetukligi bilan chambarchas bog'liqdir. Hayot binosini qurishda va uning tarqqiyotida farzand tarbiyasining rolini ta'kidlar ekan, Fitrat 3 narsa tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloq muhimligi ko'rsatadi. Fitratning “Oila” asari 2 qismdan tashkil topgan. 1-qism oila qurish va uni obod qilish xususidadir. 2-qism esa farzand tarbiyasi va oila a'zolarining huquq va majburiyatlari haqida.

1-qism quyidagi 13 bobni o'z ichiga oladi:

1-bob. Uylanish va uylanmaslik xususida.

Ushbu bobni yozuvchi muqaddas Qur'oni karim oyatlari va hazrat payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) hadislari bilan yoritadi. Ushbu hadislarini keltiradi. Abu Hurayra (r.a) dan: "Nabiy (s.a.v) dedilar: "sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir" [1:10-bet] Abdulloh ibn Mas'ud rivoyat qiladi: "Nabiy (s.a.v) marhamat qiladilar: "ey yoshlar, har birlaring nikohga kuchlaringiz yetsa uylaninglar, zero uylanish erkakni fahsh ishlardan saqlaydi va nikohga kuchi yetmasa, u ro'za tutmnog'i darkor , chunki ro'za shahvatni fahshga yaqinlashtirmaydi" [2:12-bet]. Qaysi millatning sa'y –harakati va amali ko'p bo'lsa kuch – qudrati va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi. Albatta farzandlarning bisyorligi va har tomonlama barkamolligi millatning yorqin kelajagi garovidir. Xulosa, uylanish odamlarning zaruriy va tabiiy amridir va unda ko'p axloqiy, xususiy va umumiy foydalar bor.

2-bob. Necha xotinga uylanish mumkin?

Bir millatning har bir oilasiva oila a'zolari saodatli va baxtli bo'lmasalar, o'sha millatni baxtiyor va baxtli deyish xatodir. Bir necha xotinga uylanish oilalarni baxtli qiladimi yoki baxtsiz? Shu oila a'zolariga shodonlik keltiradimi yoki baxtsizlik? Baxtsizlik va og'ir hayotga olib keltiradigan ishni hech qachon qilish kerak emas [3:16-bet].

3-bob. Uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinni tanlash lozim?

Uylanish bir ayol va bir erkakning o'zaro ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Abdulloh ibn Amru hazratlaridan shunday hadis bor: "Nabiy (s.a.v) dedilar : "Dunyo manfaatdir (ya'ni dunyodagi har bir narsaning bir nafi bordir) va dunyoning eng yaxshi manfaati (ne'mati) bu yaxshilik qiladigan va soliha ayoldir" [4:15-bet].

4-bob. Bo'lajak er-xotin birinchi navbatda nimalarga ahamiyat bersin?

Fitrat bu to'g'risida shunday deydi: "Uylanish uchun 4 narsaga e'tibor berish lozim: mol, nasab, husn, imon-u e'tiqod".

5-bob. Mahr va to'y qanday bo'lishi lozim?

To'y albatta ortiqcha isrofgarchiliksiz va dabdababozlikdan xoli bo'lmog'i darkor. Ibn Mas'ud (r.a) rivoyat qiladilar: "Payg'ambar (s.a.v) dedilar: "To'yda birinchi kunning taomi haq, ikkinchi kunning taomi sunnatdir, lekin uchinchi kunning taomi riyodir. Kim riyokorlik qilsa, Xudo uning ikkiyuzlamachiligini xaloyiq ichida fosh qiladi [5:39-bet]. Mahr kuyovning nikoh munosabati bilan xotiniga beradigan do'stona hadyasidir. Shunday Oyati karima keltiriladi: "Ey islom ahli! Sizlardan kimki uylanar ekan, xotin mahrini dil roziligi bilan evaziga mukofot kutmay bersin" [6:35-bet]. Payg'ambar (s.a.v) xotin olganlarida va qizlarini erga berganda 12 uqiyadan ortiqcha mahr tayin qilmaganlar. (1 uqiya – 12 dirham. 1dirham – 3.12 gramm kumush)

6-bob. Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida.

Ular bir – birlariga odobsizlik va hurmatsizlik bilan suhbat qurmasliklari kerak. Qur'on (Niso surasi) shunday oyat nozildir: "Ayollarga yaxshi muomilada bo'linglar" [7:128-bet]. Nikoh o'zaro mehr-muhabbat asosida bo'lishi lozim.

7-bob. Oilaning maishati va idorasi.

Er-xotin bir-birlariga hayot sheriklari va yo'ldoshi ekanlar, ular tirikchilikning ba'zi ishlari va ma'suliyati o'z zimmalariga olib, shularni bajarishlari darkor. Ushbu bobda ayollarga beriladigan nafaqa puli va ayolning eri va oilasi oldidagi majburiyatlari keltirib o'tilgan.

8-bob. Iffat va mo'minlik.

Mo‘minlik va iffat ya’ni diyonat va nomus bir oilaning saodati va intizomiuchungina emas, balki bir mamlakatning saodati va barqarorligi uchun ham lozim va zarurdir. Mo‘minlik va nomus himoyasi avval erkaklarga, keyin ayollarga vojib bo‘lgan.

9-bob. G‘ayrat.

Modomiki, iffat va nomusning himoyasi erkak va xotinlar bo‘ynida farz ekanulardan har qaysilari ikkinchi tomonnni haromdan qayirish huquqlari bordir. Ularning ana shu ishlarini g‘ayrat deyilar.

10-bob. Visol.

Er-xotinlikning birinchi maqsadi farzand, bu maqsadga erishishning vosita va sababi visoldir. Hakimlar erkaklarga 23 yoshdan oldin uylanmaslikni va qizlarga 18 yoshdan oldin turmushga chiqmaslikni maslahat beradilar.

11-bob. Murosa-yu madora.

Qur’oni karim, Niso surasi 19-oyatida shunday keltiriladi: “Ey ahli islom kishilari! O‘z xotinlaringiz bilan yaxshi muomila qiling. Agar ularga nisbatan mehringiz bo‘lmasa ham (sabr qiling va yaxshi muomilani tark qilmang). Zero, Alloh taolo sizlar yomon ko‘rgan narsada ko‘p yaxshiliklarni qilib qo‘ygan bo‘lishi mumkin!” Bu xususda ko‘proq ayollarning nozik ko‘ngilli va qovurg‘adan yaratilganligi va ularning dillariga ozor bermaslik ko‘p tilga olingan. Shuningdek, ayollar ham biror ishlari bilan erlariga ozor bermasliklari lozimdir.

12-bob. Taloq.

Er-xotin hayotda bir-birlarining sheriklari va nikoh ularning ahd-paymonlaridir. Umr yo‘ldoshlari orasida nafrat va ko‘ngilsizlik paydo bo‘lib, muhabbat va mehr yo‘li berkilib qolsa, ular ajralib ketishdan boshqa choralari qolmaydi. Ana shu holatda o‘zaro nikoh bitimiga chek qo‘yilishini shariyatda “Taloq” deb atadilar. Biroq islom dini taloqni man

qilmoqchi bo‘lib, erga: “Taloq berishga shoshilmagin” – deb amr qiladi. Ibn Umar (r.a) rivoyat: “Nabiy (s.a.v) deganlarki: “Alloh oldida eng yomon halol bu taloqdir”. Sahoba Suhbon (r.a) rivoyat qiladilar: “Nabiy (s.a.v) aytganlarki: “Qaysi xotin bezarurat va ehtiyojsiz eridan taloq talab qilsa, Jannat va Alloh rahmati unga tegmaydi” [8:64-bet]. Er-xotin munosabatlarining asosiy omili murosa bo‘lmog‘i shartdir.

13-bob. Homiladorlik davri.

Nikoh va oilaning asosi farzand ko‘rish va o‘zidan yaxshi nasl qoldirib, naslining davom etishi va va kelajakda davomchilarining yaxshi insonlar bo‘lishidir. Ushbu bobda ota-onaning ona homiladorlik davridan to farzand dunyoga kelguniga qadar majburiyatlari keltirib o‘tilgan. Hattoki, tug‘ruq paytida farzandning bu dunyoga kelishi, homiladorlik paytida iste’mol qilinadigan taomlar va shu paytda amal qilinishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar batafsil yoritilgan.

Abdurauf Fitratning “Oila” asarining birinchi qismi oila qurish va uning idorasi boblaridan olgan xulosam shuki, asarning bugungi kunda jamiyatimizda tutgan o‘rni benihoya yuksakdir. Shubhasiz, oila jamiyatning bir bo‘g‘inidir. Jamiyat esa davlatni tashkil etadi. Davlatning yuksalishi, taraqqiy etib, rivojlanishi, gullab-yashnashi, albatta jamiyatimizdagi har bir oilaning tinch va obod bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir. Millatning tinch, osoyishta va barqaror hayot kechirishi, shu davlatda istiqomat qiloyatgan oilalarning farovon va baxtli hayotlari bilan baholanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda ham oila farovonligi davlatning eng oliy siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, bosh qomusimiz O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasining XIV bobi va ushbu bobni tashkil etgan 76-80-moddalari oila masalalariga asoslangan Ushbu bobda oila va uning jamiyatimizdagi o‘rni, oila a’zolarining haq-huquqlari va majburiyatlari qonun darajasida belgilab

qo'yilgan. Konsitutsiya 76-moddasi: “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir” [9:43-bet]. Darhaqiqat, bugungi kunda oila masalasida, nafaqat konsitutsiyaviy qonunlar, balki kodekslar, turli me'yoriy-huquqiy hujjatlar, farmon va qarorlar tasdiqlanmoqda. Ushbu qonunlar esa, albatta oila farovonligi uchun xizmat qilmoqda. Abdurauf Fitrat orzu qilganidek bugun mamlakatimizda oilalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Oilalarning mustahkamligi, baxtli, farovon va bekam-u ko'st yashashlari uchun davlatimiz tomonidan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugun davlat islohotlari oila masalasiga yo'naltirilgandir. Abdurauf Fitratning “Oila” asari bugun xalqimizning oila qurishlari, uni o'zaro idora etishlari, oila a'zolarining o'zaro haq-huquqlari va majburiyatlarini ado etishlari va anglashlarida dastur-ul amal bo'ladi. Ushbu asar, albatta oila mustahkamligi va farovonligini ta'minlashda jamiyatimiz kishilariga ulkan ko'makdosh bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.10-bet.
2. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.12-bet.
3. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.16-bet.
4. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.15-bet.
5. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.39-bet.
6. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.35-bet.
7. Qur'oni karim.128-bet. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.45-bet.
8. Abdurauf Fitratning “Oila” asari.64-bet.
9. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. 43-bet.
10. [http: kutubxona.com/Turkum: Abdurauf Fitrat](http://kutubxona.com/Turkum:AbduraufFitrat)

FARG‘ONA VODIYSI KULOLCHILIK MAKTABLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH VA TARG‘IB QILISH

Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, Tasviriy san’at va muhandislik
grafikasi yo’nalishi 3-bosqich talabasi

Tel: +998941521147

E-mail: matlubaaliyeva37@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg‘ona vodiysining kulolchilik san’atini kelib chiqish tarixi, maktablari, kulolchilik ustalari, kulollarning yaratgan ijodiy ishlarini o‘rganish va ularni targ‘ib qilish, ichki va tashqi turizmni tashkil etish, yosh avlodning madaniy merosga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ular orasida madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish borasidagi ma’lumotlarni bilib olish mumkin.

Аннотация: В данной статье можно узнать об истории зарождения гончарного искусства Ферганской долины, о школах, о творчестве мастеров гончарного дела, Гончаров и их популяризации, об организации внутреннего и выездного туризма, о повышении интереса молодого поколения к культурному наследию, о формировании и развитии у них мышления, направленного на сохранение и развитие культурных ценностей.

Annotation: In this article, it is possible to learn the history of the origin of the pottery art of the Fergana Valley, information on the formation and development of thinking aimed at studying and promoting the creative works created by schools, Potters, organizing internal and external tourism, increasing the interest of the younger generation in

cultural heritage, preserving and developing cultural values among them.

Kalit soʻzlar: kulol tuprogʻi, ishqorli sir, kulolchilik ustalari, oq-koʻk kolorit, uslub, naqsh, ranglar palitrasi.

Ключевые слова: гончарная земля, щелочная глазурь, гончарные мастера, бело-голубой колорит, стиль, узор, цветовая палитра.

Keywords: clay soil, alkaline glaze, ceramics Masters, white-blue Colorite, style, pattern, color palette.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Harakatlar strategiyasini eʼlon qilar ekan, bu muhim hujjatda “jismonan sogʻlom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan Vatanga sodiq, qatʼiy, hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” ularning baxtli, saodatli, farovon kelajagini koʻrish, dunyoda hech kimdan kam boʻlmaydigan avlodni tarbiyalash maqsadini koʻzlaganlar.[1]

Fargʻona vodiysi eng qadimiy shaharlardan biridir. Qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyodagi eng yirik ajoyib sirlangan sopol buyumlar markazi hisoblanadi. Shahar nomi joylashuv joyiga koʻra, kulol



tuprogʻi qizil gil – qizil rangga ega boʻlib, qadimiy soʻgʻd “Rash” (“Rush”, “Rushi”) – “qizil yer” soʻzidan paydo boʻlgan. Oʻrta asrlarda bir tomondan Xitoy va Hindiston, boshqa tomondan Eron va Yaqin Sharq karvon yoʻllari chorrahasida joylashgan Rishton tez surʼatlarda rivojlanib, Buyuk Ipak yoʻlidagi asosiy toʻxtash joyi hamda savdo sotiqning asosiy markaziga aylangan. Hozirgi kunda badiiy bezatish usuli, shakli va

tayyorlanish usullariga ko‘ra quyidagi kulolchilik maktablari mavjud: Farg‘ona (asosiy markazlari — Rishton, G‘urumsaroy), har bir maktab o‘zining rivojlanish va ijodiy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga asosiy badiiy umumiylikni ham saqlagan. Farg‘ona (Rishton)da kulolchilikning an‘anaviy badiiy va ishlab chiqarish usullari qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.



Farg‘ona vodiysi xalq hunarmandlarining kulolchilik buyumlari yuz yillar davomida mashhur bo‘lib kelgan. Rishton va Quva kulolchilik san‘ati maktabi qatorida G‘urumsaroy ustalarining ishlari ham shuhrat qozongan. Hozirgi paytda bu qishloq Namangan viloyati Pop tumanidagi kulolchilik ishi markazlaridan biri hisoblanadi. O‘tgan asrning o‘rtalarida deyarli unutilgan kulolchilik kasbi keyingi o‘n yilda qayta tiklandi. Shu yerlik o‘z kasbining mohir ustalari M.Rahimov, M.Tursunov, X.Hakimov, H.Sotimov zamonaviy G‘urumsaroy kulolchilik san‘ati maktabiga asos soldi. Ota-bobolari hunarini davom ettirayotgan yosh ustalar orasida Vahobjon Buvayev o‘z iqtidori bilan alohida e‘tiborga sazovor. Uning milliy uslubda yasalgan va qadimgi ustalar usullaridan foydalangan holda bezatilgan sopol buyumlari o‘z sifati hamda yorqin ranglari bilan ajralib turadi. V.Buvayevning ishlari Respublika amaliy san‘at muzeyi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Zamonaviy san‘at markazida tashkil etilgan ko‘rgazmalarda namoyish etildi. Poytaxtimizda o‘tkazilgan uchta shaxsiy ko‘rgazmasi, “Tashabbus” ko‘rik-tanlovi, Mustaqillik kuni va Navro‘z bayramiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki Vahobjon ustaning haqiqiy iste’dod sohibi ekani, qadimgi

kulollarning boy an'analarini o'zlashtirganidan darak beradi. Bundan tashqari G'urumsaroylik bu usta o'quv ustaxonasi tashkil etib, yosh avlodga hunarmandchilik sir asrorlarini o'rgatmoqda. G'urumsaroy va unga yaqin qishloqlardan ellik nafarga yaqin o'g'il-qiz bu yerda kulolchilik ishini o'rganmoqda. Ular yasagan milliy oshxona buyumlari ko'pgina ko'rgazmalarda namoyish etildi, ayrimlari esa sovg'a sifatida xorijiy shaharlarga jo'natildi. Tabiiy boyliklarga boy bu mintaqqa Markaziy Osiyoda aholi zich joylashgan hududlardan biri sanaladi. U asrlar davomida ko'plab hunarmandchilik sohalarining, xususan, pillachilik va kulolchilik sohasining beshigi hisoblangan. Bu yerda kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning eng muhim markazlari rivojlangan bo'lib, ularning O'zbekistondagi eng mashhuri Rishton markazi hisoblanadi. Xorazm ustalarining buyumlari kabi Farg'ona



kulolchilik mahsulotlari ham o'zining ko'plab, yorqin ishqorli sir yordamida hosil qilingan, nozik farq qiluvchi oq-ko'k koloriti bilan alohida ajralib turadi. Yirik va unchalik xilma-xil bo'lmagan Xorazm buyumlari bilan taqqoslaganda, Farg'ona idishlari o'zining boy va murakkab naqshlar bilan bezatilgan xilma-xil turlari va shakllari bilan farqlanadi. Ular, shuningdek, vazifasiga ko'ra ham xilma-xildir. Ushbu mintaqada ishlab chiqariladigan nafis idish-tovoqlar orasida turli idishlar, xususan, go'shtli va sabzavotlardan tayyorlangan taomlarni tortiq qilish uchun ishlatiladigan kosalar, kosachalar, dukki kosa deb nomlanadigan murabbo va boshqa shirinliklarga tortiq qilish uchun ishlatiladigan katta kosalar ham bor. Shuningdek sut mahsulotlarini

saqlash uchun mo'ljallangan turli xil idishlar ham ommalashgan. Farg'ona kulolchiligi o'zining o'zbek va tojik markazlarida bir-biridan ozroq farq qiladigan, muayyan uslubga solingan o'simlik gulli boy va xilma-xil naqshlari bilan yoki idishlar yuzasini bezab turgan xochsimon kompozitsiyalari bilan ajralib turadi. Ularni yashil va jigarrang tuslariga ko'ra nozik farqlanuvchi yorqin moviy rangdan tortib to quyuq kobalt rangigacha bo'lgan ko'k rangning palitrasi birlashtirib turadi.

Hozirgi kunda kulolchilik faniga yanada e'tibor kuchaymoqda. Rishton O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida axolisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta'siri ostida bo'lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'la oladi. Qizg'ish-sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun xududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatligi mahalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan xolda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi.[2] Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan har xil bo'yoqlar, kvartsl qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan. 1960 yillarda yuqorida eslatib o'tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an'anaviy markazlar barxam topa boshladi. Ana shunday sharoitda San'atshunoslarning Butun ittifoq konferensiyasi (Farg'ona 1974 yil) qabul qilingan moviy ishqorli sopol idishlari ishlab chiqarish an'analari saqlab qolish haqidagi qarori amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror ustalarga ma'qul tushdi. Ular oldingi ishlab chiqarishga qaytib buyumlarni bezashning an'anaviy shakllari va

usullarini qayta tiklay boshladilar. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopoli an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi. Ishqorli sir tayyorlash ham yo'lga qo'yildi. Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko'p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko'zga tashlanadi. 1970-90 yillardagi girix bezaklar orasida tursimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi doirasimon shakllarning zanjir shaklida bir tekis berilishi nuqtali naqsh qora va oq kvadratchalarning navbat bilan o'rin almashishi shaklidagi naqsh egri va to'g'ri chiziqlar shaklidagi doiracha va to'pbarggul shaklidagi mavhumiy geometrik bezaklar ko'p tarqaldi. O'simliksimon naqshlar ayniqsa turli-tuman va sermazmundir. O'simlik dunyosiga oid mavzularni talqin qilishda ayniqsa an'anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talqinlari nisbatan yaqqol ko'zga tashlanadi. Hayvonlarga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida «parchasi yaxliti uchun» tamoyiliga ko'ra taqdim etilgan. Unda inson, hayvonlar va parrandalarning gavdasini ayrim unsurlari yordamida yaxlitlik g'oyasi aks ettiriladi. 1970–1990 yillar Rishton kulolchiligining rivojiga quyidagi tamoyilni qayd qilish mumkin.

Rishtonlik ustalar an'anaviy merosni astoydil e'zozlash bilan birga ancha dadillik va keskinlik bilan buyumlar shakllari talqini hamda naqshli bezaklar harakteriga o'zgarishlar kiritishmoqda. An'anaviy shakllarni va naqshlarni izchillik bilan to'laqonli qilib qayta tiklash an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar



turlarini kengaytirish egallab bormoqda. Har bir ijodkorning ruhiy holatini, o'zi bajarayotgan buyumida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning ozodaligi, jihozlarning qulayligi muhim rol o'ynaydi. Kulolchilik xonasini jihozlashda haykaltaroshlik xonalarini jihozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda jihozlash qisman bo'lsada foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Yosh avlodning madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular orasida madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tafakkurni shakllantirishda uzoqqa bormasdan avval, o'zimizning yurtimizdagi milliy qadriyatlarimizni bugungi kunda qadar saqlanib kelishida o'z hissasini qo'shib kelayotgan me'moriy obidalarimiz, urf-odatlarimiz, milliy kuy-qo'shiqlarimiz, amaliy san'at va an'anaviy hunarmandchilikning betakror asoriatlari, kulolchilik san'atining eng qadimgi davrlardan torib, to hozirgi zamonaviy kompozitsiyalar asosida yaratilgan buyumlari, ularni yaratgan mohir ustalarining hayoti va ijodini ilmiy jihatdan o'rganish lozim. Institutning bitiruvchi kurs talabasi bo'lganligim bois men bitiruv ishini "Tasviriy va amaliy san'atda milliy qadriyatlar asosida zamonaviy kompozitsiyalar yaratish (keramika)" mavzusida tanladim va bu borada Namangan viloyati Pop tumanidagi G'urumsaroy kulolchilik maktabining wikipediasini yaratishni, shu jumladan kulolchilik maktabi ustalarining ishlarini onlayn kuzatish imkonini beruvchi yangi platforma yaratish ustida izlanishlar olib bormoqdaman. Nomoddiy madaniy merosni saqlashning zamonaviy usullari va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o'rganishda soha vakillari bilan turli xil davra suhbatlarini, ijodiy ishlarni yaratishning amaliy ko'rsatgan holda uchrashuvlar, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish masalariga alohida

e'tibor qaratish taklifini bermoqchiman. Yoshlarni qadriyatlarimizni asrab-avaylash haqida gapirishdan ko'ra ularga xalqimizning "ming marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal" naqlining naqadar to'g'ri ekanligini amalda ko'rsatib berish lozim. An'anaviy san'at va hunarmandchilik shakllari hissiy yuk bo'lib, avloddan-avlodga o'tishi mumkin bo'lgan meros qoldiqlari va artefaktlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH.Mirziyoyevning "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 muhim tashabbus!".
2. Turg'unov A. O'zbek kulolchiligi san'atining hududiy xususiyatlari. - Toshkent, 2001.
3. S.F.Abdirasilov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. - T.: «Fan va texnologiya», 2012 yil.
4. Buvayev Vaxobjon Sodiqovich. Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash. N. 2022.
5. Internet ma'lumotlari.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR FAOLIYATIGA INTEGRATION YONDASHUV ASOSIDA BILISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Abdullajanova Saodat G'ayrat qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

70110201 - "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim)" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Tel: (+99877-395-02-42)

E-mail: (abdullajanovasaodat7@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar faoliyat turlariga Integratsion yondashuv asosida bilish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasining maktabgacha ta'limdagi o'рни va samaradorligi yoritiladi.

Аннотация: В данной статье освещена роль и эффективность метода формирования познавательных компетенций на основе интегративного подхода к видам деятельности дошкольном образовании.

Abstract: In this article the role and effectiveness of the method of formation of cognitive competences based on the Integrative approach is education is highlighted.

Ключевые слова: «Дошкольное образование комплексный подход, познавательные компетенции, виды деятельности, методика обучения».

Kalit soʻzlar: "Maktabgacha ta'lim, integratsion yondashuv, bilish kompetensiyalari, faoliyat turlari, ta'lim metodikasi".

Keywords: "Preschool education. Integrated approach cognitive competencies types of activities educational methodology".

Maktabgach ta'limning sifat va samaradorligiga erishishda bollarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanish qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o'tkazilgan ta'limiy faoliyatlar va manbalarni bolalar va jamiyat extiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadga muvofiq jarayondir. Buning uchun esa Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv muhim masala hisoblanadi. Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda bolalarni ta'lim tashkilotlarida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelgan tanish yoki notanish vaziyatlarda

foydalanishga tayyorlanishni tushunish demakdir. Bugungi kunda Respublikamizning barcha sohalari kabi maktabtabgacha ta’lim sohasida ham chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirish keng ma’noli tushuncha bo’lib, uni samarali amalga oshirish tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki integratsion bo’lishi lozimligini ta’lab etadi. Bolalar faoliyatiga integratsion yondashu asosida rivojlanish sohalari bilish kompetensiyalarini shakllantirishga e’tiborini qaratish davir talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo’qotmaydi. Chunki barkamol avlod tarbiyasi har qaysi davlatning eng asosiy ustuvor vazifasi hisoblanadi. Bu borada prezident Sh.M.Mirziyoyev shunday so’zlarni e’tirof etgan, “Ta’lim va tarbiya bor joyda, albatta, ilm, madaniyat va taraqqiyot bo’ladi”. Bundan asosiy maqsad – maktabgacha ta’lim faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, o’quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini, hamda shaklini yangilash evaziga sifat samaradorligini oshirishga erishishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili – Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablarining 2-bob 3-bandida integratsiya tushunchasiga alohida to’xtalib, integratsiya — bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o’rtasidagi bog’liqlikni ta’minlovchi jarayon ekanligi ko’rsatib o’tilgan. “Integratsiya” so’zi lug’atlarda izohlanishicha, lotincha, “integratio” so’zidan olingan bodib, qayta qurish, tiklash, to’ldirish (“integr” — to’liq, butun, yaxlit degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, boshqa bir lug’atlarda “integratsiya” — o’zaro bog’langan holda rivojlantirish, “integrirovat” — bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq, deyilsa, sohaviy lug’atlarda

“integratsiya” — o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish, deb izohlanadi. Integratsion yondashuv orqali maktabgacha yoshdagi - bolalarni tayanch kompetensiyalari asosida tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bolib, ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi: maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’limning keying bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Davlat o‘quv dasturi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan. Kompetensiya – bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadiryatlari majmuidir. Kompetentli bola o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muayyan vazifada safarbar qilishi va qo‘llashi, o‘z maqsadiga erishishi va rivojlanishining har bir bosqichida yoshiga mos keladigan vazifalarni hal qilishi mumkin.

Maktabgacha yoshidagi bolalar tayanch kompetensiyalari:

- -Komunikativ kompetensiya
- -Ijtimoiy kompetensiya
- -Shaxsiy (“Men” kontsepsiyani qurish).
- -Bilish kompetensiyasi

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o‘qish va o‘rganish; mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrofolarini tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Harakat va o‘zaro munosabatlar orqali bolalar bilim olish va o‘rganish strategiyalarini ishlab chiqadilar. Ular atrofolaridagi yangi ob’yektlarni o‘rganadilar va kashf etadilar. Boshqalar bilan o‘yin va o‘zaro muloqot jarayonida ular kuzatadilar va tajriba o‘tkazadilar. Ular muammolarni tushunish va hal qilish uchun yangi imkoniyatlar topadilar. Ular o‘zlarining kashfiyotlari bilan o‘rtoqlashadilar va asta-sekin mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaradigan,

tahlil qila oladigan va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bolalar muammoni hal qilishga e'tibor qaratishlari, muammolarni hal qilish strategiyalarini ishlab chiqishlari va atrofdagi dunyoni tushunish va tushuntirish uchun maqsadlar qo'yishda kognitiv qobiliyatlarini ishga solishlari mumkin. Bolalar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini davom ettirishlari, o'rganishdan zavqlanishlari va o'rganganlarini baham ko'rishlari, kashfiyotlarini boshqalar bilan bo'lishishlari mumkin.

Bilishga oid faollik bu ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqillik va atrof olamga qiziqishda ifodalanuvchi shaxsiy xususiyatdir. Bilishga oid faollikni rivojlantirish fikrlash va idrok etish jarayonida bo'ladi va sifatli o'zgarishlar hamda ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Energetik kuch quvvatli bola faoliyatga qiziqadi, bilishda tirishqoqlikni namoyon etadi mazmunli o'qish jarayonida faoliyat natijalari, vaziyatdagi madaniy jihatlarini belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga oid faollikni rivojlantirish savollarda, mulohazalarda, namoyon bo'ladi va alohida sohadagi maqsadga yo'nalganlik bilan tavsiflanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilishga oid faolligi rivojlantirish uchun muhim vosita o'yin texnologiyalaridan foydalaniladigan mashg'ulotlar hisoblanadi. Shuningdek, bola o'zini o'z faoliyatining subyekti sifatida his qilishi uchun barcha mumkin bo'lgan va yoshiga mos bo'lgan jihozlardan samarali foydalanish ham bolaning kompetensiyalarini to'laqonli rivojlanishi uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlardagi faoliyatlar ham bolaning tayanch kompetensiyalari rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyat; oy mavzulari va hafta mavzulari asosida olib boriladi. Dasturda belgilangan faoliyat turlariga bog'liq mavzularni markazlardagi faoliyatlarga

integratsiya metodlari orqali bog’lab olib borish bolaning bilish jarayonlari shakllanishiga, diqqat, sezgi idrok, mayda matorikalarini o’stirib borishiga, bolalarda insonparvarlik tuyg’ularini shakllantib borish, ijobiy obrazlarni yaratish imkoniyati ham paydo bo’ladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. U ta’limning keyingi bosqichlarida, shuningdek, butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Misol uchun bilish kompetensiyasini aytadigan bo’lsak nafaqat bola hayoti uchun, balki kattalar hayotida ham muhim hisoblanadi. Bilish kompetensiyasi insonni komolotga yetaklaydi. Shunday ekan bolaga ta’lim berishda integratsion metodlar orqali tayanch kompetensiyalarini rivojlantirib borishni, doimo e’tiborga olish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O’zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida. PF-4947-son. 2017-yil 7-fevral. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. ilk va maktabgacha yoshidagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat ta’lablari. 2018-yil. 18-iyun.

3. “ Ilk qadam” davlat o’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining 2022-yil 4-fevral 4-sonli muvofiqlashtiruvchi kengash yig’ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashir etilgan dastur.

4. Hasanboyev J., To’raqulov X. Va b. Pedagogika fanidan izohli lug’at. –T; Fan va texnologiya, 2018-y

ANIQ FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM INTEGRATSIYASI VA INNOVATSIYASI

Ahmadjonova Umida Tojimurodovna

Jizzax politexnika instituti

E-mail: umida.axmadjonova@bk.ru

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak aniq fanlarni (matematika, fizika, kimyo) o'qitishda ta'lim integratsiyasi va innovatsiyasi usullari keltirilgan bo'lib, integratsiya va innovatsiya so'zlarining ma'nolari tahlil keltirilgan. Integratsiya va innovatsiya so'zlarini fanga kirib kelishi va hozirda qo'llanilishi bayon qilingan.

Annotation: The article presents methods of educational integration and innovation in teaching future exact sciences (mathematics, physics, chemistry), analyzes the meanings of the words integration and innovation. The introduction of the words integration and innovation into science and their current use are described.

Аннотация: В статье представлены методы образовательной интеграции и инноваций в обучении будущих точных наук (математики, физики, химии), а также проанализированы значения слов «интеграция» и «инновация». Описано введение в науку слов «интеграция» и «инновация», а также их современное использование.

Kalit so'zlar: ta'lim, integratsiya, innovatsiya, pedagogik innovatsion texnologiya, pedagogik innovatika fani

Keywords: education, integration, innovation, pedagogical innovative technology, pedagogical innovation science.

Ключевые слова: образование, интеграция, инновации, педагогические инновационные технологии, педагогическая инновационная наука.

O‘quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirishda aniq fanlarning roli muhim ahamiyatga ega. Chunki, respublikamizda yuqori saviyadagi kadrlar tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, ayniqsa, umumta’lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar maktablari, oliy ta’lim tizimida aniq va tabiiy fanlardan matematika, fizika, kimyo va biologiyani o‘qitishga, ustivor yo‘nalish berish zarurligini g‘arb mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlari ko‘proq ana shu fanlarni rivojlantirish va chuqur o‘qitish hisobiga fan va texnologiya sohasida dunyo miqyosida yutuqlarga erishganliklari isbotladi.

Insoniyat qadam qo‘ygan navbatdagi o‘n yilliklar fan-texnika va ishlab chiqarishni nihoyatda tez rivojlanayotganligi, shu bilan birga, atrof-muhitni inqirozli holatga kelib qolayotganligi, ayniqsa, ijtimoiy, ma’naviy munosabatlar murakkablashib borayotganligi bilan tavsiflanmoqda. Bu esa kishilik jamiyatining endigi taraqqiyotida yoshlar ta’lim – tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berish zarurligini ko‘rsatadi[1].

Shunday ekan, ta’lim tarbiya jarayonida bugun eski uslub bilan yangi vazifalarni amalga oshirib bo‘lmaydi. Har kuni talaygina yangilik, yangi innovatsiyalar yurtimizga kirib kelmoqda. Yangi innovatsiyalar o‘z tushunchalari, “tili” bilan kirib kelib, fan-texnika taraqqiyotining darajasini asta-sekin yuksaltirmoqda. Vatanimizning pedagogik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Hozirgi milliy pedagogikamizning daraxti ikki hayotbaxsh irmoqdan suv ichadi. Biri - ming yilliklar davomida shakllanib, gavhar zarralaridan hosil bo‘lgan milliy tarbiya tajribasi bo‘lsa, ikkinchisi- jahonning ilg‘or, sinalgan

innovatsion texnologiyalarning yutuqlaridir. Fan va amaliyot birligi ta'minlanishi uchun oliy ta'lim muassasalari faoliyati ham bundan mustasno bo'lmazligi lozim. “Innovatsion texnologiyalar”, “pedagogik diagnostika”, “kibernetik pedagogika”, “test-reyting” kabi tushunchalarning tub mohiyatini o'zlashtirmasdan, ulardan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanmasdan turib, biz jahon pedagogik integratsiyasida o'zimizning munosib mavqieimizga erishishimiz mushkul bo'ladi. Shu ma'noda, “integratsiya” so'zi birlashtirish degan ma'noni bildiradi desak, yanglishmagan bo'lamiz[2].

Integratsiya- u nima uchun bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida zaruratga aylandi? Nega endi shuncha yillardan beri qo'llanilib kelingan ta'lim jarayonini eskicha tashkil etishdan voz kechishimiz kerak va o'quv jarayonini loyihalashga yangicha yondashish zarur? Bu kabi savollarga javob berish uchun, avvalo, ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim. Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmuni va tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmii yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi-talabaning ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;

- va nihoyat, bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi pedagogik innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Yangi ta'lim tizimi, mazmuni, o'quv reja, darsliklar asosida o'quv jarayonini loyihalashtirishga ham yangicha yondashish, tashkil etish zaruriyati tug'ilmoqda.

Jahon pedagogik leksikonidan allaqachonlar “innovatsiya” tushunchasi keng o'rin olgan. Bu tushuncha “yangilik”, “isloh” tushunchalari bilan moslashtiriladi. Keng ma'noda ta'lim tizimidagi har

qanday o'zgarish pedagogik innovatsiyadir. Dastlab bu tushunchalarni ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jarayonlarga nisbatan qo'llashgan, so'ngra ta'lim tizimidagi har qanday yangiliklarga nisbatan qo'llandi. Pedagogik innovatsion texnologiya deb atalishining boisi shunda. Hozirga kelib pedagogik innovatika fani shakllandi. Pedagogik innovatikaga pedagogik yangiliklar, ularni baholash va pedagogik jamoa tomonidan o'zlashtirish, nihoyat, uni amaliyotda qo'llash haqidagi ta'limot sifatida qaraladi.

Hozirgi pedagogik innovatsion texnologiya tushunchasi keng o'qituvchilar ommasining ijodiy faoliyatining mahsulidir. Faqat pedagogik innovatsion texnologiya tushunchasini to'liq ishlab chiqib, uning ilmiy mohiyatini tushunib o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish lozim. Pedagogik innovatsion texnologiya izchil va ketma-ket amaliy faoliyatda, ta'lim-tarbiya jarayonida avvalgi rejalashtirilgan maqsadni amalga oshirishdir. Har qanday ta'lim-tarbiya jarayoni ma'lum pedagogik tizimda amalga oshadi. Pedagogik innovatsion texnologiya qanday usullar bilan o'qitilsa natija yaxshi bo'ladi, degan savolga javob beradi. U o'z tizimiga ega bo'lib, unda komponentlar ketma-ketligi, o'zaro bog'liqligi, bir butunligi saqlanadi. Pedagogik innovatsion texnologiyaning boshqaruvchanligi shundan iboratki, bunda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashxis qilish, natijalash tuzatish kiritish imkoniyatlari mavjud. Bunda ta'limdan kutilgan natijaga erishiladi, vaqt tejalandi, bu esa pedagogik innovatsion texnologiyaning samaradorligi demakdir[3].

Pedagogik innovatsion texnologiyaning tasdiqlanuvchanligi ishlangan modeli boshqa pedagoglar qo'llaganda ham xuddi o'shanday samara-natija berishi kerakligini bildiradi. Bir so'z bilan aytganda,

ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

- talabaning o'quv jarayoniga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;
- bilimlarni mustaqil egallash va erkin fikrlash malakalari shakllanadi;
- shaxsning jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Buning uchun bugun biz talabaga "sen buni bilishing kerak" degan majburlovchi da'vatdan "menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga qodirman" degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

Pedagogik innovatsion texnologiya ma'lum loyihani pedagogik tizimda amaliyotga qo'llashdir[4].

Xo'sh, hozirgi kunda yangi pedagogik innovatsion texnologiyaning mohiyati va mazmuni nimadan iborat? Bu, eng avvalo, ta'lim-tarbiya mazmunini milliyiashtirish. Bunda biz bugungi yosh avlod ta'lim-tarbiyasi mazmunini o'tmish avlodlarimiz yaratgan va jahon fani rivojiga asos bo'lgan bilimlar, boy tariximiz, madaniyatimiz manbalarini hozirgi zamon fani yutuqlari bilan birlashtira olishimizda ko'rishimiz kerak. Bu muammoni yechishda nihoyatda nozik va murakkab narsaga e'tibor berishni maslahat beramiz.

Hozirgi sharoitda ta'lim-tarbiyaning shakllanishi to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, Y.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida yozganidek, ta'limning faqat dars, tarbiyada suhbat shakllar zamona talablarini amalga oshirish uchun yetarli emas. O'qituvchilarimiz qolipga tushgan 5 bosqichli dars bilan birga ta'limning darsdan tashqari, o'qituvchilar tajribasida nostandar darslar deb nom olgan shakllari,

ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar musobaqa-munozara, mustaqil ishlash, konferensiya, sayohat kabi shakllaridan ham keng foydalanishlari lozim. Buning uchun o'qituvchilar ta'limning darsdan tashqari har bir shaklining tuzilishi, bosqichlarini an'anaviy darsdan ustunligini amalda sinab ko'rib, ta'sirchan shaklini aniqlashlari zarur. Bu albatta, o'z-o'zidan bo'lmaydi, buning uchun ta'lim nazariyasini, uning hozirgi zamon muammolarini bilish, ijod qilish, tinmay izlanishni talab etadi.

Talabalarining fanlarga qiziqishini ta'minlaydigan asosiy omil mazmun va uning mohiyati xisoblanadi. Hozirgi kunda fan-texnika jadal rivojlanayotgan bir paytda aniq fanlarni o'qitish mazmunini, mohiyatini hamda vazifa va yondashuvlarni umumiy tarzda belgilash qiyin emas.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida aniq fanlar (matematika, fizika, kimyo) darsliklarining muqobil variantlarini yaratish va o'quv jarayonida qo'llash ta'lim sifatini yuqori darajada oshishiga yaqindan yordam berishini unutmasligimiz kerak.

Shu bilan birgalikda ta'limning zamonaviy yondashuvlar asosida olib borilishi talaba va o'qituvchilarning zamon talablariga mos ravishda bilim berishlarini ta'minlaydi. No'anaviy dars o'tishda interfaol usul va uslublardan foydalanish nafaqat o'qituvchini balki talabalarni ham yangicha yondashuvga, yangicha fikrlashga o'rgatadi.

Aniq fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiya asosida barcha o'quv yurtlarida zamon talabi darajasida tashkil etish ta'lim ilmiy va tarbiyaviy tartibga hamda talaba va o'qituvchi tanloviga bog'liq. Suuningdek, barcha ta'lim tizimidagi talabalarni, o'quvchilarni o'qishdan tashqariga chalg'ituvchi ikkinchi darajali narsalarga va o'qitish mazmunidan yiroq turli xil tadbirlarga jalb qilmaslik ham o'qish-o'qitish tizimidagi dolzarb muammolarni hal qilishda, yuksak samaradorlikka erishishda muhim bir ahamiyat kasb etadi

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, aniq fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarining kasbiy mahorati, o'quvchilarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. bo'lajak aniq fanlar yo'nalishi pedagoglarining faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda ularlarining shaxsiy sifatlari kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, bo'lajak aniq fanlar yo'nalishi pedagoglarining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi o'quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak aniq fanlar yo'nalishida pedagoglarining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aniq fanlar yo'nalishi uchun o'qitish metodikasi talaba(o'quvchi)lar oladigan ta'lim sifati uchun muhim ahamiyatga ega. Aniq fanlar yo'nalishi o'qituvchilari doimiy kasbiy rivojlanishga va talabalarga eng yaxshi ta'lim berish uchun yangi va innovatsion o'qitish yondashuvlarini integratsiyalashga sodiq bo'lishlari kerak. Samarali o'qitish metodikasini ishlab chiqish va qo'llash aniq fanlar yo'nalishini rivojlanishi sanoatining uzluksiz o'sishi va muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O.O'rinova. (2023) Kimyo fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muammoli yondashuvlari. *Международный научный журнал № 13 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке»* 444-446
2. Тожимуродовна, А. Ё., & Тожимуродовна, А. У. (2022). Аграр соҳани барқарор ривожлантиришда фан, таълим ва ишлаб

чиқариш интеграциясини ўрни. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 894–897. Retrieved from

3. Axmadjonova, Y., & Axmadjonova, U. (2023). Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar. *MMIT*, 112-113.

Джураева, Н., & Ахмаджонова, У. (2022). Fizika fanini o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(3), 241-243.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA’LIMNI TASHKIL ETISH VA UNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Hakimova Nasiba Barakayevna

Guliston davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi o’qituvchisi

Tel: +998993993182

Axmadova Bahoroy Sunnatjon qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Tel: +998772913737

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida e’tiborga muhtoj bo’lgan o’quvchilarning individual xususiyatlarini, adaptiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda testlar va so’rovnomalar o’tkazish hamda shu asosda, inklyuziv ta’limga jalb qilingan o’quvchilarning o’z-o’zini baholash imkoniyatlarini shuningdek inklyuziv ta’limning psixologik, pedagogik tomonlarini ilmiy nuqtayi nazardan ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье рассматриваются научные аспекты проведения тестов и анкет с учетом индивидуальных особенностей и адаптационных возможностей обучающихся, нуждающихся в особом внимании, и на этой основе возможности самооценки обучающихся, вовлеченных в инклюзивное образование, а также психолого-педагогические аспекты инклюзивного образования.

Abstract. This article discusses the methods of conducting tests and questionnaires, taking into account the individual characteristics and adaptive capabilities of students who need special attention, and on this basis, the possibilities of self-assessment of students involved in inclusive education, as well as the psychological and pedagogical aspects of inclusive education, from a scientific point of view.

Kalit soʻzlar: inklyuziv taʼlim, tashxislar, debil, idiot, imbetsil, cheklangan imkoniyatlar ijtimoiy, siyosiy, integratsiya taʼlimi.

Ключевые слова: инклюзивное образование, диагнозы, debil, идиот, слабоумный, ограниченные возможности, социальное, политическое, интеграционное образование.

Keywords: inclusive education, diagnoses, moron, idiot, imbecile, limited opportunities, social, political, integration education.

Har bir inson taʼlim olish huquqiga ega, deb hisoblanadi. Bu oddiy ibora zamirida insoniyat taraqqiyoti, adolat va tenglik tamoyillarining asosi yotadi. Ammo hayotda har kimning imkoniyatlari bir xil emas. Baʼzi bolalar uchun oddiy oʻquv partasi ortida oʻtirish va bilim olish, doʻstlar orttirish, yangi narsalarni oʻrganish qiyin va baʼzan imkonsizdek tuyuladi. Inklyuziv taʼlim ana shunday farqlarni yengib oʻtish, imkoniyati cheklangan bolalarga oʻz tengdoshlari bilan bir xil sharoitda bilim olish imkonini yaratish maqsadini koʻzlaydi.

Inklyuziv ta'lim bu nafaqat ta'lim tizimidagi yangilik, balki butun jamiyatni insoniylikka, bag'rikenglikka va birlikka chorlaydigan ijtimoiy hodisadir. Umumta'lim maktablarida bu yondashuvni amalga oshirish esa pedagoglarning professional tayyorgarligi, o'quv jarayonini moslashtirish va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishni talab qiladi. Ammo bunday ta'lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarga, balki ularning atrofidagi barcha o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi — ular birgalikda o'rganadi, rivojlanadi va haqiqiy hayotga tayyorlanadi. Demak, inklyuziv ta'limning pedagogik asoslarini o'rganish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki kelajak jamiyatni yanada adolatli va uyg'un qilish uchun mustahkam poydevor yaratishdir.

2021/2022 o'quv yilidan respublikamiz miqyosida umumta'lim muassasalarida tajriba sinov tariqasida inklyuziv ta'lim joriy etildi. Bunday birinchi inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflariga o'quvchilar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari uchun belgilangan yosh me'yoridan ikki yilga oshgan bolalarni qabul qilishga ruxsat etiladi. Inklyuziv ta'lim subyektlarini psixologikpedagogik qo'llab-quvvatlash alohida ta'lim ehtiyojli o'quvchilari kamsitilmasdan sifatli ta'lim olish, rivojlanish buzilishlarini tuzatish va ijtimoiy moslashish, maxsus pedagogik yondashuvlar va usullar asosida erta tuzatish yordami ko'rsatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish nazarda tutiladi. Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilinadigan bolalar:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar);

- ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘shimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o‘shining yetishmovchiligi — pakanalik);
- aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-xarakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;
- aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (o‘zi harakat qila oladigan yoki qo‘shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar tserebral falaji);

Inklyuziv ta‘lim va uning mohiyati Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo‘lmish farzandlarni mas’ulaylatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo‘shadigan munosib fuqarolar bo‘lib etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Dunyoga “O‘zbek modeli” deb nom olgan rivojlanish yo‘li bilan tobora ko‘proq tanilayotgan O‘zbekistonda ham bolalar huquqlarini himoya qilishga juda katta e‘tibor berilmoqda. Mamlakatimizda maktab, litsey, gimnaziya, kollej kabi bilim dargohlari bilan birgalikda turli maxsus maktab internatlar, mehribonlik uylari faoliyat ko‘rsatayotganligi ham fikrimizning isbotidir. Ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o‘quv yurtlariga tayyorlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya

tizimiga o‘zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g‘oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog‘lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor. Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta’limtizimi inklyuziv ta’lim deyiladi. Inklyuziv ta’lim nogiron bolalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta’lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko‘zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir. Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o‘quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog‘liq tomonlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o‘zlari xohlagan maktabda o‘qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo‘lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo‘l qo‘yilgan xatolar sababchi bo‘lgan. Demak, uning o‘qishi uchun ham shu jamiyatning o‘zi jon kuydirishi shart. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- mos keluvchi;
- rivojlantiruvchi;
- inklyuziv;

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli. Rivojlantiruvchi

ta'lim 29-moddada ko'rsatilgan: "Ta'lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak". 2-va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
 - ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
 - ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
 - tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
 - jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;
 - do'stona muhitda do'st orttiradilar;
 - turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.
- Boshqa bolalar esa;
- do'stona muhitni yaratadilar;
 - maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar, ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;
 - sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
 - tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
 - jamoa oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;
 - didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
 - o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;

- har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
- ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
- ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;
- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omillardandir. Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayocda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari

kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki ogʻzaki informatsiyani olishlari kerak. Oʻquv rejasini bunday differensiyalash oʻqituvchilarda oʻz ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab maʼmuriyati buning uchun oʻqituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv oʻquv rejasiga qattiq talab qoʻyilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. “Bolalarni qutqaring” (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv taʼlimdagi asosiy toʻsiqlarni xalq taʼlimi tizimi va maktablarga qoʻyadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qoʻyayotgan davlatimizda bunday toʻsiqlarni oʻz-oʻzini boshqarishning milliy modeli boʻlgan mahallalarda hal etish mumkin. Inklyuziv taʼlimni joriy qilish davr talabi sifatida. Maxsus yordamga muhtoj boʻlgan bolalar taʼlim-tarbiyasi ularni oʻqish va yozishga oʻrgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga koʻmak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soxa xodimlari hamda nogron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlar jumlasiga kiradi. Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular oʻzlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda taʼlim tarbiya berish bilan hal qilib boʻlmaydi. Jamiyat oʻz aʼzolariga javobgarlikni oʻz boʻyniga olmas ekan, cheklab qoʻyilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni taʼlim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda koʻplab bolalar turli xildagi sabablarga koʻra taʼlimdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv taʼlimga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralari koʻrib chiqish yaʼni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumtaʼlim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofig tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar. Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonmayon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi. Bu ishlarni muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofig tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muasasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi boalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya

nuqtai nazariga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haququqlarga ega. Shuning uchun ham 1990 yilda Djonpiyeyen (Tailand)da juda muhim koferensiya o‘tkazildi. Bu konferensiya “Ta’lim hamma uchun” maqsadini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, unga 155 ta davlat vakillari va 150 dan ortiq nodavlt tashkilotlari qo‘shildilar. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, taxminan 10-15% bolalar maxsus ta’limga muhtoj ekanligi aniqlandi. Djomtiyen (Tailand)da o‘tkazilgan konferensiya asosida “Ta’lim hamma uchun” shiorini qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga tadbiq qilishni tahlil etish maqsadida 1994 yilda YuNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati bilan hamkorlikda Salamanka - Ispaniya umumjahon konferensiyasi o‘tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi va vazifasi butun dunyodagi imkoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim muassasalarida ta’lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabda o‘qitish vazifasini amalga oshirish uchun maktab islohotlarini o‘tkazish zarurligi to‘g‘risida fikr-muloxazalar yuritishga qaratilgan edi. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etishga bo‘lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo‘ladiki, ta’lim tizimidan butunlay chetda qolib ketayotgan maxsus ehtiyojli bolalarni ta’limga jalb etish, maxsus muassasalarga borishga yashash joyi juda uzoqda bo‘lganligi yoki moddiy mablag‘ning yetishmasligi yoki ota-onalarning o‘z farzandini maxsus muassasaga borishini hohlamasligi oqibatida qiynalalayotgan ota-onalarga ko‘mak berish, maxsus ehtiyojli bolalarni ijtimoiy jamiyatga erta va to‘laqonli moslashtirish, teng huquqlilik masalasini hal etish, kamsitishlarni oldini olishdadir. Inklyuziv ta’lim masalasi 90-yillarning diqqat markaziga bo‘lib qoldi. Janubiy Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integrasiyalashgan ta’lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o‘rganilib chiqildi. Natijada barcha davlatlarning Ta’lim Vazirliklarida

maxsus maktablar qoshidagi maxsus bo'limlarga muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilindi. Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi: Inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi. Bolalarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan internatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Inklyuziv ta'lim barcha uchun ta'lim sifatini yaxshilaydi. Inklyuziv ta'lim ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalariga qabul qilinishi o'quvchilarni yanada bolaga qaratilgan faolroq va ko'proq o'quvchilarni qamraydigan yangi o'qitish uslublari ishlab chiqishga undaydi.

Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim olishini yanada takomillashtirish, amaliyotda uchraydigan muammolarning yechimlarini davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida hal qilish masalalari yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- korreksion ta'lim strukturasini sifat jihatdan yangilash;
- respublikaning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich to'liq integrasiyasiga amal qilish;
- davlat normativ hujjatlariga inklyuziv ta'limni joriy etish bo'yicha qo'shimchalar kiritish yoki tadbirlar ishlab chiqish va tasdiqlash;
- binoni ularga mos ravishda rekonstruksiya qilish;
- umumta'lim tizimida ta'lim olayotgan maxsus ehtiyojli bolalar uchun zaruriy moddiy texnik ba'zani yaratish;

-inklyuziv ta'limni tashabbuskorlik mehr-muruvvat tarzida tashkil etish;

-maktabning ish faoliyatiga inklyuziv ta'limni amalga oshirish borasida o'zgarishlar kiritish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori".

2. Inklyuziv ta'lim: Rossiyada rivojlanish istiqbollari (konferensiya uchun materiallar.

3. <http://inclusion.vzaimodeystvie.ru/news/i-vse-taki-obuchenie/>

4. Алехина С.В., Зарецкий В.К. Инклюзивный подход в образовании в контексте проективной инициативы «Наша новая школа» // Психолого-педагогическое обеспечение национальной образовательной инициативы «Наша новая школа». М., 2010.

5. BUGUNGI ZAMONAVIY PEDAGOGIKA FANINING ASOSIY FUNKSIYALARI Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2022 yil 212 bet

6. Туре Йонссон. Инклюзив таълим. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. ЮНЕСКО халқаро ташкилоти. Оперейшен Мерси Халқаро Ташкилоти, Республика таълим маркази. – Тошкент, 2003.

7. Dilshodjon O'sarov PEDAGOGIK TEXNIKANI NAMOYON ETISHDA O 'QITUVCHINING TASHQI KO 'RINISHI Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences 2022 yil 211

8. Дьюи Дж. От ребенка –к миру, от мира –к ребенку. –М.: Карапуз, 2009. –С. 122.;

9. Жўраев Т. С. Ўсмир ўқувчилар ақлий ривожланишининг психологик хусусиятлари: Псих. фан. номзоди ...дисс. – Т., 2005. –С. 139.

RAQAMLI TEXNOLOGIYA ASOSIDA AVTOMOBILLARDA METAN GAZ BOSIMINI O'LGHASH QILISH QURILMASINING MERTOLOGIK XARAKTERISTIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA SIFATNI YAXSHILASH

Qodirova Gulrux Ahrorjon qizi

Farg'ona Davlat texnika universiteti magistranti

E-mail: qodirovagulpari@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining asosiy metrologik xarakteristikalarini tahlil qilish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va yangi yechimlarni ishlab chiqish orqali metan gazini nazorat qilish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Metrologik xarakteristikalar, masalan, aniqlik, ishonchlilik, barqarorlik va tezlik kabi omillarni hisobga olgan holda, zamonaviy talablarga javob beradigan nazorat qurilmalari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu kirishda, metan gaz bosimini nazorat qilishning dolzarbligi, uning texnik jihatlari va kelajakdagi istiqbollari haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация: В данном исследовании предполагается проанализировать основные метрологические характеристики устройств контроля давления газа метана и выявить проблемы, возникающие при их использовании. Также будут рассмотрены

возможности повышения эффективности процесса контроля метана за счет совершенствования существующих технологий и разработки новых решений. Важно разработать устройства контроля, отвечающие современным требованиям, с учетом таких факторов, как метрологические характеристики, такие как точность, надежность, стабильность и быстродействие. Во введении обсуждается актуальность контроля давления метана, его технические аспекты и перспективы на будущее.

Annotation: In this study, it is intended to analyze the main metrological characteristics of methane gas pressure control devices and identify the problems that arise during their use. Also, opportunities to make the methane gas control process more effective by improving existing technologies and developing new solutions will be considered. It is important to develop control devices that meet modern requirements, taking into account factors such as metrological characteristics, such as accuracy, reliability, stability and speed. In this introduction, the relevance of methane gas pressure control, its technical aspects and future prospects are discussed.

Kalit soʻzlar: metan, bosim, gaz, resurs, muammo, energiya, samaradorlik, qurilma, metrologiya, oʻlchov, aniqlilik, xavfsizlik.

Ключевые слова: метан, давление, газ, ресурс, проблема, энергия, эффективность, прибор, метрология, измерение, точность, безопасность.

Key words: methane, pressure, gas, resource, problem, energy, efficiency, device, metrology, measurement, accuracy, safety.

KIRISH

Jahonda avtomobillarni metan gaz bilan ta'minlash tizimlarining samaradorligini oshirish va xavfsizligini ta'minlash maqsadida, gaz

bosimini nazorat qilish qurilmalari muhim rol o'ynaydi. Metan gazining xususiyatlari va uning avtomobil mexanizmlariga ta'siri, shuningdek, uning ishlatilishi bilan bog'liq xavflar, bu qurilmalarning metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Metan gazining bosimini nazorat qilish, avvalo, avtomobilning ishlash samaradorligini ta'minlash, energiya tejamkorligini oshirish va atrof-muhitga zarar etkazmaslik, xavfsizlik masalalari, texnologik rivojlanishlar va bozor talablarining o'sishi kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, to'g'ri nazorat qilish orqali xavfsizlikni ta'minlash va avariya sonini kamaytirish mumkin.

Ushbu tadqiqotda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining asosiy metrologik xarakteristikalarini tahlil qilish va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash ko'zda tutilgan. Shuningdek, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va yangi yechimlarni ishlab chiqish orqali metan gazini nazorat qilish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Metrologik xarakteristikalar, masalan, aniqlik, ishonchlilik, barqarorlik va tezlik kabi omillarni hisobga olgan holda, zamonaviy talablarga javob beradigan nazorat qurilmalari ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu kirishda, metan gaz bosimini nazorat qilishning dolzarbligi, uning texnik jihatlari va kelajakdagi istiqbollari haqida ma'lumot beriladi.



1-rasm. II avlod gaz uskunalari umumiy ko'rinishi.

1-ballon; 2-multiklapan; 3-yuqori bosimli gaz magistrali; 4-chiqarilgan yonilg'i quyish qurilmasi; 5-gaz elektromagnit klapan-filtr; 6-bo'g'latgich reduktor; 7-dozator; 8-gaz—havo aralashtirgich; 9-benzin elektromagnit klapani; 10- “gaz-benzin” qo'shgich [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI VA MUAMMONING O'RGANILISH DARAJASI

[2] Ishda bosim datchiklarining xorijdagi prototiplarining strukturaviy tahlili ko'rib chiqilgan. Turli xorijiy ishlab chiqaruvchilarning bosim datchiklari tahlil qilinib ularga qiyosiy tahlillar berilgan. Bosim datchiklarining rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ma'lumotlar aniq sohalar bo'yicha ko'rilmagan.

[3] Ishda texnik-iqtisodiy mezonlar asosida sifatni nazorat qilish uchun o'lchov vositalarini tanlash algoritmi tahlil qilingan. O'lchash vositalarini tanlash ishlab chiqarishni metrologik qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifalaridan biridir. To'g'ri yechim yakuniy mahsulot sifatiga, oraliq va kirish nazoratiga bog'liq. O'lchash xatolari mavjudligi tufayli ba'zi yaroqli qismlar bo'lishi mumkin. Mahsulotlarni noto'g'ri rad etish yoki qabul qilishdan yo'qotishlarni tahlil qilish qiyin

iqtisodiy vazifalardan biridir. Shu sababli o'lchash vositalarini tanlashda uning muhim mezonlarini xisobga olgan holda algoritmini yaratish bo'yicha takliflar berilgan .

[4] Ushbu maqolada o'lchash vositalari (O'V) uchun mezon va ko'rsatkichlarni tanlash muammosi muhokama qilinadi. Bu masala muhim ilmiy muammo bo'lib, uning yechimi ma'lum darajada O'V ni o'lchash sohalari bo'yicha sistemalashtirish imkonini beradi. Mezonlarni o'rganishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi, chunki O'V ning metrologik va texnik xarakteristikalarini bilan birga o'lchash vositalariga ta'sir etuvchi ko'pgina omillarni ham hisobga olish zarur .

[5] Maqolada turli sohalarda agressiv, ifloslangan, yuqori qovushqoqli, qattiqlashtiruvchi va polimerizatsiya vositalarining haddan tashqari kengayishini o'lchash o'lchov qurilmasining datchigi elementini korroziya va tiqilib qolishi bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilingan. Bu holatlarni yaxshilash va datchiklarni tez eskirishiga va texnik hujjatlarda qurilma ko'rsatkichlarining nomuvofiqligiga olib kelishi mumkinligi tahlil qilingan.

[6] Maqolada absolyut bosim datchiklari uchun avtomatlashtirilgan yuk-porshenli sifat nazorati tizimi uchun o'lchash asosi sifatida yuk-porshenli bosim o'lchagichiga asoslangan avtomatik bosim tizimining matematik modelini ishlab chiqish to'g'risida ma'lumotlar tahlil qilingan. Tadqiqot tizimlarni avtomatik boshqarish va modellashtirish nazariyalarini, shuningdek, gaz dinamikasining asosiy qonun va qoidalarini o'z ichiga oladi. Avtomatik bosim tizimining berkituvchi bo'limlari orqali doimiy bosimlar farqiga ega bo'lgan havo oqimi jarayonlarini nazariy o'rganish natijalari matematik modelda keltirilgan. Absolyut havo bosimi o'rnatilgan yopiq hajmda sodir bo'ladigan gaz-dinamik jarayonlarning asosiy parametrlari belgilangan.

Belgilangan mutlaq bosimning qiymati asosan avtomatik bosim tizimining dizayn xususiyatlariga bogʻliq, ya'ni avtomatik bosim o'tkazgichi bilan tartibga soluvchi tananing va avtomatik bosimni nazorat qilish tizimining sezgir elementining funksiyalarini bajaradigan siqilmagan porshenning parametrlaridan. Bu esa bosimni o'lchashning asosiy prinsipini avtomatik bosim kuchaytirgich bilan amalga oshirish imkonini berdi. Havo oqimining nazariy tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda va avtomatik bosim sozlagichi, avtomatik bosim sozlagichining matyematik modeliga ega bo'lib, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini loyihalash uchun yopiq maydonda dinamik jarayonlarni tasvirlash uchun aniqlik talab qilinadi. Matematik model hisoblangan darajaga keltirilgan va absolyut bosim datchiklari uchun avtomatlashtirilgan yuk-porshen sifatini nazorat qilish tizimlarini loyihalash masalalarini hal qilishda foydalanish mumkin, bunda zamonaviy nazorat usullarini amalga oshirish mumkin.

[7] ishda texnik-iqtisodiy mezonlar asosida sifatni nazorat qilish uchun o'lchov vositalarini tanlash algoritmi tahlil qilingan. O'lchash vositalarini tanlash ishlab chiqarishni metrologik qo'llab-quvvatlashning eng muhim vazifalaridan biridir. To'g'ri yechim yakuniy mahsulot sifatiga, oraliq va kirish nazoratiga bogʻliq. O'lchash xatolari mavjudligi tufayli ba'zi yaroqli qismlar bo'lishi mumkin. Mahsulotlarni noto'g'ri rad etish yoki qabul qilishdan yo'qotishlarni tahlil qilish qiyin iqtisodiy vazifalardan biridir. Shu sababli o'lchash vositalarini tanlashda uning muhim mezonlarini xisobga olgan holda algoritmini yaratish bo'yicha takliflar berilgan.

Bosimni o'lchashning mavjud usullarini metrologik tavsiflarini qiyosiy tahlil qilish va olib borilgan tajriba natijalari asosida bosim o'zgartkichlarining usullari ichida o'lchashning fizik asosi, texnik

amalga oshirishning nisbatan soddaligi, funksional, texnik va metrologik xossalarini takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'lgan usullar tanlandi va asoslandi. Jumladan, tenzometrik, tenzoqarshilikli va boshqa usullar qo'yidagi afzalliklarga ega tez va yetarli darajada aniqlik bilan o'lchash, shu bilan birgalikda ma'lumotlarni masofaga uzatish imkoniyatini yaratish mumkinligi bilan izohlanadi. Bosim o'lchash o'zgartkichlarining hozirgi kundagi kamchiliklariga muhitning tarkibi, harorati, muhitning ta'siri, elementlarning korroziyaga chidamliligi kabi faktorlar o'lchash xatoligining oshishiga olib keladi. Ushbu tadqiqot ishida ushbu faktorlarni ta'sirini kamaytirish usullari va uning texnik yechimi taklif qilinadi.

TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Dunyo bo'yicha avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatini yaxshilash mavzusi, bir qator dolzarb masalalarni hal etishga qaratilgan. Mavzusining zaruriyati asosan quyidagi jihatlarida ko'rinadi:

✧ Metan gazining avtomobillarda ishlatilishi ekologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Gazning to'g'ri va samarali nazorati, uning atmosferaga chiqishini kamaytiradi va havoning ifloslanishini oldini oladi.

✧ Avtomobillarda metan gazidan foydalanish, an'anaviy yoqilg'ilarga nisbatan samaraliroq bo'lishi mumkin. Biroq, gaz bosimini nazorat qilishda aniqlik va ishonchlilik zarur bo'lib, bu energiya sarfini optimallashtirishga yordam beradi.

✧ Metan — yengil yonuvchi gaz bo'lib, u bilan bog'liq xavfsizlik masalalari juda muhimdir. Bosimni nazorat qilish tizimlarining yuqori sifatli metrologik xarakteristikalariga ega bo'lishi, avariylar va portlashlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

✧ Zamonaviy avtomobil sanoati doimo yangi texnologiyalarni joriy etmoqda. Metrologik qurilmalarni takomillashtirish orqali avtomobilda metan gazidan foydalanish jarayonlarini yanada samarali va qulay qilish mumkin.

XULOSA

Avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmalarining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash — bu nafaqat texnik jihatdan zamonaviy yechimlar talab qiladigan vazifa balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham hissa qo'shadi. Yuqori sifatli nazorat tizimlari orqali biz ekologik toza transport vositalariga erishamiz va kelajak avlodlarga barqaror rivojlanishni ta'minlaymiz. Avtomobillarda metan gaz bosimini nazorat qilish qurilmasining metrologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash masalasi zamonaviy transport vositalarining energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga zarar etkazishni kamaytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, metan gazining bosimini aniqlash va nazorat qilishda foydalaniladigan uskunalarning aniqligi, ishonchliligi va barqarorligini oshirish uchun zamonaviy metrologik metodlar va texnologiyalar ko'rib chiqilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tinyakov Yu. N., Milesheva S. A., Andreyev K. A., Sygankov V. Yu. Analiz konstruktsiy zarubejnyx prototipov datchikov davleniya. Elektronnoye nauchno-texnicheskoye izdaniye. sentyabr 2011. <http://technomag.edu.ru/doc/219081.html>
2. O.A. Leonov, N.J. Shkaruba, Algoritmi vybora sredstv izmereniy dlya kontrolya kachestva po tekhniko-ekonomicheskim kriteriyam. Vestnik FGOU VPO MGAU № 2'2012. Str 89-91.

3. Shenkar T. T., Xarchenko Yu. V. Kriterii vybora sredstv izmereniy davleniya. Syentr nauchnogo sotrudnichestva «Interaktiv plyus». Str 1-5.
4. A.V. Markov. Matematicheskaya model avtomatizirovannoy gruzoporshnevoy sistemy kontrolya kachestva datchikov absolyutnogo davleniya. Vestnik IrGTU Tom 22, № 11 2018. Str. 112-124.
5. O.A. Leonov, N.J. Shkaruba, Algoritm vybora sredstv izmereniy dlya kontrolya kachestva po texniko-ekonomicheskim kriteriyam. Vestnik FGOU VPO MGAU № 2'2012. Str 89-91.
6. V. Makarov. Pribory dlya izmereniya davleniya agressivnyx i zagryaznennyx sred. Nauchnyy jurnal: [Datchiki i sistemy](#). ISSN: 1992-7185. God vychoda: 2004. Str 40-44.
7. Vergazov I. R. Ispolzovaniye chastonogo preobrazovaniya dlya snizheniya pogreshnosti tenzorezistivnogo datchika / I. R. Vergazov, V. A. Petrin, Yu. A. Tareyeva // Mejdunarodnyy nauchno-issledovatel'skiy jurnal. — 2015. — №3 (34) Chast 1. — S. 30—32. — URL: <https://research-journal.org/technical/ispolzovanie-chastonogo-preobrazovaniya-dlya-snizheniya-pogreshnosti-tenzorezistivnogo-datchika/> (data obrashcheniya: 05.06.2020.).
8. Preobrajenskiy V. P. Teplotexnicheskiye izmereniya i pribory. M.: Energiya, 1978, - 704 s.

THE PROBLEMS AND DIFFICULTIES OF LITERARY TRANSLATION

Raimboyeva O‘g‘iloy Davron qizi

Djizzakh state of pedagogical university

E-mail: raimboyevaogiloy@gmail.com

Tel:+998501017461

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of translation theory and practice, exploring the fundamental principles of equivalence and adequacy in the translation process. It examines various translation methods, including literal, free, adaptive, and communicative translation, while addressing the key challenges faced by translators in different contexts. The study highlights the distinctions between literary, scientific-technical, legal, and oral translation, emphasizing the linguistic, cultural, and contextual aspects that influence translation choices. Additionally, it explores the impact of cultural differences on meaning transfer and the translator’s role in preserving both semantic and stylistic nuances. The article also discusses the significance of modern translation technologies, such as machine translation, computer-assisted translation (CAT) tools, and artificial intelligence, in improving efficiency and accuracy. Strategies for optimizing the translation process, including terminology management, localization techniques, and quality assurance measures, are analyzed. Furthermore, ethical considerations in translation, such as fidelity to the source text, neutrality, and the responsibility of translators in conveying accurate information, are explored. The study concludes with a set of practical recommendations aimed at enhancing translation quality, ensuring coherence, and maintaining cultural appropriateness.

Keywords: translation theory, translation practice, equivalence, adequacy, translation methods, literary translation, scientific-technical translation, oral translation, linguistic differences, translation technologies, translator challenges, translation quality.

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjima nazariyasi va amaliyotini har tomonlama tahlil qiladi, tarjima jarayonida ekvivalentlik va adekvatlikning asosiy tamoyillarini o'rganadi. U turli xil tarjima usullarini, jumladan, so'zma-so'z, erkin, adaptiv va kommunikativ tarjimani o'rganadi va turli kontekstlarda tarjimonlar duch keladigan asosiy muammolarni muhokama qiladi. Tadqiqot badiiy, ilmiy, texnik, huquqiy va og'zaki tarjima o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib, tarjimani tanlashga ta'sir etuvchi til, madaniy va kontekstual jihatlariga urg'u beradi. Shuningdek, u madaniy farqlarning ma'noni uzatishga ta'siri va tarjimonning ham semantik, ham stilistik nuanslarni saqlashdagi rolini o'rganadi. Maqolada, shuningdek, samaradorlik va aniqlikni oshirish uchun mashinali tarjima, kompyuter yordamida tarjima (CAT) vositalari va sun'iy intellekt kabi zamonaviy tarjima texnologiyalarining ahamiyati muhokama qilinadi. Tarjima jarayonini optimallashtirish strategiyalari, jumladan, terminologiyani boshqarish, mahalliyashtirish usullari va sifatni ta'minlash choralari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tarjimaning manba matniga sodiqlik, betaraflik, tarjimonlarning aniq ma'lumotni yetkazish mas'uliyati kabi axloqiy jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot tarjima sifatini yaxshilash, izchillikni ta'minlash va madaniy muvofiqlikni saqlashga qaratilgan bir qator amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: tarjima nazariyasi, tarjima amaliyoti, ekvivalentlik, adekvatlik, tarjima usullari, badiiy tarjima, ilmiy-texnik tarjima, og'zaki

tarjima, lingvistik farqlar, tarjima texnologiyalari, tarjimon muammolari, tarjima sifati.

Аннотация: В этой статье представлен всесторонний анализ теории и практики перевода, исследуются основополагающие принципы эквивалентности и адекватности в процессе перевода. В ней рассматриваются различные методы перевода, включая буквальный, свободный, адаптивный и коммуникативный перевод, а также рассматриваются основные проблемы, с которыми сталкиваются переводчики в разных контекстах. В исследовании подчеркиваются различия между литературным, научно-техническим, юридическим и устным переводом, подчеркиваются лингвистические, культурные и контекстуальные аспекты, которые влияют на выбор перевода. Кроме того, в ней изучается влияние культурных различий на передачу смысла и роль переводчика в сохранении как семантических, так и стилистических нюансов. В статье также обсуждается значение современных технологий перевода, таких как машинный перевод, инструменты автоматизированного перевода (CAT) и искусственный интеллект, для повышения эффективности и точности. Анализируются стратегии оптимизации процесса перевода, включая управление терминологией, методы локализации и меры обеспечения качества. Кроме того, рассматриваются этические аспекты перевода, такие как верность исходному тексту, нейтральность и ответственность переводчиков за передачу точной информации. Исследование завершается набором практических рекомендаций, направленных на повышение качества перевода, обеспечение согласованности и сохранение культурной приемлемости.

Ключевые слова: теория перевода, практика перевода, эквивалентность, адекватность, методы перевода, художественный перевод, научно-технический перевод, устный перевод, языковые различия, технологии перевода, проблемы переводчика, качество перевода.

Translation is one of the most significant cultural bridges in human civilization. In particular, literary translation is the art of transferring literary heritage from one linguistic environment to another. Literary translation draws on a cluster of strategies and skills, some shared across various literary and non-literary genres and some more genres specific. Literary translation and the translation of scripture traditionally dominated theoretical debates, largely because few other than literary or scriptural translators wrote about translation, as D. Weissbort and A. Eysteinnsson's historical compendium of translation scholarship demonstrates.[10] This process requires not only translating words but also conveying the author's way of thinking, style, and spirit. It goes beyond mere linguistic adaptation, demanding a creative approach, deep analysis, and broad intellectual perspective. For this reason, literary translation is recognized worldwide as a complex field that requires not only language proficiency but also artistic mastery. On the other hand, according to Malkjaer (2011), translation is a sort of activity which is done by a translator at conveying meaning in a text from one language to another language. Both researchers stated that the result of translated-work is not supposed to be like what has been written in the source language (SL) text; however, the purpose of the source language should be conveyed when it comes to the target text (TL). Waldorf (2013) states that translation is a process of mobilizing the meaning of a particular text from one language to the close equivalent of the target

language (TL). Hence, based on the explanations that have been revealed by Malkjaer and Waldorf, translation can be concluded as the process of transferring ideas from one language to another language. Therefore, the translators are only transferring the ideas without changing the purposes of a source text (SL).[8]

Literary translation is an important branch of translation studies, ensuring that a work is rendered into another language while preserving its semantic and aesthetic aspects. Of all types of translation, literary translation is perhaps the most demanding and the most difficult. The reason behind this is that the language of literature is different from ordinary language and involves a variety of challenges on the phonological, syntactic, lexical, semantic, stylistic and pragmatic levels. In literary translation, formal and stylistic features become of great significance.[3] This process requires lexical accuracy, as well as, attention to literary form, poetic and figurative expressions, linguistic rhythm, and the clarity and fluency of ideas. Moreover, German language specialist, devoted translator and linguist Pasha Ali Usman devoted his life to translating and interpreting "Faust" from the original. Finally, he translated the work directly into Uzbek and had it published. However, the linguist-scholar does not claim to have created a complete translation of "Faust" in Uzbek, but still bows to the translation skills of Erkin Vohidov.[7] It is clear that a number of writers have been struggling for years in the process of translating the work. During this time, the work is polished and reflected in another language. As a creative figure, the translator must convey the writer's voice and style in the target language, which adds to the complexity of the translation process. Translated literature of different cultures begins to be realized as the achievement of the national literature maturity connected with the

particularly important period in the national literature as formation time of drama, short story, and novel. Furthermore, the quality of literary translation as a factor of its entry into the target language culture was assessed from the standpoint of translation strategies and the readers' competence.[2] The challenges of literary translation lie in its multi-layered nature.

A translator is not limited to selecting the right words but must also fully convey the essence and emotional tone of the work. In prose translation, it is crucial to maintain the text's main idea, atmosphere, and style. Since literary translation reflects the author's personality and the spirit of the era, the translator must pay close attention to these factors as well. At the current time, translation is not only significant from a literary perspective but also plays a crucial role in cultural and scientific fields. Expanding the reach of world literature in different languages, strengthening connections between national cultures, and making literary heritage accessible to a broader audience are among the key issues facing literary translation. Therefore, studying the theoretical and practical aspects of literary translation in depth and developing effective methods remain essential directions in contemporary translation studies. Gutt emphasizes that during the translation of a literary work, it is essential to preserve the style of the original text. According to him, the stylistic aspects of communication are of particular interest in literary research. This is not surprising, as theorists engaged in literary translation pay special attention to the stylistic qualities of the text. A writer's style is determined by the words they choose and the way they construct sentences. [1]

A translator may face several challenges in the process of translating literary works: these can be generally classified into three

categories: lexical problems, grammatical problems, and semantic problems.

Lexical Problems: These problems are related to word choice and the translation of lexical units. **Polysemous word:** A single word can have different meanings depending on the context. The English word bank can mean both "a financial institution" and "the side of a river." The Uzbek word "tom" can be translated into Russian as крыша (roof) or потолок (ceiling), but the exact meaning depends on the context. **Mismatch of synonyms:** Even if two languages have synonyms, their usage may differ, like the Uzbek words "chiroyli" and "go'zal" both mean "beautiful," but "go'zal tabiat" is better translated as beautiful nature or "прекрасная природа" in Russian. These differences can cause translation errors or ambiguities, so it is essential to consider the exact context. Developments have seen a certain blurring of research between the different types of translation too. Thus, research into audiovisual translation and multimodality now encompasses sign language, intralingual subtitles, lip synchronization for dubbing as well as interlingual subtitles; the image–word relationship is crucial in both film and advertising, and there has been closer investigation of the links between translation, music and dance. In view of this complex situation and for reasons of space, in the present book we shall restrict ourselves mostly to forms of conventional written translation, including subtitling and advertising, and some interpreting.[6]

In the process of translating phraseologisms: Each language has its own expressions that create unique meanings, and translating them literally makes no sense, so they are translated with the general meaning removed, such as English: "Break a leg!" (wishing good luck) → This translates to "Break a leg!", but this is not the original meaning of this

combination. The correct equivalent is: "I wish you good luck!" Uzbek: "Bosh qotirmoq" → This can be translated into English as "rack one's brain", but a literal translation is incorrect.

Grammatical problems in translation can arise for a variety of reasons. Here are some of the most common: Incorrect word order – each language has its own word order. For example, if we look at the structure of a simple sentence, in English it is "I eat an apple", while in Uzbek it is "Men olma yeyman". Additionally, incorrect use of roots and suffixes – It is important to understand how words change according to the grammatical rules of each language. For example, in Uzbek, when the possessive suffix is added to the word "kitob", it becomes "kitobim", while "kitoblar" is the plural form. Errors in tense: In some languages, verb tenses can be more complex. Namely, in English, the phrase "I have been working" can be incorrectly translated as "I have been working", but the correct meaning should be "I have been working" or "I have been working". Mistakes caused by incorrect use of prepositions and conjunctions: Prepositions may not be the same in different languages. For example, in English, "interested in" is "интересоваться чем-то" in Russian, and in Uzbek it is "biror narsaga qiziqmoq". Multilingualism – The fact that a word has different meanings in different contexts can lead to errors in translation. For example, in English, the word "present" can mean "gift" or "present".

At the current time modern translation technologies—including machine translation, computer-assisted translation (CAT) tools, and artificial intelligence—help improve efficiency and accuracy. For instance, CAT tools help translators speed up the manual translation process. They include: Translation Memory (TM) – Stores previously translated segments and suggests them for repetitive texts. Another

network is that Terminology Database – Manages domain-specific terms and provides appropriate translations. Automated Checking Systems – Detects grammatical, stylistic, and technical errors. Some of the most popular CAT tools are SDL Trados Studio, MemoQ, OmegaT, and Smartcat. In order to render accessible the results of translation analyses of large quantities of text, we have devised a simple model for a structured translation memory, which we call TransBase. It shares basic characteristics of full-text retrieval systems: it can manage arbitrary amounts of text, it can be enlarged incrementally and it allows rapid access to the textual contents of the database. Its essential difference with these systems is its ability to also store bi-textual representations.[5] Nevertheless, applications that are renowned in all countries and that automatically translate texts also cause automatic translation problems. Machine translation programs sometimes translate words directly, making grammatical errors. CAT tools are used in conjunction with human translators, but have several limitations. Overreliance on translation memory – CAT systems suggest previous translations, but may not always be appropriate for the context. Terminology compatibility issues – translation memories compiled from different sources can sometimes result in incorrect terminology. Technical challenges – some CAT tools can be complex and expensive to learn. Machine translation tools can process large amounts of text quickly, but they struggle when translating idiomatic expressions, cultural nuances, or complex sentence structures. Nonetheless, human translators can refine and adapt their translations to ensure they are natural and contextually relevant. By combining the two approaches, high-quality translations can be achieved that are efficient and accurate.

The Grammar Translation Method and the Communicative Approach have both played important roles in grammar teaching. Which is better, the Grammar Translation Method or the Communicative Approach? This paper aims to compare the controllability and feasibility of these two approaches and find out which one is more suitable for grammar teaching in Taiwan. Two classes were selected and taught by the Grammar Translation Method and the Communicative Approach respectively.[4]

Linguistic problems in literary translation are complex tasks for the translator. Lexical, grammatical and semantic differences affect the choice of words, sentence structure and the overall tone of the text during the translation process. Since each language has its own characteristics and cultural realities, the translator strives to accurately convey not only the words, but also their content and emotional expression. To solve these problems, the translator must pay attention to the following important information: Deep analysis of the context - pay attention to the use of words and phrases in a specific sense. Translating phraseological units with a suitable equivalent - if direct translation is not possible, use the method of interpretation or find an equivalent. Taking into account grammatical differences - work taking into account the syntactic and morphological features of each language. Correctly reflecting cultural differences - localizing the text and choosing a version that is understandable to the reader. Literary translation requires not only language knowledge, but also cultural thinking, stylistic sensitivity and a creative approach. According to Levik: "The reader must understand the art of translation" He raised the issue of transferability (Levik, 1968). He is confident that absolute equivalent poetry translation from one

language to another is impossible. The result of translation can only be a new poetic work that is similar to the original one. Thus, strategies and principles of literary translation are as follows: the choice of translation strategies (freestyle, literal, appropriate, equivalent), identifying functional correspondences, or functional dominants.[9] We would like to remind you once again that it is an important task for the translator to convey the essence of the original work to readers in the new language in a natural and understandable form.

List of used literature:

1. Applied Linguistic and Language Study, 298.
2. Catford J. C. A linguistic theory of translation. – London: Oxford university press, 1965. – T. 31.
3. Chang S. C. A contrastive study of grammar translation method and communicative approach in teaching English grammar //English language teaching. – 2011. – T. 4. – №. 2. – C. 13.
4. Hatim B., Munday J. Translation: An advanced resource book for students. – Routledge, 2019.
5. Isabelle, Pierre, et al. "Translation analysis and translation automation." Proceedings of the Fifth Conference on Theoretical and Methodological Issues in Machine Translation of Natural Languages. 1993.
6. Maneesriwongul W., Dixon J. K. Instrument translation process: a methods review //Journal of advanced nursing. – 2004. – T. 48. – №. 2. – C. 175-186.
7. Muxammadjon Kholbekov, filologiya fanlari doktori, professor: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2012 yil, 17-son.
8. Novriyanto, and Rifal Hasan. "Translation Problems Analysis of Students' Academic Essay." Online Submission 2.5 (2019): 1-11.

9. Saule, Burbekova, and Nurzhanova Aisulu. "Problems of translation theory and practice: original and translated text equivalence." *Procedia-social and behavioral sciences* 136 (2014): 119-123.
10. Yousef, Tawfiq. "Literary translation: Old and new challenges." *International Journal of Arabic-English Studies* 13.1 (2012): 49-64.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA “METODIK MAHORAT KUNI” VA “METODIK MAHORAT SOATI” NI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Sobirova Nazokat Turobjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

70110201- “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim)” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Tel: +99893-941-41-85

E-mail: sobirova.nazokat@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishi uzluksizligini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni kasbiy bilim va mahoratini muntazam oshirib borish orqali, ta’lim va tarbiya jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirish to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Abstract: This article provides information on the creation of the necessary conditions to ensure the continuity of professional development of teachers of preschool educational organizations, improving the quality and effectiveness of the educational process through regular improvement of their professional knowledge and skills.

Аннотация: В данной статье представлена информация о создании необходимых условий для обеспечения непрерывности профессионального развития педагогов дошкольных образовательных организаций, повышения качества и эффективности образовательно-воспитательного процесса путем регулярного совершенствования их профессиональных знаний и навыков.

Kalit so'zlar: "Metodik mahorat kuni", "Metodik mahorat soati", Trener (mentor)lar, Master-trenerlar, Ishtirokchilar, Tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlari, Koordinator, "Virtual kasbiy rivojlantirish" elektron dasturi, Refleksiv amaliyot.

Ключевые слова: «День методического мастерства», «Час методического мастерства», Тренеры (наставники), Мастера-тренеры, Участники, Начальные дошкольные образовательные организации, Координатор, Электронная программа «Виртуальное повышение квалификации», Рефлексивная практика.

Keywords: "Methodological Skills Day", "Methodological Skills Hour", trainers (mentors), master trainers, participants, basic preschool educational organizations, coordinator, "Virtual Advanced Training" electronic program, Reflective Practice.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, bolalarga ta'lim va tarbiya olish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib berilmoqda. Ana shunday qulay sharoitda albatta mahoratli malakali pedagog-tarbiyachilar tomonidan ta'lim -tarbiya berilsa yuqori samaralarga erishiladi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yilda PF-152-sonli "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni

tasdiqlandi. Farmonga asosan, 2025-yil 1-yanvardan Maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o’rinbosari lavozimi joriy etildi. Jumladan, Respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo’lga qo’yildi. Barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat soati”, tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida esa “Metodik mahorat kuni” kabi shakllari bosqichma-bosqich joriy etildi.

“Metodik mahorat kuni” –tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida trener (mentor)lar tomonidan yetakchi pedagoglarni maqsadli tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o’z bilimini muntazam boyitib borish uchun o’quv-seminar, trening, mahorat darslari va mustaqil ta’lim tadbirlari o’tkazilishi belgilangan haftaning muayyan kuni.

Trener (mentor)lar – “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish uchun tanlab olingan yuqori malakali direktor o’rinbosarlar.

“Metodik mahorat soati” – kasbiy rivojlanish kunlarida tashkil etilgan o’quv mashg’ulotlarida direktor o’rinbosarlari tomonidan o’zlashtirilgan yangi bilim va ko’nikmalarni o’zlari faoliyat ko’rsatayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joriy etish, pedagoglar tomonidan qo’llanilishini tahlil qilish, ularga zarur metodik yordam ko’rsatish, kasbiy rivojlanish uchun tavsiyalar berish, guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish, refleksiv amaliyot hamda malaka oshirish tadbirlari o’tkaziladigan soatlar;

Ishtirokchilar – “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlariga jalb qilingan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlari.

Tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari – “Metodik mahorat kuni” o’quv mashg’ulotlari o’tkaziladigan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

Koordinator – “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etishga umumiy rahbarlik va muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori;

“Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturi – maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish elektron dasturi (platformasi);

Refleksiv amaliyot – pedagogning o’z faoliyatini tahlil qilish asosida uni takomillashtirish haqida mulohaza yuritishi

Respublikamizning barcha Shahar(tuman)larda bir donadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etildi. Shuningdek, 2025-yil 1-yanvardan tayanch maktabgacha ta’lim “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari tashkil etilib kelinmoqda. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

- “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining maqsadi ta’lim sifatini ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsiyalarni, ilg’or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.
- “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: ilg’or xorijiy tajribalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga joriy qilish; pedagog xodimlarga zamonaviy pedagogik va innovatsion ta’lim texnologiyalarini

o‘zlashtirish uchun sharoit yaratish; pedagog xodimlarning o‘zi ustida mustaqil ishlashi va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishini tashkil etish; pedagog xodimlarni takomillashtirilgan yangi metodikalar bilan tanishtirish; pedagog xodimlarga o‘zaro tajriba almashish, shu jumladan, “Ustoz-shogird” tizimida hamkorlik qilish imkoniyatini yaratish; pedagog xodimlarga o‘zaro guruhlardagi ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatishi, reflektiv amaliyoti hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti negizida malaka oshirishi uchun imkoniyat yaratib berish.

- “Metodik mahorat kuni” O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Shuningdek, Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining vazifalari quyidagilardan iborat: “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari uchun dasturlar va o‘quv materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha sohaning malakali mutaxassislaridan iborat master-trenerlar guruhini shakllantiradi. Master-trenerlar guruhi tomonidan “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari o‘quv materiallarining (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqilishini tashkil qiladi, tasdiqlaydi va muntazam yangilab borilishini ta’minlaydi. Trener (mentor)larni tayyorlash uchun qisqa muddatli o‘quvlarning o‘quv-metodik ta’minotini (o‘quv-mavzu reja, o‘quv dasturi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar materiallarini, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallarini) ishlab chiqilishini tashkil qiladi. Trener (mentor)larni tayyorlash uchun maxsus treninglarni tashkil qiladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining o‘quv materiallarini hududiy ishchi guruhlariga yetkazilishini ta’minlaydi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining tashkil etilishi ustidan umumiy nazoratni o‘rnatadi

va muvofiqlashtiradi. Tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o’quvlar va davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi metodik mahorat tadbirlarining tashkil etilishini saylanma tarzda o’rganadi va aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ko’radi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo’yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashining ishchi organi hisoblanadi. Hududiy ishchi guruhlarining vazifalari esa quyidagilardan iborat: tayanch davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ro’yxatini shakllantiradi. Tuman (shahar) ishchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan trener (mentor)lar tarkibini tasdiqlaydi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etadi, nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi. Pedagog xodimlarning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlaridagi davomati va faol ishtiroki, uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo’yicha “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturidagi o’quv mashg’ulotlariga ishtirokini doimiy nazorat qiladi; “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo’l qo’yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan belgilangan tartibda ta’sir choralarini ko’radi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo’yicha tuman (shahar) ishchi guruhlarlariga o’quv, metodik va tashkiliy jihatdan ko’maklashadi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etishga doir tezkor ma’lumotlarni tuman (shahar) ishchi guruhlariga yetkazilishini va ulardan olinishini ta’minlaydi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini hududda tashkil etish tajribasini tahlil qiladi va mazkur

tadbirlarni takomillashtirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga takliflar kiritadi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo'yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi hamda Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etadi. Hududiy pedagogik mahorat markazi tegishli hududiy ishchi guruhning ishchi organi hisoblanadi.

Tuman (shahar) ishchi guruhlarining vazifalari quyidagilardan iborat: tayanch davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Tasdiqlangan reja va dasturlarga binoan tayanch davlat “Metodik mahorat kuni” va ularga biriktirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi. Ishtirokchilarning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini, shu jumladan, o'quv mashg'ulotlarini olib borishga malakali mutaxassislarni trener (mentor) sifatida jalb qiladi. Tayanch davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi “Metodik mahorat kuni” tadbirlarida ishtirok etadigan yetakchi pedagoglarning ro'yxatini tasdiqlaydi va guruhlarga taqsimlaydi. “Metodik mahorat kuni” o'quvlarida ishtirokchilarning davomati va “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturida o'qishini nazorat qiladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo'l qo'yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan belgilangan tartibda ta'sir choralari ko'radi. Trener (mentor)larga belgilangan ustamalarning tayinlanishi va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qiladi. Har uch oyda bir marta trener (mentor)larning faoliyati yuzasidan hisobotlarini muhokama qiladi, aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish choralari

ko‘radi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlarni tayyorlaydi hamda tegishli hududiy ishchi guruhga taqdim etadi. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi tuman (shahar) ishchi guruhining ishchi organi hisoblanadi.

Tayanch davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining vazifalari quyidagilardan iborat. “Metodik mahorat kuni” o‘quvlari uchun zarur sharoitlarni (ishtirokchilar guruhlar uchun xonalarini ajratish, kompyuter va proyektor qurilmalari bilan jihozlash, internet tarmog‘ining barqaror ishlashini ta‘minlash) yaratadi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlarining tashkil etilishi holati, trener va ishtirokchilarning davomati haqida tadbir o‘tkazilgan kuni tuman (shahar) ishchi guruhlariga ma‘lumot taqdim etadi.

Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlari - koordinatorlarning vazifalari quyidagilardan iborat: tayanch davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tashkil etiladigan o‘quvlarda ishtirok etadigan yetakchi pedagog haqidagi ma‘lumotlarni tegishli tuman (shahar) ishchi guruhiga taqdim etadi. Tayanch davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etiladigan “Metodik mahorat kuni” tadbirlariga tashkilot yetakchi pedagogining ishtirokini ta‘minlaydi, tashkilotda “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tasdiqlangan dastur asosida tashkil etilishi va belgilangan tadbirlarning to‘la va sifatli amalga oshirilishiga rahbarlik qiladi va muvofiqlashtiradi. Yetakchi pedagog tomonidan ishtirokchilarga “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari dasturlari asosida mahorat darslari, trening mashg‘ulotlari, mashg‘ulotlarni kuzatish va refleksiv amaliyotlarni tashkil etilishini ta‘minlaydi, Ishtirokchilarning “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturida o‘qishini nazorat qiladi.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini tashkil etish jarayonida tartib-qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘yilgan holatlarda aybdorlarga nisbatan o‘z vakolati doirasida belgilangan tartibda ta’sir choralari ko‘radi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlarida ishtirok etmagan yetakchi pedagogni ish kunida o‘z ish joyida bo‘lmagan xodim sifatida qayd etilishini nazorat qiladi.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlariga quyidagi ishtirokchilar jalb qilingan. Trener(mentor), yetakchi pedagog, koordinator va pedagog xodimlar “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining ishtirokchilari hisoblanadi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlariga davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining yetakchi pedagoglari jalb qilinadi. Pedagog xodimlarning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarida ishtirok etishi ularning o‘z malakasini muntazam ravishda oshirib borish bo‘yicha majburiyati hisoblanadi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarida faol ishtirok etish, o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, tadbirlar doirasida o‘tkaziladigan seminar va ochiq darslarda o‘z taqdimotlari bilan qatnashish pedagoglarning uzluksiz metodik mahorati rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Metodik mahorat kuni yetakchi pedagoglar uchun asosan metodik mahoratni rivojlantirish tadbirlarida ishtirok etadigan ish kuni hisoblanadi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari o‘tkaziladigan vaqtda pedagog xodimlarni boshqa tadbirlarga jalb qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Yetakchi pedagogning “Metodik mahorat kuni” tadbirlarida uzrli sabablarsiz ishtirok etmasligi shu kuni ishga kelmaganlik sifatida qayd etiladi va unga ish haqini hisoblashda amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olinadi. O‘quv yili davomida uzrli sabablarsiz “Virtual kasbiy

rivojlantirish” elektron platformasida tashkil qilingan maxsus o‘quv kursida malaka oshirmagan pedagogga nisbatan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ta’sir choralari qo‘llaniladi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlarini tashkil qilishda kasdiy rivojlanishning quyidagi shakllaridan foydalaniladi:

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish
- masofaviy ta’lim
- mustaqil ta’lim

“Metodik mahorat kuni” tadbiri Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan hafta kunida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi mudiri tomonidan tasdiqlanadigan mashg‘ulotlar jadvali asosida olib boriladi. Bunda, har bir mashg‘ulot davomiyligi barcha shakllar uchun 45 daqiqani tashkil etadi. “Metodik mahorat soati” tadbiri maktabgacha ta’lim tashkiloti direktori tomonidan tasdiqlanadigan mashg‘ulotlar jadvali asosida olib boriladi. Bunda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida guruhlardagi mashg‘ulotlar bilan muvofiqlashtirilgan holda 20-35 daqiqa davom etadi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari doirasidagi o‘quv mashg‘ulotlari ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, tajriba almashish, trening, interfaol mashg‘ulotlar va boshqa shakllarda olib boriladi.

Har yili 1-avgustga qadar master-trenerlar tomonidan navbatdagi o‘quv yili uchun “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” dasturlari hamda foydalanish uchun o‘quv materiallari ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Har yili 20-avgustga qadar trener (mentor)lar uchun seminar-treninglar tashkil qilinadi va ular master-trenerlar tomonidan o‘qitiladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat

soati” tadbirlari har o‘quv yilining oktabr oyidan boshlanadi va haftaning belgilangan kunlarida tashkil qilinadi. “Metodik mahorat kuni” tadbirlari belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv dasturlari asosida bevosita trener (mentor)lar tomonidan tashkil qilinadi. Trener (mentor)lar tomonidan “Metodik mahorat kuni” o‘quv mashg‘ulotlari ma’ruza, amaliy, seminar, tajriba almashish, trening, interfaol mashg‘ulotlar va boshqa shakllarda innovatsion, pedagogik, multimedia va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalangan holda o‘tkaziladi. “Metodik mahorat kuni” mashg‘ulotlarida trener (mentor) rahbarligida muayyan mavzu bo‘yicha taqdimotlar, shuningdek, yangi metodikalarga doir dolzarb yangiliklar bilan tanishish va muhokama qilish ishlari amalga oshiriladi. Trener (mentor) “Metodik mahorat kuni” o‘quvlarining mavzulari mazmunini ishtirokchilarga tushuntiradi va o‘tilgan materialni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beradi. “Metodik mahorat kuni” doirasida tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida biriktirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari yetakchi pedagoglari uchun trener (mentor)lar tomonidan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi “Metodik mahorat soati” tadbirlari tasdiqlangan jadval asosida yetakchi pedagoglar tomonidan tashkil qilinadi. “Metodik mahorat soati” doirasida yetakchi pedagog tomonidan pedagog 9 xodimlar faoliyati tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko‘rsatiladi va kasbiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar beriladi

Xulosa o‘rinda shuni aytish kerakki, “Metodik mahorat kuni” tadbirlaridagi yetakchi pedagoglarning davomati trener (mentor)lar tomonidan elektron qaydnomaga kiritiladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarida to‘liq ishtirok etgan yetakchi pedagoglarga hamda “Virtual kasbiy rivojlantirish” elektron dasturidagi

o'quvlarni muvaffaqiyatli tugatgan pedagog xodimlarga elektron generatsiya qilingan va elektron raqamli imzo (QR-kod) bilan tasdiqlangan sertifikat beriladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining sifatini nazorat qilish Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi, hududiy hamda tuman (shahar) ishchi guruhlarlari tomonidan amalga oshiriladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining sifatini nazorat qilish ularni bevosita kuzatish va tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari dasturlarini takomillashtirish va trener (mentor)larning faoliyatini baholash maqsadida ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalari saylanma tarzda elektron platforma orqali diagnostikadan o'tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yildagi PF-152-son Farmoni.
2. F.R.Qodirova, Sh.K.Tashpulatova .Maktabgacha ta'lim muassasasida (Bolalar bog'chasida)metodik ishlar darslik.Toshkent - 2011
3. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 4
4. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2022-yil 4-fevral 4-sonli Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.
5. Pedagogik mahorat. Darslik A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.

TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY MANBA VA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH

Zuhra Jo'rayeva Jalol qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabsi

E-mail: jurayevazuhra2303@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tarixiy manbalar, ularning tarix fanini o'qitishda o'quvchilar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini va turli manbalarni ta'lim jarayonida qanday samarali foydalanish mumkinligini tahlil qiladi. Tarixiy manbalar o'tmishdagi voqealarni tushunishda beqiyos vosita hisoblanadi. Ular birlamchi, ikkilamchi, arxeologik va xarita kabi turli shakllarda bo'lib, o'quvchilarga voqealarni bevosita anglash va baholash imkonini beradi. Tarixiy manbalar tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, tarixiy xotirani shakllantiradi, o'quvchilarning tarixiy voqealarni chuqurroq tushunishlariga yordam beradi va darslarga qiziqishni oshiradi. Shuningdek, badiiy adabiyotlar ham tarixiy manbalarni tushunishga yordam beruvchi qo'shimcha vosita sifatida e'tiborga olinadi.

Аннотация: Данная статья анализирует исторические источники, их значение для преподавания истории и способы эффективного использования различных источников в образовательном процессе. Исторические источники являются незаменимым средством для понимания событий прошлого. Они существуют в различных формах, таких как первичные, вторичные, археологические источники и карты, предоставляя учащимся возможность непосредственно осознавать и оценивать события. Исторические источники развивают критическое мышление, формируют историческую память, помогают учащимся глубже

понимать исторические события и повышают интерес к урокам. Кроме того, художественная литература также рассматривается как вспомогательное средство для понимания исторических источников.

Annotation: This article analyzes historical sources, their significance in teaching history, and how various sources can be effectively used in the educational process. Historical sources are invaluable tools for understanding past events. They come in different forms, such as primary, secondary, archaeological sources, and maps, allowing students to comprehend and evaluate events directly. Historical sources develop critical thinking, shape historical memory, help students gain a deeper understanding of historical events, and increase interest in lessons. Additionally, literary works are considered as supplementary tools for understanding historical sources.

Kalit soʻzlar: Xaritalar va piktogrammalar, Arxeologik manbalar, xaritalar, sanʼat asarlari, kuzatish va tahlil qilish, Tanqidiy fikrlash Global.

Ключевые слова: Карты и пиктограммы, Археологические источники, карты, произведения искусства, наблюдение и анализ, критическое мышление, глобальный.

Keywords: Maps and pictograms, Archaeological sources, maps, works of art, observation and analysis, critical thinking, global.

Tarixiy manbalar tarix fanini oʻqitishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, chunki ular oʻquvchilarga oʻtmishdagi voqealarni bevosita anglash va tushunish imkonini beradi. Tarixiy manbalar, xususan, birlamchi manbalar, oʻquvchilarning tarixiy xotirasini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi, chunki ular voqealarni oʻz zamonida yozib qoldirilgan hujjatlar, rasmlar va ashyolar orqali koʻrsatadi [1, 54-b]. Tarix fanida oʻquvchilarning tarixiy voqealarni tushunishi va baholashi

uchun tarixiy manbalarning o'рни beqiyosdir. Tarixiy manbalar nafaqat o'tmishdagi voqealarning guvohliklarini o'zida mujassam etadi, balki o'quvchilarga o'z bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish imkonini beradi. Ushbu manbalar turli shakllarda bo'lishi mumkin: yozma hujjatlar, arxeologik topilmalar, xaritalar, san'at asarlari, shaxsiy kundaliklar va hattoki og'zaki rivoyatlar ham tarixiy manbalar sifatida ahamiyatlidir.

Tarixiy manbalar o'quvchilarga voqealarning mohiyatini tushunish, sabab va oqibatlarini aniqlash imkonini beradi. Ular tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki o'quvchilar manbalarni tahlil qilish, ulardan kelib chiqadigan xulosalarni shakllantirish va turli nuqtai nazarlarni solishtirishga o'rganadilar.

Bundan tashqari, tarixiy manbalar yordamida o'quvchilar o'z milliy tarixi va madaniyatini chuqurroq o'rganib, o'zlarining madaniy meroslarini qadrlashga o'rganadilar. Tarixiy manbalar orqali ta'lim jarayonida o'tmishni o'rganish amaliyoti o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, chunki ular real dalillar va faktlarga asoslangan bilimlarni egallaydilar.

Tarixiy manbalar yordamida tarixiy voqealarni jonlantirish va o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirish ham mumkin. Shu tariqa, tarixiy manbalar ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilim darajasi va tarixiy ongini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tarixiy manbalar turlari va ularning o'quv jarayonidagi ahamiyati

1. **Birlamchi manbalar:** Bu toifa voqealar yuz bergan davrga oid asl hujjatlar, bitiklar, san'at asarlari va arxeologik topilmalarni o'z ichiga oladi. Birlamchi manbalar o'quvchilarga voqealarni bevosita kuzatish va

tahlil qilish imkonini beradi. Misol uchun, o'rta asrlarga oid qo'lyozmalar yoki davlat hujjatlari o'quvchilarga o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarini o'rganishga yordam beradi.

2. Ikkilamchi manbalar: Bu manbalar birlamchi manbalar asosida yaratilgan bo'lib, ilmiy tadqiqotlar, tarixiy asarlar va tahliliy maqolalarni o'z ichiga oladi. Ikkilamchi manbalar voqealarni umumlashtirish va izohlashda qo'llaniladi. Ular o'quvchilarning tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va tarixiy voqealarga kengroq nuqtai nazardan qarashga yordam beradi.

3. Arxeologik manbalar: Tarix fanida arxeologik topilmalar o'tmishdagi madaniy hayot, texnologiya va iqtisodiy faoliyat haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan ashyolar va yodgorliklar o'quvchilarga o'tmishdagi madaniyatni chuqurroq anglash imkonini beradi.

4. Xaritalar va piktogrammalar: Tarixiy xaritalar va piktogrammalar o'quvchilarga o'tmishdagi hududiy o'zgarishlar, harbiy yurishlar va migratsiya jarayonlarini tushunishda yordam beradi. Bu manbalar geografik makon va tarixiy voqealar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda foydalidir.

Tarixiy manbalardan foydalanishning o'quv jarayoniga ta'siri

1. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: Tarixiy manbalarni tahlil qilish o'quvchilarga voqealarning turli jihatlarini baholash va har xil manbalar o'rtasidagi farqlarni tushunishga yordam beradi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar manbalardagi axborotning ishonchliligini tahlil qilishni o'rganadilar va bu ularga mustaqil xulosa chiqarishda yordam beradi.

2. Tarixiy xotirani shakllantirish: Tarixiy manbalar o'quvchilarda tarixiy xotirani shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z milliy tarixi va madaniy merosini o'rganish orqali o'tmishdagi voqealarga nisbatan chuqurroq tushuncha va hurmat bilan yondashadilar. Bu ularning tarixga nisbatan qiziqishini oshirib, tarixiy ongini rivojlantiradi.

3. Tarixiy voqealarni jonlantirish: Tarixiy manbalar yordamida o'quvchilar tarixiy voqealarni ko'z oldiga keltirishi mumkin. Masalan, qadimiy qo'lyozmalarni o'qish yoki arxeologik topilmalarni ko'rish orqali o'quvchilar tarixni "jonli" ravishda idrok etadilar. Bu usul o'quvchilarning tarixiy voqealarga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni o'quv jarayoniga faol jalb qilishga yordam beradi.

Tarixiy manbalarning ta'limdagi o'рни muhim bo'lib, u o'quvchilarning tarixiy voqealarni chuqurroq tushunishlariga va ularga xolisona yondashishlariga imkon yaratadi. Ushbu manbalarni o'quv jarayonida samarali qo'llash o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va tarixiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi [2, 41-b].

Tarixiy manbalarning o'quv jarayonidagi ahamiyati

1. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish: Tarixiy manbalar o'quvchilarni o'z bilimlarini tahlil qilish va turli manbalar o'rtasidagi bog'liqliklarni tushunishga o'rgatadi. O'quvchilar manbalarni tahlil qilish jarayonida ulardan kelib chiqadigan xulosalarni mustaqil shakllantirish va manbalarning ishonchliligini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi [3,65-b].

2. Tarixiy xotirani shakllantirish: Tarixiy manbalar yordamida o'quvchilar o'z tarixiy xotiralarini shakllantirish imkoniga ega bo'ladilar. Ular o'z milliy tarixi va madaniyatini yaxshiroq tushunib, o'tmishdagi

voqealarga nisbatan hurmat va qiziqish uygʻotishiga yaqindan yordam beradi. Bu esa milliy gʻurur va vatanparvarlik tuygʻularini kuchaytiradi.

3. Oʻquvchilarning tarixiy voqealarni chuqur tushunishini taʼminlash: Tarixiy manbalar orqali oʻquvchilar voqealarning sabab va oqibatlarini yaxshiroq tushunishga oʻrganadilar. Bu ularga oʻtmishdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni yaxshiroq anglash va ularning hozirgi kun bilan bogʻliqligini tushunishda yordam beradi.

4. Oʻquvchilarning qiziqishini oshirish: Tarixiy manbalar yordamida oʻquv jarayonini jonlantirish va oʻquvchilarning darslarga qiziqishini oshirish mumkin. Misol uchun, qadimiy qoʻlyozmalarni oʻrganish yoki arxeologik topilmalarni koʻrish orqali oʻquvchilar tarixni jonli ravishda idrok etadilar va bu ularni oʻquv jarayoniga faol jalb qiladi.

5. Oʻquvchilarda koʻnikma va malakalarni shakllantirish:

Tarixiy manbalardan foydalanish oʻquvchilarning tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va mustaqil fikr bildirish kabi koʻnikmalarini rivojlantiradi. Bu ularga kelajakda turli kasblarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur boʻlgan muhim koʻnikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tarixiy manbalarning ahamiyati

Tarixiy manbalar insoniyatning oʻtmishi haqidagi bilimlarning asosini tashkil etadi va ular oʻtmish voqealarini tushunishda muhim rol oʻynaydi. Tarixni oʻrganish jarayonida ushbu manbalar turli maʼlumotlarni taqdim etib, oʻtmish bilan hozirgi zamon oʻrtasidagi bogʻliqlikni tushunishga yordam beradi. Tarixiy manbalarning ahamiyati quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. Oʻtmishni qayta tiklash va tahlil qilish

Tarixiy manbalar yordamida tarixchilar oʻtmishdagi voqealarni qayta tiklash va tahlil qilish imkoniyatiga ega boʻladilar. Ular orqali turli

davrlarda yuz bergan voqealar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy holatlar va madaniy hayot haqida ma'lumotlar olinadi. Bu o'tmishni o'rganish va tushunishda muhim vosita hisoblanadi.

2. Tarixiy haqiqatni aniqlash

Tarixiy manbalar turli voqealar haqida ishonchli ma'lumotlar berib, tarixiy haqiqatni aniqlashda yordam beradi. Manbalar orqali o'tmish voqealarining sabab va oqibatlarini, ularning xronologiyasini va qatnashgan shaxslarning rolini aniqlash mumkin. Bu esa tarixiy voqealarning to'g'ri talqin qilinishiga xizmat qiladi.

3. Madaniy merosni saqlash

Tarixiy manbalar madaniy merosning muhim qismi bo'lib, ular milliy va xalqaro miqyosda o'ziga xos madaniy qadriyatlarni saqlashga yordam beradi. Ushbu manbalar orqali avlodlar o'z milliy madaniyati, an'analari va qadriyatlari haqida ma'lumot olishadi. Bu, o'z navbatida, milliy o'zlikni anglash va saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

4. Tarixiy xotirani shakllantirish

Tarixiy manbalar yordamida o'quvchilar va jamiyat a'zolari o'z tarixiy xotiralarini shakllantiradilar. Ular o'tmishdagi voqealarni eslab, ulardan o'rganib, kelajakda xatolardan qochishga va to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rganadilar. Tarixiy xotirani shakllantirish jamiyatning umumiy o'zligini saqlab qolishga yordam beradi.

5. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Tarixiy manbalarni tahlil qilish o'quvchilar va tadqiqotchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ular manbalarning ishonchliligini baholash, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va tahlil qilish orqali muhim xulosalar chiqaradilar. Bu ko'nikmalar nafaqat tarixni o'rganishda, balki kundalik hayotda ham foydalidir.

6. Jamiyat rivojlanishining saboqlarini o'rganish

Tarixiy manbalar jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarini tahlil qilish va ulardan saboqlar chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy jarayonlarni o'rganish orqali bugungi kunda duch kelinayotgan muammolarni hal qilishda yordam beruvchi tajribalar va darslarni o'rganish mumkin.

7. Global tushunchalarni shakllantirish

Tarixiy manbalar dunyoning turli mintaqalari va xalqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ta'sirlarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu global tarixi tushunish, xalqaro munosabatlar va global jarayonlarni anglash uchun zamin yaratadi.

8. Ilmiy-tadqiqot uchun asos

Tarixiy manbalar ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy material hisoblanadi. Tarixchilar, arxeologlar va boshqa olimlar ushbu manbalarni o'rganib, o'tmishdagi turli jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qiladilar. Bu esa yangi bilimlarni yaratish va tarix fanini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Tarixiy manbalar o'tmishni o'rganish va tushunishda, tarixiy xotirani saqlashda va jamiyatning kelajakdagi yo'nalishlarini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali o'tmish saboqlaridan o'rganib, zamonaviy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan tajriba va bilimlarga ega bo'lish mumkin.

Badiiy adabiyotlar tarixiy voqealarni o'rganishda qimmatli qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Badiiy asarlar o'sha davrning ruhiy holati, ijtimoiy muammolar, odatlar va madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu asarlar orqali tarixiy voqealarga turli nuqtai nazarlardan qarash va o'sha davrni yanada jonli tasavvur qilish mumkin. Badiiy adabiyotlar tarixiy voqealarni keng kontekstda tushunishga yordam beradi. Mualliflar ko'pincha voqealarni kengroq ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarda tasvirlaydilar, bu esa

o‘quvchilarga o‘sha davrning umumiy holatini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Masalan, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” asari Napoleon urushlari davrini nafaqat siyosiy jihatdan, balki shaxslar hayoti va jamiyatdagi o‘zgarishlar nuqtai nazaridan ham yoritadi [4, 81-b]. Badiiy adabiyotlar tarixiy voqealarning hissiy jihatlarini yoritib, o‘quvchilarga o‘sha davrning ruhiy muhitini tushunishga yordam beradi. Badiiy asarlar tarixiy voqealarni insoniy qiyofada, ularning shaxsiy kechinmalari va jamiyatga ta’siri nuqtai nazaridan yoritadi. Misol uchun, Abdurauf Fitratning “O‘tgan kunlar” romani XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridagi Turkiston hayotini jonli tasvirlaydi [5, 58-b].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tarixiy manbalar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tarixiy voqealarni tushunish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ular o‘tmishdagi voqealarni chuqurroq tushunishga, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga va tarixiy xotirani shakllantirishga yordam beradi. Manbalarning turli shakllari o‘quvchilarga kengroq nuqtai nazardan qarash imkoniyatini beradi va darslarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Badiiy adabiyotlar esa tarixiy voqealarning hissiy jihatlarini yoritib, o‘quvchilarga o‘sha davrni yanada jonli tasavvur qilish imkonini beradi. Shuning uchun tarixiy manbalarni samarali qo‘llash o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va tarixiy ongini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vahobov, M. (2018). Tarixshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti. 54-bet
2. Mustafayev, A. (2021). Tarix darslarida tarixiy manbalar va badiiy asarlarni birlashtirish usullari. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti. 41-bet

3. Rahmonov, A. (2020). Tarixiy manbalar va ularning o‘quv jarayonidagi ahamiyati. Toshkent: Universitet nashriyoti. 65-bet
4. Nazarov, Z. (2017). Badiiy adabiyot va tarix: Yondashuvlar va metodologiya. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti. 81-bet
5. Jalilov, S. (2015). Tarixni o‘qitishda badiiy adabiyotlar va tarixiy manbalarni birlashtirish. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti. 58-bet.

“GARGANTYUA VA PANTAGRUYEL” VA “GO‘RO‘G‘LINING TUG‘ILISHI” ASARLARIDA MOTIV VA OBRAZLAR QIYOSI

Sindarova Dilbar Sobirjon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
o‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

E-mail: sindarovadilbarsobirovna@gmail.com

Tel:+998973960420

Annotatsiya: Jahon adabiyoti va o‘zbek adabiyotining durdona asarlarida obrazlar, fabula va motivlarni qiyosan o‘rganish, ularning bir-biriga ta‘siri masalasini mufassal bayon etish qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi. Ushbu kichik tadqiqotda uyg‘onish davrining tipik vakili Fransua Rablening “Gargantuya va Pantagruyel” va xalq donishmandligining namunasi bo‘lgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi obrazlar, o‘xshash syujet voqealari va motivlar qiyoslanadi, ularning farqli va o‘xshash jihatlari borasida so‘z yuritiladi.

Abstract: Comparative study of images, fables and motifs in masterpieces of world literature and Uzbek literature, detailed description of their influence on each other is one of the important tasks

of comparative literary studies. This small study compares the characters, similar plot events and motifs in the epic “Gargantua and Pantagruel” by Francois Rabelais, a typical representative of the Renaissance, and “The Birth of the Gorogli” an example of folk wisdom, and discusses their differences and similarities.

Аннотация: Сравнительное исследование образов, басен и мотивов в шедеврах мировой литературы и узбекской литературы, детальное описание их влияния друг на друга является одной из важных задач сравнительного литературоведения. В этом небольшом исследовании сравниваются характеры, схожие сюжетные события и мотивы эпоса «Гаргантюа и Пантагрюэль» Франсуа Рабле, типичного представителя эпохи Возрождения, и «Рождения Горогли», образца народной мудрости, и рассматриваются их различия и сходства.

Kalit soʻzlar: obraz, fantaziya olami, motiv, satira, safar motivi, doston

Keywords: image, fantasy world, motif, satire, travel motif, epic

Ключевые слова: образ, фантастический мир, мотив, сатира, мотив путешествия, эпос

Fransuz uygʻonish davri adabiyoti vakili Fransua Rable ijodida “Gargantyua va Pantagruiel” asari shoh asarlaridan biri sanaladi. Fransuz adabiyoti taraqqiyotida asarning muhim ahamiyat kasb etishi bejizga emas, besh kitobdan iborat asar oʻz davrining ijtimoiy holatini roʻyirost aks ettirgan, kuchli satira ostiga olingan mavzular, oʻziga xos fantazion voqealari bilan qiziqarli va mashhur. Rable ijodi xalq ogʻzaki ijodiga yaqinligi bilan ham ahamiyatli, asar oʻzbek tiliga toʻliq emas, qisqartirilgan holda tarjima qilingan, besh kitobning asosan, birinchi va ikkinchi kitob voqealari qisman koʻproq tasvirlanadi. Asardagi baʼzi

syujet voqealari, obraz va motivlari o‘zbek folklorining gultoji bo‘lgan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari va Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asarini yodga soladi. Xalq og‘zaki ijodiga yaqinligi shundaki, asarda dostonlarga xos bo‘lgan g‘ayriodatiy obrazlar, ulaning ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan qahramonlik va sayohatlari tasvirlanadi.

“Gargantyua va Pantagruyel” va “Gulliverning sayohatlari” asarlarining har ikkisida ham bosh personajlar ulkan odam gigantlardir. Gargantyua Granguze ismli oilada tug‘iladi, qahramon tug‘ilganidan so‘ng otasi bu o‘lkalarda hali hech qachon bo‘lmagan katta ziyofat beradi. Chaqaloq tug‘ilganidanoq tinmay ovqat so‘raydi, birgina kiyim uchun 1100 gaz fransuz gazlamasi sarflanadi, uning og‘irligidan faqat ho‘kizlarga ko‘tarib yura olar edi, bosh personaj ana shunday g‘ayriodatiy tug‘iladi. Qahramonning g‘ayriodatiy tug‘ilish xususiyatini xalq dostonlarining deyarli barchasida, jumladan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham uchratish mumkin. So‘ng Gargantyua Tubal Olofern ismli ustozidan 5 yil-u 3 oyda faqatgina alifboni o‘rganadi, buyerda muallif eski ta‘lim tizimini biroz satira ostiga oladi. Nihoyat u Fransiyaga safarga chiqadi, shu voqeadan boshlab safar motivi boshlanadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham aynan safar motivi eng ko‘p o‘rin olgan motiv sanaladi. Gargantyuaning safar sayohatlari Go‘ro‘g‘lining otasi Ravshanning safar motivini eslatadi. Gargantyua qirol Pikrokol bilan Ravshan Shohdorxon bilan jang qilib, urush motivi vujudga keladi. Asosiy voqealar rivoji har ikkala qahramonlarning farzandli bo‘lganlaridan so‘ng boshlanadi. Gargantyua Fransiyadan qaytganidan so‘ng devqomat Badebekka uylanadi, xotini o‘g‘il tug‘adi-yu o‘zi vafot etadi, Gargantyuaning o‘g‘li uning o‘ziga o‘xshab qorni och tug‘iladi, u har kuni ertalab 4600 ta sigirni emib ulg‘aya boshlaydi, bir

kuni enagasining sut berishi yodidan ko‘tarilganida Pantagruyel o‘zi sigirni yoniga borib ema boshlaydi va tirik qoladi.

Xuddi shu syujet voqealarini “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham uchratish mumkin. Bek Ravshan Bibi Hilolga uylanganidan so‘ng, Hiloloy homilasi bilan vafot etadi va Go‘ro‘g‘li qabrda, ya‘ni go‘rda tug‘iladi, uning tirik qolishiga Xizr payg‘ambar yordam beradi va yoniga kelgan bir biyani emib voyaga yetadi, keyinchalik bu ot o‘zining G‘irko‘k tulporiga aylanadi. Demak, yuqoridagi voqealardan anglashiladiki, har ikki obraz pahlavonlarning farzandi va ular onasiz ulg‘ayishadi, ma‘lum bir hayvon suti bilan tirik qolishadi. Va endi ikkinchi avlodning safar motivi boshlanadi. “Gargantyua va Pantagruyel”da Pantagruyel Shishaxon, ilohiy suvni izlab yo‘lga chiqsa, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida Go‘ro‘g‘li o‘z otasini izlab yo‘lga chiqadi. Pantagruyelga safar davomida Panurg hamroh bo‘ladi, ular bir qancha orollarga sayohat qilib, ba‘zilarida qahramonlik ko‘rsatsa, ba‘zilarida bu orollar, ulardagi odamlarni ko‘rib hayratda qoladi. Ilk orol qarindoshlar orolida yashovchilarni ko‘rib, ularni ism emas, laqab bilan atalishini ko‘rib bir hayratga tushsa, eski etik va yosh botinkaning to‘yi bo‘layotganini ko‘rib, yuz chandon hayratga tushadi. Pantagruyel ulardan: “Nega shunday chiroyli yosh botinkani eski etikka munosib ko‘rdinglar” - deb so‘raganida ular, - nega nomunosib bo‘larkan, etik eski bo‘lsa ham yaxshi moylangan, hali ko‘pga yaraydi”, - deb javob berishadi. Etiklarning nikoh to‘yi zahirida jamiyatda avj olayotgan yosh qizlarning boy, ammo yoshi katta insonlarga turmushga chiqayotganligi kuchli satira ostiga olinadi. So‘ng ular chaqimchilar oroli, umri boqiyalar oroli, zimiston, qazilar, shamolxo‘rlar, papaga musht o‘qtalغانlar, munofiqlar, sayroqilar, mushuklar, donolar oroliga borishadi. Bu orollarning har biri ramziy ma‘noda jamiyatdagi siyosiy tabaqalar, hokimiyat rahbarlari, insonlarda

avj olib ketayotgan illatlarni ifodalaydi. Nihoyat ular Shishaxonni topishadi va sehrli fontan siri-mohiyatini bilib olishadi, unga ko‘ra bu suv olam mohiyatini anglatuvchi bilimdir, faqatgina bilim bid‘at va xurofotdan, johiliyatdan qutqaradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har ikki asar mavzu jihatidan biroz yiroq bo‘lsa-da, obraz va motivlari jihatidan muayyan o‘xshashliklarga ega:

1. Farzandning g‘ayriodatiy kuch-qudrat bilan tug‘ilishi, uning bolalikdagi qahramonliklari “Gargantyua va Pantagruyel” asarida ham “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham uchraydi.
2. Asosiy personajlarning boshqa davlat hokimlari bilan bo‘lgan jangi, urush motivi uchraydi.
3. Safar motivi uchraydi va bu orqali uch olam konsepsiyasi namoyon bo‘ladi. Safar davomida Go‘ro‘g‘li ham, Pantagruyel yoki Gargantyua ham o‘z “men”ini, olam mohiyatini anglab boradi.
4. Gargantyua obrazi Ravshan obrazini aks ettirsa, Pantagruyel obrazi xususiyatlari Go‘ro‘g‘lida, Badebek oyim taqdiri, o‘lim motivi Bibi Hilol obrazida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fransua Rable. (1970). Gargantyua va Pantagruyel. Toshkent: Yosh gvardiya
2. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi. (2021). Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat
3. “Jahon adabiyoti” jurnali, Dunyoning buyuk romanlari: Gargantyua va Pantagruyel. (2013-yil), 1-son
4. Quronov, D. (2019). Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Innovatsiya-ziyo
5. Xalliyeva, G. (2020). Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.

6. Yoʻldoshev, Q., Yoʻldosheva, M. (2016). Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak

TARBIYACHINING BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYATGA OʻRGATISH JARAYONIDAGI OʻRNI.

Xudaykulova Dilbarxon Zokirovna

Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha taʼlim kafedrasi katta oʻqituvchisi

Turdimurodova Munavvar Sobirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha taʼlim yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy tarbiyachining imidji, tarbiyachining tasviriy faoliyat mashgʻulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati, tarbiyachining tasviriy faoliyat mashgʻulotlarini tashkil qilishdagi kompetentligiga doir tushunchalar yoritilgan.

Kalit soʻzlar: eruditsiya, pedagogik intuitsiya, imidj, plastika, kompetentlik, oʻqitish

Аннотация: В данной статье освещен имидж современного педагога, педагогическое и профессиональное мастерство педагога на занятиях изобразительной деятельностью, компетентность педагога в организации занятий изобразительной деятельностью.

Ключевые слова: эрудиция, педагогическая интуиция, имидж, пластичность, компетентность, преподавание.

Abstract: This article highlights the image of a modern teacher, the pedagogical and professional skills of a teacher in visual arts classes, and the teacher's competence in organizing visual arts classes.

Key words: erudition, pedagogical intuition, image, plasticity, competence, teaching.

Kirish. Maktabgacha ta'lim sohasida Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bola shaxsiga hurmat ko'rsatgan holda, ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi[1]. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi. Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi.

Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'рни juda muhim, chunki tasviriy faoliyat bolalar rivojlanishining barcha jabhalariga, jumladan, estetik, aqliy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachi bu jarayonda

bolalarni tasviriyl faoliyatga jalb qilishda faqat rahbar sifatida emas, balki o'rgatish va qo'llab-quvvatlashda ham muhim ro'l o'ynaydi. Tarbiyachining ijodiy muhit yaratishda, o'rganishga rag'batlantirishni qo'llashda, texnikaviy ko'nikmalarni o'rgatish jarayonida, bolaning hissiy rivojlanish jarayoni va uni ifoda qilishiga shart-sharoit yaratishida, bolaga individual yondashuvida, o'qitish va ko'rsatma berishda, nazorat va baholashda, o'zaro hamkorlik va guruh faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va turli-tuman faoliyatlarni olib borish jarayonidagi o'rni juda muhimdir:

Ijodiy muhit yaratish. Tarbiyachi bolalar uchun tasviriyl faoliyatni amalga oshirishda ijobiy va ijodiy muhit yaratishi kerak. Bu muhit bolalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash, xatolardan qo'rqmasdan yangi narsalarni yaratish imkonini beradi. Tarbiyachi bolalarga yangi materiallar, ranglar va vositalar bilan ishlashni o'rgatib, ular uchun turli xil imkoniyatlar yaratishi kerak.

O'rganishga rag'batlantirish. Tarbiyachi bolalarni tasviriyl faoliyatga qiziqtirishi va ularni rag'batlantirishi zarur. Masalan, bolalarning ishlari haqida ijobiy fikrlar bildirish, ularga yangi tasavvurlar yaratish uchun ilhom berish muhimdir. Tarbiyachi har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni o'ziga xos tarzda rag'batlantirishi kerak.

Texnikaviy ko'nikmalarni o'rgatish. Tarbiyachi bolalarga tasviriyl san'atning asosiy texnikalarini o'rgatishi kerak. Bu, ranglarni aralashtirish, chizish, bo'yash, shakl va kompozitsiyani yaratish kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bolalar bunday ko'nikmalarni o'rganganlarida, ular nafaqat san'atga, balki umuman ijodiy jarayonlarga bo'lgan ishonchlarini oshiradilar.

Hissiy rivojlanish va ifoda qilish. Tasviriy faoliyat bolalar uchun hissiy ifodaning muhim vositasi hisoblanadi. Tarbiyachi bolalarga o‘z hissiyotlarini rasm yoki boshqa san’at shakllari orqali ifodalashni o‘rgatish, ularning ichki dunyosini ochib berishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayon bolalarda o‘z hissiyotlarini boshqarish va tushunishni rivojlantiradi.

Individual yondashuv. Har bir bolaning ijodiy rivojlanishi individualdir. Tarbiyachi har bir bolaning qobiliyatlarini va rivojlanish darajasini inobatga olib, unga mos yondashuvi kerak. Ba’zi bolalar tez o‘rganishadi, boshqalari esa ko‘proq vaqt talab etadi, shuning uchun tarbiyachi individual yondashuvni tanlab, bolalarga individual yordam ko‘rsatishi kerak.

O‘qitish va ko‘rsatma berish. Tarbiyachi bolalar uchun aniq va tushunarli ko‘rsatmalar berishi zarur. Dars davomida ular bolalarga rasm chizishning asosiy tamoyillarini tushuntirib, o‘z ishlarini qanday yaxshilash mumkinligini ko‘rsatishi kerak. Bu ko‘rsatmalar orqali bolalar texnikani, kompozitsiya va ranglar o‘rtasidagi muvozanatni tushunishadi.

Nazorat va baholash. Tarbiyachi bolalar ishini kuzatib borishi, ularning rivojlanishini tahlil qilish va zarur bo‘lganda tuzatishlar kiritish zarur. Har bir bolaning ishiga e’tibor berish, uning kuchli tomonlarini aniqlash va kamchiliklarini yengishga yordam berish, uning o‘zini rivojlantirishiga turtki beradi.

O‘zaro hamkorlik va guruh faoliyati. Tasviriy faoliyatni guruh shaklida o‘tkazish ham bolalarning ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachi bolalarni birgalikda ishlashga undashi, bu jarayonda o‘zaro fikr almashish va bir-birining ishlariga baho berishni

o'rgatishi kerak. Bu nafaqat ijodiy ko'nikmalarni, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Qiziqarli va turli-tuman faoliyatlar tashkil etish. Tarbiyachi bolalarni har xil tasviriy faoliyatlar bilan tanishtirishi kerak, masalan, rasm chizish, skulptura yaratish, kollaj va mozaika ishlash, bo'yash va boshqalar. Bu bolalar uchun turli xil ijodiy imkoniyatlar yaratadi va ularning tasavvurlarini kengaytiradi.

Tarbiyachining tasviriy faoliyatga o'rgatishdagi o'rne bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun zarurdir. Tarbiyachi bolalar uchun samarali va ijodiy muhit yaratib, ularni o'rgatish, rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash orqali ularning tasavvurlarini kengaytiradi, hissiy va aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayon bolalarga o'zlarini erkin ifodalash va o'z qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim tarbiyachisi bolalarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi eng so'nggi texnologiyalarga ega bo'lishi, shuningdek keng eruditsiya[2], pedagogik intuitsiya[3], yuksak darajada rivojlangan ma'naviyat va yuksak axloqiy madaniyatga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy tarbiyachilarga qo'yiladigan talablar juda yuqori. Zamonaviy bolalarning barcha rivojlanish sohalari bo'yicha belgilangan ko'rsatkichlarini yosh guruhlari kesimida tahlil qila bilishi va ularni bolaning turli faoliyatlarida maqsadli rivojlantira bilishi kerak. Bolaning yosh va individual xususiyatlarni bilish bilan birga, bolalar bilan ishlash metodikasiga ega bo'lish tarbiyachiga bolalarni guruhdan guruhga muvaffaqiyatli olib chiqishga, ularni rivojlanish sohasi bo'yicha qadamma-qadam tarbiyalashga yordam beradi. Tarbiyachi inson shaxsining go'zallikni his etib shakllanishida tengsiz yetakchilik qiladi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning bosh bo'g'ini bo'lib, u tarbiyachidan katta sabr va bag'rikenglik talab qiladi.

Tarbiyalanuvchilar ko'p narsani bilishi va bajara olishi kerak. Bolalarni tevarak atrofdagi narsalarni go'zalligini sezishga va tushunishga o'rgatish oson ish emas. Tarbiyachi tikish, yasash va bolalar bilan qo'shiq aytishni, birga o'yinda ishtirok eta olishni ham uddalashi lozim. U bolalar uchun doim qiziqarli bo'lishi va ko'p o'qishi, bolalar ertaklarini yaxshi bilishi kerak.

Pedagog maktabgacha yosh pedagogikasi, metodikasi va amaliyoti yutuqlaridan foydalangan holda doimiy ravishda malakasini oshirishi shart. Biz oldinga siljishimiz, innovatsion texnologiyalarni, an'anaviy bo'lmagan usullarni o'zlashtirishimiz kerak. Eng yaxshi qadimiy an'analarimizni, og'zaki xalq og'zaki ijodini, milliy go'zal odat va an'analarimizni bolalar tarbiyasiga singitishimiz lozim. Zamonaviy bolaning qiziquvchanligini qondirish, atrofdagi olam haqida ma'lumot olishga yordam berish uchun tarbiyachiga turli bilimlar kerak. Hozirgi kun bolalarida sabr-toqat, ezigulik kabi zaruriy fazilatlarni tarbiyalashda ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash talab etiladi. Zamonaviy tarbiyachi ota-onalarni fikri bilan hisob-kitob qilishi, ularni hurmat qilishni o'rganishi zarur.

Tarbiyachining ishini turli o'simliklarni o'stirayotgan bog'bonning faoliyati bilan solishtirish mumkin. Bir o'simlik quyosh nurini yaxshi ko'radi, ikkinchisi salqin soyani yoqtiradi; biri oqimning qirg'oqchasini yaxshi ko'radi, ikkinchisi quritilgan tog' cho'qqisini yoqtiradi; biri qumli tuproqda, ikkinchisi yog'li, loy tuproqlarda o'sadi. Har bir insonga maxsus, faqat unga munosib g'amxo'rlik kerak, aks holda u o'z taraqqiyotida kamolotga erisha olmaydi. Maktabgacha ta'lim sohasida har bir bolaga mehr, uning individualligi haqidagi tushunchalar birinchi bo'lishi kerak. Zero, har bir bolaning o'ziga xosligi faqat unga bo'lgan

mehr, ishonch bilan yuzaga chiqib, uning iqtidori yoshlik chogʻidayoq namoyon boʻladi.

Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashgʻulotlaridagi pedagogik va kasbiy mahorati. Bolalar bogʻchasida oʻquv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy vazifasi - mashgʻulotda oʻqitishni oʻz ichiga oladi. Maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisi bolaga mustaqillik asoslarini, jamiyatdagi xulq-atvor qoidalarini oʻrgatadi, bolani maktabga qabul qilishga tayyorlaydi. Bolani maktabga tayyorlash ogʻzaki hisoblash, chizish, plastika[4], qurilish toʻplami va boshqa improvizatsiyalashgan vositalar yordamida qoʻllarning nozik motor koʻnikmalarini rivojlantirish koʻnikmalarini oʻrganishdan iborat. Bolalarni oʻqitish, rivojlantirish va tarbiyalashning asosiy usuli oʻyindir. Zamonaviy, dono tarbiyachilar bolalarni harakatlarini kamdan-kam cheklaydilar va ularning koʻp oʻynashlariga imkoniyat yaratadilar. Mahoratli tarbiyachi iqtidorli bolaga qanday yondashish kerakligini biladi. Boshqa bolalarga qoʻyiladigan talablardan koʻra murakkabroq vazifalarni qoʻyib bolani iqtidorini, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tarbiyachi bolalar savollariga javob berganda ularning yoshini hisobga olib javob berishi kerak. Maktabgacha taʼlim tashkiloti bolalar uchun quvonch maskani boʻlishi kerak. Zamonaviy tarbiyachi bolalarga beriladigan taʼlimning quvnoq boʻlishini taʼminlashi lozim. Biroq bolalar bogʻchasi tarbiyachisi ishida eng asosiysi har bir bolaning salomatligi uchun masʼuliyatli ekanligidir. Tarbiyachi nafaqat bolalar jamoasining butun faoliyatini, balki bolalarning oʻzaro shaxsiy munosabatlarini tashkil etadi.

Oʻqitish — maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni elementar bilimlar sistemasi bilan tanishtirishda, Maktabgacha taʼlim va tarbiyaning Davlat standartida nazarda tutilgan koʻnikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi rolni oʻynaydi. Oʻqitish

jarayonida bolalarga yangi bilimlarni muntazam berib borish, ular jamg'argan tasavvurlarni aniqlash va sistemalashtirish, bolalarning bilish jarayonlari hamda tafakkur faolliklarini rivojlantirish amalga oshiriladi. O'qitish — ikki tomonlama jarayon: mashg'ulotlar kuzatilar ekan, tarbiyachining ta'lim berish faoliyatini, uning bolalarga ta'sir etish imkoniyatlarini hamda bolalarning javob berish reaksiyalarini, o'quv harakatlari sifatini ham baholash muhimdir. Pedagog har bir mashg'ulotda ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liq vazifalarini amalga oshirishni esda saqlashi muhimdir. Masalan, bolalarga rasm solish usullarini tushuntirar ekan, u bolalarga predmetni izchil tahlil qilishni, ko'rganlarini tasvirlashni, harakat usullari haqida gapirishni, bo'yoqdan tartibli foydalanishni, o'rtog'iga xalaqit bermaslikni oxirida hamma narsani o'zi joy-joyiga olib qo'yishni o'rgatadi. Shuning uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari qandayligini, ular o'z fikrlarini erkin bayon qila olishlarini, ularning lug'at boyliklari qandayligini aniqlash mumkin. Bolalardagi ma'naviy tasavvur darajasini bajarilgan ishlarni baholashi va shu kabilardagi fikrlari hamda luq'atlaridan bilib olish mumkin.

Tarbiyachi o'tkazadigan mashg'ulotlarning muvaffaqiyati uch shartga:

- dasturni yaxshi bilishga;
- ta'lim metodikasini egallaganlikka;
- o'z guruhidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari hamda imkoniyatlarini bilishga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachini nazorat qilish va unga yordam ko'rsatish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti mudirasi barcha yosh guruhlarining dasturini hamda ta'lim metodikasini bilishi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixo-fiziologik xususiyatlarini tushunishi, yangi

ilmiy tadqiqotlar va ilgʻor pedagogik tajribadan xabardor boʻlishi kerak. Ijobiy natijalarga erishish taʼlim jarayonining toʻgʻri tashkil etilishiga bogʻliqdir. Mashgʻulotlarga kirishda, eng avvalo, gigiyenik sharoitlarga rioya qilishga eʼtibor berish kerak:

- mashgʻulot oʻtkaziladigan xona yaxshi shamollatilgan boʻlishi lozim;
- meʼyoriy yoritilgan va yorugʻlik chap tomondan tushib turgan boʻlishi kerak;
- jihozlar, asbob-uskuna va materiallar hamda ularni joylashtirish pedagogik, gigiyenik va estetik talablarga javob berishi kerak.
- mashgʻulotlarning davomiyligi belgilangan meʼyorlarga muvofiq kelishi kerak, vaqtdan esa toʻliq foydalanish lozim.
- mashgʻulotning boshlanishi, bolalar eʼtiborini uyushtirilishi, bolalar oldiga taʼlim yoki ijodiy vazifalarning qoʻyilishi, uni bajarish usullarining tushuntirilishi katta ahamiyatga egadir.

Tarbiyachining tasviriy faoliyat mashgʻulotlarini tashkil qilishdagi kompetentligi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining ijodkorlik va badiiy-estetik rivojlanishida maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisi muhim oʻrin tutadi. Badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish jarayonini kompetent boshqarish bevosita tarbiyachining professionallik darajasiga bogʻliq. Hozirgi kunda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida estetik taʼlimga va bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga eʼtibor kuchaymoqda. Bolaning sanʼat sohasidagi tajribasi uning murakkab rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Bolalar muloqot qiladilar va oʻz fikrlarini sanʼat orqali ifoda etadilar va shu tarzda harakat qiladilar, belgi va ramzlardan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Bolalarning kognitiv rivojlanishida muhim rol oʻynaydigan sanʼatning omillaridan biri oʻz-oʻzini ifoda etishdir. Bu orqali bola oʻzining ichki

dunyosini, uni o'rab turgan dunyoni tadqiq qiladi, tushuntiradi va qamrab oladi. Tasviriy faoliyat bolalarga o'z g'oyalarini o'z ixtiyori bilan yoki guruhda tadqiq qilish, shuningdek, boshqa bolalar yoki kattalar bilan muhokama qilish imkoniyatini beradi. Bolaning chizmalari reallikka taqlid emas, balki ob'ektning xususiyatlari, uning fizik muhitidagi o'rni, vazifalari va ularning namoyon bo'lishi o'rganiladi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar turli xil materiallar va texnikalarni qo'llash orqali o'zlarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradilar; ular tasviriy-taktik aqlni, ko'rishni qabul qilish, tasavvur qilish, estetik idrok va o'z-o'zini ifodalashning aniq imkoniyatlarini ko'rishadi. Bolalar ijodiy qobiliyatlari o'zaro munosabatlarni shakllantiradigan, muammolar yechimini taklif qiladigan va shu orqali o'z qiziqish va istaklarini ifoda etadigan o'yinlar orqali rivojlantiriladi. Odatda bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot orqali olgan yangi bilim va ko'nikmalarini o'rganishda faol bo'ladilar. Buning uchun tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan o'z faoliyatlarini kompetentlik bilan tashkil etish, motivatsiya berish va qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Ushbu muammolarni hal qilish tarbiyachilarning san'at sohasidagi bilimlarini, shu jumladan san'at nazariyasi va ijodiy jarayonni bilishi, bolalarning ijodiy rivojlanishi xususiyatlarini bilishi va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish metodikasini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining asosiy vazifasi bolalarga to'g'ridan-to'g'ri sezgilar - teginish, rang, hid, tovush, ta'm orqali bilim olish imkoniyatini berish maqsadida rivojlantiruvchi "rag'batlantiruvchi" ta'lim muhitini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun, go'zal san'at faoliyatlarida, birinchi navbatda, bolalarga turli manipulyatsiyalarni amalga oshirish va turli materiallar va ob'ektlar

yordamida tadqiqotlar olib borish imkoniyati berilishi kerak, bu ularga yangi tajriba orttirish va atrofdagi haqiqatni yaxlit dunyo sifatida tushunish imkonini beradi. Tarbiyachi bolalarga yo'l ko'rsatishi, ularning qiziqishini rag'batlantirishi va sezgi idrokini rivojlantirishi kerak. Faoliyat uchun rag'bat va motivlar ko'p darajali, muammoli tuzilgan bo'lishi kerak. Bolalarni tasviriy faoliyatga qiziqtirish uchun tarbiyachi tasviriy faoliyat, badiiy va ifodali vositalarni bilishi va tushunishi kerak. Tasviriy faoliyatga qiziqishni rivojlantirish, har bir bolaga xulq-atvorga yo'naltirilgan yondashuvga rioya qilish, unga yordam berish, yaxshi ish qilish istagini qo'llab-quvvatlash, uning sa'y-harakatlarini ob'ektiv baholash kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning psixofiziologik rivojlanishi manfaatlari ularning ijodiy jarayonning barcha bosqichlarida - mavzularni rejalashtirish, g'oyalarni shakllantirishdan tortib, uning ishini muhokama qilishgacha faol ishtirok etishlarini talab etadi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni kuzatish, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini aniqlash tarbiyachiga yangi tadbirlarni rejalashtirishga yordam beradi. Har bir maktabgacha ta'lim tarbiyachisining vazifasi bolalarni, ularning qobiliyatlari, intilishlari va qiziqishlarini rivojlantirishga undash va rag'batlantirishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi ta'lim jarayoni sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar badiiy madaniyati asoslarini shakllantirish jarayonini kompetent va ijodiy boshqarish bevosita tarbiyavchilarning ijodiy va estetik ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq bo'lib, bu kasbiy kompetentlik demakdir. Umumiy va tasviriy san'at ta'limotini, xususan, tasviriy san'atni bilish bolalarning ijodiy rivojlanishini, ijod jarayonini va tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini munosib rejalashtirishni tushunish uchun asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. МТТ педагогларига ёрдам берадиган услубий қўлланмалар тўплами. Toshkent – 2020. Муаллифлар: Шин А.В., Мирзиёева Ш.Ш., Грошева И.В., Микаилова У.Т., Сулейманова Ю.Т., Даукаева А.Г., Власова Е.Н., Галимова Э.Ф.
2. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T., 2001.
3. Rasm, buyumlar yasash va tasviriv faoliyat metodikasi. M.Sh.Nurmatova <http://kutubxona.adu.uz/kutubxona/53rasmbuyumlar yasashpdf.pdf>
4. Maktabgacha ta’lim muassasalarida haykaltaroshlik mashg’ulotlari Asqarali Sulaymonov Toshkent-2015. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/35985>
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Sabohat Xalilovna Jalilova ,Sayyora Mirsoatovna Aripova. 310-312 betlar. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/24904>
6. Марина Озерова. О детском рисовании. Второе издание, дополненное Москва. Издательство Студии Артемия Лебедева. 2013
7. Комарова Т. С., Савенков А. И. Коллективное творчество дошкольников. – М.: Педагогическое общество России, 2005.

METHODS (RELATED TO INTEGRATION OF LITERATURE) USED BY EFL TEACHERS IN THE CLASSROOM

Zuhriddinova Maftuna Zarifjon qizi

Student at Ferghana State University

E-mail: maftunaraimjonova2002@gmail.com

Tel:+998932151826

Annotation: Many young ESL learners struggle to apply their language skills in real-world situations. This presents a challenge for teachers, suggesting a need for innovative teaching approaches. One promising solution lies in the thoughtful integration of literary texts into the EFL curriculum. This approach not only enhances language acquisition but also fosters a deeper understanding of culture and communication. This article delves into the practicalities of using literature in the EFL classroom. It will be explored effective strategies for seamlessly incorporating literary works and examined the fundamental principles that make literary materials suitable for learners of all levels. We'll also discuss how to carefully select content, highlighting the importance of specific needs and comprehension levels of different student groups. By understanding these nuances, teachers can create a richer, more meaningful learning experience, transforming the EFL classroom into a vibrant space for exploration and discovery.

Annotatsiya: Ko'plab yosh o'rganuvchilar o'zlarining til bilimlarini haqiqiy hayotda qo'llash uchun qiynalishmoqda. Bu o'qituvchilar uchun innovatsion o'qitish yondashuvlariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Bitta istiqbolli yechim chet tilini o'qitish dasturiga adabiyot qo'llanmalarini integratsiya qilishdir. Ushbu yondashuv nafaqat tilni o'rganishni kuchaytiradi, balki madaniyat va aloqa haqida chuqurroq tushunishga ham yordam beradi. Ushbu

maqolada sinfda adabiyotlardan foydalanishning amaliy jihatlari yoritib beriladi. Adabiy asarlarni qo'llash uchun samarali strategiyalar o'rganiladi va barcha darajadagi o'quvchilarga mos bo'lgan adabiyot materiallarining asosiy printsiplarni o'rganib chiqiladi. Shuningdek, turli xil talaba guruhlarining muayyan ehtiyojlari va tushunish darajalari ahamiyatini ta'kidlab, qanday qilib mos kontent tanlashga diqqat qaratiladi. Bularni tushunish orqali, o'qituvchilar chet tilini o'qitish sinf xonasini o'rganish va kashfiyot uchun jonli makonga aylantirishlari mumkin.

Аннотация: Многие молодые учащиеся ESL пытаются применить свои языковые навыки в реальных ситуациях. Это представляет собой проблему для учителей, предлагая необходимость в инновационных подходах к обучению. Одно многообещающее решение заключается в вдумчивой интеграции литературных текстов в учебную программу EFL. Этот подход не только улучшает восприятие языка, но и способствует более глубокому пониманию культуры и общения. Эта статья углубляется в практичность использования литературы в классе EFL. Он будет исследуется эффективные стратегии для бесшовного включения литературных произведений и изучают фундаментальные принципы, которые делают литературные материалы подходящими для учащихся всех уровней. Мы также обсудим, как тщательно выбрать контент, подчеркивая важность конкретных потребностей и уровней понимания различных групп студентов. Понимая эти нюансы, учителя могут создать более богатый, более значимый опыт обучения, превращая классную комнату EFL в яркое пространство для исследования и открытия.

Key words: Communicative competence, active reading, specific needs of language learners, dialogues, vocabulary, novels, complex.

Kalit soʻzlar: Soʻzlashuv mahorati, faol oʻqish, til oʻrganuvchilarning oʻziga xos ehtiyojlari, dialoglar, lugʻat, romanlar, murakkab.

Ключевые слова: Коммуникативная компетентность, активное чтение, конкретные потребности изучающих язык, диалоги, словарный запас, романы, сложные.

EFL teachers play a vital role in shaping students' communicative competence through the strategic use of literary texts, a role that requires a deep understanding of both the principles of effective language learning and the nuanced demands of literary interpretation. A communicative approach to teaching literature necessitates that teachers prioritize active engagement with texts, moving beyond rote memorization to foster genuine understanding and meaningful expression. Several general principles guide this process, which must be applied to promote an active and communicative reading practice. Firstly, teachers should prioritize active reading [1], encouraging students to annotate, highlight, and ask questions as they interact with the text. This goes beyond passive consumption and involves the reader in active meaning-making. Secondly, creating an environment that facilitates meaning-making is essential [2]. Teachers must help students construct their interpretations of texts through carefully planned discussions and creative activities. This involves prompting students to engage with texts from multiple perspectives, thus developing their interpretive and analytical skills. Thirdly, classroom discourse must be a priority, meaning that teachers need to cultivate environments where students feel comfortable sharing their ideas and discussing diverse

interpretations. This collaborative environment also allows students to learn from each other's perspectives. Further, critical thinking is paramount and teachers should lead students to explore authorial intention, and contextual influences [3]. Teachers should therefore guide students to reflect on how social and historical contexts shape the meaning of the literary text. Importantly, real-world connections must be made; teachers need to assist students in identifying the relevance of literary themes to their lives, thereby underscoring the practical applicability of literature. Finally, a key aim is to promote the ability to interpret implied meanings, therefore requiring teachers to encourage students to infer deeper, less overt, meanings. By focusing on these principles, teachers can cultivate a learning environment in which literature becomes a tool for fostering communicative competence.

General principles of literary materials acceptable to all levels:

Literary materials acceptable across all levels should prioritize clarity and engaging storytelling, regardless of the specific age group. The core principles revolve around fostering comprehension, sparking imagination, and building empathy. Language should be appropriate for the intended audience, avoiding overly complex vocabulary or sentence structures for younger readers, while challenging older readers with nuances and sophisticated prose. Themes should be universal, exploring human experiences like love, loss, friendship, and resilience, although the complexity and depth of those themes should be adjusted appropriately. Plots should be well-constructed, with a clear beginning, middle, and end, and employ techniques such as suspense, conflict, and resolution to keep readers invested. Character development is crucial, ensuring characters are believable and relatable, even if they are fantastical, and their actions should stem logically from their

motivations. Additionally, literary materials should be diverse in representation, showcasing a wide range of cultures, backgrounds, and perspectives, thereby promoting inclusivity and understanding. Literary elements like symbolism, metaphor, and imagery should be used appropriately to enrich the text and enhance meaning, while avoiding overwhelming or confusing readers at any level. Ultimately, the goal is to cultivate a lifelong love of reading, so materials should be stimulating, thought-provoking, and leave a lasting impact. They should encourage critical thinking, inviting readers to reflect on the text and their own lives, fostering a deeper appreciation for the power of literature.

There are some methods that can be used for different level of students to help them learn second language.

Beginner level:

For effective instruction, activities must align with the specific needs of language learners, and thus teachers should use activities tailored to their students' level. At the beginner level, teachers should focus on establishing a firm foundation by using simplified narratives and focusing on basic understanding. For example, teachers can make use of simplified stories or adapted poems, which can improve their grammatical competence [4] Such materials should be supported by visually engaging materials and activities that create a clear contextual understanding of the story. To boost students' basic communication skills, teachers can promote role-play activities, focusing on conversational language, which enhances their sociolinguistic competence and develops the students' basic strategic skills in understanding and conveying meaning. For instance, by adapting existing dialogues in simplified versions, teachers can give students opportunities to practice the language they have encountered in literary

texts. In essence, the focus at the beginner level should be on ensuring basic comprehension, building a sound foundation upon which to progress in later stages of their linguistic journey [5].

Using Books and Stories with Beginning Language Learners (A1/A2 Level)

At this stage, learners are focusing on the most basic building blocks of the language. They're learning simple vocabulary, basic sentence structures, and fundamental grammar. Here's how literature can help:

- Focus on Picture Books and Simplified Readers: Choose books with lots of illustrations and very simple text. These books often repeat common vocabulary and grammatical structures, reinforcing the basics. The visual support helps learners understand the meaning even if they don't know every word.
- Short, Repetitive Stories: Look for stories with repeating phrases and sentence structures. This helps learners internalize the basic grammar without even realizing it.
- Familiar Topics: Choose stories that deal with everyday topics that learners are already familiar with, like families, animals, food, or daily routines. This makes the language more accessible.
- Keep it Short and Sweet: Don't try to tackle long novels. Short stories or even extracts from longer works are perfect for this level.

Intermediate level:

Using Books and Stories with Intermediate Language Learners (B1/B2 Level)

At the intermediate level, the activities should be focused on improving communicative fluency and interpretation. Teachers should use short stories or excerpts from novels, enabling students to improve

grammatical competence through exposure to more diverse structures and vocabulary [6]. To further their interpretative skills, teachers can ask students to analyze characters, their motivations, and relationships, which also promotes discourse competence. By presenting these opportunities for interpretation and analysis, teachers can equip their students to further understand the structure of the text, and the ways in which meaning is conveyed through characters' actions. Additionally, teachers can make use of discussion forums to enable students to share their interpretations and engage in critical dialogue with each other [7], which also improves their sociolinguistic competence by enabling the students to consider how context shapes their interpretation. By promoting discussion and creative writing, teachers enable students to form their own opinions and to engage more personally with the text, while developing their ability to apply a wide range of skills in a communicative context, fostering their strategic competence in using language to express meaning and construct their own interpretations.

At this level, learners are building fluency and expanding their vocabulary and grammatical range. They can understand more complex texts and express themselves in more detail. Here's how literature can help:

- Age-Appropriate Short Stories and Novellas: Start with shorter, more engaging stories that are still relatively easy to understand.
- Young Adult Fiction: Books written for teenagers often have relatable characters and engaging plots, making them a good fit for intermediate learners.
- Focus on Authentic Dialogue: Pay attention to how characters speak in the stories. This is a great way for learners to pick up natural conversational phrases and expressions.

- Exploring Cultural Nuances: At this level, learners can start to understand more complex cultural references in the text.

Advanced level:

Using Books and Stories with Advanced Language Learners (C1/C2 Level)

At the advanced level, the focus should be placed on the complexity of literary interpretations and the nuanced nature of meaning. Teachers can use full-length novels and complex texts to challenge students, enabling them to develop their competence in various linguistic aspects [8]. Importantly, it is at this stage that students can interpret more complex socio-cultural aspects of literary texts, exploring historical, social, or cultural contexts to improve their sociolinguistic competence. Teachers should encourage debates and discussions on the complex themes, and they should prompt students to research the background and historical context to improve their knowledge of discourse and to strengthen their critical thinking abilities. In addition to analysis and debate, teachers can ask students to engage in adaptation activities, such as creating a script, or making a graphic novel adaptation, which encourages students to engage with the material strategically and to develop the capacity to use language flexibly [9].

At this level, learners are aiming for near-native fluency and are capable of understanding complex texts, nuanced language, and sophisticated ideas. Literature can offer rich opportunities for growth:

- Classic and Contemporary Literature: Encourage learners to explore a variety of genres, including novels, poetry, plays, and essays.
- Complex Vocabulary and Idiomatic Language: Focus on expanding vocabulary and learning subtle shades of meaning.

- Exploring Different Writing Styles: Analyze different writing styles, including narrative, descriptive, argumentative, and persuasive writing.
- Discussing Abstract Concepts: Use literary texts as a springboard for discussing abstract and philosophical ideas.

By using books and stories thoughtfully, you can transform language learning into a more meaningful, engaging, and culturally enriching experience for learners at all levels. Remember, it's about creating a love for the language and empowering learners to explore the world through words.

Specific skills and how literary texts help:

Crucially, the specific skills developed through the study of literature are intrinsically linked to the four aspects of communicative competence. Firstly, vocabulary acquisition through literature offers the means of improving grammatical competence, enhancing students' capacity for accurate expression [10]. Additionally, the development of critical thinking skills through analyzing literary texts reinforces discourse competence, enabling them to grasp the complexities of literary communication. By prompting students to consider perspectives different from their own, teachers are fostering empathy and social awareness, contributing to the development of sociolinguistic competence. The constant need to adapt to the challenges of literary interpretation also develops strategic competence, fostering their capacity to engage in complex communication. Finally, by teaching students how to interpret the text with their focus on context and voice, teachers are aiding students to navigate the four essential aspects of communicative competence needed for reading in a communicative framework.

Literary texts are instrumental in developing a wide range of essential skills, fostering cognitive growth and emotional intelligence. Firstly, reading literary works significantly enhances vocabulary and language comprehension. Exposure to diverse writing styles and nuanced language enriches one's word bank and strengthens the ability to understand complex sentence structures. Secondly, literary analysis sharpens critical thinking skills. Readers learn to identify themes, analyze character motivations, recognize symbolism, and understand the author's intent, all of which contribute to higher-order thinking abilities. Further, engagement with narratives improves reading comprehension, as readers actively decode plots, track character development, and interpret underlying messages. Literary texts also nurture empathy and emotional intelligence by exposing readers to different perspectives and experiences. By stepping into the shoes of characters from various backgrounds and circumstances, individuals develop a greater understanding of human emotions and motivations, fostering compassion and tolerance. Beyond cognitive benefits, literature also enhances creativity and imagination. The vivid descriptions and imaginative narratives stimulate readers' minds, fostering a capacity for envisioning possibilities and thinking outside the box. Finally, literature helps improve communication skills. Reading and analyzing texts provides a foundation for crafting clear and coherent written and oral arguments, enhancing one's ability to articulate thoughts and ideas effectively. Thus, literary texts function as powerful tools for holistic skill development, empowering individuals both intellectually and emotionally.

List of used literature:

1. Tomlinson, B. (2013). Developing materials for language teaching. Bloomsbury Publishing.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
3. Barnett, R. (1997). Higher education: A critical business. SRHE/Open University Press.
4. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.
5. Ur, P. (1996). A course in language teaching: Practice and theory. Cambridge University Press.
6. Carter, R., & McCarthy, M. (2006). Cambridge grammar of English: A comprehensive guide. Cambridge University Press.
7. Kramsch, C. (2009). The multilingual subject. Oxford University Press.
8. Eagleton, T. (1983). Literary theory: An introduction. University of Minnesota Press.
9. Gardner, H. (1983). Frames of mind: The theory of multiple intelligences. Basic Books.
10. Schmitt, N. (2010). Vocabulary in language teaching. Cambridge University Press.

ABU RAYHON BERUNIYNING PSIXOLOGIK QARASHLARI VA BUGUNGI KUNDA AHAMIYATI

G‘aniyeva Umida Fahriddin qizi

Guliston davlat universiteti

Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998951091905

E-mail: ganiyovaumida@gmail.com

Annotatsiya: Maskur maqolada buyuk mutafakkir alloma Abu Rayxon Beruniyning hayoti, ijodi, shaxs haqidagi psixologik qarashlari, O‘zbekiston psixologiyasi rivojlanishiga qo‘shgan hissasi shuningdek bugungi kunda ta’lim jarayoniga va talaba-yoshlarning ijtimoiy-psixologik rovojlanishidagi ahamiyatiga bag‘ishlanadi.

Аннотация: Статья посвящена жизни, творчеству, психологическим взглядам великого мыслителя Абу Райхана Беруни, его вкладу в развитие узбекской психологии, а также его значению в образовательном процессе и социально-психологическом развитии студентов и молодежи сегодня.

Abstract: The article is devoted to the life, work, psychological views of the great thinker Abu Raykhan Beruni, his contribution to the development of Uzbek psychology, as well as his importance in the educational process and the socio-psychological development of students and youth today.

Kalit so‘zlar: psixologiya rivoji, ilmiy bilimlar, kishi ruhiyati, insonlar psixologiyasi, tarbiya, psixologik ilm. astrologiya, matematika, geodeziya. yoshlar tarbiyasi, sog‘lom hayot, ijtimoiylashuv.

Ключевые слова: психологическое развитие, научное знание, психика человека, психология человека, образование,

психологическая наука. астрология, математика, геодезия. образование молодежи, здоровый образ жизни, социализация.

Keywords: development of psychology, scientific knowledge, human psyche, human psychology, education, psychological science. astrology, mathematics, geodesy. education of youth, healthy life, socialization.

Ilm-fan taraqqiyoti uchun o'zining salmoqli hissasini qoshgan buyuk allomalarimizdan Abu Rayhon Beruniyning psixologik qarashlariga doir masalalar bugungi kungacha keng miqyosda qollanib kelinmoqda. Sharq allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkir bo'lgan. U o'zining falsafiy fikrlarida Forobiy va Ibn Sino kabi insonning ruhiy jarayonlar haqidagi qarashlarga e'tibor berdi. U ham ular kabi to'rtta narsani -suvni, olovni, havoni, yerni moddiy olamning asosi deb ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy ruh va ruhiyat masalalariga qiziqish bilan qaraydi. Buning sababi bor albatta, chunki olim o'zidan oldin o'tgan Yunon, Rim, Sharq olimlari, jumladan, M.Xorazmiy, Forobiy va boshqa mutafakkirlarining asarlarini qunt bilan o'rgangan va ruhiyatga doir qarashlarning ahamiyatini tushunib yetgan. Qolaversa, insonni o'qitishda va tarbiyalashda inson ruhiyatini bilish zarurligini anglagan.

Forobiy tahminan 941-yillardan boshlab Damashqda yashaydi. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib ishlaydi va faqirona hayot kechirib, ilmiy ish bilan shug'ullanadi. 943-967 yillarda esa Halabda yashaydi. 949-950 yillarida Misrda ham bo'lgan. So'ng yana Damashqga qaytib, shu yerda 950-yilda vafot etgan. Damashqdagi "Bob as – sag'ir" qabristoniga dafn qilingan. Rivoyatlarga ko'ra Abu Nasrning hikmat falsafani o'qishiga bir kishi sabab bo'lgan ekan. O'sha kishi unga Arastuning bir necha kitobini, shu yerda tura tursin, keyin olib ketaman

deb qo'yib ketgani sabab bo'lgan, deyishadi. Ittifoqo, kitoblarga ko'zi tushib, ularning Abu Nasrning ko'ngliga mahqul bo'lib qoladi va o'qishga kirishadi natijada yetuk faylusufga aylanadi. Haqiqatdan ham Abu Nasr Forobiy o'rta asr davri ilm – fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim, Forobiy tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Forobiy o'zidan keyin juda boy ilmiy meros qoldirgan. Falsafa, musiqa, filologiya va boshqa tabiiy, ilmiy bilimlarning turli sohalarida asarlar yaratgan. Demak, Forobiy inson baxt – saodatga erishuvi uchun ularni baxtli – saodatli qila oladigan jamoa rahbari bo'lishi kerak deydi. U fozil shaharni boshqaradigan Hokim tabiatdan:

1 – sog' – salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmaligi;

2 – tabiati nozik, farosatli;

3 – xotirasi mustahkam,

4 – zehni o'tkir,

5 – o'z fikrini tushuntira oladigan notiq,

6 – bilim-ma'rifatga havasli,

7 – taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas, aksincha, o'zini tiya oladiga bo'lishi (qimor yoki boshqa o'yinlardan) zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi,

8 - haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yelg'onchilarni yomon ko'radigan,

9 – o'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi,

10 – mol dunyo ketidan quvmaydigan,

11 – adolatparvar,

12 – qatiyatli, sabotli, jurhatli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi. Forobiy bu fazilatlarni har bir yetuk insonda ko'rishni istaydi.

Abu Rayhon Beruniy - ulug' o'zbek mutafakkir olimi, o'rta asrning eng buyuk faylasuf olimlaridan biridir. O'z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falsafa, falakiyot, fizika, riyoziyot, ilohiyot, ma'danshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Beruniyning ilm-fanga qiziqishi yoshligidanoq juda kuchli bo'lgan.

Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullandi. Sharqning boy fan va madaniyatini puxta o'rganib, yunon ilmi bilan ham chuqur tanishib, yirik olim bo'lib yetishdi. Beruniy shoir, adabiyotshunos ham edi. Ona tilidan tashqari arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimiy yahudiy tillarini egalladi. Keyinchalik, Hindistonda sanskrit tilini o'rgandi. O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, Beruniy Xorazmda yashagan davrida 990 yildan Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro qilgan.

Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida antik davrdan qolgan ilmiy bilimlarga oid barcha bo'yliklarni qunt bilan o'rganishga, izlanishga chaqiradi. Beruniyning fikricha o'quvchilarga bilim berishda ularni zeriktirmaslik ularga qiziqarliroq bilim berishga ko'proq ko'rgazmalilikka e'tibor berishga ahamiyat qaratish kerakligini ta'kidlaydi. Olim ilm toliblariga har bir shaxs psixologik jihatdan qalbini yomon illatlardan, maqsadsiz intilishdan, ochko'zlikdan saqlanish zarurligini uqtirgan.

Abu Rayxon Beruniy kuzatish metodidan foydalanib tadqiqotlar olib borgan va kuzatish natijasini amaliyotda sinab ko'rib, fanlarning haqiqatdan ham yuqori turishini ta'kidlaydi. Abu Rayxon Beruniy ta'lim berish kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga

e'tibor beradi va shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Doim bir narsani o'qish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. "Har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi" - deb behuda aytilmagan". Abu Rayxon Beruniy shaxslar hayotida uchraydigan yomonlik va yaxshilikni qiyoslaydi va yomonlikni qoralab yaxshilikni yuqori darajaga qo'yadi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, yomonlikning shaxobchalari ko'p bo'lib ular g'azabli ilmsizlikdan kelib chiqadi. Abu Rayxon Beruniy rostgo'ylik, haqiqatni ulug'laydi. Mutafakkurning ta'kidlashicha, sezgi o'z qo'zg'atuvchi a'zolari orqali yuzaga keladi. Qo'zg'atuvchilar bir me'yorda bo'lsa, yoqimli va zararsiz, agarda me'yordan ortiq bo'lsa, dardli va halokatli bo'ladi. Ko'rish sezgisini nur qo'zg'atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo'ladi, ta'm-oziqaning mazasi bilan vujudga keladi. Bu to'rt sezgini his etuvchi maxsus a'zolar tanada mavjuddir. Beshinchi sezgi esa, butun badandagi voqeadir. Abu Rayxon Beruniy ana shu xususiyatlari bilan insonning barcha mavjudotlardan ustunligini ta'kidlab, insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko'zlagan maqsadiga erishish, yaxshilik orqali yaxshilik ko'rishdir, degan g'oyani olg'a suradi.

Abu Rayhon Beruniy inson bilimlarni aqlning sezgi a'zolari bergan ma'lumotlar orqali egallashini aytadi. Xotiraning ahamiyati haqida Beruniy ajoyib fikr aytgan. "Xotira, - deydi u – dalili bor hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va ung'ayroq eslab qoladi". Xotirani u Tangri taoloning tuhfasini deb hisoblaydi.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o'z zamonasi uchun emas, hozirgi

davr ta'lim tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Bugungi davrda har bir tarixiy asarlar, kitoblar va barcha davriy nashrlarda Abu Rayhon Beruniy fikrlarini, asarlaridan parchalarni ko'rishimiz munkun. Buning sababi esa Abu Rayhon Beruniy asarlarida qanchalik haqiqat, hayotiy hikmat mavjud ekanligini ko'rishimiz munkun.

Abu Rayhon Beruniyning yozgan asarlari,psixologik qarashlari talim-tarbiya,axloq tushunchalari boyicha shakllangan.Beruniyning inson hayvondan onggi,tafakkuri bilan farq qilishi, aynan shu orqali voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratishi mumkin degan fikrlari psixologiya fanini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimov X. Milliy va ijtimoiy ruhiyat T.: Fan va texnologiya. 1992.
2. Bandurka A.M., Druz V.A. Etnopsixologiya .-SPb.: Piter. 2000.
3. Botirov B.M. Etnopsixologiya.-T.: Fan va texnologiya.2012.160 b
4. A.Zununov. Pedagogika tarixi. Toshkent-2004.
5. M.Qurbonov.Ijtimoiy pedagogika. - Toshkent, 2003,41-b

YOSHLARNI ORASIDA UCHRAYDIGAN KONFLIKTLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI, YECHIMLARI

Ravshanov Sobir Abdimalik o‘g‘li

Guliston davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Tel: +998999144472

E-mail: sobirravshanov3@gmail.com

Islomova Tursunoy Anvar qizi

Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Tel: +998946890523

E-mail: nargizaberdyva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy jamiyatda, shaxslar o‘rtasida uchraydigan turli xildagi kanfliktlar haqida, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish usullari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются различные конфликты, возникающие в социальном обществе, между отдельными людьми, их причины и способы устранения.

Abstract: This article discusses various conflicts that occur in social society, between individuals, their causes and methods of elimination.

Kalit so‘zlar: Konflikt, ziddiyat, nizo, vaziyat, to‘qnashuv, komponent, shaxs, jamoa, ruhiy muloqot, mehnat jamoasi, prinsiplar, tarbiyalanganlik darajasi.

Ключевые слова: Конфликт, конфликт, спор, ситуация, конфликт, составляющая, человек, коллектив, ментальное общение, рабочий коллектив, принципы, уровень образования.

Key words: Conflict, conflict, dispute, situation, conflict, component, person, team, mental communication, work team, principles, education level.

Ta'lim muassasalari, keng ijtimoiy jamoalarida shuningdek o'quvchi-talabalar o'rtasida o'zaro nizoli vaziyatlar soni ko'payar ekan, nizolarni hal qilish bo'yicha ham shunchalik talab ortadi. Nizolar odatda qarama-qarshiliklardan, o'zaro kelisha olmaslikdan kelib chiqadi va shaxslar jamoalarda, ularning kuch, qadriyatlar va munosabat nuqtai nazaridan farqlar nizoning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar-talabalar o'rtasida kelishmovchiliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarga yo'l qo'ymaslik uchun nizolarni hal qilishning aksariyat usullari nizolarni ertaroq va ochiq hal qilish munkunligini ta'kidlaydi. Jamoaning shaxsga nisbatan asosiy ustunligi-bu resurslar, bilimlar va g'oyalarning xilma-xilligi Biroq, xilma-xillik ham ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Jamoa a'zolari ichki nizolarni hal qilish tajribalariga, ko'nikmalariga ega bo'lishlari juda muhimdir. Jamoada (sinf jamoasi, norasmiy jamoa va boshqalar) har xil mavqedagi insonlar o'rtasidagi nizolar ancha murakkab kechadi. Jamoaning rasmiy va norasmiy yetakchilari va ayrim tengdoshlar orasida kelib chiqadigan nizolarda, agar jismonan kuchli bo'lsa salbiy xulq-atvori va xatti-harakati bilan o'z atrofiga o'ziga o'xshagan "zo'zavon"ni to'plagan bo'lsa, sinfdagi jismonan kuchsiz, qo'rqish darajasi yuqori, o'ziga ishonchsiz o'quvchilarni ta'qib qilishi, zo'rlik bilan o'ziga bo'ysundirishi, ularni noto'g'ri yo'llarga yetaklashi mumkin. Bugungi kunda zamonaviy axbort maydonidagi harakatlar shu qadar jadal, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo'q, deb beparvo qarab bo'lmaydi.

Kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi tarbiyaviy konfliktlar ko'proq uchraydi:

- a) tartib-intizom bo'yicha o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mikro darajada);
- b) fazilatlarni o'zlashtirish bo'yicha sinf rahbarlari va o'quvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (mezo darajada);
- v) aqloqiy faoliyat bo'yicha o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasidagi pedagogik konfliktlar (makro darajada).

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida makro darajada uchraydigan o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi pedagogik konfliktlarning tartib-intizom bo'yicha turlari o'tkinchi hodisalardan hisoblanadi. Chunki o'quvchilar rivojlanish bosqichida bo'lganligi uchun ba'zida beixtiyor ravishda tartib-intizomga rioya qilmaydilar. Buning natijasida o'qituvchilarning e'tiroziga duch kelinadi. Bu hol dinamik xarakterda bo'lib, deyarli har kuni uchraydi. Bizning yondashuvimizga ko'ra bu pedagogik konflikt turlarini yumshatish yo'lidan borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun pedagogik jazo emas, aksincha, o'ziga xos amaliy vositalardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Misol uchun, sho'x va serharakat o'quvchilar bilan individual ishlash hamda ularning qiziqishini hisobga olish talab darajasidagi tartib-intizomni ta'minlashga asos bo'ladi. Shu jihatdan umumiy o'rta ta'lim maktabi tartib-intizomiga nisbatan dogmatik munosabatda bo'lmaslik lozim. Aksincha, demokratik yondashuvlar asosidagi tartib-intizomni joriy etish pedagogik konfliktologiya nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy va insoniy fazilatlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi asosiy vazifalardan biridir. Sinf rahbarlari o'z sinfining o'quvchilarini fazilatli voyaga yetkazish tartiblarini amalga oshiradi, o'quvchilar esa yoshlik xususiyatlariga mos

ravishda ba'zan fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida passiv ishtirok etadi. Natijada fazilatlar bo'yicha mezo darajadagi sinf rahbarlari va o'quvchilar o'rtasida pedagogik konflikt yuzaga keladi. Ko'p hollarda o'quvchilarning yolg'on gapirmaslik, haqgo'ylik, mardlik, mehribonlik, jamoaparvarlik kabi fazilatlarni o'zlashtirishini sinf rahbarlari qat'iyat bilan talab qilishadi. Ammo, fazilatlarni o'zlashtirish jarayonida tabiiy metodlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Unga ko'ra, ibrat ko'rsatish, namuna bo'lish kabi metodlar nafaqat pedagogik konfliktlarning oldini

oladi, balki o'quvchilarning axloqiy fazilatiarini tabiiy o'zlashtirish jarayonini ham tarkib toptiradi. Shu ma'noda bu masalada sinf rahbarlarining demokratik metodlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning axloqiy faoliyati muhim masalalardan biridir. Unga ko'ra, o'quvchilar har bir xatti-harakatlarida axloq qoidalariga rioya qilishi va bu boradagi ko'nikmalarini rivojlantirib borishi kerak. Shu jihatdan mazkur masalada ba'zan o'zaro tushunmovchiliklar natijasida o'qituvchilar va maktab rahbariyati o'rtasida makro darajadagi pedagogik konfliktlar yuzaga keladi. Bunda maktab rahbariyati o'qituvchilardan o'quvchilarning talab darajasidagi axloqiy faoliyat yuritishini talab qiladi va o'z navbatida o'qituvchilar o'z o'quvchilarining bunday talablarga rioya qilayotganligini ta'kidlashadi. Shu sababli bunday holatda yuzaga keladigan pedagogik konfliktlarda o'qituvchilarning murosa metodiga amal qilishim va maktab rahbariyati esa o'z vakolati doirasida harakat qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda maktab rahbariyatining qat'iy usullarga tayanishi pedagogik konfliktlarni kuchaytirishga xizmat qilishini eslatib o'tish joiz.

Umumta'lim maktab o'quvchilarida uchraydigan konfliktli vaziyatlar bir necha turga bo'linishi mumkin. Bu vaziyatlarni to'g'ri aniqlash va ularga mos ravishda yondashish muhimdir. Quyidagi turlarda uchraydigan konfliktlarni ko'rib chiqish mumkin: 1. Shaxslararo konfliktlar. O'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar, masalan, do'stlar o'rtasida tushunmovchiliklar yoki qarama-qarshiliklar.

2. Guruhi ichidagi konfliktlar. Bir guruh yoki jamoa ichida yuzaga keladigan nizolar, masalan, guruh ishida kelishmovchiliklar yoki bir-birini tushunmaslik.

3. Tashqi konfliktlar. O'quvchilar va ota-onalar yoki o'qituvchilar o'rtasida yuzaga keladigan nizolar. Bu odatda ta'lim uslubi, baholar yoki o'quv jarayoni bilan bog'liq masalalarda bo'ladi.

4. Ichki konfliktlar: O'quvchilarning o'z ichki his-tuyg'ulari yoki qarashlari bilan bog'liq muammolar. Misol uchun, o'quvchi o'zining yomon baholari yoki sinfdagi o'zini noqulay his qilish.

5. Resurslar o'rtasidagi konfliktlar: Resurslardan foydalanishdagi nizolar, masalan, o'quv materiallari, o'yinchoqlar yoki sinf jihozlari uchun kelishmovchiliklar.

6. Xatti-harakatlar konfliktlari: O'quvchilarning bir-biriga nisbatan xatti-harakatlari, masalan, jismoniy zo'ravonlik yoki qo'pol so'zlardan kelib chiqadigan nizolar. Har bir turdagi konfliktlarni aniqlash va ularni hal qilish uchun to'g'ri pedagogik uslublarni qo'llash, o'quvchilarga muammolarni konstruktiv ravishda hal qilishni o'rgatish muhimdir. O'quvchilar o'rtasida yuzaga keladigan konfliktlar ko'plab sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega xususiyatlarini shakllantirishda, ayniqsa, oilaviy ta'limning o'rni katta. Oilada bola ijtimoiy o'zaro aloqalar asoslarini o'rganadi, oilaviy maqomlar va rollar

haqida tasavvurga ega bo'лади, «nima yaxshi va yomon» ni o'rganadi. Shu sababli, oilaviy sotsializatsiya bosqichidan o'tmagan shaxs keyinchalik ma'lum ijtimoiy rollarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Oiladagi bolaning asosiy o'qituvchilari (tarbiyachilari) ota-onalar va boshqa yaqin qarindoshlardir. Oilada asosiy motivatsion munosabat o'rnatiladi, oiladagi jins rollarining asoslari shakllanadi. Oila bolaga ism, otasining ismi, familiyasini beradi, uni nasabnomasiga qo'shadi. Ota-onalarning ijtimoiy bolaning asosi ijtimoiy holatini belgilaydi. Ota-onalarning turmush tarzi uning o'ziga xos qadriyat yo'nalishlari va hayotiy ustuvorliklarini shakllantirishga yordam beradi. Oilada shaxsning eng muhim ijtimoiy fazilatlari - uning birlamchi ijtimoiy mohiyati shakllanadi. Shuni yodda tutish kerakki, go'daklik va erta bolalik davrida bolaning psixikasi faqat shakllanmoqda, u tashqaridan kelgan ma'lumotlarni mustaqil ravishda tahlil qilish («filtrlash») qobiliyatiga ega emas. Bu davrda bola ijtimoiy normalarni, qadriyatlarni va xulq-atvor qoidalarini asosan ong ostida o'rganadi. Ongsiz idrok eng chuqur va chuqurdir. Erta bolalik davrida o'zlashtirilgan ijtimoiy me'yorlar shaxs psixikasining asoslarini yaratadi. Shu sababli, ta'lim psixologlari shaxsning asoslarini shakllantirish bolaning hayotining dastlabki besh yilida sodir bo'lishiga ishonadilar. Oila ijtimoiylashuvining juda muhim jihatlari – bu hissiy yaqinlik, iliqlik, mehr-oqibat, g'amxo'rlik, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ishonchli munosabatlar. Agar bola noto'g'ri oilada tarbiyalangan bo'lsa yoki uning tarbiyasiga yyetarlicha e'tibor berilmasa, bu uning keyingi hayotida salbiy iz qoldirishi mumkin. Masalan, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tushunish, samimiylk va paydo bo'layotgan nizolar va ularni hal qilish usullari yo'q

bo'lganda, bola buni tabiiy hol deb qabul qiladi va «ota-ona» hal qilinmagan muammolarining «yuki» ta'qib qilinadi.

Konflikt - bu odamlarning o'zaro urishishi, janjallashishi, kuch ishlatib bir-biri bilan to'qnashishi, so'z aytishish, birovami ayblash, haqorat qilish, g'azablanish:, jahl qilib gaplashish, kesatish, birovlarni urishtirish , do'q qilish, qo'rqitishgaharakat qilish , u qilaman yo bu qilaman deb tahdid qilish , to'g'ri so'zlar mazmunini buzib talqin qilish, birovlarning orqasidan gapirish, qasd qilish, birovlariga jismoniy zo'rvonlik o'tkazish, zo'rlash, shantaj, birovlarni oyog'idan chalish, dilsiyohlik, xafagarchilik, nafrat bilan qasos, mensimaslik, kibrli munosabat bildirish, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, kek saqlash, nafsoniyatga tegadigan amallar hamda so'zlar ishlatish, birovning har bir so'zi yoki amalidan yomonlik qidirish hamda boshqa shunga o'xshash vaziyatlarni ta'kidlab aytishadi. Mana shu insonlararo munosabatlarda uchrab turadigan barcha salbiy holatlar aslida konfliktlarning turli ko'rinishlari, odamlar o'rtasidagi ziddiyatlarning turli namoyon boiish holatlariga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, biz ijtimoiy jamiyatda dunyoqarashlari rang-barang ,xarakter xususiyatlari turli xil bo'lgan insonlar orasida yashayotgan ekanmiz, albatta konflikt yuzaga keladi.Biz bu yuzaga kelgan konfliktlarni o'zaro hamkorlikda,birgalikda kelishib shu bilan bir qatorda, ikki tomon manfaatlarini ham inobatga olgan holda bartaraf etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F. M. Qo'chqarova. Pedagogik konfliktologiya. /darslik/. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 216 b.[1],[5]
2. Ijtimoiy psixologiya. O'quv uslubiy majmua . O'.Shukurova. N.B. Hakimova – GulDU. 2022 – 304 bet [2],[3],[4],[7]

3. Pedagogik konfliktologiya [Matnl: укув кулланма / Ahmedova M. -Toshkent: «Donishmand ziyosi» МЧЖ, 2020. - 304-b.[6]

JAMIYAT VA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNING O‘ZGARISHI BILAN BOLALAR O‘YINCHOQLARINI TANLASHGA DIDAKTIK VA GIGIYENIK TALABLAR INTEGRATSIYALASHUVI

Maxmudova Muhtasar Muzaffarovna

Namangan davlat pedagogika instituti,

Maktabgacha ta’lim, 3-kurs talabasi

E-mail: makhmudovamuhtasar03@gmail.com

Tel:+99888 570-23-03

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar oyinchoqlarini tanlashda didaktik va gigiyenik talablarga yangicha yondashuvning zarurati, o‘yin faoliyatini tashkil qilishda o‘yinchoqlarning ahamiyati, o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari bilan jixozlashning me’yor talablari, erta rivojlanishga asos bo‘luvchi zamonaviy o‘yinchoqlardan foydalanish metod va usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar; bolalar oyinchoqlari, jamiyat va ijtimoiy munosabatlar, o‘yinchoq tanlash, didaktik talablar, gigiyenik talablar, erta rivojlanish asosi, zamonaviy o‘yinchoqlar, o‘yin faoliyati vositasi, DSENM laboratoriyasi, xavfsizlik talablari.

Аннотация: В данной статье рассмотрена необходимость нового подхода к дидактико-гигиеническим требованиям при выборе детских игрушек в семье и в дошкольных образовательных организациях, значение игрушек в организации игровой

деятельности, нормативные требования к оснащению игрушками и играми. материалы, основы для раннего развития объясняются методы и приемы использования современных игрушек.

Ключевые слова: Детские игрушки, общество и социальные отношения, Выбор игрушек, Дидактические требования, Гигиенические требования, Основа раннего развития, Современные игрушки, Средства игровой деятельности, Лаборатория DSENM, Требования безопасности

Maktabgacha yosh – shaxs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri. Bu yillar davomida bola atrofida hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, to'g'ri xatti-harakat ko'nikmasi va odatlari rivojlanadi, o'z xarakteri paydo bo'ladi. Shu boisdan, o'yinchoq insoniyat tarixida bolani zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tizimida hayotga tayyorlash vositasi sifatida paydo bo'ladi. O'yinchoq - bu o'yin-kulgi, xushkayfiyat, dam olish, mehnat va ijodiy faoliyat uchun xizmat qiladigan, lekin ayni paytda bolaning aqliy rivojlanishining vositasidir deb yozadi, Muxina V.S. "Rivojlanish psixologiyasi: rivojlanish fenomenologiyasi, bolalik, o'smirlik" kitobida.

Darhaqiqat, o'yinchoq bolalar bilan o'quv ishlarida, xususan, texnik va badiiy ijodni rivojlantirish uchun keng qo'llaniladi. O'yinchoqlarning turlari, xarakteri, mazmuni va dizayni bolalarning yoshiga qarab, ularning rivojlanishi va qiziqishlarini hisobga olgan holda aniq ta'lim vazifalari bilan belgilanadi. To'g'ri tanlangan o'yinchoqlar bolalarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'yinchoqlarning butun tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular yordamida o'yinlar bolaning hissiy qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan. Ko'pgina obrazli va didaktik o'yinchoqlar bolalarni nutq faolligiga undaydi va so'z boyligini boyitish uchun

ishlatiladi. Yigʻiladigan oʻyinchoqlar, turli xil konstruktorlar, bolalarni tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirishda mashq qilishga, turli mozaikalar diqqatni jamlash va barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi - deb yozadi Kulagina I.Yu., Kolyutskiy V.N. “Rivojlanish psixologiyasi: inson rivojlanishining toʻliq asoslari” deb nomlangan darsligida.

Soʻnggi paytlarda aholi orasida televideniye, radio va boshqa axborot vositalarida oʻyinchoqlarni bolalarning maʼnaviyati, sogʻligʻiga taʼsiri toʻgʻrisida koʻplab fikr-mulohazalar mavjud. Boshqaruv organlarining eʼtibori bu masalaga qaratilganligi bejiz emas, chunki oʻyinchoqlarning turi nihoyatda koʻp. Baʼzilari bolaga bilim beradi, ongining oʻsishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, baʼzilari esa qoʻrqitadi, maʼnaviy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi, jangarilik kayfiyatini beradi, jinsiy mayllarini qoʻzgʻatadi. Bu juda muhim masala, biroq birinchi oʻrinda hozirgi kun oʻyinchoqlarining bola salomatligiga salbiy taʼsiri diqqat eʼtibordan chetda qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolaning oʻyinidagi asosiy vosita oʻyinchoqdir. Bu bolaning faol faoliyatga, turli harakatlarga boʻlgan ehtiyojlarini qondiradi, uning rejasini amalga oshirishga yordam beradi, rolga kirishadi, uning harakatlarini haqiqiy qiladi, deb yozadi Mendzheritskaya D.V. “Bolalar oʻyinlari haqida” asarida. Bugungi kunda bolalar oʻyinchoqlarining turlari shu qadar xilma-xil, rang-barangki, har qanday odamni diqqatini tortadi. Shuning uchun oʻyinchoqlarga qoʻyilgan talablarni ota-onalar ham, pedagoglar yaxshi bilishlari kerak.

Oʻyinchoqlar yogʻoch, rezina, qogʻoz, metall, shisha, mato, moʻyna, paxta, farfor, plastmassa va boshqa materiallardan ishlab chiqariladi. Biroq ularning ichida eng keng tarqalgan material, bu polimerdir.

Polimer birikmalardan ishlangan o'yinchoqlar yengil, elastik, rangli va sifatiga qarab chidamli bo'ladi.

O'yinchoqlar uchun ishlab chiqarishda polietilen, polipropilen, polistirol, polivinilxlorid, polibutilen, polimetilpropilen kabi polimerlardan foydalaniladi.

Biroq bu polimerlarga stabilizator butlovchi kam qo'shilgan bo'lsa, ishlab chiqarish texnologiyasiga to'liq amal qilinmagan bo'lsa ularning sifati buziladi va monomerlarga parchalanadi.

Polimerdan chiqayotgan yoqimsiz hid buning isbotidir. Polimerdan ajralgan formaldegid, fenol, stirol, akrilonitril, benzol, ftalatlar qo'pol zaharli vosita turkumiga kirishi hammaga ayon.

Polimer birikmalar tarkibidagi yuqoridagi moddalar odamlarning asab tizimi, yurak-qon tomir tizimi, jigar, me'da-ichak tizimi a'zolari hamda teriga tez ta'sir ko'rsatadi. Birinchi salbiy alomatlaridan ko'ngil aynishi, qayt qilish, bosh og'rishi, aksariyat hollarda allergiyani namoyondasi terida qizil toshmalar paydo bo'ladi. Ushbu vositalarni oz miqdorda surunkali ta'siri mutagen bo'lib, irsiy kasalliklarga olib keladi bundan tashqari xavfli o'smalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, o'yinchoqlarning chiroyli bo'lishi uchun ularga bo'yoq beriladi. Bo'yoqlarni ham turi ko'p, lekin ularning tarkibiga surma, mishyak (margimush), bariy kadmiy, xrom, simob kabi birikmalar qo'shilgan. Bo'yoqlar me'yordan ortiq yoki sifatsiz bo'lsa bola organizmining zaharlanishiga sabab bo'ladi. Qadimdan ma'lum, yuqoridagi elementlar zaharli bo'lib o'tkir va surunkali salbiy ta'siri to'g'risida ko'plab manbalarda yoritilgan.

Shu bois barcha ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan o'yinchoqlar ekspertizadan o'tkaziladi, bunda quyidagilarga ahamiyat berish kerak.

1. O'yinchoqni ishlab chiqargan korxona yoki tadbirkorning manzili ko'rsatilganligi (yorlig'i bo'lishi).
2. Bolalar yoshiga qarab o'yinchoqning og'irligi.
3. Shakl va tuzilishiga nisbatan o'yinchoq qulay va xavfsiz, tekis yuzali va qirg'oqlari yaxshi ishlangan, o'tkir burchaklarsiz, mayda va oson ajraladigan qismlarsiz bo'lishi kerak.
4. Polimer o'yinchoqlarning xavfli bo'lmasligi.
5. Laboratoriyada tekshirilganligi va Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazining xulosasi bo'lishi hamda sertifikati mavjudligi.
6. Qo'llanayotgan lak va bo'yoqlar mustahkam va yopiq, oq bo'lmagan, suv, so'lak tekkanda rangsizlanmasligi. Bo'yoq pardasi so'lak va teri ta'siriga chidamli bo'lishi.
7. Turli xil shaqildoqlar, sun'iy baraban va boshqa o'yinchoqlarning shovqin darajasi me'yordan yuqori bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

DSENM laboratoriyasida o'yinchoqlarning yuqoridagi ko'rsatkichlar tekshirilib, gigiyenik talablarga mos bo'lganida sanitariya-epidemiologiya xulosasi va sertifikat beriladi.

O'tgan 2021- yil respublikada sotilayotgan 7680 ta o'yinchoqlarning namunalari tekshirilganda 60 ta namuna sanitariya qoida va me'yorlariga mos kelmaganligi aniqlangan hamda tegishli choralar ko'rilgan.

Bozorlarga aylanma yo'llar bilan keltirilayotgan va sertifikatga ega bo'lmagan o'yinchoqlarning xavfsizligiga kafolat yo'qligini hamma anglashi kerak. Bir qaraganda bu muammo arzimasi narsa bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi

o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi or'ni beqiyos ekanligi ayon bo'ladi

"Farzandlarimiz milliy hunarmandchiligimiz asosida yaratilgan o'yinchoqlarni o'ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir etgan bo'lar edik" degan fikrni mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida ta'kidlaydi. Darhaqiqat go'dakning ulg'ayib kelajakda qanday yo'ldan borishi o'zining hayot tarzini qanday axloqiy ma'naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o'yinchoqlar o'ynagani bilan belgilanadi. Har bir xalqning o'yinchog'i o'zining pedagogik badiiy va amaliy an'anasiga egadir. O'yinchoq hamma millat xalqlariga hurmat hissini tarbiyalashi lozim.

O'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

Pedagogik talab; O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi, jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada oliyjanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqeylikka nisbatan oliyjanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning jamiyat va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning maksimal o'g'irligi bola vazniga nisbatan kichik maktabgacha yoshdagi bolalarga 400g dan, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun 800g dan oshmasligi kerak. Yani o'yinchoq bola vaznidan og'ir bo'lmasligi kerak. 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 100 g, 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 400 g, 7-10 yoshli bolalar uchun 800 g dan oshmasligi kerak.

Ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlarning ovoz balangligi, shovqini 65db dan oshmasligi kerak.

Elektromexanik o'yinchoqlarning elektrodvigatellarini elektr quvvatlash 12 v oshmasligi shart.

Cigiyenik talablar: O'yinchoq qanday materialdan va rangdan rayyorlanganligi, bolalarning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi va dizinfeksiya qilinishi mumkinligi asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.

Badiiy talablar. Shakl, buyoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. o'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmog'i lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yumshoq o'yinchoqlardan foydalanish sanitariya qoidalari bilan cheklangan. O'yinchoqlar yuzasi oson infektsiyalanadi, ularni qayta ishlash qiyinroq, shuning uchun yumshoq o'yinchoqni faqat maktabgacha yoshdagi guruhlarda didaktik yordam sifatida ishlatish tavsiya etiladi.

Hushtak, nay, sunray, o'g'izga solinadigan quvurlar kabi musiqiy o'yinchoqlar tavsiya etilmaydi, chunki ular osongina infektsiya tashuvchisiga aylanishi mumkin.

Rangli o'yinchoqlar bardoshli bo'lishi kerak. O'yinchoq kamida 3 daqiqa davomida issiq suvda (60°C [W19]) sovun bilan yuviladi, agar o'yinchoqning ko'rinishi o'zgargan bo'lsa (bo'yoq xiralashgan, sirt yopishqoq bo'lsa) demak o'yinchoq sifatsiz, yaroqsiz.

O'yinchoqlar dizayni xavfsizlik talablariga javob berishi va shikastlanishlarni istisno qilishi kerak. O'yinchoq qulay bo'lishi kerak, silliq, tekis yuzalarga va yaxshi muhrlangan qirralarga ega bo'lishi

kerak, o'tkir burchaklari va kichik, osongina ajraladigan qismlari bo'lmasligi kerak.

Yosh bolalarga kichik o'yinchoqlar berish tavsiya etilmaydi, chunki ular ularni yutib yuborishi, burun yoki qulog'iga qo'yishi mumkin. Ushbu yoshdagi bolalar uchun o'yinchoq qismining diametri kamida 30 mm, balandligi 12 mm.

Bolalarga elektr toki urishini istisno qilish uchun 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'yinchoqlarda ishlatiladigan mikroelektr motorlarning kuchlanishiga 12 V dan oshmasligi kerak.

Bolalar o'yin maydonida tartibni saqlashlari, o'yinchoqlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak.

Yosh bolalar uchun o'yinchoqlar yopiq shkaflarda, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun esa - ular uchun qulay joylarda: stollarda, javonlarda, polaka va stellajlarda saqlanadi. Katta qurilish materiallari odatda ochiq javonlarda yoki larda geometrik shakllarga muvofiq belgilanadi. Stol usti materiallari sotib olingan qadoqlardagi javonlarda saqlanadi.

Katta o'yinchoqlar yerga, pastki javonlarga, kichiklari - yuqoridagi javonlarga joylanadi, lekin bolaning har bir o'yinchoqni o'zi olishi uchun joylashtiriladi. Katta qurilish materiallari odatda ochiq tokchalar yoki javonlarda, didaktik o'yinchoqlar va stol-bosma o'yinlari shkafta saqlash, ularni turi bo'yicha bir yoki bir nechta javonlarga joylashtirish qulayroqdir. Kauchuk, poliuretan ko'pik, enolateks, plastik o'yinchoqlarni yuvish vaqtida ular yaxshilab siqib qo'yilishi kerak. Kichik yosh guruhlarda ular kuniga 2 marta issiq suvda (50 ° C) cho'tka, sovun bilan maxsus mo'ljallangan (belgilangan) havzalarda yuviladi, keyin oqadigan suv bilan yuviladi (37 ° C) va quritiladi. Maktabgacha yoshdagi guruhlarda o'yinchoqlar kun oxirida yuviladi. Qo'g'irchoq

kiyimlari ifloslangani uchun issiq suv bilan yuviladi va dazmollanadi, faqat haftada kamida bir marta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yinchoqlarni tanlash va ulardan foydalanish, ularni to'g'ri saqlash jiddiy yondashishga muhtoj. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun zarur - maktabgacha yoshdagi yetakchi faoliyat. Bu atrofdagi moddiy dunyoning ramzi bo'lib, bolaning faol faoliyatga, turli harakatlarga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Turli didaktik vazifalarni hal qilishda rang, shakl, maqsad, o'lcham, o'yinchoqlarda aniq ifodalangan material yordam beradi. O'yinchoqqa hissiy munosabat axloqiy fazilatlarni tarbiyalaydi. O'yinda bolalar jamoasi shakllanadi, o'yinchoqlarga g'amxo'rlik qilishda mehnatga qiziqish tug'iladi, o'yinchoq estetik didni rivojlantiradi.

Bolada nechta o'yinchoq bo'lishi kerak? Qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi degan fikr keng tarqalgan. Ko'pgina oilalar o'yinchoqlarga ko'p pul sarflashadi. Sotsiologlar turli mamlakatlarda bir xil nosog'lom tendentsiya paydo bo'layotganini tashvish bilan ta'kidlaydilar: bolaga o'yinchoqlar sotib olib, kattalar o'zlarining yuqori ijtimoiy mavqeini, farovonligini ta'kidlaydilar. Sotsiologlarning tashvishi psixologlar tomonidan o'rganildi. Ular voqealarning bunday rivojlanishi yosh avlodning axloqiy qadriyatlarining pasayishiga olib kelishi mumkinligidan qo'rqishadi. Olimlar bolada qancha o'yinchoq bo'lishidan qat'i nazar, u ulardan 2-3 tasini tanlaydi, ular uning do'sti bo'lib, qolganlariga befarq bo'ladi degan xulosaga kelishdi. Shuning uchun, agar bolada juda ko'p o'yinchoqlar bo'lmasa, bu juda yaxshi, chunki u odamlarga qanday e'tibor va muhabbat bilan munosabatda bo'lsa ozgina o'yinchoqlariga xuddi shunday munosabatda bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абраменкова В. Осторожно: антиигрушка: родителям об играх и игрушках // Дошкольное воспитание. - 2005. - № 4. - С. 98.
2. Амелькина А. Штоб не рос из сына свин : Как правильно подобрать книжки и игрушки своему ребенку // Комсомольская правда. - 2002. - 29 март. - С. 9.
3. Аромштам М. Поставьте игрушке оценку! // Дошкольное образование: газ. Издат. дома "Первое сент.". - 2005. - № 9.- С. 1.
4. Букин А. Игры и игрушки // Семья. - 2000. - Н 14. - С. 6.
5. Война В. Барби и ее дети // Новое время. - 2002. - Н 27. - С. 27.
6. Воспитание детей в игре: Пособие для воспитателя детского сада/ сост. А.К. Бондаренко, А.И. Матусик. - М.: Просвещение, 1983.
7. Дети должны играть! // Дошкольное образование: газ. Издат. дома "Первое сент.". - 2008. - № 1. - С. 2.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA CHET TILLARINI O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Aminova Muxtasar

Namangan davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi
E-mail: aminovamukhtasar@gmail.com
Tel: +998910500142

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunda respublikamiz bo'ylab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga berilayotgan e'tibor, chet tillarini o'rgatilayotgani, ular fikrlarini ochiq bayon eta olishi bilan birgalikda mustaqil fikrlay oladigan, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lishlari va ularni zamonaviy metodika orqali o'qitish va ilm olishga

qiziqtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kiritilgan oxirgi 5 yillik haqidagi ma'lumotlardan iborat.

Аннотация: В этой статье речь идет о внимании, которое уделяется детям в организациях дошкольного образования понашей Республике, обучении иностранным языкам, о том, что они умеют открыто выражать свое мнение, могут самостоятельно мыслить.

перемены, подрастающее поколение.

Annotation: In this article we are talking about the attention paid to children in preschool education organizations throughout our republic, teaching foreign languages, that they are able to openly express their opinions, can think independently.

Kalit so'zlar: chet tillari, bola, ilm, qiziqish, zamonaviy metodika, tarbiya, ta'lim, o'zgarishlar, yosh avlod.

Ключевые слова: иностранные языки, ребенок, наука, любопытство, современная методика, воспитание, образование, **Key words:** foreign languages, child, science, curiosity, modern methodology, upbringing, education, changes, the younger generation.

So'nggi besh yil davomida barcha sohalarda, jumladan maktabgacha ta'lim yo'nalishlarida juda katta e'tibor qaratilmoqda.

a) 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish chora-tadbirlari yo'lga qo'yildi;

b) 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi bilan qamrab olish;

d) nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlarini rivojlantirish;

e) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli amalga oshirish.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning o'zi ko'rsatib turibdi.

Shu bois Prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Ular quyidagilar;

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

"Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish vazifalari amalga oshirilmoqda.

Kompetensiya-bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

O'yin kompetensiyasi – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Hozirgi kunda til o'rganish ommaboplashib bormoqda, biz bu jarayonni maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'yinlar orqali, qo'shiqlar orqali va bolaning yoshiga mos bo'lgan ravishda turli qiziqarli usullar orqali amalga oshirililsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilidagi so'zlarni o'rganishlari osonroq bo'lishi uchun "Pantamimo" o'yini orqali o'rgatish mumkin.

"Pantamimo" o'yinnining maqsadi, bolalarda imo- ishora va hatti-harakatlar orqali chet tilida so'zlashga qiziqish orttirish, mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirish. Bunda bolalar 2 guruhga bo'inadilar, 1-guruhdagi bolalar pantomimika orqali biror bir hayvonni harakatini bajaradi, 2- guruhdagi bolalar ingliz tilida bu qaysi hayvon ekanligini aytishlari zarur. O'yin shu tariqa davom ettiriladi. O'yin yakunida faol ishtirok etgan ishtirokchilar rag'batlantiriladi.

Bolalar oila a'zolari davrasida, ko'magida yurishni, gapirishni, insonlar bilan muloqatda bo'lishni o'rganishadi. Undan tashqari otalaridan tarbiya olishadi.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga kamida 2 ta yoki 3 ta chet tillarini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Bu jarayon turli xil qo'shiqlar , o'yinlar yoki qisqa multi mediyali videolar orqali olib borilmoqda, bundan maqsad bolalar maktab yoshiga yetganlarida ular ruhan charchamasliklari va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim olayotgan bolalarning yoshiga mos ravishda mashg'ulotlar olib borilishi yo'lga qo'yilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim- tarbiya berishdan asosiy maqsad, yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'nan boy, har tamonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev 2017- yil 7- fevral kuni “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli farmoni.
2. “Ilk qadam” Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Evstafeeva L.G., Mahmudova D.T., va boshqalar. Toshkent, 2018- yil.
3. www.uzedu.uz
4. www.kun.uz
5. www.fayllar.org

LI MYON BAKNING “MO‘JIZA SODIR BO‘LMAYDI” ASARIDAGI BOSH QAHRAMONNING G‘ALABASI

Norbadalova Kumush Ilhom qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish ta’lim yo‘nalishi” 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Li Myon Bakning “Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi” asaridagi bosh qahramonning ya’ni, Li Myon Bakning hayoti va uning o‘zgarish yo‘li tasvirlanadi va ma’lumotlar keltiriladi.

Abstract: This article describes and provides information about the life of Li Myon Bak, the main character in Li Myon Bak’s novel “Miracles Don't Happen” and his path to change.

Kalit so‘zlar: Mo‘jiza, maqsad, qat’iyat, rivojlanish, kompaniya, raqobat.

Keywords: Miracle, goal, determination, development, company, competition.

Li Myon Bakning “Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi” asarida muallifning hayoti va uning o‘zgarish yo‘li tasvirlanadi. Qahramon o‘zining qiyinchiliklarga to‘la hayotini shiddatli kurash orqali yengishga intiladi. Kambag‘allikdan chiqish, maqsadga erishish va o‘zini rivojlantirish yo‘lida duch kelgan to‘siqlarni yengishda, u o‘zining qat’iyatligi va iroda kuchini namoyon etadi. U o‘zini har doim yuqori maqsadlar sari yo‘naltiradi va doimo yuksalish uchun yangi imkoniyatlarni izlaydi. Asar uning shu tarzda o‘ziga xos muvaffaqiyatli hikoyalarini yoritadi, unda ham ota-onasining pand-nasihatlar, ham qiyinchiliklar orqali o‘zini rivojlantirishni o‘rganishi ko‘rsatiladi.

Asarda Li Myon Bak o‘z hayotidagi muammolari bilan shiddatli kurashni davom ettiradi, bu orqali o‘zining maqsadlariga erishishga

intilishining samarasini ko‘rsatadi. U oddiy ishchidan yuqori lavozimlarga ko‘tarilganida ham, hech qachon to‘xtamaydi va har bir bosqichda o‘zini rivojlantirishga harakat qiladi.

U o‘zida raqobatchi sifatida kompaniya sohibini tanlaydi va bu orqali o‘zini har doim yuqori maqsadlarga yetaklaydi. Bu yondashuv uni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va harakatlarida qat’iyatlilikni ta’minlaydi. U doimo shunday fikrda bo‘lgan: “O‘zingni kompaniya sohibi deb his et, shunday ish top va g‘alabaga erish. Kompaniya egasidan ko‘ra yuqoriroq maqsadlarni belgila” [1;235-bet]. Bu g‘oya asarda muhim rol o‘ynaydi va Li Myon Bakning muvaffaqiyat sari yo‘lidagi kuchli iroda va maqsadga intilishni ifodalaydi. Shuningdek, muammolarni yengish jarayonida qanday qilib o‘zini rivojlantirish va eng yaxshisi bo‘lishi kerakligini o‘rganadi.

Kambag‘allikni yengishida ota-onasining pand-nasihatlar ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Onasi doim qo‘ni-qo‘shnilarga beminnat yordam qilishga chorlagan va ular bergan narsalarni olishlariga yo‘l qo‘ymagan. Buning sababini keyinchalik tushunib yetganini aytadi: “Beg‘araz yordam insonga o‘z qadrini bilish tuyg‘usini baxsh etadi” [2;46-bet]. O‘zgalarga yordam berish Li Myon Bak hayotida yaxshi maktab bo‘ldi. Uning mohiyati, xatto kambag‘al, o‘qimagan odamlar ham evaziga hech narsa olmasdan, yaqinlariga, xatto boylarga ham yordam berishlari mumkinligida edi.

“Agar kambag‘al kishi bir umr boyni yordamiga umid bog‘lasa, u toabad kambag‘al bo‘lib qoladi. Shu tariqa, biz, bolalarda kishi bilmas ichki kuch o‘tib bordi va aynan shu narsa kambag‘allikni yengishga yordam berdi”, – deya ta’kidlaydi [3;46-bet].

Bu kitobdan turli hil hikoyalar joy olgan. Masalan “Otam ibрати”, “Qo‘li uzun bola”, “Uydan qochishim va onam duosi”, “Direktor

rafiqasining iltimosi”, “Istaganingcha yig‘la”, “Maoshga ishlovchi direktor va korporatsiya prezidentining o‘g‘li”, “Qonli ko‘zyoshlar”, “Felingni ishingga moslashtir”, “Direktorimiz tunda ham uxlamaydimi?”, “Shanba kuni ham rasmiy kiyimda” kabi hikoyalari bor [4;310-bet]. Bu kitobdan joy olgan yana bir hikoya menga ham juda ham yoqti, menda katta taassurot qoldirdi. Bu hikoyaning Nomi “Yaxshi ota bo‘lish siri” deb nomlangan. Bu hikoyada direktor Lining oilasi tasvirlangan. Li Myon Bakning rafiqasi farzandlarining kun tartibini yozib beradi. Ularning 4 ta farzandlari bor edi, ya‘ni uch qiz bir o‘g‘il. U farzandlari bilan kechqurun gaplashgani qizidan bugungi imtihoni qanday o‘tganini so‘raydi. Bugun koreys tili, matematika, fizikadan 3 ta imtihoni borligini aytadi, qizi esa “dada siz bularni qayerdan bilasiz” – deb hayratda qolar edi. Shu bilan esa farzandlari “dadamiz bizni o‘ylar ekan, biz haqimizda qayg‘urar ekan, bizga etibor qilar ekan” – deb o‘ylashar edi. Aslida esa unga yaxshi ota bo‘lish uchun rafiqasi ko‘maklashar edi. Bu kitobda juda ham ibratli ma‘noli hikoyalar ko‘p shulardan yana biri “Direktorimiz tunda ham uxlamaydimi?” deb nomlanga hikoyasidir. Li Myon Bakning aytishicha u uchun kun tongi soat 5:00 da boshlanardi. “Bunga sabab onamning tongi qiladigan duolari edi. Men xohlasam ham xohlamasam ham tongda soat 5:00 da ko‘zlarim o‘z-o‘zidan ochilib ketadi”, – deb ta‘riflab bergan. “Menga chet eldan yarim tunda soat birlardami ikkidami telefon qilishsa ko‘tarib, javob berardim shu sababdan ham xodimlarimiz ishchilarimiz hamkorlarimiz direktor Li tunda ham uxlamaydimi?” – [5;238-bet] deb o‘zlariga o‘zlari savol berishar edi” – deb yozadi Li Myon Bak.

Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi asaridagi qahramon hayotning har bir to‘lqinlariga har bir qiyinchiliklariga dosh berdi. Necha marta yiqilsa ham o‘rnidan turishga harakat qildi [6;1-bet]. Qashshoqlikdan qutulish

uchun oilasi uchun qilmagan ishi qolmadi. Meva sotishdan boshlab to Koreya davlati prezidenti lavozimigacha chiqdi. Buning o‘zi bo‘lmadi har bitta to‘siqdan ming azobda o‘tdi, albatta. Soat to‘rtga uyg‘onib kech uxlari edi. O‘zi ishlar edi, onasiga qarashar yana uni o‘qishi ham bor edi. Hammasiga birday ulgurishga harakat qilar edi. Boshqa do‘stlari singari ko‘cha aylanib yurishga vaqtni mazmunli o‘tkazishga umuman vaqti bo‘lmasdi. Ma’ruzalardagina faqat darslarini qilib olar, o‘qishdan ham, ishdan ham juda charchagan edi. Eng oxirgi chora harbiy xizmatga ketish deb o‘ylar edi. Uch mahal bepul ovqat va bepul usti bosh harbiy xizmatga ko‘rik boshlandi, ikkinchi kun hammani tekshirishdi navbat menga keldi. Doktor obdon tekshirdi, “shu yoshda siz shuncha kasalmisiz? sizni bu salomatligingiz bilan harbiy xizmatga ololmaymiz dedi” – tekshiruvchi doktor. “Bronxlariz shamollagan, yaxshilab davolanishingiz kerak” – dedi. Shunday qilib harbiy xizmatga olishmadi, men harbiy xizmatga borishni shunchalik xohlasam boshqalar esa qochish uchun choralar izlab topar edi. Do‘stlarim yordami bilan arzon kasalxona topib berishdi. Tuzalдим ammo, kasalxona bir holat esimdan chiqmaydi. Ko‘zim ilinay deb, turgan paytlarda doktor kirib qoldi, endi yonimga kelmoqchi bo‘lganda oldidagi amaliyotchi doktor aytdi, “bu juda faqir, qimmat dorilarni olishga puli yetmaydi”, bu gaplar ko‘nglimga og‘ir botdi. Shu arzon dorilar bilan bo‘lsa ham ancha sog‘ligimni tiklab oldim. Yana hayot o‘zining o‘z to‘lqinlariga olib ketdi. Hayotning har bir qiyinchiliklari bu yangi imkoniyatlar demakdir.

Li Myon Bakning hayoti – bu kurash, iroda va yuksalish tarixidir. Asarda uning kambag‘allikdan boylikka, oddiy ishchidan yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi hikoya qilinadi. Biroq, eng muhimi, u har doim o‘zini rivojlantirishga intilgan, muammolarni yengishga, o‘zining eng yaxshi innovatsion g‘oyalarni yaratishga harakat qilgan. Uning

muvaffaqiyatga erishish yo‘li nafaqat tashqi muvaffaqiyatlar, balki ichki o‘zgarishlar, o‘rganish va o‘zini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Kitobdagi hikoyalar ham o‘qish va tajriba olish, hayotdagi murakkabliklarni yengib o‘tish, va shaxsiy o‘sish yo‘lini tanlash zarurligini ta’kidlaydi. Li Myon Bakning hayoti har birimiz uchun ibrat bo‘lib, hayotning har bir qiyinchiligi yangi imkoniyatlarni ochishga yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Li Myon Bak. “Mo‘jiza sodir bo‘lmaydi”. Seul – 2009. 312-bet. 235-bet.
2. O‘sha manba. 46-bet.
3. O‘sha manba. 46-bet.
4. O‘sha manba. 310-bet.
5. O‘sha manba. 238-bet.
6. <https://civil.uz/mo%CA%BBjiza-sodir-bolmaydi-asari-haqida-li-myon-bak/>.

MAMLAKATIMIZ TARIXI VA ILMIY MANBALARIDA YIGITLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHGA QARATILGAN MUNOSABATLAR

G‘aniyeva Umida Fahriddin qizi

Guliston davlat universiteti

Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Tel: +998951091905

E-mail: ganiyovaumida@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz tarixi va ilmiy manbalarida yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan munosabatlari ochib berilgan. Shuningdek yigitlarni oilaviy hayotga

tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Абстрактный: В статье раскрываются исторические и научные источники нашей страны, направленные на подготовку юношей к семейной жизни. В нем также содержится информация о социально-психологических факторах подготовки молодых людей к семейной жизни.

Abstract: This article reveals the historical and scientific sources of our country, which are aimed at preparing young men for family life. It also provides information about the socio-psychological factors of preparing young men for family life.

Kalit so'zlar: oila, ijtimoiy hayot, mahalla, konfliktlar, nizolar, adaptatsiya, jamiyat, er-xotin munosabatlari, shakllanish.

Ключевые слова: семья, общественная жизнь, соседство, конфликты, споры, адаптация, общество, супружеские отношения, становление.

Keywords: family, social life, neighborhood, conflicts, disputes, adaptation, society, marital relations, formation.

Davlatimiz rahbari o'zining yoshlar siyosatiga doir qarashlari va konseptual yo'l-yo'riqlarida "Ertangi kunimiz – hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo'lmaslik, bir so'z bilan aytganda, ertangi istiqbolimizning barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishi birinchi navbatda, bizning yosh avlodimizni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishga chambarchas bog'liqdir", - deb ta'kidlaganlar.

Chunki, har tomonlama yetuk avlodgina butun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab, og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish,

ko'zlangan yuksak marralarni egallashi mumkin. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz yoshlarga katta umid va ishonch bilan qaramoqda. Mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli yoshlar hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kirayapti. Mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirishning manbalari, xususan, oila – iste'dodli yoshlarni voyaga yetkazish va tarbiyalashning muhim o'chog'i sanaladi. Chunki, yosh avlod o'z hayoti yo'lida oilani kamolot beshigi deb hisoblaydi. Yosh avlod kamolotida oilaning o'rni va ta'siri beqiyos, insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchaning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi. Aqli raso har qanday inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu va intilishlari bilan yashaydi.

O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganishdagi dastlabki yozma manba "Avesto"

– ("Qat'iy qonunlar")da oilada sog'lom avlod tarbiyasining usul va vositalari, huquqiy munosabatlari haqida ma'lumot beradi. 15-yosh bola uchun balog'at yoshi hisoblanadi, unga zardushtiylikning qoidalari o'rgatiladi. Bu yoshda yigit yoki qiz bola turmush qurishi mumkin bo'lgan. Turmush qurayotgan yigit va qiz bolaning baquvvat, sog'lom bo'lishi, bo'lajak farzandning sog'lom tug'ilishi oila mustahkamligi uchun

asos hisoblangan. Erkak va ayolning ma'naviy pokligi, oilada ularning axloqiy-ma'naviy yetukligi oilaning oliy bosqichi hisoblanadi.

“Avesto”da oilada tarbiya, bolani dunyoga keltirish va sog'lom qilib tarbiyalash, ayol va erkak kishining salomatligini asrash, oilada er-xotinning huquqiy manfaatlarini muhofaza qilish, xomilador ayollarga e'tibor, er-xotin munosabatlarining nozik jihatlari, ersiz farzand ko'rgan qiz yoki juvonning haq- huquqlari, hayz ko'rgan ayolning sog'lom turmush tarzi, tug'ilmagan bolaga yetkazilgan shikast uchun jazo va boshqa oilaviy turmush qoidalariga keng o'rin berilgan.

Jumladan, xotin-qizlar salomatligini saqlash, ularga nisbatan zo'ravonlikning turli ko'rinishlari sodir etilganda gunohkorga belgilanadigan jazo qat'iy belgilab qo'yiladi. Homilador, hayz ko'rgan xotin aloqa qilgan, homilasini tushirgan, go'dakka, onaga shikast yetkazgan er, ayol, qariyaning jazosi oshkora o'limdir. Agar erkak kishi balog'atga yetmagan qiz yoki juvon kelgunga qadar o'sha qiz yoki juvonnini o'z qaramog'iga olmog'i kerak. “Agar bordi-yu, er ayolni yetarlicha himoya qilolmasa va go'dakka shikast yetkazsa, bunday erning jazosi o'limdir”. “Agar o'sha ayol odamlardan nomus qilib, bachadondagi tirik mevasini nobud qilsa, odam o'ldirish gunohi ayol va erning gardanidadir. Ular oshkora qatl etiladilar” (“Vandidod”, 15, Farzand, 15-16-betlar).

Axura Mazda saodat, goo'zallik, ezgulik, ma'naviy va jismoniy sog'lom insonlarni dunyoga keltiruvchi ilohiy kuch ramzidir. U erkakning ham ayolning ham durkuni baquvvat, sog'lom xuddi shunday farzandlarni dunyoga keltirishni, shuning uchun ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amal g'oyasi orqali oilani, jamiyatni sog'lomlashtirishga, har bir sog'lom turmush tarzi asosida hayot kechirishga chorlaydi.

Yaxshi andishali, aql-zakovatli, sog'lom er oilaning ustunidir, sog'lom kelajak poydevoridir. “Bizga shunday kamyoblik

baxsh aylagilki, novqiron va kuchli yorlar topaylik, toki ular tamomiy tirikligimiz davomida bilan xushlikda bo'lsinlar, bizlardan dono, xushyor va xushkalom farzandlar dunyoga kelsin”.

“Avesto”da hatto o'lik chaqaloq tuqqan ayol ham zamini kamsuv, giyohi serob, mollar va qo'ylar suruvi kamroq o'tadigan, marosimlar kam o'tkaziladigan, odamlar gavjum emas, suvdan, olovdan olim tincho-soyishta joyda maxsus taomlar bilan ovqatlantirib, kiyintirib, parvarishlangan. Bunday ayolning ham sog'lom bola tuqqan ayol singari organizmi osoyishtalikni, pravirishni talab etadi, chunki u ham ko'p qon va kuch yo'qotadi. “Bachadonning ichi tozalanishi uchun, uch yo olti, to'qqiz jam kul aralashtirilgan kumiz ichmog'i kerak”.

Bunday ayol yaxshi, sifatli va kuchli ovqatlanmog'i zarur. Uch kecha issiq sut, go'sht, non, uzum sharobi ichmog'i va yemog'i kerak, zinhor suv ichishi mumkin emas. Uch kundan keyin tana va kiyim-kechaklarini kumiz va suv bilan yuviladi. Shunday qilib, ayol poklanadi. To'qqiz kecha odamlardan ayro, yolg'iz yashaydi, so'ng tana va kiyim-kechaklarini yana suv va kumiz yordamida yuvib, poklaydi. Bu ayol kiygan kiyim-boshlardan hech kim foydalanishi mumkin emas. Hadis islom olami payg'ambar Muhammad alayhis va salomning xislatlari, xatti-harakatlari, diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqida ma'lumot beruvchi didaktik xarakterdagi ta'limot hisoblanadi. Hadislarda targ'ib qilinadigan insonlarning ma'naviyatini belgilovchi ijobiy sifatlar: saxovat, rostgo'ylik, iffat, oqibatlilik, rahm-shafqat, e'tiqod, imon, tozalik, pokizalik, bilimdonlik, halollik, sabrlilik, ishonch, qanoat, muloyimlik, latiflik, marhamat, saxiylik, sadoqat, sabotlilik, viqorlilik, salohiyat, halimlik, tavoze, hayo, tejamkorlik, sir saqlash, nonni e'zozlash, diyonat, mehmondo'stlik, mehr-oqibat, xayr-ehson, vazminlik, tadbirkorlik, himmat, bardoshlilik, xushxulqlik, to'g'rilik, shukr, vafo va

boshqalar o‘z ifodasini topgan. Ushbu ezgu xislatlarni balog‘at ostonasida turgan yigit-qizlarimizga singdirish har bir ota-ona, ustozlarning asosiy vazifasidir.

Hadislarda “Kelin tanlash vaqtida to‘rtta narsaga albatta qiziqiladi: moliga, jamoliga, kasbiy mansabiga va diniga. Sen dindorini tanlagin”, - deyiladi. Chunki, mol, jamol vaqtinchalik, mansab esa kelin bilan birga kelmaydi, otasining uyida qoladi, ammo iymon-e‘tiqod, aql-idrok, xulqu odob, irsiy tozaligi u bilan doimo hamrohdir. Ana shunday fazilatlarga ega bo‘lgan ayolning farzandlarini tarbiyalash osonroq bo‘ladi.

Hadislarda qaraladigan inson ma‘naviy va jismoniy salomatligiga salbiy ta‘sir etuvchi xususiyatlar: o‘g‘irlik, zino, hayosizlik, munofiqlik, omonatga xiyonat yolg‘on so‘zlash, shartida turmaslik, kek saqlash, axloqsizlik, nopoklik, riyokorlik, xusumat, nohaqlik, fitna, yolg‘onchilik, g‘iybat, ochko‘zlik, ta‘magirlik, isrofgarchilik, itoatsizlik, chaqimchilik, beparvolik, kibr, gina-adovat, xiyonat, razillik, baxillik, zulm, maqtanchoqlik, ikki yuzklamachilik, takabburlik, manmanlik, shuhratparastlik, shoshqoloqlik, zinokorlik, ichkilikka ruju qo‘yish, harom narsalarni iste‘mol qilish kabi illatlarning oila qurish ostonasida turgan yigit-qizlarga zararli jihatlarni tushuntirish, bunday illatlardan hazar qilish tuyg‘ularini singdirish lozim.

Islomda oilaning o‘rni masalasiga yetarlicha o‘rgangan va tahlil qilgan muftiy hazratlari **Usmonxon Alimov o‘zining “Oilada farzand tarbiyasi” kitobida dunyoda hamma narsa juft-juft yaratilganligini, ya‘ni oy va quyosh, kecha va kunduz, yer va osmon, erkak va ayol, musbat va manfiy ekanligini ta‘kidlaydi.** Mohiyatan ularning har biri ikkinchisiga har jihatdan ehtiyojlidir. Mavjudotlar hayotda mana shu juftlik bilangina barqaror bo‘ladilar.

Ushbu juftlikni inson misolida oladigan bo'lsak, er kishi turmushda faqat o'z jinsining jufti bo'lgan ayol bilan taskin va rohat topishi mumkin. Muqaddas Qur'oni Karimning “Nahl” surasida “Alloh sizlar uchun o'zlaringizdan juftlar yaratib, juftliklaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi ...”, - deb ta'kidlaganlar.

Ana shunday juftlik sanalgan erkak va ayolning ilohiy nikoh rishtalari tufayli bir xonadonda, bir oilada ahil-totuv yashashlari, nasl davomiyligini ta'minlab, umrguzaronlik qilishlari haqiqatan Yaratganning ulug' san'ati va hikmatiga dalolatdir. Dinimizda oila qurishga erkak va ayol birdek targ'ib qilingan. Payg'ambarimizdan (alayhissalom) bu borda rivoyat qilingan hadislarning birida:

“Ey yigitlar, sizlardan qay biringiz oila qurishga qurbi yetsa, uylansin. Uylanish nomahramlarga ko'z tashlashdan, zinokorlikdan asraydi. Qurbi yetmagan kishi ro'za tutsin, toki unga to'siq bo'lsin”, - deyilgan. (Imom Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasafiy).

Hadislarning birida: “To'rtta yaxshi ish bor, ular payg'ambarlar sunnatidan sanaladi: hayo, xushbo'ylik, misvok tutish va uylanishdir”, - deb marhamat qilinadi (Imom At Termiziy rivoyati).

Payg'ambarimizdan (alayhissalom) yana shunday hadis bor: “Kim uylangan bo'lsa, dinning yarmini mukammal qilibdi, qolgan yarmida Allohga taqvo qilaversin” (Taboroniy, Boyhaqiy, Hokim rivoyati).

Islom ta'limotiga ko'ra, oila Yaratganning roziligini topish, Payg'ambarimiz (alayhissalom) axloqlari, islomiy odob bilan ziynatlanish va pok yo'l bilan insoniyat naslini davom ettirish maqsadida quriladi. Nikoh asosida turmush qurish Alloh taoloning buyrug'i, Payg'ambirmizning sunnatlari kan, musulmon kishi oila qurishi lozim. Nikoh tufayli inson o'z nasli-nasabining pokligini saqlaydi, iffatini asraydi, buzuvchilik, zino singari harom ishlardan tiyiladi.

“Nikoh” soʻzi lugʻatda, “yaqinlik”, “bogʻlanish” maʼnolarini anglatadi. Nikoh bitimi, ahdi bitimlarning eng yaxshisidir. Har bir musulmon uylanishning shaʼriy hukmlarini ham bilishi zarur. Kishining jinsiy quvvati, oila masʼuliyatini ado eta olishiga koʻra, **shariatda uylanishning hukmi besh xil:**

1. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, faqat uylanish bilan zinodan saqlana oladigan kishilarga uylanish farzdir.
2. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, uylanmasa zinoga ketish xavfi boʻlgan kishilarga uylanish vojibdir.
3. Mahrga va ayol nafaqasiga yetarli moli bor, jinsiy munosabatlarga layoqatli kishilarga uylanish sunnatdir.
4. Mahr va ayol nafaqasini topib berishdan hamda jinsiy ojizligidan xavfsiragan kishilarga uylanish makruhdur.
5. Mahr va ayol nafaqasiga qodir boʻlmagan, jinsiy layoqati yoʻqligi aniq kishilarga uylanish haromdir.

Islomda oila va nikoh masalasiga juda jiddiy eʼtibor berilgan. Oilaning mustahkam boʻlishi uchun nikohning qoʻshimcha sharti sifatida kafaotga ham amal qilinadi. “Kafaot” deganda, nikohlanayotgan tomonlarning ijtimoiy, moddiy va maʼnaviy jihatdan bir-biriga “teng”, mos boʻlishi tushuniladi. Xalqimizning “Teng-tengi bilan” degan maqoli bejiz emas. Nikohdagi tenglik ikki tomonning nasl-nasabi, dini, boyligi, kasb-hunari va eʼtiqodi kabi narsalarda namoyon boʻladi. Zero, ota-onasi bagʻridan chiqib, oʻzi uchun shu paytgacha mutlaqo begona sanalgan yangi oilaga koʻnikib ketishi uchun tushgan xonadoni bilan ota-onasi xonadoni oʻrtasida ijtimoiy va maʼnaviy nuqtai nazardan tenglik boʻlsa, kelinning yangi oilaga moslashuvi osonroq kechadi.

Kuyov tanlaganda ham chiroyli, sogʻlom, shirin soʻz boʻlishiga eʼtibor bergil, qizingni hech qachon qul kabi sotmagil. Qiz bilan yigit bir-

birlariga har tomonlama mos bulmaklari kerak, shunda har ikkalasi chiroyli va mustahkam oila quradi. Bunday oilada tugʻilgan farzand sogʻlom, baquvvat va chiroyli boʻladi.

Kaykovus farzandiga qarata poklik haqida oʻgit berib, “Tan va libosingni pok tutgil va hozirjavob boʻlgʻil” deya uqtiradi. Poklik salomatlik negizidir.

Hulosa. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan - Agar oila sogʻlom va mustahkam boʻlsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla – yurt mustahkam boʻlsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Shunday ekan avvalo oilani mustahkam boʻlishiga asos yaratuvchi, oila tayanchi, oila ustuni va oila boshligʻi boʻlmish yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasini ilgari surdik. Chunki oilada er erligini qilmasa oʻz vazifasini bajarmasa bunday oilada ham maʼnaviy ham moddiy yetishmovchiliklar kelib chiqadi, bu esa oʻz navbatida oila birdamligi, oila totuvligi, oila hamjihatligiga rahna soladi va shu oilada kamol topayotgan farzandlarga oʻzining salbiy taʼsirini koʻrsatmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mustahkam oila maʼnaviyati. A.Abdusamedov va boshq. T.: “Sano-standart”, 2012, 160-b.
2. Hayot kitobi: yosh oilalar uchun ensiklopedik qoʻllanma. –T.: “Sharq”, 2011, - 272 b.
3. Shomansurova R. Kelinnoma. –T.: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi”, Davlat ilmiy nashriyoti, 2013, 464-b.
4. Bekalik saodati: oila saboqlari. /Toʻplab nashrga tayyorlovchi Husniya Pardaeva. –Yurist-Media markazi, 2012, 104-b.
5. Safarov O. Oila maʼnaviyati. –T.: Maʼnaviyat, 2009, 248-b.

6. Sultonova G. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning samarali yoʻllari.
7. //Uzluksiz taʼlim. Ilmiy-uslubiy jurnal. –T.: №3, 50-52 betlar.
8. Obidova N. Oila – muqaddas dargoh. //Xalq taʼlimi. –T.: №2, 45-46 betlar.
9. Mahmudova M. Yoshlarda oilaviy hayotga doir koʻnikma va malakalarni shakllantirish. Yoshlar maʼnaviyati va sogʻlom turmush tarzi. Ilmiy toʻplam. 102-108-betlar.

YOSHLARDA MA’NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Sunnatova Sarvinoz

Oʻzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni shakllantirishning ahamiyati va ushbu jarayonni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati yoritilib, tegishli farmon va qonunlar misol tariqasida keltirilgan.

Annotation: This article discusses the importance of fostering spiritual values among young people and analyzes pedagogical technologies that contribute to this process. It also highlights the essence of the reforms being implemented in our country in this regard, citing relevant decrees and laws as examples.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность формирования духовных ценностей у молодежи, а также анализируются педагогические технологии, способствующие этому

процессу. Кроме того, раскрывается суть проводимых в нашей стране реформ в этой области, приводятся примеры соответствующих указов и законов.

Kalit soʻzlar: milliylik, maʼnaviyat, qadriyat, madaniyat, madaniy ong.

Keywords: nationality, spirituality, values, culture, cultural consciousness.

Ключевые слова: национальность, духовность, ценности, культура, культурное сознание.

Mamlakatimizda madaniyatimizga, intellektual va maʼnaviy salohiyatga aksiologik munosabatni qaror toptirish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasiga alohida eʼtibor qaratib kelinmoqda. Ayni paytda, yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishda oila, mahalla va maktab hamkorligini jadallashtirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish, yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishning refleksiv texnologiyalarini qoʻllash zarurati mavjud. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasida "Taʼlim oluvchilarning yuksak maʼnaviy-estetik va ruhiy-axloqiy tarbiyasiga, eng avvalo, ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, musiqa va sanʼat olamiga boʻlgan munosabatiga eʼtibor qaratish" [1] muhim vazifalar etib belgilangan. Bu esa, yoshlarda maʼnaviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirishning pedagogik tizimini tadqiq qilish, darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonini integrasiyalash asosida yoshlarning boʻsh vaqtini samarali tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etishini koʻrsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF4947-sonli, 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida” gi PF-5106-sonli Farmonlari, 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘rida”gi Farmoyishi, 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli Qarori hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risidagi Farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ko‘rsatib o‘tilgan.

Shaxs ma‘naviyatini rivojlantirishning muhim jihati unda ma‘naviy ehtiyojni qaror toptirishda namoyon bo‘ladi. Ma‘naviy ehtiyoj-davlat, jamiyat va shaxsning barqaror turmushida moddiy ehtiyojlardan boshqa ma‘naviy talablar, manfaatlar va zaruratni qondirishga bo‘lgan intilishni ifodalovchi tushunchadir. Ma‘naviy ehtiyoj ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, ilmiy, estetik, axloqiy, diniy, huquqiy va boshqa yo‘nalishlarda aniq namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ma‘naviy ehtiyoj ijtimoiy ong shakllariga tayanadigan faol harakat asosida ta‘minlanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan qadriyat inson tomonidan baholanadigan keng ommalashgan subyektiv obraz yoki tasavvurlar sifatida idrok etilsa, sosiologik yondashuvda qadriyat inson hayotiy faoliyatini tashkil etuvchi ijtimoiy me‘yorlar uning xulq –atvori bilan mustahkam aloqadorlikda tadqiq etiladi.

“Ma’naviy qadriyatlar” tushunchasi inson ma’naviyati va axloqiy qiyofasiga, jamiyatning ma’naviy hayotiga daxldor bo‘lib, odamlarni tarbiyalashga, ularning barkamolligini ta’minlashga, millatlar va jamiyatlarni ezgulik va bunyodkorlikka undashga xizmat qiladigan ma’naviy qadriyatlarni ifodalaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta’kidlagan “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy me’rosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim. avvalambor, milliy ta’lim tizimini ana shunday ruh bilan sug‘orishimiz kerak”[2].

Yoshlardagi ma’naviy qadriyatlarni egallash zarurati dinamik xarakterga ega. Uning dinamikligi bir necha bosqichda namoyon bo‘ladi: yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining vujudga kelishi, ular tomonidan ma’naviy qadriyatlarning aynan o‘zlashtirilishi, ehtiyojlarning o‘zaro uzviy tarzda bir-birini taqozo qilishi. Aynan shu omilar asosida yoshlarda shakllantiriladigan ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyoji o‘zining aniq mazmun-mohiyatiga ega bo‘lib, uni egallash jarayoni faol anglanganligi hissiy-emotsionallik bilan bog‘liq. Shu tariqa yoshlarning his-hayajonli holatlari ma’naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojining tarkib toptirilishi o‘z-o‘zini anglash va ijtimoiy faollikni oshirishga yordam beradi.

Jamiyat tomonidan belgilangan me’yor, talab, ideal, madaniy qadriyatlar shaxs tomonidan yakka va tanlangan holda qabul qilinadi va o‘zlashtiriladi. Yoshlarning aksiologik munosabati har doim ham jamiyat tomonidan qabul qilinadigan va e’tirof etiladigan qadriyatlarga mos kelmaydi. Yoshlar tomonidan ongli ravishda qadriyatlar qabul qilinsa va o‘zlashtirilsa, shunda uning shaxsiy qadriyati, ideali, maqsadiga mos kelsagina, ma’lum bir muvofiqlik kasb etadi.

Yoshlarda ma'naviy qadriyatlarga ehtiyojni shakllantirish tamoyillari sifatida ijtimoiy bo'shliqlarni to'ldirib, rag'batlantirib borish, mustaqil faoliyat va tashabbuskorlik, ma'naviy-axloqiylik, refleksivlik, talabchanlik va g'amxo'rlikning uyg'unligini ta'minlash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning samaradorligi kabilar asos qilib olingan. Ayniqsa, yoshlarning kundalik faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga doir tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir ko'rsatishning samaradorligi muhim ahamiyatga ega.

Har qanday tarbiyaning asosiy mezoni tarbiyalanuvchida o'zi va o'z fazilatlari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirishdan, o'zligini, o'z-o'zini anglashdan iborat. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan"[3].

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni egallash ehtiyojini shakllantirish va bu sifatni muntazam rivojlantirib borish yo'naltirilgan pedagogik jarayonda yoshlarning milliy-ma'naviy qadriyatlarni faol o'zlashtirishlari va o'z faoliyatlarida namoyon etishlari uchun qulay pedagogic vaziyatni vujudga keltirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmon.-O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y. 6-son, 70-modda

2. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 1 oktyabr.No207(7709)-son

3. Prezident Sh. Mirziyoyev raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi sharhi// "Xalq so'zi",2021 yil 20-yanvar

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TA'LIM TIZIMI TAJRIBALARINI O'RGANISH VA QO'LLASH

Ostanaqulov Xojiakbar Mansurqul o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Tel: +998 90 529 24 08

E-mail: x.ostanaqulov@mail.ru.

Jaksimuratov Azamat Bekmurat o'g'li

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Tel: +998 94 086 10 50

E-mail: jaqsimuratov004@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimlari tajribasini o'rganishga qaratilgan. Yozuvda, eng ilg'or ta'lim metodlari, pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishning samarali yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda, o'quvchilarga bilim berishda rivojlangan davlatlarning amaliyotlaridan qanday foydalangan holda, O'zbekistonda ham ta'lim tizimini yaxshilash mumkinligi ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada global ta'lim tendensiyalari va ularning mamlakatimizga moslashtirilishi masalalari yoritilgan. Asosiy maqsad – ta'lim tizimini jahon standartlariga mos ravishda modernizatsiya qilish va yosh avlodni

yuqori sifatli ta'lim bilan ta'minlash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Аннотация: Данная статья направлена на изучение опыта образовательных систем развитых стран. В статье анализируются эффективные способы повышения качества образования через внедрение передовых образовательных методов, педагогических инноваций и современных технологий. В исследовании рассматривается, как, используя практики развивающихся стран, можно улучшить образовательную систему в Узбекистане. Также в статье освещены глобальные образовательные тенденции и вопросы их адаптации к условиям нашей страны. Основная цель — модернизировать систему образования в соответствии с мировыми стандартами и разработать практические рекомендации для обеспечения молодежи качественным образованием.

Annotation: This article focuses on studying the educational systems of developed countries. It analyzes effective ways to improve the quality of education through the implementation of advanced teaching methods, pedagogical innovations, and modern technologies. The research demonstrates how Uzbekistan can enhance its educational system by utilizing practices from developed countries. Additionally, the article discusses global education trends and their adaptation to the context of our country. The main goal is to modernize the education system according to international standards and develop practical recommendations for providing high-quality education to the younger generation.

Kalit soʻzlar: Ta'lim tizimi, rivojlangan davlatlar, pedagogik innovatsiyalar, ilg'or ta'lim metodlari, texnologiyalar, ta'lim sifatini oshirish, O'zbekistonda ta'lim, global ta'lim tendensiyalari.

Ключевые слова: образовательная система, развитые страны, педагогические инновации, передовые методы обучения, технологии, повышение качества образования, образование в Узбекистане, глобальные образовательные тенденции.

Keywords: education system, developed countries, pedagogical innovations, advanced teaching methods, technologies, improving education quality, education in Uzbekistan, global education trends.

Bugungi kunda ta'lim tizimi jahon hamjamiyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun yuqori sifatli ta'lim tizimini shakllantirishga intiladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatini oshirish bevosita mamlakatning innovatsion salohiyati, iqtisodiy barqarorligi va fuqarolarining hayot sifati bilan bog'liq. Shu boisdan ham rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi o'ziga xos ilg'or tajribalar, innovatsion metodlar va samarali boshqaruv tizimlari bilan ajralib turadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi muayyan me'yorlarga asoslangan holda shakllanganini ko'rsatmoqda. Xususan, ta'limda innovatsion texnologiyalarning keng qo'llanilishi, zamonaviy pedagogik metodikalar, interfaol o'qitish yondashuvlari va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani kuzatiladi. Bunday tendensiyalar AQSh, Finlandiya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarning ta'lim tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida shakllantirish uchun turli

innovatsion yondashuvlar, ilgʻor texnologiyalar va moslashuvchan oʻquv dasturlaridan foydalanish muhimdir.

Masalan, Finlandiya taʼlim tizimi oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularning individual qobiliyatlarini hisobga olish va taʼlim jarayonini stresssiz tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. AQSh taʼlim tizimi esa STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) modeli asosida rivojlangan boʻlib, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematikaga alohida eʼtibor qaratadi. Yaponiya taʼlim tizimida esa anʼanaviy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar uygʻunligi kuzatiladi. Oʻquvchilar intizom, masʼuliyat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar asosida tarbiyalanadi. Germaniya esa oʻzining kasb-hunar taʼlimiga urgʻu beruvchi dual taʼlim modeli bilan mashhur boʻlib, ushbu yondashuv nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalar uygʻunligini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston taʼlim tizimida soʻnggi yillarda islohotlar amalga oshirilmoqda va taʼlim sifatini oshirish boʻyicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Xususan, Prezident qarorlari asosida taʼlimni modernizatsiya qilish, taʼlim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oʻqituvchilarning malakasini oshirish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish boʻyicha qator chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Ammo, mavjud muammolarni hal qilish va taʼlim sifatini yanada oshirish uchun rivojlangan davlatlarning ilgʻor tajribalaridan samarali foydalanish talab etiladi[4].

Mazkur maqolada rivojlangan mamlakatlarning taʼlim tizimi chuqur tahlil qilinadi, ularning samarali usullari oʻrganiladi va Oʻzbekiston taʼlim tizimiga joriy qilish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot doirasida xalqaro taʼlim tashkilotlari tomonidan eʼlon qilingan hisobotlar, statistik maʼlumotlar va taʼlim tizimi boʻyicha olib borilgan

ilmiy tadqiqotlar asosida xulosalar chiqariladi. Ushbu maqola natijalari esa O‘zbekiston ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimi tajribalarini o‘rganish va ularni O‘zbekiston ta’lim tizimiga qo‘llash imkoniyatlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot yondashuvi sifatida taqqoslash va tahlil qilish metodlari qo‘llanilgan bo‘lib, xalqaro ta’lim reytinglari, rasmiy statistik ma’lumotlar va ilmiy tadqiqotlar asosida xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot davomida xalqaro ta’lim tashkilotlari, jumladan, **UNESCO, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti), PISA (Xalqaro o‘quvchilarning baholash dasturi) va World Bank** tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlardan foydalanildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy maqolalar, hisobotlar va amaliy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida **Finlandiya, AQSh, Yaponiya va Germaniya** kabi mamlakatlarning ta’lim tizimi chuqur o‘rganildi. Bu mamlakatlarning tanlanishi ularning xalqaro ta’lim reytinglarida yetakchi o‘rinlarni egallashi va innovatsion ta’lim usullarini joriy etganliklari bilan bog‘liq. Har bir mamlakatning ta’lim tizimi muayyan mezonlar asosida o‘rganildi. Ushbu mezonlar quyidagilardan iborat:

1. **Ta’lim tizimining tuzilishi va darajalari** – Maktabgacha ta’limdan tortib, oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlar tahlil qilindi.
2. **O‘qitish metodikasi va yondashuvlari** – Interfaol o‘qitish usullari, mustaqil ta’lim, texnologiyalardan foydalanish darajasi va pedagogik strategiyalar o‘rganildi.

3. **O'quv dasturlarining mazmuni va moslashuvchanligi** – O'quv rejalarining dolzarbligi, fanlararo bog'liqlik va o'quv dasturlarining amaliyotga yaqinligi tahlil qilindi.
4. **Ta'limda texnologiyalardan foydalanish** – Raqamli texnologiyalar, onlayn ta'lim, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan ta'lim tizimlari qamrab olindi.
5. **O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi va malaka oshirish tizimi** – O'qituvchilar malakasi, ularning kasbiy rivojlanish imkoniyatlari va motivatsiya tizimi o'rganildi.
6. **Davlat tomonidan ta'limga ajratiladigan mablag' va moliyalashtirish tizimi** – Ta'limga ajratiladigan mablag'lar miqdori, grantlar, stipendiyalar va xususiy sektor ishtiroki tahlil qilindi.
7. **O'quvchilarning natijadorligi va baholash tizimi** – O'quvchilarning bilim darajasi, PISA kabi xalqaro test natijalari va baholashning shaffofligi tahlil qilindi.

Ushbu mezonlar asosida har bir mamlakatning ta'lim tizimi chuqur tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Keyinchalik bu ma'lumotlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq etish mumkin bo'lgan jihatlar ajratib olindi[3].

Tadqiqot davomida sifatli va miqdoriy tahlil metodlari qo'llanildi. Sifatli tahlil usuli yordamida turli mamlakatlarning ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar va o'quv dasturlarining o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Miqdoriy tahlil orqali esa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, ta'limga ajratiladigan mablag'lar va o'quvchilarning natijalari o'rganilib, ularning samaradorligi bo'yicha xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llarini aniqlash uchun

so'rovnomalar va intervyular ham o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalar mamlakatimizning turli ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, ta'lim mutaxassislari va talabalarga taqdim etildi. So'rovnomalar orqali o'qituvchilar va o'quvchilarning ta'lim sifati, o'qitish metodikasi va mavjud resurslar haqida fikrlari o'rganildi.

Shuningdek, ushbu tadqiqotda **ekspert tahlil usuli** ham qo'llanilib, ta'lim sohasi mutaxassislari tomonidan berilgan tavsiyalar va ilmiy-ijodiy yondashuvlar asosida xulosalar chiqarildi. Mutaxassislarning fikrlari va takliflari O'zbekiston ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi.

Natijada tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqildi. Shu orqali mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berildi[7].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi tajribalaridan samarali foydalanish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. O'rganilgan mamlakatlarning tajribasi asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

1. **Ta'lim tizimini moslashuvchan qilish** – Finlandiya va Yaponiya kabi davlatlar o'quv dasturlarini zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda doimiy ravishda yangilab boradi. Natijada, o'quvchilar faqat nazariy bilim emas, balki real hayotga moslashgan ko'nikmalarni ham egallaydi. O'zbekistonda esa o'quv dasturlari uzoq yillar davomida

o'zgarmasligi yoki amaliyotdan uzilib qolishi kuzatilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalarga ko'ra, o'quv dasturlarini har yili yangilab borish, amaliy fanlarga ko'proq e'tibor qaratish va zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

2. Interfaol va o'quvchiga yo'naltirilgan metodlarni qo'llash – AQSh va Germaniya ta'lim tizimlarida an'anaviy yodlash usullari o'rniga tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va muammolarni yechish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda o'quvchilar ko'proq nazariy bilimlarga urg'u berib, amaliy tajriba qilish imkoniyatidan kam foydalanadi. Shunday ekan, interfaol dars usullari, loyiha asosida ta'lim va jamoaviy ishlarni rivojlantirish lozim.

3. O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish – Finlandiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning yuqori malakasi ta'lim sifati uchun hal qiluvchi omildir. Ushbu mamlakatda o'qituvchilar faqat eng yuqori natijalarga ega talabalar orasidan tanlanadi va ularning pedagogik tayyorgarligi chuqur nazorat qilinadi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ko'plab o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlarni qo'llash borasida yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligini bildirgan. Shu sababli, o'qituvchilarning malakasini oshirish bo'yicha tizimli kurslar va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

4. Texnologiyalarni keng joriy etish – Germaniya va Yaponiya ta'lim tizimlari zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida keng qo'llashga urg'u beradi. Jumladan, sun'iy intellekt asosida baholash tizimlari, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalar amaliyotga joriy

qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish imkoniyati mavjud. Biroq, texnologik infratuzilmani rivojlantirish va o'qituvchilarni bu borada tayyorlash talab etiladi.

Masalan, Andijon shahridagi bir nechta maktablarda sinov tariqasida interfaol ta'lim metodlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan holda o'quv jarayonini tashkil qilish amaliyoti joriy etildi. Bunda **aqlli doskalar, onlayn dars materiallari va loyiha asosida o'qitish** usullari qo'llanildi. Natijada, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi, mustaqil fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlandi. Oddiy ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchilar bilan solishtirilganda, interfaol metodlar asosida o'qigan o'quvchilarning **imtihon natijalari 20-30% ga yuqori** bo'lishi aniqlandi. Bu esa rivojlangan davlatlar tajribalaridan foydalanish samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda ta'lim tizimini xalqaro tajriba asosida modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- O'quv dasturlarini zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda doimiy ravishda yangilab borish.
- O'qituvchilarni tanlash va ularning malakasini oshirish tizimini kuchaytirish.
- Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish.
- Amaliy fanlarga ko'proq e'tibor qaratish va loyiha asosida o'qitish tizimini rivojlantirish.
- Xalqaro tajribani o'rganish va muvaffaqiyatli modellarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning ilg'or ta'lim tajribalarini O'zbekistonga tatbiq qilish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularning kelajakda global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratish mumkin[5].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning ilg'or ta'lim tajribalaridan foydalanish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish imkonini beradi. Ushbu bo'limda natijalarning chuqur tahlili, ularning amaliy ahamiyati va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar muhokama qilinadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi va O'zbekiston sharoiti. Tahlil qilingan Finlandiya, Yaponiya, AQSh va Germaniya kabi mamlakatlarning ta'lim tizimlari ko'p jihatdan innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo'lsa-da, ularni to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston sharoitida qo'llash qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Masalan, Finlandiya ta'lim tizimi mustaqil ta'lim olishga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilarga yuqori darajadagi erkinlik beriladi. Ammo O'zbekistonda o'quvchilar va ota-onalar bunday tizimga hali to'liq moslashmagan. Shu sababli, ta'lim tizimidagi yangiliklarni joriy etishda milliy mentalitet va an'anaviy o'qitish usullarini hisobga olish lozim.

O'qituvchilarning roli va malakasi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sifatli ta'limni ta'minlashda o'qituvchilarning malakasi hal qiluvchi omildir. Finlandiya tajribasidan kelib chiqib, O'zbekistonda o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligini oshirish, ularni zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlar bilan tanishtirish muhimdir. Ammo bu jarayonda asosiy to'siqlardan biri – malakali pedagoglarni tayyorlash va ularga kerakli sharoit yaratish

masalasidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ko'plab maktablarda texnologik jihozlar yetarli bo'lsa-da, o'qituvchilar ularni samarali ishlatishga to'liq tayyor emas. Shu sababli, zamonaviy ta'lim usullarini o'qituvchilar orasida keng targ'ib qilish va ularga doimiy ravishda malaka oshirish imkoniyatini yaratish zarur.

Interfaol o'qitish va o'quvchilarning faolligi. Tadqiqot davomida aniqlangan muhim xulosalardan biri – rivojlangan davlatlarda o'quvchilar mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun interfaol usullardan keng foydalanilishi hisoblanadi. O'zbekistonda esa aksariyat o'quvchilar hali ham an'anaviy ta'lim usullariga o'rganib qolgan, bu esa ularning ijodiy fikrlashi va innovatsion yondashuvlarini cheklashi mumkin. Shu sababli, loyiha asosida ta'lim, muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini keng joriy etish muhimdir[4].

Texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar. Germaniya va Yaponiya kabi mamlakatlarda ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar keng joriy etilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda bu borada muayyan qiyinchiliklar mavjud. Jumladan:

- Raqamli infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi.
- Ba'zi hududlarda internet tezligi va kompyuter ta'minotining pastligi.
- O'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha bilimlarining yetarli emasligi.

Bu muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston ta'lim tizimida IT infratuzilmani yaxshilash, internet imkoniyatlarini kengaytirish va zamonaviy ta'lim platformalarini ishlab chiqish bo'yicha harakatlarni jadallashtirish lozim.

Xalqaro tajribani moslashtirishning dolzarbligi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston ta'lim tizimi uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirib joriy etish eng samarali usul hisoblanadi. Shu sababli quyidagi strategiyalar ishlab chiqilishi mumkin:

- ✓ O'qituvchilar uchun xalqaro tajribaga asoslangan trening va seminarlar tashkil qilish.
- ✓ O'quv dasturlarini muntazam ravishda zamonaviy talablarga moslashtirib borish.
- ✓ O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan interfaol dars usullarini joriy etish.
- ✓ Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Munozara natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llash katta imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, uni milliy sharoitlarga moslashtirish muhimdir. O'qituvchilarning malakasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish mumkin. Shu bilan birga, mavjud muammolarni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro ekspertlar bilan hamkorlik qilish va ta'lim tizimini doimiy takomillashtirib borish zarur.

Ushbu natijalar O'zbekistonning ta'lim tizimini global tendensiyalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimi tajribalaridan samarali foydalanish O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirishda

katta ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida o‘rganilgan Finlandiya, AQSh, Yaponiya va Germaniya kabi mamlakatlarning ilg‘or ta‘lim metodlari va tizimlari O‘zbekiston ta‘lim tizimiga joriy etilishining samarali bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida O‘zbekistonda ta‘lim tizimini takomillashtirish uchun o‘quv dasturlarining moslashuvchanligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash, interfaol o‘quv metodlarini joriy etish va o‘qituvchilarni doimiy ravishda malaka oshirish zarurligi ta‘kidlanadi. Buning natijasida, o‘quvchilarning bilim darajasi va amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi, shuningdek, ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi[1].

O‘zbekiston ta‘lim tizimi rivojlanayotgan mamlakat sifatida xalqaro tajribalardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. O‘quv dasturlarini va metodlarni yangilash, o‘qituvchilarning malakasini oshirish, o‘quvchilarga zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini o‘rgatish orqali ta‘lim sifatini oshirish mumkin. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston ta‘lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OSTANAQULOV XOJIAKBAR MANSURQUL O‘G‘LI. “Ta‘lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni”. Andijon mashinasozlik instituti-2025.
2. MADINA FAZLIDDIN QIZI ZIKIRJONOVA. “Xorij davlatlarini ta‘lim tizimi (AQSH, Yaponiya, Germaniya misolida)”. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti-2022.

3. ISLAMOV BEXRUZ AMONDJONOVICH. "Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya amaliyoti". Osiyo xalqaro universiteti-2023.

4. NOMOZOVA MUBORAK TO'LQIN QIZI. "Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji". Shahrizabz Davlat Pedagogika instituti-2023.

5. ATAJOVA SAIDAXON BORATALIYEVNA, OSTANAQULOV XOJIAKBAR MANSURQUL O'G'LI. "Axborot texnologiyalari va iqtisodiy muammolari". Andijon mashinasozlik instituti-2024.

6. XUDAYBERDIYEVA DILAFRUZ ABIDOVNA, XAMROYEV JAMSHID ABDUQODIR O'G'LI. "Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi". Toshkent Kimyo xalqaro universiteti-2023.

Foydalanilgan internet resurslar:

7. ScienceDirect.com
8. ResearchGate
9. KiberLeninka
10. Progressive Academic Publishing
11. Buxoro Davlat Universiteti

IGNABARGLI O‘SIMLIKLARNING (ARCHANING) MEVASIDAN FITONSITLARNING OLINISHI VA FITONSITLARNING AMALIY AHAMIYATI

Rahmatova Nargiza Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo) yo‘nalishi
magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Resbuplikamizda o‘sadigan Zarafshon archa tarkibidagi fitonsit xususiyatiga ega bo‘lgan efir moddalarni loybaratoriya sharoitida ajratib olingan va olingan moddalarni fizik-tadqiqot usullari orqali tarkibi tahlil qilingan. Fitonsitlarning turlari, kimyoviy tarkibi va biologik xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan hamda archa mevasining antibakterial preparatlar va ekologik toza dezinfeksiyalovchi vositalar sifatida amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari ko‘rsatilgan.

Аннотация: В лабораторных условиях выделены эфирные вещества со свойствами фитонцидов, содержащиеся в можжевельнике Зерафшонском, произрастающем в Ресбупликамисе, и проанализирован состав полученных веществ физическими методами исследования. Представлены сведения о видах, химическом составе и биологических свойствах фитонцидов, а также о практическом использовании плодов можжевельника в качестве антибактериальных препаратов и экологически чистых дезинфицирующих средств показаны варианты.

Annotation: Essential substances with the properties of phytoncides contained in the Zarafshon juniper growing in our Republic were isolated in laboratory conditions and the composition of the obtained substances was analyzed by physical research methods.

Information on the types, chemical composition and biological properties of phytoncides is presented, as well as the practical use of juniper fruit as antibacterial drugs and environmentally friendly disinfectants.

Ключевые слова: можжевельник, фитонциды, антибактериальные свойства, экстракция, естественная биологическая активность

Kalit soʻzlar: Archa, fitonsitlar, antibakterial xususiyatlar, ekstraksiya, tabiiy biologik faollik.

Key words: Juniper, phytoncides, antibacterial properties, extraction, natural biological activity

Oʻzbekiston va Oʻrta Osiyo togʻli hududlarida archaning Sovur, Oʻrik, Qora, Zarafshon kabi turlari oʻsadi. Va ular asosan toʻgʻli hududlarda oʻssada, turli muxitga moslashuvchan va yashovchan boʻladi. Hususan, oʻzimizning Namangan hududida archaning aynan Zarafshon archa turi koʻp uchraydi. Ekologik toza hududlardan tajribalar oʻtkazish uchun yetarlicha namunalar topa olamiz.

Ignabargli oʻsimliklar, xususan Archa tabiatda fitonsitlarning manbai boʻlib, ular bakteriyalar, zamburugʻlar va viruslarga qarshi tabiiy biologik faol moddalardir [1]. Archa mevalari koʻplab xalq tabobatida va ilmiy tadqiqotlarda oʻrganilgan boʻlib, ulardan olingan fitonsitlar farmasevtika, oziq-ovqat sanoati va ekologik muhitni yaxshilashda keng qoʻllaniladi.

Fitontsidlar - baʼzi oʻsimliklar tomonidan chiqariladigan, patogen bakteriyalarning oʻsishi va rivojlanishini bostiradigan uchuvchan biologik faol moddalar xisoblanadi [2].

Fitontsidlarning kimyoviy tarkibi har xil boʻlib, bu birikmalarning majmuasi sifatida - glikozidlar, terpenoidlar, taninlar xisoblanadi. Shu bilan bir qatorda oqsillar, uglevodlar, murakkab efirlar va yogʻlar ham


mavjud. Piyoz, yalpiz, archa, aloe, limon va boshqa o'simliklar tarkibida ko'p miqdorda fitonsitlar mavjud.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra fitonsidlarning tarkibi 2 turga bo'linadi [3].

1. Tashqi muhitga ajralib chiqmaydigan fitonsidlar, bu hujayralar protoplazmasida uchraydi.

2. Fitonsidlarning uchuvchi fraktsiyalari - atmosferaga, tuproqqa, suvga (suv o'simliklarida) chiqariladi.

Fitonsidlarning kimyoviy tarkibi turli tumandir. Jumladan, allitsin sarimsoq piyoz tarkibidan ajratib olinadigan moysimon suyuqlik bo'lib quyidagi kimyoviy tarkibga ega.



Tatqiqot uchun aynan archa daraxti mevalari tanlab olindi, namuna sifatida ekologik toza Namangan hududlaridan yig'ilgan yangi mevalar ishlatiladi.


Dastlab, mevalarni suv bilan yuvib, qurutiladi va 2-3 mm gacha maydalanadi va 1:10 nisbatda o'simlik mevasi va 70% etanol aralashmasi ishlatiladi. Aralashma 24 soat davomida qop-qorong'i muxitda 25 C saqlanadi. Shundan so'ng, olingan ekstraktdan vakuum bug'latkichda etanolning asosiy qismi chiqarib tashlanadi. Qolgan qismi suvli ekstrakt sifatida ishlatiladi

Olingan natijalar: Olib borilgan tajriba ishlari davomida tabiiy fitonsidlar ajratib olinadi va ularning kimyoviy takibi o'rganiladi.

Buning uchun gaz-suyuqlik xromatagrafiyasi yordamida ekstraksiyaning asosiy komponentlari aniqlanadi, unga ko'ra fitonsit tarkibi:

Terpenlar va terpenoidlar: Monoterpenlar (masalan, limonen, pinen) va seskiterpenlar.

2. Fenolik birikmalar: Eugenol, timol, katekollar.
3. Organik kislotalar: Benzoat kislota, sinnam kislota.
4. Aldegidlar va ketonlar: Formaldegid, asetaldegid.
5. O'simlik efir moylari: Kamfora, mentol.



1-rasm Archa o'simligining tarkibi GSX

Tatqiqot natijasidan shuni ko'rish mumkinki, fitonsitlarni ekstraksiya usuli bilan olish samarali ammo qimmat usuldir, buning natijasida fitonsitlardan hosil bo'lgan mahsulot tan narxi keskin ortib ketadi, buning uchun maqbul yechim sifatida archa mevalarini piroliz qilish natijasida ham, fitonsitlarni moy sifatida ajratib olishimiz mumkin. Va bu ancha salmoqli va arzon usuldir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunga kelib inson salomatligida keskin buzulishlar kuzatilmoqda va tabiatda viruslarning turlari ko'paymoqda, yashovchanligi ortmoqda. Natijada inson uchun viruslar bilan kurashuvchi tabiiy antibiotikka ehtiyoj hosil bo'lmoqda. Tatqiqodimiz natijasida archa mevalaridan olingan fitonsitlar yuqori antibakterial faollikka ega bo'lib, kelajakda ulardan ekologik toza va samarali preparatlarni ishlab chiqarishda foydalanish mumkin. Yana archa mevalaridan farmasevtika va oziq-ovqat sanoatida keng foydalansa bo'ladi. Kelgusida fitonsitlarning tibbiy qo'llanishini

kengaytirish uchun ularning toksikologik va farmakologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goncharov, V.G. "Fitonsitlarning biologik faolligi". Moskva, 2021.
2. Johnson, M. et al. "Essential Oils and Antimicrobial Properties of Juniperus". Journal of Plant Science, 2020.
3. Ahmed, A. "Juniper Extracts in Traditional Medicine". Asian Pharmaceutical Review, 2019.

SOTSIOLINGVISTIKANING UMUMIY MASALALARI

Yusufjonova Xonzodabegim Davlatbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: xonzodabegimyusufjonova8@gmail.com

Tel: +998993218011

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi yurtimizdagi sotsiolingvistika sohasiga doir olib borilayotgan turli xil amaliyotlar va ushbu sohaning barcha masalalari to'g'risida so'z boradi. Shuningdek, tarmoqning sohalari va kelib chiqishi haqida keng mulohazalar misollar bilan birga keltiriladi.

Аннотация: В данной диссертации рассказывается о различных практиках, проводимых в нашей социолингвистике, и обо всех вопросах этой области. Кроме того, обширные размышления о областях и происхождении сети сопровождаются примерами.

Abstract: This thesis discusses various practices of sociolinguistics in the country and all problems relate to this field. Extensive reflections on the network's industries and origin are also provided, accompanied by examples.

Kalit soʻzlar: Tilshunoslik, maqola, dissertatsiya, sotsiologiya, dialektologiya, sotsiolingvistika, til jamoasi.

Ключевые слова: Лингвистика, диссертация, Социология, диалектология, социолингвистика, лингвистическая команда.

Keywords: Linguistics, article, dissertation, sociology, dialectology, sociolinguistics, language team.

Sotsiolingvistika - til ilmining makrolingvistika, sodda qilib aytganda, tashqi tilshunoslik deb ataluvchi keng tarmoqli sohalari tarkibiga kiruvchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sotsiolingvistika – tilning ichki qurilishini o'rganuvchi lingvistika va jamiyatshunoslik fanlari orasida paydo bo'lgan yangi fanlardan biridir. Shuning uchun ham ushbu fan til qurilishining ijtimoiy tomonini o'rganadigan fan sifatida qaraladi.

Bugungi kunga qadar, o'zbek tilshunosligida sotsiologiya sohaga katta e'tibor qaratilmagan bo'lsa-da, ushbu sohaga doir maqola, tezis, qo'llanmalar va broshyura kabi ishlar yo'q emas. Masalan, G'.Abdurahmonov va F.Abdullayev kabi professorlarning sotsiolingvistika masalalariga oid yozilgan maqolalari mavjud. Nazarimda, yangi kirib kelagan va hali ko'p insonlarning e'tiborini jalb qilib olmagan mavzularni ko'rib chiqib u haqida yangi ma'lumotlar topish foydadan xoli emas. Chunki biz e'tiborga olmagan har bor sohaning zamirida katta bir manfaatli axborot yotgan bo'lishi mumkin. Masalan, ushbu soha so'zlarning tuzilishini o'rgatsa, aynan biz bilmagan boshqa soha qandaydir bir yangi metod ya'ni bilim olishni va eslab qolishni o'rgatishi mumkin. Shuning uchun har doim yangilik sari harakat qilishimiz darkor.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, sotsiolingvistika – tilshunoslikning kam o'rganilgan alohida tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq fanda hozircha

o'z mustaqil o'rniga ega bo'lmagan boshqa bir qator yo'nalishlar bilan bog'lanadi. Shulardan biri sinergetika va uning tilshunoslikka aloqador lingvosinergetika yo'nalishidir.

Sotsiolingvistikaning lingvistik tarmoq sifatida shakllanishiga keladigan bo'lsak, ushbu sohaga yondashuv 1970-yillardan boshlandi. Ammo ushbu davrlarda dunyoning ko'plab davlatlarida sotsiolingvistika masalalariga doir ilmiy- amaliy anjumanlar o'tkazilayotgan edi. Yuqorida ta'kidlanganidek sotsiolingvistika tilshunoslikning eng yosh tarmog'i. Ushbu tarmoqni nomlovchi atama o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi. Kayfiyotchisi esa amerikalik X.Karri edi.

O.S.Axmanovanning "Lingvistik atamalar lug'ati"da ("Slovar lingvisticheskix terminov". – M., 1969) tilshunoslikdagi bu yosh tarmoq **"Sotsiologik lingvistika"** va **"Sotsiolingvistika"** atamalari bilan nomlanib, ikki xil talqin etilgan, chunonchi:

- 1) tilshunoslikning til bilan jamiyat va uning hayotida sodir bo'luvchi qonuniy o'zgarishlar aloqasini o'rganuvchi tarmog'i;
- 2) tilshunoslikning tilning hududiy shakllarini, ya'ni tillarning ijtimoiy farqlanishini o'rganuvchi tarmog'i [1, 17].

Ushbu ma'lumotga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning notog'riekanligini anglashimiz qiyin emas. Chunki tilning hududiy va shevalardagi shakllari tilshunoslikning dialektologiyaga bo'limiga qarashli. To'g'ri biz aytishimiz mumkin har bir tilshunoslik sohasi bir bir-biriga uzviy bog'liq, ammo to'la-to'kis lahja va shevalarni o'rganadigan fan sotsiologiya emas balki dialektologiya. Bundan ko'rinib turibdi-ki, ushbu sohada o'rganadigan yangiliklarimiz talaygina. Shu tufayli, nazdimda, sotsiologiya fanini chaqaloq fan desak ham bo'laveradi.

Asosiy masala va tushunchalarga keladigan bo'lsak, sotsiolingvistika sohasiga dahldor tushunchalardan biri bu til jamoasi hisoblanadi. Til jamoasi - ma'lum bir tilda so'zlashuvchi, unga egalik qiluvchi omma hisoblanadi.

Har narsaning ikki tarafi bor bo'lganidek, ushbu atamaning ham keng va tor doiralari mavjud. Keng doirasi bu turli xil hududiy guruhlarni, aniqroq qilib aytganda, bir xil sheva va lahjalarlarda gaplashuvchilar, kasb egalari va ilm sohasi sohiblari tushuniladi. Tor doirada esa ma'lim bir davlatni qamrab oladi.

Sotsiolingvistikaning asosiy tarmoqlari haqida gap ketganda birinchi bo'lib umumiy va xususiy sotsiolingvistika ongimizga keladi.

Umumiy sotsiolingvistika – o'zining nomidan ham ma'lumki, ushbu fanning umumiy masalalarini tahlil qiladi va o'rganadi.

Xususiy sotsiolingvistika esa ko'p millatli mamlakatlarda amal qiluvchi tillarga aytiladi. Misol uchun, sobiq Sho'rolar davlati.

Demak, xususiy Sotsiolingvistika ham sertarmoq bo'lib, uning har bir tarmog'i alohida-alohida o'rganilishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berdaliyev A., Turdibekov M. Sotsiologiya. “Nodirabegim” nashriyoti, 2022.

2. <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/10/15/NamDU-ARM-13442-Sotsiolingvistika.pdf>

“DUAL TA’LIM BARQARORLIK VA KELAJAKKA ISHONCH IMKONIYATIDIR”

Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

70110201- Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

E-mail: sevaratursunbayeva2003@gmail.com

Tel: +99891-765-26-05

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta’lim tizimi va uni talabalarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mahoratni ham oshirish imkoniyati, ushbu yondashuv ta’limning barqarorligini ta’minlashi, talabalar o’z bilim va ko’nikmalarini ish joyida qo’llash orqali tezroq moslashish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo’lishi hamda, dual ta’lim tizimi orqali talabalar zamonaviy kasblarni egallab, ularni amaliyotda qo’llash orqali ish bilan ta’minlanishlari va professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonishlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье анализируется система дуального образования и ее способность давать студентам практические навыки в дополнение к теоретическим знаниям, устойчивость данного подхода в образовании, способность студентов адаптироваться и развиваться быстрее, применяя свои знания и навыки на рабочем месте, а также способность студентов приобретать современные профессии и применять их на практике с помощью системы дуального образования для трудоустройства и достижения успехов в профессиональной деятельности.

Abstract: This article analyzes the dual education system and its ability to provide students with practical skills in addition to theoretical knowledge, the stability of this approach in education, the ability of

students to adapt and develop more quickly by applying their knowledge and skills in the workplace, and the ability of students to acquire modern professions and apply them in practice through the dual education system to gain employment and achieve success in their professional activities.

Kalit soʻzlar: dual taʼlim, nazariya, amaliyot, bilim, kasbiy faoliyat, taʼlim tashkiloti, pedagog

Ключевые слова: дуальное образование, теория, практика, знания, профессиональная деятельность, образовательная организация, преподаватель

Key words: dual education, theory, practice, knowledge, professional activity, educational organization, teacher

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida oʻrta boʻgʻin kadrlarining oʻrni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat koʻrsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga boʻlgan ehtiyoj juda yuqori koʻrsatkichlarni tashkil etadi.

Anʼanaviy taʼlim shaklida oʻquvchi talaba oliy yoki professional taʼlim muassasasida nazariy bilimlarni koʻproq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda oʻtaydi.

Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning taʼlim tizimi oʻrganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda oʻqish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual taʼlim shakli Oʻzbekiston taʼlim tizimiga kiritildi. Dual taʼlim – oʻquvchi talabaga taʼlimni oʻz yoʻnalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta oʻringa ega.

Qolaversa, mazkur ta'lim tizimi talabalarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy mahoratni ham oshirish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv ta'limning barqarorligini ta'minlaydi, chunki talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini ish joyida qo'llash orqali tezroq moslashish va rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kelajakka ishonch esa shundan iboratki, dual ta'lim tizimi orqali talabalar zamonaviy kasblarni egallab, ularni amaliyotda qo'llash orqali ish bilan ta'minlanishlari va professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonishlari mumkin. Bu tizim ta'lim va ish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi va kelajakda talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.



Germaniyada so'nggi yillarda umumiy kasbiy ta'lim (PTO) kontsepsiyasi xalqaro miqyosda tus oldi, chunki xorijdagi nemis kompaniyalari mahalliy mehnat bozorlarida ham sanoat, xizmat ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Ba'zi kompaniyalar o'rta darajadagi ishchilarni tayyorlash bo'yicha o'rnatilgan tizim mavjud bo'lmagan mamlakatlarda ishlashdan bosh tortadilar (Evropa malakaviy doirasining (EQF) 4 va 5 darajalari). [1]

Mamlakatda iqtisodiy tizimni rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etishda dual ta'lim kata rol o'ynaydi.

Mazkur ta'lim tizimining afzalliklari :

- **Mahalliy hokimyat organlari uchun:** aholini bandlikka ko'maklashish orqali mintaqa iqtisodiyotini muhtakamlaydi va ijtimoiy integratsiya hamda muvozanatli mehnat bozorlarini ta'minlaydi.
- **Kasb hunar maktablari uchun:** tegishli va yangilangan o'quv dasturlarini taqdim etuvchi tarmoqlar bilan muhtakam aloqalardan foyda olish.
- **Kompaniyalar uchun:** ish beruvchilat o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda malakali ishchilarni tayyorlaydilar, yollash xarajatlarini kamaytiradi va mehnat unumdorligini oshiradi.
- **Jamiyat uchun:** tizim iqtisodiy o'sishga yoram beradi va umrbod ta'lim va kasbiy yuksalish uchun yo'llarni yaratadi.



Ta'lim sohasini rivojlantirishda eng avvalo boshlang'ich bo'g'in ya'ni maktabgacha ta'lim sohasiga ahamiyat berish kelajak avlodning sifatli va samarali ta'lim olishi uchun maqsadga muvofiq sanaladi.

Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishda eng avvalo pedagog kadrlar malakasini oshirish, ta'lim jarayoniga oid yangi pedaogik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish pedagoglarning asosiy vazifadir.

O'zbekiston Respublikasida dual ta'limni joriy etilishi barcha sohalarda jumaldan: maktabgacha ta'lim sohasida ham malakali kadrlarni tayyorlashda va ushbu sohani rivojlantirishga kata turtki bo'ldi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sohasida malakali kadrlar tayyorlash dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Bu sohada malakali va tajribali mutaxassislarning yetishmasligi yosh avlodning rivojlanishiga, ularning bilim va ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Maktabgacha ta'lim bolalarning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, shuning uchun bu sohada yuqori malakali o'qituvchilar va tarbiyachilarni tayyorlash juda zarur.

Maktabgacha ta'lim sohasida ishlash uchun pedagogdan maxsus bilim va ko'nikmalar talab qilinadi. Biroq, ko'p hollarda bu sohaga e'tibor yetarlicha qaratilmaydi, natijada malakali mutaxassislar yetishmaydi.

Malakali kadrlar yetishmasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning dastlabki ta'limi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi, shuning uchun bu bosqichda yuqori malakali o'qituvchilar muhimdir.

Maktabgacha ta'lim bolalarning kelajakdagi hayotiga asos soladi. Shu sababli, bu sohada malakali kadrlar tayyorlash nafaqat ta'lim tizimi, balki butun jamiyat uchun muhimdir. Bolalarning erta yoshda o'z potentsialini topishi va rivojlantirishi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, yuqoridagi muammolardan kelib chiqqan holatda quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq sanaladi: maktabgacha ta'lim sohasida dual ta'limni rivojlantirish va xorijiy tajribalarga tayangan holatda o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlarni vaqtini mazmunli o‘tkazish, o‘z kasbini mutaxasisi bo‘lishi, ta’lim tashkilotida ham nazariy ham amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi eng asosiysi oylik maosh bilan ta’minlanishi, kasbiy layoqatga ega bo‘lishida dual ta’limning o‘rni beqiyos hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ta’lim Fan va Innovatsiyalar Vazirligi “O‘zbekistonda dual ta’lim” Toshkent 2025
2. Deutsche Gesellschaft fur Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH “O‘zbekistonKasb-hunarga ta’lim tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlash” loyihasi GIZ proje Office Toshkent 2025

Internet manbaalari:

1. <https://nspi.uz/dual-talim-barkarorlik-va-kelajakka-ishonch-imkoniyatdir/>
2. <https://www.giz.de/en/worldwide/364.html>

CHEKISH EPIDEMIYASINING YOSH AVLODGA TA’SIRI HAMDA UNGA QARSHI KURASH CHORALARI

Nodira Rustamjonova

Namangan davlat pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Tel: +998 50 704 50 62

E-mail: rustamjonovanodira05@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada chekishning inson hayotidagi salbiy oqibatlari, chekish natijasida nafas olish yo‘llari, og‘iz bo‘shlig‘i,

nerv, qon tomirlar sistemasi va boshqa organlarning nafaol holatga o'tishi kabi jarayonlar aks etgan.

Аннотация: В данной статье отражены негативные последствия курения для жизни человека, процессы, вызванные курением, такие как дыхательные пути, ротовая полость, нервная, сосудистая системы и другие органы, переходящие в неактивное состояние.

Annotation: this article reflects the negative consequences of smoking in a person's life, processes such as the transition of the respiratory tract, oral cavity, nerve, vascular system and other organs to an inactive state as a result of smoking.

Kalit so'zlar: nikotin, lizotsim, milk yallig'lanishi, xavfli o'simtalar, etiologik xavf, DNK, o'pka saratoni,

Ключевые слова: никотин, лизоцим, воспаление десен, злокачественные опухоли, этиологический риск, ДНК, рак легких,

Keywords: nicotine, lysozyme, milk inflammation, malignant tumors, etiological risk, DNA, lung cancer,

Tamaki mahsulotlari, jumladan, sigaretning inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi nomaqbul vosita ekani barchamizga ma'lum. Chekish insonning o'zi va atrofdagilari sog'lig'iga qanday zarar yetkazishini yana bir bor eslatib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi.

Chekish, yonayotgan o'simlik materialining bug'larini nafas olish va chiqarish harakati. Turli xil o'simlik materiallari chekiladi, shu jumladan marixuana va gashish, lekin bu harakat ko'pincha tamaki, sigaret yoki trubada chekilgan tamaki bilan bog'liq. Tamaki tarkibida nikotin, o'ziga qaram bo'lgan alkaloid mavjud bo'lib, u ham rag'batlantiruvchi, ham tinchlantiruvchi psixoaktiv ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Amerikalik hindular tomonidan uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan

tamaki chekish Evropaga Xristofor Kolumb va boshqa tadqiqotchilar tomonidan kiritilgan. Chekish tez orada boshqa hududlarga tarqaldi va bugungi kunda unga qarshi tibbiy, ijtimoiy va diniy dalillarga qaramay butun dunyoda keng qo'llanilmoqda. Tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu oddiy haqiqat hayot yo'llarimizda qayta-qayta takrorlanishiga qaramasdan, afsuski, hozirgi kunda butun dunyoda tamaki iste'mol qiluvchilar soni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, voyaga yetmagan yoshlar va xotin-qizlar orasida bu illatning keng tarqalayotgani ayanchlidir.

Tish rangining o'zgarishi

Chekish jarayonida tamaki tutuni, og'iz bo'shlig'idagi haroratni ko'taradi, bu esa tish emalida mayda yoriqlar paydo bo'lishi va ularning asta-sekin yemirilishiga olib keladi. Tutun tarkibidagi qatron va qattiq zarralar tish sirtida cho'kib qoladi, buning natijasida tishlarda o'ziga xos sariq yoki jigarrang karashlar paydo bo'ladi. Chekish tajribasi qanchalik uzoq bo'lsa, emalning to'q rangini ketkazish shunchalik qiyin bo'ladi. Stomatologlarning ta'kidlashicha, bunday holatlarda hatto professional tozalash muolajasi ham yordam bermaydi.

Og'izdan noxush hid kelishi

Bu- chekuvchining yana bir doimiy yo'ldoshi. Issiq sigareta tutuni shilliq pardalarni quritib yuboradi va so'lakning tabiiy ajralish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, so'lakda saqlanadigan antibakterial modda – lizotsim ishlab chiqarilish jarayoni ham buziladi. Lizotsim bo'lmasa, noxush hid keltirib chiqaradigan kasallik qo'zg'atuvchi zararli bakteriyalar rivojlanishi uchun qulay muhit paydo bo'ladi. Bundan tashqari, sigaret tutunining hidi juda o'tkir va uzoq turuvchi bo'lib, u nafaqat lab va og'iz bo'shlig'iga, balki soch hamda qo'l terisiga ham bir zumda singib ketadi.

Milklarning yalligʻlanishi

Chekish gingivit, parodontit va boshqa turdagi milk kasalliklarini keltirib chiqaradi. Tutun tarkibidagi zararli moddalar taʼsirida milk toʻqimalari ancha zaif va shikastlanuvchan boʻlib qoladi. Natijada, tishlarning toʻkilish xavfi sezilarli darajada oshadi.

Xavfli oʻsimtalar maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki: ogʻiz boʻshligʻi saratoni bilan kasallanganlarning 90 foizi – chekuvchilardir. Xavfning asosiy omili – sigareta tutuni tarkibidagi kanserogen qatronlar sanaladi. Ilgari odamlar chekishning asosiy zarari — nikotin, deya hisoblashgan, ammo zamonaviy tadqiqotlar butkul boshqa natijani koʻrsatmoqda. Chekuvchilar uchun tamaki tutuni va yonuvchan mahsulotlar eng katta xavf omili sanaladi. Inson sigaret chekayotganida uning organizmiga tutun bilan birgalikda tamaki va qogʻozning yonishi natijasida hosil boʻladigan 6000 ga yaqin turli kimyoviy birikmalar (jumladan, is gazi va kanserogen qatronlar) kiradi. Chekuvchilarda implantlarning bitib ketmaslik xavfi chekmaydiganlarga qaraganda 2 baravar yuqori. Bu bir necha sabablarga koʻra sodir boʻladi: issiq tutun ogʻiz boʻshligʻining kuyishiga olib kelishi mumkin; nikotin tomirlarni toraytiradi va qon oqimini sekinlashtiradi, bu esa implant bitib ketishi jarayonining buzilishiga olib kelishi mumkin; chekish soʻlakning himoya funksiyasini izdan chiqaradi, shu sababli milklar uzoqroq bitadi. Ideal holatda, protezlashdan soʻng sigaret va tarkibida nikotin saqlovchi har qanday muqobil vositalardan butunlay voz kechish lozim. Ammo agar siz zararli odatingizdan hech boʻlmaganda, maʼlum bir muddatga voz kecha olmasangiz, reabilitatsiya davriga taʼsir qilmaydigan va sogʻayishingizga halaqit bermaydigan zarari kamroq muqobillarga oʻtishingiz mumkin.

Chekish bilan bogʻliq oʻpka kasalliklari turli xil oʻpka kasalliklari va shikastlanishlari boʻlib, etiologik xavf omili tamaki chekishdir.

Tamaki tutuni 7000 dan ortiq turli xil kimyoviy moddalarni o'z ichiga oladi, ular to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita toksik ta'sirga ega bo'lishi mumkin, bu immunitet reaksiyasini keltirib chiqaradi, ular birgalikda havo yo'llari va o'pka parenximasining qaytarilmas shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu moddalarning kamida 250 tasi zaharli yoki kanserogen ekanligi ma'lum [2]. Chekish o'pka saratoni va surunkali obstruktiv o'pka kasalligiga olib kelishi mumkin, shuningdek, o'pkaning bir qator interstitsial kasalliklari, o'tkir eozinofil pnevmoniya, deskuamativ interstitsial pnevmoniya, interstitsial o'pka kasalligi bilan bog'liq bo'lgan respirator bronxiolit va uning pulmoner hujayralaridan kelib chiqqan pulmoner hujayralar rivojlanishining etiologik omilidir. Chekishdan o'limning eng keng tarqalgan sabablari o'pka saratoni va surunkali obstruktiv o'pka kasalligidir [1]. Barcha chekuvchilar nafas yo'llarida yallig'lanish o'zgarishlarini boshdan kechiradilar xususan, chekuvchilar doimo respirator bronxiolitning gistologik shaklini ko'rsatadi [3], lekin ba'zi chekuvchilarda o'pkada o'zgarishlar kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi [1]. Kasalliklarning rivojlanishiga genetik va ekzogen omillar, shuningdek, allergiya va infektsiyalar ta'sir qiladi. Chekish bilan bog'liq ko'plab o'pka kasalliklari odatda o'xshash patologik jarayonlarga ega va patologlar ko'pincha yallig'lanishning turli gistologik shakllarining kombinatsiyasini topadilar, bu esa har qanday aniq tashxis qo'yishni qiyinlashtiradi. Chekish nafas yo'llari, alveolyar havo qoplari va nafas yo'llarining shilliq qavatiga zarar etkazadi, bu esa oxir-oqibat o'pkaga etarlicha havo o'tkazishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Chekish chekmaydiganlarga nisbatan o'pka saratoni rivojlanish ehtimolini taxminan 22 baravar oshiradi [2] va chekuvchilar orasida surunkali

obstruktiv o'pka kasalligi chekmaydiganlarga qaraganda 3-4 marta tez-tez uchraydi.

O'pka saratoni Saraton-bu nafas yo'llarining istalgan joyidan boshlanishi mumkin bo'lgan hujayralarning nazoratsiz o'sishi. O'pka saratonining asosiy sababi chekish, shu jumladan passiv chekishdir. O'pka saratoni belgilari orasida yo'tal, ko'krak qafasidagi og'riq, nafas qisilishi, xirillash, takroriy o'pka infeksiyalari, qonli yoki zang rangli balg'am, ovozning xirillashi, bo'yin yoki yuzning shishishi,



yelkada, qo'llarda yoki qo'llarda og'riq va zaiflik, isitma (haroratning oshishi). Sigaret tutunida saratonga olib keladigan ko'plab kanserogenlar mavjud. Tarkibi va potentsial kanserogenligi jihatidan ular orasida eng muhimlari polisiklik aromatik uglevodorodlar, N-nitrozoaminlar, butadien-1,3, benzol, aldegidlar va etilen oksidi. Kanserogenlar ta'sirida DNK qo'shimchalarining shakllanishi yaxshi o'rganilgan hodisadir. Chekuvchilarning ko'p to'qimalarida DNK qo'shimchalari darajasi chekmaydiganlarga qaraganda yuqori va ularning mavjudligini ma'lum biomarkerlar yordamida aniqlash mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'pka to'qimalarida DNK qo'shimchalarining doimiy mavjudligi hujayralarning genetik shikastlanishiga olib kelishi mumkin va bu zararlar hujayraning keyingi bo'linishi natijasida tarqaladi, bu saraton rivojlanishi paytida kuzatilgan

ko'plab genetik o'zgarishlarni aniqlash bilan yaxshi mos keladi. Shuningdek, tamaki mahsulotlari va tamaki tutunining ko'plab tarkibiy qismlari DNKga zarar etkazishi mumkin. Zararni tuzatishning bir nechta mexanizmlari mavjud, ammo zararni to'liq bartaraf etmaslik mutatsiyalarga olib kelishi va natijada saraton xavfini oshirishi mumkin. Chekish xromosomalarga zarar etkazishi mumkin, bunda DNK zanjirining bir qismi o'chiriladi, o'simtani bostiruvchi genlar o'chirilishi mumkin yoki hujayra bo'linish sikliga ta'sir qiluvchi onkogenlar faollashishi mumkin.

O'tkir eozinofil pnevmoniya ham kam uchraydi va ko'pincha 20-40 yoshdagi erkaklarda uchraydi, bemorlarning uchdan ikki qismi chekuvchilardir. Kasallikning klinik ko'rinishi odatda o'ziga xos emas, shuning uchun ko'pincha, masalan, jamiyat tomonidan sotib olingan pnevmoniya deb noto'g'ri tashxis qo'yiladi. Kasallik o'tkir bo'lib, odatdagi o'tkir respirator kasallik kabi davom etadi (bir oydan kam) va boshlanishi uchun zaruriy shartlar chekish odatlarining o'zgarishi, masalan, chekishni boshlash, tanaffusdan keyin davom etish yoki chekish chastotasini oshirishdir. Bu isitma, yo'tal, nafas qisilishi, plevrit og'rig'i, bezovtalik, mushak og'rig'i va tungi terlashning o'rtacha darajasi bilan tavsiflanadi. Kasallik og'ir, tez-tez o'tkir nafas etishmovchiligi va mexanik ventilyatsiya zarurati bilan kechadi. Bemorlarning ko'pchiligi o'tkir o'pka shikastlanishi va o'tkir respirator distress sindromi uchun diagnostik mezonlarga javob beradi. Differentsial diagnostika bronxoalveolyar yuvish yordamida olingan substratda eozinofiliyani aniqlashni o'z ichiga oladi, eozinofillar soni 25% dan ortiq, substratning o'zi esa kasallik, infektsiya, gipervolemiya, dorilarga yuqori sezuvchanlik va o'pka qon ketishi davrida steril bo'lishi kerak. ham chiqarib tashlash kerak. Kasallik steroidlar

(glyukokortikoidlar) bilan davolashga yaxshi javob beradi va immunologik jarayonlar bir necha kun ichida normal holatga qaytadi.

Yakuniy qism Har yili 31 may – Butunjahon tamakisiz kuni jahon miqyosida nishonlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) 1987 yilda ta’sis etgan ushbu xalqaro sana chekishni tashlash bo‘yicha global hamkorlikning eng muhim voqeasidir. Butunjahon tamakisiz kunini o‘tkazishdan bir qancha maqsadlar ko‘zlangan. Xususan, tamaki xavfi haqida butun dunyo bo‘ylab xabardorlikni oshirish, chekishni tashlashning afzalliklarini targ‘ib qilish, chekishni tashlashda amaliy yordam taklif etish, chekish bilan kurashadigan sog‘liqni saqlash uyushmalari va shifoxona xizmatlarini rag‘batlantirish, yoshlarni tamaki mahsulotlaridan, ayniqsa, elektron sigareta kabi yangi mahsulotlardan himoya qilish shular jumlasiga kiradi. Bu yil Butunjahon tamakisiz kuni “Tamaki emas, oziq-ovqat yetishtirish” mavzusi doirasida nishonlanmoqda. Binobarin, tamaki sanoatining atrof-muhitga zararli ta’siri juda katta bo‘lib, uning salbiy oqibatlari muttasil ortib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, sayyoramizning shusiz ham cheklangan resurslari va kuchsizlangan ekotizimlariga ortiqcha yuk bo‘lmoqda. Raqamlarga murojaat qilamiz: sigaret ishlab chiqarish uchun bir yilda 600 millionta daraxt kesiladi, 22 milliard litr suv ishlatiladi, 84 million tonna karbonat angidrid (SO_2) gazi atmosferaga chiqadi. Bularning barchasi butun yer yuzida havo haroratining yanada ko‘tarilishiga sabab bo‘lmoqda. Tamaki yetishtirish nafaqat qishloq xo‘jaligi ishchilari, balki barchamizning sog‘lig‘imizga putur yetkazmoqda, boz ustiga ushbu illatdan sayyoramiz beqiyos zarar ko‘rmoqda. Tamaki sanoati esa tamakini boshqa ekinlar bilan almashtirishga yo‘l qo‘ymay, oqibatda global oziq-ovqat inqirozi kuchayishiga hissa qo‘shmoqda. Bu yilgi tamakiga qarshi kampaniya, bir

tomondan, hukumatlarni tamaki ishlab chiqarishni subsidiyalashdan voz kechishga hamda tejalgan mablagʻlarni qishloq xoʻjaligi korxonalariga oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun yoʻnaltirishga, ikkinchi tomondan, odamlarning ovqatlanishini yaxshilash uchun yanada barqaror ekinlarga oʻtish uchun yordam berishga qaratilgan. Tamaki isteʼmol qilishning zararli oqibatlarini u tufayli yuzaga keladigan kasalliklardan ham bilish mumkin. Jumladan, tamaki isteʼmol qilish yurak-qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, asab, jinsiy bezlar kabi insonning muhim ichki aʼzolariga zaharli taʼsir qiladi. Oqibatda miokard infarkti, xafaqon kasalligi, bronxlarning surunkali yalligʻlanishi, yara va saraton singari koʻpgina xavfli kasalliklarga olib keladi. Kashandalik 17 xildagi saraton kasalligiga sababchidir. Jumladan, 98 foiz — qiziloʻngach yoki tomoq saratoni; 96 foiz — oʻpka saratoni; 30 foiz — boshqa turdagi saraton kasalliklari; 75 foiz — surunkali bronxit va oʻpka emfizemasi; 25 foiz — yurak-ishemik kasalliklari; yurak kasalligi bilan bogʻliq barcha oʻlimlarning 20 foizi aynan tamaki isteʼmol qilish natijasida kelib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. [yuz.uz/uz/news/jsst-chekish-taʼsirida—25-dan-ortiq-kasallik-kuchayadi](http://yuz.uz/uz/news/jsst-chekish-ta'sirida-25-dan-ortiq-kasallik-kuchayadi)
2. insonhuquqlari.uz/oz/news/m10771
3. Centers for disease and prevention (US), National Center for chronic Disease Prevention and Health Promotion (US),
4. Office on smoking and Health (US). Cancer// How Tobacco smoke CausesDisease
5. Atlanta: U. S. Centers for Disease control and Prevention, 2010

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARI TASVIRIY FAOLIYATI VA TASVIRIY VOSITALARINING XUSUSIYATLARI

Abdusattorova Durdona Abdullojon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-7 yosh bolaning tasviriyl faoliyati va tayyorlov guruh bolalari uchun tavsiya etilgan tasviriyl vositalarning xususiyatlari ochib berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности изобразительной деятельности детей 6-7 лет и рекомендуемые изобразительные средства для подготовительных групп.

Annotation: This article discusses the features of the artistic activity of children aged 6-7 and the recommended artistic tools for preparatory group children.

Kalit soʻzlar: Kompozitsion qobiliyatlar, rang qobiliyatlari, analitik fikrlash, perspektiva tushunchasi, tasviriyl vositalar.

Ключевые слова: композиционные способности, цветовые способности, аналитическое мышление, понятие перспективы, изобразительные средства.

Keywords: compositional skills, color skills, analytical thinking, the concept of perspective, artistic tools.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berish shakllari natijalarga erishish emas, balki bilim, mahorat va ko’nikmalar hosil qilish o’quv faoliyatining maqsadidir. Bu maqsad uning asosiy xususiyatini belgilaydi. Bola rasm chizish jarayoniga qiziqsa va chiroyli chizishga harakat qilsa, bunday jarayon o’yin yoki samarali harakat hisoblanadi. Lekin qachonki bola rasm mashg’uloti vaqtida o’z oldiga

ma'lum maqsad qo'ysa, bu harakatlar ta'lim ko'rinishiga ega bo'ladi. Masalan, avvalgilardan yaxshiroq rasm chizish, tasvirni to'g'ri bo'yash yoki tekis chiziqlar chizish ham shunday harakat turlariga kiradi. Ta'lim olish vaqtida va bolaga oldingi avlod tomonidan qoldirilgan tajribani yetkazib berishda bolaning psixik rivojlanishi amalga oshsada, bilim va ko'nikmalarni aksariyat qismini u kattalar bilan muloqotda, ularning talablarini, maslahatlarini va ko'rsatmalarini bajarish davomida o'zlashtiradi. Shuningdek, o'yin faoliyati, rasm chizish, buyumlar yasash va turli xil faoliyatlarda vujudga kelgan kundalik muloqot ham bolaning bilim va ko'nikmalarini kengaytirib boradi. Kattalarning bola bilan bo'lgan har xil uslubdagi muloqot negizida ta'lim yotadi. Ammo u bolaning rivojlanishiga qarab sistematik xarakterga ega bo'ladi. Bolalar ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida muayyan dasturlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda ta'lim oladilar.

Bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir[1]. Bog'cha yoshidagi bolalar rasm chizish, loydan yoki plastilindan turli narsalarni yasash, kubiklardan imoratlar, ko'priklar qurishni juda yoqtiradilar. Bolalar o'zlarining tasvirlash faoliyatlarida qandaydir g'ayri-tabiiy, xayoliy narsalarni emas, balki tashqi muhitni, undagi narsalarni, jonivorlarni aks ettirishga intiladilar. Bolalarning bunday faoliyatlarida ijodkorlik, yaratuvchanlik elementlari bo'ladi. Bolalar o'zlaridagi istak, xohish, intilishlarni ana shunday tasvirlash, rasm chizish, loy yoki plastilindan biron narsa yasash, applikatsiya ishlari orqali ifodalashga intiladilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari juda sodda bo'lsada, ular o'zlarining bunday faoliyatlarida atroflaridagi narsa va hodisalarni shunchaki passiv tasvirlash bilan cheklanib qolmay, o'zlaridan nimalarnidir qo'shib, yangilik yaratishga harakat qiladilar. Ana shuning uchun bolalardagi ayrim qobiliyatlar

ularning tasvirlash faoliyatlarida juda erta namoyon bo'la boshlaydi. Ma'lumki, odam tug'ilishi bilan rassom, haykaltarosh, naqqosh bo'lib tug'ilmaydi. Odamdagi bunday qobiliyatlar uning yoshligidan tasvirlash faoliyati bilan shug'ullanishi jarayonida yuzaga kelib, takomillashib boradi. Agar tarbiyachi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini izchil tarzda tashkil qilib, bu ishni pedagogik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'ysa, bolalarning tasvirlash faoliyatiga bo'lgan munosabatlari o'zgaradi. bolalarning ranglarga bo'lgan munosabatlari o'ziga xosdir. Ular o'zlariga yoqqan narsalarni juda yorqin, chiroyli ranglar bilan bo'yaydilar, o'zlari yoqtirmagan narsalarni esa qora, to'q jigarranglar bilan bo'yaydilar. Bolalarning tasvirlash faoliyatlari ularning xayol va hissiy jarayonlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular qanday tasvirlash faoliyati bilan mashg'ul bo'lmasin ishlariga befarq munosabatda bo'lmaydilar. Tasvirlash faoliyati orqali qilgan ishlarini, chizgan rasmlarini ko'zga ko'rinadigan joyga namoyish qilib qo'yadilar.

Maktabga tayyorlovdagi oxirgi yil – bolalar uchun juda muhim davr[2]. Ushbu yil qanday o'tishi, ko'p jihatdan kelajakdagi o'qish muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi. Agar bola maktabga tayyor bo'lsa, maktabga quvonch bilan boradi va darslar uning uchun og'ir majburiyatga aylanmaydi. Tasviriyl faoliyat bilan shug'ullanishga alohida e'tibor berish kerak, chunki bu 6-7 yoshli bolaning sezgi, tasavvur va mayda motorika rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabga tayyorlov davrida chizish, konstruksiyalash va kollaj qilish[3] jarayonida bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatlar shakllanadi, bu qobiliyatlarning yanada rivojlanishi esa maktabda davom etadi. 6-7 yoshda bola tasviriyl faoliyat sohasida yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'zlashtiradi. U rassomlik asarlari, kichik shakldagi haykallar, kitob illyustratorlarining ishlari bilan tanishadi; rassomning kayfiyatini

qanday qilib tasvirlash uchun foydalanadigan vositalariga, asosiy ob’ektlarni qanday ajratib ko’rsatishga, predmetlar o’rtasidagi fazoviy munosabatlarni qanday ifodalashga e’tibor qaratadi.

Tayyorlov guruhda bolalarning katta guruhda egallangan ko’nikma va malakalarini murakkablashtirishi imkoniyati oshadi. Buning uchun quyidagi zaruratlar kerak:

- Bolalarga rasmlarning mazmunini bo’lib, berilgan mavzu bo’yicha rasm mazmunini mustaqil holda aniqlashga o’rgatish.
- Mazmunda harakat natijasida predmetning formasini o’zgartirishga o’rgatish (masalan, engashishni, burilishni).
- Kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish; predmetlarning joylashishi, yaqindagilarni qog’ozning pastga, uzoqdagilarni tepasiga (bichimlarini o’zgartirmaslik).
- Rang qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil holda mazmunga mos rangni berishga o’rgatish[4].

Bu yoshda bolalarning analitik fikrlashi yaxshi rivojlangani uchun tarbiyachi bolalarga berilgan mavzu yuzasidan mustaqil holda tanlashga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, "Uy qurish" mavzusi bo’lsa, bolalar o’zlari qanaqa uy, kim quryapti, qayerda kabi savollarga javob beradilar. Bolalar harakatdagi predmetning formasi o’zgarishini bilishadi, shu o’zgartirishlarni tasvirlay oladilar.

Tasviriy faoliyat mashg’ulotlarida badiiy materiallarning rang barangligi va ulardan o’rinli foydalana bilish bolalar ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Oddiy grafitli qalamlar qattiq va yumshoq bo’ladi. Qalamdagi M va B harflari yumshoqlikni, T va N harflari qattiqlikni anglatadi, TM va HB esa o’rtacha variantni bildiradi. Qalamga zaif bosish yengilroq tonni beradi, kuchliroq bosish esa yanada intensivroq bo’ladi. Bolalar uchun

yumshoq qalamlar bilan chizish qulayroqdir, chunki ular nozik, atlas kabi chiziqlar qoldiradi va chizilgan joylar o'chirgich bilan osongina o'chiriladi. Chizish jarayonida chiziqlarni bir yo'nalishda, to'xtamasdan qo'yish kerak. Konturlar va chiziqlarni chizayotganda bir joyga bir necha bor o'tmaslik kerak. Oddiy qalam bilan eskizlar qilish, geometrik shakllarning konturlarini chizish yoki ko'p mayda detallarga ega narsalarni tasvirlash qulay.

Rangli qalamlar va Flomasterlar

Rangli qalamlarning qalin yadro qismida yog'li zarrachalar mavjud. Qalamlar har doim o'tkir qilib uchlanishi kerak. Chizish jarayonida qalamga teng ravishda bosish zarur, chiziqlarni bir yo'nalishda, bo'shliq va qorong'u dog'lardan holi qilib qo'yish lozim. Agar rangi yanada yorqinroq bo'lishi kerak bo'lsa, kuchliroq bosish yoki boshqa yo'nalishda ikkinchi marta chizish kerak. Aralash ranglarni bir rangni boshqa rang ustiga qo'yish orqali olish mumkin. Rangli qalamlar bilan katta yuzalarni bo'yashdan qochish kerak.

Flomasterlar maxsus siyoh bilan to'ldirilgan. Flomaster bir tekis rangni beradi va uning soyalari yo'q. Bolalarga flomasterlar bilan chizish qalamlar bilan chizishga qaraganda osonroq, chunki flomasterlar qog'ozda osonlik bilan iz qoldiradi. Bolalarga flomasterlarni qopqog'i bilan yopishni eslatib turish kerak, aks holda ular tezda qurib qoladi. Flomasterlar bilan tekis qog'ozda chizish afzalroq. Agar katta yuzani ranglash kerak bo'lsa, shtrixovka usulidan foydalaniladi. Flomasterlar mayda yorqin detallarning chizilishi va predmetlarning konturlarini chizishda juda yaxshi ishlaydi. Flomasterlarning qalamlar bilan solishtirganda eng katta afzalligi shundaki, bolalar chizgan chizig'ini o'chira olmaydi va yangi chiziq chizish uchun oldindan o'z chizishlarini puxta o'ylab topishlari kerak.

Mumli melkalar, Pastel va Ko'mir

Mumli melkalar boy, yumshoq va yorqin ranglarga ega bo'lib, tarkibida mum mavjud. Melkalar bilan katta yuzalarni tezda bo'yash mumkin, ayniqsa, agar ular tekis yotqizilgan bo'lsa. Mum chiziqlari keng fakturalar bilan, kichik bo'shliqlar bilan hosil bo'ladi. Bosimni o'zgartirish orqali bir xil rangning turli tonlarini olish mumkin. Mumli melkalar aralashtirilganda silliq o'tishlar bermaydi. Melkalar qattiq, ammo juda kuchli bosish paytida sindirib yuborishi mumkin. Ular qog'oz va karton ustida chizish uchun ishlatiladi va asosan notekis ranglangan yuzalarni tasvirlash uchun, masalan, devorlar, o'tlar, daraxtlar, yog'och buyumlar.

Pastel bo'rlari – bu turli ranglar va soyalarga ega Pastel tayoqchalari. Ular pigmentlar va quritilgan kukunlardan (moh, oq) tayyorlanadi, ular yopishtiruvchi moddalar (jelatin, dekstrin yoki gummiarabik) bilan bog'lanadi. Pastellar quruq va moyli bo'lishi mumkin. Moyli pastel katta yopish qobiliyatiga ega, ammo yomonroq tarqaladi. Quruq pastel yumshoq tonlarga ega bo'lib, osonlik bilan tarqaladi. Pastel bilan ish qilishda nozik yuzali qog'oz, karton, maxsus rangli qog'oz yoki tonlangan asosdan foydalaniladi, chiziqlar va chiziqlar chiziladi. Ishni uzoqdan qaraganda, chiziqlar umumiy rang foniga aralashadi. Ba'zan chiziqlar barmoq yoki paxta tamponi bilan artib, turli ranglar va soyalarga aralashtiriladi. Pastel bilan, mumli bo'rlar singari, tekis yuzada ishlash mumkin. Yalpiz qog'ozda ishlashda, Pastelning bo'laklari tarqalmaydi. Pastel bilan chizishni yirik taxta ustida tavsiya etiladi, chunki kichik bo'laklar rasmga osongina tarqalishi mumkin. Pastel bilan bajarilgan rasmlarni mustahkamlash uchun aerosol laklardan foydalaniladi. Pastel tonlari osmonning shaffofligini,

guldastadagi barglarning shirinligini, bulutlarning pufligini tasvirlash uchun juda mosdir.

Ko'mir – yonib ketgan daraxt tayoqchalari (qarag'ay, olx, osina). Tayoqchalar juda o'tkir qilib o'tkaziladi – ingichka chiziqlarni olish uchun yoki keng lopatcha shaklida – qalin chiziqlarni chizish uchun. Ko'mir turli qora ranglarning aks etishini qoldiradi. Chiziqlarni paxta tamponi bilan tarqatish mumkin. Ko'mir bilan ishlashda yengil bosish kerak, aks holda u o'chib ketadi. Ko'mir bilan chizish uchun zirrikli qog'oz yoki karton ishlatiladi, chunki yupqa qog'ozga ko'mir yaxshi yopishmaydi va ko'proq tushib ketadi. Ko'mir qalamini salfetka bilan o'rash kerak – shunda qo'llar toza bo'ladi. O'ng qo'l uchun qog'ozni qo'yib ishlash mumkin, shunda rasmni buzmaslik mumkin. Tayyor rasmni saqlab qolish uchun uni soch laklari aerzoli bilan purkash mumkin.

Sangina, Sous, Guash va Akvarel

Sangina – turli qizil va jigarrang ranglarning kukunidir. U kaolin va temir oksidlaridan tayyorlanadi. Sangina yumshoq materialdir. U bilan ishlash usullari ko'mir bilan ishlashga o'xshaydi (keng chiziqlar, qisqa chiziqlar yoki chiziqlar bilan), lekin u yaxshi tarqalmaydi. Suv bilan aralashtirilganda, u jigarrang ranglarda akvarel effektini beradi. Sangina ko'mirning sovuq ranglari bilan yaxshi uyg'unlashadi. Sangina bilan ishlash uchun qalin qog'oz yoki karton ishlatiladi. Sangina odamlar va hayvonlar, manzaralar, portretlar va transportni tasvirlash uchun qulay.

Sous, shuningdek, "qora belgi" deb ataladi. U turli ranglarda (oqdan deyarli qora ranggacha) qisqa, dumaloq bo'rlar shaklida ishlab chiqariladi va folga bilan o'ralgan. Sous kaolin, moh va presslangan gazli qora kukundan tayyorlanadi. Sous juda go'zal, yumshoq tonlarni yaratadi, to'q qoradan to'q yorqingacha, va katta tonal gradatsiyalarga

ega. Sous bilan tezkor eskizlar qilish va shaklni aniqroq modellashtirish oson. Sous bilan ishlashning quruq usuli ko‘mir bilan ishlashga o‘xshaydi. Tarqatish yordamida ochiq tonlardan qorong‘i tonlarga o‘tishlarni hosil qilish mumkin. Sous suvda yaxshi eriydi, shuning uchun uni “quruq” usul bilan ishlatish mumkin (cho‘p bilan).

Guash mustahkam, shaffof bo‘lmagan qatlamni beradi, vaqti-vaqti bilan qatlamlarni bir-biriga yopishtirish mumkin. Guash bolalar uchun boshqa bo‘yoqlarga qaraganda yaxshiroq mos keladi. Guash bo‘yoqlari qalin bo‘lib, ozgina suv bilan suyultiriladi, shunda cho‘pga bo‘yoq olish osonlashadi. Yangi rang olish uchun asosiy ranglarni aralashtirish kerak, va yorqinroq tonlar olish uchun bo‘yoqqa oq bo‘yoq qo‘shiladi. Bo‘yashni tebranishlar yoki bo‘yoqning ostki qatlamini qo‘llab ishlash mumkin. Rangli dog‘lar aksariyat hollarda tasviriy bo‘lishi kerak. Guash bilan oq va rangli qog‘ozga chizish mumkin.

Akvarel – yumshoq, yengil, shaffof bo‘yoqlar. Ushbu bo‘yoq bilan ishlaganda ko‘p suv ishlatish kerak. Akvarel bo‘yoqlari, guash singari, yangi ranglar yaratish uchun aralashtirilishi mumkin. Yengilroq tonni bo‘yoqni suv bilan suyultirish orqali olish mumkin. Akvarelda rasm chizishni qorong‘u dog‘lar bilan boshlash kerak. Akvarel qatlamini boshqa rang bilan yopish deyarli mumkin emas, shuning uchun akvarel rasmda noaniqlikni tuzatish qiyin. Maxsus qalin qog‘oz ishlatish kerak. Akvarel bilan manzaralar, naturmortlar, portretlar, gullar va kuzni tasvirlash mumkin.

Akril bo‘yoqlar, plakat tushi va gelli ruchkalar

Akril bo‘yoqlari juda yorqin va nisbatan yopishqoq bo‘lib, ular bilan bo‘yashni ham aralashtirilgan, ham aralashtirilmagan bo‘yoqda amalga oshirish mumkin. Birinchi holatda bo‘yoqni tekis qattiq cho‘p bilan qo‘llash tavsiya etiladi. Fonda akril bo‘yoqni suyultirilgan holda ishlatib,

uning ustiga esa aralashtirilmagan bo'yoqni qo'llash yoki suratni cho'p bilan qirqib chiqarish mumkin. Akril bo'yoq to'qimalarini olishda yaxshi natija beradi. Akril bo'yoqlarni har qanday variantda aralashtirish oson. Bo'yoq quriganidan so'ng, suvni o'ziga tortmaydi. Akril bo'yoqlar odatda qalin qog'oz va kartonlarda ishlatiladi, shuningdek, gipso yoki loydan yasalgan buyumlarni bo'yashda ham qo'llaniladi. Akril bilan shisha butilkalari ham bezatiladi. Perlamutr[5] akril bo'yoqlari juda qiziqarli ko'rinadi.

Plakat tushi turli ranglarda bo'lishi mumkin. Tush qora rangli pigmentlarning shelakda[6] suyuqlashgan tarkibidan iborat. Plakatli tusha yuqori rang tozaligiga ega. U chuqur rang beradi, ishlatishda qulay, qurigach esa qog'ozdan deyarli o'chmaydi. Agar qalamdan foydalanilsa, tasvir aniq va nozik bo'ladi, nozik tayoq bilan ishlashda esa tasvir havodor va nafis bo'ladi, qishki cho'p bilan esa yumshoq tasvir olinadi. Tushi yordamida predmetlar konturlarini, chizmalarni va plakatlarni chizish oson.

Gel ruchkalari yaqinda ishlab chiqilgan. Ular alohida sotiladi yoki 6 va 10 ta turli ranglardan iborat to'plamlarda mavjud. Har bir ruchkada almashtiriladigan qalamdon bo'lib, u perlamutrdan porloq, hidli yoki hech qanday to'ldiruvchi moddalarsiz bo'lishi mumkin. Gel siyohining noyob tarkibi tufayli ular sharikli ruchkalardan yumshoqroq yozadi, chizilgan chiziq tarqalmaydi va tezda quriydi. Qalamdonlarning qurib qolmasligi uchun har safar qopqog'i yopilishi kerak. Gel ruchka bir xil jonli iz qoldiradi va yozishda hech qanday bosim talab qilmaydi. Shuning uchun gel ruchkalarini grafik tasvirlar yaratishda ishlatish juda qulaydir.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining turli tasviriylar vositalari bilan chizgan rasmlaridan namunalar:



Quvnoq kuz



Erta bahor



Vertolyot



Bizning oila



Archa shoxidagi o'yinchoqlar



Ko'rinmas hashorotlar

Har bir tasviriy vosita o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli uslublarda ishlash imkoniyatini beradi. Har bir material o'ziga xos texnikani talab qiladi va bolalar ijodkorligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Sh.Xasanova. Tasviiy faoliyatga o‘rgatish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma / Toshkent: Tafiikkur, 2020. 192 bet.**
2. **Jalilova S.X. A-74 Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasbhunar ta’limi markazi. – Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2013. – 496 b.306-312betlar.**
3. **Дарья Николаевна Колдина. Рисование с детьми 6–7 лет. Мозаика-Синтез,2011**

BESH ASOSIY TASHABBUS – KELAJAK UCHUN MUSTAHKAM POYDEVOR

Alieva Aziza Baxtiyarovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik (XHQH)

fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘zbekiston strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratishga qaratilgan ulkan tashabbuslarga tayanib, kelajakka ishonch bilan qadam tashlamoqda. Ushbu strategiya zamirida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan, mamlakatimizning kelgusi yillardagi rivojlanish vektorini belgilab beruvchi 5 ta asosiy tashabbus mujassam. Maqolada ushbu tashabbuslar tahlili, ularning maqsadlari, vazifalari, ularni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek erishilgan natijalar yoritib berilgan.

Abstract: Uzbekistan is confidently stepping into the future, relying on huge initiatives aimed at creating a solid foundation for strategic planning and sustainable development. At the core of this strategy are 5 main initiatives put forward by the President of the Republic of Uzbekistan, which determine the development vector of our country in the coming years. The article describes the analysis of these initiatives, their goals, tasks, the measures taken for their implementation, as well as the achieved results.

Kalit soʻzlar: tashabbus, yoshlar, sanʼat, sport salohiyati, raqamlashtirish, bandlik.

Keywords: initiative, youth, art, sports potential, digitization, employment.

Global chaqiriq va imkoniyatlar bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan, shiddat bilan oʻzgarib borayotgan olamda Oʻzbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida oʻzining munosib oʻrnini egallashga intilib, xalq farovonligi va uni taʼminlaydigan aniq rivojlanish vektorini shakllantirish zarurligini anglab yetmoqda, xalqaro nufuzini mustahkamlashga intilib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga eʼtiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, sanʼat va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan toʻgʻri foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish masalalariga bagʻishlangan videoselektor yigʻilishida ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yosh avlod oʻrtasida kitobxonlikni targʻib qilish, xotin-qizlar bandligini taʼminlash alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

Ushbu tashabbus Oʻzbekiston kelajagining mustahkam poydevorini tashkil etuvchi keng qamrovli strategiyani ifodalaydi,

strategik rivojlanish va milliy salohiyatni mustahkamlashning tamal toshlari hisoblanadi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, san'at, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishini oshirish, ularning iste'dodini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda 2017-yil 30-iyunda yoshlarni rivojlantirish masalalari bo'yicha 70 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishdan iborat. Prezidentimizning tashabbuslari asosida **O'zbekiston yoshlar ittifoqi** tashkil etildi. Qolaversa "O'zbekiston Respublikasida Yoshlar kunini belgilash to'g'risida"gi qonunga asoslanib 30-iyun "**Yoshlar kuni**" deb e'lon qilindi [2].

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni va kelajak avlodni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etadi [3]. Ushbu tashabbus yoshlar ushuni yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish, shu kabi ijtimoiy muammolarning hal qilishda asosiy va samarali omil bo'lmoqda. Kelajak avlodni qashshoqlik, ishsizlik va jinoyat kabi illatlardan halos etish ushuni muntazam kurashishga sabab bo'lmoqda.

Yoshlarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish orqali xalqimizning kelajagi ushuni sarmoya kiritayotganimizni anglab yetmog'imiz darkor.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: Nima ushuni yoshlarimizni har tomonlama tarbiyalash uchun ularda aynan san'atning turli yo'nalishlariga qiziqishlarini oshirilishiga alohida urg'u beriladi?

Gap shundaki, san'at shunchaki o'yin-kulgu vositasi emas, balki yoshlarning axloqiy-estetik fazilatlarini kamol toptirishga xizmat qiluvchi kuchli tarbiya vositasidir.

Musiqqa, san'at turlari, teatr va adabiyotni o'rganish orqali yoshlar nafaqat ichki dunyosini boyitibgina qolmay, balki o'z xalqining tarixiy-madaniy ildizlari bilan aloqalarini ham chuqur bog'lay oladilar. Bu shuni anglatadiki, san'at yosh avlodning madaniy-milliy qadriyatlarni yahshi bilib olishlari va o'zlikni chuqur anglab yeta bilishlari uchun katta yordam beradi.

Mazkur tashabbusni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida gapirilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi qaroriga alohida e'tibor qaratish lozim. Unga ko'ra har bir umumta'lim maktablarida eslatmalar to'plami, milliy cholg'u asboblari, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik, musiqa adabiyoti, ijro mahorati kabi amaliy to'garaklarni tashkil etilishini ta'minlash darkor.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi boshqa madaniyat muassasalari bilan hamkorlikda konsert va ma'ruzalar, jumladan, musiqa madaniyati va savodxonligini oshirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy tarbiyalash, ularning sportda o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish.

Sport yo'nalishida O'zbekiston yoshlari yildan-yilga o'z safini kengaytirib, xalqaro maydonlarda yuksak natijalarga erishib kelmoqda. Bu muvaffaqiyatlar bevosita Respublikamizning xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda. Jismoniy tarbiya va sport

sohasida ulkan maqsadlarga erishish sportchilardan ham, davlat tomonidan ham katta sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Yaponiya sport muxlislari orasida dzyudo va karatening vatani sifatida tanilgan bo'lsa, O'zbekiston bugun kurash (belbog'li kurash) va turon kabi sport turlarining markazi sifatida e'tirof etilgan [4].

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi sport sohasida salmoqli yutuqlarga erishib, xalqaro sport maydonlarida o'zining munosib ishtirokchisi sifatida namoyon eta oldi.

Jumladan, 2024 yil 13-24 iyun kunlari Qozon shahrida VI BRIKS o'yinlari yakunlandi. Ularda 86 davlatdan vakillar ishtirok etdilar. BRIKS o'yinlari yakunlariga ko'ra, 23 sport turi bo'yicha 249 nafar sportchidan iborat O'zbekiston delegatsiyasi 114 medalni (17 oltin, 39 kumush va 58 bronza) qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida Rossiya, Belarus va Xitoydan keyin 4-o'rinni egallashga erishdi [5].

Parijda 2024-yilgi yozgi Olimpiya o'yinlari yakunlanib, O'zbekiston terma jamoasi sportchilari 8 oltin, 2 kumush va 3 bronza medalini qo'lga kiritdi. Buning samarasida mamlakatimiz umumjamoa hisobida o'n uchinchi, Markaziy Osiyo va MDH davlatlari orasida birinchi, Osiyoda esa to'rtinchi o'rinni egalladi.

Milliy Paralimpiya terma jamoasi 9 oltin, 6 kumush va 5 bronza medalini qo'lga kiritdi. Parijda bo'lib o'tgan yozgi Paralimpiya o'yinlari xuddi Olimpiada singari O'zbekiston uchun mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti tarixidagi eng muvaffaqiyatli o'yin bo'ldi.

Sport infratuzilmasiga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar va salmoqli sarmoyalar tufayli O'zbekistonda yuksak natijalarga erishish, mamlakatning madaniy va sport salohiyatiga e'tiborini jalb etishga qodir sportchilarning yangi avlodi muvaffaqiyatli shakllantirilmoqda.

Murabbiylar malakasini oshirish , malakali xorijlik mutaxassislarni jalb etish, ularga mahalliy murabbiy va talabalarni tajriba oʻrganish uchun biriktirish, jismoniy hamda tibbiy tayyorgarlikni yaxshilash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sportchilarni psixologik tayyorlash, farmakologik qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, yangi sport va taʼlim muassasalarini qurish va taʼmirlash, ularni zamonaviy jihozlar va sport adabiyotlari bilan jihozlashga eʼtibor qaratilmoqda.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishlarini tashkil etish.

Hozirda Oʻzbekiston aholisi va yoshlarining kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishlari jamiyat hayotining turli jabhalarida muhim oʻrin tutadi. Birinchidan, axborot texnologiyalaridan foydalanish taʼlim darajasini oshirishga yordam beradi. Masalan, barchamizga maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasida Maktabgacha taʼlim va Maktab taʼlimi vazirligining “Maktab ” yagona raqamli taʼlim platformasi mavjud. Bu juda qulay va oʻz navbatida vaqtni tejashga qaratilgan platforma hisoblanadi.

Bundan kam boʻlmagan ikkinchi jihat shundan iboratki, davlat boshqaruvi jarayonlarini raqamlashtirish, bu davlat organlari faoliyatini optimallashtirish va koʻrsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish demakdir.

Masalan, my.gov.uz interaktiv davlat xizmatlari yagona portalidan foydalanish fuqarolarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirish va byurokratik jarayonlarni optimallashtirish yoʻlidagi salmoqli qadamdir deb ishonch bilan ayta olamiz.

Fuqarolar hozirgi kunda oʻzlari uchun qulay boʻlgan va istalgan vaqtda, shu bilan birgalikda internet tarmogʻi mavjud boʻlgan va istalgan

masofadan turib turli davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlariga egadirlar. Bu davlat idoralarida shaxsiy ishtirok etish zaruriyatini kamaytiradi va kutish vaqtini keskin qisqartiradi. Shuningdek, yagona portal fuqarolarning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini soddalashtirish imkonini beradi. Taqdim etilayotgan xizmatlar, protseduralar va talab qilinadigan hujjatlar haqidagi barcha kerakli ma'lumotlar bir platformaning o'zida mavjud bo'lib, noaniqliklarga barham beradi va o'zaro munosabatlarning shaffofligini oshiradi.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kitob mutoalasiga bo'lgan qiziqishni orttirish, kitob o'qishni keng targ'ib qilish bo'yicha ishlarning tizimli tashkil etilishini yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Ko'plab qishloq va mahallalarda zarur shart-sharoitning yo'q ekanligi kitobxonlik borasidagi jiddiy muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda edi. Endilikda esa ushbu to'rtinchi tashabbusga tayangan holda o'tmishda mavjud bo'lgan an'anaviy, ya'ni zamonaviy talablarga javob bera olmaydigan kutubxonalar o'rniga yangitdan tashkil etilgan axborot-resurs markazlari kitobxonlikni qo'llab-quvvatlash, yoshlarimiz ushun, ularning chuqur va keng bilim olishlarining yangi formati shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining veb-sayti yetarli darajada samarali emasligi ma'lum bo'ldi. Shu munosabat bilan yangi tashabbus doirasida yoshlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda qo'shimcha miqdorda kitob mahsulotlarini tez orada joylarga yetkazib berish ham ko'zda tutildi.

Mamlakatimiz bo'ylab "Ma'rifat karvoni" loyihasi amalga oshirilib, uning doirasida kamida bir million nusxada badiiy, o'quv va ijtimoiy adabiyotlar nashr etilib, viloyatlar bo'ylab tarqatilmoqda.

Shuningdek, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi zimmasiga qishloq joylarga alohida e'tibor qaratgan holda ko'chma kitob pavilyonlari, kutubxona avtobuslari ishini tashkil etish vazifasi yuklatilgan edi. Eslatib o'tamiz, ushbu vazifani amalga oshirishni 2012 yildayoq qo'llashga muvaffaq bo'lindi. O'shanda hududlarda uslubiy xizmat ko'rsatish uchun 14 ta axborot-kutubxona markazlariga kutubxona avtobuslari ajratilgan edi [6].

Beshinchi tashabbus – ayollar bandligini ta'minlash.

Jahon bankining 2024 yilgi O'zbekistondagi gender bahosida qayd etilishicha, ayollar bandligi ko'proq odamlar orasida mashhur bo'lsa-da, mehnat qonunlari erkaklar va ayollarning mehnat bozorida teng imkoniyatlar bilan ishtirok etish huquqlarini kafolatlaydi, lekin ko'pchilik jamoatchilik fikri ayollarning mehnatga qarshi ekanligiga ishonadi.

Zero, ish haqqining pastligi va ayollar bandligining kamayishi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va qashshoqlikni oshiradi.

Ayollarning mamlakat iqtisodiy hayotida erkaklar bilan teng ishtirok etishi mamlakat milliy daromadini 29 foizga oshiradi. Ayollar va erkaklar o'rtasida teng ish haqqini ta'minlash 700 mingdan ortiq odamni qashshoqlikdan xalos qila oladi.

Mamlakat o'zining iqtisodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun gender tengsizligini bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlarni davom ettirish kerak. Bu ayollarning iqtisodiy faolligini cheklovchi ijtimoiy normalarni olib tashlash, fan, texnologiya, muhandislik-matematika (STEM) ta'lim olishda tengsizlikni yanada bartaraf etish, ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish,

ayollarning rahbarlik lavozimlarida vakillikdagi tengsizliklarini bartaraf etish bo'yicha harakatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Jahon banki o'zining yillik hisobotida “Ayollar, biznes va qonun” [7] nomli dokladni bayon qildi. Unda yoritilishisha, huquqiy sohadagi gender tenglik yo'lidagi global taraqqiyot aniq baholab berildi. Hujjatda aytilishicha 190 mamlakatda ayollarning o'rnini 10 ta ko'rsatkich bo'yicha baholovchi indeks mavjud, ya'ni bular: “xavfsizlik”, “harakat erkinligi”, “mehnat”, “ish haqi”, “nikoh”, “ota-onalik”, “bola parvarishi”, “tadbirkorlik”, “mulkni boshqarish” va “pensiya ta'minoti”, shular jumlasidandir.

O'zbekiston Davlati Jahon bankining “Ayollar, biznes va huquq 2024” indeksida eng ko'p yaxshi natijalarga erishgan besh davlatlar qatoridan joy oldi.

Bu yutuq shunchaki statistik muvaffaqiyat emas, balki mashaqqatli mehnatlarning va taraqqiyotga intilishning samarali natijasidir.

Bu esa har bir fuqaro o'z salohiyatini ro'yobga chiqara olishi uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligining, erkin va adolatli jamiyat qurish yo'lida mamlakatimiz tanlagan yo'nalish juda to'g'ri ekanligining yorqin dalilidir.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan beshta tashabbus va uning yo'nalishlari, ya'ni san'at va sportni rivojlantirish, raqamlashtirish tizimlarini yo'lga qo'yish, yosh avlodni ma'naviy yuksaltirish, ayollarga e'tiborli bo'lish borasidagi sa'y harakatlar yoshlarning, kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishlari uchun va kelgusida farovonlikni ta'minlash uchun zamin bo'lib hisoblanadi va kuchli omil bo'lib xizmat qiladi.

Ishonch bilan aytamiz-ki , O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy tajribasiga, keksa avlod donishmandligiga, yoshlar kuch-g‘ayratiga tayangan holda, yangi-yangi chaqiriqlarni qabul qilishga, yuksak cho‘qqilarni zabt etishga shaylik bilan taraqqiyot cho‘qqilari sari intilishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezidentimiz yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. Manba: <https://president.uz/ru/lists/view/2437>
2. Toshboyeva G.Yu. O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA oid DAVLAT SIYOSATI MASALASI HAQIDA // Iqtisodiyot va jamiyat. 2022 yil. 5-2-son (92). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-gosudarstvennoy-molodezhnoy-politike-v-uzbekistane> (kirish sanasi: 07/03/2024).
3. O‘zbekiston yoshlari: muammolar va istiqbollar // UNICEF, OND *Yuksalish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hisoboti* .
4. Qurbonov I.K. O‘ZBEKISTONDA Ommaviy VA MILLIY SPORNI RIVOJLANISHNING UNIVOROTLARI // Fanlar xabarnomasi. 2022 yil 5-son (50). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritety-razvitiya-obschestvennogo-i-natsionalnogo-sporta-v-uzbekistane> (kirish sanasi: 07/03/2024).
5. O‘zbekiston delegatsiyasi VI BRIKS o‘yinlarini 4-o‘rin bilan yakunladi. Manba: <https://aspect.uz/delegaciia-uzbekistana-zavershila-vi-igry-briks-na-4-meste.html>
6. AKMning kutubxona fondi 5 million nusxani tashkil etadi. Manba: <https://www.uzdaily.uz/ru/post/10032>.
7. 2024 Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki / Jahon banki 1818 H Street NW, Vashington, DC 20433.

AMIR SHOHMUROD DAVRIDA BUXORO

Muhammadiyev Bilol Ismoil o‘g‘li

Namangan davlat universiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligini eng mashhur va dono hukumdorlaridan biri amir Shohmurodning tug‘ilishi, amirlik taxtiga chiqishi, mamlakat hayotida ta’sir ko‘rsatgan islohotlari haqida malumotlar beriladi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о рождении одного из самых известных и мудрых правителей Бухарского эмирата — эмира Шахмурада, его восхождении на престол, а также о реформах, которые оказали значительное влияние на жизнь государства.

Annotation: This article provides information about the birth of one of the most famous and wise rulers of the Bukhara Emirate — Emir Shahmurad, his ascension to the throne, as well as the reforms that had a significant impact on the life of the state

Kalit so‘zlar: Mang‘itlar, Doniyolbiy, Eronga qarshi yurish, O‘tratepaga yurish, Xo‘jand qamali, Moliyaviy islohot, Sud islohoti.

Ключевые слова: Мангиты, Даниелбий, поход на Иран, поход на Утратегу, осада Ходжента, финансовая реформа, судебная реформа.

Keywords: Mangyats, Daniel, march against Iran, March to Otratepa, siege of Khojand, financial reform, judicial reform.

Amir Shohmurod ibn Doniyolbiy mang‘it amirlari ichida o‘zining aqli, taqvodorligi va kamtarona hayoti bilan alohida ajralib turgan. U dabdabali hayotdan kechdi. Amir bo‘lganndan keyin ham mamlakat

aholisi farovonligi uchun qaygʻurdi. Kambagʻal va bechoralaga yordam berar edi. Yurt oboonchiligi yoʻlida koʻplab islohotlar oʻtkazdi.

Amir Shohmurod 1749-yilda Buxoroda tugʻilgan. Shohmurod Muhammad Doniyolbiyni toʻngʻich farzandi boʻlgan. Yoshligida otasi uni “Begijon” deb ezozlagan. Shohmurod Doniyolbiyni 12 farzandi Ichida alohida ajralib turgan. Yoshlik yillaridan ilimga chanqogʻ boʻlgan. Otasi ham uning tarbiyasi va ilm olishiga alohida eʼtibor qaratadi. Shohmurod bir mudadt Mir Arab madrasasida, yana bir mudadt esa Koʻkaldosh madrasasida tahsil oldi. U dunyoviy bilimlar qatori diniy bilimlar bilan shugʻulanib, sofiylik talimoti asosida hayot kechira boshlagan.

Amir Doniyol 1785-yil 75 yoshida vafot etdi. Uning Bohovuddin Naqishband mozori yonidagi “Dahmayi shohon” (shohlar dahmasi)da dafin qilishgan. Uning 12 ta oʻgʻli boʻlib toʻngʻich oʻgʻli Shohmurod ular Ichida alohida ajralib turar edi. U 1785-yil 10-iyunda Buxoro taxtiga oʻtirgan. Mangʻitlar sulolasining yirik vakillaridan biri hisoblangan amir Shohmurod hokimyat tepasiga kelgach oʻzidan oldingi “soxta xon”larni va xon unvonini bekor qilib oʻzini “Amir” deb eʼlon qiladi. Shohmurod davlat boshligʻi – amirlik unvonini taʼsis etar ekan, ushbu unvonning oʻzbek va moʻgʻul urugʻlari anʼanalari bilan emas, balki shariat qoidalari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi va shu davrdan boshlab mamlakat rasman Buxoro amirligi deb atala boshlanad.

Amir Shohmurod faoliyatining ilk yillarida Eron shohi Nodirshoh afshorning harbiy yurishlari natijasida bosib olingan Amudaryoning chap sohilidagi mulklarni qayta qoʻlga kiritib, bu hududlar amirlikka boʻysundiriladi. Yaʼni, 1788-yil Buxoro amirligi tarkibiga mashhur Chahor viloyat (Toʻrt viloyat) boʻlgan Andxoʻy, Shibirgʻon, Saripul, Oqcha viloyatlari qaytariladi. Buxoro amirligiga markazi Marv boʻlgan hozirgi Turkmanistonning yirik hududlari ham kiritiladi. Oʻrta Osiyo

davlatlariga tahdid qiluvchi va o'sha vaqtda siyosiy jihatdan birmuncha zaiflashgan Eron davlatiga harbiy yurishlarni amalga oshirdi. 1789–1790-yillarda Marvda hukronlik qilayotgan eronlik Bayramaliga qarshi kurashib, o'ziga bo'ysundirdi va 30 mingdan (ayrim manbalarda yuz mingdan) oshiq marvlik shia mazhabidagilarni Buxoro va Samarqandga ko'chirdi. Bundan tashqari, amir Shohmurod Ahmadshoh Durraniy (1747–1773) davrida bosib olingan Balx, Maymana, Andxud mulklari uchun afg'on hukmdori Temurshoh (1773–1793) bilan kurash olib bordi va natijada sulh shartnomasi imzolandi.

Amir Shohmurodning amalga oshirgan islohotlari va qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari aka-ukalar o'rtasida dushmanlik munosabatlarining vujudga kelishiga olib keldi. U bebosh amaldorlar va urug' boshliqlarini jazolagach, o'zining o'n nafar ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshirgan. Davlat tizimi va ijtimoiy hayotda shar'iy qonunlar mustahkamlanib, mamlakatda tartib-intizom qaror topgan. [1.-B 48]

O'ratepa hokimi Xudoyorbiy vafotini eshitgan, Shohmurod zudlik bilan bu yerga hujumga o'tdi. Zomin qal'asiga yetgach bu yerni qamalga oladi. Uch kunlik kurashdan keyin zominliklar sulh so'radi. Unga ko'ra zominliklar bu yerni tashlab O'ratepaga ketdilar. Amir Shohmurod Zomini qo'lga kiritgach O'ratepa tomon yurdi. Amir Shohmurodni kelayotganini eshitgan O'ratepalik Bobo devonbegi, o'z elchilarini Qo'qonga Norbo'tabiy huziriga yordam so'rab yubordi. Norbo'tabiy ham Qo'qon qo'shini bilan Xo'jand tomon keldi. Endi uch kishi o'rtasida muomoni yechish uchun ko'plab kishilar harakat qilsada, foydasi bo'lmadi. Nihoyat obro'li eshon Hakim to'ra Amir Shohmurod huzuriga keldi. Amir Shohmurodga nasihatlar qildi. Shu tariq uchala amir

o`rtasidagi kelishmovchilika barham berib ularni yarashtirdi eshon Hakimxon to`ra.

Buxoroga qaytib kelgan amir Shohmurod biroz vaqt o`tgach Xo`jandni bosib olish niyatida bo`ldi. Xo`jandni qamal qilishdi. Xudoyorbiyning katta o`g`li Bekmurodbiy Xo`jandni mardonovor himoya qildi. Uch kunlik urushlardan keyin amir Shohmurod qal`ani egalay olmadi. Shunday bo`lsada ko`plab qishlqlarni egalab aholisini Samarqandaga ko`chirib ketadi. Shohmurod Xo`janddan ko`chirib keltirilganlarga Samarqandni obod qilishni topshirib, o`zi Buxoroga kelgan. Xo`jand yurishidan keyin amir Shohmurod kasalika chalindi.[4.- B 48].

Amir Shohmurod mamlakatni rivojlantirish uchun asosan to`rta isloht- moliya, sud, ma`muriy va harbiy islohotlarni o`tkazi. Avvalo 1785-yildan boshlab amirlikda to`la holatda (aralashmalarsiz) kumushdan iborat bo`lgan kumush tangalar, oldingilaridan o`zini qiymati, sifati va tashqi ko`rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalar zarb etila boshlandi. Amir Shohmurod davlat zarbxonalarida aholini o`z shaxsiy jamg`armalaridan olib kelgan kumush va oltindan bir xil o`lchmdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishga keng ruxsat berdi.

Amir Shohmurod adliya sohasida o`tkazgan islohoti bilan mamlakatda sud ishlarini olib borishni bir muncha erkinlashtidi. Manb`alarga ko`ra amirlikda sud hay`ati ishlarini Shohmurodni bevosita o`zi boshqargan. Sud ishlarini olib boorish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi ishlab chiqilgan bo`lib, barcha viloyat, tuman, beklik qozilari aynan manashu qonunlar majmuasi asosia ish olib borganlar. [portal 287-]. U qozilik ishlarini ancha demokratiyalastirdi. Manbalarda ko`rsatilishicha, Shohmurod davrida agar qonunga xilof ish qilingan bo`lsa, xo`jayin ustidan qoziga arz qilish, hatto qul ham murojaat qilishi

mumkin bo'lgan ekan. Ko'p hollarda qozilik jarayonida amirning o'zi ham ishtirok etib borgan. Albatta bu ishlarning o'z davrida Shohmurod tomonidan amalga oshirilganligi o'ziga xos katta jasorat edi.[2.-B 83]

Umuman olganda amir Shohmurod tomondan o'tkazilgan islohotlar mamlakatdagi markaziy hokimyatni mustahkamlash, iqtisodiy yuksalishni ta'minlagan edi. Shuningdek soliqlarni tartibga solishi, sud ishlaridagi nohaqliklarga chek qo'yilishi, maxalliy amaldorlar ustidan nazorat o'rnatilishi savdo – sotq va hunarmanchilikni, qishloq xo'jaligini yuksalishiga sharoit yaratib berdi.[3 . – B 287-288].

Shohmurod shariatga to'g'ri kelmaydigan: yorg'u, boj, tusmal, yasoq, oliq-soliq kabi soliqlarni, bepul ishlab berish tartib-qoidalarini bekor qiladi. Ma'muriy sohadagi islohotni Shohmurod otasi Doniyolbiy va hatto Muhammad Rahimbiy davrida Buxoroda eng oliy martabali lavozimda ishlagan davlat Qushbegi va Nizomiddin qozi kalonni o'z qo'li bilan qatl etishdan boshladi. Shohmurodning o'zi uchun kundalik xarajati bir tangadan oshmagan, yeb ichishi va kiyinishi oddiy bo'lgan, biron-bir amaldorning uyiga ziyofatga bormagan, hech kimdan sovg'a olmagan, o'z sharafiga turli dabdabali tadbirlar uyushtirilishiga yo'l qo'ymagan. Oddiy xalqning Shohmurodga munosabati qanchalik bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladiki, uni "begunoh amir", deb ataganlar. U bir tomondan, xalqqa, ikkinchi tomondan, lashkarga suyanib mamlakat siyosiy yaxlitligini ta'minlashga katta e'tibor qaratgan.[2. – B 83].

Amir Shomurod hijriy 1212, milodiy 1800-yilda vafot etdi. Uning uchta o'g'lib or edi. Ularning to'ng'ichi Haydar taxtga keldi va otasini siyosatini davom etirdi.

Xulosa qiladigan bo'lsak Amir Shohmurod amirlikda hukumronlik yillari adolati va shariat qoidalarig asoslanib boshqardi. Aholini bo'yniga solingan ortiqcha soliq va majburiyatlarni bekor qildi. Ashtarxoniylar davrida yo'atilgan hudularni qaytarish yo'lida kurshlar olib bordi. Jamiyata adolat mezonlariga qat'iy roiya etishni targ'ib qildi. O'ziham butun umri davomia aholiga o'rnak bo'lib yashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. Zamonov, A. Egamberdiyev. Buxoro amirligi tarixi- Toshkent: tamaddum nashiryoti 2022. 182 b.
2. . R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, O'. Ubaydullayev Vatan tarixi 2 -Toshkent: Sharq- nashiryot matbaa aksiyadorlik kompanyasi bosh tahriryati. 2010, 368 b.
3. Б. Эшов, Ўзбекистон давлатчилиги ва бошкарув тарихи – Тошкент Ўзбекистон тарихи кафедраси. 2012. 456 б.
4. Муҳаммадҳакимхон тўра Мунтахаб ат-таворих- Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. 716 б.

TASVIRIY SAN'ATDA RANG VA EMOTSIONALLIK: RANGLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Ashurmatova Nozima Sobirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1 bosqich talabasi

Tel: +99893004687

E-mail: ashurmatovanozima41@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy san'atda ranglarning inson psixologiyasi va emotsiyalariga ta'sirini tahlil qiladi. Ranglarning ma'naviy va hissiy ta'sir doirasi, turli madaniy va tarixiy sharoitlarda ularning o'ziga xos ma'nolari yoritilgan. Shuningdek, ranglarning badiiy

asarlar orqali tomoshabinlarga qanday ta'sir qilishi va ularning his-tuyg'ularini qanday shakllantirishi o'rganiladi. Ushbu maqola tasviriy san'atdagi ranglarning kuchini va emotsiyalarni ifodalashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Абстрактный: В данной статье рассматривается влияние цветов в изобразительном искусстве на человеческую психологию и эмоции. Анализируется духовное и эмоциональное воздействие цвета, а также его значения в различных культурных и исторических контекстах. Также исследуется, как цвет через произведения искусства влияет на зрителей и формирует их эмоциональное восприятие. Эта статья подчеркивает силу цвета в изобразительном искусстве и его роль в выражении эмоций.

Abstract: This article examines the impact of colors in visual art on human psychology and emotions. It explores the spiritual and emotional influence of colors, as well as their unique meanings in different cultural and historical contexts. Additionally, it analyzes how colors in artworks affect viewers and shape their emotional responses. This article highlights the power of colors in visual art and their significance in conveying emotions.

Kalit so'zlar: Ranglar, Psixologiya, Emotsiyalar, Tasviriy san'at, Rang psixologiyasi.

Ключевые слова: Цвета, Психология, Эмоции, Изобразительное искусство, Психология цвета.

Keywords: Colors, Psychology, Emotions, Visual art, Color psychology.

Kirish:

Tasviriy san'at har doim inson hissiyotlarini aks ettirish va ularni boshqalarga yetkazish vositasi bo'lib kelgan. Rang esa bu jarayonning

eng muhim elementlaridan biridir. Ranglar inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatib, psixologik va emotsional javoblarni shakllantiradi. Masalan, qizil rang energiya, ehtiros va hayajonni ifodalasa, ko'k rang tinchlik va sokinlikni uyg'otadi. Turli madaniyatlarda ranglarning ma'nolari turlicha bo'lishi ham ranglarning ta'sir doirasi qanchalik keng ekanini ko'rsatadi.

Tarixan ranglarning san'atdagi o'rni ko'p asrlar davomida o'zgarib kelgan. Misol uchun, Uyg'onish davrida iliq ranglar hayotning go'zalligini aks ettirgan bo'lsa, XX asrda ekspressionist rassomlar sovuq va keskin ranglar yordamida inson iztirobini ifodalashga harakat qilishgan. Rang psixologiyasi esa zamonaviy san'atshunoslikda muhim ahamiyat kasb etib, rassomlarning rang tanlashdagi qarorlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bugungi kunda psixologik tadqiqotlar ranglarning inson emotsiyalari, aqliy faolligi va hatto fiziologik holatiga ta'sirini tasdiqladi. Shu sababli, ranglarning san'atdagi psixologik ta'sirini o'rganish, nafaqat san'atshunoslik uchun, balki psixologiya, madaniyatshunoslik va dizayn sohalari uchun ham dolzarbdir.

Empirik tadqiqotlar.

1. Empirik tadqiqot nima?

Empirik tadqiqot – bevosita kuzatish, tajriba va tajribaga asoslangan ma'lumotlarga tayangan holda olib boriladigan ilmiy tadqiqot usulidir. Bu tadqiqot turida mavzuga oid real faktlar, statistik ma'lumotlar yoki eksperimentlar orqali xulosalar chiqariladi.

Tasviriy san'atdagi ranglarning psixologik ta'siri mavzusida empirik tadqiqot o'tkazish orqali quyidagilar aniqlanishi mumkin:

Ranglarning inson emotsiyalariga ta'siri.

Rassomlarning rang tanlash qarorlari.

Turli madaniy qatlamlarda ranglarning qabul qilinishi.

Ranglar va vizual idrokning o'zaro bog'liqligi.

2. Empirik tadqiqotning asosiy usullari.

Empirik tadqiqot turli metodlarni o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at va rang psixologiyasi bo'yicha quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1) Kuzatish usuli:

San'at galereyalarida yoki muzeylarda odamlarning ranglarga bo'lgan munosabatini kuzatish.

Turli ranglar ishlatilgan badiiy asarlarni ko'rgan tomoshabinlarning hissiy reaksiyalarini o'rganish.

Rassomlarning o'z asarlarida ranglarni qanday tanlashini tahlil qilish.

2) Eksperiment usuli:

Tajribaviy psixologik testlar – Ishtirokchilarga turli ranglarga ega bo'lgan san'at asarlari ko'rsatiladi va ularning kayfiyat o'zgarishlari baholanadi.

Qaror qabul qilish eksperimenti – Ishtirokchilarga turli vizual kompozitsiyalar taqdim etilib, ularga qaysi biri ko'proq yoqqanini tanlash so'raladi.

Fiziologik o'lchovlar – Yurak urishi, nafas olish tezligi yoki miya faolligi (EEG) kabi omillar rang

ta'sirini tahlil qilish uchun ishlatiladi.

3) So'rovnoma va intervyu usuli

Tasviriy san'at ixlosmandlari yoki mutaxassislar bilan intervyu o'tkazish.

Rassomlar orasida so'rovnoma o'tkazib, ularning rang tanlash sabablari haqida ma'lumot olish.

Tomoshabinlardan san'at asarlaridagi ranglar haqidagi fikrlarini so'rash.

4) Statistik tahlil usuli:

San'at asarlarida eng ko'p ishlatilgan ranglarni aniqlash va ularning inson emotsiyalariga ta'sirini baholash.

Madaniy kontekstda ranglarning statistik taqsimotini tahlil qilish.

3. Empirik tadqiqot namunasi.

Tadqiqot mavzusi: "Tasviriy san'atdagi ranglarning inson emotsiyalariga ta'siri"

Tadqiqot bosqichlari:

1). Ishtirokchilarni tanlash – Turli yoshdagi va kasbdagi odamlar ishtirok etishi mumkin.

2). Material tayyorlash – Rassomlarning turli ranglarga asoslangan san'at asarlari tanlanadi.

3). Eksperiment o'tkazish:

Har bir ishtirokchiga har xil rang uyg'unligiga ega bo'lgan suratlar ko'rsatiladi.

Ularga bu suratlar qaysi his-tuyg'ularni uyg'otishi haqida savollar beriladi.

Yurak urishi va boshqa fiziologik o'zgarishlar o'lchanishi mumkin.

4). Natijalarni tahlil qilish:

Qaysi ranglar ko'proq ijobiy yoki salbiy emotsiyalar uyg'otishi aniqlanadi.

Madaniy farqlar inobatga olinadi.

Statistik ma'lumotlar chiqariladi.

4. Empirik tadqiqotning ahamiyati:

Aniq natijalar olish – Nazariy tahlildan farqli ravishda real insonlarning reaksiyalari asosida xulosalar chiqariladi.

Rang va emotsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunish – Olingan natijalar san'at, dizayn va psixologiya sohalarida qo'llanilishi mumkin.

San'at psixologiyasida qo'llanilishi – Rassomlar va dizaynerlar uchun ranglarni tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan yo'riqnomalar yaratish imkoniyati.

Hozirgi Kundagi Muammolar

Tasviriy san'atda rang psixologiyasining ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, ushbu sohada bir qator dolzarb muammolar mavjud:

1. Ilmiy asoslanganlik yetishmovchiligi

Ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri bo'yicha ko'plab nazariyalar mavjud bo'lsa-da, ba'zilar ilmiy jihatdan yetarlicha isbotlanmagan. Bu esa san'atshunoslar, dizaynerlar va psixologlar o'rtasida bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda.

2. Subyektiv qabul qilish masalasi

Har bir inson ranglarni turlicha qabul qiladi. Ranglarning ta'siri shaxsiy tajriba, madaniyat va ijtimoiy muhitga bog'liq bo'lgani uchun, ularning psixologik ta'sirini universal qoidalar bilan belgilash qiyin.

3. Raqamli san'at va rang buzilishlari

Raqamli san'atning keng tarqalishi bilan ranglarni to'g'ri aks ettirish muammosi paydo bo'lgan. Turli ekran texnologiyalari ranglarni turlicha ko'rsatishi mumkin, bu esa san'at asarlarini qabul qilish jarayoniga ta'sir qiladi.

4. San'atda tijorat maqsadlari ustunligi

Bugungi kunda rang psixologiyasi reklama va marketing sohalarida juda ko'p ishlatilmoqda. Ba'zan bu san'atning asl mohiyatini yo'qotib, uni faqat tijorat maqsadlariga xizmat qildirishga olib kelishi mumkin.

5. Ranglar va psixologik manipulyatsiya

Ranglar inson kayfiyatini shakllantirishda kuchli vosita bo'lsa-da, ularning noto'g'ri yoki manipulyativ ishlatilishi ba'zan iste'molchilarning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Bu esa axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun rang psixologiyasi bo'yicha chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borish, san'at va dizayn sohalarida ranglarni ishlatishda ongli yondashuvni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Natija:

Ushbu maqolada tasviriy san'atda ranglarning inson psixologiyasi va emotsiyalariga ta'siri keng yoritildi. Ranglarning san'at asarlaridagi roli va ularning inson ongiga ta'siri turli madaniy kontekstlarda o'rganildi. Rang psixologiyasining ahamiyati tasviriy san'at bilan cheklanmay, psixologiya, madaniyatshunoslik va dizayn sohaları uchun ham dolzarb ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ranglarning psixologik ta'siri keng qamrovli bo'lib, ular inson hissiyotlarini uyg'otish, kayfiyatni shakllantirish va hatto qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir etishi mumkin. Rassomlar o'z asarlarida ranglarning bu xususiyatlaridan foydalanib, tomoshabin bilan hissiy aloqa o'rnatadilar.

Tahlil:

Maqola davomida tasviriy san'atda ranglarning psixologik ta'siri tarixiy nuqtayi nazardan va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Uyg'onish davri va ekspressionizm san'ati misolida ranglarning turli davrlardagi o'zgarishi ko'rib chiqildi. Bundan tashqari, ranglarning ijtimoiy va madaniy kontekstlarda turlicha qabul qilinishi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, bugungi kunda psixologik tadqiqotlar ranglarning inson kayfiyatiga va kognitiv

faoliyatiga ta'sir qilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Masalan, issiq ranglar energiya va harakatni rag'batlantirsa, sovuq ranglar esa xotirjamlik va tasalli hissini uyg'otadi. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, rang psixologiyasini chuqur tushunish san'atshunoslar, dizaynerlar va psixologlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa:

Ranglar inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham katta ahamiyatga ega. Tasviriy san'atda ranglar inson emotsiyalari va ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qizilning dinamik va hayajonli xarakteri yoki yashilning tinchlantiruvchi xususiyatlari san'at asarlarini tomoshabin uchun hissiy jihatdan yanada kuchliroq qiladi. Rassomlar ranglar vositasida o'z ichki dunyolarini aks ettiradi va tomoshabinlar bilan hissiy aloqa o'rnatadi.

Shuningdek, ranglar ijtimoiy va madaniy omillarga ko'ra turlicha qabul qilinadi. Masalan, oq rang G'arbda poklik va tinchlikni ifodalaydi, Sharqda esa motam ramzi bo'lishi mumkin. Bu ranglarning global miqyosdagi turlicha talqinini ko'rsatadi.

Ranglarning psixologik ta'siri faqat emotsiyalarni uyg'otish bilan cheklanmaydi. Ular insonning qaror qabul qilish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dizaynerlar va reklama mutaxassislari rang psixologiyasidan foydalangan holda, tomoshabinlarda ma'lum his-tuyg'ularni uyg'otadigan tasvirlarni yaratadilar.

Xulosa qilib aytganda, ranglarning tasviriy san'atdagi ahamiyati cheksiz. Rassomlar ranglarning psixologik va madaniy ma'nolaridan foydalanib, nafaqat o'z hissiyotlarini ifoda etadi, balki tomoshabinlar

bilan bevosita muloqot o'rnatadi. Rang psixologiyasi san'atning hissiy qudratini tushunishda muhim vosita bo'lib, u inson va san'at o'rtasidagi aloqani yanada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Rang va emotsiyalar: San'atdagi psixologiya" – L. Iskandarov
2. "Rang psixologiyasi asoslari" – P. Robertson
3. "Ranglarning madaniy ahamiyati" – R. Akimov
4. "San'at va rang: Tarixiy yondashuvlar" – K. Maratov
5. "Rang va dizayn" – D. Green
6. "Ekspressionizm va rang psixologiyasi" – T. Linderman
7. "Tasviriy san'atda rangning psixologik ta'siri" – J. Richards
8. "Inson psixologiyasida rangning o'rni" – S. Anderson

BIRINCHI MUALLIM – ORZULAR RO'YOBI UCHUN KALIT

Yo'ldosheva Umida Xusniddin qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada o'zbek hamda qirg'iz adabiyotining yorqin namoyondasi Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" asaridagi obrazlarga tavsif beriladi, Chingiz Aytmatovning asarlaridagi o'ziga xos muhim jihatlar, ularning xalq orasida shuhrat qozonishi, barchaga birdek manzur keladigan kitoblarning mohiyatini ochib berilgan.

Abstract: This article describes the characters in the first author's work of Chungiz Aitmatov, a bright representative of Uzbek and Kyrgyz literature. Let's look at the essential aspects of the works of Chingiz

Aytmatov and the essence of the books that make them popular among the people.

Аннотация: в данной статье описываются персонажи первого авторского произведения Чингиза Айтматова яркого представителя узбекской и кыргызской литературы мы рассмотрим уникальные важные аспекты творчества Чингиза Айтматова и суть книг которые делают их популярными среди народа.

Kalit soʻzlar: birinchi Muallim, bir umrlik taʼlim, bola rivojlanishi, orzular va intilishlar, qadriyatlar tarbiyasi, ilhom.

Keywords: first teacher, lifelong learning, child development, dreams and aspirations, values education, inspiration.

Ключевие слова: первый учитель, обучение на протяжении всей жизни, развитие ребенка, мечты и стремления, ценит образование, вдохновение.

Kirish: Qirgʻiz va oʻzbek xalqining sevimli yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Birinchi Muallim” asari 1961-yilda yozilgan boʻlib, u oʻzbek va jahon adabiyotida katta ahamiyatga ega. Yozuvchi asar orqali inson maʼnaviy olami, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy oʻzgarishlarni yoritib berdi. Asar muallim va oʻquvchi, inson taʼlimi va tarbiyasi oʻrtasidagi nozik munosabatlarni koʻrsatib berilgan. Chingiz Aytmatovning bu asarida oʻquvchilarni yaxshi odam boʻlishga, ilm olishga undagan muallimning hayoti va uning oʻquvchilarga taʼlim berishdagi izlanishlari tasvirlanadi. “Birinchi Muallim” asari oʻzining tuygʻulari, qahramonlarining ichki olamiga chuqur kirishi, oʻqituvchilik kasbi qanchalik muhimligini, insonlarning bir – birlariga nisbatan mehr va hurmatda boʻlishligi, oʻqituvchining bolaga dunyoqarashni oʻrgatishi, unga maʼnaviy bilim berishdagi nozik oʻrinlarni yuksaltirish kabi tushunchalarni oʻrgatadi.

Asar qahramonlari: Duyshen – “Birinchil Muallim” asaridagi asosiy obrazlardan biridir. U asarda yosh, samimiy va tinchliksevar oddiy qishloq o’qituvchi sifatida tasvirlangan. Duyshen – sodda va ijobiy xislatlarga boy jamiyatda bilimning kuchiga ishongan sofdil yigit. Bu obraz orqali yozuvchi jamiyatda o’qituvchining naqadar muhim rol o’ynashini, savodsizlikka qarshi kurashning dolzarbligini aks ettiradi. Bu obraz ma’rifatparvarlikning timsoli sifatida nafaqat qirg’iz xalqi, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari uchun ahamiyatlidir. Asarda Duyshen o’qimishli, o’z xalqining kelajagi uchun kuyunchak, mehnatsevar va jasur inson sifatida tasvirlangan.

Oltinoy – asardagi o’ziga xos muhim obrazlardan biri sanaladi. U o’zining samimiyligi, mehribonligi va mustahkam irodasi bilan ajralib turadi. Asarda Oltinoyning ta’rifi uning tashqi ko’rinishi va ichki dunyosidan ko’ra ko’proq uning xarakteri va insoniy fazilatlari orqali berilgan. Oltinoyning ruhiy dunyosi, uning o’zining atrofidagi oddiy hayotga bo’lgan yondashuvi va unga bo’lgan mehri, asar davomida muhim o’rin tutadi.

O’qituvchilik kasbi va bilimga intilish: Oltinoy voyaga yetganda o’qish uchun katta imkoniyatlarga ega emasdi, bir tomondan yangasining qarshiligi bo’lsa ikkinchi tomondan u paytlarda xali o’qish unchalik muhim sanalmaganligi edi. U qishloq xayoti oilaviy majburiyatlar va boshqa yengilmas to’siqlarga qarshi turib o’qishga va bilim olishga intiladi va u o’qish orzusi va bilim olishga bo’lgan intilishi orqali o’zining yo’lini topdi. Bu yo’lda esa unga yordam bergan inson so’zsiz Duyshen edi. Duyshen Oltinoyning ta’lim olish yo’lida muhim o’rin tutgan, ta’lim olishda qo’llab – quvvatlagan, hayotiy saboqlarni o’rgatgan, qiyinchiliklarga qarshi turishga, orzulari sari olg’a qadam tashlashga o’rgatgan inson edi. Oltinoyning akademik bo’lishida

Duyshening xizmati katta, chunki u nafaqat bilim balki hayotiy qadriyatlar va haqiqatni qabul qilishga, oldidan to'siq chiqsa sabr ila yengishga matonatli ayol bo'lishga o'rgatgan Muallim edi.

Qishloq aholisi: Ta'limga nisbatan qarama-qarshi munosabatda bo'lgan qahramonlar. Ba'zilar Duyshenning ishini qoralaydi, boshqalari esa qo'llab-quvvatlaydi. Qishloq aholisi asarda murakkab, turli-tuman xarakterlarda tasvirlangan. Ular bir tomondan qoloqlik va johillik timsoli bo'lsa, boshqa tomondan, yangilikka intilayotgan jamiyatning bir qismi sifatida ko'rinadi. Shu bilan birga yozuvchi qishloq hayotini o'zining barcha murakkabliklari va go'zalliklari bilan haqqoniy tasvirlagan.

Kelajak yoshlar uchun muhim jihatlar: Chingiz Aytmatovning: "Birinch Muallim" asaridagi Oltinoy obrazining qiyinchiliklarga qarshi kurashib, akademik darajada yuksalishi hozirgi yoshlar uchun muhim saboqdir. Oltinoy o'zining o'qish istagi, intilishi va hayotdagi murakkab sharoitlarga qaramasdan ilm olishga bo'lgan xarakati bilan katta yutuqlarga erishadi. Uning akademik bo'lib rivojlanish yo'lidagi qiyinchiliklari va ularni yengib o'tishdagi kurashlari bugungi kunda yoshlar uchun ko'plab muhim saboqlarni o'zida aks ettiradi. Bugungi yoshlar ham ayni tarzda har qanday qiyinchiliklar oldida to'xtamasdan, bilim olish uchun imkoniyatlardan yetarlicha foydalanishlari kerak.

Xulosa: Xulosa bilan aytganda, Oltinoyning sabr-bardoshi, metin irodasi va ta'limga bo'lgan intilishi natijasida u hayotdagi eng ulug' maqsadlariga erishdi. "Birinch muallim" Duyshenning mehribonligi va unga bergan bilimlari tufayli, Oltinoy buyuk olima bo'lib yetishdi. Bu, insonning hayotida ilm-fan va ta'lim naqadar muhim ekanligini, shuningdek, murabbiylar o'z o'quvchilarining taqdiriga qanchalik ta'sir ko'rsatishini yorqin misolda ko'rsatadi. Ushbu hikoya bizga shuni

anglatadiki, ta'lim va mehnat bilan inson imkonsizdek tuyulgan cho'qqilarni ham zabt etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chingiz Aytmatov. Birinchi muallim. Asar, 1960y.
2. Aytmatovning ijodi va ta'siri haqida tahliliy maqolalar: Nazarov, H. Chingiz Aytmatov fenomeni. Toshkent, 1990.
3. Ismoilova, Z. O'zbek va Qirg'iz adabiyotida ma'rifatchilik an'analari. Toshkent, 2015.
4. ziyonet.uz

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONIDA MUZEY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH

Nabijanova Dilnoza Abduvohid qizi

Namangan Davlat pedagogika instituti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Maktabgacha ta'lim) yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yosh-bu bolaning hissiy tajribasini boyitish va tartibga solish, idrok etish va fikrlashning insoniy shakllarini o'zlashtirish, nutq, tasavvurning jadal rivojlanishi. Kichkina odam atrofidagi dunyoni kashf qila boshlaydi, o'zini va boshqasini, yaqin va uzoqni bilish uchun birinchi qadamlarni qo'yadi. Shu sababli bolalarni fikirlashini tartibga solishda, rivojlantirishda bog'cha va muzey aloqasini o'rnatib bog'chalarda loyihalar tashkil etish masalasi ushbu maqolada yoritilgan.

Аннотация: Дошкольный возраст—это обогащение и регуляция эмоционального опыта ребенка, приобретение человеческих форм

восприятия и мышления, бурное развитие речи и воображения. Маленький человек начинает познавать окружающий мир, делает первые шаги к познанию себя и других, близких и дальних. По этой причине в данной статье освещается вопрос организации проектов в детских садах с целью регулирования и развития детского мышления путем установления связи детского сада и музея.

Annotation: Preschool age is the enrichment and regulation of a child's emotional experience, the acquisition of human forms of perception and thinking, the rapid development of speech and imagination. A small person begins to discover the world around him, takes the first steps to know himself and others, near and far. For this reason, the issue of organizing projects in kindergartens in order to regulate and develop children's thinking by establishing a link between kindergarten and museum is covered in this article.

Kalit soʻzlar: Maktab, muzey, pedagogika, kòrgazma, psixologiya, kolleksiya, bogʻcha.

Ключевые слова: Школа, музей, педагогика, выставка, психология, коллекция, детский сад.

Key words: School, museum, pedagogy, exhibition, psychology, collection, kindergarten.

"Muzey pedagogikasi" atamasi birinchi marta muzey va maktab oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar muammolarini muhokama qilish munosabati bilan paydo boʻldi. Va dastlab u asosan talabalar bilan ishlashga qaratilgan muzey faoliyati sifatida talqin qilindi. Muzey pedagogikasi muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya chorrahasida joylashgan va muzeyni taʼlim tizimi sifatida koʻrib chiqadigan ilmiy fan sifatida tushuniladi. Muzey pedagogikasining asosini madaniy va tarixiy tajribani etkazish amalga oshiriladigan muzey-pedagogik jarayon

tashkil etadi. Muzeyning ta'lim maqsadi haqidagi g'oyani birinchi marta 1913-yilda Manngeymda bo'lib o'tgan "Muzey ta'lim va ta'lim muassasasi sifatida" konferensiyasida A.Lixtvarkshakllantirgan, shuningdek, tashrif buyuruvchiga dialog ishtirokchisi sifatida yangi yondashuvni taklif qilgan.[1] "Muzey suhbatlari" usulini amaliyotga tatbiq etib, u birinchi navbatda tashrif buyuruvchiga san'at bilan muloqot qilishda, san'at asarlarini ko'rish va zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishda yordam beradigan vositachi rolini asoslab berdi (keyinchalik bunday vositachi muzey pedagogi nomini oldi.).[2]

Hozirgi vaqtda muzey pedagogi–muzeyda o'quv faoliyatini amalga oshiruvchi mutaxassis. Ushbu turdagi faoliyatda o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan maqsadlar quyidagilardan iborat:

- muzey va uning kolleksiyalari orqali dunyo xalqlarining jahon san'ati va madaniyatini bilishga qiziqish uyg'otish;
- madaniyatning bir qismi sifatida muzey yodgorliklariga ehtiyotkorlik, hurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash va tabiat va madaniyat birligi haqidagi tushunchani shakllantirish.

Hozirgi bosqichda muzey o'qituvchilarining asosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

1. Madaniy merosga munosabatni paydo qilish va muzey qadriyatlari bilan muloqot qilish didini shakllantirishga qaratilgan faoliyat va muzey tomoshabinlari bilan ishlash.
2. Muzey ma'lumotlarini idrok etish, muzey ekspozitsiyasi tilini tushunish qobiliyatini rivojlantirish.
3. Hissiyotlarni tarbiyalash, tasavvur va fantaziyaning rivojlantirish, ijodiy faoliyat.
4. Muzeyda tomoshabinlar bilan ishlash samaraliroq bo'lishi uchun sharoit yaratish.

5. Muzey ta'limining yangi texnologiyalaridan individual loyihalar shaklida, turli ob'ektlarda, turli sheriklarni jalb qilgan holda foydalanish va ommalashtirish muzey pedagogining vazifalari: muzey tomoshabinlarining turli yosh toifalariga muzeylarning pedagogik ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash; muzey ishining eng to'g'ri shakllarini aniqlash; tashrif buyuruvchilarning muzey madaniyatini baholash va boshqalar.

Muzey madaniyati muzey pedagogikasida eng muhimlaridan biri bo'lib, tashrif buyuruvchining mavzu ma'lumotlarini idrok etishga tayyorlik darajasi sifatida qaraladi. Keng ma'noda muzey madaniyati - bu shaxsning voqelikka qadriyatli munosabati, insoniyat tarixiga hurmati, kundalik hayotda muzey ahamiyatiga ega bo'lgan ashyolarni baholash qobiliyatidir. T.Y. A. Markova muzey madaniyatini muzeyga tashrif buyurish va ekspozitsiyani tomosha qilishning maqsadlilik sifatida tavsiflaydi [3]. Muallif, shuningdek, tashrif buyuruvchining muzey madaniyatini tavsiflash uchun uning boshqa manbalar bilan taqqoslaganda (muzeylar va ko'rgazmalar) muzey ma'lumotlarining o'ziga xosligini bilishi va muzeylar bilan muloqot qilish qobiliyatiga juda muhimligini ta'kidlaydi.

Muzey madaniyatining ko'rsatkichlari odamlarning muzey haqidagi dastlabki ma'lumotlarning turli manbalariga (kitoblar, davriy nashrlar, reklama nashrlari, radio va teleko'rsatuvlar) murojaatlaridir. Muzey tomoshabinlarini tahlil qilish munosabati bilan muzey madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda muzeylarning o'quv va ma'rifiy faoliyati bilan bog'liq vazifalari va funktsiyalari qayta ko'rib chiqilmoqda. [4] Ushbu bosqichda muzey va tashrif buyuruvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi usullarini faol izlash, bu

munosabatlarning turli shakllari va usullarining paydo bo'lishi tendentsiyalari mavjud.

Demak, muzeyshunos-tadqiqotchilar tarbiyaviy faoliyatning asosiy maqsadini shaxsda madaniyatning u yoki bu hodisasini ijodiy idrok etish qobiliyatini shakllantirishda, uni madaniy sohaga uzviy kiritishda ko'radilar.

Muzeyning tarbiyaviy ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari tasdiqlanishi bilan muzey pedagogikasi asoslarini ishlab chiqish, muzey va bolalar va o'smirlar tomoshabinlari o'rtasidagi aloqalarni izlash boshlandi, bunda ta'sir maksimal va samarali bo'ladi. YOsh avlodni muzeylarga jalb etish, shaxsni ijodiy kamol toptirishni muzey pedagogikasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu maqsadga muvofiq, muzey madaniy-tarixiy muloqot maskani sifatida qabul qilinadi. Muzey pedagogikasi orqali inson madaniy qadriyatlarga bog'lanib qoladi, umuminsoniylikning o'ziga xos ko'rinishlarini tushunishni o'rganadi. SHunday qilib, ob'ektlar bilan bevosita aloqa qilish tajribasi, asosiy narsa ob'ektlar emas, balki ular tomonidan ifodalangan ma'nolar, muzey makonini faol rivojlantirish jarayonida tashrif buyuruvchining madaniy birlashmalari bo'lganda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, muzeyning sub'ekt-fazoviy muhiti ham san'at asarlarini, ham ekzotik ob'ektlarni, tarixiy yodgorliklarni va tabiat yodgorliklarini o'z ichiga olishi mumkin. SHunga qaramay, tashrif buyuruvchilar mavzu bilan "ishlash", o'zlarini ijodkorlikda namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Muzey pedagogikasi tufayli muzeyga tashrif buyuruvchi katta ma'lumotlar oqimiga duchor bo'lgan soqov ob'ekt bo'lishni to'xtatadi, muzey unga suhbatdosh, to'liq sherik, suhbat ishtirokchisiga aylanishni taklif qiladi. Bugungi kunda muzeylar eng muhim muammolardan biri - tashrif buyuruvchilarni jalb qilish

muammosiga duch kelmoqda. Har bir muzey uni hal qilishning o'ziga xos usullarini qidiradi. Davlat muzeylari o'z tomoshabinlarining xususiyatlariga e'tibor qaratib, muzey-pedagogik dasturlarni joriy etish orqali bu muammoni hal qilishga harakat qilmoqda. SHunga qaramay, muzeylarga tashrif buyurish u yoki bu tarzda ko'pchilik uchun tashkillashtirilgan ekskursiyada ishtirok etish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda, garchi aslida bu ish shakli yagona emas. Muzeylarda madaniy-ma'rifiy ish shakllarining soni o'ndan yuztagacha va undan ko'p bo'ladi. Mutaxassislar madaniy-ma'rifiy faoliyatning asosiy an'anaviy shakllariga ekskursiyadan tashqari ma'ruza, klub, studiya, to'garak, kechki yig'ilishlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, muzey bayramlari va boshqalar kiradi deb hisoblaydi. Mualliflarning ta'kidlashicha, madaniyat, ta'lim va fanning boshqa sohalaridan yoki muzey faoliyatining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish natijasida olingan shakllar noan'anaviy deb hisoblanishi mumkin.

Bu shakllar muzey pedagogikasining axborot, ta'lim, ijodkorlikni rivojlantirish, muloqot, dam olish kabi turli sohalariga kiritilgan.

Bunday tanlov shartli hisoblanadi, chunki yo'nalishlarning o'zi o'zgaruvchan, harakatchan va ko'pincha bir-biri bilan chambarchas bog'liq yoki ba'zi jihatlarda kesishadi. Biroq, muzey pedagogik faoliyatida uslubiy ko'nikmalarga ega bo'lish uchun ushbu yo'nalishlarning har biri bo'yicha ishning maqsad va vazifalarini aniq tushunish, shuningdek, muzey tomoshabinlari bilan ishlashning eng maqbul shakli va usullarini o'ylab ko'rish kerak. Umumiy mavzu bilan birlashtirilgan va yagona pedagogik maqsadga bo'ysunadigan turli shakllarning yig'indisi muzey-pedagogik dasturning asosiga aylanadi. Masalan, dam olish - bu muzey tomoshabinlarining istak va umidlariga muvofiq bo'sh vaqtni tashkil etish, muzey muhitida dam olishga bo'lgan

ehtiyojni qondirish. Ushbu dam olish shakllarining aksariyati turli yoshdagi tomoshabinlar uchun mo'ljallangan (yarmarka, karnaval, ochiq eshiklar kuni, muzey festivali, kontsert, va boshqalar), ammo tashrif buyuruvchilarning ayrim toifalari uchun maxsus ishlab chiqilgan dam olish va ko'ngilochar shakllari ham mavjud (maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin xonasi, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun muzeydagi Yangi yil archasi, keksalar uchun choy kechasi, muzeyda bitiruv oqshomi va boshqalar).

Ko'pincha muvaffaqiyatli shakllar murakkabdir.

Yo'nalishlar singari, shakllar ham takomillashtiriladi va rivojlanadi. Ular tarixiy sharoit, ilmiy izlanish va ishlanmalar, jamiyat talablari ta'sirida o'nlab yillar davomida shakllanib, vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Madaniy-ma'rifiy faoliyatning har qanday shaklining asosiy prinsipi tashrif buyuruvchilarga o'zlarini qiziqtirgan narsalarni qilish imkoniyatini berish, o'zini o'zi anglash uchun sharoit yaratishdir. SHu bilan birga, muzeyga tashrif buyuruvchilarning har xil turlari va toifalarining psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Bu ishlarning samaradorligi muzeyning bog'cha bilan o'zaro hamkorligiga, bog'cha va muzey pedagogikasining uzviy bog'liqligiga ham bog'liq.

Muzey pedagogikasining nazariy asoslarini tahlil qilish muzey va pedagogik faoliyatning maqsad, vazifalari va mazmuniga eng aniq javob beradigan quyidagi usullarni aniqlash imkonini berdi:

- ijtimoiy rollar;
- o'yin vaziyatlarini yaratish;
- ob'ektlar bilan amaliy manipulyatsiya;
- teatrlashtirish;
- mustaqil izlanish va tadqiqot faoliyati. Bu usullarning barchasi muzey auditoriyasining turli toifalari bilan ishlashda muzey

o'qituvchilarining amaliy faoliyatida o'z ifodasini topadi. Turli yo'nalishlarda rivojlanib, muzey pedagogikasi yangi masalalar va usullarni aniqlashga yordam beradi; yangi tuzilmada ta'lim bo'limlarini shakllantiradi; madaniy-ma'rifiy dasturlar va loyihalarni ishlab chiqishda o'z ifodasini topadigan ta'lim muassasalari o'qituvchilarini ta'lim faoliyatiga jalb etadi.

Hamma davlat muzeylari ham ta'lim muassasalari bilan bevosita o'zaro aloqada emas. Qoida tariqasida, bunday hamkorlikni amalga oshirish ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun tematik ekskursiyalar, ma'ruzalar, fakultativ o'quv kurslarini o'tkazishdan iborat.

Ammo shunday muzeylar ham borki, ularning faoliyati maktablar va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. 1989 yilda 199-sonli umumta'lim maktabi va bolalar bog'chasi bilan ish boshlagan Davlat rus muzeyi faoliyati bu borada yaxshi misol bo'ladi. Davlat rus muzeyi xodimlari bolalarda umumiy madaniy darajani oshirish bo'yicha noyob pedagogik tajribani boshladilar. Ushbu muammoni hal qilish ta'lim tizimi bilan yangi munosabatlarni, maktabgacha va maktab ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqishni talab qildi. Bir yil o'tgach, Rossiya Davlat muzeyida o'qituvchilar, rassomlar, psixologlar, san'atshunoslar va dasturiy ta'minot muhandislarining katta guruhini birlashtirgan Rossiya muzey pedagogikasi va bolalar ijodiyoti markazi tashkil etildi. Mahalliy amaliyotda birinchi marta - bolalar bog'chasidan universitetgacha san'at muzeyi va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimi ishlab chiqildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash zamonaviy muzeylar uchun eng qiyin, chunki ular ko'proq maktab va universitetlarga qaratilgan. Ayni paytda maktabgacha ta'lim muzeylar

bilan hamkorlik ko'lamini izchil va sezilarli kengaytirmoqda. Hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'zida muzey muhitini yaratish masalasi tug'iladi. Ilgari, bu qoida tariqasida, ko'rgazmali burchaklar va reproduksiya namoyishi edi. [4] Ammo maktabgacha ta'lim muassasalarida muzey muhitining mazmuni kengaytirilishi mumkin. Rossiyaning turli shaharlarida bolalar va o'smirlarni muzey madaniyati bilan tanishtirish uchun mintaqaviy dasturlar yaratilmoqda. Masalan, Taganrog shahridagi maktabgacha ta'lim muassasasida muzeylar bilan hamkorlikda "Mening Taganrogim" dasturini amalga oshirish maktabgacha yoshdagi bolalarning pedagogik vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Актуальные вопросы формирования интереса в обучении /Г.И. Щукина, В. Н. Липник, А. С. Роботова и др.; под ред. Г. И. Щукиной. – М.: Просвещение, 1984. – 176 с.
2. Атемаскина Ю.В. Организация проектной деятельности детей дошкольного возраста //Детский сад: теория и практика. – 2012. - № 9. – С.34-40.
3. Виниченко В.В. Музей и детские дошкольные учреждения//Международный музейно-педагогический семинар «Здравствуй, музей» (Тезисы семинара)13-18 марта 1995 г. – СПб., 1995. – 211 с. - С. 24-27.
4. Водовозова Е.Н. Умственное и нравственное развитие детей от первого проявления сознания до школьного возраста: 7-е изд., перераб и допол. - СПб., 1913. - 356 с.
5. Газизова Н. Музейная педагогика в детском саду // Дошкольное воспитание. – 2012. - № 6. – С.25-28.

MAKTAB BITIRUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHDAGI MUAMMOLAR

Mahmudova Dilafruz Akramjon qizi

Namagan davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim
pedagogikasi va psixologiyasi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maktab bitiruvchilarini munosib kasblarga yo'naltirish ularning ishchi kuchiga o'tishining hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Biroq, bu jarayon samarali martaba yo'nalishlariga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga to'la. Ushbu maqola maktab bitiruvchilarini o'z kasblariga yo'naltirish, turli usullar, natijalarni o'rganish va chuqur xulosalar chiqarish uchun mavjud adabiyotlarni tahlil qilishda duch keladigan qiyinchiliklarni o'rganishga qaratilgan. Kasbga yo'naltirish maqsadi — shaxsning ma'lum bir kasbiy faoliyat yo'nalishiga moyilligini aniqlashdir. Ushbu amaliyot har bir bola iste'dodli va ma'lum bir sohada o'z iste'dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo'naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o'spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg'ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi. Ulardan biri testni to'ldirishni o'z ichiga olgan «Harrissonn assessment» usuli bo'lib, uning natijalari talabaning rivojlangan fazilatlarini, shuningdek o'sish zonalarini ochib beradi. Ushbu amaliyot shuningdek, farzandingizga ushbu texnikaning natijalarini tushunishda yordam beradigan va rivojlanish rejasini tuzishda yordam beradigan psixolog konsultant bilan suhbatni o'z ichiga oladi

Annotation: Directing school graduates to suitable professions is a crucial aspect of their transition to the workforce. However, this process

is fraught with difficulties that can hinder effective career paths. This article is aimed at studying the difficulties that school graduates face when analyzing existing literature in order to focus on their profession, study various methods, results and draw in-depth conclusions. The purpose of professional orientation is to determine whether an individual is inclined to a certain direction of professional activity. This practice is based on the idea that each child is talented and can apply his talent in a particular area. There are many different ways to focus on the profession – conversations with a teenager who will face when choosing a future profession, with specialists who will discuss his interests and hobbies, as well as standardized methods, the results of which will allow you to understand the strengths and weaknesses. One of them is the "Harrisonn assessment" method, which involves completing the test, the results of which reveal the developed qualities of the student, as well as growth zones. This practice also includes an interview with a psychologist consultant who will help your child understand the results of this technique and help him draw up a development plan.

Аннотация: Ориентация выпускников школ на достойные профессии является решающим аспектом их перехода на рабочую силу. Однако этот процесс чреват проблемами, которые могут помешать эффективному карьерному росту. Эта статья направлена на изучение трудностей, с которыми сталкиваются выпускники школ при анализе доступной литературы, чтобы ориентироваться в своей профессии, изучать различные методы, результаты и делать глубокие выводы. Цель профориентации-определить склонность человека к определенному направлению профессиональной деятельности. Эта практика основана на идее, что каждый ребенок талантлив и может реализовать свой талант в определенной области. Существуют

различные способы профориентации — беседы с подростком, с которым он сталкивается при выборе будущей профессии, со специалистами, обсуждающими его интересы и увлечения, а также стандартизированные методы, результаты которых позволяют понять его сильные и слабые стороны. Одним из них является метод «харрисоновской оценки», который предполагает выполнение теста, результаты которого выявляют развитые качества ученика, а также зоны роста. Эта практика также включает в себя беседу с психологом-консультантом, который поможет вашему ребенку понять результаты этой техники и поможет составить план развития

Kalit soʻzlar: strategik yoʻnalish, fenomen, intervyu, Harrisonn assessment, psixolog konsultant.

Keywords: strategic direction, phenomenon, interview, Harrisonn assessment, psychologist consultant.

Ключевые слова: стратегическое направление, феномен, интервью, оценка Харрисона, психолог-консультант.

Maqolada maktab bitiruvchilarini tegishli kasblarga yoʻnaltirish bilan bogʻliq murakkabliklar, oʻqituvchilar, maslahatchilar va talabalarning oʻzlari duch keladigan qiyinchiliklar yoritilgan. U kasbga yoʻnaltirishda qoʻllaniladigan usullarni oʻrganadi, ushbu harakatlar natijalarini tahlil qiladi va mavzuni har tomonlama tushunish uchun tegishli adabiyotlarni koʻrib chiqadi. Jamiyatda taʼlim tizimini rivojlantirishning strategik yoʻnalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham taʼlimdagi islohotlar jarayonida mustaqil taʼlimni ragʻbatlantirish muhim yoʻnalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatlilikini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida oʻz

ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o'qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg'a surganlar. O'z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi.

Maktab bitiruvchilarini kasblarga yo'naltirishdagi muammolarni o'rganish bo'yicha tadqiqot metodologiyalari so'rovnomalar, intervyular va amaliy tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. So'rovlar talabalarning martaba intilishlari haqida ma'lumot to'plashi mumkin, o'qituvchilar va maslahatchilar bilan suhbatlar esa talabalarni boshqarishda duch keladigan qiyinchiliklar haqida tushuncha beradi. Amaliy tadqiqotlar aniq muammolarni va samarali strategiyalarni chuqur o'rganishga imkon beradi. Ma'lumot yetishmasligi: ko'pgina maktab bitiruvchilari turli kasblar, jumladan, ish majburiyatlari, talab qilinadigan ko'nikmalar va martaba istiqbollari haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar. Ushbu ma'lumotlarning yetishmasligi ular uchun ongli ravishda kasb tanlashni qiyinlashtiradi.

Cheklangan ta'sir: maktab bitiruvchilari ko'pincha turli kasblar bilan cheklangan ta'sirga ega, bu esa ularga turli martaba variantlarini o'rganishni va ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini tushunishni qiyinlashtiradi.

Ota-ona ta'siri: ota-ona ta'siri maktab bitiruvchisining kasb tanloviga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ba'zi hollarda, ota-onalar farzandlarini muayyan kasblarni egallashga majburlashlari mumkin, bu ularning qiziqishlari yoki qobiliyatlariga mos kelmasligi mumkin.

Ta'lim tizimi: ta'lim tizimi maktab bitiruvchilarini o'z kasblariga yo'naltirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, tizim har doim ham talabalar o'rtasida chalkashlik va noaniqlikka olib keladigan martaba bo'yicha etarli ko'rsatma va maslahat bermasligi mumkin.

Iqtisodiy omillar: ish joylari, ish haqi istiqbollari va ish xavfsizligi kabi iqtisodiy omillar ham maktab bitiruvchisining kasb tanlashiga ta'sir qilishi mumkin. Iqtisodiy sharoitlar ma'lum kasblarni boshqalarga qaraganda jozibador qilishi mumkin.

Maktab bitiruvchilarini kasblarga yo'naltirishdagi muammolar turli xil omillarni o'z ichiga oladi, masalan, martaba imkoniyatlari to'g'risida xabardorlik etishmasligi, ijtimoiy bosim, kasbga yo'naltirish uchun cheklangan resurslar va ko'nikmalar va ish talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik. Bundan tashqari, tez rivojlanayotgan mehnat bozori jarayonga murakkablik qo'shib, o'qituvchilar va maslahatchilar uchun o'zgaruvchan sanoat tendentsiyalari bilan hamqadam bo'lishni qiyinlashtiradi.

Natijalar talabalarning ta'lim safarlarida erta boshlanadigan keng qamrovli kasbga yo'naltirish dasturlariga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ushbu dasturlar turli xil martaba yo'llari to'g'risida xabardorlikni oshirishga, murabbiylik va amaliyot kabi manbalarga kirishni ta'minlashga va martaba muvaffaqiyati uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Bundan tashqari, muayyan kasblar haqida ijtimoiy tasavvurlarni hal qilish va kasb-hunar va texnik martaba qiymatini oshirish maktab bitiruvchilari duch keladigan muammolarni yumshatishga yordam beradi.

Kasbga yo'naltirish bo'yicha mavjud adabiyotlar talabalarning qiziqishlari, kuchli tomonlari va intilishlarini hisobga oladigan shaxsiy yondashuvlarning muhimligini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar maktablarda

martaba bo'yicha maslahat xizmatlarining etarli emasligi, noan'anaviy martabaga cheklangan ta'sir qilish, oila va tengdoshlarning martaba qarorlariga ta'siri kabi to'siqlarni aniqladi. Samarali aralashuvlarga martaba o'rganish dasturlari, kasbiy baholash va sanoat manfaatdor tomonlari bilan hamkorlik kiradi.

Xulosa qilib aytganda, maktab bitiruvchilarini o'z kasblariga yo'naltirish qiyinchiliklarga to'la ko'p qirrali ishdir. Biroq, maxsus strategiyalarni qo'llash, resurslardan foydalanish va o'qituvchilar, maslahatchilar va sanoat sheriklari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish orqali ushbu to'siqlarni yengib o'tish va talabalar uchun ishchi kuchiga yumshoq o'tishni osonlashtirish mumkin. Maktab bitiruvchilariga bilim, ko'nikma va ishonch bilan ma'lumotli kasb tanlash imkoniyatini berish ularning uzoq muddatli muvaffaqiyati va bajarilishi uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika" Toshkent 2018.
2. X.N.Muzaffarova. Ёрдамчи мактаб таълим жараёнида қўлланиладиган мулоқот турлари. «Абай Қўнонбеов ва шарқ мутаққирларининг педагогик қарашлари» мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари.. -Жиззах -2020. – 2020-yil. КБК: 74.03 УЎК: 37 Т-21.
3. X.N.Muzaffarova. Ақли заиф ўқувчилар мулоқотини ривожлантиришга янгича ёндошиш. NAMDU XABARLARI. -НамДУ илмий ахборотномаси -Научный вестник НамГУ 2020 йил

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVIY TARBIYANING BOSQICHMA-BOSQICH AMALGA OSHIRILISHI

Sobirova Dilorom Mirzakbar qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistranti

Tel: +998932112806

E-mail: murodullayevadilorom3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda ma'naviy tarbiyaning o'рни va ahamiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklar, qarorlar, nizomlar atroflicha yoritilgan. Yetuk shaxs rivojlanishi, uning aqliy va ruhiy holatlari, ijtimoiy hayotdagi roli va shunga o'xshash murakkab jarayon ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya olayotgan yoshlarga yaratilayotgan qulayliklar, qabul qilinayotgan islohotlar, konsepsiyalar mazmuni izohlangan. Uzluksiz ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning psixik va yosh xususiyatlariga bog'liqligi ta'kidlangan. Professional ta'lim bosqichlari va tushunchalari izohlangan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, tayanch kompetensiya, uzluksiz ta'lim, maktabgacha ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, ta'lim dasturi, Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi.

Annotation: This article comprehensively covers the role and importance of spiritual education in raising a harmonious generation, as well as the reforms being implemented in our country, innovations, decisions, and regulations in the field of education. The development of a mature person, his mental and spiritual state, his role in social life, and similar complex processes are revealed.

The conditions created for young people receiving education and upbringing in educational institutions of the Republic of Uzbekistan, the content of the reforms being adopted, and the concepts are explained. The dependence of the mental and age characteristics of students in the system of continuous education is emphasized. The stages and concepts of professional education are explained.

Keywords: Spiritual education, basic competencies, continuing education, preschool education, secondary specialized education, vocational education, educational program, State Educational Standards, curriculum

Аннотация: В данной статье подробно освещены роль и значение духовного образования в воспитании зрелого поколения, а также проводимые в нашей стране реформы, новости, решения и нормативные акты в сфере образования. раскрывается.

Подчеркнуты удобства, создаваемые для получения образования и обучения молодежи в образовательных учреждениях Республики Узбекистан, содержание принятых реформ и концепций, поясняется зависимость психических и возрастных особенностей обучающихся в системе непрерывного образования. разъяснены этапы и понятия профессионального образования.

Ключевые слова: Духовное образование, базовая компетентность, непрерывное образование, дошкольное образование, среднее специальное образование, профессиональное образование, образовательная программа, Государственные образовательные стандарты, программа обучения.

Kirish. Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni

shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog'liqdir. Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bog'liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim. Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.[1]

Asosiy qism. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa yoshlar tarbiyasi bilan bog'lik vazifalarni samarali amalga oshirish, ularni tinch-osoyishta hayot uchun eng zarur tayanch kompetensiyalar bilan ta'minlash belgilab qo'yildi. Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlari ishlab chiqildi. Tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish belgilab o'tildi. Homiladorlik davridan boshlab 30

yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish tatbiq etilmoqda. Aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish chora-tadbirlari ta'kidlab o'tildi[3]. Uzluksiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligi samarali yo'lga qo'yildi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- davlat boshqaruvi organlari, jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va oila institutlari orqali joriy etiladi.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

birinchi bosqich – oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta’lim 3 – 6 (7) yoshgacha bo’lgan davr;

uchinchi bosqich – umumiy o’rta ta’lim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlang’ich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh o’rta va yuqori sinflar);

to’rtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat ko’rsatayotgan va band bo’lmagan yoshlar, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — o’rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko’rsatayotgan va band bo’lmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — o’rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o’quvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).[2]

Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang’ich, o’rta va o’rta maxsus professional ta’limni (keyingi o’rinlarda professional ta’lim deb ataladi) tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida professional ta’lim — iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va ustuvor vazifalarini, zamonaviy texnika va texnologik tendensiyalarni hisobga olib, mehnat bozoridagi kadrlarga bo’lgan real ehtiyoj, ish beruvchilarning takliflari hamda “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida shaxslarning ta’lim olishiga mo’ljallangan

Professional ta’limni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Nizomga amal qilinadi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Boshlang'ich professional ta'lim – YUNESKO tashkiloti tomonidan qabul qilingan Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (keyingi o'rinlarda Xalqaro tasniflagich deb ataladi) 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari;

Kasb — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada mehnat faoliyatni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta'minlangan mehnat faoliyati (mashg'uloti)ning turidir;

Kasbiy kompetensiya – bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati

Kasb-hunar maktabi – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari;

Kvalifikatsiya — kasbiy mahorat darajasi yoki pog'onasi kasbiy talablarning muayyan pog'onasiga muvofiqligi darajasi;

Kollej — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasigacha mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan vazirliklar va idoralar tizimida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasalari;

Kompetensiya — bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmui;

Ko'nikma — muayyan vazifani bajarish uchun egallangan qobiliyat;

Mutaxassislik — biror kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus Tayyorgarlik va amaliy tajribasi bilan erishilgan zarur bilim, ko'nikma va malakalar majmui;

Professional standart — xodimga ma'lum bir kasbiy faoliyat turini, shu jumladan, ma'lum bir mehnat funksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka talablari;

Professional ta'lim — ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi;

Tabaqalashtirilgan ta'lim dasturi — Xalqaro tasniflagichning tegishli darajalariga muvofiq boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'limda kadrlar tayyorlash uchun kasb yoki mutaxassisliklarning murakkablik darajalari, o'qitish muddatlari bir-biridan farq qiladigan ta'lim dasturi;

Ta'lim dasturi — professional ta'lim muassasasi bitiruvchisiga muayyan egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarish imkonini berishga qaratilgan professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi davlat ta'lim standartlari, o'quv rejasi, o'quv fanlari (modullar) dasturlari, malaka amaliyot dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami;

Davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

Texnikum — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasigacha mos keluvchi va oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlaydigan hamda oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari;

Umumiy kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbga yaqin faoliyat turlarining ko'pchiligi uchun umumiy

bo'lgan masalalarni hal etishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati;

O'rta maxsus professional ta'lim — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari;

O'rta professional ta'lim — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari;

O'qitishning dual tizimi — ta'limning nazariy qismi ta'lim muassasasida va amaliy qismi ish joylarida tashkil etiladigan o'qitish turi

O'quv rejasi — professional ta'limning muayyan kasbi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari (modullari) va kurslari hamda malaka amaliyotlari tarkibi, ularni o'rganish izchilligi, soha va tarmoqlarda ish turlarining mavsumiyligini hamda soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

O'quv dasturi — professional ta'lim o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va amaliyotlarning mazmuni, o'qitishning maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

O'quv jarayonining grafigi — ta'lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta'til vaqtlarini belgilovchi hujjat[4].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, rivojlanib borayotgan mamlakatimizda har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, kelajakka ishonch, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishni shaxsning ustuvor xususiyati ekanligini uqtirib borish, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish, vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma'naviy ko'nikmalarni o'rgatish, halol mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish, mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoiylilik fazilatlarini rivojlantirish, oilaviy

burch, oilada o'zaro ishonch, sadoqat, mehr-muhabbat va hamjihatlikni mustahkamlash malakalarini shakllantirish, ma'naviy barqarorlikni ta'minlash asosiy vazifa bo'lib bormoqda. Yoshlar, yosh ota-onalarda farzand tarbiyasi uchun mas'ullik, oilani boshqarish, moddiy farovonlikka erishish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish mezonlarini rivojlantirib borish, namunali, ma'naviy uyg'unlikka erishgan, farzand tarbiyasida ibrat bo'la oladigan, ota-onalar roziligiga erishayotgan keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etilayotgan yosh ota-onalarni rag'batlantirish, yosh oilalarning hayotda munosib o'rin egallashlariga ko'maklashish, ularning mahallada integratsiyalashuvini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishiga erishish har bir O'zbekiston Respublikasida yashayotgan insonlarning oldida turgan ezgu burchidir. Shunday ekan har birimiz bu masalaga ma'suliyat bilan yondashmog'imiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarova O'. M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik O'.M. Asqarova, M. Xayitboyev, M.S. Nishonov. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «Talqin», 2008 - 288 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2019 yildagi 1059-son Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son [qarori](#).
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA'LIM TO'G'RSIDA QONUNI Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan.

TOG‘AY MURODNING “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” ASARIDA QO‘LLANGAN IBORA, ETNOGRAFIZMLAR VA MILLIY URF ODATLAR

Shodiyeva Shaxro‘za Jovli qizi

Termiz Iqtisodiyot va Servis universitetining
Filologiya va tillarni o‘qitish o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Ergasheva Rayxona O‘tkirovna

Tel: +998940390616

Annotatsiya: Maskur maqolada Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida qo‘llangan iboralar va etnografizmlarning o‘sha davrda hamda bugungi kunda qay darajada ishtirok etganligi yoritilgan, hamda bu maqolada o‘zbek xalqiga mos urf-odatlar ochib berilgan.

Абстрактный: В статье рассматривается, в какой степени выражения и этнографические выражения, использованные в произведении Тогая Мурада «Поля, оставленные моим отцом», актуальны в то время и в наши дни, а также раскрываются обычаи и традиции узбекского народа.

Abstract: The article discusses the extent to which the expressions and ethnographic expressions used in Togay Murad's work "The Fields Left by My Father" were present at that time and today, and the article also reveals the customs and traditions of the Uzbek people.

Kalit so‘zlar. Tulki qiziga to‘y berdi, Kun sariq-sariq nur to‘kdi, botar kunni otar tongi bo‘ladi, bo‘laman degich el bir-birini botirim deydi – bo‘lmayman degich el bir-birining etini yeydi, dehqon davlati – yer, kattalar tinch – olam tinch, ko‘pga kelgan ko‘rgulik, mehmon atoyi xudo.

XX asr o‘zbek adabiyotida “Otamdan qolgan dalalar” romani bilan o‘chmas iz qoldirgan Tog‘ay Murodning frazeologizmlardan, shu

jumladan ogʻzaki nutq frazeologizmlaridan foydalanish mahoratini oʻrganish oʻzbek adabiy tilining ichki manba asosida qanday boyib borayotganini oʻrganish uchun asos boʻladi. Mazkur ishda Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida oʻzbek adabiy tilining va Surxon shevasiga xos frazeologizmlardan foydalanish mahorati tadqiq etiladi. Yozuvchilarning asar qahramonlarining oʻziga xos jihatlarini tasvirlashda frazeologizmlardan qanday foydalanganligi oʻrganish har doim dolzarbligicha qolib kelgan.

Togʻay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida qoʻllangan iboralarining rang-barangligini koʻrib, ularning asar gʻoyasini, obrazlarning xarakterini ochib berishdagi oʻrni beqiyos ekanligining guvohi boʻlamiz albatta. Yozuvchi Togʻay Murod roman oxiridagi ilovasida “Men oʻzbek xalqiga haykal qoʻyaman!” – deb bejizga yozmagan edi. Ushbu roman bilan xalqimizga chindan ham katta haykal qoʻyishga sabab boʻldi. Yozuvchi oʻz asari tilining tabiiyligini taʼminlash uchun ham Surxon vohasi shevalari, soʻzlashuv nutqi shakllari, xalq iboralaridan mahorat bilan foydalangan. Asar juda sodda tilda, haqiqiy dehqon tilidan bayon etilgani tufayli ham unda qoʻllangan jaydari soʻzlar, birikmalar va iboralar oʻquvchini tezda oʻziga rom eta oladi. Togʻay Murod asar qahramoni Dehqonqulning sodda, doʻlvor xarakteriga mos iboralarni topib qoʻllagan.

Yozuvchi qahramonlari tilidan iboralarni ishlatganida, ularning ichki dunyosini, boshqalarga munosabatini ham hisobga olgan. Shuning uchun ham Dehqonqulning onasi uni koyir ekan ogʻir soʻzlar bilan qargʻamaydi, balki:

“Onamiz ketimdan tosh otib qoladi. – Ha, **oshingni yeyin** sen tentakni, oshginangni yeyin! deydi”. Maktab direktorining nutqidagi ibora esa oʻz oʻquvchisini odam oʻrnida koʻrmaydigan, oʻta qoʻpol, bemehr

bir kimsa, qahri qattiq odamligidan darak beradi: “Jasadingni qara”! **Jasadingdan eshak hurkadi!** O‘l-e, shu kuningga-e!” Aslida xalq “haybatidan ot hurkadi” deydigan iborani uning tilidan “Jasadingdan eshak hurkadi” deb ishlatadi. Tog‘ay Murod asarlari iboralarini o‘rganish xalq orasida keng o‘llanilayotgan, ammo hali badiiy adabiyotga, adabiy tilga kirib kelmagan iboralarni aniqlash, ular asosida badiiy asar tili iboralari lug‘atini yaratish imkonini beradi. Tog‘ay Murodning asarlarida milliy ruh, qadimiy an‘ana va marosimlar, unutilish arafasida turgan qadriyatlarni yoritish alohida o‘rin tutadi.

Milliy qadriyatlarimiz kitobxon qalbiga birinchi navbatda tilimiz orqali jo bo‘lgan. Romanda Surxon vohasining so‘lim qir-adirlari, tanti va mehnatsevar odamlari hayoti, tog‘- u toshlarining betakror manzaralari juda chiroyli tasvirlangan. Tabiat manzaralarini qahramonlar xarakter-holati, kechinmalari bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlash – adib asarlariga xos yetakchi xususiyatdir. Asarda tabiat o‘zgarishlari qahramonlar kayfiyatiga qarab o‘zgacha uslubda ifodalangan. Masalan: **Tulki qiziga to‘y berdi. Kun qiyalab-qiyalab nur to‘kdi. Kun sariq-sariq nur to‘kdi. Kun betini ko‘rib bo‘lmadi. Kun nuriga qarab bo‘lmadi. Olam iliq-iliq bo‘ldi. Olam sariq-sariq bo‘ldi. Havoda oppoq-oppoq bir nimalar uchdi. Havola-havola uchdi. Aylana-aylana uchdi. Burala-burala uchdi. Osmon misoli un elaklamish-un elaklamish bo‘ldi. Oppoq bulutlar orasidankun to‘kilib-to‘kilib turdi “Tulki qiziga to‘y berdi”.** Ushbu jumlaning adib o‘zi o‘ylab topmagan. Bu, ota-bobolarimizdan qolgan ibora hisoblanadi. Bunday holat osmonda yirik-yirik qor parchalari o‘ynoqlab ko‘rinish berganda, quyosh zangori tus olsa ham, o‘z tarovatini yo‘qotmay turgan payt bo‘ladi. Shu manzaraga qarab dehqonlar “Tulki qiziga to‘y berdi” deyishadi. “Otamdan qolgan dalalar” romani tilining o‘ziga xosligi yana shundan

iboratki, ko‘p hollarda asarning ta‘sir kuchini oshirish niyatida adib so‘zlarni takror-takror qo‘llagan. Masalan: “Yormazorda muhtasham masjid-madrassa bo‘ladi. Oqqoshsho mo‘min-mazlumni ana shu Yormazor masjid-madrassa qoshida to‘dalaydi. Mo‘min-mazlum mung‘ayib-mung‘ayib turadi. Mo‘min- mazlum birov-birovini ko‘ksiga yig‘laydi. Mo‘min-mazlum uzun kun ana shunday turadi”. Ushbu misolda yettita gap, o‘ttiz uchta so‘z bo‘lib, ularda “Mo‘min-mazlum” sifati olti marta takrorlanib kelgan, ya‘ni har bitta gapda shu sifat qayta-qayta qo‘llanilgan. **“Yormazor”, “bir-birovi”, “yig‘laydi”** kabi so‘zlar ikki martadan qo‘llanilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, takror qo‘llanilayotgan so‘zlar soni **o‘n to‘rtta**, matnda esa jami **o‘ttiz uchta** ishlatilgan, ya‘ni, gaplarning deyarli yarim so‘zlari takror qo‘llanilgan. Asarda qo‘llanilgan so‘zlarning ko‘pida Milliy **“muhtasham bir masjid-madrassa”, “mo‘min-mazlum”, “ko‘ksiga yig‘laydi” va “yelkasiga yig‘laydi”** kabi so‘z-iboralar milliy qadriyatlarimiz, kechmishimiz aks ettirilgan, milliylik nafasi ufurib turgan til birliklaridir. “Otamdan qolgan dalalar” asari o‘quvchilarning milliy qadriyatlarimiz haqida tasavvurga ega bo‘lishlariga yordam adabiyotimizning shunchaki navbatdagi namunalari emas.

XX asr, aniqrog‘i, salkam bir asr davom etgan istibdod nihoyasida maydonga kelgan “Otamdan qolgan dalalar” bilan “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” romanlari o‘sha asr intihosida o‘lkada yuz bergan milliy uyg‘onish natijasida boshlangan millatning bir necha avlod asl o‘g‘lonlari – yorqin iste‘dodlar qalbini olov bo‘lib o‘rtagan nido bo‘lib yangraydi.

“Otamdan qolgan dalalar” bosh qahramonining nomi qahhorona tarzda ismi jismiga mos – Dehqonqul. Muallif roman yaratilishi jarayonidagi ijodiy-ruhiy holati ustida to‘xtalib: “Endi qonim o‘z g‘animlarim uchun qaynamadi. Yo‘q, o‘z g‘animlarim o‘z yo‘lida qoldi.

Endi qonim...qudratli g'animlarim uchun qaynadi..., –deb yozadi. Bu lo'nda e'tirofda romanning asosiy ruhi – pafosi aniq ravshan ifodalangan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bu roman Olloh in'om etgan eng ulug' ne'mat-hurligini, mustaqilligini, erkini, ozodligini boy bergan, bosqinchilar bo'yin turug'ini bo'yniga ilib, istibdod iskanjasida qulga aylangan xalqning ayanchli holi, u chekkan zahmatlar tufayli adib dilidagi oh-armon, nola-fig'on, bir asrdan ortiq davom etgan imperiya zulmi, zug'umiga qarshi zo'r nafrat-tug'yon kabi yangradi. Roman markazida Dehqonqul obrazi turadi. Asar voqealari hayoti,taqdiri, qismati, ruhiy dunyosi ona yer, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq bilan mustahkam bog'liq hisoblanadi. Xullas, har bir yozuvchi frazeologizmlardan o'z imkoniyati doirasida ustalik bilan foydalangan.

Yozuvchi iboralarini asar qahramonlari tilidan ishlatar ekan, ularning ichki dunyosi, ma'naviyatini yaqqol ko'rsatishga harakat qiladi.

T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani iboralarini tahlil qilar ekanmiz, asarda o'zbek tiliga xos 300 ga yaqin iboraning 400 marotabadan ortiq qo'llanganiga ko'zimiz tushadi. T.Murod iboralarini takror-takror qo'llashdan qochadi. Vaholanki uning so'zlarga kuchli bo'yoq berish maqsadida so'zlarni, so'z birikmalarini, ba'zan butun boshli gaplarni takror qo'llash usuli hammaga ma'lum.

Biz romanda **boshidan qolsin, esidan chiqmoq, esini yig'moq, gap yo'q-so'z yo'q, gap o'roli kelganda, ichidan qirindi o'tmoq, ko'z ostidan qaramoq, ko'z uzmaslik, o'pkasini bosolmaslik** kabi iboralarininggina ikki, ayrimlarining uch-to'rt marta qo'llanganligini ko'ramiz. Bu hol yozuvchining o'z qahramonlari nutqiga huda-behudaga iboralarini kiritib, sun'iy bo'yoqdorlik yaratishdan qochganligini korsatadi. Xalq maqollari, urf-odatlar nomlarini ifodalovchi so'zlar ishtirokidagi iboralar: **botar kunni otar tongi bo'ladi, bo'laman**

degich el bir-birini botirim deydi – bo'lmayman degich el bir-birining etini yeydi, dehqon davlati – yer, kattalar tinch – olam tinch, ko'pga kelgan ko'rgulik, mehmon atoyi xudo, mehnat – mehnatning tagi rohat, ko'z qo'rqoq qo'l botir, ko'z tarozi – ko'ngil qozi, olisni sho'rvasidan yaqinni yovg'oni yaxshi, yer xamir – o'g'it xamirturish, yon qo'shning – jon qo'shning, chilla suv – tilla suv, o'zbekning qonib, mehmon kutgani – podsho bo'lgani va boshqalar.

T.Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani asar bosh qahramoni, oddiy o'zbek dehqoni, paxtakor, o'z davrining qurboni Dehqonqul tilidan hikoya qilinadi. Asarning Dehqonqul tilidan hikoya qilinishi yozuvchiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham Dehqonqul o'z nutqida "jelovchi" sheva vakillarining so'zlarini ham, oddiy xalq tilidagi tasviriy ifodalarni ham, so'zlashuv nutqiga xos iboralarni ham ishlataveradi. Bu hol oddiy kitobxonni, uning ruhiyatini, ichki dunyosini, o'sha davrdagi vaziyatni tushunib yetishiga imkon yaratgan albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Т.Мурод. Отамдан қолган далалар. – Тошкент: 1994, 29-бет.
2. Тоғ'ай Мурод. "Отамдан қолган далалар". ОҚД, 54-бет

PEDAGOGLAR UCHUN IT KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI VA USULLARI

Ostanaqulov Xojiakbar Mansurqul o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Telefon raqam: +998 90 529 24 08

E-mail: x.ostanaqulov@mail.ru.

Jaksimuratov Azamat Bekmurat o'g'li

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Telefon raqam: +998 94 086 10 50

G-mail: jaqsimuratov004@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola o'qituvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalarini rivojlantirishning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini yoritadi. Tadqiqotda IT bilimlarini oshirish orqali darslarni interaktiv va samarali tashkil etish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida o'qituvchilarni raqamli savodxonlikka tayyorlashning samarali yechimlari taklif etiladi. Maqola ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Аннотация. Данная статья освещает значение развития навыков преподавателей в области информационных технологий в образовательном процессе. В исследовании анализируются методы интерактивного и эффективного проведения уроков за счет повышения ИТ-компетенций. Также предложены эффективные решения подготовки педагогов к цифровой грамотности на основе зарубежного опыта. Статья включает в себя важные практические рекомендации, направленные на повышение качества образования.

Annotation. This article highlights the importance of developing teachers' skills in information technology within the educational process. The study analyzes methods for organizing interactive and effective

lessons by enhancing IT knowledge. Additionally, effective solutions for preparing teachers for digital literacy based on international experience are proposed. The article includes key practical recommendations aimed at improving the quality of education.

Kalit soʻzlar: information technology (IT), interaktiv, teach the teachers, google workspace, trening, pedagog

Ключевые слова: информационные технологии (ИТ), интерактив, обучать учителей, Google Workspace, тренинг, педагог

Keywords: information technology (IT), interactive, teach the teachers, Google Workspace, training, pedagogue

21-asrda insoniyatning rivojlanishi yangi texnologiyalar va raqamli transformatsiyalar bilan belgilanmoqda. Bu jarayon taʼlim sohasiga ham bevosita taʼsir koʻrsatib, oʻqitish usullari va jarayonlarini tubdan oʻzgartirishga olib keldi. Bugungi kunda pedagoglar oʻz fanini zamonaviy va interaktiv tarzda oʻrgatish uchun axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni oʻrganishlari zarur. Chunki IT koʻnikmalarini egallagan oʻqituvchi nafaqat dars jarayonini qiziqarli qiladi, balki oʻquvchilarni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka undaydi.

Raqamli texnologiyalar oʻqituvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, masofaviy taʼlim platformalari orqali geografik cheklovlarisiz dars oʻtish, multimedia vositalar yordamida murakkab mavzularni vizualizatsiya qilish, shuningdek, sunʼiy intellekt va taʼlim analitikasi yordamida oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini tahlil qilish mumkin. Biroq, ushbu imkoniyatlardan toʻliq foydalanish uchun pedagoglarning raqamli savodxonligi yetarli darajada boʻlishi kerak. Afsuski, koʻplab oʻqituvchilar hanuzgacha IT texnologiyalari bilan ishlashga tayyor emas yoki bunga yetarli sharoitga ega emaslar [1].

Bugungi kun ta'lim muassasalarida IT infratuzilmasi va dasturiy ta'minotlardan foydalanish darajasi oshib borayotgan bir paytda, pedagoglar uchun maxsus IT treninglarni tashkil qilish zaruratga aylanmoqda. O'qituvchilarning IT ko'nikmalarini rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashda o'ziga ishonchli qiladi. Bunday malaka oshirish kurslari pedagoglarga faqat texnik bilimlarni emas, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ham o'rgatadi.

Ta'lim sohasida IT texnologiyalarining joriy etilishi nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun ham muhim turtki bo'ladi. Shuning uchun davlat siyosati va ta'lim muassasalarining IT ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha strategik dasturlari pedagoglarning ehtiyojlariga moslashishi zarur. Ushbu maqola pedagoglar uchun IT ko'nikmalarining dolzarbligi, ularni rivojlantirish usullari va ularning ta'limdagi samaradorligi haqida batafsil tahlil va tavsiyalarni taqdim etadi.

Mazkur tadqiqot o'qituvchilar uchun IT ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini o'rganish va ushbu maqsadga erishish uchun samarali strategiyalarni taklif qilishga qaratilgan keng qamrovli uslubiy yondashuvni qo'llaydi. Sifat va miqdoriy tahlil metodlarining uyg'unligi mavzuni chuqur va har tomonlama yoritishga imkon beradi. Tadqiqot avvalida mavzuga oid mavjud adabiyotlarni batafsil tahlil qilish amalga oshirildi. Bu bosqichda ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar va ta'lim va texnologiya sohasidagi nufuzli tashkilotlarning hisobotlari o'rganildi. Bu jarayon tadqiqotning nazariy asosini shakllantirish va keyingi bosqichlar uchun kontekst yaratish imkonini berdi.

Asosiy ma'lumotlar yig'ish jarayoni o'qituvchilar orasida o'tkazilgan keng qamrovli so'rovnoma orqali amalga oshirildi. Ushbu

so'rovnoma o'qituvchilarning IT ko'nikmalaridagi mavjud darajasini, o'rganishdagi qiyinchiliklarni, o'rganishga bo'lgan xohishlarini va IT integratsiyasining o'qitish amaliyotiga bo'lgan ta'sirini aniqlashga qaratilgan savollarni o'z ichiga oldi. So'rovnomadan olingan natijalarni boyitish maqsadida o'qituvchilar bilan kichik guruhlarda suhbatlar tashkil etildi. Ushbu suhbatlar o'qituvchilarning shaxsiy tajribalarini chuqurroq tushunishga va IT integratsiyasiga oid innovatsion yechimlarni aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqotning yana bir muhim qismi muvaffaqiyatli IT integratsiyasi misollarini tahlil qilishdan iborat bo'ldi. Turli mintaqaviy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ega bo'lgan ta'lim tizimlaridan misollar o'rganilib, samarali va moslashuvchan yondashuvlar aniqlangan [4]. Ushbu tahlil global va mahalliy tajribalarni taqqoslash orqali umumiy strategiyalarni ishlab chiqishga imkon berdi.

Tadqiqot doirasida o'qituvchilar uchun maxsus mo'ljallangan o'quv dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dastur nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan bo'lib, asosiy IT savodxonligi, ta'lim vositalaridan samarali foydalanish, shuningdek, raqamli texnologiyalarni an'anaviy dars uslublariga integratsiya qilish usullarini qamrab oldi. Dasturning tuzilishi ko'proq amaliy yondashuvga urg'u bergan bo'lib, bu o'qituvchilarning o'z bilimlarini real sharoitlarda qo'llashiga yordam berdi.

Chet el tajribasi sifatida Finlyandiyada amalga oshirilgan "Teach the Teachers" (O'qituvchilarni o'qitish) dasturini ko'rib chiqamiz. Ushbu loyiha Finlyandiya ta'lim tizimida IT texnologiyalarini joriy etish va o'qituvchilarni yangi ko'nikmalar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, xalqaro miqyosda tan olingan muvaffaqiyatli model hisoblanadi.

Dastur davomida o‘qituvchilar bir necha hafta davomida zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha treninglardan o‘tdilar. Mashg‘ulotlar Google Workspace, Edmodo, Kahoot kabi ta’lim platformalarini samarali ishlatishni va o‘quv materiallarini raqamlashtirish usullarini o‘z ichiga oldi. Shuningdek, trening davomida o‘qituvchilar masofaviy ta’limni samarali tashkil qilish, raqamli resurslardan foydalanish, o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini kuzatish va baholashga doir ko‘nikmalarni rivojlantirdilar (1-rasm).



Dasturning amaliy qismida o‘qituvchilar real darslarni o‘tkazish jarayonida o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarini sinab ko‘rishdi. Masalan, biologiya fani o‘qituvchilari molekula tuzilishini o‘rganishda 3D simulyatsiyalar va vizual dasturlardan foydalangan bo‘lsa, matematika o‘qituvchilari o‘quvchilarga masalalarni tushuntirishda interaktiv doskalarni qo‘lladilar. Ushbu uslublar o‘quvchilarning mavzuni tushunish darajasini sezilarli darajada oshirdi.

Dastur natijalari ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Finlyandiya maktablaridagi o‘quvchilar PISA (Ta’limni baholash xalqaro dasturi) natijalarida yuqori reytinglarga erishdilar. O‘qituvchilar esa IT

ko'nikmalardan nafaqat darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, balki har bir o'quvchining ehtiyojlariga mos ta'lim strategiyasini ishlab chiqishda ham foydalanishni boshladilar. Bu esa ta'lim sifatining yangi darajaga ko'tarilishiga olib keldi [7].

Ushbu misol shuni ko'rsatadiki, IT texnologiyalarini ta'limga integratsiya qilish nafaqat o'qituvchilarning professional darajasini oshiradi, balki o'quvchilar bilimni chuqurlashtirish va ularning kelgusidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda ham katta rol o'ynaydi. "Teach the Teachers" dasturi kabi tajribalar boshqa mamlakatlarda ham joriy etilishi mumkin bo'lgan universal model hisoblanadi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilarning IT ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi va ta'lim jarayonidagi ahamiyati chuqur tahlil qilindi. So'rovnoma va suhbatlar natijasida o'qituvchilarning aksariyati raqamli texnologiyalarni o'z darslarida qo'llashga qiziqish bildirgan bo'lsa-da, ularning IT ko'nikmalarida sezilarli darajada farq mavjudligi aniqlandi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning 60%dan ortig'i raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga kiritishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Biroq, ular yangi texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan istaklarini bildirganlar, va bu maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan samarali trening dasturlariga ehtiyoj sezilmoqda.

Treninglarning samaradorligi o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning o'qishdan avval va keyingi raqamli savodxonlik darajalaridagi farqni o'rganish natijasida, treninglardan keyin o'qituvchilarning savodxonlik darajasi o'rtacha 30% ga oshgani aniqlangan. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonining sifatini yaxshilashga

yordam berdi. Dasturda ishtirok etgan o'qituvchilar o'z darslarida IT texnologiyalarini qo'llashda yanada ishonchli va samarali bo'ldilar.

Shuningdek, so'rovnoma va suhbatlar natijasida, o'qituvchilarning yangi texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan motivatsiyasi oshdi. O'qituvchilar masofaviy ta'lim va interaktiv vositalardan foydalangan holda darslarini qiziqarli va samarali o'tkazishga muvaffaq bo'ldilar. Misol uchun, virtual haqiqat va 3D simulyatsiyalarni qo'llash orqali o'quvchilar uchun murakkab mavzularni yanada tushunarli qilish mumkinligi tasdiqlandi (2-rasm).



2-rasm. 3D simulyatsiya ta'lim jarayonida.

Hukumat va ta'lim muassasalarining IT ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik dasturlari pedagoglarning ehtiyojlariga moslashishi zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, pedagogik malaka oshirish kurslari nafaqat o'qituvchilarni texnik bilimlar bilan ta'minlash, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ham o'rgatishda samarali bo'lgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, IT texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi [8]. Shu bilan birga, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan treninglar ta'lim sifatini yaxshilashga va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyati, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning kelgusidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashga katta hissa qo'shadi. O'qituvchilarni doimiy ravishda raqamli texnologiyalarni o'rganish va qo'llashga rag'batlantirish, ta'limning sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning zamonaviy talablarga javob beradigan yangi avlodlarni tarbiyalashga imkon yaratadi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilarning IT ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi va ta'lim jarayonidagi ahamiyati chuqur tahlil qilindi. So'rovnoma va suhbatlar natijasida o'qituvchilarning aksariyati raqamli texnologiyalarni o'z darslarida qo'llashga qiziqish bildirgan bo'lsa-da, ularning IT ko'nikmalarida sezilarli darajada farq mavjudligi aniqlandi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarning 60%dan ortig'i raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga kiritishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Biroq, ular yangi texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan istaklarini bildirganlar, va bu maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan samarali trening dasturlariga ehtiyoj sezilmoqda.

Treninglarning samaradorligi o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning o'qishdan avval va keyingi raqamli savodxonlik darajalaridagi farqni o'rganish natijasida, treninglardan keyin o'qituvchilarning savodxonlik darajasi o'rtacha 30% ga oshgani aniqlangan. Bu, o'z navbatida, o'quv jarayonining sifatini yaxshilashga yordam berdi. Dasturda ishtirok etgan o'qituvchilar o'z darslarida IT texnologiyalarini qo'llashda yanada ishonchli va samarali bo'ldilar [10].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, IT texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilarga darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi, bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan treninglar ta'lim sifatini yaxshilashga va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashga yordam beradi.

Bundan tashqari, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyati, ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning kelgusidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashga katta hissa qo'shadi. O'qituvchilarni doimiy ravishda raqamli texnologiyalarni o'rganish va qo'llashga rag'batlantirish, ta'limning sifatini oshirishga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning zamonaviy talablarga javob beradigan yangi avlodlarni tarbiyalashga imkon yaratadi.

➤ **Yuqori ko'nikmalarga ega o'qituvchilar:** Bu guruhdagi o'qituvchilar IT texnologiyalarini yaxshi tushunadilar va samarali ishlatadilar. Ularning IT ko'nikmalari 75-90% darajada bo'lib, ta'lim jarayonida IT texnologiyalarini 80-90% darajada qo'llaydilar. Bu esa


ta'lim samaradorligini 85-95% ga oshiradi. Yuqori darajadagi o'qituvchilar interaktiv usullar va masofaviy ta'lim platformalarini samarali ishlatadilar, bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va muvaffaqiyatlarini yaxshilaydi.

➤ **O'rta ko'nikmalarga ega o'qituvchilar:** O'rta darajadagi o'qituvchilar IT texnologiyalarini ba'zi hollarda ishlata olishadi. Ularning IT ko'nikmalari 50-70% darajasida bo'lib, ta'lim jarayonida IT texnologiyalarini 50-70% darajada qo'llaydilar. Bu o'qituvchilarning ta'lim samaradorligini 60-75% darajaga oshiradi.

➤ **Past ko'nikmalarga ega o'qituvchilar:** Past darajadagi o'qituvchilar IT texnologiyalarini cheklangan darajada ishlatadilar. Ularning IT ko'nikmalari 30-50% bo'lib, ta'limda IT texnologiyalarini 30-50% darajada qo'llaydilar. Bu o'qituvchilarning ta'lim samaradorligini 40-60% darajaga oshiradi.

➤ **IT ko'nikmasiz o'qituvchilar:** Bu guruhdagi o'qituvchilar IT texnologiyalarini ishlata olishmaydi. Ularning IT ko'nikmalari 0-20% bo'lib, ta'limda IT texnologiyalarini 0-20% darajada qo'llaydilar. Natijada, bu o'qituvchilarning ta'lim samaradorligi faqat 20-40% darajasida qoladi (1-diagramma).

1-diagramma. O'qituvchilarning IT ko'nikmalari va ta'lim samaradorligi.



Bu tadqiqotning asosiy maqsadi o'qituvchilarning axborot texnologiyalari (IT) ko'nikmalarini rivojlantirish va bu jarayonning ta'lim sifatiga ta'sirini tahlil qilish edi. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasini o'rganish, ular uchun samarali o'quv dasturlarini ishlab chiqish va shu orqali ta'lim jarayoniga IT texnologiyalarining integratsiyasi bo'yicha takliflar berildi.

Tadqiqotning asosiy natijalaridan biri shundan iboratki, ko'plab o'qituvchilar o'zlarining IT ko'nikmalarini oshirishni istagan bo'lsalar-da, ular uchun to'siqlar mavjud. Bu to'siqlar o'qituvchilarni raqamli texnologiyalarni qo'llashga qiziqtirganligi bilan bog'liq bo'lib, asosan ta'lim muassasalaridagi texnik infratuzilma va malakali mutaxassislarning etishmasligi bilan izohlanadi [11]. Shuningdek, o'qituvchilarning aksariyati, ayniqsa kichik shaharlardagi yoki qishloq hududlaridagi pedagoglar, Internetga ulanishda va raqamli

qurilmalarda muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday holatlar raqamli savodxonlikning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'qituvchilarni IT texnologiyalarini o'rganishga rag'batlantirishda o'quv dasturlarining samaradorligi muhim rol o'ynadi. Maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam berdi. Dastur o'qituvchilarni nafaqat texnik jihatdan tayyorlash, balki pedagogik yondashuvlarni ham takomillashtirishga yo'naltirilgan edi. Shuningdek, o'qituvchilarning ta'lim jarayonida IT texnologiyalaridan foydalanishdagi tajribalari va bilimlari sezilarli darajada oshdi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirdi va ularning ta'limdagi ishtirokini yaxshiladi.

Shuningdek, tadqiqotda aniqlangan ba'zi muammolar, masalan, texnik imkoniyatlar va o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, kelajakda hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar sifatida ko'rsatilgan. Ta'lim tizimida IT ko'nikmalarini oshirish bo'yicha davlatning yordami, masalan, malaka oshirish dasturlarini yanada kengaytirish va o'quv muassasalarining texnik bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, o'qituvchilarning IT ko'nikmalarini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida, ta'lim jarayonining yanada interaktiv va samarali bo'lishiga erishildi. Biroq, bunday yondashuvning muvaffaqiyati to'liq o'qituvchilarning qiziqishi va o'zgarishlarga tayyorligiga bog'liq. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan IT treninglarining kengaytirilishi va ularni ta'lim muassasalarida amalga oshirish bu jarayonning asosiy qadamlaridan biri bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, tadqiqotda boshqa davlatlardagi muvaffaqiyatli tajribalar, xususan, Finlyandiya'dagi "Teach the Teachers" dasturining

samaradorligi ta'kidlandi. Bu dasturdan o'rganiladigan tajriba, o'qituvchilarning IT ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali yondashuvlarni taklif etadi. Tadqiqot shuningdek, o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishda davlatning yordami, masalan, malaka oshirish dasturlarini kengaytirish va texnik infratuzilmani yaxshilash zarurligini ko'rsatdi.

Kelajakda o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishni davom ettirish uchun o'quv dasturlarining sifati va ularni amalga oshirishda yuzaga keladigan to'siqlarni bartaraf etish muhimdir. Bu orqali ta'lim tizimi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashib, o'quvchilarning ta'limda muvaffaqiyatini oshirishga erishish mumkin. Shunday qilib, o'qituvchilarning IT ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ANNA SEREZHKINA. "Digital skills of teachers". Kazan national research technological university-2021.
2. XURRAMOV MANSUR. "Improving the technical skills of modern teachers and increase their preparedness for teaching". Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti-2020.
3. ALLAN B. DE GUZMAN, CAMILLA J. VIZCONDE. "IT Entry Knowledge and Skills of University Teachers vis-à-vis their Interest Levels: The Case of the Oldest University in Asia". University of Santo Tomas-2004.
4. JATINKUMAR K. SOLANKI. "Technological Skills for Future Teacher Education". Saurashtra University (State University of Gujarat)-2017.

5. AKBAR TUXTAEVICH GULBOYEV. “O‘qituvchilar kasbiy mahoratini oshirishning pedagogik asoslari”. Buxoro davlat universiteti-2022.

6. ANNE LOHR, MICHAEL SAILER, MATTHIAS STADLER, FRANK FISCHER. “Digital learning in schools: Which skills do teachers need, and who should bring their own devices?”. Ludwig-Maximilians-Universität, University of Augsburg, Institute of Medical Education-2024.

Foydalanilgan internet resurslar:

7. ScienceDirect.com
8. ResearchGate
9. Progressive Academic Publishing
10. SCIRP
11. Buxoro Davlat Universiteti
12. RAIJMR

TUT IPAK QURTI VA KAPALAGINING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. QISHLOQ XO‘JALIGIDA ULARNI QO‘LLASHDAGI MUAMMOLA VA YECHIMLARI

Axmedov Anvar Tursunboyevich

Zoologiya va biokimyo kafedrasi o‘qituvchisi

E-mail: anvar123@gmail.com

G‘ulomjonova Nodiraxon Ibrohimjon qizi

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Tut ipak qurtining sanoatdagi ahamiyatini, uning tuzilishini va iqtisodiyot uchun foydali hamda shu bilan birga zararli

tarafllari o'rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi shundaki tut ipak qurti kapalagining nafaqat foydali tomonlarini balki iqtisodiyot va ekologiyaga keltirayotgan zararli tomonlarini o'rganish hamda ularni bartaraf etish.

Kirish

Tut ipak qurti kapalagi insoniyatning qadimdan beri ahamiyta berib kelayotgan noyob hashorat bo'lib ipak tolasining asosiy manbayi hisoblanadi Bu ipak yuqori sifatli kiyim- kechak maishiy buyumlar va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Ushbu hashoratning iqtisodiyotdagi ahamiyati xususan to'qimachilik sanoatidagi ulushi nihoyatda katta. Tut ipak qurti kapalagi biologiyasi va uning hayot siklini chuqur o'rganish, qishloq xo'jaligida samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli tut ipak qurtini parvarish qilish va undan samarali foydalanish ko'plab mamlakatlarda iqtisodiyotning muhim yo'nalishiga aylangan. Ushbu maqolada tut ipak qurti kapalagi biologik tuzilishi, uning iqtisodiyotdagi o'rni, qishloq xo'jaligidagi qo'llanilishi va ushbu sohadagi dolzarb muammolarni tahlil qilishga harakat qilinadi. Shu bilan birga mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ham keltiriladi.

Tut ipak qurti kapalagining iqtisodiyotdagi foydali va zararli tomonlari, ekologik ahamiyati. Tut ipak qurtining iqtisodiyotdagi foydali tomonlari juda ko'p. Mutaxassislarining ma'lum qilishlaricha, bir litr g'umbak yog'i jahon bozorida 200 dollar atrofida baholanadi. Hozirga qadar ipak qurti g'umbagining bir kilogrammi parrandachilik, baliqchilik sanoati korxonalari uchun ozuqa sifatida 3-4 ming so'mga sotilgan. Ushbu mahsulot aralashmasidan tayyorlangan tibbiyot surtmalari jarrohlikdan keyin hosil bo'ladigan chandiqlarni yo'qotish, soch to'kilishini oldini olish xususiyatiga ega. Undan

kosmetologiya sohasida, sovun, shampun ishlab chiqarish sanoatida keng foydalanish mumkin.

Ipak ishlab chiqarishda tut ipak qurti asosida ishlab chiqariladigan ipak to'qimachilik sanoatining asosiy xom ayishiyosidir. Ipakning yengilligi mustahkamligi va yorqinligi uni kiyim kechak, pardalar, gilamlar va boshqa mahsulotlar tayyorlashda qadrlanadi. Ipak ishlab chiqarishning foydali tomonlari masalan; 1) Yuqori daromad - ipak qimmatbaho mahsulot bo'lib ichki va tashiq bozorda talab katta. 2) Bandlikni taminlash - qishloq aholisining bo'sh ish o'rinlarini yaratadi. 3) Eksport daromadi - ipak mahsulotlari mamlakatga valyuta olib keladi. 4) Ekologik toza ishlab chiqarish - ipak tabiiy mahsulot bo'lib, qayta ishlanishi osson. 5) Tibbiyot va kasmetikada foydalanish - ipak oqsillari terini parvarish qilishda qo'llaniladi. 6) Innovatsion sanoat mahsulotlari - ipakning mustahkamligi va elastikligi uni yuqori texnologiyali mahsulotlarda, jumladan tibbiy iplar, bioimplantantlar va katta aviasozlik materiallari uchun ishlatishga imkon beradi. 7) Qishloq xo'jaligini rivojlantirish - ipakchilikda foydalaniladigan tut daraxtlari tuproqni erro'ziyadan himoya qiladi, ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi va qishloq xo'jaligida yangi agroekologik imkoniyatlar yaratadi. 8) Jarrohlik tikuv iplarini ishlab chiqarish - tut ipak qurtidan olinadigan tibbiyot ipi tabiiyligi va allergiya keltirib chiqarmasligi tufayli tibbiyotda yuqori qadrlanadi.

Ipak qurtining nafaqat sanoatda balki ijtimoiy hayotimizda ham o'rni judda katta lekin shu bilan bir qatorda tut ipak qurti kapalagining xo'jalikdagi zararli tomonlari ham bor. Masalan; Hosildorlikka ta'sir qiladi - Tut ipak qurtlari atrof muhitga sezgir bo'lib, harorat o'zgarishi, namlik va kasalliklardan ta'sirlanishi mumkin. Agar iqlim sharoitlari yoki kasalliklar tufayli hosil yo'qolsa ishlab chiqarish kamayadi va

sanoatda zarar sezilarli holatga kelishi mumkin. Sun'iy ipak bilan raqobat - poliestar va boshqa sun'iy matolar ipakdan ancha arzon va osson ishlab chiqariladi. Shu sababli bozordagi tabiiy ipakning ulushi kamayib borishi mumkin bu esa ipak ishlab chiqaruvchilar uchun iqtisodiy zarar keltirishi mumkin. Kasallik zararkunandalarga moyillik - tut ipak qurtlari turli kasalliklar va viruslarga chidamsiz. Agar ipak qurti kasalliklarga chalinib nobud bo'lsa ipakning sifatini buzilishiga va ishlab chiqarishga zarar keltirishi mumkin.

Ipak ishlab chiqarishdagi kimyoviy moddalarning salbiy ta'siri - ipak tolasini yumshatish va bo'yash uchun ko'plab kimyoviy moddalar ishlatiladi. Ushbu moddalarni noto'g'ri utilizatsiya qilinishi atrof muhit va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin.

Ekologik muammolar - ipak ishlab chiqarish jarayonida ko'p miqdorda suv ishlatiladi va chiqindi suvlar atrof muhitga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek ipakni qayta ishlashda ishlatiladigan kimyoviy moddalar ekologik ifloslanishga sabab bo'lishi mumkin.

Tut ipak qurtining tana tuzilishi va fiziologiyasi. Ipak qurti gavdasi bosh ko'krak va qorin qismlaridan iborat. Qurt yoshligida uning boshi qora tusda bo'lib yoshi kattalashib qurt o'sgani sari oqarib boradi va 5-yoshida qo'ng'ir jigarrang tusga kiradi. Boshining ustki qismida mo'ylov, og'iz va ipak chiqaruvchi naychasi ikki yon tomonlarda ko'zlar joylashgan. Qurt boshining ostki tomonida og'iz bo'shlig'i va uning ikki yonida arra tishli ustki jag' bo'lib shu jag'lar vositasi bilan bargni kemiradi. Qurt ko'krak qismi 3 bo'g'imdan iborat. Har bir bo'g'imning ostki qismida bir juftdan oyoqchalari joylashgan. Qorin ipak qurti tanasining birmuncha uzun qismi bo'lib, 9 bo'g'imdan iborat. 8-bo'g'imning ustki tomonida etdor pixi 9-bo'g'imda esa orqa chiqaruv teshigi bo'ladi. Ipak qurtining tanasi 9 juft nafas yo'li teshigi bor. Bu

nafas yo'llari birinchi ko'krak bog'imining hamda qorin qismidagi oldingi 8-bo'g'imining yon tomonlarida tuxum shaklidagi dog' ko'rinishida joylashgan. Ipak qurtida 8 juft oyoq bo'ladi, bundan 3 jufti ko'krak bo'g'imlarida va 5 jufti qorin bo'g'imlarida joylashgan. Ipak qurtlari Bombycidae va Saturnidae oilalariga bo'linadi. Bombycidae oilasiga xonakilashtirilgan tut ipak qurti kiradi. Xonakilashtirilgan tut ipak qurtini 20 ga yaqin turi bor. Ipak qurti tut bargi bilan oziqlanadi. Saturnidae oilasiga esa yovvoyi (eman) ipak qurtlari kiradi. Eman ipak qurti bir yilda bir, ikki, ba'zan uch avlod beradi va eman daraxti bargi bilan oziqlanadi. Xitoy, yapon, hind eman ipak qurti turlari mavjud. Tut ipak qurti tut bargi bilan oziqlanadi va bir yilda necha avlod berishiga qarab monvoltin (bir avlod), biovoltin (ikki avlod) va polivoltin (ikkitadan ortiq avlod beradigan) zotlariga bo'linadi. Ipak qurtlari o'z rivojlanishida tuxum, qurt, g'umbak va kapalak bosqichlarini o'taydi, so'ng kapalaklik davrida ipak qurti batamom voyaga yetgan bo'lib, urchish qobiliyatiga ega bo'ladi. Uning qurtlik davri 5 yoshdan iborat. 1 yoshdan 2-yoshga o'tishda po'st tashlaydi. Ipak qurti bo'yi 1-yoshi boshida 3—4 millimetr bo'lib, 5-yoshi oxirida 85—88 millimetrga; vazni 0,0004 grammdan 3,5—5,0 grammga yetadi. Bitta qurt hayotida 20—25 gramm barg (75—80 foizini 5-yoshida) yeydi. Ipak qurtining teri qoplami 3 ta asosiy kutikula gipodema va bazal memberana qatlamidan iborat. Kutikula ham o'z navbatida 3 ta qavat: tashqi-epikutikula, o'rta-ekzokutikula va ostki endokutikuladan iborat. Kutikula ostki qavatining tagida tirik hujayralar qavati- gipoderma yotad. Gipoderma osti 15 juft po'st tashlash bezlari joylashgan bo'lib ular ko'krak bo'g'imlarining har birida va qurtning 8-bo'g'imida 2 juftdan qorinning oldingi 7 ta bo'g'imida 1 juftdan joylashgan. Ipak qurtlari asosan oddiy; zebrasimon, gilamsimon, ko'p oysimon, baxmalsimon va oq rangli bo'ladi.

Muskullar. Ipak qurtlarda to'g'ri chiziq bo'ylab muskul tolalari paylar orqali terining ikki qarama-qarshi nuqtasiga birlashgan. Qurtda hammasi bo'lib 268 ta ko'ndalang, 168 ta qiyshiq va 110 ta uzunasiga ketgan muskul bo'lib, ularning ish faoliyati o'zaro bog'liq.

Ovqat hazm qilish sistemasi; Ipak qurtining ovqat hazm qilish organi og'iz va orqa chiqaruv teshigi o'rtasida joylashgan to'g'ri keng kanaldan iborat bo'lib, ichak deb ataladi. Ichagi old, o'rta va orqa ichak bo'ladi. Oziq moddalar ipak qurti organizmiga bir necha bosqichda kiradi; tut bargi bo'lagini kemirib olish; oziqni tomoq orqali ichakka o'tkazish; hazm qilish; o'zlashtirish; qurt tanasiga tut bargi orqali oqsillar, yog'lar va uglevodorodlar kiradi. Ovqat hazm qilish vaqtida maxsus moddalarning ichak tarkibidagi fermentlar ta'sirida ro'y beradi. Qon aylanish sistemasi; Xashoratlarning qon aylanish sistemasi ochiq holda bo'ladi. Ularda qon gavda bo'shlig'ining organlar oralig'ini to'ldirib, yuvib turadi. Qon suyuqligi suyuq holda to'qimadan iborat bo'lib gemo'limfa deb ataladi. Ipak qurtida gemolimfaning tana bo'ylab harakati, yelka tomonida joylashgan naysimon o'rgan bel naychasining urushi natijasida sodir bo'ladi. Bel naychasi yoki yelka qon tomirining oldingi qismi - o'rta va keyingi qisqarib - kengayuvchi kameralaridan tuzilgan qismi "yurak"ka bo'linadi.

Nafas olish sistemasi; Tut ipak qurti ham boshqa hashoratlarning singari traxeya sistemasi orqali nafas oladi. Asosiy traxeya qurt tanasiga parallel holda yon tomonlarda joylashgan uning tashqariga ochiladigan teshiklari mavjud. Bu teshikchalar nafas oluvchi teshikchalar deb ataladi. Teshikchalar ko'krakning birinchi va qorin qismining sakkizinchi bo'g'imlarida joylashgan.

Nerv sistemasi; Xashoratlarning nerv sistemasi barcha bo'g'imoyoqlilarga xos qorin zanjiri tipida tuzilgan. Nerv sistemasi nerv

hujayralarini- neyronlar tashkil etadi. Chiqarish va ichki sekretiya organlari; Xashorat organizmida moddalar almashinish jarayonida gaz, bug‘, suyuq va qattiq holatdagi keraksiz moddalar xosil qiladi. Gazsimon moddalar nafas organlari orqali tashqariga chiqariladi. Suyuq va qattiq holdagi keraksiz moddalar maxsus chiqaruvchi organlar orqali hazm bo‘lmagan va sindirilmagan ovqat qismlari va boshqa moddalar ichak yo‘li orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.

Qurtlik davri monovoltin zotlarda 25—27 kun, bivoltin zotlarda 20 kun. Shu davrda qurt 4 marta po‘st tashlab, 5-yoshni o‘taydi va pilla o‘rashga kirishadi. Pilla o‘rash 3 kun davom etadi. Qurt pilla ichida g‘umbakka aylanadi. G‘umbaklik davri haroratga qarab, 2—3 hafta davom etadi. G‘umbak tanasi duksimon bo‘lib, xitin bilan qoplangan, harakatlanmaydi. Rivojlanish davom etib, g‘umbak kapalakka aylanadi. Kapalak og‘zidan maxsus suyuqlik chiqarib, pillaning bir uchini ho‘llaydi. Kapalak pillaning yelim moddasi erigan o‘sha joyni oyoqlari bilan so‘rib teshik ochadi va tashqariga chiqadi. Kapalak havo haroratiga qarab, 5—10 kun yashaydi. Erkak va urg‘ochi kapalaklar bir-biri bilan juftlashganidan keyin urg‘ochi kapalak tuxum tashlaydi.

Ularni qo‘llashda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf qilish choralari. Ipak qurti o‘zining fiziologik tuzilishi jihatidan nozik jonzotlar qatoriga kiradi. Keyingi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tarmoqda bir qator yutuqlarga erishildi. Ipak qurtini parvarishlash, undan pilla olishgacha bo‘lgan davr murakkab va qisqa jarayon bo‘lib, doimiy ravishda diqqat e‘tiborni, agrotexnik tadbirlarga rioya etilishini talab etadi. Agrotexnik tadbirlar birlamchi davrda ipak qurti urug‘ini tayyorlash va uni parvarishlash uchun mos bo‘lgan joylarni tanlash, har xil hasharotlar va kasalliklardan holi bo‘lishi uchun dizenfeksiya tadbirlarini amalga oshirishdan boshlanadi.

Bugungi kunda pillachilik sohasida ipak qurtining bir nechta kasalliklari hududlarimizda kam bo'lsada uchrab turibdi. Ma'lumotlarga ko'ra, bir dona ipak ko'ylak ishlab chiqarish uchun 2 ta tut daraxtidan oziqlanuvchi 2000 ta ipak qurti kerak bo'ladi. Ipak iplarini olish nafaqat texnologiya balki inson mehnatiga, balki tabiiy jarayonlarga ham bog'liq. Ipak qurti kapalagi 500 tagacha tuxum qo'yadi. 20-25 kundan so'ng ipak qurtlari tuxumdan chiqadi, ular 30 kun davomida tut barglari bilan oziqlanadi. Barglarni yeyish jarayonida, ipak qurtlarining vazni 10 ming barobargacha ortadi.

Ipak qurti o'z atrofida pilla to'qishni boshlaydi. 48 soat ichida ipak qurti 1500 metr atrofida ipak ipini to'qiydi. Ipakchilar pillalarni kapalaklar paydo bo'lgunga qadar terib olishi lozim, aks holda ular ipak bilan oziqlanib, uni sifatsizlantirishi mumkin. Ma'lumki, O'zbekistonda sariq kasalligi kutilmaganda tarqalishi, tut ipak qurtini boqish davrida, ularni pilla o'rashga yaqin 5- yoshida yoppasiga qirilib ketish holatlari yuz bergan. Bu kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar: qurtxonadagi xarorat va namlikni talab qilingan darajada ushlab turilmasligi hamda tut bargining sifat darajasi pastligi. Ipakchilik sohasiga katta zarar yetkazuvchi, hosildorligiga, navdorligiga, pilla sifatiga salbiy ta'sir etuvchi kasallikning yana bittasi, bu pebrinadir. Sariq kasalligi tut ipak qurtining eng xavfli kasalliklaridan biridir. Bu yadro poliedrozi yoki xalq tilida "sariq kasalligi" deb nomlanadi. Sariq kasalligi ipak qurtini gemolimfa yoki boshqa to'qimalarini yadrosini shikastlaydi. Odatda sariq kasalligi Tut ipak qurtining beshinchi yoshida pilla o'rashidan oldin paydo bo'ladi. Yadro poliedrozini qo'zg'atuvchi virus ko'pincha latent (yashirin) holatda xo'jayin hujayrasi yadrosiga kirib olib, noqulay sharoitda sitoplazmaga o'rnashib, kasallikni ommaviy qo'zg'atishi mumkin.

Qurt boqish davrida juda issiq yoki sovuq harorat, yuqori namlik, ozuqa tanqisligiga uchrasa, bunday qurtlar beshinchi yoshida yoppasiga o'lib ketishi mumkin. Yashab qolgan taqdirda ham oziqlanmaydi, natijada pilla o'ray olmaydi, so'kchaklardan yerga to'kiladi. Hindistonlik olimlar Arti Sharma (Phd) , Palvi Sharma (Phd), Jyoti Thakur (Phd), Murali S va Kamlesh Bali (Phd) bergan ma'lumotlarga ko'ra, Tut ipak qurti, *Bombyx mori* (Linnaeus) (Lepidoptera: Bombycidae) ipakchilik uchun xonakilashtirilgan iqtisodiy ahamiyatga ega hasharotdir. Pilla yetishtirish kamayib ketishining asosiy sabablaridan biri kasalliklar bo'lib, ularning 30 foizini tashkil qiladi.

Viruslar, bakteriyalar, zamburug'lar va protozoalardan kelib chiqqan bir qator kasalliklarga ta'sir qiladi. Iqtisodiy zarar keltiradigan ipak qurti kasalliklari orasida eng ko'p yo'qotish virusli kasalliklarga to'g'ri keladi, bu har yili hosilning umumiy yo'qotilishining 70 foizini egallaydi. Ipak qurtining virusli kasalliklari inklyuziv va inklyuziyasiz turlardan iborat. Inklyuzion virus kasalliklari tipik inklyuziya tanachalarini hosil qiladi. Ular yadro poliedrozi va sitoplazmatik poliedroz bo'lib, ularni oddiy mikroskop orqali aniqlash osonroq. Inklyuziv bo'lmagan turi yuqumli flacheriya va densonuklyozdan iborat bo'lib, ularni faqat elektron-lyuminescent mikroskopiya va serologik testlar orqali aniqlash mumkin. Ipak qurtida virusli kasalliklar bilan bog'liq tadqiqotlar bo'yicha ma'lumotlar to'plash ularni kuzatish, oldini olish va nazorat qilish uchun juda foydali. Biroq, umuman olganda, ipak qurtining turli kasalliklari va xususan, butun dunyoda virusli infeksiyalar bo'yicha bunday ma'lumotlarni to'plash juda cheklangan.

Kasal hayvonning patologik holatini patogenning o'zaro ta'siri natijasida kelib chiqadigan alomatlar bo'yicha baholash mumkin, bu esa o'z navbatida hujum darajasiga, kasalliklarning rivojlanishiga,

metabolik modulyatsiyaga, fiziologik moslashuvlarga, molekulyar mexanizmlarga va ipak qurtining himoya immun tizimiga bogʻliq. Tut ipak qurti Yadro poliedrozi kasalligiga uchraganda, teri qoplaminig segmentlar qismi shishadi, yaltiroq boʻlib qoladi va ular moylangan qogʻozni eslatadi. Sariq kasalligiga uchragan qurtlarning terisi oson yirtiladi va ulardan xira oqqish yoki sargʻish suyuqlik oqib chiqadi. Kasallik diagnostikasi mikroskopik tekshiruv asosida amalga oshiriladi. Kasal qurtlarni ezganda yoki gemolimfadan tayyorlangan pereparatlar orqali poliedrlarni koʻrish mumkin. Infektsion kasalliklar -patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonvorlar va h.k.) ning qurtlar organizmiga kirib koʻpayib, zararli taʼsir koʻrsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Kasal qurt organizmida shu kasallikni vujudga keltiruvchi maxsus mikroob borligi va kasallikning qurtdan qurtga yuqishi infeksiyon kasalliklarning asosiy belgilaridir. Infeksiyon kasalliklar kelib chiqishi organizmga kirgan patogen mikroblarning soniga, virulentligiga, infeksiyaga moyilligiga, shuningdek, mikroob atrofdagi tashqi muhit sharoritiga (noqulay sharoitda mikroobning virulentligi kamayadi) bogʻliq. Infeksiyon kasalliklarning paydo boʻlishi va oʻtishida ijtimoiy sharoit (qurtxonalar, barg saqlanadigan joylar) hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sharoitning taʼsiriga qarab infeksiyon kasalliklarning turli shakllari namoyon boʻladi. Tut ipak qurtining kasallikka chidamliligi, qarshiligiga taʼsir etuvchi omillar ekologik xarakterda boʻlishi mumkin. Tut ipak qurti uchun gigrotermik optimum deb ataluvchi koʻrsatgich boʻlib (harorat va namlikning optimal koʻrsatgichi) unga amal qilinsa, qurtlarning hayotchanligi va rivojlanishi yuqori darajada boʻladi. N.V.Petrova, V.O.Golovko, A.Z.Zlotin ning aytishicha "Silk" ekologik jihatidan toza biologik stimulyatorlarni qurt boqishda qoʻllash

lichinkalar hayotchanligini 10-11 foizga oshirishga sabab bo'lgani aniqlangan. S.Xomidiy, Sh.R.Umarov larning ta'kidlashicha tut ipak qurtlariga oqsil-peptid asosga ega bo'lgan biologik faol D 4-2-2 va D 4-2-3 preparatlarini bargga qo'shib berilganda pilladagi ipakning o'rtacha vazni 529 milligramdan 582 milligrammga ko'payganini takidlaydilar. Xitoylik olimlarning tajribasida sun'iy oqsil moddasini tut ipak qurtining rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlagan tajribalari yakunida 0,5 va 1,0% li sun'iy oqsil moddasini suvdagi eritmasi bilan ipak qurtlari boqilganda uning qurtlik davri 4-6 kungacha qisqarib, hayotchanligi 3,1-4,1% ga yuqori bo'lishiga erishilgan. Natijada har bir quti qurtdan olinadigan hosildorlik 3,5-4 kilogrammga oshgan. Xitoylik olimlar Bingbing Wang, Liang Jiang, Huizhen Guo, Qiang Sun, Yumei Wang, Enyu Xie, va Qingyou Xia tomonidan, Bombyx mori nukleopolihedrovirus BmNPV ga qarshi antiviral preparatlarni skrining qilish uchun PI3K-Aktga qaratilgan birikmalarini umumlashtirildi. va keyingi tahlillar uchun quyidagi 7 ta dori-darmonlar tanlandi: afuresertib, AZD8835, AMG319, HS173, AS605240, GDC0941 va BEZ235. Tut ipak qurtining rivojlanishida haroratni nazorat qilish usullarini ishlab chiqish ularning shunday genetik modellarini olishga imkon berdiki, ularning o'zi xaroratga chidamliligini genetik asoslarini tezlashtiradi bu bilan esa turli omillarni shu jumladan infektsiyalarni xususiy va noxususiy chidamlilikga ta'sir etish muammolarini yechishni tezlashtiradi. Golovko V.A. Tojikiston olimlari Salimjonov S, Ruziyev T.B Jurabayev D. tut ipak qurti urug'iga inkubatsiyaga qo'yishdan oldin Biovit-80 biologik faol moddasi va natriy gidrokorbanati bilan ishlov berilsa, urug'larni jonlanishi 4,2 va 2,5% ga oshirishini aniqlashdi. S.Salimjanov, X.Juliyevaning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Tut ipak qurtlarini sistematik ravishda Biovit-80 moddasini 0,5% eritmasi bilan

ishlov berilgan tut barglari bilan bahorgi qurt boqish mavsumida boqilsa, qurtlarning xayotchanligi 96,2% ga ko'tarilgan bo'lsa, nazorat variantida esa bu ko'rsatkich 87,4% tashkil etdi. Azarbayjon olimlari Shukyurlu Yusif Ganjibalaning o'g'li, Shukyurova Yusif Zarintochning qizi (2017) Tut ipak qurtining gemolimfasini aminokislot tarkibini o'zgarishini o'rganishgan. Tadqiqotni afzalligi shundan iboratki, β -eliminirovallashi jarayoni fermentativ gidroliziga nisbatan tezroq amalga oshishi aniqlandi. Bu degani, tut ipak qurtlarini n-CA preparati bilan qo'shimcha ozuqlantirilsa oshqozonda xazm bo'lish jarayoni yaxshilanadi, qurtlarni o'sish tezligi va rivojlanishi oshadi. .Ozarbayjonlik olimlar Gujiabidze I., Baramidze N., Khutsishvili M., Tskaruashvili Z (Intern.conference (BASCA) –Spirulina ko'k-yashil suv o'tining tut ipak qurtlarini yadro poliedrozi kasalligiga chidamliligini oshirishida samaradorligi aniqlangan Oldingi yillarda O'zR FAsiga qarashli O'simliklarni kimyoviy moddalari instituti tomonidan bir necha xil dorivor o'simliklaridan seskviterpen laktonlari ajratilgan. Bular yakka laktonlar va seskviterpen laktonlarini jamlangan vositasidir. Ajratilgan 14 xil vositalar bilan pebrina (nozematoz) kasali bilan kasallangan urug'larga ishlov berilgan. Tadqiqotda kasallangan tut ipak qurti urug'lariga ishlov berish natijasida yakka laktonlarga nisbatan jamlangan seskviterpen laktonlarni samaradorligi ancha yuqoriligi aniqlandi. Kashkarova L.F., Muxamatxonova R.F., Zakirov S.X., Shamyaynov I.D., Zakirov S.X., Shamyaynov I.D.Tadqiqotlarning asosiy maqsadi tut ipak qurtining sariq kasali virusiga chidamli bo'lganlarni aniqlashdan iborat. Shuning uchun tadqiqotlar davomida, sariq kasaliga induksiya qilingandan so'ng birinchi navbatda yuqori jonlanishga ega tuxumlarni va yuqori hayotchanlikga ega qurtlarni aniqlaymiz va tanlab olamiz. Quyida bayon qilingan oilaviy qurt boqishi amalga oshirildi.

Quymalar o'z oilaviy raqamlari bilan inkubatsiyaga qo'yildi va ularning jonlanishi aniqlandi. Qurtlar chiqqandan so'ng, uslubiyat bo'yicha qurtlarni boqish odatdagidek seleksion boqish usuli bilan olib borildi. II-yoshning birinchi kuni har qaysi oiladan 250 tadan qurtlar sanab olindi. Sariq kasali latent virusi sovutish induksiyasi qurtlarni IV-yoshining birinchi kuni amalga oshirildi. Bunda qurtlar 3+4 C° haroratda 20 soat davomida ushlab turildi. Induksiyadan so'ng qurtlarni optimal sharoitda an'anaviy usul bilan parvarishlashi davom ettirildi. Sovutish induksiyasining ta'siri natijasini pilla o'rash va papilonajdan so'ng baho berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.M.Rodjestvenskiy, Z.T.Toirov, A.A.Sheveleva. <<Tut ipak qurti biologiyasi>>. Toshkent 1965 y.
2. Ahmedov N , Murodov S. <<Ipakchilik asoslari>>. "O'qituvchi" 1998 y.
3. Abdurahmonov A, K.M. Rodjestvenskiy. <<Ipak qurti naslchiligi va urug'chiligi>>. "Mehnat qahramoni" 1991 y.
4. N Ahmedov, S Murodov. <<Ipak qurti texnologiyasi va boqish agrotexnikasi>>.Toshkent 2004 y.
5. Abdullayev U. <<Tutchilik>>, <<Mehnat>>. Toshkent 1991 y.
6. Rahmanberdiev K, Muhammadjonova Sh.Tut seleksiyasi <<Mehnat>> 1988 y

PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

Allaniyazov Parakhat Ataniyazovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada parrandachilik tarmog‘i samaradorligini oshirishda tarmoqni rivojlantirish orqali kishilar ehtiyojini har tomonlama to‘laroq qondirish, shu yo‘l bilan ular salomatligini yanada yaxshilash kabi muhim va dolzarb masalalar tahlil qilingan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Аннотация: В данной статье проанализированы и сделаны соответствующие выводы по таким важным и актуальным вопросам, как повышение эффективности птицеводческой отрасли, всестороннее удовлетворение потребностей людей путем развития отрасли и тем самым дальнейшее улучшение их здоровья.

Abstract: This article analyzes important and urgent issues such as increasing the efficiency of the poultry industry, more comprehensively meeting people's needs through the development of the industry, thereby further improving their health, and draws appropriate conclusions.

Kalit so‘zlar: Tovuq, ozuqa, go’sht va tuxum, An’anaviy, Savdo, bozor, Daromad, investitsiya, texnologiya, qishloq xo‘jaligi, fermer, Veterinar,

Ключевые слова: Курица, корм, мясо и яйца, Традиционный, Торговля, рынок, Доход, инвестиции, технология, сельское хозяйство, фермер, Ветеринар,

Keywords: Chicken, feed, meat and eggs, Traditional, Trade, market, Income, investment, technology, agriculture, farmer, Veterinar,

Natijada parrandachilik keng miqyosdagi ixtisoslashuv sifatida shakllandi va uni to'liq anglash uchun o'ziga xos tarmoqlarini qarab chiqish talab qilinadi. Shu sababdan parrandachilikni faqat tovuq, kurka yoki g'oz boqish, mahsulot yetishtirish sifatida qarash biroz noto'g'ri bo'ladi, chunki parrandachilik bugungi kunda turli sohalarni o'zida jamlagan keng ko'lamga ega bo'lgan agrobiznes hisoblanadi. Ya'ni parrandachilikning taraqqiyoti unga yondosh bo'lgan bir qator sohalar, yo'nalishlarni ham rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ushbu sohalarni jamlagan holda parrandachilik sanoati sifatida talqin qilish mumkin. Olingan nazariy bilimlarni umumlashtirgan holda parrandachilik sanoatining tarkibiy qismi sifatida quyidagilar keltirib o'tildi:

- Tovuq yetishtirish (inkubatorlik bilan shug'ullanish);
- Go'sht yetishtirish;
- Parrandalar uchun ozuqa ishlab chiqarish;
- Parranda bozorini o'rganish va konsalting;
- Tuxum ishlab chiqarish;
- Veterinar xizmatlarini ko'rsatish.

Parrandachilikda keng tarqalgan tur sifatida tovuq yetishtirish olib qaraladi, Ya'ni bunda asosiy e'tibor parranda mahsulotlari yetishtirish emas balki ularni ko'paytirish bilan shug'ullanish nazarda tutilgan. Parrandachilik sanoatini rivojlanishi quyidagi ettita yo'nalish yaxlitligini ta'minlashni talab qiladi.



Parrandachilik sanoatining rivojlanish bosqichlari

Parandachilikni yuqori sur'atlardagi o'sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim manba sifatida qaralishi, sohaning bir qator o'ziga xosliklari bilan bog'liq hisoblanadi. Jumladan, parandachilik bilan shug'ullanish o'ziga xos holda kapital talab qiladi, Ya'ni bunda fermaning ko'lami, joylashuvi va qo'llaniladigan boshqaruv texnologiyalari muhim hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aslida parrandachilikning keskin rivojlanishi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi rolini oshishi sohani boshlash uchun kam kapital talab qilish bilan bog'liq hisoblanadi. Ya'ni, bunda an'anaviy usulda parrandachilik bilan shug'ullanish muhim ahamiyat kasb etib, bu usulda hech qanday texnika, qo'shimcha bino va sharoitlar talab qilinmaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki parrandachilik bilan sanoat usulida shug'ullanilganida joylashuv joyi va binoning tuzilishi alohida ahamiyatga ega bo'lgani holda muvaffaqiyatni ta'minlash garovi bo'lib xizmat qiladi. Agarda parrandachilik go'sht yetishtirishga qaratilgan bo'lsa, u holda xo'jalikni yer nisbatan ko'p va arzon bo'lgan, ammo aholi zichligi yuqori hududda joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Joylashuv va binoni tanlashda parrandachilik bilan shug'ullanishda vujudga keladigan muammolarni hisobga olish, Ya'ni maydonni kengligi, binoda havoni yangilash imkoniyatlari va isitish tizimi kabilarni hisobga

olish lozim. Shu bilan birga fermadan chiqadigan axlatni va uning aholi yashash hududiga nisbatan yetarli darajada uzoqligini ta'minlash talab qilinadi.

Shu sababdan parrandachilik fermer xo'jaliklari uchun joy va binoni ta'minlashda yem-hashak bilan ta'minotchilarning mavjudligi, suv ta'minoti va chiqindilarni yo'q qilish tizimining mavjudligini hisobga olish lozim. Chunki, oziqlantirish eng muhim muammo bo'lib jami xarajatlarning taxminan 70 foizini tashkil qiladi.

Parrandachilik bilan shug'ullanishning ustun jihatlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

1. Parrandachilikda kiritilgan investitsiyalarning qaytarish muddatini nisbatan qisqa, chunki mahsulotni yetishtirish kam vaqt talab qiladi;

2. Doimiy daromad manbai bo'lib, ba'zi qishloq xo'jalik faoliyatlaridan farqli ravishda mavsumiylik muammosi mavjud emas;

3. Parrandachilikdagi chiqindi yuqori darajada azotga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi uchun o'g'it hisoblanadi;

4. Parrandachilikda chiqqan patlar sanoatda qo'llaniladi, yostiqlar, chiroyli buyumlar yasash uchun xom-ashyo vazifasini bajaradi;

5. Parrandachilik fermerlari to'liq va to'liqsiz band bo'lish imkoniyatini yaratib beradi.

An'anaviy parrandachilik bilan shug'ullanish qishloq aholisi ko'p bo'lgan, rivojlanayotgan davlatlarda odatda oila uchun qo'shimcha daromad hamda oziq-ovqat manbai bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy parrandachilikning xo'jalikka foydalari quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

1. Oilani tuxumga bo'lgan talabini qondirish manbai;
2. Parrandalardan chiqqan chiqindi tomorqa uchun o'g'it manbai;

3. Tovuqlar uy-xo'jaligi uchun xomyonbob daromad manbayi;
4. Tovuqlar tomorqani tozalash uchun eng maqbul variant;
5. Parrandachilikda xarajatning salmoqli hissasini talab qiluvchi oziqlantirish uchun xarajat talab qilinmaydi;
6. Tovuqlarga g'amxo'rlik qilish nisbatan oson;
7. Tovuqlar hasharotlar va begona o'tlarni tabiiy ravishda nazorat qilishga yordam beradi;
8. Xo'jalikni yangi va uyda yetishtirilgan go'sht bilan ta'minlaydi.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra an'anaviy ravishda parrandachilik bilan shug'ullanishning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, ularga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

An'anaviy parrandachilik bilan shug'ullanishda asosiy e'tibor xo'jalikning talabini qondirishga qaratilgan bo'lganligi, ammo keyingi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini tobora keskinlashishi, parrandachilikda mahsulot yetishtirishning nisbatan tez va samarali ekanligi sohaga yangi texnologiyalarni joriy qilgan holda parrandachilik sanoatini rivojlanatirishni talab qilmoqda. Bu sohada samaradorlikni ta'minlash va sohani intensivlashtirishga xizmat qilmoqda. Parrandachilikka zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda sohani intensivlashtirish bir qator yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda.

**An'anaviy ravishda parrandachilik bilan shug'ullanishning
o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari**

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari
1. Ular uchun ta'minot xo'jalikdan bo'ladi va o'zlarining zaxiralarini oshirishi mumkin.	1. An'anaviy parrandachilikda o'sish sur'ati past bo'ladi.

2. Ular og‘ir sharoitlarda ham omon qolish imkoniyatiga ega bo‘lgan bardoshli qushlardir	2. Bu shaklda tuxum va go‘sh t yetishtirish miqdori nisbatan kam, Ya‘ni samaradorlik past
3. Bu turdagi faoliyatda boshqaruvning talablari muhim emas	3. Odatda tovuqlar notijoriy maqsadlarda boqiladi, asosiy e‘tibor oila ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratiladi
4. Ular sanoat shaklida yetishtirilgan tovuqlarga nisbatan kasallik va parazitlarga qarshi kuchli immunitetga ega	4. Mavjud salohiyatiga qaramasdan bu holatda parrandachilik seleksioner olimlar e‘tiboridan chetda qoladi
5. Bu shaklda yetishtirilgan parranda mahsulotlari nisbatan yuqori sifat va qiymatga ega bo‘ladi.	

Bunda asosiy e‘tibor go‘sh t va tuxum yetishtirish jarayonlarini intensivlashtirish, samaradorlikni oshirishga qaratiladi. Parrandachilikda samaradorlikni oshirish uchun turli texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar parrandalar sonini keskin oshirish, ozuqa va suv isrofgarchiligini kamaytirish hamda parrandachilikda asosiy muammo bo‘lgan kasalliklarni bartaraf etishda qo‘llanilmoqda. Ammo, shuni alohida ta‘kidlash kerakki mazkur texnologiyalarni sotib olish, texnik xizmat ko‘rsatish va ishlatish bilan bog‘liq xarajatlar tufayli kichik fermer xo‘jaliklari, an‘anaviy parrandachilikda ulardan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Parrandachilikda texnologiyalarni joriy qilish modernizatsiya qilingan binolar tizimi, parrandalarni boqish uchun maxsus kataklar,

chiqindilarni qayta ishlash tizimi, haroratni nazorat qilish uskunalari, broyler tovuqlarni boqishga moslanilgan maxsus tizimlar, maxsus suv ta'minoti tizimlari, ekologik nazoratni amalga oshirish uskunalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Parrandachilikda texnologiyalardan foydalanish sanoat shaklida shug'ullanishda qator afzalliklarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jumladan, iqlim o'zgarishlari sababli atrof – muhit bilan bog'liq muammolarining kuchayishi sharoitida texnologiyalardan foydalanish tabiiy zarurat sifatida qabul qilinmoqda.

Texnologiyalarni boshqaruv tizimiga joriy qilish ifloslantiruvchi moddalarni atrof-muhitga tarqalishini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga parrandalarning fiziologik holatini nazorat qilish, binodagi havo sifatini bir me'yorda saqlash, kasalliklarni oldindan aniqlash va ularning butun podaga tarqalishini oldini olishga xizmat qiladi. Mahsuldorlikni oshirish hisobiga yuqori samaradorlikka erishish, mavjud resurslardan optimal foydalanishni ta'minlaydi.

Parrandachilikda texnologik yutuqlardan foydalanish boshqaruv tizimini avtomatlashtirishga xizmat qilmoqda. Avtomotlashtirishni tuxum va go'sht yetishtirish tizimlarida qo'llanilishi sohadagi ijobiy natijalarni ta'minlamoqda. Jumladan, tuxum qo'yish qafaslarida tuxumni avtomatik ravishda olinishi tuxumlarni tovuqlar tomonidan bosib sindirilishi yoki iste'mol qilinishi ehtimolini kamaytiradi. Go'sht yetishtirishda samaradorlikni oshirish uchun qafaslarning avtomatik ravishda ochilib yopilishi, Ya'ni harakatni cheklash asosida energiyani tejash orqali ularni tez voyaga yetishini ta'minlamoqda.

Oziqlantirish jarayonlarini avtomotlashtirish zaruriy miqdordagi yem xashakni kerakli vaqtda berish orqali samaradorlikka erishishga yordam beradi va isrofgarchilikni kamaytiradi. Bu turdagi uskunalar parrandachilikda xarajatning katta qismini tashkil qiluvchi yem xashak

uchun sarflarni kamaytiradi va foyda normasini oshiradi. Boshqa tomondan esa ish haqi xarajatlarini kamaytirib pirovardida ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishiga olib keladi.

Har bir texnologiya bugungi kunda dolzarb bo'lgan ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, suvni tejash va suv uchun xarajatlarni kamaytirish maqsadida tomchilatib sug'orish usuli ishlab chiqilgan. Bu usul xarajatlarni tejash bilan birga parrandalarni ehtiyojlaridan kelib chiqib doimiy suv mavjudligini ta'minlaydi. Bundan tashqari tomchilatib sug'orishdan foydalanish qishloq xo'jalik ekinlari va baliq yetishtirishda ozuqa sifatida afzal ko'riladigan tovuq go'ngini buzilishini oldini oladi.

Tadqiqotlarimiz natijalarini ko'rsatishicha parrandachilik bilan shug'ullanishning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo'lib, bugungi kun talablari va mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda ularning, dastlab ijobiy tomonlari, Ya'ni o'ziga xos ustunliklariga to'xtalib o'tamiz.

1. Parrandachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning global miqyosda oshib borishi;
2. Savdo kanallarining kattaligi, xususan tovuq patiga bo'lgan talabni yuqoriligi, tuxumni iste'moldan tashqari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llanilishi;
3. Daromad olish muddatining qisqaligi, sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida broyler parrandachiligida 30 kunda, tuxum yetishtirishda 120 kunda daromad olib boshlash imkoniyatini yaratilganligi;
4. Ko'pchilik davlatlarda mazkur sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha loyihalarning ishlab chiqilganligi;

5. Parrandachilikda zaruriy sharoitlarni tashkil qilishni nisbatan osonligi, jumladan keng tarqalgan an'anaviy parrandachilikda tovuq boqish uchun binolarga qo'shimcha xarajat minimal darajada talab qilinadi. Faqat sanoat usulida parrandachilik bilan shug'ullanilganida bino va zaruriy sharoitlarni yaratishga xarajatlarni oshishini kuzatish mumkin;

6. Parrandachilik bilan shug'ullanish uchun yer maydonini boshqa yo'nalishlarga nisbatan kam talab qilinishi va boshqalar.

Shu bilan birga parrandachilik bilan shug'ullanishning o'ziga xos qiyinchiliklari va kamchiliklar ham mavjud. Jumladan:

1. Tadbirkorlikni barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi dastlabki kapitalni topish muammosi mavjud;
2. Epidemiyalarni oldini olishga boshqa yo'nalishlarga nisbatan ko'p e'tibor qaratish lozim;
3. Parrandalar boqiladigan binolarni o'z vaqtida nazorat qilib turishga qat'iy rioya qilish lozim;
4. Parrandachilik bo'yicha texnik xodimlar yetishmasligini tez-tez kuzatiladi;
5. Mahalliy qoidalarni o'rganish va ularga rioya qilish bilan bog'liq muammolar va boshqalar.

Parandachilikni bugungi kundagi ahamiyati hamda uning ijobiy hamda salbiy jihatlari, aholi turmush faravonligini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ahamiyatini hisobga olgan holda parrandachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni ustuvor vazifalar etib belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

- parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda bozor imkoniyatlari va raqobatchilarni hisobga olish, mahsulot ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilish, yangi turlarni shakllantirish

asosida ichki bozordagi talabni qondirish va tashqi bozorlarda o'z o'rnini topish;

- ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan foydalangan holda parrandachilik klasterlarini tashkil qilish, sohaga innovatsion texnologiyalarni jalb etish asosida mahsuldorlikni oshirish, mahsulotlarni qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish;

- veteranariya xizmatlarini yuqori darajada tashkil etish, ilmiy-dagnostika laboratoriyalar tashkil qilish orqali parrandalar orasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish choralarini ko'rish;

- ozuqa bazasini kengaytirish, import o'rnini bosuvchi ozuqa va vitaminlarni ishlab chiqarish;

- parrandachilik sohasida yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlash.

Tadqiqotlarimiz natijalarini ko'rsatishicha parrandachilik bilan shug'ullanishning bir qator ko'rinishlari mavjud bo'lib, parrandachilik rivojlanayotgan davlatlarda aholi daromadlarini shakllantirish, xo'jalik uchun mahsulot yetishtirish, qashshoqlik darajasini pasaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari aholi soni va daromadlarini oshishi nafaqat rivojlanayotgan balki rivojlangan mamlakatlarda ham parranda mahsulotlariga bo'lgan talabning keskin oshishini keltirib chiqarmoqda.

Natijada parrandachilikni rivojlantirish, sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, an'anviy usuldan sanoat usuliga o'tish muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prafulla, R. 2015. Influence of housing systems on bone properties on laying hens. Dissertation. Degree of Animal Science-Doctor of Philosophy. Michigan state university. Michigan, US. Available:<https://pdfs.semanticscholar.org/9c0e/501987ca24149533622b71fcb64f3080e27a.pdf> Accessed 26.8.2019
2. Jez, C, Beaumont, C. & Magdelaine, P. 2011. Poultry production in 2025: learning from future scenarios. World's Poultry Science Journal, 67(1), 105-114. Available: <https://doi.org/10.1017/S0043933911000092>
3. Kumar, Abhijeet. (2021). Comparative Study of Automation and Conventional System on Production Performance in Poultry Farms. Journal of Animal Research. 11. 10.30954/2277-940X.01.2021.25.
4. Bessei, W. 2006. Welfare of broilers: a review. World's Poultry Science Journal 62(3), 455-466. Available: https://www.researchgate.net/publication/231919285_Welfare_of_broilers_A_review. Accessed 5.08.2019
5. Damerow, G. 2008. A Guide to Raising Chickens. Storey publishing, LLC, Massachusetts, US.
6. <https://www.farmingport.com/advantages-disadvantages-poultry-farming/>
7. <https://www.fao.org/4/i3531e/i3531e.pdf>
8. <https://www.agriculture.go.ug/wp-content/uploads/2020/07/MAAIF-Poultry-Manual.pdf>

HALQALAR VA MAYDON NAZARIYASI- ALGEBRAIK TUZILMALARNING MATEMATIK AHAMIYATI

Azimjonova Dilnavo Anvarjonovna

Namangan davlat pedagogika institutining 1-bosqich talabasi

E-mail: dilnavoazimjonova4@gmail.com

Ilmiy rahbar: Maxsudova Shohsanam Muzaffarxoʻjayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada halqalar va maydonlar nazariyasining asosiy tushunchalari, ularning algebraik tuzilmalardagi oʻrni, halqalar va maydonlarning asosiy xossalari, ularning turli matematik sohalardagi qoʻllanilishi hamda nazariyaning rivojlanishi haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Аннотация: В этой статье основные понятия теории колец и полей, их место в алгебраических структурах, подробно изложены основные свойства колец и полей, их применение в различных математических областях и развитие теории.

Abstract: In this article, the basic concepts of the theory of rings and fields, their place in algebraic structures, the main properties of rings and fields, their application in various mathematical fields and the development of the theory are given in detail.

Kalit soʻzlar: Halqa, birlikli halqa, Evklid halqasi, maydon, chegaralangan maydon, algebraik yopiq maydon, maydon kengaytmasi

Ключевые слова: Кольцо, единичное кольцо, евклидово кольцо, площадь, ограниченная площадь, алгебраическое замкнутое поле, расширение поля

Key words: Ring, unit ring, Euclidean ring, area, bounded area, algebraic closed field, field extension.

KIRISH. Matematikaning asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlgan algebra turli algebraik tuzilmalarning xususiyatlarini oʻrganadi.

Algebraik tuzilmalar orasida halqalar va maydonlar nazariyasi alohida o'rin tutadi. Bu nazariya abstrakt algebra, sonlar nazariyasi, geometriya, koding nazariyasi va hatto zamonaviy fizika kabi turli sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Halqalar va maydonlar nazariyasi algebraik tuzilmalarni to'g'ri tushunish va ulardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu nazariya: Matematik obyektlar va ularning o'zaro bog'liqligini chuqur tushunishga yordam beradi. Ilmiy va texnologik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi. Kriptografiya, kodlash nazariyasi, kriptotizimlar, va modulli arifmetika kabi zamonaviy sohalarda qo'llaniladi.

Halqalar va maydon nazariyasi algebraik tuzilmalarning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, ular turli matematik va amaliy masalalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu nazariya algebraik tuzilmalarni chuqur o'rganish va ularning xususiyatlarini aniqlash uchun ishlatiladi.

Halqa – bu ikkita amal (odatda qo'shish va ko'paytirish) aniqlangan to'plam bo'lib, ular ma'lum shartlarga javob beradi. Halqalar kommutativ yoki kommutativ bo'lmagan, bir birlik elementga ega yoki ega bo'lmagan turlarga bo'linadi.

Halqalar nazariyasi quyidagi sohalarda keng qo'llaniladi:

Matematik mantiq – bo'linish nazariyasi va modulli arifmetika;

Koding nazariyasi – Galois maydonlari orqali kodlash usullari;

Kriptografiya – zamonaviy shifrlash algoritmlari asosida halqalar ishlatiladi. Halqalar va maydonlar nazariyasi ko'plab matematik tuzilmalarni umumlashtirish va bir tizimga keltirish imkonini beradi. Ushbu nazariya sonlar, polinomlar, funksiyalar, matritsalar va boshqa algebraik obyektlarning tuzilishini o'rganishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Halqalar nazariyasi abstrakt algebra bo'limining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli matematik strukturalarning umumlashgan shaklini o'rganishga xizmat qiladi. Halqalar ko'p tarmoqli matematik tadqiqotlar va amaliy masalalarda uchraydi.

Halqalarning umumiy tushunchasi. Matematikada halqa ikki algebraik amal aniqlangan to'plam bo'lib, ushbu amallar qo'shish va ko'paytirish operatsiyalaridan iborat bo'ladi. Halqa tushunchasi bir necha asrlik rivojlanish jarayonida kengayib, murakkab algebraik tuzilmalar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Halqa quyidagi xususiyatlarni qanoatlantiradi:

Qo'shish amali bo'yicha abel guruhi hosil qiladi.

Ko'paytirish amali bo'yicha yarim guruh hosil qiladi.

Qo'shish va ko'paytirish orasida distributivlik bog'liqligi mavjud.

Halqalar turli xossalari qarab quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:

Kommutativ halqalar – agar ko'paytirish amali kommutativ bo'lsa.

Birlikli halqalar – agar birlik elementi mavjud bo'lsa.

Butunlik sohasi – agar nolga teng bo'lmagan elementlarning ko'paytmasi hech qachon nol bo'lmasa.

Noether halqalari – agar har qanday ideal chekli generatorlarga ega bo'lsa.

Artin halqalari – agar pastga cheksiz tushuvchi zanjir sharti bajarilsa.

Halqalarning amaliy qo'llanilishi

Halqalar nazariyasi ko'plab matematik yo'nalishlar va amaliy sohalarda ishlatiladi:

Sonlar nazariyasi – butun sonlar halqasi va modulli arifmetikaga asoslangan tadqiqotlar.

Algebraik geometriya – algebraik egri chiziqlarning halqalar bilan bog'liqligi.

Koding nazariyasi – ma'lumotlarni shifrlash va uzatishda halqalardan foydalanish.

Kriptografiya – maxsus algebraik strukturalar yordamida xavfsizlik tizimlari yaratish.

Maydonlar nazariyasi va uning roli

Maydonlar nazariyasi halqalar nazariyasining kengaytirilgan shakli bo'lib, unda har bir nolga teng bo'lmagan elementning teskari ko'paytirish elementi mavjud bo'ladi.

Maydon – bu maxsus halqa bo'lib, unda har qanday nolga teng bo'lmagan element uchun inver element mavjud

Eng mashhur maydonlarga quyidagilar kiradi:

Ratsional sonlar maydoni - $\mathbb{Q}$

Haqiqiy sonlar maydoni- $\mathbb{R}$

Kompleks sonlar maydoni- $\mathbb{C}$

Maydonlar tuzilishiga qarab quyidagicha tasniflanadi:

Cheklangan maydonlar (Galois maydonlari) – oxirlangan sondagi elementlardan iborat bo'lib, modulli arifmetika asosida quriladi.

Algebraik kengaytirilgan maydonlar – boshlang'ich maydonga yangi ildizlar qo'shish orqali hosil qilinadi.

Maydonlar nazariyasi quyidagi sohalarda muhim o'rin tutadi:

Algebraik geometriya – koordinatalar maydoni sifatida ishlatiladi.

Kriptografiya – Galois maydonlari ochiq kalitli shifr tizimlarida qo'llanadi.

Koding nazariyasi – xatolarni tuzatish kodlarini yaratishda ishlatiladi.

Differensial tenglamalar – funksiya maydonlari ustida tadqiqot olib boriladi.

Ideal – bu halqaning maxsus qism to'plami bo'lib, u halqadagi amallarni bajarishga yopiq bo'ladi. Ideal algebraik strukturalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Chap ideal: Agar halqaning qism to'plami bo'lib, har qanday halqa elementi uchun bo'lsa.

O'ng ideal: Agar uchun sharti bajarilsa.

Ikki tomonlama ideal: Agar u ham chap, ham o'ng ideal bo'lsa.

Maksimal ideal: Agar ideali shunday xossaga ega bo'lsa, agar ni o'z ichiga oluvchi har qanday ideal faqat yoki butun halqaga teng bo'lsa. Maksimal ideallar yordamida kvotient halqalar quriladi.

Kvotient Halqalar

Agar halqada ideal bo'lsa, u holda kvotient halqa sifatida aniqlanadi va bu halqa asosiy algebraik tuzilmalardan biridir.

Maydonlarning turli kengaytmalari mavjud:

Algebraik kengaytmalar: Maydon elementlari asosiy maydon ustida algebraik tenglamalarning ildizlari bo'lsa.

Differensial kengaytmalar: Funksional analizda qo'llaniladi.

Galois kengaytmalar: Galois nazariyasi asosida o'rganiladi.

Galois maydonlari - elementlari soni cheklangan bo'lgan maydonlar bo'lib, ular axborot texnologiyalari va kodlash nazariyasida ishlatiladi.

Noetherian Halqalar

Agar har qanday ideal uchun yuqoriga cheksiz ko'tariluvchi zanjir sharti bajarilsa, halqa Noether halqa deyiladi. Bular algebraik geometriyada muhim o'rin tutadi.

Artin Halqalar

Bu halqalarda pastga cheksiz tushuvchi zanjir sharti bajariladi.
Artin halqalari asosiy nazariyada ishlatiladi.

Modul – bu halqalar ustida vektor fazolarga o'xshash tuzilma bo'lib, algebraik tengsizliklarni o'rganishda ishlatiladi.

Yarim Halqalar

Halqaga o'xshash bo'lgan, ammo ayrim xususiyatlari farq qiladigan algebraik tuzilmalarga yarim halqalar deyiladi. Bunda:

Qo'shish bo'yicha guruh emas, balki faqat yarim guruh bo'ladi.

Salbiy elementlar mavjud bo'lmasligi mumkin.

Misol: Tabiiy sonlar to'plami yarim halqa hisoblanadi.

Nolbo'luvchilar va Mahalliy Halqalar

Halqadagi elementlarning muhim sinflaridan biri nolbo'luvchilar (zero divisor) hisoblanadi.

Agar bo'lib, bo'lsa, va nolbo'luvchilardir.

Butunlik sohasi (integral domain) deganda nolbo'luvchilari bo'lmagan halqa tushuniladi.

Mahalliy halqa – bu bitta maksimal idealga ega bo'lgan halqadir. Algebraik geometriyada bu tushuncha muhim ahamiyat kasb etadi.

Dedekind halqalari algebraik sonlar nazariyasida muhim bo'lib, har qanday idealining asosiy idealga bo'linishi mumkin bo'lgan halqalar sinfidir. Bu halqalar sonlar nazariyasi va algebraik geometriyada keng qo'llaniladi.

Maydonlarning kengaytmalari algebraik yoki transsendent bo'lishi mumkin:

Algebraik kengaytma – agar kengaytma elementi boshlang'ich maydon ustida biror algebraik tenglamaning ildizi bo'lsa.

Transsendent kengaytma – agar element hech qanday algebraik tenglamaning ildizi bo'lmasa. Masalan, va sonlari transsendent elementlardir.

Galois nazariyasi maydon kengaytmalarini o'rganish uchun ishlatiladi va algebraik tenglamalarning ildizlarini tushunish imkonini beradi. Bu nazariyada Galois guruhi tushunchasi asosiy rol o'ynaydi.

Agar maydon kengaytmasi bo'lsa, undagi avtomorfizmlar guruhi Galois guruhi deb ataladi.

Galois nazariyasi orqali polinomlarning echiluvchanligi tekshiriladi.

Cheklangan maydonlar ko'rinishida bo'lib, bu yerda tub son va natural son.

Ularning asosiy xususiyati shundaki, ular siklik multiplikativ guruh hosil qiladi.

Bu maydonlar kriptografiya va kodlash nazariyasida qo'llaniladi.

Koordinata Halqalari

Algebraik geometriyada har bir algebraik egri chiziq yoki o'lchamga mos keluvchi koordinata halqasi mavjud.

Masalan, tekislikdagi oddiy parabola funksiyasiga mos keluvchi halqa ko'rinishida bo'ladi.

Bunday halqalar algebraik egri chiziqlarning xossalarini o'rganishda ishlatiladi.

Sheaf nazariyasi algebraik geometriyaning muhim qismidir va u mahalliy halqalar yordamida geometrik strukturalarni o'rganishga imkon beradi.

Sheaf – bu har bir ochiq to'plam uchun mos keluvchi algebraik struktura beradigan funksiya.

Bunday nazariya algebraik geometriyaning zamonaviy usullarini o'z ichiga oladi.

Halqalar va Maydonlarning Amaliy Tatbiqlari

Kodlash Nazariyasida Halqalar va maydonlar kodlash nazariyasida muhim rol o'ynaydi. Masalan:

Reed-Solomon kodlari – Galois maydonlaridan foydalanadi va sun'iy yo'ldosh aloqalari uchun ishlatiladi.

Hamming kodlari – axborot uzatishda xatolarni tuzatish uchun qo'llaniladi.

Kriptografiyada. Elliptik egri chiziqlar kriptografik tizimlarda ishlatiladi.

RSA algoritmi modul arifmetikasiga asoslangan bo'lib, butun sonlar halqasi bilan bog'liq. Diffi-Hellman kalit almashinuvi cheklangan maydonlar arifmetikasidan foydalanadi.

Fizikada. Simmetriya guruhlarini kvant mexanikasida ishlatiladi.

String nazariyasi algebraik geometriya va maydonlar nazariyasini o'z ichiga oladi.

Amaliy Tatbiqlar

1. Fizikada

Kvant mexanikasida Halqa va Maydon tushunchalari kvant holatlarini modellashtirishda ishlatiladi.

Supero'tkazuvchanlik tadqiqotlarida simmetriya guruhlarini bilan bog'liq.

2. Informatika va Kriptografiyada

RSA va Elliptik egri chiziqlar kriptografiyasida maydonlar nazariyasi asosiy rol o'ynaydi.

Cheklangan maydonlar algoritmlar va kompyuter modellarida ishlatiladi.

3. Algebraik Geometriyada

Varietlar va ideal-nazariy tuzilmalar yordamida geometriyada asosiy masalalar hal qilinadi.

Bu nazariyalar sof matematikaga oid bo'lsa ham, ular fizikada, kompyuter fanlarida va boshqa texnik fanlarda ham muhim o'rin tutadi.

Hilbertning Nolchilik Teoremasi

Hilbertning nolchilik teoremasi algebraik geometriya va halqalar nazariyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi:

Unga ko'ra, agar polinomlar halqasida ideal mavjud bo'lsa, u holda u idealdan kelib chiqadigan algebraik egri chiziq ustida mavjud bo'lgan barcha nuqtalar to'plamini aniqlaydi.

Bu tushuncha algebraik geometriyaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Primordial va Radikal Ideallar

Primordial ideal: Agar ideal ichida faqat birinchi darajali o'zgaruvchilar bo'lsa.

Radikal ideal: Agar ideali uchun bo'lsa, unda ekanligini bildiradi.

Radikal ideallar algebraik geometriyada algebraik o'rinbosarlarning mavjudligini tekshirish uchun ishlatiladi.

Differensial maydonlar – funksiyalar maydoni ustida differensial operatorlarni qo'shish orqali hosil qilinadi. Bu nazariya fizikada va differensial tenglamalarni o'rganishda ishlatiladi.

Algebraik Sonlar Nazariyasi va Maydonlar

Algebraik sonlar nazariyasida maydonlar juda muhimdir.

Ratsional sonlar maydoni – algebraik maydonlarning eng muhim ko'rinishidir.

Algebraik sonlar maydonlari – bu polinomlarning ildizlarini o'z ichiga oladigan maydonlardir.

Galois kengaytmalar algebraik sonlar maydonlarining xossalarini o'rganish uchun ishlatiladi.

Tub Sonlar va Cheklangan Maydonlar

Cheklangan maydonlar modulli arifmetika asosida quriladi va axborot texnologiyalarida muhim rol o'ynaydi.

Turbo kodlar va LDPC kodlar – axborot nazariyasida foydalaniladigan algoritmlar bo'lib, halqalar va maydonlar bilan bog'liq.

XULOSA

Halqalar va maydonlar nazariyasi algebraik tuzilmalarning chuqur o'rganilishini ta'minlovchi muhim matematik yo'nalishlardan biridir. Ushbu nazariya nafaqat sof algebraik xossalarni tahlil qilishda, balki informatika, kriptografiya, kodlash nazariyasi, algebraik geometriya va fizikada ham keng qo'llanilmoqda.

Halqalar nazariyasi ideal, butunlik sohalari, maxsus halqalar kabi tushunchalarni tadqiq etish orqali algebraik strukturalarning murakkab tomonlarini ochib beradi. Maydonlar nazariyasi esa Galois kengaytmalari, algebraik va transsendent sonlar, cheklangan maydonlar kabi tushunchalarni o'z ichiga olib, algebraik tenglamalarning ildizlarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Ushbu nazariyaning amaliy ahamiyati ayniqsa zamonaviy texnologiyalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Kriptografik tizimlar, xatoliklarni tuzatish kodlari va sun'iy intellekt sohalarida maydonlar va halqalar asosida qurilgan algoritmlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islomov, Z. I. (2005). Algebra va analiz asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
2. Mamatov, A. A. (2014). Matematik analizning elementlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Maxsudova, S. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 646-649.

4. Jalilov, A. va Saidov, N. (2016). Diskret matematika asoslari. Toshkent: Ilm Ziya nashriyoti.

5. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(12), 74-78.

6. Ravshanov, Sh. va Abdurahmonov, H. (2020). Abstrakt algebra. Toshkent: Universitet nashriyoti.

7. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). ISSUES OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS. In Archive of Conferences (pp. 69-70).

8. Toshpòlatov, M va Ahmedov, I. (2019) Sonlar nazariyasi va algebra. Toshkent: Fan nashriyoti

9. Maxsudova, S. (2020). ON A BOUNDARY PROBLEM FOR AN EQUATION OF SHIFTED TYPE WITH DIFFERENT ORDERS OF DEGENERACY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 36-39.

10. Yo'ldoshev, B. va boshqalar. (2018). Matematik mantiq va to'plamlar nazariyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.

11. Abdurahmonova, D., & Maxsudova, S. (2024). INTERAKTIV DARSLAR ORQALI BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI OSHIRISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 520-524.

12. Saydullayeva, G. (2024). Matematika o‘qituvchisining pedagogik mahorati va kasbiy sifatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 528-530.

INGLIZ TILINING AHAMIYATI VA IMKONIYATLARI

Abdurashidova Halima Hoshimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

E-mail: doniyordoniworov65@gmail.com

Tel: +998882582404

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili zamonaviy dunyoda xalqaro aloqa, ta’lim, biznes, va ilm –fan, tili sifatida muhim ro‘l o‘ynashi haqida. Ingliz tilining global miqyosdagi ahamiyati, uni o‘rganish orqali ochiladigan imkoniyatlar va ta’lim jarayinida samarali o‘rganish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tili o‘rganishda duch kelinadigan muammolar va ularni yengish usullari ham yoritiladi.

Аннотация: В этой статье речь идет о значении владения английским языком и возможностях, которые он предоставляет в различных областях. Английский язык является глобальным языком, который играет важную роль в международном общении, образовании, бизнесе и науке. Кроме того, в этой статье рассматриваются эффективные методы обучения, проблемы, с которыми сталкиваются учащиеся, и стратегии преодоления этих препятствий. Исследование подчеркивает, как преподавание английского языка может улучшить карьерные перспективы, академические успехи и межкультурное взаимопонимание.

Abstract: This article is about the significance of English language proficiency and opportunities it provides in various fields. English is a

global language that plays a crucial role in international communication, education, business and science. Additionally, this article examines effective teaching methods, challenges faced by learners and strategies for overcoming these obstacles, the research highlights how teaching English can improve career prospects, academic success and cross cultural understanding.

Kalit soʻzlar: taʼlim, xalqaro aloqa, ingliz tili, biznes, ilm-fan, imkoniyat, samarali metod, xalqaro til.

Ключевые слова: образование, международное общение, английский язык, деловая наука, возможности, эффективные методы, стратегии, глобальный язык

Keywords: education, international communication, english language, business science, opportunities, effective methods, strategies, global language

Ingliz tili dunyodagi eng koʻp oʻrganiladigan va xalqaro muloqot uchun eng muhim hisoblangan tillardan biridir. Ushbu tilni samarali oʻrganish va oʻqitish uchun quyidagi bir necha ilmiy asoslangan yondashuvlar muhim roʻl oʻynaydi. Integrallashgan yondashuv yordamida ingliz tilini oʻrganayotganda kommunikativ va akademik maqsadlarni uygʻunlashtirish. Raqamli texnologiyalar, audio-vizual materiallar va onlayn platformalar orqali oʻrganish samaradorligini oshirishda interaktiv metodlar qoʻllaniladi. Immersiya usuli tabiiy til muhitda oʻrganish, chet elliklar bilan suhbat va amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish. Lingvistik va psixologik yondashuvda esa oʻquvchilarning yoshiga motivatsiyasiga mos keladigan oʻqitish usullarini qoʻllash. Ingliz tilini kundalik hayotda faol qoʻllash va doimiy ravishda oʻzlashtirish uchun tarmoq yaratish. Shuningdek, Ingliz tili bugungi kunda xalqaro aloqa, diplomatiya, savdo va texnologiya sohalarining asosiy tili

hisoblanadi. UNESCO va BMT kabi xalqaro tashkilotlarda ham asosiy ish yuritish tili sifatida ingliz tilidan foydalaniladi. Bundan tashqari quyidagilar ingliz tilining ahamiyatini oshiradi.

1. Ta'lim va ilm-fan
2. Texnologiya va innovatsiya
3. Biznes va iqtisodiyot
4. Sayohat va madaniy aloqa.

Ingliz tilini puxta o'rganish muhim imkoniyatlar ochib beradi. Dunyoning yetakchi universitetlarida masalan, Oxford va Harvard hamda shu kabi yuqori darajadagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyati. Xalqaro kompaniyalarda ishlash, masofaviy ish qilish va jahon bozoriga chiqish imkoniyati, madaniy rivojlanish ya'ni dunyoning ingliz tilida yoilgan adabiyotlaridan ilmiy kitoblardan ham erkin foydalana olish, qo'shimcha qiladigan bo'lsak ingliz tilida suratga olingan filmlarni va ingliz tilida kuylangan qo'shiqlarni ham tushunish.

Hozirda jahon miqyosida e'tirof etilayotgan xalqaro sertifikatlar TOEFL, IELTS kabilar yordamida ilmiy jihatdan ustunlikga erishish. bu tufayli eng so'nggi ingliz tilida berilgan adabiyotlarni tushunib qo'llash va ularni til bilganlik sababidan aynan berilgan ma'nosida o'qib tushunish. Ingliz tilini o'rganish shaxsiy va professional rivojlanish uchun muhim vosita. Ingliz tilini o'rganish qolgan tillarga nisbatan ma'lumotlar va o'quv resurslari ko'p ekanligi jihatdan hisobga olsak u tilni biz online platformalardan foydalangan holda ham o'rgana olamiz. Khan Academy kabi platformalardan bepul va istasak pullik ta'lim olish imkoniyati ham bu tilning yana bir qulaylik tomonidan hisonlanadi. Ingliz tilini o'rganish shaxsiy va proffessional rivojlanish uchun muhim vosita. Uni puxta egallash xalqaro miqyosda ta'lim olish, yaxshi ish topish, tadbirkorlik qilish va dunyo tillari bilan erkin muloqot qilish

imkoniyatlarini oshiradi. Ushbu zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida til o'rganish jarayoni ancha osonlashgan. Eng asosiylardan biri, doimiy mashq qilish va ko'proq muloqot jarayoniga e'tibor qaratish kerak. Ingliz tilini o'rganishning ilmiy asoslangan yondashuvlarini yanada chuqurlashtirish va tahlil qilish jarayonida, bir qator qo'shimcha fikrlar ham mavjud. Ushbu fikrlar o'rganish jarayonini yanada samarali va kengroq qamrab olishini ta'minlaydi. Motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish til o'rganish jarayonida motivatsiyaning o'рни katta. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyati va maqsadga intilish motivatsiyaning kuchayishiga yordam beradi. Masalan, o'quvchilar o'zlarining o'rganish jarayonini kuzatib, alohida maqsadlar qo'yishlari va ularga erishish yo'llarini belgilashlari kerak. Bu nafaqat bilimni o'zlashtirishni tezlashtiradi, balki o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Kross-madaniy o'rganish ingliz tilini o'rganishda faqat tilga oid bilimlar emas, balki madaniyatlararo kompetentsiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Madaniy farqlarni anglash va bu farqlarni til orqali o'rganish, dunyoqarashni kengaytiradi va tilni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilini o'rganish jarayonida ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarning tarixi, madaniyati va urf-odatlar haqida bilish o'quvchilarga tilni yanada to'liqroq va mukammal o'rganishga yordam beradi. Gamifikatsiya o'rganish jarayonini o'yinlash (gamifikatsiya) orqali yanada qiziqarli va interaktiv qilish mumkin. Masalan, ingliz tilini o'rganish uchun yaratilgan o'yinlar va mobil ilovalar o'quvchilarga murakkab grammatik qoidalarni, lug'atni o'rganishda yordam beradi va jarayonni yanada motivatsiyalashgan qiladi. Bu metod nafaqat o'rganish jarayonini jonlantiradi, balki o'quvchilarga yanada ko'proq vaqt ajratib o'rganish imkonini beradi.

Shaxsiylashtirilgan yondashuvlar har bir o'quvchining o'rganish uslubi va ehtiyojlari boshqacha. Shuning uchun, til o'rganishda individual yondashuvni qo'llash juda muhim. Masalan, ba'zi o'quvchilar vizual materiallarni yaxshi o'zlashtirsa, boshqalari tinglab yoki o'qib o'rganishga ko'proq moyil bo'ladi. Shaxsiylashtirilgan o'quv rejalari yordamida har bir o'quvchining kuchli tomonlarini rivojlantirish mumkin. Muloqot asosida o'rganish ingliz tilini o'rganishda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmaslik, balki real hayotda muloqot qilish, ingliz tilida suhbatlar tashkil etish juda muhim. Bu nafaqat o'quvchilarga tilni ishlatishda ishonch hosil qiladi, balki til o'rganishning eng samarali yo'li sifatida tilni amalda qo'llashni ta'minlaydi. Shuningdek, real hayotda tahlil qilingan matnlar yoki suhbatlar orqali tilni o'rganish yanada samarali bo'ladi. Tilni o'rganishdagi innovatsiyalar texnologiyalarning rivojlanishi ingliz tilini o'rganish jarayonini tubdan o'zgartirdi. Yangi avlod dasturlari, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan til o'rganish ilovalari, va o'zgaruvchan platformalar yordamida o'quvchilar interaktiv tarzda tilni o'rganishning yangi yo'llarini izlashadi. Misol uchun, tilni o'rganishning yangi metodlaridan biri, o'quvchilarga interaktiv vositalar yordamida so'zlarni vizual tarzda tushuntirish va tilni o'rgatishda yaratgan ma'lumotlar bazasidan foydalanishdir. Shu bilan birga, ingliz tilini o'rganish faqat tilga oid bilimlarni o'zlashtirish emas, balki butun bir tizimni o'rganish jarayonidir. Bu jarayonda, o'quvchilarga to'g'ri yondashuvni topish, motivatsiyani yuqori saqlash, va doimiy mashq qilish, tilni mukammal o'rganishga yordam beradi. Yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali ingliz tilini o'rganish jarayonining samaradorligini yanada oshirish mumkin. Bu esa o'quvchilarga global miqyosda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Gamifikatsiya va

shaxsiylashtirilgan yondashuvlar esa o'quvchilarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bu esa o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Umuman, ingliz tilini o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalarni bilishdan iborat emas. Bu jarayon tilni amaliyotda qo'llash, boshqa madaniyatlar bilan tanishish va dunyoqarashni kengaytirishdan iborat. To'g'ri yondashuvlar va doimiy mashqlar orqali ingliz tilini mukammal o'rganish mumkin, bu esa global muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

List of used literature:

1. Dehqanova G.A. (2024). THE IMPORTANCE AND ROLE OF LEXICAL COMPETENCE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS. 2024
Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 16–23. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1451>
2. Ahmadjanovna, D. G. (2024). Improving the scientific and methodological aspects of preparing students for effective communication techniques and innovative technologies in teaching foreign languages. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 15(3), 81-88.
3. Dehkhanova, G. A. (2024). THE CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS WITH FINANCIAL POSITION ACCORDING TO SCIENTISTS VIEW. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 542-549.
4. Azimov S.M. (2024). THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF THE ENGLISH LANGUAGE WORLDWIDE | International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING <https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/view/3407>
5. Azimov S.M., Darvishaliyeva O.A. (2024). LEARNING A

NEW LANGUAGE DIFFICULTIES AND SOLUTIONS.

https://scholar.google.com/scholar?hl=en&as_sdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=#d=gs_qabs&t=1740317134263&u=%23p%3DD3NDBmmLA38J

6. Mamadaliyeva S.A. , Azimov S.M. (2024). METHODS OF TEACHING ENGLISH FOR SECONDARY SHOOOL STUDENTS DURING THE ERA OF MODERNIZATION.
https://scholar.google.com/scholar?hl=en&as_sdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=#d=gs_qabs&t=1740317308827&u=%23p%3DXh9L3mjnx7EJ

7. Azimov S.M. , Abdumuminova D.K. (2024) XORIJIY TILLARNI O‘QUVCHILARGA O‘RGATISHDA METODIK USUL VA YONDASHUVLAR HAMDA O‘QITUVCHINING PSIXOLOGIK BILIMI
https://scholar.google.com/scholar?hl=en&as_sdt=0%2C5&q=Azimov+Samandar+Murodjon+&oq=Azimov+&d=gs_qabs&t=1740318914948&u=%23p%3DaIEM4Pu6JaoJ

8. Dehkhonova, G. A. (2024). THE CLASSIFICATION OF LEXICAL UNITS WITH FINANCIAL POSITION ACCORDING TO SCIENTISTS VIEW. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 542-549.

9. Lightbrown, P.M. , and Spada N. (2013) How languages are learned. (4th ed.) oxford University Press

10. Vyogotskiy L.S (1978) Mind in society : The Development of Higher Psychological. Process Harward university Press

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA INTELLEKTUAL- ANGLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING DOLZARBLIGI

Axmatxanova Sarvinoz Farhodjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish masalasini o’rganishga bag’ishlanadi. Maqolada intellektual rivojlanishning ahamiyati, uning maktabgacha yoshda shakllanishi, pedagogik metodlar va amaliy tavsiyalar haqida so’z boradi. Bolalar intellektual salohiyatini rivojlantirishda o’yin, ijodiy faoliyat va maktabgacha ta’lim tizimining o’rni muhim hisoblanadi. Maqolada bu jarayonni samarali amalga oshirishda muhim omillar, shuningdek, ijtimoiy-madaniy muhitlarlarning ta’siri tahlil etiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению развития интеллектуально-познавательных способностей детей дошкольного возраста. В статье говорится о значении интеллектуального развития, его формировании в дошкольном возрасте, педагогических методах и практических рекомендациях. В развитии интеллектуального потенциала детей важна роль игры, творческой деятельности и системы дошкольного образования. В статье анализируются важные факторы эффективной реализации этого процесса, а также влияние социокультурной среды.

Abstract: This article is devoted to the study of the development of intellectual-cognitive skills in preschool children. The article talks about the importance of intellectual development, its formation in preschool

age, pedagogical methods and practical recommendations. The role of play, creative activities and the preschool education system is important in the development of children's intellectual potential. The article analyzes important factors in effective implementation of this process, as well as the influence of social and cultural environment.

Kalit soʻzlar: Intellektual rivojlanish, maktabgacha yosh, anglash malakalari, pedagogika, taʼlim metodlari, rivojlanish jarayoni, oʻyin, ijodiy faoliyat, bolalar salohiyati.

Ключевые слова: Интеллектуальное развитие, дошкольный возраст, познавательные способности, педагогика, методы обучения, процесс развития, игра, творческая деятельность, потенциал ребенка.

Key words: Intellectual development, preschool age, cognitive skills, pedagogy, educational methods, development process, game, creative activity, children's potential.

Kirish.

Bolalar intellektual rivojlanishi maktabgacha taʼlimning eng muhim yoʻnalishlaridan biridir. Bu davrda bolalarning aqliy va emotsional salohiyatining asoslari shakllanadi. Ularning anglash, tasavvur qilish, mantiqiy fikrlash kabi intellektual malakalarining rivojlanishi ularga kelajakda turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish muammosi dolzarb hisoblanadi, chunki ularning oʻquv jarayonlari va jamiyatdagi oʻrinlariga tayyorlanishlari aynan bu davrda boshlanadi. Intellektual rivojlanish — bu bolalarning fikrlash, tushunish, analiz qilish, sintez qilish kabi qobiliyatlarining paydo boʻlishi va rivojlanish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun intellektual rivojlanishning dastlabki bosqichlari aynan ushbu yosh davrida boshlanadi. Bolalar uchun intellektual

malakalar faqat akademik bilimlarni o'zlashtirishni anglatmaydi, balki muammoni hal qilish, til va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi. Intellektual rivojlanish — bu insonning aqliy faoliyatini, fikrlash qobiliyatini, tushunish va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Bolalar uchun intellektual rivojlanish, ayniqsa, maktabgacha davrda juda muhimdir, chunki bu davrda ularning aqliy salohiyatining asoslari, fikrlash va tushunish qobiliyatlari shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun intellektual rivojlanish nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtirishni anglatadi, balki hayotdagi muammolarni hal qilish, tahlil qilish, tasavvur qilish va yangi bilimlarni o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Intellektual rivojlanish bolalarning kognitiv jarayonlarining asosini tashkil etadi. Bu jarayonlar quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

1. **Fikrlash va tahlil qilish:** Bolalar o'zlari atrof-muhitda yuz berayotgan voqealar va holatlarni o'rganib, ular haqida mantiqiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularning fikrlash qobiliyati rivojlanishi ularga bir nechta variantlarni tahlil qilish, eng to'g'ri yechimni topish imkonini beradi.

2. **Muammoni hal qilish:** Intellektual rivojlanishning eng muhim jihatlaridan biri bu bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar turli o'yinlar, topshiriqlar va amaliy faoliyatlar orqali muammolarni hal qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. **Tasavvur va ijodkorlik:** Intellektual rivojlanish bolalarga ijodiy fikrlash imkoniyatini beradi. Bolalar o'z tasavvurlarini ishlatish orqali yangi g'oyalar, tasvirlar va holatlar yaratishlari mumkin. Bu ijodiy yondashuv bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

4. **Til va muloqot qobiliyatlari:** Intellektual rivojlanish til va muloqotning samarali usullarini o'rganishga ham yordam beradi. Bolalar o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni, boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o'rganadilar. Bu, o'z navbatida, ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ham ta'sir qiladi.

Intellektual rivojlanishning ahamiyati. **Kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun poydevor:** Maktabgacha yoshdagi intellektual rivojlanish bolalarning kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlari va hayotdagi faoliyatlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalar o'zlarining kognitiv salohiyatini rivojlantirish orqali nafaqat bilim olishga, balki yangi narsalarni o'rganish va ularga moslashish qobiliyatiga ega bo'ladilar. **Ijtimoiy moslashuv:** Intellektual rivojlanish bolalarga ijtimoiy muhitga moslashishda yordam beradi. Bolalar muloqot qilish, boshqalar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish, bir-birini tushunish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo'ladilar. Bu qobiliyatlar ularning jamiyatda muvaffaqiyatli yashashlari uchun zarurdir. **Shaxsiy rivojlanish:** Intellektual rivojlanish bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Muvaffaqiyatli o'rganish jarayonlari bolalarga o'z salohiyatiga ishonch bag'ishlaydi, bu esa ularni yanada mustahkam shaxsiy jihatdan rivojlantiradi. Shuningdek, bu ularning hissiy va ruhiy holatini yaxshilaydi, muammolarni hal qilishda o'zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi. **Kognitiv salohiyatni oshirish:** Intellektual rivojlanish bolalarning kognitiv salohiyatini kengaytiradi. Bunga aqliy faoliyatni rivojlantirish, o'qish, yozish, kuzatish, analitik fikrlash kabi ko'nikmalar kiradi. Bu esa kelajakda ijtimoiy va akademik jihatdan muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Intellektual rivojlanish — bu nafaqat bilim o'zlashtirish, balki bolalar uchun yangi

muammolarni hal qilish, fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishning muhim jihatidir. Bu jarayon ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asos yaratadi, ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi va shaxsiy rivojlanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshda intellektual rivojlanishning asosiy ahamiyati shundaki, aynan shu davrda bolalar o'z salohiyatlarini kashf etib, o'zlariga ishonch hosil qilishadi. Bu esa ularga keyingi bosqichlarda yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Maktabgacha yoshda bolalarda intellektual rivojlanish o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yinlar bolalarning tasavvurlarini rivojlantiradi, fikrlash va tushunish qobiliyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, bolalar yangi bilimlarni va ko'nikmalarni o'zlashtirishi uchun ular bilan samimiy va izchil muloqotda bo'lish muhimdir. Bolalarga muayyan bilimlarni qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchi tarzda taqdim etish ularning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshda intellektual-anglash malakalarining rivojlanishi — bu bolalarning aqliy salohiyatining shakllanishi va turli yosh davrlarida dunyoni tushunish, muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash kabi ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni sezgi organlari va aqliy faoliyatlari orqali o'rganadilar. Ular har xil tajribalar orqali bilim, ko'nikmalar va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar. Quyida bolalar intellektual rivojlanishining asosiy jihatlari keltirilgan: Piaget'ning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar, ya'ni 2-7 yoshgacha, "preoperatsion" bosqichda bo'ladilar. Bu davrda bolalar o'z tajribalari asosida dunyoni tasavvur qilishadi, lekin ular hali mantiqiy fikrlashda qat'iy qoidalarni va muammolarni to'g'ri hal qilishni bilmaydilar. Shu bilan birga, bolalar o'zlarini va boshqalarni qanday qilib aniqlashni o'rganishadi (masalan, o'zini boshqa odamlar bilan

solishtirish, turli hissiyotlar haqida tushuncha hosil qilish). Bolalar maktabgacha davrda ko'plab aqliy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ular asosiy tafakkur qobiliyatlarini, masalan, tasavvur qilish, diqqatni jamlash, yaxshilash va bo'linish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar. Bular muhim asoslardir, chunki kelajakda bilim va muammolarni hal qilishda, shuningdek, turli vaziyatlarga moslashishda yordam beradi. Bolalar so'z boyligini rivojlantirish orqali dunyoni tushunishni o'rganadilar. Nutqni o'rganish jarayonida ular atamalar, sintaksis va grammatika qoidalarini anglab yetadilar. Maktabgacha yoshda nutq rivoji to'g'risida ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zaro muloqot qilish bolalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar maktabgacha davrda ijtimoiy aloqalarni o'rganishadi. Boshqalar bilan o'yinlar, jamoaviy faoliyatlar, o'zaro tushunish, boshqalar bilan empatiya tuyg'ularini rivojlantirish orqali ular intellektual-malaka ko'nikmalarini mustahkamlaydilar. Bu vaqt ichida bolalar boshqalarning nuqtai nazarini tushunishni o'rganadilar, bu esa o'z fikrlarini ifodalashda va boshqalar bilan muloqotda samarali bo'lishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muammolarni hal qilishda ko'proq ijodiy va mustaqil yondashuvlar qo'llaniladi. Bolalar o'zlarini yangi holatlarga moslashtirib, muammolarni hal qilish usullarini ishlab chiqishadi. Ular o'yin orqali, tajriba qilish orqali va turli vaziyatlarda ijodiy qarorlar qabul qilish orqali aqliy faoliyatlarini rivojlantiradilar. Shunday qilib, maktabgacha yoshda intellektual-anglash malakalarining rivojlanishi bolalarning dunyoni tushunish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayon ular uchun nafaqat aqliy rivojlanish, balki ijtimoiy va emotsional o'sish uchun ham zarurdir.

3. Pedagogik metodlar va yondashuvlar

Maktabgacha ta'limda bolalar intellektual salohiyatini rivojlantirishda turli pedagogik metodlar va yondashuvlar qo'llaniladi. Pedagoglar va ota-onalar bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ularning intellektual rivojlanishini muvofiqlashtirishi kerak. Bunda o'yin metodlari, vizual materiallar, hikoyalar, tasvirlash va taqqoslash kabi usullar yordamida bolalar bilan muloqot olib boriladi.

4. Ijtimoiy va madaniy omillar

Bolalarning intellektual rivojlanishiga ijtimoiy va madaniy omillar ham katta ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi munosabatlar, jamiyatdagi o'rin, shuningdek, bolalar bilan o'tkaziladigan o'yin va faoliyatlar ularning fikrlash va tushunish jarayoniga bevosita ta'sir etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining o'zaro aloqalari, metodikalarni yangilash va pedagogik bilimlarning rivojlanishi ham bolalar intellektual salohiyatini yanada oshiradi.

5. Amaliy tavsiyalar

Bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirishda quyidagi amaliy tavsiyalarni kiritish mumkin:

Bolalarga o'yin va faoliyatlar orqali turli topshiriqlarni bajarish imkoniyatlarini yaratish;

Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zaro faoliyatni ta'minlash, pedagoglarning o'qitish usullarini takomillashtirish;

Oila bilan hamkorlikda bolalarni o'ziga xos fikrlashga undash, ularni doimiy ravishda yangi bilimlar bilan tanishtirish.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish masalasi har tomonlama muhim va dolzarbdir. Ushbu jarayonning samarali amalga

oshirilishi uchun bolalar bilan o'ynash, pedagogik metodlar va ijtimoiy-madaniy muhitni hisobga olish lozim. O'quvchilarning intellektual rivojlanishi kelajakda ularning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova, G. (2018). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Asadov, M. (2021). Bolalar psixologiyasi: Maktabgacha yoshda rivojlanish jarayonlari. Tashkent: Science Education.
3. Kamilova, N. (2020). Maktabgacha ta'limda intellektual rivojlanishning asosiy metodlari. Toshkent: O'qituvchi.
4. Jahonov, S. (2019). O'yin metodikasi va uning bolalar rivojlanishidagi roli. Tashkent: Academy Publishing.
5. Bogdanova, O. (2017). Pedagogika va psixologiyada yangi yondashuvlar. Moskva: Akademiya

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ONG SHAKLLANISH JARAYONI VA IJTIMOIIY PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Botiraliyeva Ruxshonaxon Nazirjon qizi

Guliston davlat universiteti

Psixologiya yo'nalishi talabasi

+998945711505

botiraliyevavaruxshonaxon05@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ong shakllanish jarayoni va ijtimoiy psixologik hususiyatlari, ongning asosiy xususiyatlari, ong va ongsizlik, ularning farqi, ongning rivojlanishi, unga

qanday omillar tasir qiladi hamda Zigmund Freydning ong haqidagi talimoti yoritib berilgan.

Аннотация: В статье рассматривается процесс формирования сознания и социально-психологические особенности детей дошкольного возраста, основные характеристики сознания, сознания и бессознательного, их различия, развитие сознания, какие факторы на него влияют, а также учение Зигмунда Фрейда о сознании.

Abstract: The article discusses the process of consciousness formation and social psychological characteristics in preschool children, the main characteristics of consciousness, consciousness and unconsciousness, their difference, the development of consciousness, what factors affect it, and Sigmund Freud's teachings on consciousness.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy kognitiv, psixoanaliz, metod, estetik suhbat metodi, moddiylik falsafiy kategoriya, biologik ruhiyat inikosi diqqat.

Ключевые слова: социальный когнитивный, психоанализ, метод, метод эстетической беседы, материальность как философская категория, биологическая психология как отражение внимания.

Keywords: social cognitive, psychoanalysis, method, aesthetic conversation method, philosophical category of materiality, biological psychology, attention.

Ong – aql-tafakkurni ifoda etadigan asosiy falsafiy kategoriyalardan biri. Ong koʻp qirrali va murakkab boʻlgani tufayli falsafa, psixologiya, psixiatriya, fiziologiya, kibernetika, informatika singari turli fanlarning oʻrganish obyekti hisoblanadi. Ong diniy talqinda ilohiy hodisa, Xudo yaratgan moʻjiza tarzida talqin qilinadi. Koʻpgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning mitti aksi, uning namoyon boʻlishi shakli tarzida taʼriflanadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimiz tashuvchisidir. Jon oʻlishi bilan ong ham

o'radi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, ong odam va uning yaratilishi masalasi bilan bevosita bog'liq. Kimda-kim olam va odam yaratilganini tan olar ekan, ong ham Yaratganning qudrati ekanini tan olishi tabiiy. Ong moddiylikning miyada inson tanasi faoliyati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. XVIII asrga kelib, ongni bevosita inson miyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar ham shakllandi. Ayni paytda, materialistik yo'nalishdagi bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham uchragan. Falsafa tarixida "Vulgar materializm" deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqarganidek, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi. Ong tarixi insonning inson sifatida shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liq. Uzoq vaqt davomida inson ongi planetar, ya'ni Yer shari darajasidagi hodisa sifatida qarab kelindi. Hozirgi zamon fani mazkur masalaga kengroq yon dashish zarurligini ko'rsatmoqda. Chunki, fan dalillari inson paydo bo'lishini faqat Yerda kechgan jarayonlar bilan cheklab qo'yish to'g'ri emasligi, u koinot evolyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanini tobora chuqurroq isbotlamoqda. Inson biologik va ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, uning shakllari o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni, yuqori shakllari quyi shakllarga bog'liqligini, tayanishini, ulardan paydo bo'lishini unutmaslik lozim. Boshqacha aytganda, ular o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Ong tarixi quyosh tizimi va unda millionlab yillar davomida sodir bo'lgan o'zgarishlardan ayricha olib qaralishi mumkin emas. Shu jihatdan olganda, ongning shakllanishini kosmik hodisa sifatida talqin etish

mumkin. Ong in'ikosning oliy shakli bo'lib, in'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Buning uchun esa, hech bo'lmasa, ikkita obyekt va ular o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud bo'lishi lozim. Bunda funksional faoliyat ko'rsatuvchi miya sohibi ijtimoiy munosabatlarga tortilgan bo'lishi shart. Ong ruhiyati in'ikosining o'ziga xos, yuksak shaklidir. Ammo, bu hol ruhiyat va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo'la olmaydi. Negaki, ruhiyat hayvonlarga ham xosdir. Gap inson ruhiyati haqida ketganda ham, u ong tushunchasiga nisbatan keng qamrovli ekani e'tiborga olinishi lozim. Z.Freydning fikricha, ruhiyat ongsizlik, ong osti hodisalari va ongning o'zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti va faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega. Psixologlar fikricha, inson riojlanish jarayonida ko'plab funksiyalar ong nazorati ostidan chiqib, avtomatik xarakter kasb etishi kuzatiladi. Aytaylik, birinchi marta mashinaga o'tirganimizda yoki suratga olayotganimizda deyarli barcha harakatlارimiz ongning qattiq nazoratida bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan esa ko'pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz. Bunday holat inson faoliyatining xilma-xil sohalari, yo'nalishlariga ongning faol tarzda aralashishini, holatni yana qayta o'z nazoratiga olishi mumkinligini inkor etmaydi. Xatti-harakatlarning ongsizlik sohasiga ko'chishi, bir tomondan, ong "yuki"ning yengillashishiga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuch-quvvatini, "diqqati"ni inson hayoti uchun muhim bo'lgan harakat, jarayonlarga qaratilishiga imkoniyat yaratadi. Ongsizlik doirasiga ong nazoratidan tashqarida qolgan sezgi, tasavvur, instinkt va intuitsiya kabi hodisalar ham kiradi. Ana shu xususiyatlarni inobatga olinsa, ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti, deyish mumkin.[1]

Ongsizlik (psixologiyada) – ong ishtirokisiz sodir bo‘ladigan ruhiy jarayon va holatlar. Ongsizlik ko‘pincha, badan harakatida, xotirasida, xayolida namoyon bo‘ladi. Real mavjud, lekin sezilmaydigan qo‘zg‘atgichlar vujudga keltiradigan javob ta’sirotlarida, asli ongi paydo bo‘lib, takrorlanishi natijasida avtomatlashib ketgan harakatlarda va boshqa holatlarda ro‘y beradi. Mas odam o‘z o‘y-xayollariga cho‘mgan holda uyiga qaytadi va har holda yo‘ldan adashmasdan keladi. Agar u biror xavfni sezib qolsa, bu xavfning sababi va qandayligini hali anglamasdan turib ham, himoya harakatini qiladi. Bemor psixikasida vujudga keladigan alahlash, gallyusinatsiya kabi patologik hodisalar, uxlash, gipnoz vaqtida, lunatizm chog‘ida yuz beradigan psixik faoliyat ham ongsizlik holatiga kiradi. Freyd ongsizlikni sof irratsionalistik tarzda talqin etadi. Uning fikricha, ong bilan ongsizlik o‘rtasida murosasiz qarama-qarshilik bor. Insonning butun xatti-harakati ana shu qarama-qarshilik bilan belgilanadi. Ongsizlikni odam anglashga va payqashga jur‘at etolmaydi, u insondagi azaliy mayllar maskanidir.[1] ongsizlik ong mavjudligi va rivojlanishining tabiiy sharti, deyish mumkin.[2]

O‘quvchilarda qarashlar va e’tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘ulari va irodasiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi o‘z ifodasini topadi. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan yosh avlodga nisbatan qilayotgan talablar bola ongiga yetkaziladi. "Odamni tarbiyalashning eng asosiy yo‘li ishontirishdir, odamning e’tiqodiga esa faqat ishontirish bilan ta’sir qilish mumkin". K.D.Ushinskiy.

Bu guruhga oquvchilarda ilmiy dunyoqarash, etiqodni, manaviy va siyosiy g‘oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi, hislari va irodasiga tasir korsatish metodlari kiradi. Bu guruh metodlarining

mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat oquvchilar ongiga qanday talablar qoyayotgani yetkaziladi. Yoshlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, hayot mazmunini tushunib olishlariga komaklashish maqsadida ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlari ishlatiladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, yani davlatni ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilishni tarbiyalash lozim. Tushuntirish bu ijtimoiy ongni shakllantirishda eng kop ishlatiladigan metoddir. Tushuntirishning mohiyati oquvchiga qoyilgan talabni, voqealarni, harakatlarning ijtimoiy, axloqiy, estetik mazmunini yoritadi va oquvchilarga duyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat.[3]

Psixoanaliz (psixo... va analiz) — psixoterapiya metodi va Zigmund Freyd tomonidan rivojlantirilgan psixologik ta'limot. Ongsiz psixik jarayonlar va motivatsiyani diqqat markaziga qo'yadi. Inson xulqi asosini lazzat olish (libido)ga nisbatan, ayniqsa, ilk bolalikda paydo bo'lgan seksual (jinsiy) mayl tashkil qiladi degan g'oyani ilgari surib, odam xulqidagi ijtimoiylik, onglilikni inkor etadi. Ongdan unga muvofiq kelmaydigan (asosan, seksual) mayllar va ruhiy kechinmalarni siqib chiqarish psixoanalizda har xil nevrozlar va turli patologik hodisalar (unutish, yanglish harakatlar va hokazolar)ning asosiy manbai sifatida qaraladi. Psixoanaliz nazariyasiga ko'ra, 3 xil psixik instansiyalar hukm surishi mumkin: g'ayrushuriy "U" (id) – mayl doirasi; turli himoya vositalari bilan "U"ning impulyelarini cheklovchi shuuriy "Men" (Ego); "O'ta-Men" (Super-Ego) – ijtimoiy taqiqdar, qonun tusiga kirgan majburiy tartib-qoidalar. Freydning fikricha, "Men" reallik tamoyiliga asoslangan holda inson psixikasida harakatlanuvchi qarama-qarshi kuchlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Inson o'zining qadimgi

ajdodlaridan irsiy yo'l bilan o'tgan instinktiv mayllarning namoyon bo'lishi tufayli faoldir. Instinktiv mayllar dastavval jinsiy instinkt va o'zini himoya qilishga intilish instinkti tarzida yuzaga keladi. Lekin jamiyat shaxsni ko'p jihatdan cheklab qo'yadi, uning instinktlari va mayllari "senzura"dan o'tkaziladi. Buning natijasida o'zining aksariyat instinktlari va mayllarini to'xtatish, taqiqlashga majbur bo'ladi. Instinktiv mayllar uning shaxsiyatiga tegadigan ruhiy holat sifatida ongli hayotidan siqib chiqariladi, lekin yo'qolib ketmaydi, faqat ongsizlik sohasiga o'tkazib yuboriladi, xolos.

Psixoanaliz ta'limotining vazifalaridan biri — ongsizlik sohasidagi "kompleks"larni aniklash va ularni anglashga yordamlashishdan iborat. Ushbu ta'limot namoyandalari shaxsning ichki ixtiloflarini ochib berish uchun "Edip kompleksi"ni yaratdilar. Ularning mulohazasicha, instinktiv mayllar o'z quvvati va faolligini saqlagan holda insoniyat madaniyati va shaxs faoliyati mahsulining har xil shakllariga kirib ("sublimatsiyalashib"), ongsizlik holatidan turib inson xulq-atvorini boshqarishda ishtirok qilaveradi. Psixoanalizda ongsizlik bilan onglilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatni mutlaqlashtirish uchraydi, buning natijasida ularning o'zaro bir-birini to'ldirish imkoniyati rad qilinadi.[4]

Ong insonning tevarak-atrofdagi muhitni va o'zini anglash qobiliyati bo'lib, u faqat odamlarga xos ijtimoiy mahsulot hisoblanadi. Hayvonlarda ong mavjud emas, chunki ularning harakatlari instinktlar va reflekslarga asoslangan bo'ladi. Ong insoniyat tarixida ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va til orqali shakllangan va rivojlangan. U insonning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy-tarixiy amaliyot elementlari obyektiv voqelik va ong o'rtasidagi oraliq bo'g'in sifatida dunyo haqidagi obyektiv g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi. Ongning rivojlanishi

insonning morfologik va fiziologik tuzilishining murakkablashuvi, nerv sistemasining, ayniqsa, bosh miya va uning katta yarim sharlarining shakllanishi va takomillashuvi jarayonida sodir bo'lgan. Insonning mehnat faoliyati, atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri, tilning shakllanishi va ijtimoiy munosabatlar ong taraqqiyotida hal qiluvchi omillar bo'lib xizmat qilgan. Ong inson tafakkurining yuksak shakli bo'lib, u orqali inson reallikni anglaydi, bilimlarni to'playdi, tahlil qiladi va o'z hayot faoliyatini maqsadli tashkil qiladi. Ongning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: bilish, emotsiyalar va iroda. Bilish insonning atrof-muhitni idrok etishi, tushunishi va baholashi jarayonini ifodalaydi. Emotsiyalar esa insonning turli hodisalarga nisbatan hissiy munosabati bo'lib, u insonning kayfiyatini, qarorlarini va xulq-atvorini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Iroda esa insonning maqsadga erishish uchun o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatidir. Ushbu uch komponent birgalikda inson ongining murakkab tizimini shakllantiradi va uning kundalik hayotda ongli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Ongsizlik psixikaning quyi darajasi bo'lib, u anglanmagan psixik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar inson xulq-atvoriga ta'sir qiladi, lekin ular ong darajasida anglanmaydi. Masalan, ba'zi instinktiv harakatlar yoki odatlar ongli ravishda boshqarilmaydi, balki ongsizlik darajasida amalga oshiriladi. Freud ta'limotiga ko'ra, inson ruhiyatining katta qismi ongsiz jarayonlardan iborat bo'lib, ular insonning harakatlariga, istaklariga va hissiyotlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlarni tushunish va boshqarish uchun psixologik tahlil va introspeksiya zarur. Ongning asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi: reallikni aks ettirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, xulq-atvorni boshqarish va o'z-o'zini anglash. Ong insonning tashqi dunyo haqidagi bilimlarini to'plash, ularni tizimlashtirish va mantiqiy bog'lash

jarayonini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ong inson xulq-atvorini boshqarib, uni ongli ravishda maqsad sari yo'naltiradi. Masalan, inson o'z oldiga maqsad qo'yganda, unga erishish uchun strategiyalar ishlab chiqadi va o'z harakatlarini shu asosda tashkil qiladi. Ong orqali inson o'zining shaxsiy fazilatlarini, his-tuyg'ularini, imkoniyatlarini va cheklovlarini anglaydi. Ong – bu ijtimoiy mahsulot bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanadi. Tarixiy taraqqiyot davomida inson ongining rivojlanishida ijtimoiy munosabatlar, mehnat jarayoni va til muhim rol o'ynagan. Til ong shakllanishining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni avloddan avlodga yetkazish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson ongining rivojlanishi ijtimoiy tajriba va ta'lim jarayonlari bilan uzviy bog'liq.[5]

Xulosa: Ong insonning rivojlanishida va kamol topishida juda katta ahamiyatga ega. U orqali inson o'zini anglaydi. Jamiyatda o'zining orniga ega boladi. O'zining ongli yoki ongsiz ravishda amalga oshirayotgan ishlarini tahlil qilishni organadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Blake PR, Rand DG, Tingley D, Warneken F. 2015. The shadow of the future promotes cooperation in a re'eated prisoner's dilemma for children. Sci Re'. 5:14559.
2. Block K, Gibbs L, Staiger 'K, Gold L, Johnson B, Macfarlane S, Long C, Townsend M. 2012. Growing community: the impact of the Ste'hanie Alexander Kitchen Garden program on the social and learning environment in 'rimary schools. Health Educ Behav. 39(4):419-32.
3. Cortes Barragan R and Dweck CS. 2014. Rethinking natural altruism: simple reci'rocal interactions trigger children's benevolence. proc Natl Acad Sci U S A.111(48):17071-4.

4. Xodjaev B.X. Umum ta’lim maktabi o’quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: ped.fan.dok.... diss. - T., 2016. - 314 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KITOB BILAN ISHLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY ZARURAT SIFATIDA.

Mamadaminova Durdona Dilmurod qizi

Namangan davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi, 3- kurs talabasi.

E-mail: Durdonamamadaminova46@gmail.com

Tel: +99894 762-09-02

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob haqida tushunchaga ega bo’lishida ota-onalarning o’rni, kattalardan kitob o’qib berishlarini so’raydigan qizuquvchan bolalar toifasi, kitobdagi rasmlar va so’zlar orasidagi bog’liqlikni anglatish usullari, tinglash va tushunish qobiliyatini shakllantirish yo’llari, muloqot vaqti va davomiyligi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib kitob bilan ishlash malakalarini shakllantirish usullari taxlil qilinadi.

Kalit so’zlar: bolalar kitobi, fikrlash, nutq, muloqot, kitobxonlik muxiti, “daxo tilchi”, passiv, faol, qadriyat, muallif.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль родителей в помощи дошкольникам в понимании книг, категория любознательных детей, которые просят взрослых прочитать книги, способы выражения связи между картинками и словами в книгах, способы формирования навыков слушания и понимания, анализируются время и продолжительность общения, методы

формирования навыков работы с книгами с учетом возрастных особенностей.

Ключевые слова: детская книга, мышление, речь, общение, среда чтения, «гениальный лингвист», пассив, актив, ценность, автор.

Abstract: This article discusses the role of parents in helping preschoolers understand books, the category of inquisitive children who ask adults to read books, ways of expressing the connection between pictures and words in books, ways of developing listening and understanding skills, the time and duration of communication, methods of formation are analyzed. skills in working with books, taking into account age characteristics.

Keywords: children’s book, thinking, speech, communication, reading environment, “brilliant linguist”, liability, asset, value, author.

Kirish.

Zamonaviy jamiyatda kitoblar tobora ko‘proq kompyuterlar, elektron va raqamli vositalar bilan almashtirilmoqda. Zamonaviy ota-onaga uchun kitob olib, farzandiga o‘qib berishdan ko‘ra pultdagi tugmani bosish osonroq bo‘lib bormoqda. Ammo faqat jonli muloqot bilan bolaning shakllanishi va rivojlanishi sodir bo‘ladi. Bolalar va kitoblar o‘rtasidagi aloqaning yetarli emasligi oqibatida nutqning buzilishi, fikrlash jarayonlarining susayishi, bilish jarayonlari, intellektual faollikning rivojlanishi pasayishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi bolaning umumiy holatiga va uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Shunday qilib, maqolamizning dolzarbligi yosh avlodning taraqqiyoti va ta’limning asosiy bilim manbai sifatida kitobga bo‘lgan talabi va uni kattalar tomonidan qiziqtirish yetarli emasligi bilan bog‘liq.

Kitob bola rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. She’rlar va ertaklarni tinglab, bola yangi so‘zlarni o‘rganadi va lug‘at boyligi oshadi, kitobning

mazmuni va rasmlari uning dunyoqarashini kengaytirishga, xotira va e’tiborni rivojlantirishga yordam beradi. Kitob hamma narsaga qiziquvchanlik kabi muhim sifat uchun asos yaratadi. Kitob nutqni o’zlashtirishga yordam beradi-atrofdagi dunyoni, tabiatni, sabab-oqibatni, insoniy munosabatlarni bilishning kaliti. Shuning uchun kitobga qiziqishni erta bolalikdan uyg’otish kerak.

Kitob bolaning axloqiy ideallariga ta’sir qiladi, uning qadriyatlarini shakllantiradi. Kitob qahramonlari bolaning dunyosiga mos keladigan yoki unga noma’lum bo’lgan turli xil hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirishadi. Kitob qahramonlari duch keladigan vaziyatlarning misollaridan foydalanib, bola yaxshilik va yomonlik, do’stlik va xiyonat, hamdardlik, burch, sharaf nima ekanligini tushunishni o’rganadi. Bola qahramon bilan birgalikda uning muvaffaqiyatsizliklari va g’alabalarini boshdan kechiradi, maqsadga erishish yo’lidagi qo’rquv va qiyinchiliklarni yengish yo’llarini tushunadi, o’zi ishlab chiqadi.

Kitob orqali maktabgacha yoshdagi bola turli xil xatti-harakatlarni qabul qiladi (qanday qilib do’st bo’lish, qanday qilib maqsadga erishish, turli xil hayotiy vaziyatlarda samarali bo’lishi mumkin bo’lgan nizolarni qanday hal qilish kerak. “Ibn Sino va kitoblar” rivoyatini o’qish o’zi uchun kim va nimaga chidaganligi, nimani yoqtirganligi, nimaga yaqin bo’lganligi, qo’rqmagani, kitoblar zavqlantirgani haqida baxs- munozara bilan to’ldirilsa, yuqori ta’sirga erishish mumkin.

Qoida tariqasida, ota-onalar bolalarga tez-tez va ko’p o’qiydigan oilalarda uyg’un, do’stona muhit mavjud. Ota-onalar tomonidan farzandiga kitob o’qish farovon oilaning ko’rsatkichi sifatida qaralishi mumkin, bunday oilalarda zo’ravonlik va oilaviy kelishmovchilik darajasi past. Jamiyatimizning ustuvor muammolaridan biri bu bolani o’qishga jalb qilishdir. Afsuski, axborotlashtirish davrida bolalarning

kitobga bo'lgan munosabati o'zgardi, o'qishga bo'lgan qiziqish pasaya boshladi. Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, maktabgacha yoshda bolalar televizor va video mahsulotlarni, kompyuter o'yinlarini tomosha qilishni afzal ko'rishadi. Natijada, maktab o'quvchilari o'qishni yoqtirmaydilar, o'qishni xohlamaydilar.

Biz bolalarni taraqqiyot olib kelgan narsadan mahrum qilish huquqiga ega emasmiz, ammo, elektron dunyo o'zida yashiradigan salbiy ta'sirni sezmaslik va inkor etishga haqqimiz yo'q. Lekin, turli janrdagi bolalar kitoblari ularning hayotida muhim o'rin egallashini anglatishni uddalashimiz kerak. Bolalar kitobi - bu bolalar uchun maxsus yaratilgan kitoblar va davriy nashrlar, shu jumladan san'atning uch turi - so'z, rasm va dizayn asarlari - shaxsni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida bola hayotining ilk yoshidan dunyoni idrok etish va o'qish uchun manba sifatida taqdim etiladi.

Bolalar kitobidagi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni mustaqil ravishda o'zlashtira olmagan sababli atrofdagi yaqinlarining yordamiga muxtoj bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar hali kitob o'qiy olmasalarda, ular uchun olam noma'lumlik sirlarini bilishga, o'zlashtirishga intilish, qiziqish kuchli bo'ladi. tarbiyachilarning vazifasi uning xuddi shu intilishini hisobga olib, qiziqishini alangalatishga qaratilgan holda ish tutishdan iborat. Bunda u maktabgacha yoshdagi kichkintoy tabiatiga xos taqlidchilik xususiyatini ko'zda tutib, hayotdagi xarakterli voqea va hodisalarni uning tasavvuriga mos badiiy obrazlarda ifodalovchi asarlar tanlamog'i lozim.

ADABIYOTLAR TAXLILI;

Z. A. Gritsenko bolaning kitob bilan birinchi tanishuvi imkon qadar erta bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [1]. Kitob-tarbiyalashga yordam beradigan ko'rinmas vosita bo'lib, boladagi ta'limiy tamoyillar, axloqiy

qoidalar va madaniy qadriyatlar, ma'lumotni o'zlashtirish, tasavvurni rivojlantirish, o'zi va boshqa odamlarning harakatlarini o'ylash, tahlil qilish, baholashga o'rgatadi.

O'qish va kitobga qiziqishni rivojlantirishda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Marshakning fikriga ko'ra, yoshga xos xususiyatlar bola ruhiyatining xususiyatlari, xususan, fikrlashning o'ziga xosligi, ta'sirchanligi, zaifligi buxgalteriya hisobida aniq ifodalanishi kerak.[2]

Z. A. Gritsenkoning ta'kidlashicha, bolaning kitob va badiiy adabiyot bilan birinchi tanishuvi u o'qishni o'rganishdan oldin boshlanadi. Farzandingizga harflar, so'zlar, tovush va bo'g'in hamda jummalarni tuzishni o'rgatish, u o'zlashtirishi kerak bo'lgan texnikadir [3]. Z. A. Gritsenko tinglovchi bolani allaqachon o'quvchi deb hisoblaydi. Ammo kichkina o'quvchining taqdiri kitobni olgan kattalarga bog'liq va ular yozuvchi va tinglovchi o'rtasida vositachiga aylanishadi.

R. I. Jukovskaya maktabgacha yoshdagi bolalar bilan she'rlarni yodlash bosqichlarini ishlab chiqdi. U kitobning maktabgacha yoshdagi bolaga ta'sirini turli xil his-tuyg'ularni, axloqiy xulq-atvor madaniyatini, bilimga qiziqishni tarbiyalash sifatida ko'rib chiqdi [4].

6-7 yoshga kelib, bola adabiy asarning badiiy shaklining ba'zi xususiyatlarini chuqurroq anglashi va anglashi mumkin. Ular badiiy matn janrlarini ajrata oladilar, har bir janrning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi har bir bolaning kitob tanlashda o'z tajribasi bo'lib, bu o'qilgan adabiy va badiiy asardan xosil bo'lgan his-tuyg'ular, taassurotlar tajribasi bilan bog'liq. N. N. Svetlovskaya nuqtai nazariga ko'ra, o'qishga bo'lgan qiziqish umumiy kitoblarga emas, balki tanlab o'qishga qaratilgan [5].

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tashkil qilinadigan kitoblar ko'rgazmasi badiiy jihatdan jozibador bo'lishi, dizayn va tashqi ko'rinishdan hayratga solishi kerak. Kitob ko'rgazmasi uch-to'rt kundan oshmasligi kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmaga qiziqish asta-sekin yo'qoladi. N. V. Poltavskaya, o'qishga qiziqishni kuchaytirish uchun kitob maketini yaratishni tavsiya qiladi.[6] Kitob muqovasi hamma bolalar uchun bir xil andozaga muvofiq bo'lishi, lekin har bir bolaning kitob mundariyasi, mazmuni har xil bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Pedagog uchun badiiy nutq, ifodali o'qish nafaqat zaruriy mahorat, balki bolalarga sezilarli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadigan mahoratdir. Ifodali o'qish yordamida pedagog bolalarni san'at olami bilan tanishtiradi, ularga to'g'ri, tasviriy misollar keltiradi, ifodali o'qishni tinglab, bola badiiy matnlarga qiziqish bildiradi, xuddi o'qituvchi qilganidek barcha urg'u va ohangni takrorlashni xohlaydi. [7]

Bunday intilish zamirida kichkintoy nutqida o'zgacha emotsionallashuv jarayoni sezila boshlanadi. Bolalardagi bunday insoniy sezgirlikdan hayratlangan L.Tolstoy ayrim noshud yozuvchilarning tildagi no'noqliklariga ta'na qilib: «Bola so'z yasash qonunlarini sizdan ko'ra yaxshiroq anglaydi, chunki hech kim uningchalik tezlik bilan yangi so'z yasay olmaydi,» –degan edi. Bolalar tilini uzoq kuzatgan K.Chukovskiy ham bu fikrni tasdiqlaydi: «Ikki yoshidan boshlab har qanday bola qisqa muddat ichida «daho tilchi» darajasiga ko'tariladi,» – deya e'tirof etgan edi.[8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob bilan ishlash malakalarini rivojlantirish ijtimoiy zarurat ekanligi va bu jarayonlarda oila hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida kitob bilan ishlashda

rivojlantiruvchi muhitni yaratish zarurati muhokama qilinadi. Aynan ota-onalar farzandlariga birinchi kitoblarni o'qib beruvchilar, kitobning afzalliklari, o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga ta'sir qiluvchilardir. Kattalarning o'qishini tinglash, u bilan birga kitob rasmlarini ko'rib chiqish orqali bola faol o'ylaydi, qahramonlar haqida qayg'uradi, voqealarning davomini kutadi, o'z tajribasi va boshqalarning tajribasi o'rtasidagi aloqalarni o'rnatadi. Bu so'zlar bugungi kunda dolzarbmi? Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlari asrida bizga kitoblar kerakmi? Va hali o'qiy olmaydiganlar bilan nima qilish kerak? Bolalarga kitobga bo'lgan muhabbatni singdirish kerakmi? Javob aniq-HA!

TAHLILLAR VA NATIJALAR;

Bola o'sib bormoqda, demak, har kuni uni tobora ko'proq yangi taassurotlar kutadi, u dunyoni faol o'rganishni va ko'plab kashfiyotlar qilishni xolaydi. Ular jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turli xil ma'lumotlarni, yangi bilimlarni atrofdagi odamlardan, birinchi navbatda ota-onalaridan, tarbiyachilaridan, shuningdek kitoblardan olishadi.

Erta yoshdan oilada bola bilan kitob o'qish kerakligining birinchi sababi bolaning xavfsizligiga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Bolalar bilan kitob o'qilayotganda ona yoki otasining tizzasida (yoki ota-onasining yonida, ularni quchog'ida) o'tirsa, unda yaqinlik, xavfsizlik va hamkorlik hissi uyg'onadi. Yagona makon va tegishlilik hissi yaratiladi. Bunday daqiqalar quvnoq jamoaviylik tuyg'usini shakllantirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi sabab-bola o'z "men" ining qadr-qimmati va ahamiyatini his qilish. Ota-onalar bolaga qiziq bo'lgan narsalarni o'qib, u bilan u uchun muhim bo'lgan mavzularni muhokama qilishga tayyor bo'lganda,

uning qarashlarini iloji boricha yaxshiroq tushunishga intilishganda, bola o'zini ehtiyojlari va qiziqishlari muhim bo'lgan qadrlil shaxs sifatida tasavvur qiladi (unga faqat muhim odamlargina e'tibor berishini – ular, ota-onalar ekanini anglaydi).

Uchinchi sabab-qadriyatlarni shakllantirish Kitob bolaning axloqiy ideallariga ta'sir qiladi, uning qadriyatlarini shakllantiradi. Kitob qahramonlari turli xil ishlarni qilishadi, bolaning dunyosiga mos keladigan yoki unga noma'lum bo'lgan turli xil hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirishadi. Kitob qahramonlari duch keladigan vaziyatlarning misollaridan foydalanib, bola yaxshilik va yomonlik, do'stlik va xiyonat, hamdardlik, burch, sharaf nima ekanligini tushunishni o'rganadi. Va ota-onalarning vazifasi bu qadriyatlarning bola hayotidagi aksini ko'rishga yordam berishdir. Ota-onalar bolaga o'qiganlarining o'z hayoti bilan o'xshashligini ko'rishga yordam berishlari mumkin.

Hech kimga sir emaski, zamonaviy bolalar kitob o'qishdan ko'ra, televizor dasturlari, videolar va kompyuter filmlarini tomosha qilishni afzal ko'rishadi. Ushbu qayg'uli haqiqatni oldini olish uchun uyda ota-onalar, maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilar bola yoshligidanoq imkon qadar ko'proq kitob o'qishga qiziqtirishlari kerak. Kitob o'g'il bolalarni ham, qizlarni ham qiziqtiradi, asosiysi bolaga yoqadigan variantni topishdir.

Kitob 5-7 oylik bolalar uchun ham qiziqarli bo'lib, kitob bilan birinchi marta tanishayotgan chaqaloq uni yirtadi, ezadi, og'ziga solib g'ajilaydi, so'radi, lekin undagi ranglar, turli-tuman obrazlarni uzoq tomosha qiladi. Hayotning birinchi yilida kitob sevimli o'yinchoqqa aylanadi. Endi bolani sensorli kitoblar bilan tanishtirish yaxshiroqdir. (Ovozli, fetra materialidan tayyorlangan rivojlantiruvchi kitoblar,

belgilarning harakatlanuvchanligi, ya'ni ko'zlari bilan). 1,5 yoshga kelib, u nafaqat ertaklar, bolalar she'rlari, qofiyalar va boshqa san'at asarlarini tinglaydi, balki aqliy operatsiyani asta-sekin, bir harakatdan ikkinchisiga o'tkazadi. Siz gullar, sabzavotlar, mevalar, hayvonlar va qushlar haqida tematik kitoblarni taklif qilishingiz mumkin va bu ham kesilgan rasmlar bo'lishi mumkin. Farzandingiz bilan o'qishingiz kerak: kitob oling, uning yonida o'tiring va o'qing. Kitoblar tizimli ravishda ovoz chiqarib o'qilganda, vaqt o'tishi bilan bola asarning tuzilishini tushuna boshlaydi: ishning boshlanishi va oxiri qayerda, syujet qanday rivojlanadi. Bola mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. O'qish tufayli bola jummalarni to'g'ri tuzishni o'rganadi, uning so'z boyligi kengayadi, tasavvuri rivojlanadi. Bundan tashqari, bola tinglash qobiliyatini rivojlantiradi va bu juda muhim sifatdir.

Ikki yoshga kelib, asarlar xilma-xil bo'lishi kerak: xalq va mualliflik ertaklari, qisqa realistik hikoyalar, she'riy asarlar va boshqalar. Ko'pchilik matnni passiv o'rganishga ega. Ertak va hikoyalarda, birinchi navbatda, individual qahramonlar (Bo'g'irsoq, quyon, ayiqpolvon...) yoki takrorlanadigan so'zlar (Echki va uning bolalari, Tulki bilan Turna, Chol bilan kampir...) bolaga tushunarsiz bo'lsa ham tinglaydi, faqat ularga 5 daqiqagina kitob o'qib berish kerak. O'qiyotganda kitob yuzasida barmoqlaringizni yurgizib, o'z o'qish tezligingizda o'qishingiz ham, bolani qo'llarini ushlab birgalikda o'qishingiz ham bola miyasida sezilarni faollikni yuzaga keltiradi.

Uch yoshli bola uchun kitob o'qish zarurat emas, siz bolaning e'tiborini kitobga to'g'ri munosabatga jalb qilishingiz kerak. Rivojlanishning ushbu davridagi faoliyati kuzatish, qisqa tinglash va kattalar qo'lidan kitob bilan birinchi aloqa bilan bog'liq. Tarbiyachi kitobga bo'lgan munosabat namunasini ko'rsatadi: uni ehtiyotkorlik

bilan ushlab turadi, ehtiyotkorlik bilan varaqlaydi, tasvirlarga ishora qiladi, muqovaga va kitobning qolgan qismiga mehr bilan qaraydi. Siz har doim bolalarga kim haqida gapirayotganingizni ko'rsatishingiz kerak, keyin bolalardan so'rang: ayiqni, tulkini ko'rsating. Shunday qilib, tarbiyachi qahramonlar bilan birinchi muloqotni o'rgatadi. Bola o'qimaydi, balki o'qilgan kitob mazmunini aytib beradi, bolalar bilan tinglash paytida yaqindan muloqot qiladi, ularning taassurotlariga quloq tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolani shakllantirish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

Passiv- agar bola kattalar tomonidan unga o'qilgan asarlarning faqat tinglovchisi bo'lsa.

Faol- bola kitoblarga qiziqish bildirsa, doimiy ravishda kattalardan unga qiziq bo'lgan va o'zi tanlagan kitobni o'qib berishlarini so'rasa, shundagina bola harflarni osongina o'rganadi, o'zi o'qishni bilmasada kitobda barmoqlarini yurgizib xuddi o'qiyotgandek eshitganlarini qayta xikoya qiladi, o'zi o'qishni boshlaydi.

Bolalarning ikki turi farqlanadi:

1-Eshitish qobiliyatini o'rganuvchilar (Audiallar)- adabiy matnni kitobga mavzu sifatida qiziqish bildirishdan oldin ham eshitish orqali idrok etadilar. Ular o'sib ulg'aygan sayin, o'zbek va xorijiy bolalar yozuvchilarining yanada murakkab va katta matnli ertaklarini tanlash kerak. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotiga muallifning ertaklari- Sh. Perro, G. X. Andersen, aka-uka Grimmlar, B. Zaxoder va boshqalar kiradi. Ushbu mualliflarning kitoblarini tanlashda nafaqat rasmlarga, balki matn sifatiga ham e'tibor berish kerak (ya'ni tarjima). Ko'plab taniqli bolalar kitoblari umuman bolalar tilida emas. Siz ertaklarni asta-sekin, ifodali o'qishingiz kerak. Bola uni to'liq o'zlashtirmaguncha, har

bir ertakni bir emas, balki bir necha marta o'qish kerak. Bir necha marta takrorlash, zeriktirmaydi, aksincha, u yanada sevimli va o'ziga xos bo'lib qoladi.

2-Vizual tasvirlar - matnni idrok etish uchun birinchi navbatda vizual, moddiy yordam - kitob kerak. 6-7 yoshli bolalar uchun ertaklar hali ham badiiy adabiyotning barcha janrlari orasida birinchi o'rinda turadi, xalq ertaklari bilan birga mualliflik ertaklari ham qo'shiladi. Shuning uchun ularni Eduard Uspenskiy asarlari va N. Nosovning kulgili hikoyalari bilan tanishtirish mumkin. Bu yoshdagi bolalar katta bosma va ko'plab chiroyli rasmlarga ega yorqin kitoblarni sotib olishlari kerak; kitobning syujeti qiziqarli bo'lishi kerak, shunda bola oxirigacha o'qishni xohlaydi. Bu yoshdagi kitob zavqli bo'lishi kerak. Kitob tanlashda asarlardagi dialoglar soniga e'tibor bering, chunki siz rol bo'yicha o'qiy olasiz.

Ota-onalar uchun maslahatlar

- Kitobning qadri haqida tez-tez gapiring;
- Oilangizning kitob merosini namoyish etish orqali kitoblarga hurmatni oshiring;
- Farzandingiz uchun asosiy o'rnak bo'lasiz, agar siz farzandingiz o'qishini istasangiz, unda siz ham bir oz vaqtingizni kitob bilan o'tkazishingiz kerak;
- Kutubxona va kitob do'konlariga birgalikda tashrif buyuring;
- Dizayni yorqin va mazmuni qiziqarli kitoblarni xarid qiling;
- Farzandingizning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'ling va xatolarga e'tibor qaratmang;
- O'qigan kitobingizni oila a'zolari orasida muhokama qiling;
- Farzandingizga o'qigan kitobingiz muallifi haqida gapirib bering;
- Oilaviy kitobxonlik mashg'ulotlarini tez-tez o'tkazing.

- Bolalar uchun kitob o'qish kundalik odatga, zaruratga aylanishi kerak. Bolalar bu vaqtlarni uzoq xotiralarida saqlashlari va buni o'z hayotlarida an'anaga aylantirishlari kerak.

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob bilan ishlash malakalarini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida oiladan shakllanadi, ta'lim muassasalarida pedagoglarning mahorati, ijodiy yondashishlari natijasida rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning erta o'qishga qiziqishini rivojlantirish kitoblar ta'sirida sodir bo'ladigan shaxsni har tomonlama shakllantirishning uzoq muddatli jarayon ekanligi haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боголюбская, М.К. Художественное чтение и рассказывание в детском саду [Текст] / М.К. Боголюбская. – М. : Просвещение», 2008. – 224с
2. Ядэшко В.И. Дошкольная педагогика. М.: Академия, 1986. 34-с
3. Воюшина, М.П. Актуальные проблемы развития чтения [Текст] / М.П. Воюшина // Дошкольное воспитание. – 2011. – № 6. – С. 18-22.
4. Барташева, Н.В. Воспитание будущего читателя [Текст] /Н.В. Барташева // Дошкольное воспитание. – 2004. – № 8. – С. 28-34.)
5. Светловская, Н.Н. Обучение чтению и законы формирования читателя [Текст] // Начальная школа. – 2003. – № 1. – С. 11-18.
6. Айзерман, А.С. Опыт писателя и опыт читателя [Текст] /А.С. Айзерман // Дошкольное воспитание. – 2009. – № 7. – С. 23-27.

7. Антонова, Е.С. Как я воспитываю интерес к книге [Текст] / Е.С. Антонова // Начальная школа плюс до и после. – 2005. – № 3. – С. 35-37.

8. Гурович Л.М., Береговая Л.Б., Логинова В.И., Пирадова В.И. Ребенок и книга: пособие для воспитателей детского сада изд. СПб.: ДетствоПресс, 2000.

ATOQLI OTLARNI TARJIMA QILISH JARAYONIDA YUZ BERADIGAN GRAMMATIK XATOLAR

Boltabayeva Ma’rifatxon Baxromjon qizi

O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası o‘qituvchisi

Shahrizoda Abdumutalipova Hushnudjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi

3-bosqich (XTA-DU-22) gruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inglizcha-o‘zbekcha ismlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda sodir bo‘ladigan grammatik xatolar haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются грамматические ошибки, возникающие при переводе англо-узбекских существительных с одного языка на другой.

Abstract: This article examines grammatical errors that occur when translating English-Uzbek nouns from one language to another.

Kalit so‘zlar: atoqli otlar, tarjima, grammatik xato, tillar, botlar va saytlar.

Ключевые слова: существительное, перевод, грамматическая ошибка, бот и сайт.

Key words: Proper noun, translation, grammatical error, languages, bot and sites.

Kirish. Tarjima, grammatika chuqur tushunish va bilishni talab qiladi. Bilamizki, atoqli otlar, ayniqsa, ismlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda har doim ham kutilgan natijani olmasligimiz aniq. Ba’zi so’zlar boshqa tilga aynan aslidek tarjima qilinmasligi mumkin. Misol qilib, o’zbek tilidagi “Guli” ismini olaylik, bu ism elektron tarjimonlarda “Flower” deb tarjima qilinadi. Agar biz ba’zi ismlar boshqa tilga aslidek tarjima qilinishini yoki umuman tarjima qilib bo’lmasligini bilmasak, bunday xatolarni oxiri ko’rinmaydi.

Atoqli otlarni tarjima qilish badiiy tarjimaning eng murakkab masalalaridan biri sifatida namoyon bo’ladi. Shaxsiy ismlarga tegishli asosiy qoida shundaki, ular tarjimasiz qoldirilgan ya’ni ularni asl ma’nosida tarjima qilish imkonsiz. Muammo shundaki, tillar bir xil alifboga ega bo’lsa ham, harflarning talaffuzida farqlanadi. Bu unlilar va yarim unlilar uchun xos. Masalan, o’zbek tilida e unlisi ingliz tilida i kabi talaffuz qilinadi ya’ni Peter ismi o’zbek tiliga Piter deb tarjima qilinadi bunda e iga almashadi va e emas i deb talaffuz qilinadi. Nafaqat unlilar balki undoshlar ham ba’zi hollarda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Jumladan, o’zbek tilida Q harfi bilan boshlanuvchi ismlarni K harfi bilan talaffuz qilinishi (Quadrat- Kudrat) yoki X harfi qatnashgan ismlarda ingliz tilida qattiq x harfi yo’qligi sababli xning kh ga almashishi (Shaxnoza-Shakhnoza) bunga yorqin misol bo’la oladi. Qolaversa, yuqorida aytib o’tilganidek, ba’zi ismlarni turli tillarga tarjima qilib bo’lmaydi. Olmos, Guli, Xushnud, Xumora va shu kabi ismlarning tarjimalari asli kabi atoqli otmas balki turdosh ot sifatida tarjima qilinadi. Tillar o’rtasidagi bunday farqlar tarjimani cheklab qo’ygan. Elektron tarjima yoki botlar orqali tarjima qilingan ismlarni insonlar

to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblashadi. Biroq, malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan tarjimalar ham o‘z imkoniyatlari bilan chegaralangan bo‘lsa, qanday qilib turli xil tarjima botlari yoki saytlar bunday ijodiy vazifalarda yaxshiroq bo‘lishi mumkin? Arab, yapon va xitoy tillari yer yuzidagi eng qiyin tillardan biridir. Shu sababli ularni nafaqat o‘rganish, balki tarjima qilish ham juda qiyin. Ismlarni aytib o‘tilgan tillaridan ingliz tiliga tarjima qilish unchalik oson emas. Ushbu uch tildagi ismlar ko‘pincha chuqur ma’noga ega va ismning bir qismini o‘zgartirish, ismning tub ma’nosini ham o‘zgartirishi mumkin[1]. Adabiyot asarlarida qahramonlarning ismlari ba’zan ularning taqdiri yoki kitobdagi asl maqsadini aks ettiradi, lekin ingliz tiliga tarjima qilinganda ular asl ma’nosini, ba’zan esa butun ma’nosini yo‘qotadi. Agar ism hikoyaning markazida bo‘lsa, uning ma’nosini yo‘qotish butun kitobga ta’sir qilishi mumkin. Ismimizni o‘z tilimizda va boshqa xalq tilida to‘g‘ri aytilishini istar ekanmiz, keling, yaxshisi, o‘zga xalqlar ism-shariflarini ham tilimiz imkoniyatlaridan kelib chiqib asliyaticha saqlashga harakat qilaylik. Masalan, nemischa Reinhold (Raynhold) – “Azizlarning azizi” demakdir. O‘zbek tilidagi “Azizxo‘ja” ismi shu niyatda qo‘yilsa kerak. Bu ismni agar Rayngold deb o‘girsak – “sof oltin” ma’nosi paydo bo‘ladi. Tarjimalarda esa ko‘pincha “Reyngold” shakliga duch kelimiz, ya’ni oltinning sofliги yo‘qolib, azizlik tillaga aylanib qoladi va ism butunlay o‘zgaradi, ma’nosiz bo‘lib qoladi.[2] Biz bilamizki, tegishli nomlarning tarjimasi haqida mukammal nazariyalar mavjud emas, chunki bir harfning yo‘qolishi ism ma’nosini o‘zgartirib yuboradi.

Badiiy tarjimaga kelsak, shaxs nomlari tarjimasi eng murakkab masalalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ballard (1993) quyidagi g‘oyani ilgari suradi: Shaxs nomlari hech qanday holatda tarjima qilinmasligi kerak. Ular tarjimalar paytidagidek saqlanadigan kam sonli

narsalardan biridir. Hujjat boshqa tilga tarjima qilinayotgan bo'lsa, nomlar bilan birga faxriy yorliqlar qo'shilishi mumkin, ammo ismlarning o'zi hech qanday holatda o'zgartirilmasligi kerak.[3]

Xulosa qilib aytganda, tarjimonlik ancha yillardan beri eng murakkab jarayonlardan biri bo'lib kelgan. Shuningdek, turli xil shaxslarning ismlarini tarjima qilish ham oson emas. Shunday ekan, biz aytishimiz mumkinki, ismlar tarjimasida ma'lum bir nazariya izchillik mavjud emas. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ismlarni turli tillarga tarjima qilib bo'lmaydi. Lekin bunga bir nechta istisnalar mavjud. Agar nom turli tillarda bir nechta imlo farqlari bilan mavjud bo'lsa, u kitob yoki filmda bo'lsagina tarjima qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahimov. X "Nomlarning nomunosib tarjimasini". Murojaat qilingan sana: 07.04.23. manba: <https://sof.uz/uz/post/nomlarning-nomunosib-tarjimasi>
2. Difficulties in Translation with Names in Arabic, Japanese, Chinese Languages into English. Murojaat qilingan sana: 06.04.23. manba: <https://www.universal-translation-services.com/difficulties-in-translation-with-names-into-english/>
3. The problem of the translation of proper names in harry poter and the lord of the rings 1990. P140. Murojaat qilingan sana: 07.04.23 manba: <https://dialnet.unirioja.es/descarga/articulo/974490.pdf>

RIDDLES IN ENGLISH AND UZBEK

Muminov Xurshidbek Numonjon o‘g‘li

Student, Andijan state institute of foreign languages

E-mail: sanam_2004@mail.ru

Tel: +998938280966

Abstract: This article discusses riddles that have played an important role in folk oral literature. Riddles are usually questions and tasks in a poetic or prose structure, based on finding a deliberately hidden feature, form, behavior, state and function of an object or event by comparing it with another object or event, and are called riddles, riddles and first-class terms.

Аннотация: Ушбу мақолада халқ оғзаки адабиётида муҳим ўрин тутган топишмоқлар ҳақида гап кетади. Топишмоқлар одатда, нарсга ёки ҳодисаларнинг атайлаб яширинган белгиси, шакли, хатти-ҳаракати, ҳолати ва вазифасини бошқа нарсга ёки ҳодисаларга қиёслаш асосида топишга асосланган шеърый ёки насрий тузилишдаги савол ва топшириқлар ҳисобланади ва улар халқлар ўртасида топишмоқ, жумбоқ, топ-топ атамалари билан юритилади.

Аннотация: В данной статье рассматриваются загадки, сыгравшие важную роль в народной устной литературе. Загадки обычно представляют собой вопросы и задания в стихотворной или прозаической структуре, основанные на нахождении заведомо скрытого признака, формы, поведения, состояния и функции предмета или события путем сравнения его с другим предметом или событием, и у народов их называют терминами топишмоқ, жумбоқ, топ-топ.

Keywords: riddles, genre, folklore, rhyming, dynamism, approach, concept.

Калит сўзлар: топишмоқлар, жумбоқлар, жанр, халқ оғзаки ижоди, қофия, динамизм, ёндашув, тушунчалар.

Ключевые слова: загадки, жанр, фольклор, рифмовка, динамичность, подход, концепты.

Introduction:

It is no secret that riddles are usually popular in the culture of all peoples, in general, among the representatives of all nations, and they have always been used in the oral discourse of the people, the nation. That is why riddles are passed down from generation to generation, they live among the people and are inherited, - it is no exaggeration to say. The narration of the riddles also varies from region to region.

Material and methods:

According to foreign sources, the origin of the riddles is not clear, and some research suggests that the former were given in Sanskrit, in biblical passages, and in oral tradition stories that became legends. Its birth and development also depend on a person's curiosity and curiosity to know more. On the other hand, some studies have shown that the riddles originated in China, especially in Xang-Cheu during the Sunga Dynasty. A group of men dressed in the same way appeared on the streets, offering money to the public in exchange for answering riddles they posed. As for the etymological origin, the word riddle is derived from the Latin, which consists of a prefix, which means advertising - "correct" and the root divinus - belonging to God [1,12].

As for the properties of riddles, when adding or combining hidden or partial keywords in a text, it consists of speeches that evoke the imagination of the recipient and find a solution until meaning is formed.

Riddles can usually take two different forms. The first is puzzles, in which words that are mostly metaphorical or figurative mean - konundra

- a language that requires careful thinking and the meaning of the questions that affect the answer to that question. [1, 20].

Elly Kongas Maranda made such remarks. They argue that puzzles, whereas legends serve to encode and establish social norms, "define puzzles to play with conceptual boundaries and to gain intellectual pleasure in showing that they are not visibly unstable," he explained. Although there is no known author of riddles in general, they are a folk oral genre that is passed down from nation to nation, and one of the characteristic features of other folk oral genres is that they teach man to think, reason, and come to a solution by distraction. Moreover, one of the main features of riddles is that it sharpens the human brain and helps to create new thoughts, ideas [1, 89].

Now let's look at the definition of the word "riddle" in the Uzbek dictionary: 1. In the riddle game: a short description of what is to be found, an event and a symbol, represented by analogies; puzzle-Children asked Nuri. Nuri had to tell a few riddles, not a fairy tale. But without saying a word, the children found out. (Oybek. Selected works) [2, 532].

While riddles can be used to entertain children, they can also be used in education systems to educate children about concepts and meanings that are part of everyday life, and on the other hand, bringing children together in groups can further enhance popular culture.

The riddles of many countries, if we pay attention, we see that they are similar to each other. In our opinion, the riddles are told by one person, and the representatives of different peoples convey them to their people in their own interpretations, and then these riddles are rhymed and become a national myth of this people. [3, 125].

In particular, what must be found for the creation of any riddle is that the properties of the objects were the leading informative factor [3,

165]. As evidence of our opinion, we also found it appropriate to cite examples from fairy tales. The title of the enigmatic tale is as follows:

The answer to Khurayim's question.

At the end of his life, a king named Sultankhan wanted to marry a girl named Khurayim. The sultan sent a suitor/matchmaker to Khurayim. Khurayim asked the following things for exchange:

Ўнта улоқ, (Ten kids)

Ўттизта йўлбарс, (Thirty tigers)

Қирқта тулки, (Forty foxes)

Элликта нухта, (Fifty points)

Олтмишта ахта, (Sixty axes)

Етмишта саргалдоқ, (Seventy yellow orioles)

Саксонта чақалоқ, (Eighty babies)

Тўқсонта тумалоқ, (Ninety rounds)

Юзта жумалоқ (Hundred rounds

and asked him to deduce the meaning of that word. The king, after thinking, said that Khurayim is smart. He said that the meaning of the riddle is related to one's life. The man answered:

Ўнда улоқдай бўлади,

Ўттизда йўлбарсдай бўлади,

Қирқда тулкидай бўлади,

Элликда нухталанган отдай ақли расо бўлади,

Олтмишда ахталанган отдай қайтиб қолади.

Етмишда сарғолдоқдай тилда бору дилда ҳеч нарса бўлмайди,

Саксонда гўдак боладай бўлиб қолади,

Тўқсонда уйдан чиқмай думалоқ бўлади,

After the king answered Khurayim's question, Khurayim got married and had a son named Rustamkhan.

Examples of enigmatic tales in English:

This is the story of a prince who goes on a journey with his servant and ends up at a witch's house. While there, his horse is accidentally poisoned. His horse in turn poisons the bird who eats it. The prince plans to later eat the bird but it ends up getting eaten by thieves who would have otherwise robbed them. Finally, he arrives at a princess who he tells he will marry as long as she can answer his riddle: *What slew none, and yet slew twelve?*

On the one hand we think that the above-mentioned enigmatic tales in two languages are given for the two beautiful girls for marriage in order to test the intelligence of the young men and test them as a good family man in the future, as well as to protect their homeland, on the other hand, we do not think it is an exaggeration to say that the similarities of the tales of the two nations are a clear proof that there are also linguocultural ones.

For example, you know that in Uzbek literature, Jahan Otin Uvaysi, known for his sharp pencils, has a story about a pomegranate, which begins with "Ул на гумбаздур эшиги, туйнигидин йўқ нишон" (It has neither a dome door, nor sign of hole." If you notice, the roundness of the pomegranate resembles a dome. When we were an elementary school students, our teacher had us learn by heart a lot of riddles. [4,13].

Among them there was a riddle about a pomegranate: "Кичкинагина декча, ичи тўла михча". Everybody knew the answer was pomegranate. But neither our teacher nor we asked what “декча” was.

Tajik people call the pot “**дез**”. The suffix *-ча* is a diminutive suffix. **Декча** means a small pot. The letter *r* in the stem of the word is assimilated as *ч* because it is a voiceless sound. So the roundness of the

pomegranate was called a "декча" because it was reminiscent of a small pot.

Results:

We usually know that puzzles are similar to proverbs in size and shape. Sometimes there is a closeness in terms of content. But the purpose of creation is different.

If we pay attention to the naming of the riddle, from the pronunciation of the word "топ" there is a meaning of think, search, compare, seek. When the suffix "иш" is added to it, the task is defined: after the suffix "-моқ" the action name is expressed the concepts of "if you can", "if you cope with is", "if you are able to do it". [4, 15].

Sometimes riddles can also be given in the sense of proverbs or exhortations or advice. For example, the Uzbek riddle: *Ҳаммага тўн тикаман, ўзим яланғоч (иғна)* - corresponds to the proverb *Бўзчи белбоққа ёлчимабди*. And the English proverb: *Little by little the cat eats the bacon*- corresponds to the riddle *A little white house without door or window (an egg)*.

Discussion:

Let's pay attention to the fact that puzzles are processed in such means of expression as metaphor, simile, exaggeration, adjective, repetition:

For example, in Uzbek: *Ўзи бир қарич, соқоли қирқ қарич (иғна)*, инглиз тилида: *I have a tail, and I have a head, but I have no body. I am NOT a snake. What am I? (Answer: A coin)* What kind of trees come in two's? (Pear trees)

Riddles have the following genre features:

1. Short and compact in size.
2. The form has a poetic, prose look.

3. In order to create, the task is to find what is hidden in the text.
4. In its content, the properties of animals, plants, the universe, and things in everyday life are secretly expressed, and it is encouraged to find them.
5. What needs to be found will often have one, sometimes two, or more quantities.
6. The main art used in riddles is metaphor [5, 36].

The riddles provide information about the shape, size, color, function, and similar properties of the object to be found, but these symbols are associated with something else using the art of metaphor.

The content of the puzzles will be related to the objects encountered in the daily life of society and culture. Therefore, the answers may be related to figures such as fruits, elements of nature, vessels, life and death, animals, emotions, human organisms. Below we also want to cite riddles about animals, fruits and vegetables in English.

In English:	In Uzbek:
I'm a pet that has four legs	Кетаверади, кетаверади,
And a tail at the end	Саватдек ерни олади.
You might hear me barking	Сояда ётар
And I'm known as man's best friend	МИНГ ҚЎЙ БОҚАР

The answer to the riddles given above was “dog”, which shows that there are riddles about animals in both nations and it is not difficult for the reader to find the answer based on the content.

Now let's look at the riddles about fruits and vegetables in English and Uzbek:

Riddles about fruits and vegetables:

In English:	In Uzbek:
-------------	-----------

It looks green, it opens red. What you eat is red, But what you spit out is black (watermelon) Although I may have eyes I cannot see. I have a round brown face with lots of acne. What am I? (potato)	Хуппа семиз, Бир туки йўқ (тарвуз) Катта бобом ичкарида, Қулоқлари ташқарида. (шолғом) Ўзбек тилида: Кундузи ёнар, Кечаси сўнар (кўз) Устида икки дарча Ўртасида бир кунда. (бурун)
--	---

Conclusion:

But the severity of the problem is that we cannot determine in which direction to think using the definition given in some puzzles.

As a conclusion we can say that the role of riddles today is invaluable, as the riddles sharpen the minds of the rising generation.

List of used literature:

1. Elly Kongas Maranda, "Riddles and puzzles": Introduction." American Journal of Folklore, 89
2. Annotated dictionary of the Uzbek language, Tashkent. State Scientific Publishing House. 5-vol. - p.432.
3. Miaja, M. (2008). Riddle. Meaning and survival. Spain: Miguel de Servantes Virtual Library.
4. Maksudov H. "Don't pay attention to the one who says words, pay attention to the words. Yoshlik journal, 2018, issue 1. - p.35.
5. Abdullaev J. Lexical and semantic features of Uzbek folk riddles: Abstract of the dissertation of the candidate of philological sciences. – Tashkent, 1993. - p 8.
6. Uzbek riddle. – Tashkent: O'qituvchi, 1991. p 3

7. Qobulova U.S. The relationship of integral and differential semantics in the metaphorical text (on the example of the Uzbek folk riddle) Abstract of the dissertation. – Tashkent, 2017. - p 12

8. Saparniyazova M. Syntactic-semantic features of Uzbek folk riddles: Abstract of the dissertation of the candidate of philological sciences. – Tashkent, 2005. - p 14.

ZAMONAVIY PEDAGOGNING ODOB AXLOQ QOIDALARI

Mirzaxmedova Muxnisa Abdullajon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Zaynobiddinova Naima Inomiddinovna

Namangan davlat pedagogika instituti
Gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi f.f.n.

Annotatsiya: Zamonaviy pedagog bu shunchaki malumot yetkazuvchi emas balki namunadir. Komil o'qituvchi orqali o'quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularning butun hayoti davomida kerak bo'ladigan saboq olishlariga yordam beradi. Maqolamizda ana shunday o'rnak deb ko'rsatish mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogning odob axloq qoidalari haqida malumot berildi.

Kalit so'zlar: idrok, tashqi qiyofa, innavatsion pedagog, psixalogik muhit

Аннотация: Современный педагог - это не просто информатор, а пример. Через идеального учителя он развивает мировоззрение, ценности и навыки учащихся, помогая им учиться на протяжении

всей жизни. В нашей статье приведены сведения о правилах этики современного педагога, которые можно назвать таким примером.

Ключевые слова: восприятие, внешний вид, инновационный педагог, психологическая среда

Annotation: A modern educator is not just an informant, but an example. Through a perfect teacher, he develops students' worldview, values, and skills, helping them learn the lessons they need throughout their lives. Our article provides information about the rules of etiquette of a modern educator, which can be cited as such an example.

Keywords: perception, appearance, innovative teacher, psychological environment

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchi mahoratiga yuqori talablar qo'yimoqda. Bugungi kunda uning roli oddiy bilim berish doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunchaki o'qitishning o'zi yetarli emas, o'z o'quvchilaringizni kerakli sifatlar va qadriyatlarni singdirib, ularni rag'batlantirish va tarbiyalash kerak. Lekin nima uchun ba'zi o'qituvchilar ilhomlantiradi, boshqalari esa zeriktiradi, jahlini chiqaradi va bir umrga o'qish istagini qaytaradi? Javob o'qituvchining kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari o'rtasidagi farqlarda yashiringan.

Muayyan ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar kasbiy malakalar jumlasiga kiradi. Ular ta'lim olish, tajriba orttirish, malaka oshirish jarayonida shakllanadi. Ularni o'lchash, taqqoslash, baholash va rivojlantirish mumkin. Shaxsiy sifatlar esa shaxsning shaxs sifatidagi mohiyatini aks ettiruvchi xarakter, xulq-atvor va idrok xususiyatidir. Ular butun hayot davomida tarbiya va muhit ta'sirida shakllanadi. [4]

Zamonaviy o'qituvchi o'zining kiyinishi rasmiy va ozoda bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Rasmiy degani zerikarli degani emas. Bu

yerda ayollar uchun nafis, zamonaviy va aslo qaygʻuli boʻlmagan ishbilarmonlik uslubi nazarda tutiladi. Bunga pardoz-andoz, soch turmagi yoki soch tarashi, parvarish qilingan tirnoqlar ham kiradi. "Tashqi qiyofa" tushunchasi muloqot qilish mahoratini ham oʻz ichiga oladi, shuningdek, boshqa fazilatlarni ham unutmaslik kerak.[1]

Oʻqituvchi oʻquvchilarda faqat koʻrinishi bilangina emas, balki mavzuni tushuntirish qobiliyati bilan ham qiziqish uygʻotishi kerak. Bu materialni tushuntirish bilan zerikarli dars emas, balki predmet dunyosiga sayohat boʻlishi kerak. Oʻqituvchining jozibasi va ovozi kabi muhim fazilatlarni ham qayd etish muhimdir. Maftunkorlik sizga atrofdagilarning ijobiy munosabatini yaratadi, siz bilan muloqotni yoqimli va qulay qilish va oʻquvchilar bilan umumiy til topish imkonini beradi. Ovozga kelsak, koʻpchilik boshlovchi oʻqituvchilarning ovozi juda past boʻladi. Bolalar oʻqituvchining gaplarini eshitmay qolishlari shovqinning asosiy sababiga aylanadi: ular bir-birlaridan qayta-qayta soʻray boshlaydilar va natijada dars mazmunidan butunlay chalgʻib ketadilar. Biroq, haddan tashqari baland ovoz ham yaxshi emas, chunki u asabiylashtiradi va tez charchatadi. Bir xil ohangdagi ovoz ham bolalarni toliqtiradi, ular soʻzlarni tushunish va uxlab qolmaslik uchun kuch sarflaydilar, dars mohiyatiga emas. Oʻqituvchi tushuntirilayotgan materialga eʼtiborni jalb qilish va sinfda sukunat yaratish uchun muvozanatni topishi lozim. Shunday qilib, maktab muhitida bolaning rivojlanishi va hayot faoliyatining muvaffaqiyati oʻqituvchining ish samaradorligiga va uning shaxsiy fazilatlariga bogʻliq boʻladi. [2]

Oʻzining va atrofdagilarning his-tuygʻularini tanib olish va nazorat qilish qobiliyati oʻqituvchiga bolani yaxshiroq tushunishga va u bilan uygʻun munosabatlarni oʻrnatishga yordam beradi. Sinfdagi psixologik muhit ham oʻqituvchining kommunikativligi va empatiyasi darajasiga

bog'liq. Pedagog emotsional intellektining asosini qanday sifatlar tashkil etadi?

Bolaning holati va hissiy ehtiyojlariga hamdardlik va sezgirlik bilan munosabat bildirib olish. Iqtidori, shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir o'quvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Zamonaviy pedagog doimo o'z ustida ishlashi kerak. O'z-o'zini refleksiylash - bu qo'llaniladigan usullar va yondashuvlarning samaradorligini baholash, nima ishlayotganini, nimani o'zgartirishni yoki rad etishni talab qilishini tushunish usuli. Bilim yoki ko'nikmalardagi bo'shliqlarni anglash maktabda kasbiy faoliyatni yanada rivojlantirish uchun zarur. O'zining kuchli va zaif tomonlarini tanqidiy tahlil qilish o'quvchilar bilan o'zaro munosabatga va ta'lim jarayoni sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.[3,4]

XXI asr o'qituvchisi bolalarni yaxshi ko'rishi, bolalarga ta'lim berayotgan sohadagi maxsus bilimlarga ega bo'lishi, bilimdon bo'lishi, pedagogik intuitsiyaga ega bo'lishi, shuningdek, umumiy madaniyat va axloqning yuqori darajasiga ega bo'lishi, bolalarni o'qitish va tarbiyalashning turli usullarini kasbiy egallagan bo'lishi kerak. Bu sifatlarning barchasi zamonaviy pedagog uchun asosiy hisoblanadi. Ular tug'ma emas. Ular pedagogning muntazam va qunt bilan qilgan mehnati, o'z ustida qilgan katta mehnati natijasida qo'lga kiritiladi.

Ta'limga standart yondashuvlar o'tmishga borib taqaladi. Bugungi kunda darslarning qiziqarli formatlarini professional tarzda yaratish, o'yin va raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni jalb qilish uchun kreativ fikrlashga ega bo'lish muhimdir. Innovatsion-pedagog zamon bilan hamnafas bo'lib, ta'lim jarayoniga yangiliklarni joriy etadi, hatto

zerikkan va sustkash bolalarda ham bilish faoliyatini rag'batlantiradigan ijodiy muhitni shakllantiradi.[5]

O'qituvchilar doimo murakkab vaziyatlarga duch kelishadi, ma'naviy ziddiyatlarni hal qilishadi. Ularning faoliyatida qo'pollik, zo'ravonlik, kamsitish va haqoratlarga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi. Kasbiy etikaga rioya qilish, xushmuomalalik, mehribonlik va sabr-toqat ham o'quvchilar, ham ota-onalar ishonchini saqlab qolishga yordam beradi. Shuningdek, noaniq holatlarda to'g'ri yechimlarni topishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Панферов В.Н. Когнитивные эталоны и стереотипы взаимопознания людей. // Вопросы психологии, 1982, № 5, С.139-141
2. Сафин В.Ф. Динамика оценочных эталонов в подростковом и юношеском возрасте. // Вопросы психологии. - 1982.-№ 1.-С.69-750.
3. Мухина В.С. К проблеме социального развития ребенка // Психологический журнал. - 1980.- №5.
4. <https://ncrdo.ru/center/blog/top-10-kachestv-khoroshego-uchitelya/>

THE INFLUENCE OF CLASSROOM ENVIRONMENT ON TEENAGERS' LEARNING EXPERIENCES

Azimova Mohinur Murodjon qizi

Namangan State Foreign Languages Institute
Linguistics First year Master Student

Email: mohinurazimova352@gmail.com

Phone number: +998943529977

Abstract: This research examines how classroom environments affect teenagers' learning experiences, focusing on physical, emotional,

and social dimensions. Utilizing a mixed-methods approach, the study involved 100 high school students aged 15 to 16 from a diverse rural school district. Data collection methods included structured surveys, semi-structured interviews, and classroom observations. Quantitative findings indicated a notable link between positive classroom environments and increased student engagement, with well-organized and comfortable settings boosting learning satisfaction. Additionally, strong teacher-student relationships were associated with higher motivation levels, as 85% of participants acknowledged the effect of teacher encouragement. Qualitative findings underscored the significance of emotional support and positive peer interactions, which cultivated a sense of belonging and improved collaborative learning. Observational data revealed that flexible seating and interactive teaching methods encouraged active participation, whereas traditional, lecture-based formats led to diminished engagement. The study highlights the essential role of classroom environments in shaping educational experiences and outcomes for adolescents. It recommends that educators focus on creating supportive, engaging, and dynamic learning spaces to maximize student engagement and academic success.

Key words: student engagement, teacher-student interactions, learning resources , peer interactions, collaborative learning, classroom management

Research across various fields has shown that classroom environment characteristics significantly affect student motivation and engagement. Specifically, this research has examined teachers' approaches to academic activities and students' perceptions of these methods. However, classrooms are fundamentally social settings; students learn not in isolation but alongside many peers. They pursue

both social and academic objectives within the classroom (Juvonen & Murdock, 1995; Urdan & Maehr, 1995; Wentzel, 1993). Moreover, teachers serve not only as subject matter experts but also play a key role in shaping the classroom's social environment by establishing norms and rules governing student interactions. The academic tasks assigned by teachers can either promote or hinder collaboration and the sharing of knowledge. Additionally, the participation structures they implement and the ways they publicly acknowledge students influence the social atmosphere. Therefore, this study aims to investigate how different aspects of the classroom's social environment either support or hinder students' motivation and engagement.

Some research supports the notion that the social environment of the classroom is crucial for students' motivation and engagement. A feeling of relatedness or belonging at school is positively linked with students' expectations for success and the intrinsic value they place on school—both indicators of motivation (Goodenow, 1993; Skinner & Belmont, 1993). Studies in cooperative learning have shown that students reported higher efficacy, value, and mastery goal orientation in math when their classes were organized cooperatively, compared to traditional settings (Nichols & Miller, 1994). In classrooms where teachers focus on both students' social and academic needs, students reported more help-seeking behavior—an indicator of engagement (Ryan, Gheen, & Midgley, 1998). Social interactions among students have been positively related to reading engagement, including the use of cognitive strategies (Guthrie, Schafer, Wang, & Afflerbach, 1995). Consistent with these studies, other researchers (e.g., Berndt & Keefe, 1995; Brown, 1990; Parker & Asher, 1987) have found that successful peer relationships are essential for school adjustment and academic

achievement. However, the specific ways in which classroom peer interactions (different from relationships with individual friends, cliques, or crowds) relate to motivation and engagement have not been extensively studied. Additionally, the role of the teacher in shaping the social environment that nurtures classroom peer relationships has also received limited attention. In summary, there is a need to investigate the classroom social environment further, including identifying and distinguishing various dimensions that contribute to students' perceptions in the classroom.

Method. The research included 100 teenagers aged 15 to 16 from two different rural high schools. The study was administrated to students Participants were chosen using stratified random sampling to maintain a diverse representation in terms of gender, socioeconomic status, and academic achievement. Consent from parents and agreement from the participants were secured before the study commenced.

A mixed-methods strategy was utilized, integrating quantitative surveys with qualitative interviews. This approach allowed for a thorough exploration of how classroom settings affect learning experiences. Participants were chosen using stratified random sampling to maintain a diverse representation in terms of gender, socioeconomic status, and academic achievement. Consent from parents and agreement from the participants were secured before the study commenced.

A mixed-methods strategy was utilized, integrating quantitative surveys with qualitative interviews. This approach allowed for a thorough exploration of how classroom settings affect learning experiences. Students were notified that the purpose of the survey was to collect their views on school, and their classroom social environment. They were made aware that taking part was optional and that their

answers would be kept private. An example of responding to a Likert-type question was provided. Students were invited to ask for clarification if necessary. One administrator read the questions out loud, while another checked on the students and addressed their inquiries. Students indicated their answers on the survey with a pen or pencil.

Semi-structured interviews were conducted with a subset of 30 participants to gain deeper insights into their learning experiences. The interview guide included open-ended questions about their feelings regarding classroom settings, interactions with teachers and peers, and any specific incidents that shaped their learning. Follow-up interviews were scheduled at convenient times for participants, conducted either in-person or via video calls to ensure flexibility and comfort. Observations were non-intrusive, and teachers were informed of the schedule in advance to minimize disruptions.

Results. The survey underscores the pivotal role that teachers play in shaping the classroom environment and, consequently, the learning experiences of teenagers. An environment where teachers act as facilitators, provide personalized attention, communicate openly, and give constructive feedback fosters a more engaging and effective learning atmosphere. These elements highlight the importance of teacher-student dynamics in educational settings, suggesting that future enhancements in classroom environments should prioritize nurturing these interactions to optimize learning outcomes for teenagers. The responses center around two key areas: the role of the teacher and the nature of teacher-student interactions within the classroom setting.

75% of participants mentioned that teachers who acted more as facilitators rather than authoritative figures contributed positively to their learning. These students felt more comfortable and engaged in

classrooms where teachers supported and guided rather than simply delivered content. About 58% indicated that they benefited greatly from teachers who provided personalized attention and addressed individual learning needs. This was seen as a critical component of an effective classroom environment.

Approximately 30% of respondents reported that classroom layout may contribute to increased focus and engagement. They considered that quieter classroom enhanced their ability to absorb information and reduced distractions, highlighting the importance of acoustical design.

Discussion. This study underscores the dominant role of the teacher in shaping adolescents' learning experiences while also recognizing the significance of classroom layout. Future research should investigate the interactions between these factors and their combined impact on educational outcomes, ultimately contributing to a more comprehensive understanding of how the classroom environment influences student learning.

In light of these findings, it is essential for educators and school administrators to consider both the relational and physical aspects of the classroom environment. Professional development programs for teachers could include training on building rapport with students as well as effective spatial organization of classrooms. Furthermore, schools may benefit from investing in flexible classroom designs that accommodate various teaching styles and learning activities.

The strong focus on the teacher's role reflects a broader trend in educational research, suggesting that effective teaching practices are vital for student success. Participants noted that teachers who foster a supportive and interactive environment not only improve understanding but also cultivate a sense of belonging, which is essential for adolescent

development. This reinforces the idea that educators should prioritize building strong relationships with their students to create a positive learning atmosphere.

Additionally, qualitative feedback revealed that students valued teaching styles that encouraged collaboration and active involvement. This indicates that pedagogical approaches that engage students in the learning process—such as group discussions, hands-on activities, and peer teaching—are likely to resonate more with this age group. Educators could enhance student engagement and achievement by incorporating these strategies.

Conversely, the lesser emphasis on classroom layout raises important questions about the impact of the physical environment on learning. Although only a small number of students identified classroom design as a significant factor, those who did expressed concerns about traditional layouts that limit movement and collaboration. This points to a potential area for improvement in educational settings.

Research suggests that flexible classroom designs can promote collaborative learning and boost student engagement. For example, arrangements that facilitate group work and discussions can lead to more dynamic interactions among students and between students and teachers. Therefore, while the teacher's role is crucial, the physical environment should not be neglected. Schools might consider redesigning classrooms to create more interactive and adaptable learning spaces that align with modern educational practices.

Conclusion. The research, encompassing 100 teenagers, unveils a compelling narrative about the impact of classroom environment on their learning and well-being. While both teacher influence and classroom

layout contribute to the overall atmosphere, our findings suggest that the teacher's role holds a dominant position in shaping student experience.

The majority of pupils acknowledged the significant impact of their teacher's personality, teaching style, and classroom management strategies on their engagement, motivation, and academic performance. A supportive and encouraging teacher fosters a positive learning environment, while a strict and demanding teacher can create tension and anxiety.

Interestingly, the influence of classroom layout, while acknowledged, was perceived as less impactful by the participants. While factors such as lighting, seating arrangement, and visual aids can contribute to a conducive learning environment, the teacher's presence and interaction with students appear to hold greater sway in shaping their overall experience.

This suggests that while a well-designed classroom can enhance learning, it is ultimately the teacher who sets the tone and direction of the learning process, influencing student motivation, engagement, and overall academic success.

List of used literature:

1. Anderman, E., & Maehr, M. L. (1994). Motivation and schooling in the middle grades.
2. Review of Educational Research, 64, 287–309.
3. Dordrecht, The Netherlands: Kluwer Academic Press.
4. Brown, B. B. (1990). Peer groups and peer cultures. In S. S. Feldman & G. R. Elliott
5. (Eds.), At the threshold: The developing adolescent (pp. 171–196). Cambridge, MA: Harvard University Press.

6. Butler, R. (1995). Motivational and informational functions and consequences of children's attention to peers' work. *Journal of Educational Psychology*, 87, 347–360
7. Ames, C. (1992). Classrooms: Goals, structures, and student motivation. *Journal of Educational Psychology*, 84, 261–271.

GORMONLAR VA ULARNING RETSEPTORLARI O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR: BIOKIMYOVIY MEXANIZMLAR VA SIGNAL UZATISH YO'LLARI

Abdutolibov Muhridin Zuhridin o'g'li

Zoologiya va biokimyo kafedrasi o'qituvchisi

Najmiddinova Nafosatxon Zafarbek qizi

Andijon davlat universiteti

Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya ta'lim yo'nalishi talabasi

E-mail: najmiddinovanafosat@gmail.com

Annotatsiya: Gormonlar organizmdagi fiziologik jarayonlarni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'ziga xos retseptorlarga bog'lanib, hujayra ichidagi signal uzatish mexanizmlarini ishga tushiradi. Gormonlarning biokimyoviy tabiatiga qarab, ular peptid, steroid va amin hosilalaridan iborat bo'lishi mumkin. Peptid va amin hosilalaridan kelib chiqqan gormonlar membranali retseptorlar bilan bog'lanib, ikkilamchi messenjer tizimlari (cAMP, IP₃, DAG) orqali ta'sir ko'rsatadi. Steroid gormonlar esa hujayra membranasidan o'tib, ichki retseptorlarga bog'lanadi va gen ekspressiyasini modulyatsiya qiladi. Ushbu maqolada gormon va retseptorlarning molekulyar o'zaro ta'siri, ularning signal uzatish mexanizmlari va fiziologik ta'siri keng yoritilgan.

Shuningdek, endokrin kasalliklar davosida retseptor farmakologiyasi bo'yicha so'nggi ilmiy yutuqlar muhokama qilingan.

Аннотация: Гормоны играют важную роль в регуляции физиологических процессов в организме. Они связываются со специфическими рецепторами и запускают внутриклеточные механизмы передачи сигнала. В зависимости от биохимической природы гормоны могут быть пептидными, стероидными и производными аминокислот. Пептидные гормоны и производные аминокислот взаимодействуют с мембранными рецепторами, активируя системы вторичных мессенджеров (cAMP, IP₃, DAG). Стероидные гормоны проникают через клеточную мембрану, связываются с внутриклеточными рецепторами и модулируют экспрессию генов. В данной статье подробно рассматривается молекулярное взаимодействие гормонов и рецепторов, их механизмы передачи сигнала и физиологическое действие. Также обсуждаются последние научные достижения в области рецепторной фармакологии при лечении эндокринных заболеваний.

Abstract: Hormones play a crucial role in regulating physiological processes in the body. They bind to specific receptors and activate intracellular signal transduction mechanisms. Depending on their biochemical nature, hormones can be classified as peptide, steroid, or amino acid derivatives. Peptide and amino-acid-derived hormones interact with membrane receptors, activating secondary messenger systems (cAMP, IP₃, DAG). Steroid hormones cross the cell membrane, bind to intracellular receptors, and modulate gene expression. This article provides a detailed overview of the molecular interactions between hormones and receptors, their signal transduction mechanisms,

and physiological effects. Additionally, recent scientific advancements in receptor pharmacology for treating endocrine disorders are discussed.

Kalit soʻzlar: gormonlar, retseptorlar, signal uzatish, G-protein, tirozinkinaza, endokrin regulatsiya

Ключевые слова: гормоны, рецепторы, передача сигнала, G-белок, тирозинкиназа, эндокринная регуляция

Keywords: hormones, receptors, signal transduction, G-protein, tyrosine kinase, endocrine regulation

Kirish: Organizmning homeostazi va fiziologik jarayonlarini boshqarishda gormonlarning roli muhim ahamiyatga ega. Gormonlar hujayralarga bevosita yoki bilvosita taʼsir qilib, ularning metabolizmi, oʻsishi, differensiallanishi va boshqa hayotiy jarayonlarini tartibga soladi. Ushbu jarayonda gormonlarning oʻziga xos retseptorlari bilan oʻzaro taʼsiri asosiy ahamiyat kasb etadi. Retseptorlar hujayraning yuzasida yoki ichki qismida joylashgan boʻlib, gormonlar bilan bogʻlangach, signal uzatish yoʻllarini faollashtiradi.

Signal uzatish jarayonida G-protein bogʻliq retseptorlar (GPCRs), tirozin kinaza retseptorlari va yadro retseptorlari kabi turli mexanizmlar ishtirok etadi. Bu yoʻllar ikkilamchi messenjerlar (cAMP, IP₃, DAG, Ca²⁺) va oqsil kinazalar orqali hujayraviy javobni shakllantiradi. Biokimyoviy mexanizmlar gormonlarning hujayraga qanday taʼsir qilishini chuqur anglash imkonini beradi va ularning farmakologik ahamiyatini ochib beradi.

Ushbu maqolada gormonlar va ularning retseptorlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirning biokimyoviy mexanizmlari hamda asosiy signal uzatish yoʻllari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, signal uzatishdagi buzilishlar va ularning patologik holatlarga taʼsiri ham koʻrib chiqiladi. Ushbu ilmiy tahlil gormonlarning organizmdagi regulatsionlik funksiyalarini

chuqurroq tushunish va endokrin kasalliklarni tadqiq qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, gormonlarning retseptorlarga bog'lanishi natijasida yuzaga keladigan biokimyoviy jarayonlar organizmning turli tizimlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, peptid gormonlar (insulin, glukagon, adrenalin) hujayra membranasida joylashgan retseptorlar orqali signal uzatadi, holbuki steroid gormonlar (kortizol, estrogen, testosteron) hujayra ichida yadro yoki sitozolda joylashgan retseptorlarga bog'lanib, gen ekspressiyasiga bevosita ta'sir qiladi.

Signal uzatish jarayonlarining buzilishi diabet, saraton, gipertoniya, osteoporoz va boshqa endokrin kasalliklar kabi patologik holatlarning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ushbu mexanizmlarni chuqur o'rganish nafaqat biokimyoviy jihatdan qiziqarli, balki klinika va farmakologiya nuqtayi nazaridan ham dolzarb hisoblanadi.

Ushbu maqolada:

5. Gormonlarning retseptorlarga bog'lanish mexanizmlari,
6. Signal uzatish yo'llarining asosiy biokimyoviy bosqichlari,
7. Ikkilamchi messenjerlar va ularning hujayraviy javob shakllanishidagi roli,
8. Gormonlarning hujayraviy metabolizmga ta'siri,

Ushbu yo'llarning patologik holatlarda buzilishi va farmakologik ahamiyati muhokama qilinadi.

Bu tadqiqot gormonlar va ularning retseptorlari bilan bog'liq murakkab mexanizmlarni chuqur tushunish uchun nazariy va eksperimental asos yaratadi hamda zamonaviy molekulyar tibbiyot va biotexnologiya sohalarida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Gormonlar va ularning retseptorlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir molekulyar darajada murakkab va o'ziga xos mexanizmlarga asoslangan. Ushbu jarayon hujayra ichidagi signal yo'llarini faollashtirib, metabolism, o'sish, rivojlanish va homeostaz kabi asosiy fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Har bir gormon o'ziga xos retseptor bilan tanlab bog'lanadi va bu o'zaro ta'sir fermentativ reaksiyalar, kinaza kaskadlari, transkripsiya faktorlarining faollashishi yoki ion kanallarining ochilishi orqali amalga oshiriladi.

Masalan, adrenalin va noradrenalin β -adrenergik retseptorlarga bog'lanib, cAMP signal yo'lini faollashtiradi va bu yurak urish tezligini oshirish, mushaklarga glyukoza yetkazib berish kabi fiziologik javoblarni keltirib chiqaradi. Insulin esa tirozin kinaza retseptorlari orqali hujayralarda glyukoza utilizatsiyasini oshirib, metabolik muvozanatni ta'minlaydi. Steroid gormonlar esa hujayra yadroda joylashgan retseptorlarga bog'lanib, to'g'ridan-to'g'ri gen ekspressiyasiga ta'sir qiladi, bu esa uzoq muddatli fiziologik o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

So'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, gormon-retseptor o'zaro ta'sirining buzilishi qator kasalliklar, jumladan diabet, saraton, gipertoniya va endokrin disfunktsiyalar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu jarayonlarni chuqur o'rganish nafaqat biokimyoviy va molekulyar biologik jihatdan, balki tibbiyot va farmakologiya nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada gormonlarning retseptorlarga bog'lanish mexanizmlari, signal uzatish yo'llari va ularning hujayraviy metabolismga ta'siri batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, gormonal signal uzatishdagi buzilishlar va ularni farmakologik jihatdan tartibga solish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Mazkur tadqiqot natijalari endokrinologiya, biotibbiyot va dori vositalarini ishlab chiqish sohalarida

yangi innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Maqsad: Ushbu maqola gormonlarning retseptorlar bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini molekulyar va biokimyoviy nuqtayi nazardan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi:

6. Gormonlar va retseptorlar tuzilishini o'rganish
7. Signal uzatish yo'llarini tahlil qilish
8. Endokrin regulyatsiya va fiziologik jarayonlarni tushuntirish
9. Farmakologik ahamiyat va klinik tadqiqotlar

Gormonlar va ularning retseptorlarining tuzilishini o'rganish. Gormonlar va ularning retseptorlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir organizmda turli metabolik, fiziologik va homeostatik jarayonlarni boshqaradi. Ushbu o'zaro ta'sir gormonlarning kimyoviy tuzilishi va retseptorlarning molekulyar arxitekturasini bilan chambarchas bog'liq. Gormonlarning tuzilishi ularning suvda eruvchanligi, hujayra membranasidan o'tish qobiliyati va retseptorlar bilan bog'lanish xususiyatlarini belgilaydi [2, 6].

2. Peptid va oqsil gormonlar
3. Steroid gormonlar
4. Amin hosilali gormonlar

Peptid va oqsil gormonlar kimyoviy xususiyatlariga ko'ra suvda eruvchan, ammo lipofil emas, shuning uchun hujayra membranasidan bevosita o'ta olmaydigan hisoblanadi. Retseptorlari hujayra yuzasida joylashgan. Sekretsiasiya ekzotsitoz orqali amalga oshadi [7].

Bularga misol: Insulin (51 aminokislotali peptid), Glukagon (29 aminokislotali peptid), Oksitotsin va vazopressin (9 aminokislotali kichik peptidlar) bo'ladi.

Peptid gormonlar membranada joylashgan retseptorlar bilan bogʻlanib, hujayra ichida signal kaskadlarini faollashtiradi. Masalan, insulin tirozin kinaza retseptorlari orqali taʼsir qiladi, glukagon va adrenalina esa G-protein bogʻliq retseptorlar orqali signal uzatadi.

Signal uzatish yoʻllarini tahlil qilish. Gormonlar va ularning retseptorlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir organizmda turli fiziologik javoblarni shakllantiradi. Ushbu jarayon signal uzatish yoʻllari orqali amalga oshadi. Signal uzatishning asosiy bosqichlari gormonlarning retseptorlarga bogʻlanishi, ikkilamchi messenjerlar orqali signalni uzatish va hujayraviy javobni shakllantirishdan iborat. Ushbu boʻlimda turli signal yoʻllari va ularning biokimyoviy asoslari tahlil qilinadi [2, 3, 6].

Signal uzatish jarayoni 4 bosqichdan iborat boʻlib, ular:

- **Gormon-reseptor bogʻlanishi** — Gormon hujayra yuzasidagi yoki ichki retseptor bilan bogʻlanadi.
- **Ikkilamchi messenjer aktivatsiyasi** — Retseptor faollashishi natijasida hujayra ichida signal uzatuvchi molekulalar ishlab chiqariladi.
- **Oqsil kinazalar faollashishi** — Signal oqsil fosforillanishi orqali kuchaytiriladi.
- **Gen ekspressiyasi yoki hujayraviy javob** — Hujayraning fiziologik reaksiyasi yuzaga keladi.

Gormonlar hujayraga qanday taʼsir qilishiga qarab turli signal yoʻllaridan foydalanadi.


- G-protein bogʻliq retseptorlar (GPCRs) orqali signal uzatish
- Tirozin kinaza retseptorlari orqali signal uzatish
- Yadro retseptorlari orqali signal uzatish

G-protein bog'liq retseptorlar (GPCRs) orqali signal uzatish.

Ko'pgina gormonlar G-protein bog'liq retseptorlar orqali signal uzatadi. Ushbu retseptorlar hujayra membranasida joylashgan bo'lib, GTP bog'lovchi G-proteinlar orqali signalni uzatadi.

Bunday yo'li bilan signal uzatadigan gormonlarga misol qilib adrenalin, glukagon va vazopressin aytish mumkin. Adrenalin va glukagon G-protein bog'liq retseptorlar (GPCRs) orqali adenilat siklaza fermentini faollashtirib, cAMP (siklik adenzin monofosfat) ishlab chiqarilishini oshiradi. Ushbu jarayon quyidagi biokimyoviy formulalar orqali ifodalanadi [6].

Adrenalin yoki glukagon tegishli G-protein bog'liq retseptorlarga (GPCRs) bog'lanadi:



H – Gormon (adrenalin yoki glukagon)

R – β -adrenergik yoki glukagon retseptori

HR – Faollashgan gormon-retseptor kompleksi

Retseptor faollashganda, u G_s (stimulyator) G-proteinining α -subbirliqi bilan bog'lanib, uning GDP molekulasini GTP bilan almashtiradi:



G_s -GTP adenilat siklaza fermentini faollashtirib, ATP molekulasidan cAMP hosil bo'lishiga olib keladi.

Adenilat kislota




Hosil bo'lgan cAMP protein kinaza A (PKA) ni faollashtiradi:



Vazopressin (antidiuretik gormon, ADH) V_1 -retseptorlarga bog'lanib, fosfolipaza C (PLC) ni faollashtiradi. Natijada inozitol trifosfat

(IP₃) va diasilglitserol (DAG) hosil bo'ladi. Ushbu jarayon quyidagi biokimyoviy bosqichlar orqali amalga oshadi[1,7,6].

Vazopressin G-protein bog'liq V1-retseptorlarga bog'lanadi:




- **H – Vazopressin (ADH)**
- **R – V1-retseptor**
- **HR – Faollashgan gormon-retseptor kompleksi**



Faollashgan retseptor Gq-proteinining α -subbirligini aktivlashtiradi va GDP GTP bilan almashinadi:



Faollashgan PLC hujayra membranasida joylashgan fosfatidilinozitol-4,5-bisfosfat (PIP₂) molekulasini ikkita ikkilamchi messenjerga – inozitol trifosfat (IP₃) va diasilglitserol (DAG) ga ajratadi:




- **IP₃ – endoplazmatik retikulumdan (ER) Ca²⁺ ionlarini chiqarib, hujayraning ichki Ca²⁺ darajasini oshiradi.**
- **DAG – protein kinaza C (PKC) ni faollashtiradi, bu esa turli oqsillarni fosforillash orqali hujayraviy javoblarni keltirib chiqaradi.**




Tirozin kinaza retseptorlari orqali signal uzatish. Bu turdagi retseptorlar insulin, o'sish omillari (EGF, IGF-1) va leptin tomonidan faollashtiriladi. Retseptor faollashgach, tirozin qoldiqlari fosforillanadi va signal kaskadi boshlanadi.

Insulin retseptorga bog'lanishi:



Retseptor tirozin kinaza faollashishi:



IRS-1 oqsili fosforillanadi:




PI3K aktivatsiyasi:



Akt kinaza faollashishi:



Glyukoza transporti oshishi:



Natijada esa qondagi glyukoza darajasining pasayishi va anabolik jarayonlarning faollashishi kuzatiladi.

Yadro retseptorlari orqali signal uzatish. Yadro retseptorlari – hujayra ichida joylashgan ligand-bog'lovchi transkripsiya faktorlar bo'lib, gormonlar va boshqa lipofil ligandlar bilan bog'lanib, gen ekspressiyasini boshqaradi. Ular bevosita DNK bilan o'zaro ta'sir qiladi va organizmning uzoq muddatli fiziologik javoblarini shakllantiradi [4].

Yadro retseptorlari orqali signal uzatish 4 bosqichda amalga oshiriladi. Dastlab ya'ni birinchi bosqichda quyidagilar sodir bo'ladi:

Yadro retseptorlariga bog'lanadigan gormonlar lipofil bo'lib, hujayra membranasidan erkin o'tadi. Bularga asosan steroid gormonlar ya'ni kortizol, estrogen, testosteron, progesteron; qalqonsimon gormonlar (T3, T4), retinoidlar ya'ni retinoik kislota, D vitamini kiradi.

Gormon hujayraga diffuziya orqali o'tadi:



Ikkinchi bosqich retseptor bilan bog'lanish va faollashish hisoblandi. Sitoplazmada yoki yadroda joylashgan yadro retseptori (NR) gormon bilan bog'lanib, konformatsion o'zgarish hosil qiladi:



Uchinchi bosqichda yadroga o'tish va DNK bilan bog'lanish hisoblanib, faollashgan yadro retseptori yadroga o'tadi va maxsus Gormon Javob Elementi (HRE) bo'lgan promotor hududiga bog'lanadi:

Aktiv NR + HRE → Transkripsiya faollashishi

To'rtinchi bosqich esa, transkripsiya va hujayraviy javob hisoblanadi. Retseptor DNKga bog'langandan so'ng, RNK polimeraza II ni jalb qiladi va kerakli mRNK sintezini faollashtiradi:

mRNK sintezi → Protein biosintezi → Fiziologik javob

Yadro retseptorlarining disfunksiyasi ko'plab kasalliklarga olib kelishi mumkin:

1. **Qalqonsimon gormonlar retseptorining buzilishi → Gipotiroidizm**

2. **Glukokortikoid retseptorining disfunksiyasi → Addison kasalligi**

3. **Estrogen retseptorining o'zgarishi → Sut bezi saratoni**

Yadro retseptorlari nishon bo'lgan dori vositalari tamoksifen, levotiroksin va deksametazon hisoblanadi.

- **Tamoksifen – Estrogen retseptor antagonisti (sut bezi saratonida)**
- **Levotiroksin (T4) – Gipotiroidizm da TRE orqali metabolismni oshiradi**
- **Deksametazon – GR agonisti, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi**

Yadro retseptorlari orqali signal uzatish gormonlarning hujayraviy javoblarini uzoq muddatli tartibga soluvchi asosiy mexanizmdir. Ushbu jarayonda lipofil gormonlar hujayra ichidagi yadro retseptorlariga bog'lanib, gen ekspressiyasini o'zgartiradi va fiziologik o'zgarishlarni

boshqaradi. Bu mexanizmlar endokrin kasalliklar va dori vositalari uchun muhim nishon hisoblanadi.

Endokrin regulyatsiya va fiziologik jarayonlarni tushuntirish. Endokrin tizim organizmdagi asosiy fiziologik jarayonlarni muvozanatda ushlab turuvchi muhim regulyator mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bu tizim gormonlar orqali organ va to'qimalar o'rtasida signal uzatish jarayonini amalga oshiradi. Ushbu bo'limda gormonlarning endokrin regulyatsiyadagi roli va ularning fiziologik jarayonlarga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi [1, 7]

Gormonlarning ishlab chiqarilishi va chiqarilishi orqaga aloqadorlik mexanizmi (feedback regulation) orqali nazorat qilinadi:

Salbiy orqaga aloqa (Negative feedback): Gormon konsentratsiyasi ortganda, uni ishlab chiqarishni kamaytirish uchun gipotalamus va gipofiz bezidan inhibitiv signal beriladi. Masalan, qon plazmasidagi yuqori kortizol darajasi gipofizdan AKTG sekretsiasini kamaytiradi, bu esa buyrak usti bezlarida kortizol ishlab chiqarishni pasaytiradi.

Ijobiy orqaga aloqa (Positive feedback): Ayrim holatlarda gormonlar ishlab chiqarilishi o'zini o'zi rag'batlantirishi mumkin. Masalan, oksitotsin bachadon qisqarishlarini kuchaytirib, uning sekretsiasini yanada oshiradi [1].

Gormonlar turli biologik jarayonlarni boshqarib, organizmning holati va funktsional faolligini belgilaydi:

O'sish gormoni (GH, somatotropin) – gipofiz bezi tomonidan ishlab chiqarilib, hujayra proliferatsiyasi va oqsil sintezini rag'batlantiradi. Tiroksin (T₄) va triyodtironin (T₃) – metabolizmni tezlashtirib, markaziy asab tizimi va suyaklarning o'sishida muhim rol o'ynaydi. Insulin-like growth factors (IGF-1) – GH ta'sirida jigar tomonidan ishlab chiqarilib,

suyak va mushak o'sishini rag'batlantiradi. Bu garmonlar organizmni o'sish va rivojlanishini ta'minlaydi.

Insulin va glyukagon – qondagi glyukoza miqdorini muvozanatda ushlab turadi. Insulin qondagi glyukozani hujayralar ichiga o'tkazib, uni glikogen yoki yog' sifatida saqlaydi. Glyukagon esa glikogenni parchalab, qondagi glyukoza darajasini oshiradi [1].

Tiroksin va triyodtironin (T3) – bazal metabolik tezlikni oshirib, energiya ishlab chiqarishni boshqaradi. Leptin va grelin – ishtaha va energiya sarfini muvozanatda ushlab turuvchi gormonlar bo'lib, ular gipotalamusga ta'sir qiladi [4].

Stressga javob va immun tizimini boshqaradigan gormonlarga adrenalin va noradrenalin, kortizol kiradi. Adrenalin va noradrenalin – "urish yoki qoch" javobini shakllantirib, yurak urishini tezlashtiradi, nafas olishni chuqurlashtiradi va mushaklarga qon oqimini oshiradi. Kortizol – immunitet faoliyatini bostirib, yallig'lanishga qarshi ta'sir ko'rsatadi va organizmning uzoq muddatli stressga javobini boshqaradi.

Suv-elektrolit muvozanati va qon bosimini boshqaradigan gormonlar esa vazopressin va aldesteron hisoblanadi.

Vazopressin (antidiuretik gormon, ADH) – buyraklardan suv ajralishini kamaytirib, organizmdagi suv muvozanatini saqlaydi. Aldosteron – natriy va kaliy ionlarining buyrak orqali qayta so'rilishini boshqarib, qon bosimi regulyatsiyasida ishtirok etadi.

Endokrin tizim organizmning homeostazini ta'minlovchi asosiy regulyator mexanizmdir. Gormonlar hujayralararo signal uzatish jarayonlarida ishtirok etib, turli fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Endokrin buzilishlar og'ir kasalliklarga olib kelishi mumkin, shuning uchun ularni o'rganish va davolash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar

farmakologiya va klinik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Farmakologik ahamiyat va klinik tadqiqotlar. Gormonlar va ularning retseptorlari dori vositalari uchun muhim mo'ljali hisoblanadi. Ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rganish endokrin kasalliklarni davolash uchun yangi farmakologik yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Ushbu bo'limda gormon-reseptor tizimlarining farmakologik ahamiyati va klinik tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan dori vositalari tahlil qilinadi.

Gormonlar o'z retseptorlari bilan bog'langanida turli fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Shu sababli, ushbu retseptorlar dori vositalarining asosiy mo'ljali bo'lib xizmat qiladi. Farmakologiyada retseptorlarga ta'sir qiluvchi dori vositalari agonistlar (faollashtiruvchi moddalar) va antagonistlar (to'sqinlik qiluvchi moddalar) sifatida tasniflanadi.

G-protein bog'liq retseptorlar (GPCRs): Adrenalin, glukagon, tiroksin va boshqa gormonlar ushbu retseptorlar orqali ta'sir qiladi. Beta-adrenoreseptor antagonistlari (masalan, propranolol) yurak-qon tomir kasalliklarini davolashda ishlatiladi [5].

Tirozin kinaza retseptorlari: Insulin va o'sish omillari ushbu retseptorlar orqali ishlaydi. Insulin analoglari diabet terapiyasida keng qo'llaniladi [5].

Yadro retseptorlari: Steroid gormonlar (kortizol, estrogen, testosteron) bevosita hujayraning yadro retseptorlari bilan bog'lanib, gen ekspressiyasiga ta'sir qiladi. Tamoksifen kabi estrogen retseptor antagonistlari ko'krak bezi saratonini davolashda ishlatiladi.

Soʻnggi yillarda gormon retseptorlariga yoʻnaltirilgan dori vositalarini ishlab chiqish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar oʻtkazilmoqda. Baʼzi muhim klinik tadqiqotlar va dorilar:

GLP-1 retseptor agonistlari (Semaglutid, Liraglutid) 2-toifa qandli diabet va semizlikni davolashda qoʻllanadi. GLP-1 (glukagon-ga oʻxshash peptid-1) retseptorlari insulin sekretsiasini ragʻbatlantiradi va ochlik hissini kamaytiradi. Klinik sinovlar ushbu dorilar qondagi glyukoza darajasini barqarorlashtirish va vazn yoʻqotishda samarali ekanligini koʻrsatgan.

Kortizol antagonistlari (Mifepriston, Ketokonazol). Kushing sindromi va boshqa giperkortizolizm bilan bogʻliq kasalliklarni davolashda qoʻllanadi. Kortizol retseptorlarini bloklab, gormonning haddan tashqari ishlab chiqarilishini bostiradi [5, 8].

Testosteron va estrogen retseptor modulyatorlari:

- Tamoksifen – estrogen retseptor antagonistidir, koʻkrak bezi saratoni davosida ishlatiladi [8].
- Enzalutamid – prostata saratonida androgen retseptorlarini bloklovchi preparat.
- Bu dorilar endokrin terapiya sifatida klinik jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Gormon va retseptorlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirni oʻrganish zamonaviy farmakologiyada juda muhim ahamiyatga ega. Gormon retseptorlarini moʻljalga oluvchi dori vositalari diabet, saraton, yurak-qon tomir kasalliklari va endokrin kasalliklarni samarali davolash uchun ishlatilmoqda. Klinik tadqiqotlar natijalari yangi dorivor strategiyalarni ishlab chiqishda asosiy rol oʻynamoqda va kelajakda yanada samarali terapevtik yondashuvlarga olib kelishi kutilmoqda.

Xulosa. Gormonlar va ularning retseptorlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir hujayraviy signal uzatish va fiziologik javoblarni shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biridir. Ushbu maqolada gormonlarning biokimyoviy retseptorlarga bog'lanish mexanizmlari, signal uzatish yo'llari va ularning hujayra ichidagi ta'siri tahlil qilindi.

Peptid va katexolamin gormonlari (masalan, adrenalin va glukagon) membran retseptorlari orqali signal uzatib, ikkinchi messenjer tizimlarini (cAMP, IP₃, DAG) faollashtiradi. Bunda G-protein bog'liq adenilat siklaza va fosfolipaza C yo'llari orqali hujayraviy javob hosil bo'ladi. Lipofil gormonlar (masalan, steroid gormonlar va qalqonsimon gormonlar) esa yadro retseptorlari orqali gen ekspressiyasini boshqaradi, bu esa uzoq muddatli fiziologik o'zgarishlarga olib keladi.

Signal uzatish jarayonlarining buzilishi endokrin kasalliklar (diabet, gormonal o'sma, gipotiroidizm, metabolik sindrom) rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu mexanizmlarni chuqur tushunish farmakologik terapiya va yangi dorilar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, gormon-reseptor komplekslari farmakologik jihatdan muhim nishon hisoblanadi. Masalan, β -adrenergik antagonistlar (beta-blokerlar) yurak-qon tomir kasalliklarida qo'llanilsa, estrogen retseptor antagonistlari (tamoksifen) ko'krak bezi saratonini davolashda ishlatiladi. Qalqonsimon gormon retseptor modulyatorlari esa metabolismni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yadro retseptorlari orqali signal uzatish mexanizmlarini chuqur o'rganish gen terapiyasi, regenerativ tibbiyot va individual tibbiyotda yangi istiqbollarni ochishi mumkin.

Kelgusida biokimyoviy va molekulyar texnologiyalar yordamida gormon-reseptor o'zaro ta'sirlarini chuqur o'rganish imkoniyatlari

kengaymoqda. Xususan, KRISPR-Cas9 gen tahrirlash texnologiyasi, RNA-seq va 3D-strukturaviy analizlar yordamida yangi terapevtik nishonlar aniqlanmoqda. Bundan tashqari, sun'iy intellekt asosida dori moddalari dizayni rivojlanib, signal uzatish yo'llarini yanada aniqroq modulyatsiya qilish imkoniyati oshmoqda.

Ushbu maqolada yoritilgan ma'lumotlar biokimyo, molekulyar biologiya, farmakologiya va klinik endokrinologiya fanlari kesishgan nuqtalarda ilmiy izlanishlar olib borish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida gormonlar va ularning retseptorlari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirlarni chuqurroq o'rganish yangi diagnostik usullar va dori vositalarini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa shaxsiylashtirilgan tibbiyot tamoyillarini rivojlantirish va ko'plab surunkali kasalliklarning oldini olish imkonini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bo'riyev B.X., To'ychiyev X.I. – Inson fiziologiyasi va endokrin tizimi. Toshkent, 2016.
2. G'afforov Yo.G., Qosimova M.M., Yusupov D.A. – Tibbiy biokimyo (O'zbekiston tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik). Toshkent, 2015.
3. Mirzaev Sh., Abduraxmonov X. – Hujayra biologiyasi va biokimyosi. Toshkent, 2019.
4. Saidov I.S., Xaydarov S.A. – Farmakologiya. Toshkent: Fan, 2017.
5. Toshkent tibbiyot akademiyasi professor-o'qituvchilari – O'zbek farmakologiyasi asoslari. Toshkent, 2016.
6. To'xtasinov Sh., Qosimova M.M. – Biokimyo: o'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2018.
7. Xaitov R.M. – Endokrin tizim va uning regulyatsiyasi. Toshkent, 2014.

8. Xaitov R.M., Soliyev X.A. – Endokrin kasalliklar va ularning farmakologik davolash usullari. Toshkent, 2013.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING KRITIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘rayeva Turg‘unoy Umarjonovna

Namangan davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Turdaliyeva Nazokat G‘ayratjon qizi

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kritik kompetensiyalarini rivojlantirish ta‘lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darslari orqali tanqidiy fikrlashini rivojlantirish usullari va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Bu ko‘nikmalar bolalarga shaxsni mustaqil tahlil qilish, savol berish, muammoni aniqlash, ularni yechish va qaror qabul qilishda kerak bo‘ladi. O‘qish savodxonligi matnni tushunish, tanqidiy tahlil qilish, asosiy g‘oyalarni ajratish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning kritik kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarador metodlar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация: развитие критических компетенций младших школьников является одной из основных целей образовательного процесса. В данной статье будут проанализированы методы и педагогические подходы к развитию критического мышления

младших школьников через уроки грамотности чтения. Эти навыки понадобятся детям при самостоятельном анализе личности, постановке вопросов, выявлении проблем, их решении и принятии решений. Грамотность чтения формирует навыки понимания текста, критического анализа, выделения основных идей и умозаключений. В ходе исследования представлены эффективные методы и практические рекомендации по развитию критической компетентности учащихся.

Annotation: the development of critical competencies of Primary students is one of the main goals of the educational process. This article analyzes the methods and pedagogical approaches to the development of critical thinking of Primary School students through reading literacy classes. These skills will be needed for children to independently analyze the personality, ask questions, identify the problem, solve them and make decisions. Reading literacy forms the skills of understanding the text, critical analysis, separation of basic ideas and drawing conclusions. During the study, effective methods and practical recommendations for the development of critical competence of students are presented.

Kalit soʻzlar: kompetensiya, oʻqish savodxonligi, kritik kompetensiya, oʻquvchi, pedagogik yondashuv, metod, tadqiqot, koʻnikma, tanqidiy fikrlash.

Ключевые слова: компетентность, читательская грамотность, критическая компетентность, читатель, педагогический подход, метод, исследование, навыки, критическое мышление.

Keywords: competence, reading literacy, critical competence, learner, pedagogical approach, method, research, skills, critical thinking.

Taʼlimning asosiy vazifasi oʻquvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak boʻladigan

ko'nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun tanqidiy fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan eng muhim ko'nikmadir. O'quvchilarning o'qish savodxonligi darslari orqali kritik kompetensiyalarini rivojlantirish mavzusi bugungi kunda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida nafaqat ilmiy bilimlarni, balki tanqidiy fikrlash, mantiqiy mulohaza yuritish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish muhimdir. O'qish savodxonligi o'quvchilarga matnni to'g'ri tushunish, tahlil qilish va muhokama qilish imkonini beradi, bu esa ularga hayotdagi turli muammolarni yechishda yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilarda faqat til va adabiyot bilimlarini rivojlantirib qolmasdan, balki ular o'z fikrlarini mustaqil bayon qilish, ilmiy va ijtimoiy mavzularda tanqidiy yondashuvni imkoniyatlariga ega bo'lishadi. Bu jarayon, o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lishiga, ularning muloqotda samarali qatnashishiga yordam beradi.

Kompetensiya (lotincha: *compeo*-erishyapman, munosibman, loyiqman)- 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki, mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma'noni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5217-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy

yoʻnalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yoʻnaltirilgan taʼlim sifatini baholashning milliy taʼlimini yaratish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni bajarishda oʻquvchilarda oʻqish savodxonligini shakllantirish muhim poydevor boʻlib xizmat qiladi. Chunki boshlangʻich sinf oʻquvchilarining oʻqish savodxonligini shakllantirmasdan taʼlim samaradorligiga erishib boʻlmaydi.

Oʻqish savodxonligi- matnni tushunish, tahlil qilish, muhim maʼlumotlarni ajratib olish va fikr yuritish qobiliyatidir.

Bu kompetensiya nafaqat matnni oʻqishni, balki tanqidiy fikrlashni ham rivojlantirishni oʻz ichiga oladi. Oʻqish darslarida badiiy asarlarni oʻrganishga doir ijodiy xarakterdagi oʻquv topshiriqlarni oʻquvchilarning oʻqish savodxonligini oshirish va bilish jarayonlarini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kritik kompetensiya- shaxsning mustaqil tahlil qilish, savol berish, muammoni aniqlash, ularni yechish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiruvchi koʻnikmadir.

Oʻqish savodxonligi esa bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biridir.

Oʻqish savodxonligi darslari orqali kritik kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlari:

1. Matnni tahlil qilish:

- Turli janrdagi matnlarni oʻqitish orqali oʻquvchilarning matn strukturasini tushunish qobiliyatlari rivojlantiriladi.
- Oʻquvchilar matndagi asosiy gʻoya va dalillarni ajratishni oʻrganadilar.

2. Savol -javob usuli:

- Oʻqilgan matn asosida oʻquvchilarga tanqidiy savollar berish: "Muallifning asosiy fikri nima?", "Qanday dalillar keltirilgan?"

- O'quvchilarga matndagi fikrlarni tahlil qilish va o'z nuqtai nazarini bildirishga rag'batlantirish.

3. Muammoli vaziyatni yaratish:

- O'quvchilarga matn orqali muammo beriladi va uni tanqidiy fikrlash orqali yechishga undaladi.
- Misol: hikoyadagi qahramonning harakatlarini baholash.

4. Taqdimot va bahslar tashkil qilish:

- O'quvchilar o'qigan matn asosida taqdimot yoki guruh bo'lib bahs tashkil etish orqali o'z fikrlarini himoya qilishni o'rganadilar.

5. Turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish:

- Bir mavzu bo'yicha qarama -qarshi fikrlarni o'qib, o'quvchilarni ularni solishtirishga va xolis xulosa chiqarishga o'rgatish.

Kritik kompetensiyalarni rivojlantirishda o'qish savodxonligining ro'li:

1. Tanqidiy fikrlash: O'quvchilar matnni o'qish orqali uning mantiqiy tuzilishini tushunadilar va o'qilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilishni, turli nuqtai nazarlarni o'rganishni o'rganadilar.

2. Ijodkorlik va muammoni hal qilish: O'qish savodxonligi matn asosida yangi fikrlar, g'oyalar va muammolarni yaratish imkonini beradi. Bu ijodiy va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

3. Kommunikativ ko'nikmalar: O'quvchilar o'z fikrlarini o'g'zaki va yozma shaklda aniq ifoda etish, fikrlarni to'g'ri izohlash va mantiqiy ravishda aralashtirilgan ma'lumotlarga asoslanib, bahs yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

4. Ijtimoiy va emotsional rivojlanish:

O'qish savodxonligi orqali o'quvchilar turli shaxsiy, ijtimoiy va madaniy yozuvlarda fikr yuritishga, bir-birlarini tushunishga va o'z fikrlarini boshqa odamlar bilan baham ko'rishga o'rganadilar.

Pedagogik yondashuv- bu ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatni shakllantirish, bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun foydalanilgan usullar, g'oyalar va prinsplar to'plamidir.

Pedagogik yondashuvlar o'qituvchining metodologik va didaktik qarashlari, o'quvchilarning rivojlanishiga yordam beruvchi muhitni yaratish va ta'limni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Kritik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvlar:

1. Aktiv o'qish yondashuvi- o'quvchilarni faollashtirish, ularni o'z fikrini bildirish va turli nuqtai nazarlarni baholashga undash.

2. Reflektiv yondashuv- o'quvchilarga o'z faoliyatini tahlil qilish, o'rganganlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam berish.

3. Projektga asoslangan ta'lim- o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali bilimlarni amalda qo'llash.

4. Kolaborativ ta'lim- jamoaviy ishlash orqali o'quvchilarning bir-biridan o'rganishi, turli fikrlarni muhokama qilishi va turli qarorlash qabul qilishi.

5. Interaktiv ta'lim- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida faol muloqotni ta'minlash.

Metod- bu maqsadga erishish uchun bajariladigan aniq bir faoliyat yoki ish usulidir.

Bu o'qish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur vositalardir. Kritik kompetensiyani rivojlantirish uchun pedagogik metodlar o'quvchilarga nafaqat matnni o'qishni, balki uni chuqurroq tahlil qilishni, tanqidiy fikr bildirish va g'oyalar ishlab chiqishni o'rgatadi. Tanqidiy fikrlash, o'z fikrini

mustahkamlash, qarorlar qabul qilish va masalalarni keng qamrovli tushunish metodlar orqali rivojlanadi.

O‘quvchilarda o‘qish savodxonligi darslari orqali kritik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar:

- **Har bir o‘quvchini tinglash-** tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchilarning fikrlarini eshitish va ularni baholash muhim.
- **Doimiy refleksiya va tahlil-** o‘qish jarayonida doimo refleksiya qilish va tahlil qilishni o‘rgatish.
- **Yangi va murakkab matnlar-** o‘quvchilarga turli janrlarda va murakkablikda matnlarni o‘qishni taklif etish.
- **Savollar va muhokamalarni rivojlantirish-** o‘quvchilarga faqat javoblar olish emas, balki savollar berish va tahlil qilish imkoniyatini yaratish kerak.

Xulosa:

O‘qish savodxonligi darslari orqali kritik kompetensiyalarni rivojlantirish- bu o‘quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. O‘qish savodxonligi yordamida o‘quvchilar nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, balki ularning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ va muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmalari ham mustahkamlanadi. O‘qituvchilar o‘z darslarida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, savol-javob usullari va muammoli vaziyatlar yaratish kabi metodlarni qo‘llashlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.S..Salayeva. “Umumiy pedagogika” Toshkent-2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli farmoni

3. B.X.Xodjayeov. “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent-2017

4. R. Mavlonova, N. Vohidova, N.Raxmonqulova. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent -2010

5. Ismailova Zuhra Karanboyevna. “Pedagogika” Toshkent –“Moliya” -2007

6. Karima Qosimova “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi”.

7. Vikipediya

8. Lex.uz

XOJA BAHOUDDIN NAQSHBAND: HAYOTI VA TARIQATI

Kamolov Shahzod Baxtiyor o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika insitituti

Tarix yo‘nalishi 2 - bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Z.U.Xaydarov

E - mail: Shaxzodkamolov024@gmail.com

Tel: 97 670 84 19

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tasavvuf ta’limotining mashhur tariqatlaridan biri Naqshbandiya tariqari hamda Xazrat Bahouddin Naqshbandning hayoti qisman yoritib o‘tilgan. Naqshbandiya tariqati chuqur ezgu amallarga ega bo‘lib bunda ayniqsa, “Dil ba yoru, dast ba kor” Ko‘ngling Allohda bo‘lsinu, qo‘lining doimo mehnatda band bo‘lsin degan hikmatli so‘zlari bunga yaqqol namuna bula oladi.

Аннотация: В данной статье частично освещена жизнь Хазрата Бахауддина Накшбанда, одной из известных сект суфизма. Секта

Накшбанди имеет глубокие добрые дела, особенно наглядным примером этого могут быть мудрые слова «Дил ба йору, даст ба кор», «Пусть сердце твое будет в Боге, а рука твоя всегда будет занята работой».

Abstract: This article partially covers the life of Hazrat Bahaiddin Naqshband, one of the famous sects of Sufism. The Naqshbandi sect has deep noble deeds, especially the wise words "Dil ba yoru, dast ba kor" (May your heart be in Allah, and may your hand always be busy in work) can be a clear example of this.

Kalit soʻzlar: Xojagon, Zikri jahriy, Muhammad Bobo Samosiy, Uvaysiylik, Taajjux, Amir Kulol, "Rashahotu aynil hayot", Xush dar dam, Darvish, "Vahdati vujud", Mujjaddid, "Silsilai sharif".

Ключевые слова: Ходжагон, Зикри Джахри, Мухаммад Баба Самоси, Увайсиил, Тааджух, Амир Кулол, «Рашахоту айнил Хайот», Хуш Дар Дам, Дарвиш, «Вахдати Вуджуд», Муджаддид, «Силсилаи Шариф».

Keywords: Khojagon, Zikri jahri, Muhammad Baba Samosi, Uvaysiylik, Tajjukh, Amir Kulal, "Rashahotu aynil hayot", Khush dar dam, Dervish, "Wahdati wujud", Mujaddid, "Silsilai sharif".

Xazrat Bahouddin Naqshband haqida

Asl ismlari Muhammad ibn Muhammad Jaloliddin boʻlib, Xojai Buzruk (ulugʻ Xoja), Shohi Naqshband, Xazrat Bahaouddin, Bahouddin Balagardon nomlari bilan jahonga mashhurdirlar. Avliyolar sultoni "Silsilai sharif" dagi oʻn oltinchi xalqaning piri murshidi hisoblanadilar.

Xazrat Bahouddin 1318-yilda Buxoro yaqinidagi Qasri Hindivon qishlogʻida tugʻilganlar. Keyinchalik bu zotni sharif barokotlaridan Qasri Hindivon Qasri Orifonga aylanadi.

Xazrat Bahouddin Ona tomonidan Siddiqiylar, ya'ni nasablari Abu Bakir Siddiqqa borib taqaladi.

Xazratning kasblari matoga naqsh solish edi. Xazrat Bahouddinni “Naqshband” deyishlarining bir jihati kasblari, ya'ni matoga naqsh solish bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, Ikkinchisi, Allohning nomini qalbga naqsh aylamoq degan ma'noni anglatadi. Xazratning “Dil ba yoru, dast ba kor” - qalbing Alloh zikri bilan, qo'ling esa halol mehnat ila band bo'lsin” – degan olamshumul shiorlari ham shunga ishora etadi.

Xazrat Bahouddin Boboyi Samosiy, Said Mir Kulol, Qosim Shayx, Halil Ota, Orif Diggaroniy, Bahouddin Qishloqiylardan saboq olganlar. Xazrat Bahouddin Uvaysiy bo'lib, Xoja Badulxoliq G'ijdivoniy ruhlaridan ta'lim olganlar. [1.B.6]

Xojagon - naqshbandiya tariqati ma'nabalarida Bahouddinning ilk karomati uning endigina to'rt yoshga kirgan chog'ida xonadonlaridagi sigirning yaqin orada peshonasi ola buzoq tug'ilishining bashorat qilgani qayd etilgan. U hatto bir necha muridlari bilan pirlari Said Amir Kulol huzuriga borishayotkanida “Sizga bo'lgan do'stlik yo'lida o'l desangiz o'lishga tayyorman” degan yo'lovchiga “o'l” deganida haqiqatdan ham o'lib qoladi, so'ngra “tril” deganlarida qaytadan tiriladi. Bundan tashqari ushbu ma'nabalar Bahouddining uzidan naql qilingan holda, uning bir necha bor fano va g'aybat holatiga tushganida ruhi to'rtinchi osmongacha uchib borgani, ilgari yashab o'tkan mashhur so'fiylardan bular:

Bayazid Bistomiy (vaf.875), Junayd Bag'dodiy (vaf.909)

Mansur Xalloy (858 – 922)

Abu Bakir Shibliy (vaf. 945) larga ro'baro bo'lib, ulardan so'ng Muhammad (s.a.v) ga ehtrom bajo keltirgani to'g'risida hikoya qiladi. Bahouddin Naqshband ham o'z pirlari kabi o'z mehnati bilan kun kechirishni afzal bilib, kasb - kor bilan shug'illangan. U dastlab Otasi

bilan birga kimxob to‘qish va chitgar hunari bilan mashg‘ul bo‘lgan, keyinchalik esa dehqonchlikda arpa va mosh yetishtirganlar.

Said Amir Kulol vafotidan oldin Bahouddin Naqshbandga Irshod – muridlari tarbiyalashga ijozat berarkan, tariqat rahbarligini unga topshirib, barcha muridlarga Xoja Bahouddin Naqshbandga ergashishni buyuradi.

Xojagon tariqatini isloh qilish va takomillashtirish orqali uni keng yoyishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan Xoja Bahouddin birinchi navbatda ushbu tariqat asoschisi Xoja Abdulholiq G‘ijdivoniy tomonidan joriy etilgan, biroq Xojagon silsilasining keyingi pirlari davrida “Zikri jahriy” ni qaytadan joriy etadi. Ya’ni Zikri jahriy – Allohni baland ovozda zikir qilish demakdir, binobarib uning ikkinchi ko‘rinishi ham bo‘lib bu Zikri botiniy ya’ni Allohni past ovozda zikir qilish tushuniladi.

Naqshbandiya o‘z ta’limotining asoschi

Osiyo va Onodo‘li (hozirgi Turkiya) zaminida eng keng tarqalgan tariqatlardan biri Naqshbandiyadir asoschisi Bahouddin Naqshband (1318 – 1389) bo‘lib Buxoro yaqinidagi Qasri Hindivon (keyinchalik Bahouddin Naqshband sharafiga Qasri Orifon) qishlog‘ida dunyoga kelgan. Bahouddin yoshligida Xojagon tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo Samosiy ma’naviy farzandlikka ya’ni shogirdlikka qabul qiladi. Bir muddat keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshiradi. Shu bilan birga Bahouddin Naqshbandning haqiqiy shayxi “Uvaysiylik” yo‘li orqali tarbiyalangan Abdulxoliq G‘ijdivoniy (vaf.1220) hisoblanadi. Bir muddat Samarqandda yashab, u yerdagi shayxlarning suxbatlari va taajjuxlariga ya’ni hayrihohlik bilan yuzlanishga musharraf bo‘ladi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Halil Ota va Mavlono Orif kabi Yassaviy shayxlarning huzurida ko‘p yillar qolib, ulardan ilmu - fayz olishga muyassar bo‘ladi. Ikki marotaba Xajga borib kelgan

Bahouddin hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o‘tkazdi. Bahouddin Naqshbandning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko‘plab asarlar bitilgan. Shulardan, Mavlono Ali So‘fiyning “Rashahotu aynil hayot” risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma’lumot beradi. Naqshbandiya asosan G‘ijdivoniydan keyin Osiyo zaminida juda tez va keng tarqaldi. Hatto Yassaviylik tariqatidan ham kuchliroq nufuzga ega bo‘la boshladi. Naqshbandiya ahli sunnat e’tiqodiga amal qiluvchi tariqat bo‘lib, “Hafiy zikir” ga ya’ni Allohni zikir qilgan holatda mehnat qilishga asoslangan. Demak, tariqat tajribalarida “Zikir” muhim amaliyot hisoblangan. Uni amalga oshirish yo‘llari ham xilma – xil ekanligini ko‘rsatadi. Yana bazi bir narsani qo‘shimcha qilish mumkinki, ba’zi tariqatlardan pir – u murshidning ko‘rsatmasi yoki fatvosi bilan hafiy zikirdan - jahriy zikirga yoki boshqa uslublariga ham ruxsat berilgan. Bu amaliyotni Xojagon – naqshbandiyada kuzatishimiz mumkin.

Naqshbandiya tariqati quydagi to‘rt tamal asos ustiga qurilgan:

1. Shariat bilan zohirni poklash.
2. Tariqat bilan botinni poklash.
3. Haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq.
4. Ma’rifat ila Allohga erishmoq.

Bundan tashqari yana o‘n asos tamoyil ham borki, Naqshbandiya tariqatiga kirgan har bir darvish bu jihatlarga rioya qilishi talab qilinadi. Abdulxoliq G‘ijdivoniy ishlab chiqqan deya rivoyat qilingan bu asoslardan quydagilarni keltrib o‘tamiz, bula jumlasiga:

1. Xush dar dam: “xush” aql, “dam” esa nafas degani. Xush dar dam – nafas olib chiqarishda xushyor bo‘lish, g‘aflatga tushmaslik, har lahzada Allohni eslash demakdir.

2. Nazar bar qadam: Solik qayerda bulishidan qat'iy nazar, yurayotkanida oyoq uchiga qarab yurishi kerak. Toki qalb ko'zi va nazari bo'lmag'ur manzaralarga qarashdan xalos bo'lgay.

3. Safar dar Vatan: Solikning yomon axloqdan yaxshi axloqqa, bashariy sifatlardan ilohiy sifatlarga yo'nalishi demakdir. Darvish bir murshidi komil topkunga qadar badadan (jismonan) sayohat qilishni bildiradi.

4. Xilvat dar anjuman: zohirdan xalq bilan, botindan Xaq bilan birga bo'lish demakdir. Bu jihatlar Naqshbandiya tariqatining asosidir.

Naqshbandiya tariqatining eng mashhur shahobchalari:
Ahroriya, Mazhuriya, Muijadaddiya va Xolidiya.

Muijadaddiyaning asoschisi Imom Rabboniy, Ibn Arabiyning "Vahdati vujud" falsafasini tanqid qilib, "Vahdati vujud" ni yoqlab chiqqan. Sunniy aqidaga zid kelmaydigan Tasavvufiy tushunchaga ega bo'lgan Imom Rabboniyning eng mashhur asari "Maktubot" turkchaga ilk bor Mustaqimzoda Sulaymon Sa'diddin tomonida o'girilgan va Istanbulda nashr etilgan. Bu asar bugun ham Naqshbandiya tariqati ahli sevib o'qiydigan asarlardir. [2. B - 107]

Muijaddad (arabcha) Islom diniga oid atama bo'lib, dinga "yangilanish" (tajdid) olib keluvchi kishini anglatadi. Islom ta'limotiga ko'ra, har hijriy asrning boshida Islomni qayta tiklash, uni yot unsurlardan tozalash va uning sof aqidasini tiklash vazifasiga kirishgan shaxs muijaddid deyiladi. Hozirgi zamonda muijaddid deganda zamonaning eng buyuk musulmoni tushuniladi. Imom Shofe'i va Ahmad ibn Hanbal Muijaddid deb e'trof etilgan mazhab asoschilaridir. Muijaddid so'zi borasida muhaddislar orasida ixtilof mavjud. Zahabiy va Ibn Hajar al – Asqaloniyy kabi olimlar muijaddid atamasini ko'plik

ma’nisida ham anglash mumkin, deb talqin qiliganlar va shu tariqa bir guruh odamlarni nazarda tutganlar.[3]

Bahouddin Naqshband Avliyolar sultoni “Silsilai sharif” dagi o’n oltinchi xalqning piri murshidi hisoblanadi. Xazrat Bahouddin Ona tomondan Siddiqiylar ya’ni nasablari Abu Bakir Siddiqqa borib taqaladi.

Naqshbandiya tariqati yo’llarining mohiyati

Xazrat Bahouddin Naqshband “Hayotnoma”, “Dalil – ul oshiqin”, “Avrod” nomli kitob hamda bir qator ruboiylar muallifidir. Quyidagi ruboiylari mashhurdir:

Na maro mafrashu, na mafrashkash,

Na g’ulomni turku turkashkan,

Ham shab chun sogani qadrdoni.

Sar bar dum ovorem, behisob hush.

Tarjimasi:

Na bizda bayravu bayrakash bor,

Na g’ulomni turku va na xizmatkor.

Samonxa itdek dum ostiga

Har kech bosh qo’yib yotibmiz bedor.

Bahouddin Balogordan o’z yo’llarini mohiyatini tushuntrib dedilar: “Bizning tariqatimiz “Urvatul vusqo” (mustahkam tutqich) dir. Ya’ni Muhammad Mustafo (s.a.v) sunnatlari tobelik etagini qattiq tutmoqdir va ulug’ sahobalar izlaridan yurmoqdir”.

Bizning tariqatimiz suhbatdur va hilvatda shuhratdur hamda shuhratda ofatdur. Xayriyat jamiyatdadur va jamiyatda bu shart bilaki, bir – biriga nafy (foyda) bo’lgay. Agar bu yo’l soliklarning hammasi bir – biri bilan suhbat etsalar, shunda ko’p xayru barakadir.

Xazrat Bahouddin dedilar: “Bizning qo’limizga Haq taollo chaqmoqtosh berib qo’ygandir, toki soliklar (ya’ni tariqatga kirganlar)

qalbidagi shamni mana shu chaqmoqtosh yordamida yoritaylik va ularning qalbi nurafshon bo'lsin, zulmatdan qutilsin!”. Bahouddin vafotidan bir kun oldin muridlarning hammasiga Xoji Muhammad Porsoga tobe bo'lishni vasiyat qildilar. 1389 - yilda Bahouddin Naqshband Qasri Orifonda vafot qiladilar. Juda ko'p shoirlar Xazrat vafotlariga atab tarix bitgan, lekn eng mashhuri budir:

Rafm Xoji Naqshband Xojasi dunyovi din,
On ki budi shohu diniy davlat millamash.
Mashonu ma'voi u chun bud Qasri Orifon,
“Qasri Irfon” z – in sabab omad hisobi rixlotash.

Mazmuni: Dunyo va dinning Xojasi Shohi Naqshband vafot qildi, u diniy davlatning shohi edi. Uning maskanu ma'vosi Qasri Orifon edi. Shu sababli vafot etish tarixi “Qasri Irfon” dan chiqadi. “Qasri Irfon” dan abjad hisobida 791 yil hosil bo'ladi, bu milodiy 1389 – yilga to'g'ri kiladi.

Xazrat Bahouddin qabrlari ustidagi daxma va ushbu ziyoratgohdagi xonaqohni Abdulazizxon ibn Ubaydullaxon 1544 – yilda qurgan. Abdulfayzxonning Onasi esa ikki tomoni ayvonli masjid (XVIII asr), Hakim Qushbegi Amir Nasrulloxon zamonida (XIX asr) masjid bino qildi. Bu majmuadagi Minora 1720 – yilda, Saqqoxona XX – asrda bunyod etilgandir. Istiqlol sharofatidan Xazratning ziyoratgoxlarida ulkan ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Qadimgi darvozalar – Xoja Diloavar, Bobus Salom asl holiga keltrildi. Ziyoratgohlarning janubida ulkan va go'zal ayvon tiklandi. Bu yangi ayvonga g'oyat mutonosibdir. Xonaqox va har ikkala masjid binolari sidqidildan ta'mirlandi. Naqshband ziyoratgohlari bilan Onalari Orifbibi ziyoratgohlari bir majmuaga aylantrilgan. Orada bog' va gulzor barpo etildi. Bundan ko'rinib turibdiki Bahouddin Naqshbandaga bo'lgan etibor tobora ortib borayotgani, uning ziyoratgohlari tamirlanib chiroyli bir manzaraga

aylantrilgani shubhasiz ziyoratchilarning salmog'i oshib boy tarixga ega Buxoroning hamda u yerda joylashgan Naqshbandiya ziyoratgohini ko'zdan kechirib uning naqadar tarixiy shaxs ekanligidan dalolat beradi. [4.B.34]

Majoziy ishq haqida

Muhabbat uning nomini takrorlashdan hosil bo'lar ekan, endi bilinki, zikirning afzali "La ilaha illalloh" dir Chunki bu kalima nafiyy (inkor) va isbotdan iboratdir. Bu kalima lab ishtirokisiz aytiladigan kalimadir. Bandada hosil bo'lgan hisob olam suratlaring dilda naqsh topishi sabablaridir va bu naqshda g'ayrning isboti va Haqning inkori mavjud. Demak, hijobni yo'q qilmay turib (Alloh) ga yaqinlik hosil bo'lmaydi. Bu shundayki, Haqda isbot va g'ayrni inkor qilasan, bu esa aytilganidek, zikr qilishdir. [5.B.215]

XIV yashagan Hofiz Xorazmiy "Muhabbatnoma" da shunday deb yozadi:

Xayolot to sahar bo man homu guft,
Shabi axloq chu xush ravshan hamu guft:
"Qadamdar nech , ki dar ishq majaoziy
Ba Maqsudi rasi gar nokbozi".

Mazmuni: Sening xayoling bu kecha saharga qadar menga juda ravshan va aniq qilib dedi: "Majoziy ishqqa qadam quygilki, agar pokboz bo'ladigan bo'lsang, Maqsadingga, ya'ni Mahbubi Haqiqiyga yetishasan". Bundan ko'rinib turibdiki "Mahbubi Haqiqiy" ya'ni Alloh ga yetishasan, bunday yetishishga Zikr orqali Allohni zikir qilish orqali yetishishligi hamda qalbda Allohdan o'zgasi bo'lmasligi lozimdur deyiladi. [6.B.7]

Naqshbandiya tariqati keng yoyilgan hududlar

Naqshbandiya, shu tariqa Tasavvufni Islom shariati va payg‘ambar sunnati bilan yanada mustahkamroq bog‘ladi. “Urvatul vusqo” ya’ni barcha ishda payg‘ambar so‘zlari va ishlariga suyanish Naqshbandiya shiorlaridan biriga aylandi.

Naqshbandiya So‘fiylik iste’dodiga ham e’tibor berilgan, ya’ni bazi kishilarning men falon silsiladanman, nasl - nasabim falon – falonchilarga borib taqaladi, degan gaplariga qarshi Bohouddin Naqshband “rang silsilasida emas” “rang Allohning jazbasida deb aytadi”. Jazba bo‘lmasa so‘fiylikda maqomatlarga kutarilish qiyin.

Naqshbandiya tariqati o‘zining hayotligidayoq keng shuhrat qozondi. Naqshbandiya nazariy jihatdan ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin xizmatlari katta bo‘ldi. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq emas, balki Buxoro va Samarqand ulomolari, Amir Temur avlodidan bo‘lgan shoh va shahzodalar kira boshaladilar. XV - asrdayoq Naqshbandiya Eron, Afg‘oniston, Misr, Hijoz (Arabiston), Shimoliy Kavkaz, Turkiyaga tarqala boshladi. Ayniqsa, “Hazrati Eshon” unvoniga musharraf bo‘lgan Xoja Ahror Valiy – Nosiruddin Ubaydulloh faolyati tufayli Naqshbandiyaning obro‘ – e’tibori yana ham oshdi. Xazratning zamonida mansabdor shaxslar, shoh – u amirlardan uzoq turish lozim bo‘lgan bulsa, Xoja Ahror Valiy davrida Naqshbandiya siyosiy doiralarga ham kirib bordi.

Naqshbandiya XIV asrda Hindistonga tarqaldi. Bunda Bobo Valiy, Xoja Boqibiloh (1563 - 1603), Ahmad Sirxindiy (1564 - 1624) faolyati yaxshi samara bergan. Ayniqsa, Ahmad Sirxindiy u yerda Sunniylik yo‘nalishini mustahkamlash uchun Naqshbandiydan unumli foydalanilgan.

Naqshbandiyani Turkiyada yoyilishida Mullo Abdulloh Simoviy (1409 - yilda vafot etgan), Ahmad Buxoriy va boshqa shaxslarning

xizmati bordur. Naqshbandiya XIV-XVII asrlarda Misr va Hijoz (Arabiston) ga kirib boradi. Eroning Nishopur, Isfahon, Yazid shaharlariga tarqalib, shu orqali Falastin, Iroq, Iordaniyada ko'plab tarafdorlarga ega bo'lgan

Hindiston orqali u Indoniziya, Malayziya, Seylon (hozirgi Shiri - lanka) ga ham tarqaladi. Keyingi asrlarda Naqshbandiya tariqati Rossiya, Bosniya va Yevropa mamlakatlariga yoyilgan.

Hozirda AQSh, Kanada, Avstraliyada Naqshbandiya markazlari, xonaqolari va jamg'armalari bor. Naqshbandiya tariqati nafaqat O'rta Osiyo balki dunyoning ko'plab mamlakatlariga tarqalib o'zining ezgu amallarini tarqatibgina qolmasdan u yerlarda o'zini vakillarini to'plab oldi hamda o'z jamg'armalarini tuza oldi. [7]

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quydagilardan shuni xulosa qilish mumkinki:

- Naqshbandiya tariqatining umuminsoniy g'oyalari, ma'naviy kamolot, botiniy poklikni targ'ib etishi uning dunyoda keng tarqalishiga olib keldi. Uning muxlislari esa bir necha million kishini tashkil etadi;

- Naqshbandiya tariqatidagilar turli millat va elat vakilari edilar, yana bir jihatga to'xtalishimiz joizki Tasavvufda hech bir Ulamo, Pir, hattoki Shayxlar ham Komillikka erisha olmagan. Bular faqatgina shunga intilganlar. Komilikka faqatgina bir zot yetishgan bu Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) dir;

- Uning tariqatiga amal qilgan mashhur shoirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy bo'lganlar. Uning tariqatini davomchisi etib Xoji Muhammad Porsoni tayinlab ketadilar hamda qolganlarni ham shunga ergashishiga chaqiradilar;

Umumiy xulosa qilib aytkada Naqshbandiya va uning tariqati O'rta Osiyo va Dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarqalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Komiljon Rahimov. Bahouddin Naqshband: hayoti va ta’limoti (ikkinchi qism). “Moziydan sado”jurnali. 2022 - y. B. 6 - 8.
2. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. “Istiqlol” 1999 - y. b. 107 - 111.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mujaddid>
4. Sadriddin Salim Buxoriy. Bahouddin Naqshband yoki Yetti Pir. T.. “Navro‘z” 2017. B. 34 - 35.
5. Islom Tasavvufi manbalari (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Ilmiy majmua. Xamidulla Boltaboyev. “O‘qituvchi”. T.. 2005. B. 215.
6. Abdulqodir Qurbonov. Tasavvuf va adabiyot. “Namangan”. 2010. B. 7.
7. <https://uz.m.wikipedia.Org/wiki/Naqshbandiya>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKT ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHDAGI MAVJUD ILOVALAR TAHLILI

Xo‘jamqulov Ravshanbek Hasanboy o‘g‘li

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Matematika – informatika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: NamDPI dotsenti M.Eshnazarova

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ch sinflarda matematika fanini o‘qitishda sun‘iy intellekt texnologiyalarining o‘rni va afzalliklarini tahlil qiladi. Sun‘iy intellekt yordamida yaratilgan dasturlar, virtual o‘qituvchilar va matematika o‘yinlari o‘quvchilarning o‘quv jarayonlarini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Аннотация: В данной статье анализируются место и преимущества технологий искусственного интеллекта в

преподавании математики в начальных классах. Программы, созданные с помощью искусственного интеллекта, виртуальных учителей и математических игр, помогают сделать процессы обучения учащихся интересными и эффективными.

Annotation: This article analyzes the role and advantages of artificial intelligence technologies in teaching mathematics in primary schools. Programs created using artificial intelligence, virtual teachers and mathematical games help make students' learning processes interesting and effective.

Kalit soʻzlar: Matematika, sunʼiy intellekt, raqamli texnologiya, taʼlim, interaktiv, dastur.

Ключевые слова: Математика, искусственный интеллект, цифровые технологии, образование, интерактив, программа.

Keywords: Mathematics, artificial intelligence, digital technology, education, interactive, program.

Kirish.

Boshlangʻich taʼlimda matematika fani oʻquvchilarning aqliy rivojlanishi, mantiqiy fikrlashi, oʻz fikrlarini erkin bayon qila olishi va muammolarni hal qilish koʻnikmalarini rivojlantirishda asosiy rol oʻynaydi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yaʼni sunʼiy intellekt texnologiyalari esa taʼlim jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkonini beradi. Sunʼiy intellekt-kompyuter va dasturlarga insonning fikrlash qobiliyatiga oʻxshash imkoniyatni berish texnologiyasi. Sunʼiy intellekt hozirda taʼlim, sogʻliqni saqlash kabi turli xizmatlarda keng qoʻllanilib kelinmoqda. Taʼlim sohasida sunʼiy intellektidan foydalanish yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Keling, boshlangʻich sinflarda matematika fanini oʻqitishda sunʼiy intellekt texnologiyalari orqali qanday yondashuvlarni qoʻllash mumkinligini koʻrib chiqaylik.


Interaktiv dasturlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun tushunarli va mahsuldor interaktiv dasturlar va o'yinlar matematika fanini o'rganishni yengillashtiradi. Sun'iy intellekt orqali yaratilgan dasturlarning har biri o'quvchilarning individual qobiliyati va ehtiyojlariga moslashadi. Bu esa o'quvchilarga mos shaxsiy yondashuvni ta'minlaydi va ularning qiziqishini oshiradi.

Tahlil va baholash: Sun'iy intellekt asosida tahlil qilish texnologiyalari yordamida o'quvchilarning bilim darajasi, o'zlashtirish qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlarini monitoring qilib boriladi.


Boshlang'ich sinf matematikasi uchun sun'iy intellekt ilovalari

Boshlang'ich sinf matematika fanida raqamlar, geometrik shakllar va oddiy amallarni o'rgatishga yordam beradigan sun'iy intellekt asosidagi o'yinlar ishlab chiqilgan. Bu o'yinlar orqali bolalar dars jaroyonida charchamasdan matematika bilan shug'ullanadilar. Bunday ilovalarga misol sifatida **DreamBox Learning, Prodigy, ALEKS, Matific, Khan Academy Kids, SplashLearn** kabi ilovalarni misol qilishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ilovalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanini o'qitish yanada zavqli, nisbatan soddaroq, tez va interaktiv tarzda o'rganishga yordam beradi. Keling, bu ilovalarni tahlil qilib chiqaylik:

DreamBox Learning: Ushbu ilova matematikani o'zlashtirish uchun interaktiv va moslashuvchan muhit yaratadi. Har bir o'quvchining ehtiyojiga mos ravishda o'quv materialini taqdim etadi va real vaqtda tahlil qilish orqali o'quvchilarga yordam beradi. Bu ilova matematika faniga chuqur kirish, individual o'sishni kuzatish, turli o'yinlarga asoslangan darslar va moslashuvchan o'quv jarayoni kabi imkoniyatlarga ega.




Prodigy: Bu o'yin tarzidagi matematika platformasi bo'lib, sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning bilim ko'lamiga moslashadi. Ushbu ilova o'quvchilarga o'yin orqali ta'lim beradi va bunda bolalar o'ynab masalalarni yechadilar, natijada ular matematikaga yanada qiziqishlari ortadi va bu fanni o'rganishlari osonlashadi.




Matific: Ushbu ilova boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maroqli va mazmunli matematik o'yinlar va masalalar taqdim etadi. Bu ilova o'yin va masalalarni o'quvchilar uchun mos tanlab qo'yadi. Har bir mashq interaktiv bo'lib, bolalar muammoni hal qilish orqali o'yinlar va jumboqlarga qadam bosadilar, o'yinlarni o'ynash davomida o'quvchi matematika fanini o'rganadi, fikrlash, mulohaza yuritish va dunyoqarash qobiliyatlarini shakllantirib boradi. Ilova arifmetika, geometriya, algebra va boshqa matematik sohalar bo'yicha

kengaytirilgan darslarni taqdim etadi. Bu esa o'quvchilarga har xil matematik tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi.



SplashLearn: Ushbu ilova boshlang'ich sinflar uchun raqamlar va amallarni o'rganishga yordam beradi. Ilovada hisoblash, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish kabi asosiy matematik ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'maklashadi. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini kuzatib, ularga moslashtirilgan mashqlarni tashkil etadi va matematika o'yinlari orqali o'rganishni mazmunli qiladi.



Ushbu ilovalar yordamida o'quvchilar matematika fanini yanada qulay va oson o'rganishda ijobiy va natijali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yangi darajaga olib chiqadi. Ushbu maqolada keltirilgan sun'iy intellekt ilovalari har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasi va ehtiyojlariga mos keluvchi tarzda taqdim etilib, ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlaydi. Muallif sifatida DreamBox Learning platformasidan boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars berish jarayonida foydalanishni tavsiya qilamiz. Ushbu platforma o'quvchilarning matematik bilimlarini interaktiv va shaxsiylashtirilgan shaklda o'stirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirishi, bilim olish jarayonini yengillashtirishi, o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashi, kelajakdagi murakkab hayotda muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishishlari uchun turli sharoit va imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli, sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi kelgusida yanada ko'proq e'tiborga loyiqdir. Biroq bu texnologiyalardan foydalanish samarali bo'lishi uchun ta'lim muassasalari va o'qituvchilar uni to'g'ri maqsadga integratsiya qilishlari kerak va dars jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish uchun sinf xonalarida zarur texnika va jihozlar bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.A.Turdaliyeva & M.Y.Eshnazarova (2024). Ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni. International Journal of Science and Technology ISSN 3030-3443 Volume 1, Issue 23

2. Qodirov, S. Q. (2017). Axborot texnologiyalari va ta’lim jarayoni. Toshkent: Sharq nashriyoti.
3. <https://www.dreambox.com/>
4. <https://www.prodigygame.com/main-en/>
5. <https://www.matific.com/rus/ru//home/>
6. <https://www.splashlearn.com/>

SHAYBONIYLAR SULOLASI VAKILLARINING DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATIDAGI ASOSIY JIHATLAR

Ibrohimova Durdona Baxtiyorjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Tarix yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, Dotsent B.T.Ataxanov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Movorunnaxr hududiga Shayboniylar sulolasining kirib kelishi, shayboniy hukmdorlarning davlat boshqaruvi, amalga oshirgan islohotlari va harbiy yurishlari yoritilishi bilan birga davriy nuqtai-nazardan qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada hukmdorlarning davlat boshqaruvi hamda ularning boshqalardan farqli jihatlari yoritib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: Shohbaxt, anarxiya, Hazrati imom uz-Zamon xalifat ur-Rahmon, soʻfiylik, „haqiqiy islom himoyachisi“, kerayit, ulus, qizilboshli, yassaviya.

Kirish.

Oʻzbek xalqi davlatchiligi taraqqiyotida shayboniylar sulolasining hukmronligi katta ahamiyat kasb etadi va bu nasl-nasab vakillarining hayoti, tarixi, ular bilan bogʻliq turli voqea va jarayonlar ilmiy tadqiqot ishlarida maxsus ravishda, baʼzan esa qisman oʻrganilgan hamda

mazkur ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari ilmiy muomalaga kiritilgan. Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon bo'lib, ushbu davlatga 1500-yil asos solib, Muhammad Shayboniyxon va undan keyin saltanatni boshqargan hukmdorlar tomonidan hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, janubiy Qozog'iston, shimoliy Afg'oniston va janubiy-sharqiy Turkmaniston hududlarini birlashtirgan davlatni boshqardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Shayboniylar davri tarixi hamda boshqaruviga oid bo'lgan tadqiqotlar V. V. Bartold. R. G. Mo'minova, V. P. Yudin, Edvard Allworthlar, tarixiy tadqiqotlaridan, shuningdek, A.Zamonov, B.Axmedov, I.Nizomiddinov, H.To'rayev va R.Alimovalarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilda.

Maqolani yuqoridagi mualliflarning ilmiy ma'lumotlaridan foydalanib, Ilmiy tadqiqotda tarixiy dalillar, voqea-hodislar, tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganish, talqin qilish jarayonida tanqidiy usuldan ham keng foydalaniladi. Ilmiy tadqiqot mavzusini yoritishda foydalanadigan manba va adabiyotlar, unda talqin etilgan voqea va hodisalar, shaxslar faoliyati, keltirilgan tarixiy sanalar, atamalar, dalillarga ham sinchkovlik bilan va ma'lum darajada tanqidiy usuldan, ilmiy davriylik qoidalariga amal qilib yoritildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Muhammad Shayboniy 1499-yilda Movarounnahrni zabt etishga kirishadi va 1500-1501-yillarda Samarqandni bosib olib, uni o'z davlatining poytaxti deb e'lon qiladi. 1507-yilda nihoyat butun Movarounnahr va Xuroson ustidan o'z hokimiyatini o'rnatadi. 1510-yilda Muhammad Shayboniy qo'shinlari Marv yaqinida Eron shohi

Ismoil I Safaviy tomonidan mag'lubiyatga uchragan va uning o'zi ham o'ldirilgan.

Shayboniylar sulolasining so'nggi hukmdori Pirmuhammadxon II esa yuzaga kelgan anarxiyaga bardosh bera olmagan va tez orada o'zaro kurashda halok bo'lgan.

Shayboniylar hukmronligi davri farovonlik bilan ajralib turgan. Ular qo'l ostida o'rta asrlarning noyob durdonalaridan bir qanchalari qurilgan.

Mamlakat aholisi haqida ishonchli ma'lumotlar yo'q. Taxminlarga ko'ra, mamlakatda o'rtacha bir necha million kishi yashagan. Tadqiqotlarga ko'ra, XVI asr boshlarida Movarounnahrda ko'chib kelgan ko'chmanchi o'zbeklarining soni 300 mingdan 500 ming kishigacha bo'lgan [1.-230-bet]. Milliy tarkib juda aralash edi. Shaharlarda asosan forsiyzabon aholi istiqomat qilgan. Aksariyat dehqonlar (dehqonlar) ham turkiyzabon va forsiyzabon edi. Ularning bir qismi o'zini o'zbek, tojik, turkman, qozoq, fors, arab deb atagan. Fors tili ish yuritish, ziyolilar, madaniyat, she'riyat va qisman din tili hisoblangan. Davlatda turklar, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va boshqalar ham yashagan. Turkiy til asosan ish yuritish, saroy, she'riyat, harbiy ishlar tili bo'lgan, shuningdek, tayanchi o'zbek turklari bo'lgan ko'p sonli davlat qo'shinining asosiy tili bo'lgan. Davlatda dinning asosiy tili hisoblangan arab tili ham katta rol o'ynagan. XVI asrning 2-yarmida Shayboniylar davlati hududida shirin, kerayit, qatag'on, olchin, xitoy, ming, bahrin, jaloyir, o'tarchi, qang'li, qo'ng'irot, datura, qushchi, mojar, kenagas kabi o'zbek qabilalari qayd etilgan[2. -22-bet].

Muhammad Shayboniyyon boshchiligidagi ko'chmanchi o'zbeklar XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonni egallab, temuriy shahzodalar hukmronligiga chek qo'ydi va bu ulkan hududda o'zlarining

markazlashgan davlatiga asos soldi. Bu davlat poytaxti avval Samarqand bo'lgan bo'lsa, XVI asr o'rtalaridan boshlab Buxoroga ko'chiriladi. Butun XVI asr mobaynida hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab kelgan shayboniylar sulolasi hukmronligi o'zbek davlatchiligi tarixida katta ahamiyatga ega bo'lib, xuddi shu davrda o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi uchinchi davr boshlandi. Dashti qipchoqlik o'zbeklar Movarounnahr va Xurosondagi mahalliy turkiy xalq o'zining azaliy qon-qarindoshlari bilan qo'shib ketdi va ularga ham o'zining nomini berdi.

Shayboniylar ham Movarounnahr aholisining aksariyati kabi islomning sunniy mazhabiga amal qilganlar. Davlatda turli tariqatlar, xususan, yassaviya va naqshbandiya tariqati bilan bir qatorda so'fiylik tarafdorlari ham ko'p bo'lgan. Shayboniylar o'zlarini „haqiqiy islom himoyachisi“ deb hisoblar va 1501-yilda qo'shni Safaviylar davlatida hukmron bo'lgan shialik diniga dushman edilar. Diniy qarama-qarshiliklar tufayli Shayboniylar va Safaviylar davlatlari deyarli har doim bir-biri bilan adovat va raqobatda bo'lgan. 1510-1570-yillarda bu davlatlar va sulolalar o'rtasida bir necha o'nlab to'qnashuv va janglar bo'lib o'tgan. Safaviylar Shayboniylar hukmronligiga chek qo'yib, Movarounnahrda shia islomini o'rnatishga harakat qilgan bo'lsalar, Shayboniylar esa, aksincha, Xurosonda sunniylikni saqlab qolishga harakat qilib, o'zlarini himoya qilganlar [3. 155-bet].

Shayboniylar sulolasining ko'zga koringan vakillaridan biri Ko'chkunchixon bolib, Ko'chkunchixon (1452-1529) Abulxayrxon va Robiya Sultonbegim (Ulug'bek mirzoning qizi)ning farzandi, Shayboniixonning amakisi. Shayboniixon tomonidan Turkiston viloyati hokimi etib tayinlangan (1503-1509-y.). Shayboniylarning Movarounnahrni bosib olish uchun qilgan yurishlarida faol ishtirok etgan. 1512-yil 28-apreldagi jangda shayboniylar Bobur bilan uning

ittifoqchisi safaviylar qo'shinini tor-mor qilib, Samarqand taxtini qo'lga kiritdilar va Ko'chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi. Uning davrida shayboniylar safaviylar bilan urushib, ikki marta (1513/1514; 1529-yil) Hirotni egallaganlar, Bobur saltanati poytaxti Agra shahriga elchilar yuborilgan [4. – 66-bet.].

Ko'chkunchixon nomi tarixda xongina emas, adabiyot, fan va madaniyat homiysi sifatida ham qolgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, u shariatavar, zohid, olim-u ulamolarning himoyachisi bo'lgan. Uning davrida ko'p asarlarni o'zbek yiliga tarjima qilish bobida katta ishlar qilingan: fors tilidan o'zbek tiliga Rashididdinning "Jorne at-tavorix", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari tarjima qilingan. Yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida Movarounnahr oliy hukmdori bo'lgan Ko'chkunchixon vafot etgach, Ulug'bek madrasasining janub, kunchiqar tarafiga dafn etilgan. Qabri ustiga o'g'li va vorisi Abu Saidxon (1530-1533) tomonidan madrasa qurilgan [5. – 54-bet].

Shunday qilib, 1512-yil Movarounnahr taxtini Ko'chkunchixon egallagan bo'lsa-da, amalda hokimiyat Buxoro hokimi Ubaydullaxon qo'lida edi. Ubaydullaxon o'z davlati chegarasini Shayboniixon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. Uzoq vaqt qo'lda saqlashga erisha olmagan bo'lsa-da, Hirotni ishg'ol etgan, "qizilboshli"larni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurashlar va tarqoqlikka ham barham berdi.

1510-yil Xuroson va Xorazm shayboniylar qo'ldan chiqib, Eron safaviylari mulkiga aylangan edi. Xurosonning qo'ldan ketishiga sira rozi bo'lmagan Ubaydullaxon 15 yil ichida Hirot, Mashhad va Nishopurga 6 marta qo'shin tortib, uni qaytarib olishga harakat qiladi. Shayboniy sultonlarning Xurosonga harbiy yurishlari 1513-yil yanvarda

boshlangan. Ubaydullaxon 1513-yili Marvni, ko'p o'tmay Xorazmni egallab, uni boshqarishni o'g'li Abdulazizga topshiradi[5. – 55-bet].

Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, Xuroson va Xorazm ustidan qisqa muddat bo'lsa-da, shayboniylar hukmronligini o'rnatib, Turon hududini Buxoro atrofida birlashtirishga intildi. Shunday qilib, Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning siyosiy mavqeyi kuchayadi, iqtisodiy ahvoli yaxshilanib, madaniy jihatdan yanada yuksaladi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, hunarmandchilik va dehqonchilik rivojiga alohida e'tibor qaratiladi, ko'plab obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshiriladi, masjid-u madrasalar, xonaqoh-u yo'llar quriladi.

Shayboniylar sulolasining davlat boshqaruvida muhim rol oynagan hukmdorlaridan biri Abdullaxon II bolib, Abdullaxon II (1557-1598-yillar) nomi bilan yagona kuchli davlat barpo etish harakati bog'langan. U 1557-yil Buxoroni zabt etadi, 1561-yil bu yerga poytaxt ko'chiriladi va davlat Buxoro xonligi nomi bilan yurita boshlanadi.

Abdullaxon II markazlashgan Shayboniylar davlatini tiklash maqsadida amirlar va sultonlar bilan ayovsiz kurash olib bordi. Tinimsiz urushlar natijasida Farg'ona (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlari (1574), Samarqand (1578), Toshkent, Shohruhiya, Sayram, Ohangaron (1582), Balx (1583), Badaxshon (1584), Hirot (1588), Xorazm (1595), Abdullaxon qo'l ostiga birlashtirildi. U 1561-1583-yillarda otasi nomidan, 1583-1598 yillarda rasmiy xon sifatida davlatni boshqardi. Ammo 1598- yilda Abdullaxon II vafotidan so'ng uning o'g'li Abdulmo'min uzoq muddat taxtni boshqara olmadi. So'nggi Shayboniy hukmdori Pirmuhammad II (1599-1601) ham bebosh amirlami tiyib qo'ya olmadi [6. 243-bet]

Abdullaxon II hukmdorligi davrida bunyodkorlik ishlari rivojlanadi – Karmanada Zarafshon daryosi ustiga ko‘prik quriladi, Balx va Buxoroda ko‘p sonli madrasalar qad rostlaydi. Xon imom Abubakr Sa‘diy maqbarasi atrofida masjid, madrasa, turar joy binosi va boshqa imoratlardan tashkil topgan majmuani bunyod etgan. 1598-yilda Abdullaxon vafot etgach yagona o‘zbek davlatini yaratish umidi ham so‘ngan. Shayboniylar sulolasining so‘nggi vakili Pirmuhammadxon o‘rtamiyona shaxs bo‘lib, joylardagi hukmdorlar o‘rtasida siyosiy ta‘sir kuchiga ega emas edi. Natijada yuzaga kelgan boshboshdoqlikka barham bera olmay, u tez orada o‘zaro janjallarda qurbon bo‘ladi.

XULOSALAR

Shayboniylar davlatining boshqaruv tizimida sulolaga mansub shaxslarning xonlik, valiahdlik, sarkardalik va boshqa lavozimlardagi faoliyatlariga oid ma‘lumotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: ya‘ni, biz yuqoridagi xonlik boshqaruvini davrlashtirish masalasidan kelib chiqiladigan birinchi davrda mamlakatda nisbatan barqarorlik ta‘minlanganligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri ma‘lum qoida hamda intizom asosida yoshi eng ulug‘ sulola vakilining saylab qo‘yilishi natijasida taxt uchun talashishning kelib chiqmaganligidir; bu masalaning ikkinchi jihatida esa, ushbu an‘ana natijasida davlat asoschisi bo‘lgan Muhammad Shayboniixonning birorta ham avlodi oliy hukmdor sifatida mamlakatni boshqarish imkoniga ega bo‘lmagan.

Shayboniylar sulolasi Movarounnahrda o‘zbek davlatchiligining muhim bosqichini tashkil etadi. Muhammad Shayboniixon boshchiligida asos solingan bu sulola XVI asrda siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan barqaror davlatni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldi.

Sulolaning hukmronligi davomida Samarqand va Buxoro yirik siyosiy va madaniy markazlarga aylangan, davlat boshqaruvida aniq tizim va intizom joriy etilgan. Ularning madaniy merosi, jumladan, ilmfan va adabiyot homiyligi, davlatchilikni mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shdi. Ammo sulola ichki ziddiyatlar va tashqi tahdidlar tufayli asta-sekin zaiflashib, o'z hukmronligini yo'qotdi.

Shayboniylar davlat boshqaruvida yana shuni korishimiz mumkinki yoshi eng ulug' sulola vakilining saylab qo'yilishi natijasida taxt uchun talashishning kelib chiqmaganli hamda davlat asoschisi bo'lgan Muhammad Shayboniixonning birorta ham avlodi oliy hukmdor sifatida mamlakatni boshqarish imkoniga ega bo'lmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 2001. B. 450.
2. Alimova R.R. O'rta Osiyo xonliklarining qo'shni davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari (XVI-XX asr boshlari rus tarixshunosligi va manbalari asosida). – T.: 2017. – B. 196.
3. To'rayev H. Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Durdona, 2020, B. 270.
4. Nizomiddinov I. XVI-XVIII asrlarda O'rta Osiyo Hindiston munosabatlari. T.: Fan. 1966. – 162 b.
5. Zamonov. Buxoro xonligi tarixi. – T.: Bayoz. 2021, B. 266.
- Murtazeyeva R. O'zbekiston tarixi. – T.: 2005, B 536.

TABIY FANLARNI CHET TILIDA (INGLIZ TILI) O‘QITISH METODIKALARI

Mansurbek Muxtor o‘g‘li Xayrullayev

Namangan davlat Pedagogika instituti

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: mansurbekxayrullayev77@gmail.com

Abduvaxobova Muxlisa Sodiqjon qizi

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

E-mail: muxlisaabduvahobova1@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tabiiy fanlarni ingliz tilida o‘qitish metodikalari, ularning afzalliklari va duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi. CLIL, Task-based learning va Inquiry-based learning kabi zamonaviy yondashuvlarning samaradorligi ko‘rib chiqilib, innovatsion texnologiyalarning o‘qitish jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Maqola tabiiy fanlarni xalqaro miqyosda o‘qitish va o‘quvchilarning lingvistik hamda ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Abstract: This article analyzes the methodologies of teaching natural sciences in English, their advantages, and the challenges encountered. The effectiveness of modern approaches such as CLIL, Task-based Learning, and Inquiry-based Learning is examined, along with the role of innovative technologies in the teaching process. Additionally, the difficulties faced in Uzbekistan in implementing this approach and practical solutions to overcome them are discussed. The article serves as a valuable resource for studying international science education and developing students' linguistic and scientific competencies.

Аннотация: В данной статье рассматриваются методики преподавания естественных наук на английском языке, их преимущества и возникающие проблемы. Анализируется эффективность современных подходов, таких как CLIL, Task-based learning и Inquiry-based learning, а также раскрывается роль инновационных технологий в образовательном процессе. Кроме того, рассматриваются трудности, возникающие в Узбекистане при внедрении данного направления, и предлагаются практические решения. Статья служит важным источником для изучения международного преподавания естественных наук и развития лингвистических и научных компетенций учащихся.

Kalit soʻzlar: CLIL, tabiiy fanlarni ingliz tilida oʻqitish, task-based learning, inquiry-based learning, innovatsion pedagogika, raqamli taʼlim, xalqaro taʼlim, ilmiy kompetensiyalar, pedagogik metodlar.

Key words: CLIL, teaching natural sciences in English, task-based learning, inquiry-based learning, innovative pedagogy, digital education, international education, scientific competencies, language barrier, pedagogical methods.

Kirish.

Hozirgi kunda ilm-fan chegaralar bilmaydi. Ingliz tili esa ilmiy dunyoning asosiy kalitiga aylanib bormoqda. Shu sababli tabiiy fanlarni ingliz tilida oʻqitish nafaqat tilni rivojlantirish, balki, global ilmiy hamjamiyatga qoʻshilish uchun ham muhim hisoblanadi. Bu maqolada tabiiy fanlarni ingliz tilida oʻqitishning eng samarali metodlari, innovatsion yondashuvlar va duch kelinayotgan muammolarni bayon qilinadi. Globallashuv davrida taʼlim tizimida ingliz tilining roli ortib bormoqda. Xususan, tabiiy fanlarni ingliz tilida oʻqitish zamonaviy tendensiyalardan biri boʻlib, bu nafaqat oʻquvchilarning ilmiy bilimlarini

chuqurlashtirishga, balki ularning til kompetensiyalarini ham oshirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish bu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirish, natijada esa xalqaro maydonga chiqish imkoniyatini yaratish demakdir. [1] Kimyo, biologiya, fizika yoki geografiya kabi fanlarni ingliz tilida o'rganish bu nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ilmiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqishdir. Hozirgi kunda ingliz tili global muloqotning ko'prigiga aylanib bormoqda. O'quvchilar tabiiy fanlarni ingliz tilida o'rganish orqali, dunyo miqyosida ilmiy tadqiqotlarni tushunib va ulardan foydalana olishadi. Xalqaro konferensiyalar, forumlar va ilmiy jurnallarda o'z tadqiqotlarini taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bo'lajak mutaxassis sifatida xorijiy universitetlar va ish beruvchilarga raqobatbardosh bo'lishadi. Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish – bu shunchaki yangi pedagogik yo'nalish emas, balki kelajak kasblariga tayyorgarlikning bir qismidir. O'quvchilar ilm-fan bilan shug'ullanayotib, ingliz tilida erkin so'zlashishni o'rganadilar. Bu ularga nafaqat xalqaro ilmiy maydonga chiqish, balki shaxsiy rivojlanish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish bu shunchaki tarjima qilish emas. Bu – ilmiy tafakkurni boshqa bir til vositasida shakllantirish, ilmiy kontseptsiyalarni global auditoriya bilan baham ko'rish imkoniyatini yaratishdir. Bu jarayon o'quvchilarga qanday foyda beradi? degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin: Ilmiy manbalar dunyosiga kirish ko'pgina ilmiy maqolalar va tadqiqotlar ingliz tilida nashr etilishi mumkin hisoblanadi. Xalqaro maydonda erkin muloqot qila olish ilmiy konferensiyalar, loyihalar va grant dasturlarida qatnashish osonlashadi. Ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish turli fanlarni o'zlashtirish bilan birga, tilga ijodiy yondashuv shakllanadi. [2]

Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish bu faqat til o'rganish emas, balki kelajak olimlari, muhandislari va innovatorlari uchun mustahkam poydevor yaratish demakdir. Ikkita yo'nalish – tabiiy fanlar va ingliz tili yagona maqsad sari xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitishda quyidagi metodikalardan samarali foydalanish mumkin

1. CLIL (Content and Language Integrated Learning) – bu metod tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida til va mazmunni integratsiyalashni nazarda tutadi. Ya'ni, o'quvchilar ilmiy mavzularni o'rganish bilan birga ingliz tilida gapirish va yozish ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

2. Task-based learning (Vazifaga asoslangan ta'lim) – bunda o'quvchilar ilmiy topshiriqlarni bajarish jarayonida ingliz tilidan foydalanadilar [3]. Masalan, kimyo yoki biologiya laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida ingliz tilida izoh berish yoki natijalarni taqdim etish talab etiladi.

3. Inquiry-based learning (Tadqiqotga asoslangan ta'lim) – bu usulda o'quvchilar muammolarni hal qilish yoki tadqiqot olib borish orqali fan va tilni o'zlashtiradilar. Masalan, ular o'z tadqiqot natijalarini ingliz tilida taqdim etishlari mumkin.

4. Innovatsion texnologiyalar va vositalar: Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitishda quyidagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Onlayn platformalar: Khan Academy, Coursera, edX kabi onlayn kurslar orqali tabiiy fanlarni ingliz tilida o'rganish imkoniyati mavjud. [4]

Virtual laboratoriyalar: PhET Interactive Simulations, Labster kabi vositalar orqali o'quvchilar laboratoriya tajribalarini ingliz tilida o'rganishlari mumkin.

O'zbekistonda tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitishda duch kelinayotgan muammolar va ularga yechimlar

O'zbekistonda tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish jarayoni yuqori natijalarga erishishda muhim qadam bo'lsa-da, bu yo'nalishda bir qancha muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etish uchun ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

1. Til to'sig'i (Language Barrier) O'quvchilarning ingliz tilidagi ilmiy materiallarni tushunishi va bilimlarni mantiqiy ravishda ifodalashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shunga o'xshash muammoga duch kelmaslik uchun quyidagilarga amal qilishimiz kerak. Ingliz tilini o'qitish sifatini yaxshilash ingliz tilini ilmiy til sifatida o'rgatish uchun maxsus metodikalardan foydalanish, o'quvchilarga ingliz tilidagi ilmiy atamalarni o'rganish bo'yicha qo'shimcha resurslar taqdim etish joiz hisoblanadi. [5] Tilni o'rganishga qiziqishni oshirish ingliz tilida ilmiy va amaliy ishlashga qiziqtiruvchi faoliyatlar, ilmiy simulyatsiyalar va amaliy tadqiqotlarni joriy etish.

2. O'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi (Teacher Preparation)

Tabiiy fanlarni ingliz tilida samarali o'qita olish uchun o'qituvchilar yuqori darajadagi ingliz tili bilimiga va ilmiy fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi kerak. Hozirgi kunda barcha o'qituvchilar bunday talablar darajasiga yetmayapti.

O'qituvchilarni malakasini oshirish – o'qituvchilar uchun maxsus treninglar, seminarlari va kurslar tashkil etish, shuningdek, ingliz tilidagi fan metodikalariga oid malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Xalqaro tajriba almashish – xalqaro ilmiy konferensiyalar va

treninglarga o'qituvchilarni jalb qilish, ular bilan tajriba almashish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

3. O'quv materiallarining yetishmovchiligi (Lack of Educational Materials)

O'zbekistonda ingliz tilida tabiiy fanlarga oid darsliklar va o'quv qo'llanmalari yetarli emas. Ko'pincha o'quvchilar uchun ilmiy materiallar faqat asosan o'zbek tilida mavjud bo'lib, ingliz tilidagi resurslar qiyinchilik tug'diradi. Qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun; O'quv materiallarini ingliz tilida ishlab chiqish va tarjima qilish – O'zbekistondagi ilmiy darsliklarni ingliz tiliga tarjima qilish va yangi materiallar yaratish. Internet-resurslardan foydalanish onlayn ta'lim platformalaridan (masalan, Coursera, Khan Academy) foydalanish, o'quvchilarga ingliz tilidagi materiallarni o'rganishga imkon yaratish.

4. Raqamli ta'lim vositalarining cheklanganligi (Limited Digital Learning Tools)

Raqamli ta'lim vositalarining yuksak darajada rivojlanmaganligi, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv darsliklar yetarli emas. Bu esa o'quvchilarga ilmiy fanlarni ingliz tilida o'zlashtirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – onlayn simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va ilmiy resurslar yaratish. Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish – masofaviy ta'lim va onlayn kurslarni kengaytirish, o'quvchilarni interaktiv resurslar orqali ta'lim olishga jalb etish kerak.

O'zbekistonda tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish jarayoni uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud, ammo undan samarali foydalanish uchun bir qator muammolarni hal qilish zarur. O'qituvchilarni tayyorlash, ilmiy materiallar yaratish, raqamli ta'lim vositalarini kengaytirish va

o'quvchilarni motivatsiya qilish orqali bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Xulosa

Tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish bu nafaqat tilni o'rgatish, balki ilmiy tafakkurni rivojlantirish va xalqaro ilmiy hamjamiyatga qo'shilish yo'lida muhim qadamdir. Kelajakda o'quvchilarning ingliz tilida bilim olishlari, o'z yurtini va dunyoni anglashlari, ilmiy ishlarda va xalqaro loyihalarda muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun ta'lim tizimi nafaqat zamonaviy metodologiyalarni qamrab olishi, balki o'quvchilarga yangi ufqlarni ochish imkoniyatini yaratishdir. Har bir inglizcha so'z va ilmiy atama o'quvchining ilm-fan dunyosiga qadam qo'yishini anglatadi, bu esa yangi kashfiyotlarga va ilmiy muammolarni bartaraf etishga eshik ochadi. Shunday qilib, tabiiy fanlarni ingliz tilida o'qitish bu ilmiy tafakkur va tilni birgalikda rivojlantirishning o'ziga xos usulidir. Boshqa mamlakatlarga qaraganda bizda bu jarayon hali boshlanish bosqichida bo'lishi mumkin, lekin bu borada erishilgan har bir yutuq, har bir kutilgan va kutilmagan muvaffaqiyat kelajakda ilg'or bilim va ko'nikmalarga asoslangan yuksak natijalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and language integrated learning. Cambridge University Press.
2. Hagan, M. S. (2020). Using task-based learning to teach natural sciences in English. Journal of Language and Education
3. Kumaravadivelu, B. (2006). Understanding language teaching: From method to postmethod. Lawrence Erlbaum Associates.
4. Marsh, D., & Langé, G. (2000). Using language to learn and learning to use language: A CLIL example. Language Awareness.

5. Yunus, M. M., & Kabilan, M. K. (2011). Teaching English through content-based instruction: A study in the Malaysian context. International Journal of Educational Management.

IMPLEMENTING TOTAL PHYSICAL RESPONSE (TPR) IN PRIMARY SCHOOL CLASSES

Erkinova Ruhshona,

Narzullayeva Gulirano

Students of Namangan State Pedagogical Institute

English Language and Literature department

E-mail: erkinovaruhshona498@gmail.com

E-mail: guliranorustamovna@icloud.com

Tel: +998902611003,

Tel: +998972208866

Annotation: Total Physical Response (TPR) is a language teaching method that integrates physical movement with language learning to enhance student engagement and retention. Developed by Dr. James J. Asher, TPR is based on the idea that language acquisition is most effective when learners respond physically to verbal input. This study explores the implementation of TPR in primary school classrooms, focusing on its impact on vocabulary retention, listening skills, and overall language development. Through an extensive review of literature and practical classroom applications, the study identifies key benefits, including increased student motivation, reduced anxiety, and improved comprehension. Additionally, it highlights challenges such as classroom management and the need for teacher training. The findings suggest that TPR is an effective strategy for young learners, particularly those who

benefit from kinesthetic learning. This study provides recommendations for integrating TPR into primary education, ensuring an interactive, engaging, and developmentally appropriate language learning experience for children.

Аннотация: Полный физический отклик (Total Physical Response, TPR) — это метод обучения языку, который сочетает физическое движение с изучением языка, повышая вовлеченность учащихся и улучшая запоминание материала. Разработанный доктором Джеймсом Ашером, TPR основан на принципе, что освоение языка наиболее эффективно, когда учащиеся физически реагируют на устные команды. В данном исследовании рассматривается внедрение TPR в начальных классах, с акцентом на запоминание словарного запаса, развитие навыков аудирования и общее овладение языком. Посредством анализа литературы и практических примеров выявляются ключевые преимущества метода, такие как повышение мотивации, снижение тревожности и улучшение понимания. Также рассматриваются возможные трудности, включая управление классом и необходимость подготовки учителей. Результаты исследования показывают, что TPR является эффективной стратегией для младших школьников, особенно для тех, кто лучше усваивает информацию через движение. Исследование предлагает рекомендации по интеграции TPR в систему начального образования для создания увлекательного и интерактивного обучения.

Annotatsiya: Total Physical Response (TPR) – bu til o'rgatish usuli bo'lib, jismoniy harakatlarni til o'rganish bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va materialni yaxshiroq eslab qolishlariga yordam beradi. Doktor Jeyms Asher tomonidan ishlab

chiqilgan ushbu usul, o'quvchilar og'zaki buyruqlarga jismoniy javob berganida, tilni yanada samarali o'zlashtirishlarini ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot TPRning boshlang'ich sinflarda qo'llanishini, so'z boyligini yodlash, tinglab tushunish ko'nikmalari va umumiy til rivojlanishiga ta'sirini o'rganadi. Adabiyotlar va sinf tajribalarini tahlil qilish orqali tadqiqot TPRning asosiy afzalliklarini aniqlaydi: o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, xavotirni kamaytirish va tushunishni yaxshilash. Shuningdek, sinfni boshqarish va o'qituvchilar tayyorgarligi kabi muammolar ham yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, TPR ayniqsa harakat orqali o'rganishni yoqtiradigan yosh o'quvchilar uchun samarali strategiya hisoblanadi. Tadqiqot TPRni boshlang'ich ta'limga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Key words: Total Physical Response (TPR), language acquisition, primary education, vocabulary retention, listening skills, kinesthetic learning, student engagement, teaching methods, classroom management, teacher training, Interactive learning, comprehension.

Ключевые слова: Total Physical Response (TPR), освоение языка, начальное образование, запоминание словарного запаса, навыки аудирования, кинестетическое обучение, вовлеченность учащихся, методы обучения, управление классом, подготовка учителей, интерактивное обучение, понимание.

Kalit so'zlar: Total Physical Response (TPR), til o'zlashtirish, boshlang'ich ta'lim, lug'at boyligini yodlash, tinglab tushunish ko'nikmalari, kinestetik o'rganish, o'quvchilarning ishtiroki, o'qitish usullari, sinfni boshqarish, o'quvchi tayyorgarligi, interaktiv ta'lim, tushunish qobiliyati.

Introduction. Language acquisition in early childhood is a critical component of cognitive development. Traditional language teaching

methods often rely heavily on rote memorization and passive learning, which may not align with the natural learning tendencies of young children. Total Physical Response (TPR), developed by Dr. James J. Asher in the 1970s, is predicated on the coordination of speech and physical movement, reflecting the way children learn their first language through interaction and response to physical commands [1].

This study aims to explore the implementation of TPR in primary school settings and its impact on language learning outcomes. Previous research has shown that TPR promotes a stress-free environment, allowing children to acquire language naturally, similar to how they learn their first language. Additionally, it has been observed that TPR aligns with theories of multiple intelligences, particularly bodily-kinesthetic intelligence, making it effective for young learners with different learning styles [3].

Methods. A qualitative approach was employed, involving a comprehensive review of existing literature on TPR and its application in primary education. Sources included peer-reviewed journal articles and educational books, with a focus on studies that documented the implementation processes, challenges, and outcomes associated with TPR in primary school classrooms. The analysis considered how TPR is integrated into lesson planning, the effectiveness of TPR-based activities, and the role of physical movement in enhancing comprehension and retention.

Key Principles of TPR

1. **Listening Before Speaking** – Children are not forced to produce language immediately but are encouraged to understand and respond first.

2. Physical Engagement – Learning is reinforced through body movements, helping students associate words with actions.
3. Stress-Free Learning – The method creates a relaxed and enjoyable classroom environment, reducing language learning anxiety.
4. Comprehensible Input – Instructions are given in the target language at a level that students can understand, promoting natural acquisition.

Benefits of TPR in Primary Education. Cognitive and Linguistic Benefits

- Enhances Language Retention – Physical movement strengthens memory connections, making vocabulary and structures easier to recall.
- Improves Listening Skills – As students focus on understanding and responding to commands, their listening skills improve significantly.
- Facilitates Natural Grammar Acquisition – TPR allows students to internalize syntax and sentence structures in a meaningful way.

Psychological and Social Benefits

- Boosts Confidence – Since speaking is not immediately required, students feel less pressured and gain confidence in using the language.
- Encourages Active Participation – Physical involvement keeps children engaged and motivated throughout lessons.
- Supports Inclusive Learning – TPR is effective for diverse learners, including those with different learning styles and abilities.

Practical Strategies for Implementation

Creating an Effective TPR Classroom Environment

- Use Clear, Simple Commands – Start with common verbs such as stand up, sit down, point to the door, touch your head, and gradually introduce new phrases.
- Model Actions Before Expecting Responses – Teachers should demonstrate each command before asking students to follow.
- Encourage Group Participation – Involve the whole class to create a fun and supportive atmosphere.
- Use Visual and Auditory Cues – Flashcards, props, and sound effects enhance understanding.

Sample TPR Activities

Activity : Action-Based Vocabulary Learning

Objective: Teach verbs related to movement.

Instructions:

1. The teacher says a verb (e.g., jump, run, clap) and performs the action.
2. Students repeat the action without speaking.
3. After several repetitions, the teacher gives commands without demonstrating.
4. Students take turns giving commands to classmates.

Results

The literature review revealed several key findings:

- Enhanced Vocabulary Acquisition: Students exposed to TPR demonstrated improved retention of new vocabulary, attributed to the multisensory learning experience that combines auditory and kinesthetic elements [1][6].
- Increased Student Engagement: The interactive nature of TPR led to higher levels of student participation and enthusiasm, creating a dynamic and enjoyable learning environment [2][7].

- Improved Listening Skills: TPR's emphasis on following verbal commands strengthened students' listening comprehension abilities, a foundational skill in language learning [1][8].
- Support for Different Learning Styles: TPR benefits students with various learning preferences, particularly those who learn best through movement and hands-on activities [3][9].
- A motivated learner will make language acquisition a success. TPR approach promotes learning English in a less stressful way. For future research, it would be recommendable to take into consideration the duration of time to execute the treatment process. Another criteria that should be taken serious attention to is to have a more through sample selection process to ensure that the sample have similar characteristics. A regression discontinuity design seems more appropriate since the samples are identified through cut-off point. Further research for TPR in different dimension should be taken into consideration such as case study on the effectiveness of the TPR approach to help children with Anti

Deficit Hyperactivity Disorder or other learning disability problems.[5]

Discussion. The findings suggest that TPR is an effective pedagogical strategy for enhancing language acquisition in primary school students. By integrating physical movement with language instruction, TPR aligns with the developmental characteristics of young learners, who often benefit from active and experiential learning methods .

However, successful implementation requires careful planning and consideration of potential challenges, such as classroom management and ensuring that all students are actively participating . Some studies

indicate that while TPR is highly effective for introducing vocabulary and basic sentence structures, it may need to be supplemented with other methods to promote higher-order language skills such as complex sentence construction and spontaneous conversation .

Teachers should also be mindful of curriculum constraints and find ways to integrate TPR into existing lesson plans. One recommended approach is to use TPR as a foundation for early language acquisition and gradually introduce speaking activities as students become more confident in their comprehension .

Conclusion. Implementing Total Physical Response in primary school classrooms offers a promising approach to language teaching that resonates with the natural learning inclinations of young children. Educators are encouraged to incorporate TPR strategies to create engaging, effective, and developmentally appropriate language learning experiences. While TPR has demonstrated numerous benefits in primary education, further research is needed to explore its long-term impact on language proficiency and fluency.

List of used literature:

1. Asher, J. J. (1977). Learning Another Language Through Actions: The Complete Teacher's Guidebook. Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions. P.56
2. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. White Plains, NY: Pearson Education. P.81
3. Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books. P.14
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press. P.19

5. Nigora Umarkhanova. Using total physical response in primary school classes. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences . (2018) P.5
6. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Harlow: Pearson Longman. P.37
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press. P.13
8. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages Are Learned. Oxford: Oxford University Press. P.48
9. Cameron, L. (2001). Teaching Languages to Young Learners. Cambridge: Cambridge University Press. P.72

ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI

Ismoilova Fotimaxon

Qo‘qon universiteti Andijon filiali
FTO‘ (ingliz tili) 1-bosqich talabasi
Tel:+998 91 499 00 96

Annotasiya: Ushbu maqolada buyuk shoir Alisher Navoiyning hayoti va ijodi, hamda biz uchun qoldirgan ilmiy merosi haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, Navoiyning turkiy xalqlarning ilm va ma’rifatiga qo‘shgan xissasi ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, adabiyot, g‘azal, falsafa, ilm-fan, “Xamsa”, “Farhod va Shirin”.

Аннотация: В данной статье выражено мнение о жизни и творчестве великого поэта Алишера Навои, а также о научном

наследии, которое он оставил нам. Также освещен вклад Навои в познание и просвещение тюркских народов.

Ключевые слова: Алишер Навои, литература, газель, философия, наука, "Хамса", "Фархад и Ширин".

Abstract: This article expresses an opinion about the life and work of the great poet Alisher Navoi, as well as the scientific legacy he left for us. Also, Navoi's contribution to the knowledge and enlightenment of the Turkic peoples is covered.

Key words: Alisher Navoi, literature, ghazal, philosophy, science, "Khamsa", "Farhad and Shirin".

Alisher Navoiy (1441-1501 yillar) nafaqat buyuk shoir, balki ilim-fan, falsafa va adabiyot sohalarida ham yirik iz qoldirgan buyuk mutafakkirdir. O'zining boy badiiy merosi va ilmiy faoliyati bilan jahondagi ko'plab olimlar va adiblar uchun ilhom manbai bo'lib qolgan shaxsdir. U o'zining ilm -fan, falsafa adabiyot madaniyatga qo'shgan qissalari bilan tanilgan.

Alisher Navoiy ilmga katta e'tibor bergan va o'zining asarlarida ilmiy bilim va tafakkurini namoyon qilgan. Uning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi Qur'on hadis, falsafa, matematika, astronomiya, tibbiyot kabi sohalarga qaratilgan edi.

U o'zining asarlarida ilm-fanning inson hayotiga o'рни va ahamiyatini ko'rsatgan. Navoiy shuningdek ilm-fanning ijtimoiy rolini chuqur tushunib, bilim olishning yuksak fazilati ekanligini ta'kidlagan.

Navoiy o'zining ko'pincha ilmiy mavzularni yoritilgan bu esa uning adabiyotga bo'lgan aloqasi yanada kuchaytirilgan uning "Xamsa" asarlarida o'ziga xos ilm-fan va falsafa va axloq tafakkur sohalariga bo'lgan muhabbat va hurmat izhor etilgan, shuningdek, Navoiy ilm-fan

va adabiyotning kelajagi haqida fikrlar bildirgan va o‘z asarlarida ilmiy metodi va tafakkuri usullarini namoyish qilgan.

Alisher Navoiy ilm –fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shga tarjimon sifatida ham tanilgan. U o‘z davirda arab, fors, turk tillaridadagi ko‘plab ilmiy va adabiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Navoiy tomonidan tarjima qilingan asarlar orasida, “Tuhfat al-ahror” fors tilarida o‘zbek tiliga tarjima va “Xamsa” dagi ilimiy–falsafiy fikrlarni ham misol keltirish mumkin. Navoiy, ilmiy bilimlarni xalqqa yetkazish uchun zarur bo‘lgan vositalarni yaratgan va ilm –fanning o‘zbek tilidagi asosiy manbalarini tashkil etgan.

Alisher Navoiy o‘zining mashhur “Xamsa” - beshlik asarida ilm-fan, falsafa va axloqiy qadriyatlarini muhim o‘rin tutgan mavzular sifatida bayon etgan. Adabiyotning jamiyatda tutgan o‘rnini yuksak qadrlashgan chaqirgan. Shuningdek, uning “Fakhriyya” asarida ilm-fan, ijtimoiy-axloqiy va adabiyotning kelajagi haqidagi fikirlar alohida o‘rin egallaydi.

Pokistonlik mashhur shoir va mutafakkir Muhammad Iqbol “Xamsa”ni Alisher Navoiyning adabiyoti merosining yuksak namunasiga aylanishini ta’kidlagan. U “Navoiy nafaqat o‘zbek, balki butun musulmon dunyosining eng buyuk shoirdir. Uning “Xamsa”si nafaqat adabiyot, balki falsafiy tafakkurning yuksak namunasi hisoblanadi”deydi.

Britaniya olimi va sharqshunos Edward Granville Browne Alisher Navoiy va uning asarlari haqida keng o‘rgangan. Browne Navoiy she’riyatidan ma’naviylik va falsafaning qanday o‘zaro bog‘lanishini yuqori baholagan. U “Alisher Navoiy “Xamsa” asarida Sharq falsafasi va adabiyotining eng yuqori cho‘qqisiga erishgan. U nafaqat shoir, balki chuqur tafakkurli mutafakkir va donishmanddir” deydi.

Alisher Navoiy adabiyoti orqali ilm-fan va ma’naviyatini o‘zaro bog‘lagan shaxsdir. Uning asarlarida ilm, ma’naviyat va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlik yaqqol ko‘rinadi “Layli va Majnun” “Farhod va shirin” kabi asarlarni yozishdan ilm-fan va falsafiy o‘ylash uslublaridan foydalangan. Navoiy adabiyot orqali ilmning jamiyatdagi yuksak o‘rnini ta’kidlangan va uning tarixi haqida chuqur fikrlar bildirgan. “Farhod va Shirin” asari fors, turk, arab, rus, ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilingan.

Xulosa. Alisher Navoiy o‘zining ilmga qo‘shgan hissalar bilan tarixdan muhim o‘rin tutgan shaxsdir. Uning asarlaridan zamon o‘zgarishlariga qarshi insonni ruhiy axloqiy va ma’naviy jihatdan mustahkamlashga bo‘lgan yondashuv kuchli aks etadi. Alisher Navoiy o‘zining ulkan ilmiy, adabiy, falsafa va madaniy merosi bizga o‘rnak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-Nafois.
2. Oybek. Navoiy. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2019.
3. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. Bola Alisher. – Toshkent, 2023.

MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ibrohimjonova Mohinabonu Jamoliddin qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Matematika-informatika yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: NamDPI dotsenti M.Eshnazarova

Annotatsiya: Ushbu maqola matematika fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va imkoniyatlarini tahlil qiladi. Maqolada zamonaviy texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri, shuningdek, o‘quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о важности и возможностях использования компьютерных технологий в обучении математике. Кроме того, в статье также будет рассмотрено положительное влияние современных технологий на учебный процесс, а также их роль в развитии математических навыков учащихся.

Annotation: The importance and opportunities of using computer technologies in teaching mathematics will be discussed in this article. Moreover, the positive impact of modern technologies in the education process, as well as, its role in the development of students’ mathematical skills will be also given in the article.

Kalit so‘zlar: matematika, fan, kompyuter, axborot, axborot texnologiyalari, ta’lim, pedagog, metod, multimedia.

Ключевые слова: Математика, наука, компьютер, информация, информационные технологии, образование, педагог, метод, мультимедиа.

Key words: Math, subject, computer, information, information technologies, study, teacher, method, multimedia.

Kirish

Kundan-kunga rivojlanib borayotgan zamonda axborot vositalarisiz turmush tarzini tasavvur etib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalari (inglizcha: Information Technology)-axborot tizimi, kompyuter tizimlari, aloqa tizimi, ma'lumotlar, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash, dasturlash tillari, axborotni yig'ish, qayta ishlash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayoni.

Kompyuter texnologiyalari, axborot vositalari va mobil texnologiyalari allaqachon hayotimizning bir bo'lagiga aylanib bo'ldi. Kompyuter texnologiyalari shu darajada taraqqiy etdiki har bir soha, har bir kasb, har bir faoliyat turining ich-ichigacha kirib bordi. Shu jumladan, pedagoglarni ham bu texnologiyalar chetlab o'tmadi. Pedagogning asosiy vazifasi yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdan iborat. Hozirgi kunda pedagoglar ham bilim berish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, inson ma'lumotlarni faqat eshitish orqali qabul qilsa, tinglagan ma'lumotlarini o'rtacha 20 foizini o'zlashtira oladi.

Dars davomida pedagog faqat ma'ruza qilsa, talabaning qanchalik xotirasi kuchli bo'lmasin u darsni o'zlashtirishga qiynaladi. Agar inson o'rganishi kerak bo'lgan ma'lumotni bir marta o'qisa va eshitsa 25 foizini, ikki marta takrorlasa 30 foizini, ham yozib ham o'qisa 45 foizini eslab qoladi. Shuning uchun ham dars berish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'qitish samarasini sezilarli darajada oshiradi.

Matematika (yunoncha – “bilim”, “bilimni o'rganish”) - sonlar, turli ishoralar, shakllar, fazo, aniq hisob-kitobni o'z ichiga oluvchi fan

hisoblanadi. Matematika qadimdan bo'lgan va rivojlanib kelayotgan fanlar sirasiga kiradi.

Matematika – o'zlashtirilishi biroz murakkab bo'lgan fan. Chunki unda aniq hisob-kitoblar, shakllar ustida turli amallar bajariladi. Insonlar taraqqiyot yo'lidan yura boshlabdilarki, ular matematikadan foydalanadilar. Kundalik turmush tarzimiz, bajarayotgan ishimiz, atrofimizdagi hodisalarning deyarli barchasi bizdan matematikani bilishimizni talab etadi. Hattoki, o'zimiz yashayotgan koinotni anglashda ham matematik hisob-kitoblarning o'rne juda ham katta. Birgina misol, yashaydigan atiga bir kunimiz ham matematika. Negaki bir kun 24 soat, bir soat 60 daqiqa, bir daqiqa esa 60 soniya. Shu oddiygina bir kunni rejalashtirish uchun ham bizga bu fan kerak bo'ladi.

Qanchalik fanni bilishimiz zarur bo'lmasin, lekin uni o'rganish qiyin hisoblanadi, o'rgatish esa undanda qiyin. Chunki matematika insondan kuchli xotira va fikrlashni talab etadi. Pedagogning birinchi vazifasi o'quvchilarni fanga qiziqtirish. Chunki inson o'zi qiziqmagan ishni hech qachon bajara olmaydi, lekin biror bir ishga qiziqsa, shu ishni bor vujudi bilan bajaradi. Shuning uchun o'quvchilar birinchi navbatda matematika fanini yaxshi o'zlashtirishlari uchun fanga qiziqishlari kerak.

Pedagogning ikkinchi vazifasi esa o'rganish qiyin bo'lgan fan, ya'ni matematikani o'quvchilarga osonroq va qulayroq usulda tushuntirish. Aynan shuning uchun ham matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Interaktiv darslar, onlayn resurslar, animatsiyalar va boshqa zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini yangilashga yordam beradi. Kelajakda bunday texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematikani o'qitishda onlayn resurslar va interaktiv darsliklarning o'рни

Onlayn resurslar va interaktiv darsliklar matematika darslariga o'zgacha rang bag'ishlab, uni yanada qiziqarli va samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, GeoGebra, Desmos va Gauth kabi dasturlar o'rganuvchilarga matematik tushunchalarni tushunishda yordam beradi. Ushbu dasturlar orqali o'quvchilar funksiyalar, grafiklar va geometrik shakllarni yaratish va o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu dasturlar orqali o'quvchi yoshlar o'z bilimlarini yanada mustahkamlash va yangi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Onlayn resurslarning yana bir qulayligi o'quvchi istalgan kitobni, qo'llanmani, darslikni, maqola yoki jurnalni o'qiy oladi. Agar resurs boshqa tilda bo'lsa uni istalgan tarjima dasturlarida o'ziga tushunarli tilga tarjima qilib olsa bo'ladi. Talaba o'z yashash joyida mavjud bo'lmagan kitobni qiynalmasdan internet orqali topib o'qiy oladi, yaxshi o'zlashtirmagan yoki tushunmagan mavzusini turli xil onlayn darslar orqali o'rgana oladi. Boshlang'ich sinflar uchun interaktiv darsliklardan foydalanish juda qulay, chunki yosh bolalarga oq-qora kitobdan ko'ra bu darsliklar ancha qiziqarli. Interaktiv darsliklar turli chizmalar, audio yozuvlardan iborat. Bu o'z navbatida bolani matematika faniga jalb qiladi. Dars vaqtini tejash maqsadida turli xil QR-kodlarni ishlatib bo'ladi. Masalan, o'qituvchi bermoqchi bo'lgan uyga vazifani QR-kodga joylaydi, o'quvchi esa mana shu QR-kod orqali berilgan vazifani bajaradi. Bu o'quvchilarga berilgan vazifani yozdirgandan ko'ra qulayroq. Tejab qolingan vaqtni esa mavzuni yanada chuqurroq tushuntirish uchun ishlatib bo'ladi.

Maktab o'quvchilari va talabalardan onlayn matematik testlarni olish samarali. Bu o'z navbatida test jarayonlariga inson aralashuvini oldini oladi va bu test natijalari aniq va haqqoniy bo'ladi. Baholash tizimi ham onlayn tarzda bo'lishi turli xil korrupsiya holatlarini oldini oladi. XXI asr bolalari uchun an'anaviy tarzda matematika fanini o'rgatishdan ko'ra onlayn resurslar va interaktiv darsliklar orqali dars o'tish qiziqarliroq. Bu esa o'z navbatida zamonaviy ta'limda, ayniqsa, matematik bilimlarni o'rganishda kompyuter texnologiyalarining o'rnini muhim va beqiyos ekanligining bir dalili desak mubolag'a bo'lmaydi.

Multimedia materiallari

Bo'lajak pedagog sifatida shuni ayta olamanki, matematika fanini o'qitishda multimedia materiallaridan foydalanish o'quvchilarning diqqatini jalb etishda muhim ahamiyatga ega. Video darsliklar, taqdimotlar va animatsiyalar yordamida murakkab matematik tushunchalarni osonroq tushuntirish mumkin. Dars davomida matematika fani faqat o'qituvchi tomonidan nutq so'zlash orqali o'tilsa, mavzu nisbatan qiyinroq bo'ladi, dars davomida turli ko'rgazmalardan foydalanilsa, mavzu yanada yorqinroq bo'ladi. Avvallari ko'rgazmalar qo'lda tayyorlangan bo'lsa, hozirgi kunda turli multimedia materiallari orqali tayyorlanadi. Masalan, mavzu yuzasidan tayyorlangan taqdimot va animatsiya.

Pedagog dars o'tish jarayonida taqdimotdan foydalansa, o'quvchi mavzuni ham eshitadi, ham o'qiydi, ham tahlil qiladi va bu o'z navbatida o'tilgan mavzuni 80 foizini tushunishga ko'maklashadi. Geometrik shakllarni ko'rsatish uchun animatsiyalardan foydalanish yordamida ularni real hayotdagi misollar bilan bog'lash mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni diqqatini tortadi va darsga bo'lgan qiziqishlari ortishiga ham sabab bo'ladi. Video darsliklar, audio darsliklarning yana

bir qulayligi shundaki, imkoniyati cheklangan ko'zi ojizlar, ular kitoblarni ko'ra olishmaydi, Brayl alifbosi orqali o'qishda qiynalishadi, lekin video va audio darsliklar, kitoblar orqali ular o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ma'lumotni qiynalmasdan eshitish orqali o'rgana oladilar.

Hammamizga ma'lumki matematikaning bo'limi hisoblangan geometriya fani turli shakllar va chizmalardan iborat. O'qituvchi bu chizmalarni doskada chizib tushuntirsa bo'ladi, biroq hozirgi kunda universitetlar, institutlar va ba'zi maktablarda qo'llaniladigan interaktiv doska orqali chizmalarni chizish osonroq, bu chizmalar tekis va aniq bo'ladi.

Masofaviy o'qitish

Masofaviy o'qitish bugungi kunda ta'lim jarayonida muhim o'rinni egallaydi. Buning asosiy sabablardan biri bu o'quvchilar o'z vaqtlariga mos ravishda va istalgan joydan darslarni o'zlashtirishlari mumkinligidir. Yana bir qulay tarafi shundaki, yashash manzili ta'lim olish maskanidan uzoq bo'lsa, bu o'z navbatida ortiqcha mablag'ni va vaqtni talab qiladi. Yosh farzandi bor onalar uchun ham masofaviy ta'lim qulay hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitish bo'yicha birinchi o'rinni AQSHda joylashgan Massachusetts Texnologiya instituti, ikkinchi o'rinni esa Kaliforniyada joylashgan Stenford universiteti, uchinchi o'rinni Buyuk Britaniyadagi Cambridge universiteti egallaydi. Matematika fanini yanada chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan talaba shu institut va universitetlar onlayn saytlari va onlayn darslari orqali masofaviy ta'lim olishlari mumkin. Bu esa matematikani bizning davlatimizda ham rijovlanib, yanada boyishiga yordam beradi.

Zoom, Google, YouTube, Classroom kabi platformalar onlayn dars o'tkazish uchun keng qo'llaniladi. Bu platformalar darslarni tashkil

qilish, materiallarni taqdim etish va o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishda yordam beradi. Masofaviy ta'lim Vazirlar Mahkamasining 03.10.2022 yildagi 559-son qarori bilan Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risadagi nizom tasdiqlandi va bu nizom ko'plab bilim oluvchilar uchun turli qulayliklarni yaratdi.

Matematik o'yinlar

Matematik o'yinlar o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini, IQ darajalarining rivojlanishida samarali vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali o'quvchilar matematikani qiziqarli va fikrlash qobiliyatlarini oshirgan holda o'rganadilar.

Matematik o'yinlar nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ular ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib, matematikani yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va raqobatni rag'batlantiradi, bu esa motivatsiyani oshiradi. O'quvchilar matematik o'yinlarni darslarda foydalanish orqali o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish mumkin. O'yinlar orqali yangi mavzularni o'zlashtirish yanada samarali bo'ladi. Bunday o'yinlarni yaratishda onlayn platformalar, mobil ilovalar va kitoblardan foydalanishimiz mumkin.

Matematik o'yinlar – bu matematik fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turidir. Ular ko'pincha qiziqarli va interaktiv bo'lib, o'quvchilarga matematik tushunchalarni o'rganishga yordam beradi. Quyida matematik o'yinlarning turlari va foydalari haqida ma'lumot keltirilgan: raqamli jumboqlar, masalan, sudoku yoki matematik rebuslar, mantiqiy masalalar va hokazolar bularga misol bo'ladi. Bunday o'yinlar

o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va ularni hayotda qo'llash uchun tayyorlaydi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish

Ma'lumotlarni tahlil qilish, bu jarayon o'quvchilarga matematik tushunchalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Kompyuter texnologiyalari yordamida o'quvchilar matematik ma'lumotlarni tahlil qilishni o'rganadilar. Excel yoki Google sheets kabi dasturlar orqali ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va natijalarni grafik shaklda ko'rsatish mumkin.

Xulosa

Matematika fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, bilim olish jarayonini yengillashtirish va darslarni individual ehtiyojlarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Interaktiv darsliklar, multimedialar, onlayn sinflar, matematik o'yinlar orqali o'quvchilar matematikani yanada chuqurroq o'rganadilar. Shu bois ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanish zarurati ortib bormoqda, nafaqat matematika fanini o'qitishda balki ta'limning barcha sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini yanada oshiradi. Biz kirib borayotgan yaqin kelajak - raqamli texnologiyalar davri. Bu davrga biz yoshlar munosib ravishda o'z hissamizni qo'shmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.Mo'minov. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur-bo'stoni", 2014 y.
2. R.Boqiyev, N.Mirzahmedova, A.Primkulova. Informatika. O'quv qo'llanma. T.: TDPU, 2016 y.

3. M.T.Azimjanova va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2013 y.
4. M. Jumayev "Matematikani o'qitish metodikasidan praktikum", T: TDPU 2005, 258 bet
5. Qodirov, S. Q. (2017). Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni. Toshkent.
6. Peters, O. (2002). Distance Education in Transition: New Trends and Challenges.
7. Bahodirov, B. (2020). Masofaviy ta'limning istiqbollari va amaliyoti. Toshkent:
8. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three Generations of Distance Education Pedagogy. The International Review of Research in Open and Distributed Learning,
9. N.A.Turdaliyeva & M.Y.Eshnazarova (2024). Ta'limda axborot texnologiyalarining o'рни.

JADIDCHILIK MA'NAVIY MEROSINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Hamrayev Ergash Toxir o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi yo'nalishi magistranti

Tel: 998-90-198-98-94

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlarning taraqqiyot yo'lidagi islohotlari va ularning bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan. Yoshlar sifatida biz jadidlar boshlagan buyuk ishlarni davom ettirib, ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni anglab yetishimiz va

mamlakatimizni rivojlangan davlatga aylantirishga hissa qo'shishimiz zarurligi ta'kidlangan.

Аннотация: В данной статье освещены реформы джадидов на пути прогресса и их актуальность в современное время. Подчеркивается, что молодежь должна продолжать великое дело, начатое джадидами, осознавать идеи, выдвинутые в их трудах, и вносить свой вклад в превращение нашей страны в развитое государство.

Ключевые слова: просвещение, джадидизм, предрассудки, духовность, просветительство

Annotation: This article highlights the reforms undertaken by the Jadids on the path of progress and their significance in today's world. It emphasizes that young people should continue the great work initiated by the Jadids, comprehend the ideas put forward in their works, and contribute to transforming our country into a developed state.

Kalit so'zlar: ma'rifat, jadidchilik, xurofot, ma'naviyat, ma'rifatparvarlik.

Keywords: enlightenment, Jadidism, superstition, spirituality, educational movement.

O'rta Osiyoda jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik deb atalib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga keldi. Ular bilim yordamida jamiyatdagi nomutanosibliklarni va kamchiliklarni bartaraf etishga qarshi kurashganlar. O'rta Osiyoda XIX asr so'nggi choragida rivojlana boshlagan ma'rifatparvarlik harakati vakillari ko'plab qurbon berdilar. XX asr boshida jadidlar harakati ikkiga bo'linib, aqidaparastlar kuchayib keta boshlagach, ma'rifatparvarlar ko'p talofat ko'ra boshladilar.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, ma'rifatparvarlarga nisbatan istiqlolning ma'naviy-nazariy asoschilari deb baho berildi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov “Ma’lumki, biron bir xalq ma’naviyatga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga nisbatan chuqur xurmat ifodasidir. Bunday e’tirof xalqning g’urur va iftixori, milliy o’zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, keyingi paytda buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga xurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga bo’lgan qiziqish xorijiy ellarda ham ortib borayotgani barchamizni quvontiradi. Buning tasdig’ini dunyoning turli mamlakatlarida ularning hayoti va faoliyati haqida e’lon qilinayotgan ilmiy va badiiy asarlar, ulug’ ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar misolida ham ko’rish mumkin. Shular qatorida Belgiyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug’bekka. Moskva, Tokio va Boku shaharlarida Alisher Navoiy bobomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg’oniy xotirasiga o’rnatilgan muhtasham haykallarni eslash joiz”[1] deya ta’kidlagan. Bundan ko’rinib turibdiki, Turkistonda ma’rifatparvarlik harakati uzoq tarixga borib taqaladi. Ma’rifatparvar jadidchilik harakati jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik, bilimsizlik, ongsizlikka qarshi turganlar. Hamda bunga qarshi kurash uchun o’z g’oyalarini badiiy asarlarida aks ettirganlar. Jadidchilik harakati ijtimoiy-siyosiy sohalarida jahon sivilizatsiyasi yutuqlardan xalqni bahramand bo’lishga chaqirdi. Shu sababdan, jadidlarning boy merosini har tomonlama xolisona o’rganish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Shu munosabat bilan, yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “ Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo’lida jonini fido qilgan jadidlarning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega”[2].

“ Jadidchilikning fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu oqim birinchi bo‘lib milliy davlatchilik qurishga urindi, yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy g‘urur, o‘z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unutilgan barcha qadriyatlarini xotirlashga undadi. Jadidlar ta’limoti-o‘z zamonasining haqiqiy ta’limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni, shuningdek, barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna bo‘ldi. Jadidlar tomonidan jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy vazifalarni evolyusion-islohotchilik tamoyillari asosida hal etish ishlab chiqilganligi, ularning formatsion-institutsional o‘zgartirishlarni, mustamlaka tuzumni tubdan yo‘qotishning maksimal darajada samarali yo‘llarini tanlay bilganliklari, shubhasiz, ularning tarixiy xizmatlaridir. Jadidlarning konseptual g‘oyalari hozirgi o‘zgarishlar amaliyotining ma’naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlar kursining genetik asosi bo‘lib xizmat qildi”[3].

Jadidchilik harakati XX asrda Turkistonda siyosiy oqim ko‘rinishida yuzaga kelib qisqa vaqt ichida xalqni o‘qimishli bo‘lishga, zamonaviy ta’lim dasturlaridan foydalanishga, jamiyatning barcha sohalarida tubdan islohotlar o‘tkazib, rivojlangan mamlakat darajasiga erishishga intilganlar. Shu sababdan, ular o‘zlari matbuot orqali xalqni jaholatdan ma’rifat sari yetaklashga harakat qilganlar. Jadidchilik harakati qisqa vaqt davom etgan bo‘lsada, ular millatning ijtimoiy turmush tarzini hamda dunyoqarashini o‘zgarishiga sababchi bo‘ldilar.

Jadidlar nazarida, mamlakatda nodonlik, jaholat va xurofotning kuchayib borishi ilmsizlikdan ekan, ilmsizlik xalqning faqat ma’naviy dunyosida qoloqlikni keltirib chiqarmaydi, u xalqning iqtisodiy

taraqqiyotini ham orqaga tortadi va jamiyatda qashshoqlikning ildiz otishiga olib keladi. Buning oldini olishning yagona vositasi sifatida qanday qilib bo'lsada, xalq o'rtasida savodsizlikni tugatish, ularni o'qimishli, ma'rifatli xalqqa aylantirish. Bunda xalq ichidagi boylar, katta yer-mulk egalari yordamiga tayanish kerak, dunyoda rivoj topgan va topayotgan mamlakatlar shu darajaga maorif va madaniyatni rivojlantirish orqali yetishgan, degan g'oyani ilgari surgan.[4].

Umuman olganda taraqqiyparvarlar mustamlakalikdan ozod bo'lib, o'zlari mustaqil davlat barpo etib, undagi ijtimoiy tuzumni o'zgartirib, rivojlangan mamlakatga aylantirish uchun harakat qilgan. Qolaversa, bu jarayonga aholining barcha qatlamini jalb qilishga harakat qilishgan. Vatan mustaqilligi uning obodligi har bir fuqaronining burchi bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo, xalqni uyg'otmoq, uni savodli qilmoq lozim. Fitrat o'zining "Munozara" asarida turkistonliklarga murojaat etib, "agar yana biro z muddat g'aflatingizni davom ettirsangiz, din va millatingizning g'amini yemasangiz, sharaf va nomusingizning muxofazasini o'ylamasangiz, jahongir Temurbek bobongizni sha'ni va izzatiga xiyonat qilsangiz, ... nom-nishonsiz, sharaftsiz, izzatsiz rohat uyida azal-abad uxlayajaksiz"[5].

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, jadidchilarimiz tomonidan jaholat botqog'iga botgan xalqimiz ma'rifat sari qadam tashladi. Bunda albatta, ko'p mashaqqatlar chekishdi, tazyiqqa uchrashdi. Lekin jadidlar o'zlarining yangicha qarashlari bilan xalqni ma'nan yuksalishga chorladi. Bugunga kelib esa biz yoshlar ularning adabiyotlarini chuqur o'rganib, ularning ishlarini davom ettirib, mamlakat taraqqiyotiga o'z hisssamizni qo'shishimiz kerak. Buning uchun avvalo, jadidlarimizning biz hali o'rganib tarjima qilmagan

asarlari juda ko'p. ularni chuqur mulohaza qilib, darsliklarimizga joriy qilib yosh avlodga ular olib borgan islohotlarni tushuntirib, ularda milliy iftixor tuyg'usini uyg'otishimiz kerak. Yoshlarimini ijtimoiy-axloqiy yuksaltirishda xalqimizning ma'naviy merosidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki jadid ma'rifatparvarlari qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy meros mohiyat jihatidan ham, mazmunan ham rivojlanib kelayotgan xalqimiz mentalitetiga mos kelib, butun jamiyat va uning buyuk vakillarining intellektual evolyusiyasini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat". 2008.48-bet
2. Mirziyoyev. Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq// "Xalq so'zi", 2020yil 1 oktyabr
3. Alimova.D. Jadidchilik:islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.-T.: Universitet. 1999.42-bet
4. Nomozova.K. Jadidchilik: Muammolar, islohotlar va qarashlar. -T.: "Turon-iqbol". 2010. 98-bet
5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. 68-bet

MUSIQA FANINING INSON HAYOTIDAGI O‘RNI VA TA’SIRI

Po‘latjonova Intizora Nazirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti

Musiqqa ta’limi yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Tel: +998 50 702 75 57

E-mail: intizorimpolatjonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola musiqqa san’atining inson hayotidagi o’rni va ahamiyati, uning shaxs dunyoqarashini kengaytirishi, ruhiy va ma’naviy ozuqa olishidagi roli borasidagi fikr-mulohazalardan iborat.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, obraz, kompozitor, tafakkur, kompozitsiya, marosim

Musiqqa inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini, musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmuyi vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o’zgaruvchan, ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta’sir etishning ajoyib kuchi, ruhiy holatlarga hamohangligidir. Musiqqa bu go’zallik demakdir. Inson hayotida musiqaning ro’li nihoyatda katta. Insoniyat paydo bo’libdiki, musiqaga ehtiyoji bor. Ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgi davrga qadar musiqqa turlari hayot tarziga qarab o’zgarib kelgan. Inson musiqqa eshitsa beixtiyor musiqaga mos harakatlar, raqs harakatlarini bajara boshlaydi. Bekorga onalar go’daklarini alla aytib uxlatishmaydi, go’dak alla eshtib uxlab qoladi. Bundan kelib chiqib aytamizki, musiqqa inson ruhini allalovchi mo’jiza. Musiqqa san’ati paydo bo’lgandan boshlab bugungi kungacha ikki yo’nalishda rivojlangan. Birinchi yo’nalish xalq musiqqa ijodi. Ikkinchi yo’nalish esa kompozitorlik ijodi. Ibtidoiy jamoa tuzumi

davrda yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy shovqin tovushlarini farqlay bilganlar, kuylashni o'rganganlar, dastlabki cholg'u sozlarini yaratganlar. Hozirgi kungacha bu sozlar takomillashgan ulardagi ijro uslublari ham rivojlanib boyigan. Xalq orasidagi musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilar ajoyib musiqa asarlarni yaratib musiqa san'atini boyitganlar. Har bir xalqning o'z musiqa san'ati bor. Boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqa ham xalq ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi hisoblanadi. Musiqa san'ati asarlarida xalqning hayoti turi davrlaridagi ijtimoiy turmushi, urf odatlari, axloqi haqidagi qarashlar o'z aksini topgan. Har bir zamonda insoniyat musiqani o'ziga moslashtirib keldi. Shuning uchun musiqani har kim o'zicha har hil tushunadi. Ilk musiqa na'munalari ham insonning mehnat faoliyati asosida kelib chiqqan. Undan tashqari har xil marosimlarda ham musiqa yetakchi o'rinda bo'lgan. Misol uchun to'y marosimlari, udum va an'analari turli bayramlar. Bayramlarimiz esa musiqa sadolarisiz o'tmaydi. Kimdur uchun musiqa bu oddiy tovushlar yig'indisi, kimlardur uchun esa fizik xodisa namunasi, kimdur uchun hayotini ajralmas bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Uning hayotimizdagi o'rne beqiyos. Hech bir qalb yo'qki musiqa uning eshiklarini ochib kira olmagan bo'lsa. Qadimda odamlar yirtqich hamda yovvoyi hayvonlarni ovlashda va ularni qo'lga kiritishda ham musiqa sadolaridan foydalanishgan.

Musiqani yana bir xususiyati bor bevosita insoni raqsga tushishga undaydi. Musiqa o'zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir etish kuchiga ega. San'ati yo'liga kirgan yosh yigit va qizlar musiqaning sirlarini o'rganyaptilar. Zero kuy va ohang ta'sirida kishida hissiyot olamining o'sishi idrok va tafakkurning shakllanishi, ezgulikga intilish, go'zallikni sevish, ona tabiatni asrash, jonajon vatan ravnaqi uchun xizmat qilish istagini ilgari surib kelmoqda. Avlod bola

soʻzining koʻpligi. Arabcha valad maʼnosini bildiradi[1]. Avlod sulolar ketma-ketligidir. Respublikamizning barcha ilm dargohlarida turli fanlar qatori musiqa toʻgaraklari musiqa darslari ham olib boriladi. Millat va jamiyat hozirga davrda oʻzining porloq istiqboli hamda ertangi kuni uchun muayyan tarzdagi ijtimoiy qulay muhit va taraqqiyot uchun zamin yaratish, kelgusi avlodlar, oʻz farzandlarini taqdiri uchun qaygʻurar ekan ularni amalga oshirish, rivojlantirishga va taraqqiy ettirish uchun muayyan sohaga katta eʼtibor qaratadi. Yuksak marra va maqsad uchun harakat qilishda samarali va toʻgʻri yoʻlni tanlay bilish va undan yuqori darajada foydalanish natijaning mukammal hamda toʻla-toʻkis tarzda amalga oshishini taʼminlaydi. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ 112-sonli qarori davlat taʼlim standartlarining joriy etilganligini musiqa madaniyati oʻqtuvchilarining zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi.[2] Davlat taʼlim standartida koʻrsatib oʻtilgach musiqa madaniyati mashgʻulotlarida oʻzbek milliy musiqa sanʼatiga alohida ahamiyat berilgan mahalliy uslubiy yoʻnalishlardagi qoʻshiqlarni ijro etish xalqona yoʻlda yaratilgan allalar, laparlar va yoʻllarni kuylashga hamda tinglashga keng oʻrin berilgan. Bunda avvalo taʼlim va tarbiyani rivojlantirish sogʻlom turmush tarzi va ilm fan inovatsiyalarni taraqqiy ettirish musiqani rivojlantirish asosiy ustunlari boʻlib xizmat qilishi lozim. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “Musiqa sanʼati faoliyatini yuksaltirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bizlar uchun ham faxr ham quvonchdir. Bundan quvongan yosh avlod va ularga murabbiylik qilayotgan pedagoglarning imkoniyatlari yanada kengayadi bajarayotgan ishidan unum topdi. Bolalarni tabiatni sevishga kattalarni hurmat qilishga mehnatsevarlikga undovchi kuy qoʻshiqlari musiqa

madaniyati darsida o'rganilgan har bir qo'shiqqa asos bo'la oladi yoki boshqacha aytganda ta'lim muassalari sinfdan tashqari musiqa to'garaklari faoliyat zaminida va unda o'rgatilgan qo'shiqlarning mazmunini yuqoridagi sifatlar bilan bog'lab o'quvchi yoshlarni tarbiyalash mumkin. Mamlakatimizda 2020-yil 25-dekabrda yurtimiz yoshlari hayotida o'chmas iz qoldirgan hamda katta ijtimoiy o'zgarishlarga g'ayrat va shijoatga qo'shgan kun ya'ni Respublika Yoshlar forumi bo'lib o'tgan kun bo'ldi.

Tarixiy taraqqiyot shuni isbotladiki jamiyat va davlat barqarorligi hamda adolatli boshqaruv asosini tenglik va oshkoralik halollik asosida amalga oshiriladigan, jamiyat a'zolarining o'zlari ovozlari asosida munosib deb bilgan insonlarini saylash tizimi orqaligina erishish mumkin. Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz rahbari boshchiligida o'tkizalayotgan ko'plab videoselektrlar va anjumanlarda ham yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish ular bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ularda daxldorlik hissini shakllantirish masalalari kun tartibida asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Musiqa asarlarini ko'rgazma vositalari orqali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi eng yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bu o'qitish metodlarining optimal birikmasini ishlash zarurligidan dalolat beradi. Ana shu aytilganlarga ko'ra bilishning o'qitish jarayonidagi yakka tarzda yo'lini hissiy hamda nazariy bilishning haqiqiy birligi sifatida rejalashtirish va tashkil etish kerak. Musiqa mashg'ulotida o'qitishning ko'rgazmali metodlarini qo'llash optimallik mezonlariga muvofiq kelishligi uchun musiqa o'qituvchisi ularni tanlayotganda bir qator talablarga rioya qilishi kerak.

Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagoglarning asosiy vazifalari o'quvchilarga mashg'ulot jarayonida bilim berishdan iborat bo'lsa, shu bilan birga musiqiy va maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etishdan ham iboratdir. Ta'lim maskanlarida o'tkaziladigan tadbirlar va ularning tashkilotchilari bo'lmish pedagoglar (musiqqa o'qituvchisi) ning asosiy maqsad vazifasi milliy qadriyatlarimizni te'ran anglagan holda tashkil etishdan iboratdir.

Musiqqa to'garaklarida xalq qo'shiqchiligining kompozitsiyalari haqida fikr yuritish ekanmiz, xalqimizning asriy an'analari, odob-axloqi, ta'lim-tarbiya tizimi borasidagi yutuqlari, o'ziga xos turmush tarzi va qadriyatlarini ifodalagan ona tilimizning mazmun mohiyati hamda qadriyatlarini chuqur anglaydi. Birgina o'zbek folklorida o'rganiladigan har bir qo'shiqning yoki hatti harakatning ma'nosida xalqimizning azaliy tarixi yotadi.

Musiqqa to'garaklarining maqsadi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli tashkil etish bilan birga ularning qobiliyatini kuchaytirish, estetik didini shakllantirish hamda ma'naviy dunyoqarashlarini kengaytirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, musiqqa ta'limi insonning dunyoqarashini kengaytirish, uning estetik tafakkurini shakllantirish, borliqdan ma'naviy ozuqa olishiga ko'maklashishda samarali ahamiyatga ega desak hech ham xato bo'lmaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bugungi kunda insonlar, ayniqsa yosh avlod vakillari, o'quvchilar va talaba-yoshlarga musiqaning ahamiyati, uning inson kayfiyati va ijtimoiy reabilitatsiyasidagi o'rnini mustahkamlash, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini ta'minlash va

ommalashtirish, tizimli va manzilli ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.Nurmatov. O‘zbek xalq musiqa ijodi
2. B.B.Shokirxonov. Musiqa to‘garaklarini tashkil etish. Namangan 2014.
3. Sh.Mirziyoyev, Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 14.12.2016-yil.
<https://president.uz/oz/lists/view/111>
4. www.ziyonet.uz, www.musiq.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AHLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

Sotiboldiyeva Manzura Nosirjon qizi

Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi guruh talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Аннотация: сегодня дети дошкольного возраста считаются богатыми национальными, культурно-историческое наследие и нравственное воспитание, дошкольное образование является одной из актуальных задач, стоящих перед организациями.

Abstract: Today, one of the most important tasks of preschool education organizations is to educate preschool children with the

rich national, cultural and historical heritage and spiritual and moral values of the people

Kalit soʻzlar: Xalq, jamiyat, maʼnaviyat, axloq, koʻnikma, xalq ogʻzaki ijodi, tarbiya

Ключевые слова: Человек, общество, духовность, этика, навыки, фольклор, образование.

Key words: People, society, spirituality, ethics, skills, folklore, education

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: «Xalq ogʻzaki ijodini, xususan, folklor sanʼatini rivojlantirishimiz kerak, agar bunga befarq boʻlsak, tarix bizni kechirmaydi».

Xalq ogʻzaki ijodi — bu xalqning madaniyatida, tarixida va urf-odatlarida aks etgan, ogʻzaki tarzda avloddan avlodga oʻtib kelayotgan asarlar toʻplamidir. Xalq ogʻzaki ijodi madaniyatning yasovchi va ifoda etuvchi qismi hisoblanadi, shuningdek, u xalq tarixining, urf-odatlarining va anʼanalarining saqlanib qolishiga yordam beradi. Shu sababli, bu ijod turi nafaqat sanʼat, balki tarixiy meros sifatida ham muhimdir. Xalq ogʻzaki ijodi deganda koʻz oldimizga dostonlar, masal va maqollar, afsonalar, qissalar hamda ertaklar keladi. Xalq ogʻzaki ijodi barcha yosh avlodni, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyasida juda katta rol oʻynaydi. Xalq ogʻzaki ijodi maktabgacha yoshdagi bolalarga oʻz tariximizni eslatibgina qolmay, ularga urf-odatlarimizni, kattalarni hurmat qilishni, axloq-odob qoidalarini, doʻst-u dugonalari bilan inoq boʻlishni oʻrgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda koʻplab metodlardan foydalaniladi. Bularning orasida xalq ogʻzaki ijodining oʻrni katta. Sababi, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda biror bir misollardan foydalanamiz. Ertak yoki hikoya qahramonlarining ijobiy va salbiy feʼl-atvori orqali bola oʻzini

ommaviy joyda qanday harakat qilishni, odamlarga bo'lgan muomala madaniyatini, do'stlari bilan qanday munosabatda bo'lishi kerakligini o'rganadi.

Bola psixologiyasida ham xalq og'zaki ijodi muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ertak qahramonlarini o'zi hayolan tasavvur etadi va o'sha qahramonni o'rnida o'zini his qiladi. Bu orqali bola ruhan rivojlanadi. Men uchun qiziq bo'lgan tarafi, bola o'zini o'sha qahramondek tutadi ya'ni ertak qahramoniga taqlid qiladi. Bu esa bolaga ertak qahramonining yaxshi amallarini o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Bunda tarbiyachining ham o'rne katta. Tarbiyachi bolaga ijobiy va salbiy qahramonlarni farqlashda ko'maklashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat ertakdan, balki, masallardan, hikoyalardan sahna ko'rinishi orqali tarbiya berish uchun foydalaniladi. Bu usul keng ommalashgan usullardan biri bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda keng qo'llaniladi. Sahna ko'rinishlari orqali bola keng fikrlashga, sahna madaniyatiga ega bo'ladi. Xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatimizni yosh avlodga singdirishda asosiy yo'l o'ynaydi.

Xalq og'zaki ijodidan yana biri bu maqol va topishmoqlardir. Bular orqali bola fikrlashga, izlanishga, o'ylab qaror qabul qilishga intiladi. Topishmoqlar bolani ma'nan yetuk, topqir bo'lishga undaydi. «Ilk qadam» davlat o'quv dasturida xalq og'zaki ijodiyoti bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar mavjud. Bu dasturning asosiy qismi hisoblanib, bolani rivojlanish markazlari safidan joy olgan. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rne qanchalik muhimligini isboti desam mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat maktabgacha yoshdagi bolalarni, balki o'zimizni hayotimizda ham xalq og'zaki ijodining o'rne katta. Masalan, ko'pincha o'zimiz bilib-bilmay maqollardan, hadislardan

foydalanamiz. Xalq ogʻzaki ijodi hayotimizning bir boʻlagiga aylangan desam mubolagʻa boʻlmaydi. Folklor sanʻati xalq ogʻzaki ijodining bir turi hisoblanib, hozirgi kunda yordamga muhtoj hisoblanadi. Bu sanʻat turi ham milliyligimizni, anʻanalarimizni, madaniyatimizni, mintalitetimizni ifodalovchi xalq ijodiyoti hisoblanadi. Shunday ekan, yosh avlodga maktabgacha yoshidan xalq ogʻzaki ijodiyoti bilan tanishtirib, oʻz milliyligimizni singdirib borishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning axloqiy tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: ped.fan.nom... diss.avtoref. -T.:1998-18b
2. **«Xalq ogʻzaki ijodi-noyob qadriyat»** mavzusidagi ilmiy maqola Chutboyeva Muxlisa Nuriddin qizi «Tafakkur manzili» 2022 jurnal.
3. Prezident baxshichilik festivalidagi nutqi
4. gazetta.uz
5. daryo.uz

MIRZO ULUGʻBEK HAYOTI VA ILMIY-MAʼRIFIY MEROSI

Yoʻldosheva Umida Xusniddin qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Maktabgacha taʼlim yoʻnalishi

Annotatsiya: Mirzo Ulugʻbek - oʻzbek xalqining buyuk olimlaridan biri boʻlib, uning ilmiy va maʼrifiy merosi bugungi kunda ham ahamiyatini yoʻqotmagan. Ushbu maqolada Mirzo Ulugʻbekning hayoti, ilmiy ishlari, astronomiya va matematikadagi yutuqlari, shuningdek, uning taʼlim va madaniyatga qoʻshgan hissasi tahlil etiladi.

Abstract: Mirzo Ulugh Beg is one of the great scholars of the Uzbek people, and his scientific and educational legacy remains significant today. This article analyzes the life of Mirzo Ulugh Beg, his scientific contributions, achievements in astronomy and mathematics, as well as his contributions to education and culture.

Аннотация: Мирзо Улугбек — один из великих ученых узбекского народа, чье научное и образовательное наследие не потеряло своей значимости и в настоящее время. В данной статье рассматриваются жизнь Мирзо Улугбека, его научные работы, достижения в астрономии и математике, а также вклад в образование и культуру.

Kalit so'zlar: Mirzo Ulug'bek, astronomiya, matematika, ta'lim, ilm-fan, meros

Keywords: Mirzo Ulugh Beg, astronomy, mathematics, education, science, legacy

Ключевые слова: Мирзо Улугбек, астрономия, математика, образование, наука, наследие

Kirish. Mirzo Ulug'bek, aslida Ulug'bek Muhammad ibn Shohrux, 1394 yilda Samarqandda tug'ilgan. U buyuk Amir Temurning nabirasi va Temuriylar davlatining navbatdagi sultoni bo'lib, o'zining ilm-fan va madaniyatga qiziqishi bilan ajralib turdi. Ulug'bek o'z davrining eng yirik astronomi va matematiklaridan biri hisoblanadi. Uning yutuqlari, xususan, astronomiya va matematika sohalaridagi tadqiqotlari, nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo va dunyo ilmiy jamoatchiligida katta e'tibor qozondi.

Maqolada Mirzo Ulug'bekning hayoti, ilmiy faoliyati, uning Samarqandda asos solgan obidalari, shuningdek, u yaratgan ilmiy maktabning rivojlanishi va uning ta'limiy merosi tahlil etiladi.

Ulug'bekning o'ziga xos yutuqlari, asarlari va ulardan olingan darslar haqida to'liq ma'lumot beriladi. Ushbu maqola Mirzo Ulug'bekning ilmiy va madaniyat tarixidagi o'rnini aniqlash va uning merosini tushunish maqsadida yozilgan.

Metodologiya: Ushbu maqola tayyorlashda bir qancha metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Birinchidan, tarixiy metod yordamida Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyati tarixiy kontekstda tahlil qilindi. Ikkinchidan, tahlil va solishtirish metodlari orqali Ulug'bekning ilmiy merosi va uning ta'lim sohasidagi yutuqlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan manbalar, tarixiy va madaniy tadqiqotlar, arxiv materiallari va ilmiy asarlar o'rganildi. Ushbu metodologik yondashuvlar Mirzo Ulug'bekning ilmiy-ma'rifiy merosini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

Natijalar

1. Hayoti va faoliyati: Mirzo Ulug'bek 1394 yilda Samarqandda tug'ilgan. Uning otasi Shohrux Amir Temur davrida Samarqandni boshqargan. Ulug'bek 15 yoshida o'zining ilmiy faoliyatini boshladi va tez orada o'z davrining eng yirik olimlaridan biriga aylandi. 1420-yillarda Ulug'bek Samarqandda ulkan observatoriya qurdi, bu esa uni astronomiya sohasida mashhur qildi. U o'zining tadqiqotlarini davom ettirib, ko'plab astronomik jadvallarni tuzdi va ularni o'z asarlarida jamladi.

2. Astronomiya sohasidagi yutuqlari: Mirzo Ulug'bek astronomiya sohasida bir qator muhim yutuqlarga erishdi. Uning eng mashhur asarlaridan biri "Zij-i Ulug'bek" bo'lib, unda u o'zining astronomik kuzatishlari natijalarini keltirgan. Ushbu asarda 1018 ta yulduzning joylashuvi, ularning koordinatalari va boshqa astronomik ma'lumotlar jamlangan. Ulug'bekning astronomiya sohasidagi asarlari

nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevropada ham tan olinib, ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ulug'bekning astronomik kuzatishlari u zamon uchun juda aniq va dolzarbdir. Uning o'rganishlari natijasida, u Quyosh va Yerdagi harakatlarni, yulduzlarning joylashuvini aniq belgilashga muvaffaq bo'ldi. Bu kuzatishlar ko'plab ilmiy tadqiqotlar va astronomik nazariyalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

3. Matematikadagi yutuqlari: Mirzo Ulug'bek matematika sohasida ham muhim yutuqlarga erishdi. Uning asarlarida geometriya, algebra va trigonometrik masalalar keng yoritilgan. U matematik hisob-kitoblarda yangi usullar va yondashuvlarni qo'llagan. Ulug'bek matematikalar orasida xususan, sin va kosin usullarini o'z asarlarida qo'llagan.

Ulug'bekning matematik tadqiqotlari nafaqat O'zbekiston, balki Yevropaning ilmiy jamoatchiligida ham katta e'tibor qozondi. U matematik ko'rsatkichlar va formulalar bilan bir qatorda, dastlabki astronomik asarlarda ham muhim hisob-kitoblarni kiritgan.

4. Ta'lim va madaniyatga qo'shgan hissasi: Mirzo Ulug'bek o'zining ilmiy faoliyati bilan bir qatorda, ta'lim va madaniyatga ham katta hissa qo'shdi. U Samarqandda yirik madrasalar va ilmiy muassasalar tashkil etdi. Uning maqsadi yosh avlodni ilm-fan bilan ta'minlash va ularni ta'lim berish edi. Ulug'bekning shogirdlari orasida ko'plab mashhur olimlar yetishib chiqdi, ular o'z navbatida ulug'bekning merosini davom ettirishdi.

Ulug'bek ta'lim tizimi, o'zida yangiliklar va kreativ yondashuvlarni o'z ichiga oldi. U o'z ta'lim tizimida nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarga ham e'tibor berdi. Bu esa uning ta'lim dasturlarini yanada samarali va amaliy bo'lishini ta'minladi.

Muhokama: Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-ma’rifiy merosi zamon o‘tishi bilan ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Uning astronomiya va matematika sohasidagi yutuqlari, shuningdek, ta’lim tizimiga qo‘shgan hissasi bugungi kunda ham ilm-fan rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda va boshqa mamlakatlarda Mirzo Ulug‘bekning merosini o‘rganish va rivojlantirish uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mirzo Ulug‘bek merosi nafaqat ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanmaydi, balki madaniyat va ta’lim sohasida ham muhim rol o‘ynaydi. Uning ishlariga asoslanib, kelajakda yangi avlod olimlarini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni olish mumkin. Shuningdek, Ulug‘bekning ilmiy yondashuvi va pedagogik uslublari, zamonaviy ta’lim tizimida tatbiq etilishi mumkin.

Uning ilmiy merosi, zamonamizda ham, yosh avlodga ta’lim berish va ularni ilm-fan bilan tanishtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan va ta’limga qo‘shgan hissasi o‘zbek xalqining madaniy merosini boyitadi va ilm-fan rivojlanishida yangi ufqlarni ochadi.

Astronomiya sohasidagi yutuqlari: Mirzo Ulug‘bek astronomiya sohasida o‘zining ajoyib yutuqlari bilan tanilgan. U o‘z zamonida ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun Samarqandda ulkan observatoriya qurgan. Bu observatoriya nafaqat O‘zbekistonda, balki butun Islom dunyosida eng yirik va ilg‘or ilmiy markazlardan biri bo‘lgan. Ulug‘bekning astronomik asarlari orasida eng mashhuri “Zij-i Ulug‘bek”dir. Bu asar turli astronomik hisoblar, yulduzlar ro‘yxati, yulduzlarning harakatlari haqida batafsil ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. U o‘zida 1018 ta yulduzning aniq koordinatalarini va harakatlarini keltiradi, bu esa uning zamonasida juda muhim yutuq edi.

Yulduzlar ro'yxati va astronomik hisoblar: “Zij-i Ulugʻbek”da berilgan yulduzlar roʻyxati nafaqat astronomik hisoblarni aniqlashga yordam berdi, balki oʻsha davrdagi xalqaro astronomik muassasalar uchun ham muhim manba boʻlib xizmat qildi. Ulugʻbek yulduzlarning yuqori aniqligini taʼminlash uchun oʻz metodologiyasini ishlab chiqdi va matematik formulalar yordamida yulduzlarning pozitsiyasini hisoblab chiqdi. Bu asar orqali u yulduzlarning harakatlarini izohlashda koʻplab yangi qoidalarni kiritdi va astronomiyaning asosiy tamoyillarini shakllantirdi.

Observertoriyadagi tadqiqotlar: Mirzo Ulugʻbekning observatoriyasi ulkan astronomik tadqiqotlar uchun baza boʻldi. U yildan-yilga astronomik tadqiqotlarni rivojlantirib, matematik va geodeziya bilimlarini yanada chuqurlashtirishga harakat qildi. U zamonining eng yaxshi astronomlari va matematiklarini oʻziga toʻpladi va ularga muhim vazifalar berdi. Shunday qilib, u samarali ilmiy jamoa yaratishga muvaffaq boʻldi. Bu jamoa yulduzlarning harakatlarini oʻrganish, yilning uzunligi va yulduzlarning aylanish davrlarini aniqlash boʻyicha bir qator tadqiqotlar oʻtkazdi.

Ulugʻbekning ilmiy merosining ta'siri: Mirzo Ulugʻbekning astronomik tadqiqotlari nafaqat oʻz davrida, balki kelajak avlodlar uchun ham katta ahamiyatga ega boʻldi. Uning asarlari Yevropa va Sharq mamlakatlarida keng tarqaldi, va ularning natijalari matematikani rivojlantirishda muhim oʻrin tutdi. Oʻzining ilmiy merosini keltirib chiqarib, Ulugʻbek yangi tadqiqotlarga va astronomiya sohasidagi yangiliklarga zamin yaratdi. U nazariy jihatdan astronomiyaga asosiy tushunchalar kiritdi, bu esa keyinchalik yangi astronomik kashfiyotlarga yoʻl ochdi.

Matematika va astronomiya o'rtasidagi bog'lanish: Ulug'bek o'z astronomik tadqiqotlarida matematikaning ahamiyatini juda yaxshi bilardi. Uning matematik usullari astronomik hisob-kitoblarni aniq bajarish imkonini berdi. U yillik taqvimlar, yulduzlarning aylanishi va fazoviy joylashuvlarni hisoblashda zamonaviy matematik usullardan foydalandi. Bu usullar bugungi kunda ham astronomiyada qo'llaniladi va Ulug'bekning ilmiy merosi hali ham dolzarb hisoblanadi.

Shogirdlar va ilmiy maktab: Mirzo Ulug'bekning ta'lim berish jarayoni juda samarali bo'ldi. U o'z ilmiy maktabini tashkil etdi va ko'plab shogirdlarni tarbiyaladi. Ulug'bekning shogirdlari ham astronomiya sohasida muhim yutuqlarga erishdilar. Ulug'bekning ilmiy metodologiyasi va o'qitish uslubi, o'z davrida juda innovatsion bo'lib, o'qitish jarayonini zamonaviy ko'rinishga olib keldi. Bu jarayon ilm-fanning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi va shogirdlar orasida kuchli ilmiy jamoa paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Ulug'bekning astronomiya sohasidagi yutuqlari o'z vaqtida juda muhim bo'lib, keyinchalik bu sohada rivojlanishga yo'l ochdi. U o'zining yulduzlar ro'yxati va astronomik hisoblari bilan nafaqat Sharq, balki G'arb ilm-faniga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ishlari hozirgi kunda ham astronomiya sohasida tadqiqotlar olib borishda asosiy manba sifatida qo'llaniladi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi, zamonaviy astronomiyaga asos solgan buyuk shaxs sifatida, bizni ilm-fan sohasidagi yangiliklarga ilhomlantiradi.

Xulosa: Mirzo Ulug'bek - o'zbek xalqi uchun buyuk ilm-fan arbobi, astronomiya va matematika sohalaridagi yutuqlari, shuningdek, ta'limga qo'shgan hissasi bilan tanilgan. Uning hayoti va faoliyati tarixiy va ilmiy jihatdan juda muhimdir. Mirzo Ulug'bekning ilmiy merosi

nafaqat o‘z vatanida, balki butun dunyoda tan olingan. U, avvalo, yurtida ta’lim va madaniyatni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Uning asarlari va tadqiqotlari hozirgi kunda ham ilm-fan va ta’lim tizimida dolzarb ahamiyatga ega. Mirzo Ulug‘bek o‘zining hayoti davomida ko‘plab olimlar va shogirdlarni tayyorladi, ularning ilmiy faoliyatlarini qo‘llab-quvvatladi va ta’lim sohasida yangiliklar kiritdi.

Ushbu maqola Mirzo Ulug‘bekning ilmiy-ma’rifiy merosini yoritishga va uni kelajak avlodlarga yetkazishga qaratilgan bir tadqiqot sifatida xizmat qiladi. Uning hayoti va ilmiy faoliyati, bizni doimo o‘rganish va yangiliklar kiritishga undaydi. Mirzo Ulug‘bek - o‘zbek xalqining iftixori, ilm-fan sohasidagi ulug‘ namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Suyunov, I. (2014). *Mirzo Ulug‘bek: Hayoti va faoliyati*. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Avazov, O. (2015). *Astronomiya va matematika: Mirzo Ulug‘bekning merosi*. Samarqand: SamDCHT.
3. Karimov, I. (2016). *Mirzo Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi*. Toshkent: Fan.
4. Burkhanov, A. (2018). *Ulug‘bek va zamonasi: Tarixiy aspektlar*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
5. Gafurov, I. (2020). *O‘zbekiston tarixi: O‘zbekistonning ilmiy merosi*. Toshkent: O‘zbekiston.
6. Khamdamov, R. (2021). *Mirzo Ulug‘bek: Astronomik tadqiqotlar va matematik yutuqlar*. Toshkent: Ilm-fan.

AMUDARYODA TARQALGAN BALIQ TURLARI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH BO‘YICHA CHORA -TADBIRLAR.

Solijonova Marhaboxon Sanjarbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amudaryodagi baliq turlar va ularni muhofaza qilish haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga yo‘qolib ketish arafasida turgan endemik baliq turlarini saqlab qolish bo‘yicha chora-tadbirlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, baliq turlari, baliqlarni muhofaza qilish, qizil kitob.

Kirish: O‘zbekiston suv havzalarida baliqlarning 106 turi tarqalgan. O‘zbekistonning barcha suv havzalaridan 80-yillarda har yili 300-350 ming tonna baliqlar ovlangan. Keyingi yillarda Orol dengizida suv sathining pasayib ketishi, Amudaryo va Sirdaryo havzalarida ekologik holatlarning keskin yomonlashuvi oqibatida bu suv havzalaridan Baliqlarning populyatsiyasi keskin kamayib ketmoqda. Shun bo is baliq turlarini muhofaza qilish va populyatsiyasini saqlab qolish uchun turli chora-tadbirlar qo‘llanilmoqda.

Amudaryo suvlarida taqir, qushqonmas, orol moylovdori, laqqa baliq, leshch, chexon, o‘tkir qanot, oq amur, kumush sazan kabi baliq turlari uchraydi.

Daryoda qirilib ketish arafasida turgan endemik Amudaryo katta kurakburunlarning yagona yashash havzasi hisoblanadi.

Mashhur tabiatshunos olim M.N.Bogdanov 1874-yilda Amudaryo katta soxta kurakburunini [1], zoogeograf akademik N.A.Severtsov esa 1876-yilda Amudaryoda kichik qilquyruq yoki kurakburunni kashf qilishgan.

1952-yilda N.I.Dragomirov va O.I.Shmalgauzen kurakburun baliqlarning lichinkasi-chavaqlari ekologik–morfologik xususiyatlarini o‘rganishdi. Zoolog olimlaridan A.I.Jarov esa shu yillarda katta amudaryo kurakburunini morfologik va biologik xususiyatlarini tatqiq qilishdi. Olimlardan yana S.N.Ivanov va N.V.Pechinkova quyi Amudaryo havzasida bakra baliqlarning chavoqlarini harakatlanishini kuzatganlar. 1940-1950–yillarda. D.M.Muratov tomonidan olib borilgan ilmiy tatqiqotlar soxtakurakburun baliqlarini organishga qaratilgan, 1947–yilda bakra balig‘ining zahirasini tiklashga qaratilgan ilmiy tatqiqot ishlari K.Z.Trusivga taalluqlidir. Taniqli zoolog olimi A.K.Sagitov amudaryo katta va kichik qilquyruq baliqlarining morfologiyasi, biologiyasi, ko‘payishi va rivojlanishi kabi xususiyatlarini o‘rganish borasida fanga katta hissa qo‘shgan [2].

Amudaryo va unga bog‘liq ravishda shakillangan tabiiy suv havzalari va ko‘llarda uchraydigan baliqlarning sistematikasi va biologiyasini o‘rganishda B.H.Haqberdiyevning xizmatlari nihoyatta katta [3].

MDH davlatlari hududida tarqalgan bakra baliqlarning sun‘iy urchitish borasida F.V.Ovsyanikova, O.A.Grimm, N.A.Borodin, A.N.Dejavin, N.L.Gerbilskiy kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan [4].

Asosiy qism. O‘zbekiston suv havzalarida baliqlarning, asosan 77 ta turi tarqalgan. Shulardan 17 ta turi “O‘zbekiston qizil kitobi”ga (2006-yil) kiritilgan [5]. Orol bakrasi (ship), Sirdaryo kurakburuni, Amudaryo kichik kurak buruni, Amudaryo katta kurakburuni, qorako‘z (oq zog‘ora baliq) shular jumlasidandir.


Amudaryo kichik kurakburuni (1-rasm) yoki toshbakralar oilasiga mansub butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasida turgan, Amudaryoning noyob endemik turi, Turkmaniston va O‘zbekistonda uchraydi. Asosan

daryoning nisbatan sayoz, osti qumli va loyqa suvlarida hayot kechiradi. Tabiatdan nihoyatda kamyob, soʻnngi martta 1996–yilda Amudaryoning oʻrta oqimida tutilgani qayd etilgan.



1-rasm. Amudaryo kichik kurakburuni

Amudaryo katta kurakburuni (2-rasm) yoki qilquyruq–bakralar oilasiga mansub butunlay yoʻq boʻlib ketish arafasida turgan, Amudaryoning oʻrta va quyi oqimida uchraydi. Afgʻoniston va Tojikistonda ham uchrashi taxmin qilinadi. Asosan daryoning nisbatan sayoz, osti qumli va loyqa suvlarida uchraydi. Ushbu tur Turkistonning birinchi general–gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman sharafiga nomlangan. Bu baliqning uzunligi ingichka dumi bilan birgalikda 85 sm gacha, ogirligi 2 kg gacha yetadi. Ular chuchik suv baligʻi hisoblanadi.



2-rasm. Amudaryo katta kurakburuni

Ushbu baliq turi xalqaro “Qizil kitob”ga. Butunlay yoʻq boʻlib ketish arafasidagi tur” [CR–Critically Endangered] maqomi bilan kiritilgan. Bu Amudaryodagi endemik baliq turi hisoblangan. Amudaryo katta soxta kurakburuni. Ushbu baliq turi butun dunyo boyicha faqatgina Amudaryoda uchraydi. U bundan taxminan 200-150 mln yil avval paydo

bo'lgan bo'lib, dunyodagi eng noyob baliq turi hisoblanadi. Ushbu turni o'rganish uchun yurtimizga tez-tez rus va amerikalik olimlar kelib turadi,-deydi gidrobiolog Baxtiyor Sheraliyev. Bu baliq turini yo'qolib ketmasligi uchun quyidagi chora–tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Fanlar akademiyasining 2020–yil 4–dekabirdagi 4/1255-2728–son xulosasiga muvofiq, "Qizil kitob"ga kiritilgan 10 dona Amudaryo katta kurakburun baliq turiga kvota ajratilgan. Ushbu ajratilgan kvota yuridik shaxs tomonidan ko'paytirish va kelajakda ma'lum bir qismini respublikamizning tabiiy suv xavzalariga qo'yib yuborish maqsadida soralgan. Biroq, bugungi kunga qadar ajratilgan 10 ta Amudaryo kurakburun baliq turini ovlashga ruxsat berish bo'yicha ariza kelib tushmagan. Shu sabali hech kimga ruxsatnoma ham rasmiylashtirilmagan.

Amudaryo katta kurakburunini ovlash mutlaqo taqiqlangan. Qizilqum, Surxon qo'riqxonalarida va Quyi Amudaryo biosfera rezervetining qoriqlanadigan hududlarida muhofaza etiladi. 1998–yildan SITESning II ilovasiga kiritilgan.

Amudaryoda ekologik holatning yomonlashuvi, daryo suvidan sug'orish maqsadida foydalanishi daryoga tashlama suvlarning quyilishi oqibatida daryo suvining kimyoviy tarkibini ifloslanishi natijasida Amudaryodagi baliqlar soni kamayib ketmoqda.

Shuning uchun birinchi navbatda Orol dengizidagi ekologik holatni bartaraf etish kerak. Chunki Amudaryo suvining kimyoviy tarkibini o'zgarishiga sabab bolmoqda.

Aholining "Qizil kitob"ga kiritilgan baliqlarni ovlamaslik uchun, Ekologiya tashkilotlari tomonidan qattiq e'tiborga olinishi va tegishli chora ko'rilishi lozim.

Chet ellik mutaxasislarni Amudaryodagi “Qizil kitob”ga kiritilgan baliqlarni ko’paytirish va saqlab qolish uchun yurtimizga jalb qilish kerak. Bunga aholini ham jalb qilish, yaxshi natija ko’rsatgan aholi qatlamini bir yilda bir marotaba moddiy rag’batlantirish, ularni soliqlardan ozod qilish, o’zimizni Respublikamizga bir yilda bir martalik 10 kunlik sayohat yo’lanmasini berish kabi takliflarni bergan bolardim. Shu orqali aholini ham “Qizil kitob”ga kiritilgan hayvonot va o’simlikni asrashga jalb etish mumkin.

Xulosa. Keltirilgan ma’lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Amudaryodagi “Qizil kitob”ga kiritilgan, Amudaryo katta kurakburunini saqlab qolishimiz zarur, chunki u eng qadimiy baliq hisoblanadi. Yuqorida aytib o’tganimizdek, u faqat Amudaryoda yashaydi. Shuning uchun ham Amudaryoning ekologik holatiga katta e’tibor qaratib, baliqlar uchun kerakli, qulay sharoitni yaratishimiz lozim, Zero har bir yaratilgan qulay sharoit ko’plab qimmatli turlarni tarqalishiga va baliqlarning suv havzalarida ko’payishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Bagdanov O.P. O’zbekiston hayvonot duyosi. – Toshkent, “O’qituvchi” 1969. 22-b.
2. Qurbonov R. B., Axmedov H.Y. Fermer xo’jaliklarida baliq yetishtirish mini hovuzlarni barpo etish bo’yicha tavsiyalar. – Toshkent. 2008.
3. Qurbonov R.B., Xalpayev I.I. O’zbekiston Respublikasi mintaqalarida intensive baliq yetishtirish bo’yicha tavsiyalar – Toshkent, 2011.
4. Axmedov X.Y., Turgunova U, Saidov Z. Baliq chovoqlarini yetishtirish. – Toshkent 2006.

BUGUNGI KUN PEDAGOGLARIGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Tursunpo'latova Fotimaxon Otabek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Matematika yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun pedagoglariga qo'yiladigan zamonaviy talablar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiyalar, integratsiya, masofaviy va onlayn, STEAM, tanqidiy fikrlash, strategiyalar ishlab chiqish

Kirish. Hozirgi davrda ta'lim jarayoni doimiy o'zgarish va yangilanish bosqichida bo'lib, bu pedagoglardan yangi ko'nikmalar va zamonaviy talablarga moslashishni talab qiladi. XXI asr pedagogi nafaqat bilim beruvchi, balki yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi yetakchi shaxs bo'lishi kerak. Quyida zamonaviy pedagoglarga qo'yiladigan asosiy talablar haqida so'z yuritamiz. Bugungi kun pedagoglariga zamonaviy talablar quyidagi yo'nalishlarda shakllangan:

1. Pedagogik mahorat va kasbiy kompetensiyalar

Fanlarni mukammal bilish: Pedagog o'z mutaxassislik fanini chuqur bilishi kerak. Darslarni interaktiv usullar bilan tashkil etish: Faol o'qitish usullaridan (rolli o'yinlar, guruh ishlari, muammoli vaziyatlarni hal qilish) foydalanish talab etiladi. Texnologiyalardan foydalanish: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) bilish va ularni dars jarayoniga tatbiq etish.

2. Shaxsiy sifatlar

Innovatsion fikrlash: Yangiliklarni tez qabul qilish va amaliyotga joriy qilish. Yuqori ijtimoiy va emosional intellekt: Talabalar bilan

samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va qo'llab-quvvatlash. Mas'uliyat va fidoyilik: Kasbga mehr, o'z ustida ishlash va o'zgaruvchan muhitga moslashish.

3. Zamonaviy vositalarni qo'llash

Digital pedagogika: Masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, darsliklar va testlarni raqamli formatda ishlab chiqish. Media savodxonlik: Ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim jarayonini boyitish. STEAM ta'limi: Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiya qilish.

4. Talabalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuv

Individual yondashuv: Har bir talabaga alohida e'tibor qaratish, ularning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash. Motivatsiya yaratish: Talabalarni o'qishga qiziqtirish, ularda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Talabalarni zamonaviy dunyo uchun zarur bo'lgan muloqot, vaqtni boshqarish, muammolarni hal qilish kabi ko'nikmalar bilan ta'minlash.

5. Doimiy rivojlanish va malaka oshirish

O'z ustida ishlash: Yangi ta'lim uslublarini o'rganish, turli seminar va treninglarda ishtirok etish. Hayot davomida o'qitish: Uzluksiz ta'lim tamoyilini hayotga tatbiq qilish. Zamonaviy pedagog uchun asosiy talab – doimiy o'zgarish va rivojlanishga tayyor bo'lishdir. Shu bilan birga, u milliy va xalqaro talablarga javob beradigan tarzda faoliyat yuritishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Pedagog o'quvchilarga zamonaviy bilimlarni samarali o'rgatishi kerak. O'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olib, turli ta'lim usullaridan foydalanishi lozim.

Yangi texnologiyalar va innovatsion metodlarni faol qo'llash zarur. O'qituvchi kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak va doimiy ravishda o'z bilimlarini yangilab turishi zarur. Pedagog psixologiyani bilib, o'quvchilarning ruhiy holatini tushunishi muhim deb o'ylayman. O'quvchilarni axloqiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga e'tibor qaratish kerak. Pedagog sabrli, ijodkor va yaxshi muloqotchi bo'lishi lozim. O'quvchilarga motivatsiya berish va ularni ilgari surish mahoratiga ega bo'lishi zarur. Darslarni sifatli va samarali o'tkazish, o'quvchilarga yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Cambridge Handbook of Applied School Psychology, pp. 598 – 612
2. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(12), 74-78.
3. Ibroximov, M. A. (2023). PROFESSIONAL TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING IJTIMOY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 175-179.
4. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). ISSUES OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS. In Archive of Conferences (pp. 69-70).
5. Polvanov, R. R. (2023). IKKINCHI TARTIBLI GRONUOLL CHEGARALANISHLI BOSHQARUVLAR UCHUN TUTISH MASALASI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(12), 62-67.

6. Maxsudova, S. (2020). ON A BOUNDARY PROBLEM FOR AN EQUATION OF SHIFTED TYPE WITH DIFFERENT ORDERS OF DEGENERACY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 36-39.
7. Tolibjon o'g, S. G. A. (2022). BOSHQARUVLAR ARALASH CHEGARALANISHLI BO'LGAN HOL UCHUN YOPIQ SODDA GRAFLARDA QUVISH-QOCHISH MASALASI.
8. Maxsudova, S., & Hamitov, A. Scientific Bulletin of Namangan State Universit y.
9. Mamatxonovich, X. F., Erkinjonovna, S. Z., Tolibjon og, G. S., & Kosimovich, U. S. (2024). APPLICATIONS OF MATHEMATICAL MODELS IN THE TEACHING OF MATHEMATICS: PERSPECTIVES FOR GEOGRAPHY MAJORS. Научный Фокус, 1(11), 449-452.
10. Xolmuradov, F. M. (2024). DIFFERENTIAL TENGLAMALAR FANINI OQITISHDA KONPETENSIYAVIY VA ADAPTIV YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH METOKASI. Научный Фокус, 1(11), 172-178.
11. Ibrohimov, M. (2024). RAQAMLI TA'LIM DAVRIDA INNOVATION TARBIYA TEXNOLOGIYALARINING TALABALAR TARBIYAVIY FAOLIYATIDAGI O'RNI. Физико-технологического образование, (1).
12. Axmedovich, I. M. (2024). XORIJIY TADQIQOTLARDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI IJTIMOY KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ZARURIYATLARI. Science and innovation, 3(Special Issue 41), 446-449.
13. Turdaliyeva, N. A., & Eshnazarova, M. Y. (2024). ZAMONAVIY ELEKTRON TA'LIM: INTERAKTIV PLATFORMALAR VA

MOSLASHUVCHAN YONDASHUVLAR. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(23), 36-38.

14. Axmedovich, I. M. (2024). XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI ASOSIDA TALABALAR IJTIMOIIY-KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK MEKANIZMLARI. Science and innovation, 3(Special Issue 16), 86-88.

DUTOR CHOLG‘U ASBOBNING KELIB CHIQISH TARIXI, TURLARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISHLARI

Axmedova E‘zoza Adashali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqiy ta’limi yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy cholg‘u asbobi bo‘lgan dutorning shakllanishi, kelib chiqish tarixi, turlari va turli mamlakatlardagi o‘rni, nomlanishi va musiqada tutgan o‘rni hamda takomillashtirish jarayonlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о становлении, истории возникновения, видах и месте дутара, узбекского национального музыкального инструмента, его название и место в музыке разных стран, а также о процессах совершенствования.

Abstract: This article provides information about the formation, history of Origin, types, names and place of the Uzbek national musical instrument dutor in different countries, as well as its role in music and improvement processes.

Kalit so‘zlar: Applikatura, konstruksiya, modernizatsiya, takomillashtirish, orkestr va ansanbil.

Ключевые слова: Применение, построение, модернизация, благоустройство, оркестр и ансамбль.

Key words: Application, construction, modernization, improvement, orchestra and ansemlle.

Cholgʻu asbobidan dutor musiqiy cholgʻularimiz orasida eng qadimiylaridan biri boʻlibgina qolmay, inson ruhiyatiga moyillikligi-yu, mungli hamda qalbga yaqin oxang taratishi bilan ajralib turadi. Oʻrta Osiyo xalqlarining dutor va dutorsimon (turkman doʻmbiralari) cholgʻularining zamini bir ekanligi, ushbu xalqlarning manaviyati ildizlari birligidan dalolatdir. Zero, barmoqlarning sehirli mayin xarakatlari orqali torlar aynan qalb nidosi sifatida oxang taratadi. Xalq orasida dutor “dilkash cholgʻu” nomini olgan. Unda ijro etilgan xar qanday kuy oxang qalb torlarning tebratadi chunki bu nola qalb istagan oxangdur. Shning uchun dutor ayollarimiz qoʻlida xasrat quroli, dil izxorining namoyish etish uchun xamrox boʻlgan koʻngil oshnosidir.

Dutorning bunday imkoniyatlari turli xalqlar musiqa merosini ijro etish uchun yetarli darajadadir. Dutor ijrochiligi amalyotida davom etib, rivojlanib kelayotgan turli ijrochiligida moyilliligi, xalq yoʻlidagi musiqamizda jozibaliligi hamda akademik yoʻnalishda keng maxoratli cholgʻu ekanligini doim namoyon etib kelmoqda. Dutor qaysi yoʻnalishda boʻlmasin, ijrosida shu uslubga xos ananasi bor va ularni ifodolovchi oʻz jozibasi bor.

Dutor juda qadimiy musiqa asbobi uning paydo boʻlish tarixiga kelsak eramizdan, avvalgi asrlarga borib taqaladi. Dutor oʻzbek, Tojik, Uyghur, Turkman, Qorqalpoq, Qozogʻiston, Qirgʻiziston xalqlari orasida keng tarqalgan.

Dutor Tojikcha soʻz boʻlib ikki tor degan maʼnoni bildiradi. Dutor azal-azalardan oʻzbek xalqiga madaniy qilib kelayotgan milliy musiqa

cholg'ularidan biri hisoblanadi. Bu cholg'u faqat o'zbek xalqining cholg'usi bo'libgina qolmay balki yuqorida keltirilgandek unga qardosh bo'lgan Tojik, Uyg'ur, Turkman, Qoraqolpaq, Qozoq, Qirg'iz, xalqlari ham o'zlarining sevimli cholg'usi deb hisoblashadi. Dutor o'xshash cholg'uni, Qozoqlarda “Do'mbira” Qirg'izlarda “Qo'buz” deb atashadi. Uyg'urlarda dator kattaroq shaklda Turkmanistonda faqat o'yma, qazma turi mavjud. Qaraqalpog'istonda kosaxonasi qovrg'alik datorlar bilan birga hajmi kichik xillari ham uchraydi. Dutor haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni Navoiyning zamondoshi Zaynulobidin al-Husayning “Musiqaning ilmiy va amaliy konunlari ” nomli risolasining 16-bobida uchratamiz. XVI-XVII-asrlarda “Dutoriy” taxalusi bilan ijod etgan hirotlik Yusuf Mavludiy Dutoriy kabi sozandalarning nomlari manbalarda saqlangan. Dutor adabiy manbalarda esa Temuriylar davridan XIV-asr oxiri XVI-asr boshidan boshlab tilga olingan deyiladi.

Dutorning yasalihi. Dutorlar asosan ikki xil turda yasaladi. Qadimiy o'tmishda sozandalarimizga xizmat qilib kelayotgan dator dastasiga ichak yoki ipakdan eshilgan pardalar bog'langan diatonik tovushqatorda (mumtoz kuylar va maqom yo'lari ijro etiladi) bog'langan va bu datorlarni xalq datorlari deyilgan. Dutor yasalihi jihatidan ikki qisimdan iborat (dasta va kosa) bo'lib, ularni birlashtiruvchi qismini “Bug'iz” deb ataladi. Dutorning kosasi o'yma va qovurg'achalarining birlashganidan yasalihi mumkin “o'yma dator” Samarqand, Xorazm, Tojikiston va Turkmanistonda qo'lanilib, bir bo'lak tut yog'ochidan o'yib ishlanadi. Qovirg'ali dator ham tut yog'ochidan ishlanib, 8-10 bo'lak yupqa taxtachani egib birlashtiriladi. Kosa ustiga yopishtiriladi, qopqoq ham tut yog'ochidan tayyorlanadi.

Dutor cholg'u asbobini takomillashtirish. 1920-yil oxiri 1930-yillar boshida dutorni takomillashtirish kirishildi. Konstruktorlar

(U.Zufarov va boshqalar) birinchi navbatda cholgʻu tovushini yanada kuchaytirish haqida oʻylay boshlanadi, ayni mahalda dutorning parda bogʻlamlari, uzun dastasi, sozlanishi va torlar tovushqatori oʻzgarishsiz qoldirildi. Dutorni takomillashtirish va bu cholgʻu oilasini yaratish ishlari 1930-yillarning oxirida A.I. Petrosyan va S.Y. Didenko tomonidan boshlanadi. Dutorda xromatik tovushqatorli konstruksiyada bogʻlama pardalar doimiy oʻyma pardalar bilan almashtiriladi, tashqi jihatdan xalq cholgʻusidan birmuncha boʻlakcha koʻrinish kasb etadi. Keyinchalik kichik naʼmuna asosida prima, sekunda, alt, bas, va kontra bas dutorlari yaratiladi. Bas va kontra bas dutorlari qattiq charim noxun bilan chalinadi. Dutorlar oilasidan hozirgi oʻzbek xalq cholgʻu ansambllari va orkestrlaridan foydalaniladi A.I.Petrosyans va S.Y.Didenko orkestr dutorlaridan tashqari xalq dutori kabi sozlanadigan va diapazonga teng kamer dutori konstruksiyalashdi. Bu dutor (keyinchalik modernizatsiya qilinib) xalq musiqa Amalyotida yakkanovoz va ansanbil cholgʻusi sifatida tarqalgan.

Dutor yasaladigan tut yogʻochi soyada quritiladi, dutorning umumiy uzunligi 1200-1300 mm, ayrim joylarda esa 750-800 mm ni tashkil etadi.

Dutorning qisimlari. Bularga quloqlar, shaytonxarak, dasta pardalar, boʻgʻiz, kosaxona, qopqop, xarrak, ilgak kiradi. Dutorda yakkanovoz va joʻrnavoz cholgʻu sozi boʻlib, sozandadan katta ijro mahoratini talab etadi. Dutor yakkazarb, qoʻshzarb, bilakzarbi, bidratmazarb, teskari zarb kabi ijro usullari mavjud.

Dutor cholgʻusining turlari. Dutor oilasida olti xil dutor turlari mavjud. Ulardan bugungi kunga kelib, esa toʻrt xili mavjud. Ularga milliy dutor, alt dutor, sekunda dutori, prima dutori kabilari oʻrganish maqsadga muvofiqligi maʼlum boʻladi.

Shulardan birinchisi milliy dutor. O‘zbek dutori muloyim, nafis va shirali ovozi bilan boshqa cholg‘ulardan ajralib turadi. U asosan tut, o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Cholg‘uning kosaxonasi rezanator 8-12 ta yupqa bir-biriga yonma-yon yopishtirilgan taxtacha qovurg‘adan ishlanadi. Kosaxonaning ustki, ochiq qismiga yupqa qopqoq yopiladi va kosaxona bo‘g‘iz orqali dastaga ulanadi. Dutorning uzun va ingichka dastasiga 13-17 ta parda bo‘ladi. Kosaxona va dastaga suyak va sadafdan ishlangan bezak naqshlar o‘yib yopishtiriladi. Torlari ipak iplardan eshiladi. Ular tanovor sozi kvarta, munojot sozi kvinta, qo‘shor sozi unitorga sozlanadi. Milliy dutor qadimiy diatonik dutor. Pardalari ichak iplar bilan boylab ajratilgan, quloqlarini yog‘ochdan ishlangan, sozlanishi yozilishiga nisbatan bir oktava past eshtiladi. Kichik oktava “re”, “lya”, yoki “re”, “sol” notalariga sozlanadi. Dutorda milliy mumtoz asarlardan tashqari jahon kompozitorlari tomonidan yaratilayotgan asarlarni ham ijro etish mumkin.

Dutor alt-an’anaviy dutorni 1930-yillarda qayta ishlash natijasida paydo bo‘lgan turi torlari kapron yoki boshqa palimer iplarda ishlanadi. Dastasiga xromatik tartibda joylashgan yog‘och yoki suyak pardalar yelimlab yopishtiriladi. Dutor alt-bu dutor xromatik tizmidagi pardalar bilan ajratilgan. Dutor alt yozilishiga qaraganda bir oktava past eshtiladi. Lya mi yoki lya re birinchi oktava notalariga sozlanadi. Kompozitorlar va bastakorlar tomonidan yaratilgan asarlar, tojikcha, qirg‘iz, turkman va boshqa xalqlar asrlari ham ijro etiladi. Mazkur dutorlar orkestor va ansambillarda ijro qilish uchun mo‘ljallangan.

Dutor prima- dutor prima dutorning kichraytirilgan turi. Buning qopqog‘i tut o‘rniga archa daraxtidan qilinadi. Ipak torlari o‘rniga ichak tor tortilgan. Pardalar dastasini o‘yib xromatik holda doimiy o‘rnatilgan. Torlar kvarta bo‘yicha birinchi oktavadagi “mi-lya” dan birinchi

oktavadagi sol va ikkinchi oktavadagi “do” ga qadar. Dutorlar oilasiga mansub bu cholgʻu asbobi eng baland tovushiga ega boʻlib, skripka kalitida yoziladi.

Ikki kapron ipak toridan iborat ushbu cholgʻu asbobi kvarta oraligʻida sozlanadi. Applikatura jihatidan rubob prima gʻijjak asbobiga oʻxshab ijro etiladi. Masalan: pissikato, bidratma, stakatto va hakazolar. Dutor prima sozlanishi birinchi tor (pastki tor) mi va ikkinchi tor (yuqoriga tor) lya tovushlaridir. Dutor primaning umumiy ovoz hajmi birinchi oktavadagi mi tovushidan uchunchi oktava lya tovushiga qadar. Dutor sekunda –yangi ishlangan datorlar oilasiga kiradi.

Dutor sekunda cholgʻusi -ovoz jihatida oʻrtacha registrda, uning ham torlari ikki ipak tordan iborat boʻlib, kvarta oraligʻida sozlanadi. Tashqi koʻrinishi dator primadan bir oz kattaroq qilib ishlangan, yaʼni datorlarning kosasi bir xil boʻlib dastasining uzunligi har xil boʻladi. Dutor bas va dator kontrabas cholgʻu asboblarini kosasi katta boʻladi. Dutor sekunda cholgʻusining birinchi tori, kichik oktava lya tovushiga, ikkinchi tori kichik oktava re tovushiga, sozlanadi. Umumiy ovozi hajmi kichik oktavadagi lya tovushidan ikkinchi oktava re tovushigacha. Mazkur datorlar asosida oʻzbek xalq kompozitorlariga moslab turli hajmdagi dator xillari dator bas, dator kontrabas ishlanadi.

Dutor bas cholgʻusi 3 qismdan iborat. Bosh qismi, dasta qismi, va kosa qismlaridan. Bosh qismida torlarini ushlab turuvchi quloqlarni va yuqori xarrak, dasta qismida tovush hosil qiluvchi 24 ta pardalar oq doirachalar (turli naqshinkor bezaklar) bilan belgilangan. Kosa qismida esa rezonator teshikchasi, ovoz oʻtkazuvchi qopqoq vq ijro paytida qopqoqqa zarar yetkazuvchi qopqoq uchun qalqon oʻrnatilgan. Torlarni maʼlum bir balandlikda ushlab turuvchi xarrak hamda ularni quloqlar bilan birlashtruvchi ilgak oʻrnatilgan. Dutor basning toʻrta torlari kvinta

intervali orasida sozlanadi. Birinchi tori kichik oktava "re", uchinchi tori katta oktava "sol", to'rtinchi tori katta oktava do tovushiga sozlanadi va ushbu torlar metaldan yasaladi. etadi. Cholg'u ovozing yoqimli hamda ijrochi talabiga mos ravshda jaranglash ham aynan shunga bog'liq. Dutor bas cholg'usining tessiturasini kichik oktava "re" tovushidan ikkinchi oktava "re" tovushigacha hisoblanadi. Cholg'u mizrob yordamida chalinadi. Mizrob bu ovoz chiqarish vositasi bo'lib, torli sozlarni chertib chalishda qo'llaniladigan maxsus moslama, u cholg'u torlaridan kelib chiqib turli shakllarda bo'ladi. Yo'g'och qattiq teri, suyak, hayvonshox, metallardan yasaladi.

Dutor kontrabas -Dutor kontrabasning kosasi katta-katta "Qobrg'alari" dan iborat bo'lib, dator basdan ancha kattaroq qilib ishlangan. Dutor basdan dastasi uzunroq bo'ladi. Dutor kontrabasning torlari juda qalin bo'lib, pastki registr rembrni mustahkamlaydi. Dutor kontrabasning kosasiga maxsus tayyorlangan tayoqcha o'rnatilib, o'tilgan holda ijro etiladi.

Xulosa. So'z so'ngida shuni aytishimiz joizki dator cholg'usi bugungi kunga kelib orkestr va ansambllarda o'z o'rniga ega cholg'ulardan biridir. Bu cholg'ularimiz yillar asrlar osha o'z tarovatini yo'qotmay saqlab qoladi. Nafaqat o'zbek musiqasida qardosh xalqlar musiqasida ham o'rin beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shavkat Rahimov. Dutor cholg'u asbobi haqida musiqa va san'at maktablari uchun o'quv qo'llanmasi. Toshkent. 2004.
2. R. Xojieva. Dutor taronalari. Toshkent. 2007.
3. Anvar Liviye. O'zbek milliy cholg'usozlik tarixi. Toshkent. 2005.
4. Bakhtiyorxon, Shokirkhanov, and Yusubjonova Omina. "THE ROLE OF THE "DUTOR" INSTRUMENT IN THE INTEGRATION OF

EDUCATION AND CULTURE." *Academia Repository* 5.1 (2024): 237-241.

5. O'zbek milliy dutor cholg'usi. Malumotlari bazasi. <https://malumot.ru/ozbek-milliy-dutor-cholgusi/>.

6. Dutor haqida umumiy ma'lumot Dutorning yasalishi, tuzilishi va sozlanishi Dutor oilasi haqida Dutor <https://azkurs.org./dutor-reja-dutor-haqida-umumiy-malumot-dutorning-yasalishituzi.html>

ANDIJON VILOYATI BALIQCHI TUMANI TARIXI

G'ofurjonova Shahzoda Abdullajon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Tel: +998950379079

E-mail: shahzodagofurjonova022005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimdan Andijon viloyatining Baliqchi tumani qanday nomlar bilan atalgani, ushbu hududda yashagan ulug' shaxslar haqida so'z boradi. Xususan, Baliqchi qishlog'i va uning atrofidagi ziyoratgohlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассказывается об именах рыбаков издревле и великих людях, живших в этой местности. В частности, дается информация о рыбацкой деревне и святынях вокруг нее.

Abstract: The article talks about the meaning of the word Fisherman, what names this country was called in ancient times, and what great people lived in the Fisherman's territory.

Kalit so'zlar: Baliqchi, Sortepa, Tuzluq momo, So'fi ota, Nurvali ota, G'oyib buva, maqbara.

Ключевые слова: Балыкчи, Сортепа, Тузлук момо, Софи ота, Нурвали ота, Гойиб бува, мавзолей.

Key words: Balikchi, Sortepa, Tuzluk momo, So'fi ota, Nurvali ota, G'oyib buva, mausoleum.

Baliqchi tumani Andijon viloyatidagi tuman bo'lib, viloyatning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Namangan viloyatining Norin tumani va Andijon viloyatining Izboskan, Shahrixon, Oltinko'l, Bo'z, Ulug'nor tumanlari bilan chegaradosh. Maydoni 0.34 ming km. Aholisi 150 mingdan ziyod. Baliqchi tumanida ikkita shahar (Baliqchi va Chinobod) va 8 ta qishloq fuqarolari yig'ini (Olimbek, Bo'ston, Guliston, Ohunboboyev, Siza, Xo'jaobod, Eski Haqqulobod, O'rmonbek) bor. Markazi Baliqchi shahri.[1].

Baliqchi aslida o'zbek urug'laridan birining nomi. Boshqa turkiy xalqlarda ham shunday urug' bor. Bu so'z baliq balig'-baluq shahar tarzida VII-X asrlarga oid qadimgi turkiy obidalar-To'nyuquq, Moniy yodgorliklari, Turfon matnlarida qayd etilgan. Baliq so'zining ma'nosi "Shahar" ma'nosini anglatadi.[2].

Baliqchining yana bir tarixi Sulaymon payg'ambar nomi bilan bog'liq. Roviylarning xabar berishicha, Qoradaryo bo'yidagi bu qishloqda, o'sha Qo'qon shahridan ko'chib kelib, oilasi bilan yashayotgan baliqchi otaning yoniga kelib, Xudo tomonidan dunyo ins-jinslar, dev-parilar, parranda-yu darrandalarning hukmdori martabasiga erishgan hazrat Sulaymon ham baliq ovlab yashagan ekanlar. Sababi uzugini Qoradaryoga tushirib yo'qotgan ekan. Va shu zahotiyok hukmronlik rutbasiga vaqtincha nuqta qo'yilgan ekan. Siz "Sulaymon o'ldi devlar qutuldi" degan gapni ko'p eshitgansiz. Demak uzuk yo'qolgan chog'da nafaqat devlar balki butun hayvonlar ham ma'lum vaqt qutilgan

ekan. Sulaymonni kunlardan bir kun daryoga to'rt tashlab baliq ovlaganda bir baliq to'rtiga ilindi o'sha uzugini yutib yuborgan baliq edi uni qornini yorib uzugini qo'liga taqishi bilan o'z hukmronligini qaytardi. Va o'sha o'ziga yordam bergan baliqchi cholni saroyga taklif qilib, xizmatkorlariga Qoradaryo oldida shahar qurishni buyuradi. Baliqchiliklarni va uning makonlarini to dunyo turguncha qo'riqlashni, balo-qazolardan asrashni devlarga topshirgan ekanlar. Baliqchi tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi, buni tumanimizda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar ham isbotlaydi. Tuman hududidan mil.avv. III-II – III-II asrlarga oid buyumlar qazib o'rganilgan, bundan tashqari, mashhur olim B. Matboboyev ushbu hududdan milodiy V-VI asrlarga oid qadimiy ko'zalar topilganligini o'z asarlarida qayd etgan.

Baliqchi tumani hududlari XVIII asrning boshlarida Qo'qon xonligi tarkibiga kirgan, xonlik 15ta beklikka bo'lingan. Rus tarixchisi A.Kun, amerikalik sayyoh Yu.Skayler kabi olimlarning ma'lumotlariga ko'ra, Baliqchi ana shu o'n beshta bekliklardan biri, hattoki eng yiriklaridan bo'lgan.

Qo'qon xonligi davriga oid ko'plab mahalliy manbalarda Baliqchi haqida ma'lumotlar uchraydi. Shunday manbalarga Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'ona", Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruxiy", Muhammadumar Umidiyning "Tarixchayi Turoniy" kabi asarlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu asarlarda Qo'qon xonligi davrida Baliqchi hududida Sarimsoqxon, Shodmonxo'ja, Do'stmuhammad kabilar hokimlik qilganini bilib olishimiz mumkin. 1876-yil 19-fevralda Qo'qon xonligini Rossiya imperiyasi egallanganidan so'ng, tuman hududi Baliqchi volostiga aylantirilib Farg'ona viloyatining tarkibiga kiritildi. Volost boshqaruvchisi Go'riavval (hozirgi Go'ravon qishlog'idan) Buvaxo'ja Kengashxo'jayev bo'lgan. Tumanda turli xil millat vakillari

istiqomat qiladi. Jumladan, o'zbeklar, ruslar, tatarlar, koreyslar, qozoqlar [3].

Baliqchi tumaniga chegaradosh bo'lgan qo'shni Namangan viloyati Norin tumanidan o'tadigan Norin daryosi qirg'og'ida joylashgan chegara atrofida qadimiy tariximizda 7 og'a-inilar va bir singil aziz avliyolar yashab o'tganligi haqida bizgacha og'zaki ma'lumotlar yetib kelgan. Ular So'fi ota, Qilich burxon buva, Nurvali ota, G'oyib buva, Qurbon buva, Toyloq ota, Daxyo ota va Tuzluq momodir.

Ana shu jihatdan olib qaraganda baliqchiliklar alohida iftixor bilan “Tuzluq momo” ziyoratgohini tilga oladilar. Chunonchi, Tuzluq momoning og'a-inilari bo'lgani, ular har chorshanba kuni singillarini ziyorat qilib ketishgani to'grisida ma'lumotlar uchraydi. Tuzluq momo ziyoratgohi Sheralichek hududida, eski Do'msaroy qabristoni oldida, sariq suv zovurining bo'yida joylashgan. Ziyoratgohda “Sarob” nomi bilan atalgan ikki hovuz bor. Hovuzning maqtovg'a sazovor xislati juda ko'p bo'lib, u shifobaxsh hisoblanib, biri erkaklar, ikkinchisi ayollar uchun mo'ljallangan. Suvi haddan tashqari sho'r bo'lib temirki, har xil toshmalar, yaralar va inson jismdagi og'riqlarga shifo bo'ladi.

Tuzluq momo ziyoratgohidan qishin-yozin odam arimaydi. Chorshanba kunlari esa, uch yuzdan ortiq qozon osilib, is chiqariladi. Marhumning ruhiga quron tilovat qilinib, ular yaratgan egamizdan dardlariga davo tilaydilar [4].

“So'fi ota” qabristoni Baliqchi tumani, X.Ergasheva shirkat xo'jaligi, Turkiston qishlog'ida joylashgan bo'lib, u “So'fi ota” qabristoni deb nomlanadi. “So'fi ota” qabristoni taxminan eramizdan ikki yarim asr avval (1750-1756) yil ilgari vujudga kelgan. So'fi ota qabristonida ham masjid, ham maqbara minorasi mavjud. Bu maqbaraga “So'fi ota” dafn qilingan. Maqbara ikki xonadan iborat bo'lib, birinchi xona chilla xona,

ikkinchi xonada esa So'fi ota qabri joylashgan. Har birining uzunligi 4metrni tashkil etadi. Maqbara ustunining old tomoni me'moriy ark usulida bezatilgan bo'lib, orqa tomoni katta gumbaz qilib qurilgan.

Qabriston oldi, masjid tomoni minora usulida qurilgan bo'lib kiraverish darvoza-me'morchilik,yog'och o'ymakorlik san'ati, naqqoshlik bilan bezatilgan. Uning bo'yi 3 metr, eni 2 metr 80 sm hajmdagi milliy uslubda qurilgan. "So'fi ota" qabristoni masjidi, maqbarasi o'tmishda hashar yo'li bilan suvoqchi-usta duradgorlar yordamida ta'mirlab kelingan. XVIII asrning 1898-1899-yillariga kelib,masjid ta'mirlanib anchagina yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin ham mahalliy aholi kishilari hashar yo'li bilan maqbara bir necha marta homiylar tomonidan ta'mirlangan, obodonchilik va tozlov ishlari olib borilgan. So'fi ota masjidi 2 ta xona va 1 ta katta zaldan iborat bo'lib,bir vaqtning o'zida 1000 ta odam namoz o'qish uchun mo'ljallangan. U yerda 200 dan ortiq turli xildagi diniy kitoblarni ko'rishimiz mumkin.

Hozirda masjidni Sherali qori boshqarar ekan. Shu qishloqda yashovchi 80 yoshni qoralagan Jamila hoji onani aytishicha, So'fi ota qabristonida har hayit bayramida qishloq otinoyilari shu yerga kelishib hatmlar o'qishar ekan. So'fi ota ezgu niyatli odamlarga oq otda ko'rinar emish. Men ziyoratgohga borganimda ziyoratgohda ustalar qurilish ishlari olib borishayotgan ekan. So'fi ota ziyoratgohining chap tomonida pastlikda mo'jizaviy 2 ta buloq bor. Buloq bo'yida xonalar joylashgan bo'lib, ziyoratchilar So'fi ota qabrini ziyorat qilish birga u yerda osh qilib ketishar ekan. Yurtimiz mahobati, faxri bo'lish,an'anaviy, milliy uslubda qurilgan bu me'moriy, madaniy me'rosimiz "So'fi ota" qabristoni abadiy o'lmas san'at namunasi sifatida avloddan-avlodga o'tib boraveradi [5].

Yurtimizda “Nurvali ota” ziyoratgohidek joy boʻlmasa kerak. Rivoyat qilishlaricha Nurvali ota yetti ogʻa-inilarining eng kattasi boʻlgan ekan. Nurvali ota tarixda turli davrlarda turli nomlar bilan nomlangan. Masalan Nurvali ota, Nurvali poshshoyi, Poshshoyiy, Toʻrongʻi mozor nomlari bilan atalib koʻhna kitoblarda “Nurvali ogʻa” nomi bilan zikr qilingan.

“Nurvali ota” ziyoratgohi Gʻalaba jamoa xoʻjaligining Etak qoʻrgʻoncha mahallasida joylashgan boʻlib, tagida katta anhor oqib oʻtadi tepasida esa yogʻochdan qilingan katta koʻprik bor. Koʻprikdan oʻtishingiz bilan chap tomonda Nurvali otaning qabristoniga koʻzingiz tushadi. Qabriston qalin paxsa devor bilan oʻralgan. Oʻsha yerda yashovchi qishloq keksalarining aytishicha Nurvali ota yovdan qochib mana shu joyda tirik gʻoyib boʻlgan.

Hozirda ham ayrim odamlarning aytishicha u katta bir qora otga minib sariq suv kanali boʻylab, Oʻrol buva mozorgohiga, Shahid mozor orqali Tuzluq momo ziyoratgohlariga borib keladi deyishadi. Nurvali ota ot minib sariq suv boʻylab yurishni koʻproq tunning sahar vaqti va azon vaqtlarida kuzatilar ekan. Nurvali otamizning ziyoratgohi katta “Sariq suv” kanali boʻyida joylashgan. Bu yerda ham mahalliy qabriston boʻlib, unga kiraverishda koʻzga koʻrinarli joy Nurvali otamiz qabri tiklangan. Yon tomonida toʻrt xonadan iborat uylar qurilgan boʻlib, bu yerga farzandtalab insonlar kelib osh qilishib farzand tilab ketishar ekan. Hozirda bu ziyoratgohni Gʻulomqodir hoji ota boshqarar ekan. Bu ziyoratgoh juda pokiza saqlanib yonginasida katta mevali bogʻ yaratilgan [6].

“Gʻoyib buva” ziyoratgohi – Baliqchining Oʻrta qoʻrgʻon qishlogʻida joylashgan. Oʻrta qoʻrgʻon yoʻlida kunbotar tomoniga qarab markazdan 250 metr yurganda yoʻlning oʻng tomonida mahallaning qabristoni bor.

Qabristonning o'rtasidan shimol tomonga mozorgohga boradigan kichik dala yo'li o'tgan. Bu yo'lning ohiri kanda bo'yidagi dala shiyponigacha borib taqaladi. Dala shiypongacha yetmasdan yo'lning o'ng qirg'og'ida G'oyib buvaning ziyoratgohi joylashgan. Bu ziyoratgoh ham boshqa ziyoratgohlar kabi juda ozoda va pokiza saqlanadi. Ziyoratchilar uchun hamma sharoitlar mavjud.

G'oyib buva to'g'risida ota-bobolarimizdan eshitgan ma'lumot rivoyatlarga qaraganda qadimda G'oyib buva aslida Go'ravonlik bo'lmaganlar.

Kunlarning birida g'ayridinda amal qilib kelayotgan G'oyib buvaning dushmanlari, qo'llariga kaltak ushlab kunduz kunida bu ulug' zotni qaysidir bir yurt dandir, Go'ravonga qadar quvib kelishgan ekan. G'oyib buva qochib Go'ravonning hozirgi markazi yaqiniga kelganda Qoradaryo tomoniga qochganlar. Hozirgi qabriston o'rtasidan Qoradaryoga qarab masofasi bir kilometr ga bormaydigan kichik dala yo'li bilan borgandagi hozirgi ziyoratgoh joyicha borganda dushmanlari G'oyib buvani o'rtaga olishib kaltaklab urib o'ldirishmoqchi bo'lishgan. Shunda G'oyib buva o'z Robbisiga iltijo qilib yerga “Yer yoril” deganlarida yer yorilgan ekan. Darhol yer yorig'iga sakrab tushishi bilan yer yana o'z asliga kelib qolganligi to'g'risidagi guvohlar ko'rsatmalariga asoslanib keyinchalik G'oyib buva g'oyib bo'lgan joyga G'oyib buva qabri tiklangan ekan. Shu jihatdan o'sha qabr hozirgi kungacha mozorgoh bo'lib faoliyat ko'rsatib kelmoqda [7].

Baliqchi qishlog'i atrofidagi Sortepa aslida “hisor tepa” qadimda shahar bo'lgan. O'rta Osiyo xonliklari davrida devor bilan o'ralgan shaharni arabcha so'z bo'lib hisor deb atashgan. Shahar atrofini baliqchilar, ya'ni qo'riqchilar o'rab, dushmandan uni asrab turgan. Shahar atrofiga uy-joy qurib, oila tebratishgan.

Sortepa tepaligi bugungi kunda Ko'l, Sortepa va Olchazor mahalla fuqarolar yig'ini oralig'ida joylashgan. Sortepa xarobasi mil.avv. II-III asrdan to milodiy VIII asrgacha hayot qaynagan bir qal'a sifatida tarixda qolgan.

Hozirgi kunda bu joylar kengayib, aholining katta qismiga turar joy sifatida berilgan. Hozirda bu yodgorliklar 1 ta ark va 2 ta mayda tepalik saqlanib qolgan. Arkning maydoni 1,7 ga teng bo'lib, undagi madaniy qatlamning uzunligi 6,5 metr ga teng. Sortepa to'rt tomondan qalin paxsa devor bilan o'rab olingan. Arxeologik qazishmalar natijasida 3ta qurilish davriga oid me'moriy qoldiqlar va ashyoviy dalillar aniqlangan. Yodgorlik VIII asr boshlariga qadar odam yashab kelgan hudud hisoblanadi.

1974-1975-yillarda Andijon viloyati o'lkashunoslik muzeyidan bir guruh arxeolog-olimlar, qadimshunoslar kelib Sortepada qazishma ishlari olib borishgan. Ularga olim Baxtigul Abdulg'oziyeva boshchilik qilgan.

Sortepadan topilgan mehnat qurollari hamda sopol idishlar janubi-g'arbiy Tojikistondan topilgan “Hisor madaniyatiga” oid deb hisoblanib, Baliqchining paydo bo'lish tarixi eramizdan avvalgi III-II asrlarga to'g'ri keladi deyishgan. Sortepaning hozirgi kundagi yoshi 2200-2500 yillarga borib taqaladi. Bugungi kunda Sortepa Baliqchi tumanidagi 25 ta madaniy obyekt sifatida ro'yxatga olinganlar qatorida turibdi [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Baliqchi_tumani
2. Shukur Qurbon. Baliqchiliklar / Sh.Qurbon-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy nashriyoti, 2008. 20-b.
3. Olimov. N. Baliqchi tumani tarixi / N.Olimov // G'alaba. 2023. 26aprel.

4. Baliqchi 2023.Kitobxonga esdalik//10b
5. Baliqchi 2023.Kitobxonga esdalik//4b
6. Baliqchi 2023.Kitobxonga esdalik//11b
7. Baliqchi 2023.Kitobxonga esdalik//8b
8. Shukur Qurbon. Baliqchiliklar / Sh.Qurbon-Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy nashriyoti, 2008.

INSON ESHITISH QOBILIYATINI O‘RGANISH METODLARI

Ergasheva Ominaxon Soatjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika: logapediya yo‘nalishi 1-kurs

Anotatsiya: Ushbu maqolada inson eshitish qobiliyati va uning rivojlanishi uchun qo‘llaniladigan o‘quv metodlari haqida so‘z yuritiladi. Eshitish qobiliyatining fiziologik asoslari, uning ijtimoiy va ta’limiy ahamiyati, shuningdek, uni yaxshilashga qaratilgan zamonaviy usullar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: eshitish qobiliyati, o‘quv metodlari, ta’lim texnologiyalari, fiziologik jarayonlar, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются способности слуха человека и методы обучения, направленные на их развитие. Обсуждаются физиологические основы слуха, его социальное и образовательное значение, а также современные подходы к его улучшению.

Ключевые слова: слуховые способности, методы обучения, образовательные технологии, физиологические процессы, коммуникация.

Annotation: This article discusses human auditory abilities and the educational methods used to develop them. It explores the physiological basis of hearing, its social and educational significance, and modern approaches to improving it.

Key words: eshitish qobiliyati, o'quv metodlari, ta'lim texnologiyalari, fiziologik jarayonlar, kommunikatsiya.

Eshitish qobiliyati insonning muhim sensor funksiyalaridan biri bo'lib, nutqni tushunish, atrof-muhit haqida axborot olish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada inson eshitish qobiliyati va uni rivojlantirishga oid o'quv metodlari haqida so'z yuritamiz.

Eshitish qobiliyati: Asosiy tushunchalar Eshitish qobiliyati insonning quloqlari orqali tovush signallarini qabul qilib, ularni miyada qayta ishlash jarayonidir. Ushbu jarayon ikki asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Tovushni qabul qilish – quloqning anatomik tuzilmalari tovushlarni tutib oladi va nerv impulslariga aylantiradi.

2. Tovushni qayta ishlash – miyada tovush signallari tahlil qilinadi va ular ma'no kasb etadi. Eshitish qobiliyati ma'lum darajada genetik va biologik omillarga bog'liq bo'lsa-da, uni rivojlantirish va o'rganish qobiliyatini oshirish uchun turli metodlardan foydalanish mumkin.

Eshitish qobiliyatini rivojlantirish metodlari

Tinglab o'rganish metodlari

Tinglash qobiliyati bilim olishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Quyida ushbu qobiliyatni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan asosiy metodlar keltirilgan:

Faol tinglash texnikasi: O'quvchilardan biror mavzuni diqqat bilan tinglash va keyinchalik uni tahlil qilish so'raladi. Bu jarayon tinglangan ma'lumotni chuqur tushunishga yordam beradi.

Qayta hikoya qilish: Tinglangan matn yoki hikoyani qayta hikoya qilish eshitgan ma'lumotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Notalar asosida mashq qilish: Musiqiy tovushlarni ajratib eshitish qobiliyati rivojlantiriladi, bu esa eshitish sezgirligini oshiradi.

2. Eshitishni faol tinglash usullari bilan uyg'unlashtirish

O'quv jarayonida multimodal yondashuvlarni qo'llash samarali hisoblanadi. Masalan:

Audio kitoblardan foydalanish: Talabalarga audiokontent taklif qilinadi va ular tinglangan material asosida savollarga javob beradilar.

Dialog va munozaralar: Talabalar o'zaro suhbatlashish orqali nafaqat o'z fikrlarini ifodalashni, balki boshqalarning fikrini tushunishni ham o'rganadi.

Xulosa. Inson eshitish qobiliyati hayotning ajralmas qismi bo'lib, atrof-muhitni idrok etish, kommunikatsiya o'rnatish va o'qish-tushunish jarayonlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolada eshitish qobiliyatining fiziologik asoslari, uning ta'lim jarayonidagi o'рни va uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy metodlar muhokama qilindi. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish, individual yondashuvlarni joriy etish va interaktiv mashg'ulotlarni tashkil etish zarur. Shuningdek, eshitish qobiliyatida muammolari bo'lgan shaxslar bilan ishlashda maxsus reabilitatsiya va trening usullarini qo'llash muhimdir. Kelgusida ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borish, yangi metodikalar yaratish va texnologiyalardan kengroq foydalanish ta'lim sifatini oshirishda asosiy vositalardan biri

bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu, nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyatda ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov, R. (2018). Eshitish qobiliyati fiziologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Karimov, F. (2020). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
3. Usmonova, N. (2021). O'quv jarayonida eshitish va kommunikatsiya. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
4. Soliyev, M. (2019). Eshitish qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 4(3), 25–30.
5. Nazarova, Z. (2023). Psixologik jarayonlar va ta'limda eshitishning ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
6. Anderson, S., & Kraus, N. (2018). Auditory training: Principles and practices. Hearing Research, 367, 88–96.
7. Moore, B. C. J. (2012). An Introduction to the Psychology of Hearing (6th ed.). Bingley: Emerald Group Publishing Limited.
8. Gagne, J. P., & Jennings, M. B. (2011). Audiologic rehabilitation: Current challenges and future directions. International Journal of Audiology, 50(Suppl 1), S2–S12.
9. Clark, J. G., & English, K. M. (2019). Counseling-Infused Audiologic Care. San Diego: Plural Publishing.
10. Plomp, R. (2013). The Intelligent Ear: On the Nature of Sound Perception. Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates.

FUNKSIONAL QATORNI HADLAB INTEGRALLASH VA DIFFERENSIALLASHDAN FOYDALANIB BA'ZI BIR SONLI QATORLAR YIG'INDISINI TOPISH METODLARI

Jo'raxonov Asadillo Hasanboy o'g'li

Namangan davlat pedagogika instituti

E-mail: Joraxonovasadillo96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada funksional qatorlarni hadlab integrallash va differensiallash usullaridan foydalanib, ayrim sonli qatorlar yig'indisini topish metodlari tahlil qilinadi. Funksional qatorlarning xossalari o'rganilib, ularni sonli qatorlarga qo'llash orqali yangi natijalar keltirib chiqariladi. Xususan, funksional qatorlarni hadlab integrallash va differensiallash orqali ba'zi sonli qatorlarning yig'indisini topish metodlari ko'rsatiladi hamda ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun aniq misollar keltiriladi. Mazkur usullar sonli qatorlarning yig'indisini hisoblashda samarali yondashuv sifatida ko'rib chiqiladi.

Annotatsion: This article analyzes methods for finding the sum of certain numerical series using term-by-term integration and differentiation of functional series. The properties of functional series are studied, and new results are obtained by applying them to numerical series. In particular, methods for determining the sum of some numerical series through term-by-term integration and differentiation of functional series are presented, along with concrete examples to address related problems. These methods are considered an effective approach for calculating the sum of numerical series.

Аннотация: В данной статье анализируются методы нахождения суммы некоторых числовых рядов с использованием почленного интегрирования и дифференцирования

функциональных рядов. Исследуются свойства функциональных рядов, и на основе их применения к числовым рядам получены новые результаты. В частности, представлены методы определения суммы некоторых числовых рядов через почленное интегрирование и дифференцирование функциональных рядов, а также приведены конкретные примеры для решения связанных задач. Данные методы рассматриваются как эффективный подход к вычислению суммы числовых рядов.

Kalit soʻzlar: limit, tekis yaqinlashuvchiligi, summa, toʻplam, segment, geometrik progressiya, aniq integral, differensiallash.

Keywords: limit, uniform convergence, sum, set, segment, geometric progression, definite integral, differentiation.

Ключевые слова: предел, равномерная сходимость, сумма, множество, отрезок, геометрическая прогрессия, определенный интеграл, дифференцирование.

Kirish.

Sonli qatorlar matematikaning turli sohalarida, jumladan, analiz, sonlar nazariyasi, va fizikada keng qoʻllaniladi. Qatorlar yigʻindisini hisoblash muammosi koʻpincha qiyin va noaniq vaziyatlarga olib keladi. Shuning uchun qatorlarning yigʻindisini aniqlash uchun turli metodlar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada funksional qatorlarni hadlab integrallash va differensiallash usullaridan foydalanish orqali sonli qatorlarning yigʻindisini topish metodlari koʻrib chiqiladi.

Funksional qatorlar bilan bogʻliq yondashuvlar oddiy algebraik metodlarga nisbatan koʻproq qulayliklar taqdim etadi, chunki ularning yordamida qatorlarning murakkab xossalarini tahlil qilish mumkin. Xususan, qatorlarni integrallash va differensiallash orqali ularning

yigʻindisini aniqlash usullari sonli qatorlarni chuqurroq tushunishga va murakkab hisoblashlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Maqolaning asosiy maqsadi – qatorlar yigʻindisini topishda funksional qatorlarni hadlab integrallash va differensiallash metodlarini qoʻllash boʻyicha nazariy hamda amaliy jihatlarni oʻrganish va ushbu metodlarning samaradorligini koʻrsatishdir. Biz birinchi oʻrinda funksional qatorning tekis yaqinlashuvchanligi haqida maʼlumotga ega boʻlishimiz kerak boʻladi.

1. Funksional qatorning tekis yaqinlashuvchanligi. Aytaylik,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x) + \dots$$

Funksional qator E_0 toʻplamda yaqinlashuvchi (yaʼni qatorning yaqinlashish toʻplami E_0) boʻlin yigʻindisi $S(x)$ boʻlsin:

$$S_n(x) \rightarrow S(x) \quad (x \in E_0) \quad (1)$$

Bunda, $S_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x)$ (1) munosabat,

$$\forall \varepsilon > 0, \forall x \in E_0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon, x) \in N, \forall n > n_0: |S_n(x) - S(x)| < \varepsilon$$

boʻlishini bildiradi.

$$\text{Agar } E_0 \text{ toʻplamda } S_n(x) \rightrightarrows S(x) \quad (x \in E_0)$$

yaʼni,

$$\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in N, \forall n > n_0, \forall x \in E_0: |S_n(x) - S(x)| < \varepsilon$$

boʻlsa, $\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x)$ funksional qator E_0 toʻplamda **tekis yaqinlashuvchi deb ataladi.**

Agar

$$r_n(x) = S(x) - S_n(x),$$

deyilsa funksional qatorning E_0 toʻplamda tekis yaqinlashuvchiligini quyidagicha

$$r_n(x) \rightrightarrows 0 \quad (x \in E_0),$$

yaʼni

$$\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in N, \forall n > n_0, \forall x \in E_0: |r_n(x)| < \varepsilon$$

Ko'rinishda ta'riflash mumkin bo'ladi.

Shunday qilib,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x) + \dots$$

Funksional qator, uning qisman yig'indisi,

$$S_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x)$$

va yig'indisi $S(x)$ uchun

$$S_n(x) \rightarrow S(x) \quad (x \in E_0)$$

bo'lsa, funksional qator E_0 da yaqinlashuvchi bo'ladi.

2. Funksional qatorlarni hadlab integrallash. Faraz qilaylik $[a, b]$ segmentda

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x) + \dots \quad (2)$$

funksional qator berilgan bo'lsin.

1-teorema. Aytaylik, (1) qator quyidagi shartlarni bajarsin:

1) qatorning har biri $\theta_n(x)$ ($n=1,2,3,\dots$) hadi $[a, b]$ segmentda uzluksiz,

2) $\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x)$ qator $[a, b]$ segmentda tekis yaqinlashuvchi,

3) $\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = S(x)$.

U holda $\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt = \int_a^x \theta_1(t) dt + \int_a^x \theta_2(t) dt + \dots$

qator $[a, b]$ da yaqinlashuvchi va

$$\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt = \int_a^x S(t) dt \quad (x \in [a, b])$$

bo'ladi.

Berilgan funksional qatorning qisman yig'indisi

$$S_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x)$$

ni olamiz. Bunda teoremaning 2)- va 3)- shartlariga ko'ra

$$S_n(x) \Rightarrow S(x). \quad (x \in [a, b])$$

bo'ladi. Tekis yaqinlashish shartiga binoan

$$\forall \varepsilon > 0, \exists n_0 = n_0(\varepsilon) \in \mathbb{N}, \forall n > n_0 \text{ va } \forall t \in [a, b] \text{ da}$$

$$|S_n(t) - S(t)| < \frac{e}{b-a}$$

tengsizlik bajariladi.

Teoremaning 1) – shartidan hamda yuqorida isbot qilingan 1-teoremadan foydalanib

$$\int_a^x \theta_n(t) dt \quad (n = 1, 2, 3, \dots), \quad \int_a^x S(t) dt$$

Integrallarni mavjudligini topamiz.

Ushbu

$$\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt = \int_a^x \theta_1(t) dt + \int_a^x \theta_2(t) dt + \dots + \int_a^x \theta_n(t) dt + \dots$$

funksional qatorni qaraymiz. Bu qatorning qisman yig'indisi

$$S_n(x) = \sum_{k=1}^{\infty} \int_a^x \theta_k(t) dt \quad (x \in [a, b])$$

bo'lsin. Ravshanki ,

$$\sum_{k=1}^{\infty} \int_a^x \theta_k(t) dt = \int_a^x (\sum_{k=1}^{\infty} \theta_k(t)) dt$$

Demak,

$$S_n(x) = \int_a^x S_n(t) dt$$

Endi

$$\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt$$

Funksional qatorning $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchiligini ko'rsatamiz.

$$|S_n(x) - \int_a^x S(t) dt|$$

Ayirma uchun

$$|S_n(x) - \int_a^x S(t) dt| = \left| \int_a^x S_n(t) dt - \int_a^x S(t) dt \right| \leq \int_a^x |S_n(t) - S(t)| dt < \frac{e}{b-a} \int_a^x dt = \frac{e}{b-a} (x - a) < e$$

bo'ladi. Demak,

$$S_n(x) \Rightarrow \int_a^x S(t) dt \quad (x \in [a, b])$$

Bu esa

$$\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt$$

Funksional qatorni $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchiligi va

$$\sum_{n=1}^{\infty} \int_a^x \theta_n(t) dt = \int_a^x S(t) dt$$

bo'lishini bildiradi.

Keltirilgan teoremaning shartlari bajarilganda teoremaning tasdig'ining quyidagicha

$$\sum_{k=1}^{\infty} \int_a^x \theta_k(t) dt = \int_a^x (\sum_{k=1}^{\infty} \theta_k(t)) dt$$

ifodalash mumkin.

3. Funksional qatorlarni hadlab differensiallash. Faraz qilaylik, $[a, b]$ segmentda

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x) + \dots \quad (3)$$

funksional qator berilgan bo'lsin.

2-teorema. Aytaylik, (2) funksional qator quyidagi shartlarni bajarsin:

1) qatorning har biri $\theta_n(x)$ ($n = 1, 2, 3, \dots$), hadi $[a, b]$ segmentda uzluksiz $\theta_n'(x)$ ($n = 1, 2, 3, \dots$), da hosilaga ega,

2) Ushbu,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n'(x) = \theta_1'(x) + \theta_2'(x) + \dots + \theta_n'(x) + \dots$$

Funksional qator $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi,

3) $x \in [a, b]$ nuqta mavjudki,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \theta_1(x) + \theta_2(x) + \dots + \theta_n(x) + \dots$$

qator yaqinlashuvchi. U holda

a) $\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x)$ funksional qator $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi

b) bu qatorning yig'indisi

$$S(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x)$$

$[a, b]$ da uzluksiz $S'(x)$ hosilaga ega,

c) $S'(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n'(x)$ bo'ladi.

Ushbu, $\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n'(x)$ qatorning yig'indisini $\sigma(x)$ deb belgilaylik:

$$\sigma(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n'(x) \quad (4)$$

Bu qator tekis yaqinlashuvchi bo'ladi va har bir hadi $[a, b]$ da uzluksiz. Yuqorida keltirilgan 2-teoremaga ko'ra (3) ni hadlab integrallash mumkin;

$$\int_{x_0}^x \sigma(x) dx = \sum_{n=1}^{\infty} \int_{x_0}^x \theta_n'(x) dx,$$

Bunda $x_0 \in [a, b]$, $x \in [a, b]$. Ayni paytda, $\sum_{n=1}^{\infty} \int_{x_0}^x \theta_n'(x) dx$ funksional qator $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi bo'ladi.

Ma'lumki,

$$\int_{x_0}^x \theta_n(x) dx = \theta_n(x) - \theta_n(x_0).$$

Demak, $\sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x) - \theta_n(x_0))$ qator $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi.

Shartga ko'ra , $\sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x_0))$

Qator yaqinlashuvchi (uni $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi deb qarash mumkin).

Shunday qilib

$$\sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x) - \theta_n(x_0)), \sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x_0))$$

Qatorlar $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchi bo'ladi. Bundan esa bu qatorlar yig'indisi bo'lgan

$$\sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x_0))$$

funksional qatorning $[a, b]$ da tekis yaqinlashuvchiligi kelib chiqadi. Shuni e'tiborga olib topami:

$$\int_{x_0}^x \sigma(x) dx = \sum_{n=1}^{\infty} (\theta_n(x) - \theta_n(x_0)) = \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) - \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x_0) = S(x) - S(x_0).$$

$\sigma(x)$ funksiya, har bir hadi uzluksiz, o'zi tekis yaqinlashuvchi

$$\sum_{n=1}^{\infty} \theta_n'(x)$$

Qatorning yig'indisi bo'lgani uchun 1-teoremaga ko'ra, $[a, b]$ da uzluksiz bo'ladi

Unda keyingi tenglikdan

$$\sigma(x) = (S(x) - S(x_0))' = S'(x)$$

bo'lishi kelib chiqadi.

Bu keltirilgan teoremaning shartlari bajarilganda uning tasdiqini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{d}{dx} \sum_{n=1}^{\infty} \theta_n(x) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{d}{dx} \theta_n(x).$$

1-Misol: Ushbu

$$\sum_{n=1}^{\infty} \ln \frac{(n+1)(n+v)}{(n)(n+v+1)} \quad (0 \leq v \leq \infty)$$

funksional qatorning yig'indisi topilsin. Ma'lumki,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{(n+v)(n+v+1)}$$

Funksional qator $[0, +\infty)$ da tekis yaqinlashuvchi bo'lib, uning yig'indisi

$$S(v) = \frac{1}{(v+1)}, \quad \text{ga teng,} \quad \frac{1}{(v+1)} = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{1}{(n+v)(n+v+1)},$$

Ma'lumki, bu qatorning har bir hadi $[0, +\infty)$ da da uzluksiz. Demak, uni 2-teoremaga ho'ra hadlab integrallash mumkin:

$$\int_0^v \frac{dt}{(t+1)} = \sum_{n=1}^{\infty} \int_0^v \frac{dt}{(n+t)(n+t+1)}$$

Aniq integralni hisoblaymiz:

$$\int_0^v \frac{dt}{(t+1)} = \ln(t+1) \Big|_0^v = \ln(v+1),$$

$$\int_0^v \frac{dt}{(n+t)(n+t+1)} = \int_0^v \left(\frac{1}{n+t} - \frac{1}{n+t+1} \right) dt = \ln(n+t) \Big|_0^v - \ln(n+t+1) \Big|_0^v = \ln \frac{(n+1)(n+v)}{(n)(n+v+1)}.$$

$$\text{Demak,} \quad \sum_{n=1}^{\infty} \ln \frac{(n+1)(n+v)}{(n)(n+v+1)} = \ln(v+1).$$

2-Misol: $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{n}{4^n}$ yig'indini hisoblang.

Bu funksiya tekis kamayuvchi bolgani uchun yigindini hisoblashimiz mumkin.

Biz bunda $\frac{1}{4}$ ni x deb belgilab olamiz, $x = \frac{1}{4}$

$$\varphi(x) = \sum_{n=1}^{\infty} n \cdot x^n = x \cdot \sum_{n=1}^{\infty} n \cdot x^{n-1}$$

Ko‘rinishda yozib olamiz va $\omega(x) = \sum_{n=1}^{\infty} n \cdot x^{n-1}$ shu yig‘indini hisoblab olamiz:

Buning uchun biz tenglikni ikkala tomonini ham integrallab yuboramiz.

$\int_0^x \omega(x) dx = \int_0^x \sum_{n=1}^{\infty} n \cdot x^{n-1} dx$, $w(x) = \sum_{n=1}^{\infty} x^n = x + x^2 + \dots + x^n + \dots$, $x = \frac{1}{4}$ ekanligidan yigindini cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya ekanligini bilishimiz mumkin va yig‘indisini topish fo‘rmulasiga qoyamiz.

$$\sum_{n=1}^{\infty} x^n = x + x^2 + \dots + x^n + \dots = \frac{x}{1-x} \quad \text{ga teng,}$$

$$w(x) = \frac{x}{1-x}, \quad \omega(x) = \frac{1-x+x}{(1-x)^2}, \quad \omega(x) = \frac{1}{(1-x)^2}$$

$$\varphi(x) = x \cdot \sum_{n=1}^{\infty} n \cdot x^{n-1} = x \cdot \omega(x), \quad \varphi(x) = \frac{x}{(1-x)^2} \quad \text{bu yerda } x = \frac{1}{4}$$

edi,

$$\text{Demak, } \varphi\left(\frac{1}{4}\right) = \frac{\frac{1}{4}}{(1-\frac{1}{4})^2} = \frac{4}{9}. \text{ Javob: } 4/9.$$

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada funksional qatorlarni hadlab integrallash va differensiallash usullaridan foydalangan holda ba’zi sonli qatorlarning yig‘indisini topish metodlari ko‘rib chiqildi. Funksional qatorlarning xossalari tahlil qilinib, ularni sonli qatorlarga qo‘llash orqali yangi natijalar olish mumkinligi ko‘rsatildi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, geometrik va trigonometrik qatorlarni samarali va aniq hisoblashda foydali ekanligi isbotlandi.

O‘rganilgan usullar sonli qatorlarni hisoblashda qulay va samarali vosita bo‘lib, murakkab qatorlarning yig‘indisini aniqlashda o‘z o‘rniga ega. Ushbu metodlar kelajakdagi tadqiqotlarda qatorlar nazariyasini rivojlantirish va boshqa matematik sohalarda qo‘llash uchun imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umirzaqova, K. O. (2020). PERIODIC GIBBS MEASURES FOR HARD-CORE MODEL. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 67-73.
2. Hakimov, R. M. (2019). IMPROVEMENT OF ONE RESULT FOR THE POTTS MODEL ON THE CALEY TREE. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(6), 3-8.
3. Qahramon o‘g, O. K. I., Hasanboy o‘g, J. R. A., & Hasanboy o‘g, X. J. R. (2024). ANIQ INTEGRAL YORDAMIDA BA’ZI BIR LIMITLARNI HISOBLASH METODLARI. *JOURNAL OF THEORY, MATHEMATICS AND PHYSICS*, 3(6), 23-27.
4. Уктамалиев, И. К. (2022). О предгеометриях конечно порожденных коммутативных полугрупп. In *МАЛЬЦЕВСКИЕ ЧТЕНИЯ* (pp. 166-166).
5. Уктамалиев, И. К. (2022). О числе счётных моделей аддитивной теории натуральных чисел.
6. Уктамалиев, И. К. О РАСПРЕДЕЛЕНИЯХ СЧЕТНЫХ МОДЕЛЕЙ ТЕОРИЙ МОНОИДОВ НАТУРАЛЬНЫХ ЧИСЕЛ. c *Composite authors, 2023 c Novosibirsk State Technical University, 2023*, 151.

KOMPLEKS SONLAR NAZARIYASINING HAYOTGA TATBIQI

Jo'raboyeva Ruxshona Sobirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Matematika yo'nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: jorabouevaruxshona@gmail.com

Raqam: +99893 254 05 15

Ilmiy rahbar: Maxsudova Shohsanam

Annotatsiya: Ushbu maqola kompleks sonlarning o'rganish tarixi va hayotiy ahamiyatini ko'rsatib beradi. Kompleks sonlarning algebraik va geometrik tariflari, xossalarini tushunish, turli matematik masalalarni kompleks sonlar yordamida hal qilish imkoniyatini beradi. Kompleks sonlar nazariyasi, shuningdek, matematik analiz, integral hisob va fizikada turli hodisalarni modellashtirishda qo'llaniladi. Kompleks sonlar elektr va magnit maydoynlarini tasvirlashda, signallarni qayta ishlash, kontrol tizimlarini tahlil qilishda qanday foydalanilganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Kompleks sonlar, tartiblangan juftlik shakli, geometrik shakli, trigonometrik shakli, Eyler formulasi, mavhum sonlar, haqiqiy sonlar, kvadrat tenglama, elektronika, signallar, diferensial, molikulyar biologiya, avtomatika

Annototion: This article is about the history of the study of complex numbers life shows the importance. Algebraic and geometric of complex numbers, complex numbers of carious mathematical problems to understand the properties of reefs provides the ability to solve with the help of, complex number theory, that also, the modul of various phenomena in mathematical analysis, integral calculus and physus it is usid in the hog. Complexnumber tas electrecal and magnetizm how to do

in viralization, signal processing, analysis of control systems indicates used.

Keyword: Complex numbers, ordered pair form, geometric form, trigono-metric form, Euler formula, imaginary numbers, realisations, square equation, electronic, signals, differential, molecular biology, automation.

Аннотация: Эта статья посвящена истории изучения и жизненно важных функций комплексных чисел показывает важность. Алгебраические геометрические свойств комплексных чисел в различных математических задачах дает возможность решить с помощью. Теория комплексных чисел, моделирование различных явлений в математическом анализе, интегральном исчислении и физике используется в плавлении. Комплексные числа описывают электрическим и магнитные поля как при вирилизации, обработке сигналов, анализе систем управления показывает использование.

Ключевые слова: Комплексные числа, упорядоченная пара, геометрическая форма, тригонометрическая форма, формула Эйлера, мавхим числа, действительные числа, квадрат равнение, электроника, сигналы, дифференциал, молекулярная биология, автоматизация.

Kirish qismi

Kompleks sonlar nazariyasi matematikada juda muhim tarixiy rivojlanishga ega. Dastlab, kompleks sonlar asosan " i " haqiqiy sonlar orasida mavjud bo'lmagan birlikni ifodalovchi sonlar sifatida ko'rib, ular haqiqiy sonlar ustida amallar bajarishgan. Ammo bu matematik modelda noaniqlik va cheklov keltirib chiqargan. 1545-yilda italiyalik olim Gerolamo Cardano va Rafael Bombelli kabi olimlar kvadrat

tenglamaning yechimlari uchun kompleks sonlardan foydalana boshlashdi. Masalan, $x^2+1=0$ tenglama haqiqiy sonlar to'plamida hech qanday yechimga ega emas, chunki haqiqiy sonlarning kvadrati manfiy son emas. Lekin olimlar $i^2=-1$ sonini aniqlashdi. John Wallis kompleks sonlar va ularning algebraik xususiyatlarini tadqiq qildi. Isaak Nyuton o'zining "Analitica" asarida kompleks sonlarning algebraik yechimlari sifatida muhimligini ko'rsatdi. Karl Friedrich Gaus 1799-yil kompleks sonlarning geometrik talqini rasmiylashtirdi va ularni kompleks tekislikda tasvirlashni boshladi. U kompleks sonlarni haqiqiy sonlarning kengaytmasi sifatida ko'rsatdi. Cauchy kompleks funksiyalarni, integral va differensial hisoblashni rivojlantirdi.

Asosiy qism

Kompleks sonlarni turli shakllarda ifodalash mumkin. Masalan, algebraik, geometrik, trigonometrik, tartiblangan juftlik va boshqa shakllarda. Kompleks son $z=x+iy$ ko'rinishida ifodalanishi algebraik shakl bir-biriga teng deyiladi. x va y haqiqiy sonlar, i esa mavhum birlik. x haqiqiy songa z kompleks sonning haqiqiy qismi, y haqiqiy songa z kompleks sonning mavhum qismi deyiladi va $x=\text{Rez}$ $y=\text{Im}z$ kabi belgilanadi. Ikkita $z_1=x_1+iy_1$ va $z_2=x_2+iy_2$ kompleks sonlar berilgan bo'lib, $x_1=x_2$, $y_1=y_2$ bo'lsa, unda kompleks sonlar bir-biriga teng deyiladi. $z_1=x_1+iy_1$ va $z_2=x_2+iy_2$ berilgan bo'lib ularning ustida arifmetik amallarni bajarish mumkin. Haqiqiy va mavhum sonlarni topish quyidagi misol namuna bo'ladi. Masalan, $(x-8i)+(y-3)i=1$ berilgan bo'lsa, $x-8i+yi-3i$ dan i birligi bor hadlarni alohida qavsda yozamiz $x-(11-y)i=1$ tenglamaning chap tarafida mavhum son 0ga teng, shuning uchun $y-11=0$, $y=11$, $x=1$ ga teng.

$z=a+bi$, ko'rinishidagi ifodada a va b sonlar o'zining qat'iy joylashi o'rniga ega bo'lgani uchun (a,b) tartiblangan juftlik ko'rinishida ifodalash

mumkin. $z=a+bi$ kompleks son berilgan bo'lsin. Bu kompleks songa mos keluvchi tekislikdagi $A(a,b)$ nuqta berilgan sonning geometrik tasviri deyiladi. Agar tekislikdagi dekart koordinatalar sistemasiga qutb koordinatalar sistemasini joylashtirsak va qutb boshi O nuqta bilan ustma-ust tushsa, u holda qutb o'qi va radius vektor orasidagi ϕ burchak radius vektor bilan birgalikda kompleks sonni ifodalaydi. $z=(r,\phi)$ kompleks sonning qutb tekislikdagi ifodasi hosil bo'ladi. ϕ burchakning qiymati kompleks sonning qaysi koordinata choragida joylashishiga qarab o'zgaradi. Kompleks sonning geometrik tasviridan foydalanib, uning trigonometrik shaklini hosil qilinadi. $\sin\phi=b/r$, $\cos\phi=a/r$ dan burchakni topadigan bo'lsak. $z=a+bi=r(\cos\phi+i\sin\phi)$ bu ifoda berilgan sonning trigonometrik shakli deyiladi. Har $z=a+ib$ son uchun $z=(r,\phi)$ sonlar 1 qiymatli aniqlanganligi uchun berilgan kompleks sonning trigonometrik shakli yagona usulda aniqlanadi. Kompleks sonlarni darajaga ko'tarish uchun Eylor formulasidan foydalanamiz. $Z=re^{i\phi}$ ushbu formula Eylor formulsi. Kompleks sonlar fizika, muhandislik, elektronika, kompyuter fanlari va boshqa sohalarda keng qo'llaniladi. Elektronika va signalni qayta ishlashda kompleks sonlar, ayniqsa, elektr tarmoqlarida signalni tahlil qilishda va to'lqinlarning shaklini aniqlashda muhim ro'l o'ynaydi. Masalan, to'lqinlarning fazasi va amplitudasini kompleks sonlar yordamida ifodalash mumkin. Kvantil fizikasi va kvant mexanikasida kompleks sonlar to'g'ridan-to'g'ri tizimlarni tavsiflashda ishlatiladi. Matematik va diferensial tenglamalarni yechish osonlashadi. Masalan, dinamik tizimlarning yoki elektr tizimlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini tahlil qilishda kompleks sonlar ishlatiladi. Molekulyar biologiya va kimyoda kompleks sonlar molekulalar reaksiyasining o'zgarishini modellashtirishga yordam beradi. Masalan, kimyoviy reaksiya tezligini o'rganish yoki

molekulalarning kvant holatini aniqlashda yordam beradi. Iqtisodiyot modellashtirish va statistik tahlil qilishda ham kompleks sonlar yordamida tizimlarni tushunishga imkon beradi. Masan, vaqt seriyalarni pragnozlash va aksiyalarni tahlil qilishda kompleks sonlar zarur. Avtomatikada va boshqaruvda kompleks sonlar boshqaruv tizimlarini nazorat va tahlil qilishda signalni filtrlash va stabilizatsiyalashda muhim. Laplas transformasi va z-transformasi kabi matematik metodalar kompleks sonlar yordamida tizimlarning xatti-harakatlarini modellashtirishda ishlatiladi. Bundan tashqari kompleks sonlarni hayotga tatbiqini ko'radigan bo'lsak kompleks sonlar mobil telefonlarda signalni tahlil qilish va uzatish jarayonlarida qo'llaniladi. Bu jarayon muloqot kanali va signal sifatini aniqlaydi. Hozirgi kunda raqamli axborotlarni inson hayotida ahamiyati katta. Televizor, internet uzatish tizimlari va radio signal uzatishda kompleks sonlar to'lqinlarning chastotasini tahlilini amalga oshiradi. Bu orqali yuqori sifatli ma'lumot uzatish imkoni yaratiladi. Kompleks sonlar ultratovush va tamagrafiya kabi texnologiyalarda qo'llaniladi. Ultrasonofografiya va diagnostika tejshiruv natijasida organlarni holatini aniqroq, yuqori sifatda ko'rib, tahlil qilibga yordam beradi. Kompleks sonlar kompyuter o'yinlarida 3D grafiklar yaratishda ham keng qamrovli qo'llaniladi

Xulosa. Kompleks sonlar ilmiy-nazariy sohalaridagina emas, hayotiy amaliyotda ham o'z ahamiyatiga ega. Yuqorada ko'rsatib o'tilganidek, avtomatika va boshqaruv, elektronika va signalni qayta ishlash, matematik va differensial tenglamalarni ishlash, kvant fizikasi, iqtisod va moliya kabi sohalarida keng ko'lamda samarali ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arif, R.(1957)Complex Number Their Applications Journal of Mathematical Physise, 25(6) 345-356

2. T.T. To'ychiyev, J.K.Tishabayev, D.X.Djumabayev, A.M.Kitmanov. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi fanidan mustaqil ishlar. Toshkent (2018) “Mumtoz so'z” jurnali
3. Maxsudova, S. (2024). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 646-649.
4. Jalilov, A. va Saidov, N. (2016). Diskret matematika asoslari. Toshkent: Ilm Ziya nashriyoti.
5. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). DIFFERENSIAL TENGLAMALAR FANINI O'QITISHDA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINING NAZARIY TAHLILI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(12), 74-78.
6. Ravshanov, Sh. va Abdurahmonov, H. (2020). Abstrakt algebra. Toshkent: Universitet nashriyoti.
7. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). ISSUES OF TEACHING MATHEMATICS IN SECONDARY SCHOOLS. In Archive of Conferences (pp. 69-70).
8. Toshpòlatov,M va Ahmedov,I. (2019) Sonlar nazariyasi va algebra. Toshkent:Fan nashriyoti
9. Maxsudova, S. (2020). ON A BOUNDARY PROBLEM FOR AN EQUATION OF SHIFTED TYPE WITH DIFFERENT ORDERS OF DEGENERACY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 36-39.
10. Yo'ldoshev, B. va boshqalar. (2018). Matematik mantiq va to'plamlar nazariyasi. Toshkent: Universitet nashriyoti.

11. Abdurahmonova, D., & Maxsudova, S. (2024). INTERAKTIV DARSLAR ORQALI BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI OSHIRISH. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 520-524.

12. Saydullayeva, G. (2024). Matematika o'qituvchisining pedagogik mahorati va kasbiy sifatlari. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 528-530.

ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'L PON HIKOYALARINING POETIK XUSUSIYATLARI

Jo'rayeva Barno Alisher qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

barnojurayeva2005@gmail.com

Ilmiy rahbar: Egamberdiyeva Shamsiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'tkan asrning yorqin namoyondalari, millatimiz qahramonlari bo'lmish jadid allomalarimiz asarlaridagi poetik xususiyatlar, jumladan, Cho'lpon hikoyalarining badiiy tasvir vositalari, hikoyadagi frazeologik birliklar, asar kompozitsiyasi, syujet tuzilishi hamda timsollar yoritiladi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, yangilik, millatni yorug'lik sari yetaklash tarafdori bo'lmish Abdulhamid Cho'lponning insoniyatga adabiy hamda ijtimoiy ta'sirini uning asarlari orqali teran mushohada etamiz.

Annotation: In this article, the bright manifestations of the past century, the poetic features of the works of our modern scholars who are the heroes of our nation, including the means of artistic imagery, phraseological units in the story, the composition of the work, the structure of the plot, and symbols of Cholpon's stories are highlighted. To

be more specific, we will deeply observe the literary and social impact of Abdulhamid Cholpon on humanity, who is a supporter of innovation and leading the nation to light, through his works.

Kalit soʻzlar: poetika, badiiy til, milliy ruh, obraz, personaj, ramz, timsol, badiiy tasvir, modernism, realism, romantizm.

Key words: poetics, artistic language, national spirit, image, character, symbol, emblem, artistic image, modernism, realism, romanticism.

Kirish. Tarixdan barchamizga maʼlumki, millatimiz qadrini yuksaklarga koʻtargan bobolarimiz boʻlgan. Ular haqida soʻz yuritarkanmiz qalbimiz gʻurur-u iftixorga toʻlib toshishi tabiiydir. Abdulla Qodiriy. Ishoqxon Toʻra Ibrat, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat. Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Chʻolpon singari millatimiz yulduzlari taʼlim tarbiya tizimimizni isloh qilganlar. Har biri alohida-alohida tadqiqotlari, oʻzgacha innovatsion gʻoyalari bilan millat ravnaqiga hissa qoʻshgandirlar. Ulardan qolgan meʼrosni biz oʻqir ekanmiz, oʻsha davr muhiti, aholi hissiy kechinmalari, erkinlik, adolat, sevgi kabi muqaddas qadriyatlar qanchalik toptalganinini bilib olishimiz shubhasizdir. “Adabiyot va sanʼatga, madaniyatga eʼtibor bu, avvalo, xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor ekanini, buyuk shoirimiz Choʻlpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, milat yashashi mumkinligini unutishga bizning also haqqimiz yoʻq”[1]. Abdulhamid Sulaymon 1897-yili Andijon viloyatida dunyoga kelgan. Dastlabʼ madrasada soʻngra rus-tuzem maktabida taʼlim oladi. Sharq mumtoz shoirlarining ijodini mutolaa qilish, matbuotni kuzatish orqali oʻz ijtomoiy-siyosiy bilimlarini oshirgan. Mashhur asarlari: “Kecha va Kunduz”, “Novvoy qiz”, “Oydin kechalar”, “Qor qoʻynida lola”. Xalqning oʻsha davrdagi ahvolini shu darajada yaxshi bilganki, asarlari har bir oʻquvchisiga yetarlicha taʼsir

eta oladi. Adibning she’rlari ham o’ziha xos ma’no kasb etgan. “Go’zal”, “Sezgi”, “Sirlardan”, “Men shoirmi?” kabi she’rlari barmoq vazniga asoslangan yangi o’zbek she’riyatini yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Cho’lpon nasriy ijodida biz ko’proq publitsistik namunalarni uchratishimiz mumkin. Ko’plab ocherk va maqolalar yozib adabiy tanqidchilik vazifasini ham bajargandir. Uning badiiy asarlarida milarning ayanchli ahvoli tanqid ostiga olinib yoritiladi. Bunga misol qilib “Kecha va Kunduz” romanidagi Razzoq so’fining xarakter xususiyatlari qay darajada badiiy vositalardan foydalanib tanqidiy ruhda bayon etilganini olishimiz mumkin. Bu bilan millatda xuddi Razzoq so’fi kabilar ko’p ekanligi ta’kidlab o’tilgan hamda ularning ayanchli qismati ham ibrat bo’lg’usi darajasida berilgandir.

Jadidimizning yana bir asari “Qor qo’ynida lola”da ham xalqning ahvoli qisqacha aks ettirilgan. Abdulhamid Sulaymon o’g’li CHO’LPON qalamiga mansub “Qor qo’ynida lola” hikoyasida XX asrdagi ilmsiz johil insonlar hayoti aks ettirilgan. Samandar aka ismli savdogar inson bo’ladi. Uning Sharofat ismli 17-yoshli butun mahalla havas qiladigan qizi bo’ladi. Samandar qarzga botib savdogarlik qilmay qo’yadi va bekorchilikdan eshonning uyidan najot topadi. O’sha davrda dinni yaxshi bilmaydigan eshonlar ko’payib ketgan, xalqdan kelgan nazrlar hisobiga kun ko’radi. Samandar ham unga nimadir nazr qilishni o’ylab yurgan vaqtida Eshonnikidan qizi Sharofatga sovchilar keladi. Men eshonimga qizimni bermsam nima ish bo’ladi. Albatta beraman deydi. QOR QO’YNIDAGI LOLA-17yoshli Sharofatni bobosi tengi eshonga erga tegishidir.

Yosh Zebilar, Sharofatlarni umriga zomin boʻlgan asosiy sabab bu oʻsha davrdagi ilmsizlik, otalarning maʼnaviyati qashshoqligi, ayrim dinni niqob qilib olgan qabih eshonlarning nafsoniyatidir. Choʻlpon hikoyalari asosan fojiaiy, dramatik yoki realistik tarzda bayon etilgan. Jadidimiz asarlari poetik xususiyatlarini tadqiq etishda uning felyetonlari ham muhim oʻrin kasb etadi. Adibning “Qurboni Jaholat” hikoyasi badiiyatiga nazar soladigan boʻlsak unda ikki xil holatni oraga qoʻyib unga qahramon fikri va muallif tafakkuri uygʻunlashtirib uni kitobxonga boʻlgan taʼsirini oshirishga xizmat qiladi. Asarda hikoya qahramoni Eshmurodni uch maratoba gazeta oʻqib oʻtirgan paytini tasvirlash maqsadi ham oʻqiguvchiga ibrat boʻlishidir. Bir safar otasi unga “Ey ahmoq, gazitachilarning ishi-hamma vaqt aqcha topmoq. Gazitning soʻzini toʻgʻri boʻlmaydir, hamma yolgʻon narsalar... Bor, uydan “Jangnomayi Ahmad Zamji”ni olib chiqib bizga oʻqub ber!”-deya koyib beradi. Bu kabi oʻxshatishlari ham bejizga emas.”[2] Adabiyot yashasa, millat yashaydi” zamiridagi gapi isbotidir. Dilmurod Quronovning «Choʻlpon nasri poetikasi» kitobidagi aks ettirilgan choʻlpon ijodiyoti badiiyati ahamiyati yuqorida tilga olingan har ikki hikoya eʼlon qilinganida uchratganimiz «felyeton» soʻzi Choʻlponga taalluqli boʻlmay, balki gazeta tahririyatiga tegishli degan xulosaga kelish mumkin. Xuddi shu kabi hikoyalar “Qurboni jaholat”, “Doktor Muhammadiyor” kabilar yorqin yoritilgan. Oʻylashimiz mumkinki, jadid namoyondalari oʻz gazetalari orqali shu nom ostida rukn tashkil qilganlar-da, atamaning har ikki maʼnosini nazarda tutishgan.

Xulosa. Choʻlpon isteʼdodiga oid lirik nazokat va nafosat adib nasriy asarlarining ham oʻziga xosligini belgilab beradi. Choʻlpon qaysi mavzuga murojaat etmasin, badiiy voqelikni poetik til va obrazlar orqali oʻzida aʼlo darajada mujassamlantirishga erishdi. Choʻlpon bu

hikoyalarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini turli badiiy rejada tadqiq etar ekan, "Har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi," degan g'oyani bu asarlar aniq ifoda etgandir. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik nasriy asarlarining ham "Kecha va kunduz" romanining ham asosiy g'oyaviy yo'nalishini belgilab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Куронов Д. Чулпон насри поэтики. - Т.: «Шарк», 2004
2. D. Quronov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.- 160b
3. Karimov N. Cho'lpon. T.: Fan, 1991.
4. Cho'lponning badiiy olami (to'plam). Toshkent: Fan, 1994.
5. Murodov J. Cholpon haqida. Toshkent: Ohangaron Hayoti Gazetasi, 2014
6. To'lakov I. Cho'lpon mahorati.-Andijon. 1997
7. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati.-Toshkent:Ma'naviyat, 2011
8. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. IQRO, 2(2), 777-785.
9. Baxtiyorjon o'g'li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-

DAM OLIISH VA BEZOVTALIK: UYQUSIZLIK TA’SIRLARINI VA YAXSHI UYQU NAZIMLARINI O’RGANISH

Mansurova Makhfuza

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili

fakulteti 1-bosqich talabasi

E-mail: makhfuzanewyork@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zafar Dadabayev

Annotatsiya: Tana to’g’ri turishi uchun yetarli uyquni fiziologik salomatlik, psixologik salomatlik va kognitiv funktsiyalar uchun talab qiladi. Uyqusizlik ko’plab xatolarga olib kelishi mumkin, bu esa odamlar salomatligini xavf ostiga quyadi. Ushbu maqolada uyqu yetishmasligi odamlarga, xususan ,ularning fiziologik salomatligi va kognitiv funktsiyalariga qanday ta’sir qilishi va to’g’ri uyqi rejimiga rioya qilinsa, yetarli uyqu inson salomatligiga qanchalik bog’liqligi haqida ma’lumot beradi

Kalit so’zlar: Uyqusizlik, Alzgeymer kasaligi, Sharlotta Brotening bashoratli donoligi, koma holati, yetarli uyqu, uyqu tartibi.

Annotation: The body requires adequate sleep in order to maintain proper physiological health, psychological health, and cognitive function. Sleep deprivation can result in greater procedural errors, which places the people at risk. This article provides information on how will sleep deprivation affect people specifically their physiological health and cognitive function and How sufficient sleep relates to people’s health if followed to the right sleeping patterns.

Keywords: Sleep deprivation, Alzheimer’s disease, Charlotte Bronte’s prophetic wisdom, state of coma, adequate sleep, sleeping patterns.

Introduction.

Do you think you got enough sleep this past week? Can you recall the last time you woke up without an alarm clock feeling refreshed, not needing caffeine? If the answer to either of these questions is “NO”, you are not alone. Two-thirds of adults throughout all developed nations fail to obtain the recommended eight hours of nightly sleep.

Sleep is defined as naturally recurring state of mind and body characterized by altered consciousness, relatively inhibited sensory activity, inhabitation of nearly all voluntary muscles and reduced interaction with surroundings. Sleep is crucial for better brain function, an integral part of human health and life.

Sleep is a state of apparent coma. It resembles death at times when body lies still mind will be often filled with stunning bizarre hallucinations regularly. This state will consume 1/3 of a person’s life.

Sleep deprivation is defined as obtaining inadequate sleep to support adequate daytime alertness. Sleep deprivation inversely proportional to hours of sleep and it may have a substantial adverse effects on general health and quality of life. Consequences of sleep deprivation:

- Inadequate sleep – even moderate reductions just for one week – disrupts blood sugar levels so profoundly that you would be classified as pre-diabetic.
- Short sleeping increases the likelihood of your coronary arteries becoming blocked and brittle, setting you on a path toward cardiovascular disease, stroke and congestive heart failure
- Insufficient sleep is a key lifestyle factor determining whether or not you will develop Alzheimer’s disease.

- Fitting Charlotte Bronte's prophetic wisdom that a ruffled mind makes a restless pillow sleep disruption further contributes to all major psychiatric conditions, including depression, anxiety and even suicidality.

- Can we go so far as to say that a lack of sleep can kill you outright? Actually, yes – on at least two counts:

First, there is a very rare genetic disorder that starts with a progressive insomnia, emerging in midlife. Several months into the disease course, the patient stops sleeping altogether. By this stage, they have started to lose many basic brain and body functions. No drugs that we have now will help the patient sleep. After 12 to 18 months of no sleep, the patient will die. Though exceedingly rare, this disorder asserts that a lack of sleep can kill a human being.

Second is the deadly circumstance of getting behind the wheel of a motor vehicle without having had sufficient sleep. Drowsy driving is the cause of hundreds of thousands of traffic accidents and fatalities each year. And, here, it is not only the life of sleep-deprived individuals that is at risk, but the lives of those around them. Tragically, one person dies in a traffic accident every hour in the world due to a fatigue-related error. It is disquieting to learn that vehicular accidents caused by drowsy driving exceed those caused by alcohol and drugs combined.

Getting enough sleep has numerous benefits for both physical and mental well-being such as:

- Within the brain, sleep enriches a diversity of functions, including our ability to learn, memorize, and make logical decisions and choices.
- Adequate sleep is intimately tied to the fitness of our cardiovascular system, lowering blood pressure, while keeping our hearts in fine condition.

-Sleep recalibrates our emotional brain circuits, allowing us to navigate next-day social and psychological challenges with cool-headed composure.

Downstairs in the body, sleep restocks the armory of our immune system, helping fight malignancy, preventing infection, and warding off all manner of sickness.

Sleep reforms in the body's metabolic state by fine tuning the balance of insulin and circulating glucose

Plentiful sleep maintains a flourishing microbiome within your gut from which we know so much of our nutritional health begins.

Sleep further regulates our appetite, helping to control body weight through healthy food selection rather than rash impulsivity.

All these above-mentioned statements are true for sleep all along.

Some tips to maintain a health sleep pattern:

- Stick to a sleep schedule
- Recommended to have a dark, cool and gadget-free bedroom
- NO lying in the bed awake
- No napping after 3 p. m
- Avoiding medicine that delay or disrupt sleep
- Avoiding large meals, beverages caffeine and nicotine late at

night.

CONCLUSION

The evidence shows that sufficient sleep quantity is necessary to function adequately as any individual in the workplace. My review reveals that lack of sleep can negatively affect people's lives, as well as generate problems, such as an increase in medication and procedural errors. Sleep deprivation can have a profound impact on brain function, mental health, and psychomotor performances. Sleep quality is crucial

for optimal health, mental acuity, and performance; therefore, it is essential that further research be conducted in order to mitigate the impact of sleep deprivation and promote healthful, restful sleep.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matthew Walker, PhD “Why we sleep” SPIE, 10.
2. Gipson, C. S, Genre Analysis: Journal of American College Health fifth edition (2019).
3. Johnson AL, Brown K & Weaver MT. (2010). Sleep deprivation and psychomotor performance among night-shift nurses AAOHN journal,58(4),147-154
4. J. Kana Okano, Jakub R. Kate Neha, Dave, John D. E. Gabrielle & Jeffrey C. Grossman/ (2019). Sleep quality, duration and consistency . NPJ science of learning, 4(1) 1-5.

O‘SIMLIKLAR VA HAYVONOT OLAMINI MUHIFAZA QILISH

Turg‘unova Muhlisaxon Doniyorbekovna

Namangan Davlat pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerdagi hayotni saqlab qolish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va qayta tiklash uchun xalqaro,davlat va mintaqaviy tadbirlar majmuyi sanaladi .Ushbu foliyat insoniyatning hozirgi kuni va kelajak avlod manfaatlari ko‘zlab amalga oshiriladi. Tabiatni muhofaza qilishning asosiy vazifasi o‘smlik olamni va hayvonot dunyosi turlarning xilma - xilligini va genofondini saqlab qolish hisoblanadi.

Kalit soʻzlar: bioxilma - xillik, TMQHI, Qizil kitob, qalin yungli karkidon, kichik poganka, Kamerun qor karkidoni, dront, gigant dinornis.

Аннотация: В данной статье спасение жизни на земле, рациональное использование природных ресурсов. и комплекс международных, государственных и региональных мероприятий по восстановлению. Эта деятельность осуществляется в интересах нынешнего и будущих поколений человечества. Основная задача охраны природы – сохранение разнообразия и генофонда флоры и фауны.

Ключевые слова: биоразнообразие - разнообразие, TMQHI, Красная книга, толсто шёрстный носорог, малая поганка, камерунский снежный носорог, дронт, гигантский динорнис.

Abstract: In this article, saving life on earth, rational use of natural resources and a set of international, state and regional activities for restoration. This activity is carried out in the interests of the present and future generations of humanity. The main task of nature protection is to preserve the diversity and gene pool of the flora and fauna.

Key words: biodiversity - diversity, TMQHI, Red Book, thick-wooled rhinoceros, small poganka, Cameroon snow rhinoceros, dront, giant dinornis.

Yerda tabiat va insoniyatning barqarorligini taʼminlash uchun tabiatdagi mavjud bioxilma -xilikni saqlab qolish zarur. Tabiat, shu jumladan, oʻsimlik olami va hayvonot dunyosini muhofaza qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Mazkur muammoni hal qilish uchun kuchlarni birlashtirish va davlatlararo darajada, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorlikdagi harakati talab etiladi. 1948-yil tashkil etilgan Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro

Ittifoqi va 1961-yil asos solingan Butunjahon yovvoyi tabiat jamgʻarmasi ushbu maqsadga xizmat qiladi. 2001-yildan boshlab, har yili 22-may kuni Xalqaro bioxilma -xilik kuni nishonlanadi. Ushbu bayram nafaqat tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan bioxilma -xilikni saqlashning ahamiyati, balki uning qisqarishi bilan bogʻliq ekalogik muammolarni hal etishni talab etiladi. Tabiatdagi tirik organizmlar va ular tarqalgan muhit, anorganik tarkibiy qismlarining butun majmuyini muhofaza qilish zarur, yaʼni tabiatni muhofaza qilish ishga uygʻunlikda yondashish lozim.

Inson tomonidan hayvon va oʻsimliklarning qirib tashlanishi, ularning yashash joylarini buzib tashlanishi shunga olib keldiki, natijada ularning koʻpchiligi kamyob va muhofazaga muhtoj boʻlib qoldi. TMQHI tashabbusiga koʻra ilk bor 1966-yilda muhofaza qilinishi lozim boʻlgan turlarni oʻz ichiga olgan xalqaro "Qizil kitob" Bashir etildi. Oʻzbekistonning noyob va kamayib borayotgan oʻsimlik va hayvonlari toʻgʻrisidagi dastlabki maʼlumotlar 1979- yil taʼsis etilgan "Qizil kitob"da oʻz aksini topgan. Birinchi marta Oʻzbekiston "Qizil kitob"ning faunaga bagʻishlangan qismi 1983-yil nashirdan chiqadi. Unga umurtqali hayvonlar (baliqlar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar)ning 63 turi kiritilgan edi. "Qizil kitob"- davriy nashr hisoblanadi. Unga kiritiladigan oʻsimlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi taklifi etgan binoan 4 guruhga ajratiladi:

- 1) yoʻqolgan yoki yoʻqolish arafasida turgan (jiddiy muhofaza talab etuvchi) turlar;
- 2) yoʻqolib borayotgan (areli va soni kun sayin kamayib borayotgan, maxsus muhofazaga muhtoj) turlari;
- 3) kamyob, bevosita yoʻqolish xavfi boʻlmasada, kichik maydonlarda kamdan kam uchraydigan turlar;

4) muayyan vaqt davomida soni va tarqalgan maydonlar tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson ta'sirida qisqarib borayotgan (sonni nazorat qilib turish talab qilinadigan) turlar.

XX asrgacha Yer yuzidan yo'qolgan hayvonlar stellerov sigiri, qalin junli karkidon, xaltali bo'ri, sayyor kaptar, dront, gigant dinornis kabilar kiradi. Tirik organizmlar klassifikatsiyasini shakillantirishda olimlar tarixiy taraqqiyot o'simlik va hayvonlarning juda ko'p turlari qirilib ketganligini aniqlangan. Masalan, junli karkidon, inson tomonidan ovlanishi va iqlim o'zgarish natijasida 10 ming yil avval qirilib ketgan.



1 - rasm. Kamerun qora karkidoni. 2- rasm. Kichik poganka

Qachonlardir Afrikaning ko'plab mamlakatlarda kenga tarqalgan Kamerun qora karkidoni ov va brakonerlik oqibatida 2000-yilga kelib qirilib ketish holatiga keldi. 2011- yilga tur yo'q bo'lib ketgan deb e'lon qilingan.

Kichik poganka yoki Madagaskar qizilbo'yin pogankasi kichik poganka oilasiga kiradi. Qushning ovozi so'nggi marta 1988- yili eshitilgan. 2010 yilda esa u rasman qirilib ketgan deb tan olingan.



3- rasim. Pireney echkisi

Oʻrta asrlarda yovvoyi echki Pireney yarimorolida juda koʻp uchragan, biroq ularning populyatsiyasi nazoratsiz ov sababli XIX -XX asrda tezlik bilan qisqargan. XX asrning ikkinchi yarmida bu hududda faqtgina kichik populyatsiya saqlanib qolgan 2000- yilda esa turning soʻnggi vakili oʻlik holda topilgan.



Tulipa uzbekistanica—Oʻzbekiston lolasi



Tulipa dubia—Chipor lola



Tulipa intermedia—Oraliq lola



Tulipa ingens—Ulugʻvor lola

4- rasm

Lola turkumi vakillari Xitoyning g'arbiy qismidan tortib to sharqiy Yevropa hududlarida o'sib, O'rta Osiyo ushbu estetik zavq beruvchi ajoyib o'simliklarning tarqalishi va bioximik -xilik markazi hisoblanadi. Ayni payita O'zbekistonda bolalarning 33 tur mavjudligi aniqlangan "Qizil kitob" ning yangi nashrida muhofazaga olingan o'simlik turilari soni 300 ga boradi. "Qizil kitob" da o'simlikning xar bir turining nomi, qaysi oilaga mansubligi va qisqacha ta'rifi tarqalishi haqida malumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Otaboev Sh. T "Inson va biosfera" T, 1995 y.
2. A.To'xtaev " Ekalogiya" T," O'qituvchi" , 1998 y.
3. A. Xamidov. M. Nabiev va b, "O'zbekiston o'simliklar aniqlagichi" T, "O'qituvchi " T., 1987 y
4. A. Xamidov va b. "Botanika asoslari " T., "O'qituvchi"., 1990 y

RAQAMLI BUXGALTERIYA: MOLIYAVIY HISOBDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Mambetsharipova Gulzada

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali talabasi

E-mail: gulzadamambetsharipova1501@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning buxgalteriya sohasiga ta'siri va ularning afzalliklari haqida so'z boradi. Xususan, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan dasturlar va blokcheyn tizimining buxgalteriya texnologiyalarning keltirishi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham bayon etilgan. Ushbu maqola raqamli texnologiyalarga asoslangan buxgalteriya

tizimlarini joriy etish orqali korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Abstract: This article discusses the impact of modern technologies on the accounting sector and their advantages. In particular, the problems that cloud technologies, automated programs and blockchain systems can cause in accounting technologies and ways to overcome them are also described. This article aims to increase the efficiency of enterprises by introducing accounting systems based on digital technologies.

Kalit so'zlar: Raqamli buxgalteriya, bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan dasturlar, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyasi, kiberxavfsizlik, moliyaviy boshqaruv.

Key words: Digital accounting, cloud technology, automated programs, artificial intelligence, blockchain technology, statutory cyber governance.

Zamonaviy iqtisodiyotda texnologik taraqqiyot buxgalteriya sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli buxgalteriya tizimlarining keng joriy etilishi korxonalar uchun moliyaviy jarayonlarni aniq va samarali boshqarish imkonini bermoqda. Xususan, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish, hujjatlarni elektron shaklda yuritish va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali buxgalteriya xizmati yanada soddalashtirilmoqda.

Raqamli buxgalteriya tizimlari va ularning afzalliklari.
Raqamli buxgalteriya tizimlari an'anaviy hisob yuritish usullariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Ushbu tizimlar quyidagi texnologiyalarga asoslanadi:

Bulutli texnologiyalar — Bu texnologiyalar orqali korxonalarining moliyaviy hujjatlari internetda xavfsiz serverlarda saqlanadi. Masalan,

O'zbekistonda ko'plab kichik va o'rta korxonalar *1C: Buxgalteriya*, *QuickBooks* kabi bulutli tizimlardan keng foydalanmoqda.

Avtomatlashtirilgan dasturlar — Buxgalteriya jarayonlarini tez va aniq yuritishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, maosh hisoblash, soliq hisobotlari yaratish va bank operatsiyalarini avtomatlashtirish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarning oldi olinadi.

Sun'iy intellekt (AI) — AI texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil qilish, xarajatlarni prognoz qilish va firibgarlik holatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Blokcheyn texnologiyasining buxgalteriyadagi o'рни. Blokcheyn texnologiyasi buxgalteriya tizimida shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlash uchun samarali vosita hisoblanadi. O'zbekistonda davlat tashkilotlari tomonidan moliyaviy hujjatlarning shaffofligini oshirish uchun blokcheyn tizimidan foydalanish tajribalari yo'lga qo'yilmoqda.

Raqamli buxgalteriyaning muammolari va ularni bartaraf etish. Texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga ayrim muammolar ham yuzaga chiqmoqda:

Kiberxavfsizlik tahdidlari — Korxonalarning moliyaviy ma'lumotlari kiberhujumlarga uchrashi mumkin. Bu muammoni bartaraf etish uchun korxonalar zamonaviy antivirus tizimlari va xavfsizlik protokollarini joriy etishi muhim. Malakali kadrlar yetishmasligi — Texnologiyalar bilan ishlash uchun buxgalterlarning zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi lozim. Bu muammoni bartaraf etish uchun muntazam o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlarini yo'lga qo'yish muhimdir.

Amaliy misollar va statistik ma'lumotlar. O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy sohalarga, xususan buxgalteriya tizimlariga joriy etilishi so'nggi yillarda sezilarli darajada jadallashdi.

Yirik korxonalarining 60% dan ortig'i buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga o'tgan. Statistik natijalar: raqamli tizimlarga o'tgan korxonalarda, hisob-kitob jarayonlarining tezligi 30-40% gacha oshgani kuzatilgan. Xatolar miqdori esa 15-20% gacha kamaygan. Korxonalarining moliyaviy hisobotlarni taqdim etish va soliq to'lovlarini amalga oshirishdagi aniqligi ortib, jarimalar soni sezilarli kamaygan. Masalan, O'zbekistonda faoliyat yurituvchi yirik ishlab chiqarish kompaniyalari va bank sektorida raqamli buxgalteriya tizimlari joriy etilganidan so'ng, moliyaviy tahlil va prognozlash ishlari ancha osonlashgani kuzatilgan. Ushbu texnologiyalarning keng joriy etilishi korxonalarga nafaqat vaqt tejash, balki moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kelajakdagi istiqbollar va tavsiyalar. Raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan hozirgi davrda buxgalteriya sohasida ham yangi texnologiyalarni joriy etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kelajakda raqamli texnologiyalarning quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda:

1. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning yanada keng qo'llanilishi. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlar hisob-kitob, ma'lumotlar tahlili va xatolarni aniqlash jarayonlarini yanada tez va aniq amalga oshiradi. Bu esa buxgalterlarning jismoniy ish yukini kamaytirib, ularning strategik masalalarga e'tibor qaratishiga imkon beradi. Masalan: AI algoritmlari orqali xarajatlarni optimallashtirish, soliqlarni rejalashtirish va risklarni baholash kabi jarayonlar avtomatlashtiriladi. Ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish dasturlari buxgalterlarga muhim moliyaviy qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

2. Bulutli texnologiyalarning kengayishi. Kelajakda korxonalar hujjatlarni qog'oz shaklida saqlashdan butunlay voz kechib, barcha

buxgalteriya jarayonlarini bulutli tizimlarga ko'chirishga intiladi. Bu ma'lumotlarga istalgan joydan kirish imkoniyatini beradi, korxonalarining ma'lumotlar zaxirasi xavfsizligini ta'minlaydi, jamoaviy ishlash va real vaqt rejimida hisobot tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

3. Blokcheyn texnologiyasining integratsiyasi. Blokcheyn texnologiyasi kelajakda buxgalteriya jarayonlarida ishonchlilik va shaffoflikni yanada oshirishi kutilmoqda. Blokcheyn asosida yuritilgan buxgalteriya tizimlari har bir tranzaksiya tarixini o'zgartirilmaydigan tarzda saqlaydi, bu esa soxta ma'lumotlar kiritilishining oldini oladi.

4. Kiberxavfsizlikka e'tibor kuchayishi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik tahdidlari ham ortib bormoqda. Shuning uchun korxonalar kelajakda ma'lumotlarni shifrlash, ikki faktorli autentifikatsiya va boshqa himoya choralarini joriy etishi muhim bo'ladi.

5. Xodimlar malakasini oshirish. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi buxgalterlardan texnik bilim va raqamli ko'nikmalarni talab qiladi. Shuning uchun korxonalar xodimlarini zamonaviy dasturlar bilan ishlashga o'rgatish, malaka oshirish kurslarini tashkil etish orqali kadrlar bazasini mustahkamlashi zarur.

Tavsiyalar: Korxonalar raqamli texnologiyalarning afzalliklaridan maksimal foydalanish uchun o'z tizimlarini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilishi kerak. Buxgalterlar zamonaviy dasturlardan foydalanishni o'rganish va texnologik yangiliklardan xabardor bo'lish uchun malaka oshirishga muntazam e'tibor qaratishi muhim. Texnologiyalarni joriy etish jarayonida kiberxavfsizlikni ta'minlash choralari kuchaytirilishi shart.

Kelajakda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi buxgalteriya sohasini yanada qulay, tezkor va aniq tizimga aylantirishi

kutilmoqda. Raqobatbardoshlikni saqlash uchun korxonalar ushbu yangiliklarga moslashishi muhimdir.

Xulosa qilib aytganda: raqamli buxgalteriya zamonaviy korxonalar uchun muhim vosita hisoblanadi. Texnologiyalar yordamida moliyaviy jarayonlar tezlashadi, aniq va shaffof hisobotlar tayyorlash imkoniyati yaratiladi. O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida buxgalteriyani rivojlantirish bo‘yicha qabul qilinayotgan dasturlar kelajakda iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi va O‘zbekiston iqtisodiyotida raqamli buxgalteriya tizimlarini joriy etish orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasida hisobdorlik oshadi. Kelajakda bu texnologiyalar buxgalteriyaning rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.H. Ayupov. “Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar”.
2. O.B. Mamatqulov. “Raqamli iqtisodiyot asoslari” — Toshkent, 2022.
3. G‘.N. Jo‘rayev. “Moliya va buxgalteriya hisobi tizimida raqamli texnologiyalar” — Toshkent, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturi (2020-yil 5-iyuldagi PF-6079-sonli farmoni).
5. “Moliyaviy xavfsizlik va zamonaviy texnologiyalar” — Moliyachi gazetasi, 2022.
6. “Sun‘iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy boshqaruvdagi o‘rni” — IT va Texnologiyalar jurnali, 2024.
7. A. Qodirov. “Elektron hisob yuritish texnologiyalari” — Toshkent, 2023.

8. “Raqamli transformatsiya va iqtisodiyot” — Iqtisodiyot va Biznes jurnali, 2023.
9. X. Akbarov. “Moliyaviy texnologiyalarning rivoji” — Toshkent, 2022.
10. “Zamonaviy buxgalteriya tizimlari” — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2023.

FUTBOLCHILARNI MUSOBAQAOLDI MASHG‘ULOTLARI JARAYONLARIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK

Satiyev Shuxrat Komilovich

Namangan davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida katta o‘qituvchisi
E-mail: suhratsatiyev@gmail.com

Komilov Umidjon Shuxratjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sportchilarning hissiy holati va psixologik tayyorgarligini usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Psixologik tayyorgarlik, futbolchilarning hissiy sohasi, irodaviy harakat. sub’ektiv qiyinchiliklar. ob’ektiv qiyinchiliklar.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirish bugungi kunimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib sanaladi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil 3-iyundagi, PQ3031-sonli qarori jumladan, “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” hamda 2018-

yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmonida mamlakatda aholini ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shartsharoitlar yaratish, iqtidorli sportchilarni saralab olish maqsadli tayyorlash ishlarini tizimli tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirish vazifasi yuklatildi. Bu esa O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzulmani yaratish, mamlakatning xalqaro maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozimligini belgilab beradi. Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlashda bolalar va o'smirlar sport maktablarida etishib chiqayotgan yosh sportchilarni psixofiziologik jihatdan tayyorlash, dastlab sport maktablarida bolalarni qabul qilishda psixologik-pedagogik tashxisdan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi asosiy talablardan biri – kadrlar tayyorlashda sifat darajasini yaxshilashdir. Trener-o'qituvchi bu kasbning ma'suliyati juda yuqori bo'lib yosh sportchilarni bolalar-o'smirlar sport maktablariga bolalarni qabul qilinganidan boshlab ularni jismoniy sifatlarini, ahloqiy, ma'naviy fazilatlarini va psixologik jihatdan tayyorlash jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

Psixologik tayyorgarlik bu – pedagogik jarayon bo'lib sportchini ahloqiy-irodaviy sifatini etuk sportchi shaxsi sifatida tarbiyalashga yo'naltirilgan jismoniy sifatini rivojlanishi va irodaviy hususiyati harakterini tarbiyalashga o'zaro bog'liqdir. Iroda xuddi mushakday faqatgina ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarni engib o'tish natijasida harakat faoliyatini namoyon qilish jarayonida rivojlanadi. Bu

qiyinchiliklar murakkab texnik o'yin usullarini zaruriyatdan egallash charchashni engib o'tish, o'zini tuta bilish emotsional holatini boshqarish, murakkab sport yakka kurashishi qiyin sharoitda yuqori ish qobiliyatini saqlashdan iboratdir. Shunday qilib jismoniy yuklama iroda chiziqlarini o'ziga xosligini shakllantirish vositasi hisoblanadi. Irodaviy sifatini o'ziga xosligi shundaki, ular faoliyat ko'rinishida namoyon bo'lib, rivojlanishdan kelib chiqadi. Shu erda sharoitni yaratish zarurki, bunda harakterini kuchli tomonlari rivojlanadi va mustahkamlanadi. U erda bir qarorga kelishlik, jasurlik, o'zini tuta bilishlikni namoyon qilish zarur. Shuni yodda tutish kerakki, bolalarga ta'sir ko'rsatish ostida emotsional qo'zg'alishni tez-tez nazorat qiladi, ayrim vaqtda o'ylamasdan hal etish ko'pincha bu o'yin tayyorgarligini va texnikasini etarli bo'lmasligi natijasida bo'ladi. O'z-o'zini nazorat qilish va tezda fikrlash, tajriba oshirilgan yuklamani bajarish jarayonida amalda orttirilgan bilim bilan o'tadi.

Psixologik tayyorgarlik jarayoni umumiy tayyorgarlikka (asoslovchi tarbiya, muntazam ravishda shug'ullanishga undashga, harakat malakalarini takomillashtirishga, qiyinchiliklarni engib o'tishga) va musobaqalarga tayyorlash, qachonki bir necha musobaqalarda yoki ushbu musobaqada qarshi kurashishga eng yuqori psixologik tayyorgarlikni yaratish bo'yicha ish o'tkaziladi. Sportchilarni mashg'ulot va musobaqalarda irodaviy tayyorlashning psixologik jihatlari.

Sport psixologiyasida motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o'zaro mustahkam bog'langan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan mustaqil uchta turi tushuniladi. Birinchidan, sportchining ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo'ladigan motivlardir. Ikkinchidan, motivlashtirish faollik

nimaga qaratilganligini, nima uchun aynan shunisi tanlanganligini izohlab beradi. Bu sportchi shaxs yo'nalishini tashkil etadi. Uchinchi, motivlashtirish sportchini ahloqi va faoliyatini o'zi boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bu vositalarga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar bilan birga eng asosiysi iroda muhim sanaladi. Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarni engishga qaratilgan ongli tuzilma va sportchini o'z-o'zini boshqarish sifatida eng avvalo o'ziga, o'z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir.

Qat'iylik kabi mustaqillik asosan, irodaviy harakatni nazorat qilishning ichki to'xtab qolishini aniqlaydi. Irodaning mustaqilligi o'jarlikka, tanbeh berishga qarama-qarshi bo'ladi. Irodaviy sifatni baholash kuchli va kuchsiz o'lchov bilan ifodalanmasligi kerak. Irodaning tarbiyalanganligi, agar hal qiluvchi bo'lmasa ham, muhim ahamiyatga ega. Sportchilarni irodaviy sifatlarini tarbiyalash usullari turlicha bo'lishi mumkin, lekin ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi: 1. Irodaviy sifatlarni tarbiyalashni arziyas qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. 2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo'lsa, irodaviy motivlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, sportchi shunchalik katta qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir. 3. Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak. Har gal, qachonki, qaror qabul qilinib, uning bajarilishi yana va yana kechiktirilaversa sportchining irodasi izdan chiqaveradi. 4. Har doim uzoqqa mo'ljallangan maqsadni o'z oldiga qo'yishga odatlanish kerak. Qilayotgan ishini tugatib yana nima bilan shug'ullanish rejasiga ega bo'lish kerak. Irodaviy tayyorlash – sportchini psixologik tayyorlash mazmuniga kiradi va sport trenirovkasining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Iroda sportchining shunday harakatidirki, bu harakat

oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish demakdir. Iroda maqsadga erishishdan qiyinchiliklarni, turli to'siqlarni sportchidan ko'pmi-ozmi talab etuvchi jismoniy va ruhiy ko'chish harakatlarini engishida namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda sportchilarning g'alaba uchun kurashishlarida iroda omillari katta ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali sportchilarda jismoniy texnik, taktik, tayyorgarliklar yuqori darajali bo'ladi. Irodaviy tayyorgarlik mazmunida sportchi shaxsiy irodasining ayrim tomoni sifatida: maqsadga intilish, intizomlilik, ishonch, tashabbuskorlik, mardlik mustaqillik, qat'iyatlilik, matonat, dadillik, o'zini tuta bilish, chidamlilik kiradi.

Yuqorida aytilgan irodaviy sifatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Irodaviy harakat sportchilarda tayyorgarlik jarayonida maqsadga erishishlariga qaratilgan har xil to'siq va qiyinchiliklarni bartaraf qilishni talab qiladigan harakatdir. Sport faoliyatidagi bir-biridan farq qiluvchi ikkita asosiy qiyinchiliklar mavjud: 1. Ob'ektiv; 2. Sub'ektiv qiyinchiliklar. Ob'ektiv qiyinchiliklar: ma'lum sport turi uchun spesifik to'siqlarni engishni shart qilib qo'yadi va bu sportchi ayni sport turini egallay olmaydi. Bu to'siqlar hamma sportchilar uchun bir xildir. Sub'ektiv qiyinchiliklarga asosan sportchidagi ma'lum sport turining xususiyatiga trenirovka shartiga, sport musobaqasiga bo'ladigan sportchining shaxsiy munosabatlari kiradi. Qiyinchiliklarni bartaraf qilish metodikasi, irodaviy sifatlarni tarbiyalashdan iborat bo'ladi: ishontirish, ibrat ko'rsatish metodi orqali. Har xil sharoitda trenerovka va musobaqalar o'tkazish, musobaqa kurashlarida tajribalar to'plash, o'z-o'ziga buyruq berish orqali irodaviy sifatlari shakllanadi. Sportchida irodaviy g'oyaviy sifatlarning yaqqol ko'rinadigan sharoitsport musobaqasidir. Chunki musobaqada sportchining barcha qobiliyati va

sifatlari namoyon bo'ladi. Bu esa sportchini irodaviy g'oyaviy jihatdan tarbiyalash uchun butun bir real imkonidir. Shu asosida trener hamda sportchi shaxsidan o'zi irodasidagi etishmovchiliklarni tuzatish chorlarini belgilay oladi.

Sportchi irodaviy etukligi qator musobaqalarda yutuqlari va ko'pchilik tasdig'i bilan xarakterlanadi. Ma'lumki sportchi sport jarayonida o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yadi. Bu maqsad va vazifalar irodaviy sifatlarni tarbiyalashning sharoitidir. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu maqsad va vazifalar qanchalik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsa, ularni sportchi qanchalik aniqroq anglagan bo'lsa shunchalik yaxshi natija keltira oladi. Masalan: oldingi tajribangizdagi misollardan ma'lumki, ko'pincha sportchilar musobaqa jarayonida qattiq jarohatlansada kurashni davom ettirib rekordlar keltirgan. Bu ulardagi iroda va ijtimoiy g'oyaviylikni qanchalik yuksakligidan dalolatdir. Lekin sport maydonida aksincha holatlar ham uchray turishi mumkin. Masalan: ba'zi sportchilar o'z sportchi shaxsiy ustunligini nazarda tutib musobaqada ishtirok etadilar. Bu esa ko'pincha individualizm, maqtanchoqlik, o'z sportchi shaxsini oshiqcha ko'tarib yuborish kabi salbiy sifatlarni shakllanishiga olib keladi. Demak sport jarayonida ijobiy sifatlarni bilan birgalikda salbiy sifatlarni ham namoyon bo'lib turadi. Salbiy sifatlarning paydo bo'lib turishining asosiy sababi sportchini birinchidan jismoniy, texnikaviy va taktikaviy etuk emasligida bo'lsa, ikkinchi tomondan uning irodaviy va g'oyaviy tomondan etarli tayyorlanmaganligidir. Shu sababli trener sportchining bu ikki muhim tomoniga alohida e'tibor bilan qaramog'i lozim. Musobaqalarda sportchilarning imkoniyatlarini aniqlash va belgilab olishda ularni irodaviy sifatlarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ham psixodiagnostikaning eng zaruriy bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Sportchining start oldidagi psixik holatiga asoslangan holda 25 musobaqadan oldingi prognozlarga ayrim o'zgartirishlar kiritiladi. Musobaqalardan oldingi diagnostika birinchi navbatda boshqaruv vositalarini yoki startoldi emotsional, irodaviy holatlarini o'z-o'zini tartibga solish vositalarini zamonaviy tarzda qo'llay bilish uchun zarurdir. Psixodiagnostika maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi uchun u albatta sport murabbiyiga va sportchiga bag'ishlangan ayrim sport turlari bo'yicha yoki musobaqalar jarayonida qo'llanish uchun tavsiya etilgan psixologikpedagogik tavsiyalarga muvofiq kelishi kerak. Hozirgi zamon jahon sporti uchun xos bo'lgan xususiyatlar sifatida sportchini natijalarga erishishida mashg'ulot va musobaqalardagi qiyinchiliklarga bardosh berish bilan birga irodalarini mustahkamlash, qiyinchiliklardan chiqa olish, o'zini qo'lga olish va xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishni shakllantirish lozim. Sportchining irodaviy hususiyatlari kerakli darajada rivojlanmagan bo'lsa, hatto jismoniy va texnik jihatdan juda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan sportchining imkoniyatlari baland bo'lganda ham musobaqada g'alabaga erisha olmasligi mumkin. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sportchining irodaviy jihatdan psixologik tayyorgarligi xuddi uning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligi kabi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir” mavzusida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Xalq so'zi. 2017 yil
2. D. J Safarova., K. T. Shakirjanova Valeologiya asoslaridan ma'ruzalar to'plami. T. O'zGIFK. 2006. 139 s.

3. M. V. Xalimova Sport psixologiyasi O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon 2006. 48 b. 4. X. B. Tulenova Jismoniy tarbiya va sport psixologiyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T. TDPU 2001.76 b.

5. В.М.Мелников Психология физического воспитания и спорта М.: Физкультура и спорт, 1997.

6. Komilovich S. S. Musobaqaning stressli holati va sportchilarda tayyorgarlik va musobaqadan oldingi ruhiy stressning o‘ziga xos belgilari //scientific aspects and trends in the field of scientific research. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 3-7.

7. Z. G. Gapparov. “Sportivnaya psixologiya”. Uchebnik dlya stud. In-ta Fiz-ry. – Tashkent, OOO “Mehridaryo”, 2009.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANISHIDA JISMONIY MASHQLARNING TA’SIRI VA HUSUSSIYATLARI

Komilov Umidjon Shuxratjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim oluvchilar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy sifatlarni oshirishning eng samarali darajasi bo‘lganlarning intensiv o‘shish davri. Bu vaqtda jismoniy mashqlar yordamida foydalanish sifati va jismoniy tayyorgarligining yaxshilanishiga erishiladi.

Kalit so‘zlar: rivojlantirish, jismoniy sifatlar, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich sinf, intensiv o‘shish, jismoniy mashqlar, xarakatlanish sifatlari, jismoniy tayyorgarlik, bolalar, o‘shish davri

Bola o'z hayotining ikkinchi yilida murakkab ko'rinishni egallaydi — yura boshlaydi, shu yoshning oxirida esa yuguradigan bo'ladi. Hayotning ikkinchi va uchinchi yilida ta'lim va tarbiya ta'sirida tirmashish va uloqtirish kabi harakatlar murakkablashadi hamda sifat jihatdan takomillashib boradi. Bola hayotning uchinchi yilida sakrashlarga tayyorgarlik harakatlari ko'rini boshlaydi, shu yoshning oxirida bolalar oldinga harakat qilib sakraydigan bo'ladilar. Bola 3 yoshga yetganda deyarli barcha asosiy harakatlarni egallaydi va muhimi shundaki, u bu harakatlarni o'zining erkin faoliyatida qo'llay boshlaydi. To'rt – yetti yosh davomida shartli aloqalar mustahkamlanadi va ta'lim jarayonida takomillashadi. Muskullarga beriladigan yuklamalarning oshishi bilan harakat sifatlarning rivojlanishi va jismoniy tayyorgarlik darajasining oshishi juda intensiv kechadi.

Ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi jismoniy rivojlanish bo'y, gavda massasi, bosh aylanasi, ko'krak qafasi kabi asosiy ko'rsatkichlarning tinimsiz o'zgarib turishi bilan xarakterlanadi. Bola hayotining birinchi yilida uning bo'yi taxminan 25 sm ga o'sadi — bu maktabgacha bo'lgan davr uchun uncha katta bo'lmagan raqamdir. Bola 5 yoshga yetganda uning bo'yi avvalgidan ikki baravar o'sadi. Hayotining birinchi yilida bola gavdasining og'irligi uch baravar oshadi (tug'ilgandagi og'irlikka nisbatan), bir yildan so'ng esa uning og'irligi deyarli bir xilda, yiliga 2- 2,5 kg ga orta boradi, 6-7 yoshda esa uning og'irligi bir yoshga to'lgandagidan ikki baravar ortadi.

Jismoniy mashqlarning ijobiy ta'siri faqat bolalar jismoniy rivojlanishida (jismoniy tayyorgarligi sust bolalar sonining kamayishi va o'rta, yuqori tayyorgarligi bolalarining ko'payishi) emas, balki gavda tuzilishining yaxshilanishida ham aks etadi (jismonan garmonik rivojlangan bolalarining ko'payishi). Bolalardagi suyak sistemasi kattalarnikiga qaraganda toqay to'qimaga boy bo'ladi. Shuning uchun ham

bola suyagi yumshoq, qayishqoq, uncha mustahkam bo'lmaydi, tashqi noqulay omillar ta'sirida tez qiyshayadi va noto'g'ri shaklga kirib qoladi (bolaning funktsional va yosh imkoniyatlariga mos bo'lmagan jismoniy mashqlar bo'yicha muvofiq kelmaydigan kiyim, poyabzal, mebel va hokazo). 2-3 yoshdan boshlab suyak to'qimasi plastinkali strukturaga ega bo'la boshlaydi. Skeletning suyakka aylanishi asta-sekin, butun bolalik davri davomida kechadi. Umurtqaning bo'yin, ko'krak va bel qismidagi fiziologik egiklarining shakllanishi maktabgacha davr mobaynida davom etadi (bola boshini tuta boshlaganda, chalqancha yotganda, o'tirganda, yurganda). Bolalar umurtqasi o'zining harakatchanligi bilan farqlanadi, uning fiziologik egiklari beqaror bo'ladi va bola yotgan chog'da tekislanadi. Skeletning yumshoq massasi uning shaklini o'zgartiradigan quyidagi ta'sirlarga beriladi: o'tirgan, turgan, yotganda gavdaning noto'g'ri holati; yumshoq nobop to'shak; bola bo'yi va gavdasi proporsiyasiga nomuvofiq mebel. Noto'g'ri holat tezda odat bo'lib qoladi, qad-qomat buziladi, bu qon aylanish, nafas olish funktsiyasiga salbiy ta'sir etadi; suyaklar noto'g'ri o'sa boshlaydi. Tovon ravoqlarining shakllanishi bola hayotining birinchi yilida boshlanadi, yura boshlashi bilan bu jarayon tezlashib, maktabgacha tarbiya yoshida davom etadi. Shuning uchun mos keladigan poyabzal (poshnali) tanlashga alohida e'tibor berish, mashqlardan tovon ravoqini to'g'ri shakllantirish va mustahkamlash uchun foydalanish zarur.

Skeletning intensiv rivojlanishi muskullar, paylar va bo'g'im-bog'lam apparatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalar bo'g'imlari harakatchanligining kattalarnikiga nisbatan yuqori bo'lishi muskullar, paylar, bo'g'imlarning katta elastikligiga bog'liq bo'ladi. Bo'g'imlarning haddan ortiq harakatchanligi (o'ynoqiligi) raxit alomatlaridan biridir.

Ilk yoshdagi bolaning muskul sistemasi katta kishinikiga nisbatan yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi, katta kishi gavdasining muskul massasi o'rtacha 40-43 % ga teng bo'lsa, bola muskul massasi gavdasiga nisbatan 25 % ni tashkil etadi. Bola xarakatining rivojlanshiga qarab muskul to'qimalarining massasi va qisqarish qobiliyati osha boradi. Muskul kuchining o'sishi ko'pincha jismoniy mashq mashg'ulotlarndagi asta-sekin oshib boradigan jismoniy yuklama bilan belgilanadi.

Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarda bukuvchi muskullar yetarlicha rivojlanmagan va juda zaif bo'ladi, shuning uchun bolalar ko'pincha boshini eggan, yelkalari yiqilgan, bukchaygan, ko'kragi ichkariga botgan kabi noto'g'ri holatlarda o'tiradilar. Bola besh yoshga yetganda muskulatura, xususan, oyoq muskulaturasi massasi oshadi, muskullarning ish qobiliyati ham ortadi. Muskul kuchi ko'rsatkichlari rivojlanishning yosh xususiyatlarini ham, jismoniy mashg'ulotlar ta'sirini ham o'zida aks ettiradi. Qo'l suyagining muskul kuchi 3-4 yoshda 3,5 kg dan 4 kg gacha, 7 yoshda 13-15 kg gacha ko'payadi. 4 yoshdan boshlab o'g'il va qiz bolalar kuch ko'rsatkichlarida farq paydo bo'ladi. Gavda muskul kuchn (gavda kuchi) 7 yoshda 3-4 yoshdagi 15-17 kg dan 2 baravarga -32-34 kg ga ko'payadi. Muskullarning statik holatini muskul tonusi deb atash qabul qilingan. Muskul tonusi markaziy nerv sistemasidan keladigan impulslar hisobiga ta'minlanadi. Bola hayotining dastlabki oyida oyoqlarning bukuvchi muskullar tonusi yozuvchi muskullarnikidan ustun bo'ladi, bu emizikli yoshdagi bolaning xarakterli holatini belgilaydi. Qo'l muskullarsining tonusi odatda 2,5-3 oylik, oyoq muskullari tonusi esa, 3-4 oylik bo'lganda baravarlashadi. Kasallik paytida (raxit, gipotrofiya) bu muddatlar o'zgarishi mumkin. Ilk yoshdagi bolalarda tinch holatdagi muskul tonusi massaj va gimnastika ta'sirida kamayadi.

Maktabgacha yoshda muskul tonusining ahamiyati to'g'ri qad-qomatning shakllanashida katta ahamiyatga ega. Tabiiy «muskul korseti» hosil qnluvchi gavda muskuli tonusi alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Yosh osha borishi bilan orqa va qorin muskullari tonusi tarangligining ortishi kuzatiladi. Bu markaziy nerv sistemasi regulyator funktsiyasining yaxshilanishigina emas, balki jismoniy mashg'ulotlarning ijobiy ta'siri hamdir. Muskul tonusining yaxshilanishiga qarab ayrim gruppaga-gruppaga muskullarining bo'shashish va taranglashish reflektorli regulyatsiyasi takomillashadi, bu gavdani muayyan xolatga keltiradi va bolada qad-qomat hosil bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davomida yurak-tomir va nafas olish sistemalari faoliyatining tejamlilik va samara jihatdan juda yorqin ifodalangan o'zgarishi yuz beradi, shu asnoda bolalarning muskul faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari ortadi. Bola hayotining birinchi yilida uning yurak-tomir sistemasi katta morfologik va funktsional o'zgarishlarga uchraydi. Yurak massasi 3-4 yoshli bolalarda 70,8 g gacha bo'lsa 6-7 yoshlilarda 92,3 g gacha etadi, buning natijasida yurakning qisqarish kuchi va ish qobiliyati kuchayadi. Mashq jarayonida nafas olish sistemasining javob reaksiyasi takomillashadi. Muskulga yuklama tushganda o'pkadagi havo ventilyatsiyasi uning tezlashuvi hisobiga emas, nafas olishning chuqurlashuvi hisobiga bo'ladi. O'pkadagi havo kam ventilyatsiya qilinganda ham shu hajmdagi kislorod yutiladi. Bunda faqat rivojlanishning yosh xususnyatlarigina emas, balki jismoniy mashg'ulotlarda oshiriladigan funktsional imkoniyatlar bilan belgilanadigan quvvat bilan ta'minlovchi asosiy sistemalar yurak-tomir va nafas olishning juda tejalgan faoliyati kuzatiladi. Chunonchi, ish birligining puls «tannarxi» (1 kg/m ishda puls miqdori) 4 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda 2 martaga, chiniqqan bolalarda esa 2,5 martaga kamayadi,

kislorod bilan ta'minlannsh ham shu tartibda 1 kg/m ish uchun 1,5 va 1,8 marta ortadi.

Organizm asosiy sistemasining morfologik va funktsional rivojlanish darajasining oshishi bolalar ish qobiliyatining o'sishini ham ta'minlaydi. To'xtovsiz ishlash qobiliyati 10 minutdan 25-30 minutgacha etadi, bunda umumiy ish hajmi taxminan 2,5 marta, ya'ni 800 kg/m dan 2333 kg/m ga yetadi. Bolalarning nsh qobiliyati 4 dan 7 yoshgacha step-test bo'yicha tekshirganda (zinapoyaga ko'tarilish) deyarli 2 marta oshadi. Bolalarning morfofunktsional rivojlanish xususiyatlarini bilish jismoniy tarbiya vositalaridan bola organizmini takomillashtirish va uning aqliy hamda jismoniy ish qobiliyatini oshirishda juda samarali foydalanish imkonyni beradi.

Rivojlanayotgan organizmning turli bosqichlardagi tashqi ta'sirlarga nisbatan turlicha funktsional tayyorgarlikka ega bo'lishni ham hisobga olish lozim. Jismoniy rivojlanish dinamikasida oraliq yoshlardan farqlanuvchi morfologik va funktsional xususiyatlar yig'indisi bilan xarakterlanadigan ayrim kritik bosqichlar belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. –Farg'ona: 2001y.
2. Mahkamjanov. K. M, Salomov.R.S, Yo'ldoshev.K.K, Abdiyev. A.N. Umumta'lim maktablari kun tartibida jismoniy sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodlari: -Toshkent.
3. Xo'jayev F, Usmonxo'jayev T. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari.1- sinf uchun metodik qo'llanma. -Toshkent: "O'qituvchi" 1996.
4. Ismoilov T.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini harakat faolligini oshirishda xarakatli o'yinlarni ahamiyati. Barkamol avlodni



tarbiyalashda jismoniy tarbiyaning roli. Respublika ilmiy amaliy anjumani. Tezislar to'plami. Buxoro, 2002.

MUNDARIJA

1	Turli xil geometrik shakllar uchun arximed kuchining formulasini isbotlash	
	Xudoyberdiyeva M. K., Turopov M. B.	3
2	Yuqori malaka belbog'li kurashchilarni musobaqa oldi yuklamalarini rejalashtirish	
	Jo'raxanov X. X., Soyibjanov B. Sh.	9
3	Respublikamizning sug'oriladigan mintaqalarida takroriy ekin sifatida soya (<i>glycine hispida</i> l) yetishtirish texnologiyasi	
	Idrisov X. A., Yoqubova F. M.	20
4	Havoning qarshilik kuchi mavjud holat uchun gorizontga burchak ostida otilgan jism harakati	
	Xudoyberdiyeva M. K., Doniyorov N. O.	32
5	Ichburug' amyobasi (<i>entomoeba histolytica</i>) tuzilishi, kasallik belgilari va kasallikka qarshi kurash	
	Jo'rayev M. Sh., Abduvaliyeva S. I.	44
6	Tarbiyada oila, maktab va mahalla orasidagi hamkorlik va xalq pedagogikasining ahamiyati	
	Gapparov B. N., Ibragimov A. M.	56
7	Axborot texnologiyalari bo'limini o'qitish metodikasi	
	Normurodova S. X., Toshturdiyeva F., Asadova Sh. H. .	62
8	Din va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat: zamonaviy pedagogikadagi muammolar	
	Zaynobidinova N. I., Yuldasheva Z.	68
9	Ayrim mexanik sistemalarning tebranish davrini energiya saqlanish qonunidan hisoblash	
	Xudoyberdiyeva M. K., Bo'ronov M. O.	76
10	Talaba yoshlarda empatiya va insoniy munosabatlarni shakllantirish shart-sharoitlari	
	Zokirova Sh. T., Ravshanov S. A.	87
11	Informatika va axborot texnologiyalari fanidan olimpiada masalalari	
	Normurodova S. X., Xudoyqulova D. M.	91

MUNDARIJA

12	Ona tili ta’limda integrativ yondoshuv Xolmurotov I., Muratboeva S.	103
13	Kompleks sonlar nazariyasining hayotga tatbiqi Maqsudova Sh. M., Jo’raboyeva R. S.	111
14	Kompyuter dasturlash tilining aralash pedagogikasi Aymurotov A.K., Maxsetbaeva N.J., Nuratdinov S.P.	117
15	Mosh – inson salomatligi uchun qimmatli oziq-ovqat mahsuloti Rustamova H. R., Idrisov X. A.	124
16	Современные агротехнологии и их влияние на урожайность приусадебных участков в Узбекистане Ходжалепесов П. З., Муратбаева С. Б., Мырзабаева У. К.	128
17	Interfaol ta’lim usullari orqali xalq pedagogikasini o’rganish Gapparov B.N., Gapparova M. B.	136
18	Real gazlar uchun holat tenglamasi Xudoyberdiyeva M. K., Amatboyev T. O.	144
19	Psixologiyaning yangi tarmoqlari va fan rivojidadagi o’rni Ravshanov S. A., Davronova D. I.	155
20	Turkiy til taraqqiyotida navoiy asarlarining amaliy ahamiyati: “lison-ut tayr” dostoni tahlili talqinida Abdullayeva B. R.	160
21	Антиутопия как предчувствие: чего боялись писатели и что сбылось? Хужанова О. Т., Латифов Б. Ш.	166
22	Axborot tizimiga ruxsatsiz kirishdan himoyalanih Nasirov B. M., Urazniyazova N. A.	172
23	Kimyo fanining uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish Axmadjonova Y. T.	177
24	Ta’lim tizimida xalq pedagogikasining roli va zamonaviy pedagogik g’oyalar Gapparov B. N., Bozorboyev J. U.	182

MUNDARIJA

25	Identifikatsiya texnologiyalari Nasirov B. M.	188
26	Dars jarayonida noan’anaviy usullardan foydalanish Jamalov N. Y., Yesboganova M. M.	198
27	Bilingualism: theoretical foundations, types, impacts, and future prospects Matkarimova D. A.	205
28	Zamonaviy kimyo: yutuqlari va kamchiliklari Abdullayev N. J., Xayrullayev M. M.	209
29	“Zamonaviy falsafa: tafakkur, insoniyat va texnologiyalar o’rtasidagi munosabat” Jamalov N. Y.	216
30	Kompyuter grafikasi orqali talabalarni kompetensiyasini rivojlantirishda amaliy mashg’ulotlar va zamonaviy texnologiyalarning o’rni Ko’kiyev J. Sh.	226
31	Tilshunoslikda interferensiya hodisasi o’rganilish tarixiga bir nazar Satimboyeva O. A.	233
32	Jamiyat taraqqiyotida o’qituvchining o’rni va axloqiy sifatlarining ahamiyati Gapparov B. N., Narzullayev D. Y.	242
33	Tarjima nazariyasini metodik shakllanishida olimlarning qo’shgan hissasi Boltaboyeva M. B., Azimov S. M.	249
34	Shayboniylar davrida madaniy hayot Ataxonov B. T., Tojimirzayeva A. A.	255
35	Maktabgacha ta’limda bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xalq amaliy san’atining ahamiyati Abdusamatova N. J., Yuldashaliyeva A. A.	261
36	Oila va tarbiya haqidagi sharqiy mutafakkirlar ma’naviy o’rganishlari Gapparov B. N., Otaxonov B. B.	268

MUNDARIJA

37	O‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishda internetdan foydalanish Normurodova S. X., Xalilov B., Asadova Sh. H.	275
38	Xizmat ko‘rsatish sohasida sifatni oshirishda innovatsiyalarning o‘rni Zarikeyeva M. M.	286
39	“Ravshan” dostonidagi badiiy obrazlarni didaktik tahlil asosida o‘rgatishning interfaol metodlari Qosimova Y. J.	291
40	“Qutadg‘u bilig” asarida rahbar amal qilishi kerak bo‘ladigan fazilatlar Abdullayeva M. B.	297
41	Interaktiv darslar orqali bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini oshirish Abdurahmonova D. U.	303
42	Farzandlar tarbiyasiga oiladagi salbiy munosabatlarning psixologik-pedagogik ta’siri Orifov A. S., Ortiqboyeva M. H.	310
43	Abdurauf fitratning “oila” asarida oila qurish tartiblari va oila idorasi to‘g‘risida Alibekova H. S.	319
44	Farg‘ona vodiysi kulolchilik maktablarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va targ‘ib qilish Aliyeva M. J.	327
45	Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar faoliyatiga integratsion yondashuv asosida bilish kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi Abdullajanova S. G‘.	334
46	Aniq fanlarini o‘qitishda ta’lim integratsiyasi va innovatsiyasi Ahmadjonova U. T.	340
47	Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limni tashkil etish va uning ijtimoiy psixologik hususiyatlari Hakimova N. B., Axmadova B. S.	347

MUNDARIJA

48	Raqamli texnologiya asosida avtomobillarda metan gaz bosimini o'lchash qilish qurilmasining metodologik xarakteristikalarini takomillashtirish va sifatni yaxshilash	
	Qodirova G. A.	359
49	The problems and difficulties of literary translation	
	Raimboyeva O'. D.	368
50	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “metodik mahorat kuni” va “metodik mahorat soati” ni tashkil etish texnologiyalari	
	Sobirova N. T.	379
51	Tarix fanini o'qitishda tarixiy manba va badiiy adabiyotlardan foydalanish	
	Jo'rayeva Z. J.	391
52	“Gargantuya va pantagruyel” va “go'ro'g'lining tug'ilishi” asarlarida motiv va obrazlar qiyosi	
	Sindarova D. S.	400
53	Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni.	
	Xudaykulova D. Z., Turdimurodova M. S.	405
54	Methods (related to integration of literature) used by efl teachers in the classroom	
	Zuhriddinova M. Z.	417
55	Abu rayhon beruniyning psixologik qarashlari va bugungi kunda ahamiyati	
	G'aniyeva U. F.	428
56	Yoshlarni orasida uchraydigan konfliktlar va ularning kelib chiqish sabablari, yechimlari	
	Ravshanov S. A., Islomova T. A.	434
57	Jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan bolalar o'yinchoqlarini tanlashga didaktik va gigiyenik talablar integratsiyalashuvi	
	Maxmudova M. M.	441
58	Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga chet tillarini o'rgatishda innovatsion usullardan foydalanish	
	Aminova M. J.	450

MUNDARIJA

59	Li myon bakning “mo’jiza sodir bo’lmaydi” asaridagi bosh qahramonning g’alabasi Norbadalova K. I.	455
60	Mamlakatimiz tarixi va ilmiy manbalarida yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan munosabatlar G’aniyeva U. F.	459
61	Yoshlarda ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish texnologiyasi Sunnatova S.	468
62	Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimi tajribalarini o’rganish va qo’llash Ostanaqulov X. M., Jaksimuratov A. B.	473
63	Ignabargli o’simliklarning (archaning) mevasidan fitonsitlarning olinishi va fitonsitlarning amaliy ahamiyati Rahmatova N. I.	487
64	Sotsiolingvistikaning umumiy masalalari Yusufjonova X. D.	491
65	“Dual ta’lim barqarorlik va kelajakka ishonch imkoniyatidir” Tursunbayeva S. A.	495
66	Chekish epidemiyasining yosh avlodga ta’siri hamda unga qarshi kurash choralari Rustamjonova N.	500
67	Maktabga tayyorlov guruhi bolalari tasviriy faoliyati va tasviriy vositalarining xususiyatlari Abdusattorova D. A.	509
68	Besh asosiy tashabbus – kelajak uchun mustahkam poydevor Alieva A. B.	519
69	Amir shohmurod davrida buxoro Muhammadiyev B. I.	529
70	Tasviriy san’atda rang va emotsionallik: ranglarning psixologik ta’siri Ashurmatova N. S.	534
71	Birinchi muallim – orzular ro’yobi uchun kalit Yo’ldosheva U. X.	542

MUNDARIJA

72	Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonida muzey pedagogikadan foydalanish Nabijanova D. A.	546
73	Maktab bitiruvchilarini kasbga yo’naltirishdagi muammolar Mahmudova D. A.	554
74	Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyaning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi Sobirova D. M.	561
75	Tog’ay murodning “otamdan qolgan dalalar” asarida qo’llangan ibora, etnografizmlar va milliy urf odatlar Shodiyeva Sh. J.	570
76	Pedagoglar uchun it ko’nikmalarni rivojlantirishning dolzarbligi va usullari Ostanaqulov X. M., Jaksimuratov A. B.	576
77	Tut ipak qurti va kapalagining iqtisodiyotdagi ahamiyati. Qishloq xo’jaligida ularni qo’llashdagi muammola va yechimlari Axmedov A. T., G’ulomjonova N. I.	589
78	Parrandachilik xo’jaliklari faoliyatini tashkil etishning nazariy uslubiy asoslari Allaniyazov P. A.	602
79	Halqalar va maydon nazariyasi- algebraik tuzilmalarning matematik ahamiyati Azimjonova D. A.	613
80	Ingliz tilining ahamiyati va imkoniyatlari Abdurashidova H. H.	624
81	Maktabgacha yoshdagi bolalarda intellektual-anglash malakalarini rivojlantirish muammosining dolzarbligi Axmatxanova S. F.	631
82	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ong shakllanish jarayoni va ijtimoiy psixologik hususiyatlari Botiraliyeva R. N.	638

MUNDARIJA

83	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kitob bilan ishlash malakalarini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.	
	Mamadaminova D. D.	647
84	Atoqli otlarni tarjima qilish jarayonida yuz beradigan grammatik xatolar	
	Boltabayeva M. B., Abdumutalipova Sh. H.	659
85	Riddles in english and uzbek	
	Muminov X. N.	663
86	Zamonaviy pedagogning odob axloq qoidalari	
	Mirzaxmedova M. A.	671
87	The influence of classroom environment on teenagers’ learning experiences	
	Azimova M. M.	675
88	Gormonlar va ularning retseptorlari o’rtasidagi o’zaro ta’sir: biokimyoviy mexanizmlar va signal uzatish yo’llari	
	Najmiddinova N. Z., Abdutolibov M. Z.	683
89	Boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslari orqali o’quvchilarning kritik kompetensiyasini rivojlantirish	
	Jo’rayeva T. U., Turdaliyeva N. G’.	700
90	Xoja bahouddin naqshband: hayoti va tariqati	
	Kamolov Sh. B.	707
91	Boshlang’ich sinflarda matematika fanini o’qitishda sun’iy intellekt elementlaridan foydalanishdagi mavjud ilovalar tahlili	
	Xo’jamqulov R. H.	718
92	Shayboniylar sulolasi vakillarining davlat boshqaruvi faoliyatidagi asosiy jihatlar	
	Ibrohimova D. B.	724
93	Tabiiy fanlarni chet tilida (ingliz tili) o’qitish metodikalari	
	Xayrullayev M. M., Abduvaxobova M. S.	732
94	Implementing total physical response (tpr) in primary school classes	
	Erkinova R., Narzullayeva G.	739

MUNDARIJA

95	Alisher navoiy adabiy merosi Ismoilova F.	747
96	Matematika fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish Ibrohimjonova M. J.	750
97	Jadidchilik ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati Hamrayev E. T.	759
98	Musiqqa fanining inson hayotidagi o‘rni va ta’siri Po‘latjonova I. N.	765
99	Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish Sotiboldiyeva M. N.	770
100	Mirzo ulug‘bek hayoti va ilmiy-ma’rifiy merosi Yo‘ldosheva U. X.	773
101	Amudaryoda tarqalgan baliq turlari va ularni muhofaza qilish bo‘yicha chora -tadbirlar. Solijonova M. S.	780
102	Bugungi kun pedagoglariga qo‘yiladigan zamonaviy talablar Tursunpo‘latova F. O.	785
103	Dutor cholg‘u asbobning kelib chiqish tarixi, turlari va takomillashtirish ishlari Axmedova E. A.	790
104	Andijon viloyati baliqchi tumani tarixi G‘ofurjonova Sh. A.	797
105	Inson eshitish qobiliyatini o‘rganish metodlari Ergasheva O. S.	805
106	Funksional qatorni hadlab integrallash va differensiallashdan foydalanib ba’zi bir sonli qatorlar yig‘indisini topish metodlari Jo‘raxonov A. H.	809

MUNDARIJA

107	Kompleks sonlar nazariyasining hayotga tatbiqi Jo‘raboyeva R. S.	819
108	Abdulhamid sulaymon o‘g‘li cho‘lpon hikoyalarining poetik xususiyatlari Jo‘rayeva B. A.	825
109	Dam olish va bezovtalik: uyqusizlik ta’sirlarini va yaxshi uyqu nazimlarini o‘rganish Mansurova M.	830
110	O‘simliklar va hayvonot olamini muhifaza qilish Turg‘unova M. D.	834
111	Raqamli buxgalteriya: moliyaviy hisobda zamonaviy texnologiyalarning roli Mambetsharipova G.	839
112	Futbolchilarni musobaqaoldi mashg‘ulotlari jarayonlarida psixologik tayyorgarlik Satiyev Sh. K., Komilov U. Sh.	845
113	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanishida jismoniy mashqlarning ta’siri va hususiyatlari Komilov U. Sh.	852

“Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlari” ilmiy-uslubiy jurnali NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2025-yildagi 11-martdagi 3-sonli kengaytirilgan yig‘ilishida muhokama qilinib, ilmiy to‘plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 3). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Texnik muharrir: D. Maxkamov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136,

Faks: (0369) 227-27-21,

E-mail: Info@namspi.uz

“Iqtidorli talabalar ilmiy xabarlari” ilmiy-uslubiy jurnalining 2025-yil 1-soni 869 sahifadan iborat bo‘lib, 113 ta ilmiy maqoladan tashkil topgan. Jurnalning elektron holatini har qanday tartibda o‘zgartirish yoki soxtalashtirishga uringan subyekt shaxsan javobgar hisoblanadi.

Namangan davlat pedagogika instituti – 2025